**NATIJARLAR.** Tafakkur shakli sifatidagi hukmning asosiy informativ vazifasi predmetlar va ularning belgilari o'rtasidagi aloqalarni tasdiqlash yoki inkor etish shaklida namoyon qilishdan iborat. Hukm asosiy axborotdan tashqari unda ifodalangan aloqalarning tiplari va xususiyatlari haqidagi qo'shimcha axborotlarni ham qamrab oladi. Bir holatda bunday axborot bir hukmning boshqa hukmga bog'liqligidan darak beradi; ikkinchi holatda unda ifodalangan bilimning asoslanganlik darajasini ko'rsatadi; uchinchi, hodisalar o'rtasidagi zamon, makon va boshqa munosabatlarga ishora qiladi va to'rtinchidan, axborot hukmda ko'rsatilgan aloqalarni baholaydi va h.k. Bu kabi qo'shimcha axborotlar modallik deb ataladi va bunday axborotlarni o'zida qamrab olgan hukm modal hukm deyiladi [4; 96].

Demak, mantiqiy jihatdan hukmning modalligi – hukmda aniq yoki noaniq ravishda ifodalangan hukmning asoslanganlik xarakteri haqida yoki predmetlar va ularning belgilari o'rtasidagi obyektiv aloqalarini ko'rsatib beruvchi subyekt va predikat o'rtasidagi aloqadorlik tipi haqida ma'lumot beruvchi qo'shimcha axborotdir. Boshqacha aytganda, modallik hukmda ifodalangan qo'shimcha axborotdir. Shu jihatdan gapning

semantik strukturasi uning obyektiv va subyektiv qatlamlarini aks ettiruvchi diktum va modus qismlariga ajratish mantiqiy zarurat hisoblanadi. Gap qurilishiga bunday yondashuv uning mazmuniy strukturasi to'laqonli ochib berish imkonini beradi.

Odatda, gapdan anglashilgan obyektiv mazmun uchun diktum, uning subyektiv mazmuni uchun esa modus qo'llanilib, ular o'zaro zid qo'yiladi. O'zaro ziddiyatli munosabatda bo'lgan bu strukturalar o'zaro shartlangan bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. Chunki gap mazmunining subyektiv elementi uning obyektiv elementi ustiga qo'yiladi, ya'ni obyektiv mazmun bazis, subyektivlik esa uning ustqurmasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so'zlovchining gap mazmuniga bo'lgan munosabati tushuniladi [5;56]. Shunga ko'ra, mazmuniy sintaksisda gapda ifodalangan mazmunning reallikka bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi obyektiv modallik hamda "subyekt", "gap mazmuni" va "obyekt" birligini aks ettiruvchi subyektiv modallik farqlanadi [6; 83-85].

Obyektiv modallik har qanday jumlaning zaruriy elementi hisoblanib, u bilish akti yo'nalgan u yoki bu vaziyatda mavjud bo'ladigan obyektiv aloqalarning xarakterini namoyon etadi. G.A.Zolotova modallikning bunday tipini predikativ modallik deb baholaydi. Uning qayd etishicha, "predikativ modallik jumla mazmunining borliq bilan munosabatini ifodalasa, modallikning subyektiv deb ataluvchi boshqa turi so'zlovchining aytilayotgan axborotga nisbatan munosabatini ifodalaydi: so'zlovchi o'zi bildirayotgan fikrni tasdiqlashi yoki kirish modal so'zlar va boshqa vositalar yordamida ushbu ma'lumotning voqelik bilan mos kelish-kelmasligiga javobgarligini pasaytirishi mumkin. Bunday modallik predikativ modallikka nisbatan ikkilamchi modal qavat hisoblanadi"[2]. Bundan tashqari G.A.Zolotova modallikning xohish-istak, zarurat, mumkinlik kabi modal ma'nolarni qamrab oluvchi uchinchi turini – irreal modallikni ham ajratgani holda, bu ma'nolar jumlaning voqelikka munosabati bilan mos tushmaydigan boshqa modallik planiga tegishli ekanligini ta'kidlaydi.

Tilning modal strukturasi va modusning ifodalanishi xususida fikr yuritar ekan, Z.Yigitaliyeva ham modallikning obyektiv va subyektiv turlarini e'tirof etib, N.A.Seleznyovanning fikrlariga qo'shilgan holda, subyektiv modallik, ya'ni "modus modallik ifodalay olmaydigan nutq subyektivining propozitsiyaga nisbatan turli ko'rinishdagi munosabatini yuzaga chiqarishini" [3;14] ta'kidlaydi. Tadqiqotchi aloqa-aralashuv

jarayonida belgi va predmet o'rtasidagi bog'liqlik darajasi yanada ortishi va bunda belgi nafaqat predmetga, balki kommunikativ vaziyatga ham yo'naltirilgan bo'lishi mumkinligi haqida fikr yuritib, bu jarayonda borliqdagi narsa, predmet va hodisalarga taalluqli bo'lgan tafakkurdagi tasavvurlar turlicha assotsiatsiyalanishi, biroq borliq elementlari ongda denotatga xos xususiyatlari bilan saqlangani holda, ular muallifning munosabatlari asosida turlicha guruhlanishini va bular lisoniy vositalar yordamida voqelanib, yaxshi, yomon, neytral parametrlari bilan muallifning munosabatini ifodalashga xizmat qilishini qayd etadi.

Darhaqiqat, Z.Yigitaliyeva ta'kidlaganidek, "tasavvurda axborotning filtrlanishi propozitsiyada modal strukturani shakllantiradi. Ko'rinadiki, tilning modal tarkibi baho kategoriyasi bosqichiga o'tganida tasavvur bilan bog'lanib, diktum tarkibidagi munosabatga asoslangan modusni namoyon qiladi"[3;14].

"O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" mualliflari ham gapning modal aspekti xususida fikr yuritar ekanlar, modallikning gap strukturasi zaruriy uzvi ekanligini ta'kidlagan holda, uning "gapni shakllantirishdagi o'rni va subyektning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab, ikki guruhga – obyektiv va subyektiv modallikka bo'linishini"[6;89] e'tirof etadilar. Ularning qayd etishlaricha, "obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. Shuning uchun ham u gapning asosiy uzvi emas"[6;89]. Shu bilan birga, modallik ma'nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatilib, universallik kasb etishi va shunga asosan modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barang bo'lishi ta'kidlanadi. Modallikning turkiy tillar materiallari asosidagi tahliliga ko'ra "quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo'shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so'z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so'roq olmoshlari, undalmalar, kirish so'z va gaplar"[6;81]. Ushbu vositalar o'z funksiyalarini gap tarkibida bajargani bois, ularning sintaktik belgisi muayyan sinflarga birlashishi uchun asos bo'ladi va sintaktik belgisiga ko'ra modallikni ifodalovchi vositalar 1)konstruktiv-sintaktik; 2)morfologik-sintaktik; 3)intonatsion-sintaktik kabi sinflarga ajratiladi [6; 82].

Tilshunoslikda modallik kategoriyasi xususida fikr yuritar ekan, K.Umarov ham obyektiv voqelik so'zlovchi tomonidan baholash tarzida qabul qilinishini ta'kidlagan holda, bu voqelikni o'z ongida aks ettirib, unga bo'lgan munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida voqelantirishini bayon qiladi. Uning qayd

etishicha, "Jumladagi modallik kategoriyasini anglash uchun propozitsiya, diktum va modus tushunchalarini farqlash zarur bo'ladi. Propozitsiya – obyektiv holatni aks ettiruvchi o'zgarmas ma'no. Muayyan jumlada propozitsiya so'zlovchi tomonidan u yoki bu tarzda talqin qilinadi. Natijada, ifoda ikki tomonlama mazmunga ega bo'ladi: obyektiv mazmun va uning talqini"[8]. Demak, gap orqali ifoda etilayotgan obyektiv voqelikning – propozitsiya yoki diktumning so'zlovchi shaxs, ya'ni subyekt tomonidan talqin qilinishi modusni hosil qiladi.

**XULOSA.** Yuqorida keltirilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, lisoniy tushuncha sifatida modallik – bu so'zlovchining berilayotgan ma'lumotga (axborotga) munosabati bo'lib, gap mazmuniy strukturasi zaruratiga ko'ra ikki turga: grammatik nuqtayi nazardan predikativlik elementi hisoblanuvchi obyektiv modallik va gapning pragmatik aspektiga daxldor bo'lib, uning mazmuniy mundarijasi uchun nomuhim bo'lgan subyektiv modallik, ya'ni modusga bo'linadi. Demak, har bir gapda muayyan voqea-hodisa haqida axborot ifodalanibgina qolmay, so'zlovchining ana shu xabarga munosabati ham ifodalanadi. Shunga ko'ra jumla mazmuni ikki qismga ajratiladi. Jumlaning xabar haqidagi asosiy mazmunni tashuvchi qismi diktum (modallik diktumning tarkibiy elementi sifatida qaraladi), so'zlovchining munosabati ifodalangan qismi esa modus hisoblanib, ta'kidlab o'tilganidek, ular bir-birini to'ldiradi.

Y.S.Yarigina ham modallik va modus xususida fikr yuritar ekan, modus orqali insonning – so'zlovchining mental holatini belgilashni, modallik orqali esa lisoniy birliklarning shunga mos bo'yog'ini belgilash lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, modus va modallik tushunchalari bir-birini takrorlamagan holda parallel ravishda qo'llaniladi. Modallikning ko'lami fe'ning mayl kategoriyasi bilan, ya'ni grammatika bilan, modus ko'lami esa tilning deyktik yoki egosentrik elementlari bilan, ya'ni pragmatika bilan belgilanadi [9]. Demak, modusning semantik doirada amal qilish ko'lami modallikka nisbatan kengroqdir.

Modallik va modus gap mazmuniy tuzilishining elementlari ekan, ular sodda gaplar uchun ham, qo'shma gaplar uchun ham xosdir. Ishimizning mohiyatidan kelib chiqib, qo'shma gaplarda modusning ifodalanishi hamda uning diktum bilan munosabati xususida fikr yuritiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Айтбаев Д.Т. Тіл біліміндегі модус және диктум. Алтаистика және түркология. Қозоғистон. Астана. №3. 2011. 24-26-бет.
2. Золотова Г.А. Модальность в системе предикативных категорий.  
<https://digilib2.phil.muni.cz/flysystem/>

<fedora/pdf/120833.pdf> – С. 96. (murojaat sanasi 29.10.2024.)

3. Йигиталиева З.М. Тилнинг модал структураси ва модуснинг ифодаланиши. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... (PhD). автореф. – Фарғона, 2021. – Б.14.

4. Кириллов В.И., Старченко А.А. Логика. – М.: Высшая школа, 1982. – С. 96.

5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 56.

6. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992. – Б. 83-85.

7. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Наука, 1936. – С.105.

8. Умаров К. Хоҳиш-истак концепти – модаллик категорияси талқинида. // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 |Issue7 | 2022. [https://ares.uz/storage/app/uploads/public/62e/3c3/bcb/62e3c3bcbcaf40467161\\_29.pdf](https://ares.uz/storage/app/uploads/public/62e/3c3/bcb/62e3c3bcbcaf40467161_29.pdf) (murojaat sanasi: 31.10.2024).Ф

9. Ярыгина Е.С. Модус и модальность – терминологические синонимы?// <https://cyberleninka.ru/article/n/modus-i-modalnost-terminologicheskie-sinonimy/viewer>. (murojaat sanasi: 30.10.2024).





## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ПОВЫШЕНИИ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ

*Бердиева Хурида Каримовна, доцент кафедры  
«Физическое воспитание и спортивные игры», (PhD)  
Дусуяров Турабой Бекназарович, преподаватель кафедры  
«Менеджмент спорта» Термезского государственного  
университета*

## BOLALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

*Berdieva Xurshida Karimovna, “Jismoniy tarbiya va sport  
o‘yinlari” kafedrasida dotsenti, (PhD)  
Dusuyarov Turaboy Beknazarovich, Termiz davlat universiteti  
“Sport menejmenti” kafedrasida o‘qituvchisi*

## ROLE AND IMPORTANCE OF OUTDOOR GAMES IN INCREASING PHYSICAL ACTIVITY OF CHILDREN

*Berdieva Khurshida Karimovna, Associate Professor of the  
Department of Physical Education and Sports Games, (PhD)  
Dusuyarov Turaboy Beknazarovich, Teacher of the Department  
of Sports Management, Termez State University*

**Аннотация:** В данной статье акцентируется внимание на том, что включение подвижных игр в образовательный процесс детей раннего возраста помогает с высокой эффективностью решать ряд специальных задач, а также повышать их интерес к спортивной деятельности. Использование подвижных игр как метода и упражнения в процессе обучения с раннего возраста дает высокие результаты, а также играет важную роль в повышении их двигательной активности.

**Ключевые слова:** упражнения с мячом, физическое и духовное совершенствование, двигательная активность, подвижные игры, детей раннего возраста, элементы гимнастики и акробатика, суммарной пульс в процессе игр, бег, прыжки.

**Annotatsiya:** Yosh bolalarning ta’lim jarayoniga ochiq havoda o‘yinlarning kiritilishi bir qator maxsus muammolarni yuqori samaradorlik bilan hal qilishga yordam beradi, shuningdek, sport mashg‘ulotlariga qiziqishini oshiradi. Ochiq havodagi o‘yinlarni yoshlikdan o‘quv jarayonida metod va mashq sifatida qo‘llash yaxshi samara beradi hamda ularning harakat faolligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar:** to‘p bilan mashqlar, jismoniy va ma’naviy yuksalish, harakat faolligi, ochiq o‘yinlar, yosh bolalar, gimnastika va akrobatika elementlari, o‘yinlar, yugurish, sakrash paytida yurakning umumiy tezligi.

**Abstract:** This article focuses on the fact that the inclusion of active games in the educational process of young children helps to solve a number of special problems with high efficiency, as well as increase their



<https://orcid.org/0000-0003-09514-0813>

e-mail:

[turabojdusterov@gmail.com](mailto:turabojdusterov@gmail.com)



e-mail:

[hursidakarimovna@gmail.com](mailto:hursidakarimovna@gmail.com)

*interest in sports activities. The use of active games as a method and exercise in the learning process from an early age gives high results, and also plays an important role in increasing their motor activity.*

**Key words:** *exercises with a ball, physical and spiritual development, motor activity, outdoor games, young children, gymnastics and acrobatics elements, total pulse during games, running, jumping.*

**ВВЕДЕНИЕ.** Одной из важнейших закономерностей формирования физического совершенства выступает необходимость реализации этого процесса с рождения человека и продолжения на всех остальных этапах его жизнедеятельности. При этом одним из наиболее ответственных и по существу решающих этапов физического совершенствования человека является детский возраст, на который приходится пик его двигательной активности, высокие возможности влиять в неразрывной взаимосвязи и единстве на физическое и духовное совершенствование. На шестом году жизни у детей наступает период интенсивного формирования двигательных навыков. Для этого имеются известные предпосылки: заметно изменяются пропорции тела, что создает устойчивость позы, совершенствуется чувство равновесия, улучшается координация движений на основе совершенствования функций нервной системы и приобретенного опыта, увеличивается сила мышц.

Деятельность детей основана разнообразной двигательной активности (бег, прыжки, элементы акробатики) и требуют от человека разностороннего развития двигательных способностей: скоростных, скоростно-силовых, координационных выносливости [1].

Физическое совершенство как один из существенных аспектов всестороннего развития человека представляет собой исторически сложившийся оптимальный уровень здоровья и физических способностей людей, соответствующий требованиям человеческой жизнедеятельности в ее различных формах проявления как в сфере личностного, так и общественного бытия и обеспечивающий на долгие годы высокую активность и работоспособность человека. При этом физическое совершенство может быть подлинным лишь в контексте высокого духовного облика данной личности при условии органического единства физических и духовных сил, сочетания физического и духовно-нравственного совершенства. Физическое совершенство – это оптимальная мера общей физической подготовленности, согласующая с закономер-

ностями всестороннего развития личности и долголетнего сохранения крепкого здоровья [2].

Конкретные признаки и показатели физического совершенства определяется реальными запросами общества на каждом историческом этапе и поэтому меняются по мере его развития. Все вышеуказанное обуславливает необходимость уточнения основных параметров понятия «физическое совершенство» в контексте условий Республики Узбекистан с учетом ее исторических особенностей, климатической ситуации, экологической обстановки, национальных и культурных традиций, а также возраста самого человека [3,4,5].

**ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ.** Физическое совершенство как цель воспитания подрастающего поколения в этом случае определяется следующими компонентами: нормальным физическим развитием, оптимальным проявлением основных физических качеств и двигательных способностей, функциональной приспособленностью к местам климатическим и экологическим условиям, нравственно-эстетическим воспитанием с учетом национальных традиций и культуры, достаточным здоровьем, обеспечивающим высокую работоспособность в регионе.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.** Установлено, что двигательная активность была и остаётся необходимым условием развития, нормального функционирования и самого существования человеческого организма. Исключая двигательную активность или значительно ограничивая её, мы подвергаем опасности жизнь и здоровье самого человека, ибо это неизбежно обернётся для его организма самыми неблагоприятными, подчас непредсказуемыми последствиями, особенно если не обеспечить должный уровень двигательной активности ещё в детском возрасте.

На протяжении почти 2 года нами проводилась систематическая работа по сбору по специально-методическому анализу и обобщению игр, состязаний и отдельных видов спорта, бытующих на территории Узбекистана. Это позволило дать развёрнутую характеристику

этим видам двигательной деятельности с точки зрения их влияния на физические качества и некоторые интеллектуальные способности[10].

### **РЕЗУЛЬТАТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ.**

Результаты наших исследований показывают, что с детьми 7-10-12 лет наибольшую эффективность с точки зрения устойчивого интереса и высокой двигательной активности обеспечивают сюжетные подвижные игры. Популярность их обусловлено прежде всего тем, что они близки к ролевой игре, которая занимает одно из главных мест в деятельности детей дошкольного, младшего школьного возраста. Выбранный образ в сюжетных подвижных играх захватывает детей и заставляет их подолгу следовать ему.

Нами разработана классификация подвижных игр широко применяемых в процессе физического воспитания. В основу этой систематизации следующие критерии:

- суммарный пульс в процессе одиночной игры;
- частота сердечных сокращений;
- суммарное число движений, в том числе беговых;
- степень утомляемости учащихся в процессе игры;
- интерес занимающихся к знакомым, мало знакомым и новым играм, выполнению игрового упражнения.

Сумма пульса за 10 минут работы сердца составляет в среднем 1780 ударов. Во вторую группу включены игры, в которые дети играют с интересом и высокой активностью, увлечённость в выполнении игровых ситуаций у детей быстро падает, а двигательная активность снижается. Длительность таких игр составляет в среднем 7-8 минут, двигательная активность за время их выполнения составляет 500-800 локомоторных единиц, из которых 50% приходится на беговые движения. Частота сердечных сокращений при окончании данных игровых средств составляет в среднем 160 ударов в минуту, а сумма пульса за 10 минут – 1560 ударов в минуту.

Выборочная пальпоторная регистрация ЧСС в конце игры показывает, что частота сердечных сокращений возрастает до 180 ударов в минуту, однако имеет весьма короткий восстановительный период. Сумма пульса за 10 минут

работы сердца составляет в среднем 1780 ударов. Во вторую группу включены игры, в которые дети играют с интересом и высокой активностью, увлечённость в выполнении игровых ситуаций у детей быстро падает, а двигательная активность снижается. Длительность таких игр составляет в среднем 7-8 минут, двигательная активность за время их выполнения составляет 500-800 локомоторных единиц, из которых 50% приходится на беговые движения. Частота сердечных сокращений при окончании данных игровых средств составляет в среднем 160 ударов в минуту, а сумма пульса за 10 минут – 1560 ударов в минуту.

В третью группу мы объединили игровые действия и игры, в которых общая двигательная активность является не высокой. Как показали наши наблюдения, дети в такие групповые игры играют с прогрессивно снижающихся инициативой; двигательная активность за 7-10 минут участия в них не превышает 500 локомоторных действий. Частота сердечных сокращений в момент окончания игр составляет 140-150 ударов в минуту, а сумма за 10 минут 1410 ударов [2,6,7,8,9].

**ВЫВОДЫ.** Таким образом, проведенные нами исследования и наблюдения показали, что для повышения двигательной активности детей школьного возраста Узбекистана целесообразно и эффективно применять национальные подвижные игры и игровые действия. Они обеспечивают устойчивый интерес детей к игровой деятельности и создают условия для значительного увеличения их двигательной активности.

### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. А.Н.Аслаханов. Национальные физические упражнения и игры в уроках физической культуры в школах Чечено-Ингушской АССР. Автореф.дисс. ...пед.наук. М.: 1990 г. 24 стр.
2. Berdiyeva X.K. 10-11 yoshli gandbolchilarni tayyorlashda harakatli o'yinlarni qo'llash samaradorligi. Pedagogika fan.(PhD) ...diss...Chirchiq: O'zDJTSU, 2024. -B. 33-34.
3. Бердиева Х.К. Теоретические основы развития ловкости у детей 6-7 лет посредством подвижных игр и игровых упражнений с мячом / Х.К.Бердиева // Вопросы педагогики. – 2019. – № 5-2. – С. 43-47.

## КОМЁБ ХОРАЗМ ХОНЛИГИ ТАРИХНАВИСЛИГИНИНГ МУНОСИБ ДАВОМЧИСИ

*Матякубов Шоназар Собирович, Хоразм Маъмун академияси  
катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори  
(PhD)*

## A WORTHY CONTINUER OF THE HISTORICAL STUDIES OF THE KHORAZM KHANATE

*Matyakubov Shonazar Sobirovich, Senior Researcher of the Khorezm  
Mamun Academy, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)*

## КОМЁБ ДОСТОЙНЫЙ ПРОДОЛЖАТЕЛЬ ИСТОРИОГРАФИИ ХОРЕЗМСКОГО ХАНСТВА

*Матякубов Шоназар Собирович, старший научный сотрудник  
Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по  
историческим наукам (PhD)*

**Аннотация:** Мақолада муаллиф Сайид Ҳомид тўра Комёб Хоразм хонлиги тарихнавислигининг Мунис, Огаҳий ва Баёнийлардан кейинги муносиб давомчиси эканлиги ҳақида маълумотлар беради.

**Калит сўзлар:** Хоразм, Хива хонлиги, Комёб, Таворих ул-хавонин, Мунтахаб ул-воқеот, Саид Муҳаммад, Муҳаммад Раҳимхон.

**Abstract:** In the article, the author Sayid Hamid Tora Kamyob provides information about the worthy successor of the Khorezm Khanate's historiography after Munis, Ogahi and Bayani.

**Key words:** Khorezm, Khiva Khanate, Kamyob, Tawarikh ul-khavanin, Muntahab ul-vejaot, Said Muhammad, Muhammad Rahimkhan.

**Аннотация:** В статье автор дает информацию о том, что Саид Хомид Комёб является достойным продолжателем историографии Хорезмского ханства после Муниса, Огахи и Баяни.

**Ключевые слова:** Хорезм, Хивинское ханство, Комяб, Таворих уль-хаванин, Мунтахаб уль-вакеот, Саид Муҳаммад, Муҳаммад Раҳимхан.

**КИРИШ.** Хоразм – инсоният бадий тафаккури тарихида алоҳида ўринга эга бўлган қадимий масканлардан ҳисобланади. Ушбу замин қадим-қадимдан жаҳон тамаддунига муносиб ҳисса қўшган юзлаб даҳолар бешигини тебратган қўхна воҳадир. Хоразм хусусан Хива хонлиги худудларида таваллуд топиб ижод этган адиб ва шоирлар Хоразм адабиёти ва тарихининг барча босқичларида ўзига хос нуфуз ва салоҳиятга эга бўлганлар. XVII-XIX асрлар Хоразм хонлиги маданий ҳаёти учун характерли бўлган хусусиятлардан биттаси тарихий асарлар яратиш эди. Абулғози Баҳодирхоннинг “Шажараи турк” асаридан бошланган бу анъана Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммад Ризо Огаҳий, Муҳаммад Юсуф Баёний, шунингдек Сайид

Ҳомид тўра Комёбгача давом этди. Тарихий асарларга бундай кенг эътибор бериш Бухоро, Қўқон хонликларида учрамайди. Академик В.В.Бартольд “Мунис ва Огаҳий томонидан яратилган адабий ва тарихий асарлар... воқеаларни баён этиш ва уларда келтирилган далилий манбааларнинг кўплиги жиҳатидан бизгача етиб келган Қўқон ва Бухоро хонликлари тарихи бўйича ҳамма асарларни ўзидан анча орқада қолдирди[1], деб таъкидлайди.

Хива хонлиги сарой тарихнависи аънанасини муносиб давом қилдирган тарихчилардан биттаси Комёб эди. Тўлиқ исми Сайид Ҳомид тўра ибн Сайид Муҳаммад тўра Комёбдир. Комёбдан бизгача битта шеърый девон, “Таворих ул-хавонин”, “Мунтахаб ул-



<https://orcid.org/0009-0003-0888-2941>  
e-mail:  
[shonazarmatyobov@gmail.com](mailto:shonazarmatyobov@gmail.com)



воқеот” каби тарихий асарлари ва XIX аср охири – XX аср бошларида Хоразмда юз берган табиат ўзгаришлари тўғрисида маълумот берувчи эсдаликлар тўлиқ ҳолатда етиб келган. Булардан ташқари, у бошқа бир тарихий китоб ҳам ёзиш нияти борлигини “Мунтахаб ул-воқеот”да: “Насиб этиб, табъимға қувват, ўзимга тавонолик берса, “Равзат ус-сафо” янглиғ ўзга таворихлардин ҳам бир андақ ёзмоқ кўнглимда бордур”, -деб қайд қилади. Хивалик Давлатёр Раҳим ва Шихназар Матрасуллар ўз китобларида Лаф-фасий берган маълумотига таяниб ёзишларича, “Комёбнинг “Тўрахоним” номли яна бир тарихий асари ҳам бўлган. Тарихий асар Муҳаммад Раҳимхонга маъкул тушиб, бир нечта нусха кўчиришга фармон берган”[2]. Лекин ҳозирда бу асарнинг қўлёзма нусхалари топилмай қолмоқда. Юртимизда истиқлолга қадар Комёб ҳаёти ва ижодий мероси тўғрисида айрим тадқиқотчилар томонидан фақатгина бир неча мақола ёзилиб, тадқиқотларда эса баъзи маълумотлар қайд этиб ўтилган бўлса-да, хон оиласига мансуб бўлганлиги боис, унга синфийлик нуқтаи назаридан баҳо берилиб, унинг тарихий асарлари етарли даражада ўрганилиб, илмий муомилага киритилган эмас. Фақат сўнгги йилларга келиб, унинг ҳаёти ва ижодининг баъзи томонларини ёритиб беришга қаратилган айрим тадқиқот ва илмий изланишлар юзага кела бошлади. Ҳозирги кунда мамлакатимизда аждоқларимиз маънавий меросини ўрганиш учун кенг қамровли имкониятлар ва шарт-шароитлар яратилиб, мазкур масалага бағишланган мақсадли илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Булар билан бирга бетакрор маънавий меросимизнинг ҳали тўлиқ ўрганилмаган қатламларини очиб бериш, хусусан, мамлакатимиз ҳамда чет эл фондларида сақланаётган ноёб қўлёзмаларни тадқиқ этиш устувор йўналишлардан бири қилиб белгиланган. Шу маънода Президентимиз Ш.М.Мирзиёев: “Ўзбекистонимизнинг китоб фондларида 100 мингдан зиёд қўлёзма асарлар сақланмоқда. Афсуски, бу нодир китоблар ҳали тўлиқ ўрганилмаган, улар олимлар ва ўз ўқувчиларини кутиб турибди. Ушбу ноёб асарлардан бугунги давр ўртага қўяётган жуда кўп долзарб муаммоларга жавоб топиш мумкин... Лекин биз ана шундай ноёб мерос ворислари, шундай бойлик эгалари бўла туриб, уларни ҳар томонлама ўқиш-ўрганиш, халқимиз, аввало, униб-ўсиб келаётган ёшлари-

мизга, жаҳон ҳамжамиятига етказиш бўйича етарли иш қилмаганимизни ҳам очиқ тан олиш керак”, -деган эдилар[3]. Хива тарихчиси Сайид Ҳомид тўра Комёб томонидан ёзиб қолдирилган асарлар қўлёзмаларини ҳам Президентимиз қайд қилган сингари манбалар сирасига киритиш мумкин. Сайид Ҳомид тўра Комёб (1861-1930) Хивада яшаб ижод қилган хон оиласига мансуб ижодкордир. Сайид Ҳомид тўра Хива хони Сайид Муҳаммадхоннинг олти ўғлининг бешинчисидир. Сайид Ҳомид тўра тўғрисидаги дастлабки маълумотни Муҳаммад Ризо Огаҳий ўзининг “Гулшани-давлат” асарида ёзиб қолдирган. Огаҳий ушбу тарихий асарида ҳижрий 1278, милодий 1861 йил воқеалари ҳақида сўз юритиб, жумладан “Яна улким мазкур йилнинг рабиул аввалида ойнинг иккисинда шанба кечаси баҳри хангомида ким барча кечаларнинг маҳмуди ва жамий соатларнинг масъули эрди”[4] дейди ва ўша куни хон оиласида бир ўғил туғилганлиги ҳамда отаси Сайид Муҳаммадхон унга Сайид Ҳомид деб исм қўйганлигини қайд этган. Бу воқеани яна бир тарихчи Баёний ўзининг “Шажараи-хоразмшоҳий” асарида ҳижрий 1278 – товук йили хонликда рўй берган энг муҳим давлат моҳиятига молик сиёсий ва ижтимоий воқеалар борасида маълумот берар экан, шу аснода Комёбнинг дунёга келиши ҳақида ҳам гапириб ўтган. Жумладан “Ушбу йил Оллох таоло хон ҳазратларига бир фарзанд ато қилди. Они Сайид Ҳомид тўра исми била мавсум этдилар”[5], деб ёзади. Хуллас, мазкур саналардан Комёбнинг туғилган вақти милодий 1861 йилнинг 2-сентябрь санаси чиқади. 1865 йили отаси Сайид Муҳаммадхоннинг вафотидан сўнг Комёб етим қолади ва унинг кейинги тақдири акаси Муҳаммад Раҳимхон Соний (Феруз) билан боғланади. Отаси вафотидан кейин тахтга ўтирган Феруз давлат ишлари билан биргаликда, оила аъзолари ва қариндошларининг парвариши ҳамда таълим олиши, хусусан, Сайид Ҳомид тўранинг тарбиясига алоҳида эътибор билан қараган. Комёб Арабмуҳаммадхон мадрасасида Хива хони Муҳаммад Раҳимхон ҳомийлигида ўз даврининг етук олимларидан турли фанлар бўйича таҳсил олади. Араб ва форс тилларини пухта эгаллайди. Унинг билим доираси ва дунёқарашининг кенгайишида давлат арбоблари, шоир ва мусиқа билимдонлари иштирокида бўлиб ўтадиган анжуман ҳамда адабий кечалар,

шеърхонлик баҳслари ҳамда мусиқа базмларига қатнашиб боришнинг аҳамияти катта бўлган. Комёб асарлари ичида энг асосийси унинг “Таворих ул-хавоний” асаридир. Бу асарнинг манбашунослик жиҳатидан аҳамияти шуки, энг аввало Мунис, Огаҳий, Баёнийлар томонидан ёзилган тарихий асарларнинг давоми сифатида, кейин улар келтириб ўтмаган айрим тарихий маълумотларни ўзида жамланганлиги билан аҳамиятлидир. Тарихий асар муқаддима, беш боб, шунингдек охирида муаллифнинг ўз ҳаёти ҳамда ижтимоий муҳит тўғрисида маълумот берувчи бир мақоладан иборат. Тарихий асар 1885-1894 йилларда ёзилган бўлиб, Комёб бу асарида кўнғирот иноқларининг қай тарзда ҳокимият тепасига келишлари, уларнинг марказлашган ҳукумат тузиш йўлида доим ажраб чиқишга ҳаракат қилиб келган туркман ёвмутлари, Оролбўйи, Кўнғирот аҳолиси ҳамда Бухоро билан олиб борган тинимсиз курашлари тўғрисида маълумот беради. Комёб ўз даври тарихчиларидан фарқли ўлароқ халқ оғзаки маълумотларидан, гувоҳлар ва воқеа иштирокчилари ахборотларидан фойдаланган. Асарнинг энг муҳим жиҳатларидан бири, Комёбнинг эсдаликлари, кўрган ва эшитганлари асосида ёзилганлигидир. Масалан, Кўнғирот беклигида Муҳаммад Паноҳ бошчилигидаги 1858 йилда бўлиб ўтган кўзғолон ҳақида қуйидаги тарзда маълумот беради. “Олар воқеаси андоқ эрдиким, Паноҳ отлиғ бир Аролни Кўнғирот аҳли арозли ва аҳли авбошни бош этиб, борча Арол мутеъ этиб, ўзларига хон қилиб, онинг итоати ва инқиётига иттифоқ ила бўюн кўюб эрдилар. Хивақ ақноф ва атрофи Хоразм мамлакати улуси карвон ва бўзургони йўл ва чўллар хавотир бўлгон жиҳатидин ўрис мамлакатига қатнайтурғонлари Кўнғиротга бориб тамомиси жамъ бўлгунча онда таваккуф қилиб, ондин сўнг ўрис вилотига улус савдога кетар эрдилар. Карвон халқи ижтимоъ топғондин сўнг кўнғиротийлар олар молин олиб лашкари харжига сарф қилиб эрдилар. Ҳамул моллар ғанимат оз фурсатда баргараф бўлгондин сўнг фақир ва бевазан ва бечоратанлар молига дасти татовул узатдилар. Ва олар моли ҳам андак фурсатда барҳам бўлди. Ондин сўнг ожиз кимсаларни бегуноҳ ўлдириб ва амволи молин аҳли аёлин олиб ямутларга навкар ҳақи учун бериб ва хотунни ва ўғил-қизин ва ўғлон-ушокни бераҳимлиғ ила қул

фули баҳосида баҳолаб берур эрди”, дейилади[6]. Алқисса кўнғиротликлар дастлаб Паноҳни қўллаб-қувватлаб ўзларига бош этиб қўйган бўлсалар, кейинчалик унинг зулми остида қолишди. Паноҳ аёл ва болаларни, айниқса янги келинларни ёвмутларга навкарлик ҳақи сифатида бериб юборади. Охир-оқибат кўнғиротликлар бош кўтариб, Паноҳ ва унинг яқинларини ўлдириб, қилган хато ишлари учун узр сўраб, Хивага хон олдига элчи юбордилар. Хон уларнинг узрини қабул қилиб, ўз одамани Кўнғиротга ҳоким қилиб юборди. Сайид Ҳомид тўра Комёб Хива хонлари сулоласига мансуб ижодкор бўлиб, ўз даврининг фарзанди ва хоннинг энг яқин биродаридир. Шу боисдан Комёб Хива кўшинларининг хонлик ҳудудларини кенгайтириш, ҳокимият учун олиб борилган ҳарбий юришлар хусусида ёзар экан, хон кўшинларини афсонавий, энгилмас жангчилар қилиб тасвирлайди. Албатта бу ҳаракатларга нисбатан табиий равишда унинг хайрихоҳлиги сезилиб туради. Айни чоғда сариқ, ёвмут, така, алиэли, чандир каби туркман уруғларини бўйсундириш “зўран ва қаҳран” кечганлигини ҳам ҳаққоний қайд этади.

Хулоса қилиб айтганда, Комёбнинг тарихнавислик борасида яратган тарихий асарлари буюк сўз усталари Абулғози, Мунис, Огаҳий ва Баёнийлар каби Хива тарихнавислик мактабини ўрганишда муносиб ўрин тутди. Шунингдек Комёбнинг тарихий асарлари келгуси тадқиқотларда ўзбек давлатчилиги тарихи унинг тараққиёт босқичларини, унинг асоси ва омилларини янада яхшироқ кўрсатиб беришга хизмат қилади.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. В.В.Бартольд. История культурной жизни Туркестана. Л. 1927 г. С.113.
2. Д.Раҳим. Ш.Матрасул. Феруз – шоҳ ва шоир қисмати. Тошкент, Ғ.Ғулом нашриёти. 1991 й. 77-бет.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси // Халқ сўзи. Тошкент, 2017 йил 23 декабр.
4. Огаҳий. Гулшани давлат. Ўз.Р.Ф.А.Ш.И. 7572- қўлёзма, 236 б.
5. Баёний. Шажараи-Хоразмшоҳий. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1994 й. 102 б.
6. Сайид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. Масъул муҳаррир А.С.Сағдуллаев. Тошкент, Академия. 2002. Б.77-78.

## ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA XORAZM DAVLATIDA SULOLALAR BOSHQARUVI VA IJTIMOIY TURMUSH TARZI TALQINI

*Matyakubova Shahodat Xamidjanovna, Urganch Ranch  
texnologiyalar universiteti o'qituvchisi*

## THE INTERPRETATION OF DYNASTIC RULE AND SOCIAL LIFESTYLE IN THE KHOREZM STATE IN THE WORKS OF ABU RAYKHAN BERUNI

*Matyakubova Shakhodat Khamidjanovna, lecturer at Urgench  
Ranch of University Information Technologies*

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДИНАСТИЧЕСКОГО ПРАВЛЕНИЯ И СОЦИАЛЬНОГО УКЛАДА ЖИЗНИ В ХОРЕЗМСКОМ ГОСУДАРСТВЕ В ТРУДАХ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

*Матякубова Шаходат Хамиджановна, преподаватель  
Ургенчского университета технологий Ранч*



<https://orcid.org/0009-0005-0164-9607>

e-mail:

[hamdamtarix@gmail.com](mailto:hamdamtarix@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Abu Rayhon Beruniyning asarlarida Xorazmda sulolalar boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy turmush tarzi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Alfir, mil, "Iskandar erasi", Afrig', Arsamux, "Mina kechasi", "Turkasabos", Siyovush, Kayxusrav, Jayhun.

**Abstract:** The article analyzes the rule of dynasties and the socio-economic and political lifestyle in Khwarazm as depicted in the works of Abu Rayhan al-Biruni.

**Keywords:** Alfir, mil, "Alexander era", Afrigh, Arsamukh, "Night of Mina", "Turkasabos", Siyavush, Kaykhusraw, Jayhun.

**Аннотация:** В статье анализируется правление династий, а также социально-экономический и политический уклад жизни в Хорезме по произведениям Абу Райхана Беруни.

**Ключевые слова:** Альфир, миль, "эра Искандера", Африг, Арсамух, "ночь Мины", "Туркасабас", Сиявуш, Кейхосров, Джейхун.

**KIRISH.** Farzandlarimiz orasidan yangi avlod Beruniylarini, Ibn Sino va Ulug'beklarini, Xorazmiy va Farg'oniylarini tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak [1]. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy arab xalifaligi bosqinidan keying qorong'u tarixni yoritishga harakat qildi va bir qancha ilmiy asarlarni meros qoldirdi. Beruniyning ilmiy qiziqishlari nihoyatda keng va turli-tuman bo'lgan. U qadimgi Yunonistondagi, Arab

xalifaligidagi fan tarixini, shuningdek o'z zamonasi fanini chuqur o'rgandi [2,b.42].

Beruniy inson xarakteri haqida gapirib, undagi xilma-xillikni inson tabiatidagi ziddiyat bilan tushuntirmoqchi bo'ladi: "Inson o'z tabiatida bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, majbur qiluvchining majburiyati natijasidagina qo'shilishdan, qorishmalardan tarkib topgan badan egasidir" [3,Б 6-7].

Beruniyning shaharlar, hunarlar, ayriboshlash, savdo, narx-navo, oltin, kumush, qimmatbaho toshlarni yig'ish, asrash kabilarga oid aytganlari ham ma'lum darajada har bir tadqiqotchini qiziqtiradi. Shuning bilan birga, Beruniy asarlarida boy va qimmatbaho tarixiy ma'lumotlar mavjuddir. Uning asarlarida xalqlarning diniy tasavvurlari, ularning urf-odatlarini, axloqi, turmushi, mamlakatlarning geografik sharoitlari, ya'ni ob-havosi, daryolari, ko'llari, o'simliklari to'g'risidagi nodir ma'lumotlar uchraydi. Beruniy hamma odamlarni o'tmishdan kelajak uchun saboq olishga chaqiradi [2,b.67]. Islomgacha bo'lgan Xorazm davlati tarixini yoritishda Beruniyning ilmiy asarlari o'rni muhim hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahonda ilm-fanning shakllanishi va taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

IX – XII asrlarda O'rta Osiyoda ilm-fan yuksak darajada rivojlandi. Bu davr Renessans – “Uyg'onish davri” nomi bilan ataladi. Aynan shu davrda O'zbekiston hududida Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi bir qancha qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Mazkur buyuk olimlar ichida Abu Rayhon Beruniy Xorazm davlati tarixi haqida kengroq ma'lumotlar to'plashga harakat qilgan. Xorazmning islomgacha bo'lgan davri tarixini yoritish ancha murakkab jarayon. Chunki turli siyosiy jarayonlar oqibatida yozma manbalarning ko'pchiligi yo'q bo'lib ketganidan, biz bu davr tarixini yoritishda arxeologik, numizmatik, etnografik, epigrafik manbalarga tayanamiz. Maqola mazmunini yoritishda o'rta asrlar va zamonaviy muarrixlarning etnografiya, arxeologiya, geografiya sohalariga oid ma'lumotlarni konkretlik, ma'lumotlar tahlili, faktlar solishtirilishi, obyektivlik, xronologik ketma-ketlik, muhokama, asoslash, ilmiy xulosa, metodlaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA.** Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” (“O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarida ilk o'rta asrlarda hukmron bo'lgan Afrig'iylar davrida hukmron bo'lgan sulolalarning ismlari, olib borgan siyosatlarini, urf-odatlarini, bayramlari, yil, oy, kunlarning nomlari qayd etilgan. Xorazmda mavjud taqvim, uning hisoblanishi boshqa xalqlarga nisbatan qiyosiy solishtirilgan holda bayon etilgan. Afrig' qurdirgan ming yillik qasrning buzilib ketishi bilan afrig'iylar

sulolasi qulashi simvolik tarzda bir vaqtga to'g'ri kelishi qiziqarli hodisa. Beruniy mazkur sulolaga mansub 22 ta shohni sanab o'tadi va 305-yildan 995-yilgacha hukmronlik qilgan bu podshohlardan ba'zilarining hukmronlik qilgani to'g'risida ma'lumotlar ham keltiradi [4,6.95]. Afrig'iy xorazmshohlar davridagi tarixni yoritishda yozma manbalar juda kamligi, Abu Rayhon Beruniy va boshqa muarrixlarning yozma manbalari va arxeologik manbalar orasida tafovutlarning mavjudligi islomgacha bo'lgan Xorazm tarixini yoritishda bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi.

Abu Rayhon Beruniy xorazmliklarning oy va yillarni hisoblashda katta yutuqlarga erishganliklarini va bu munajjimlarning o'ldirilib yuborilishi natijasida xorazmliklarda oy va kunlarni hisoblashda ko'p adashishlar bo'lganligini ko'rsatib o'tgan.

Yilning aniq hisobini bilish har bir davr uchun ham muhim hisoblanadi. Beruniy o'z asarida yil hisobining muhimligini quyidagi so'zlari bilan asoslab bergan: “Biror o'tib ketgan yilning avvalidan hisobga olinadigan ma'lum bir muddatga tarix deyiladi. O'sha yilda turli alomatlar va dalillar bilan payg'ambar dunyoga kelgan yoki qudratli, sha'ni ulug' bir podshoh bosh ko'targan, yoki xarob qiluvchi umumiy to'fon, zilzila va halokatli yer yutish, halok etuvchi vabo va qattiq qahatchilik natijasida biror millat halokatga uchragan, yoki davlat va hukmdorlik bir xonadondan boshqasiga o'tgan, yoki biror din ikkinchisi bilan almashgan, yoki osmon hodisalaridan va yerning mashhur alomatlaridan biron muhim narsa yuz bergan bo'lishi kerak, bular uzoq asrlar va ko'p zamonlarsiz bo'lmaydi. Bunday hodisalar orqali ma'lum vaqtlar, tarixlar aniqlanadi, dunyo va dinga oid barcha ishlarda bunga ehtiyoj seziladi. Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir” [5,6.50].

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida forslar, yahudiy, xristian, zardushtiylar, arablarning yil hisoblarini tahlil qilib, ular o'rtasidagi ixtiloflarni ko'rsatib o'tgan. Shu jihatdan qadim tarixni ham bayon qilib o'tib, ajdodlar uchun katta tarix sahifalarini yozib qoldirgan.

Qadimgi xorazmliklar yil hisobini hisoblashdagi o'zgarishlarni ko'rsatib bergan. Xorazmliklar dastlab yil hisobini Xorazmga odamlar kelib joylashganidan boshlaganliklari ko'rsatib o'tgan. Xorazmga odamlarning kelib joylashganini



Iskandar erasi <sup>1</sup> bilan quyidagicha tushuntirgan: “Ular Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan yil hisoblaganlar, bu Iskandardan to‘qqiz yuz sakson yil ilgari sodir bo‘lgan. Undan keyin Siyovush ibn Kaykabusning Xorazmga kelishidan, Kayxisrav va uning nasli Xorazmga podshohlik qilishidan yil hisoblaganlar. Shu vaqtda Kayxisrav Xorazmga ko‘chib, turk podshohligida o‘z hukmini o‘rnatgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan to‘qson ikki yil keyin bo‘ldi. So‘ngra ular yil hisoblashda forslarga ergashib, shohlar deb ataluvchi Kayxisrav naslidan bo‘lgan har bir podshohning hukm surish yilidan boshlaganlar. Nihoyat Kayxisrav naslidan bo‘lgan Afrig‘ podshohligi boshlandi. ...Keyin xorazmliklar Afrig‘ va uning avlodi podshohligidan yil hisoblaganlar”[6,6.69]. Qadimgi davrda xorazmliklarda o‘z yil hisobi amal qilgan va Siyovushiylar davrida esa, Xorazmda yil hisobi hukmron podshohlar o‘zgarishi bilan o‘zgarib turganligini ko‘rsatadi. Qadimgi davrda aksariyat xalqlarda yil hisobi shu tarzda olib borilgan. Bu Beruniy asarida ham yozib qoldirilgan.

Beruniy asarida Xorazm davlatining poytaxti Fir qasri Kat shahrida qurilganligi haqida ma’lumotlar bor. Arxeologik tadqiqotlar natijasida uning IV asrda bunyod etilganligi aniqlangan. Asarda quyidagicha berilgan: “Afrig‘ al-Fir o‘ziga qasr qurdi. U Aleksandr erasi bo‘yicha 616-yilda yuz bergan. Yil hisobini Afrig‘ avlodlari uning hukmronligi davridan boshlaganlar. Al-Fir qasri Xorazmdagi shaharning chekkasida qurilgan bo‘lib, loy va xom g‘ishtdan bunyod etilgan. Uchta mudofaa devori bo‘lib, bir-biri ichiga joylashgan. Ular bir-biriga nisbatan baland qilib qurilgan. Eng balandi podsho saroyi bo‘lgan. Bu qasr Yamandagi G‘umdon qasriga o‘xshagan, bu yerda u tubbalarning turgan joyiga kelganda bo‘lgan. ... Al-Fir o‘n mil<sup>2</sup> ( 16 kmdan ortiq ) va undan ham uzoqdan ko‘rinib turar edi. Uni asosan Jayhun daryosi buzdi va vayron qildi, har yili uning bir qismini olib ketar edi. Aleksandr erasining 1350-yilida undan hech nima qolmadi”[6,6.64].

<sup>1</sup> Iskandar erasi – Salavka I ning Bobilni bosib olgan vaqti, ya’ni mil.avv.312 yil bilan boshlangan. Bu Salavkiylar erasi deb ham ataladi. Arshakiylar, Arab astronomlari va bir qator xalqlarda “Iskandar erasi” dan yil hisoblangan. Iskandardan yilni hisoblash Suriya hujjatlarida XX asrgacha davom etgan. [wikipedia.org/wiki/Эра\\_Селевкидов](https://wikipedia.org/wiki/Эра_Селевкидов). Murojjat vaqti. 25.08.2024.

Tadqiqotchilar Fil qal’asini hozirda Kat qal’asiga lokalizatsiya qilishadi. Kat shahri milodiy 305-yilda Afrig‘ tomonidan qayta ko‘shk sifatida bunyod etilgan. Abu Rayhon Beruniyning asaridagi muhim jihat, ilk o‘rta asrlarda Xorazmda hukmron bo‘lgan podshohlar nomlarining yozib qoldirilishidir. Asarda biror voqeani bayon etishda sulolalar ketma-ketligini bergan. Jumladan, uchinchi bobida quyidagicha keltirilgan: “Payg‘ambar alayhissalom kelgan vaqtda, Xorazm shohlaridan Arsamux ibn Buzgar ibn Xamgariy ibn Shaush Saxr ibn Azkajavar ibn Askajamuk ibn Saxxasak ibn Bag‘ra ibn Afrig‘ podshoh edi... Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajamuk ibn Azkajavar ibn Sabri ibn Saxr ibn Arsamuxni podshoh qildi va uni shohlikka ko‘tardi. Xisravlar nasli qo‘lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, chunki shohlik ularga merosdek edi”. Xorazmni Qutayba egallagach, ilgarigi hukmron sulola o‘rniga yangi sulola hukmronligi o‘rnatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchi joyda sulola hukmronligi tugashini quyidagicha ko‘rsatib o‘tgan: “...shahid Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq ibn Mansur ibn Abdulloh ibn Turkasabas ibn Shaushafar ibn Askajamuk ibn Azkajavar ibn Sabri ibn Saxr ibn Arsamuxdan keyin valiylik ham, shohlik ham ularning [qo‘li]dan chiqib ketdi” [6,6.70]. Asarda berilgan shohlarning nomlari arxeolog, lingvist va sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Afrig‘iylar sulolasiga mansub 22 ta podshoh 305-yildan 995-yilgacha hukmron bo‘lganligi ko‘rsatilgan[7,6.122]. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan tangalar va ostodonlardagi shohlarning nomlarini o‘qib, tadqiqotchilar Beruniy asarida berilgan shohlarning nomlari to‘liq emas, degan fikrga kelishgan. Shu bilan birga, shu vaqt davomida Xorazmda ikkita sulola hukmronlik qilgan. Birinchi sulola vakillari nomlari no‘malum, ikkinchi sulola esa, afrig‘iylar deb ko‘rsatilgan. Birinchi sulola mil. avv. 20 yoki 10

<sup>2</sup> Миль – инглизларнинг ўлчов бирлиги бўлиб, “мингдан бир бўлак” деган маънони беради. Бир миль 1609,344 метрга тенг. [wikipedia.org/wiki/Мил](https://wikipedia.org/wiki/Мил). мурожаат санаси. 13.08.2024.

yildan hukmronlikni boshlagan deb ko'rsatilgan [6,6.430].

Abu Rayhon Beruniy ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, arablarning Xorazmni egallaganidan keyin boshqaruv jarayonida o'zgarish kuzatiladi. Afrig'iylar sulolasi hukmronligi tugatilgan, ularda faqat rasmiy shohlik unvoni saqlanib qolgan, Arsamuxlar sulolasi esa, amalda hokimiyatni boshqargan. Qutayba ibn Muslim Arsamuxning beshinchi avlodini, ya'ni Askajamukni podshoh qilib ko'targan. Arablar hukmronligidan keyin, ya'ni 712-yildan keyin Arsamuxlar avlodidan 9ta podshoh hukmdor bo'lgan. Afrig'iylar sulolasiga mansub 22 ta podsho hukmron bo'lgan, degan g'oya ham tahlil talab hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy asarida Arsamux ibn Buzgarning sulolasini bergan va bu sulolada tilga olingan shaxslarning hammasi ham podsho bo'lganmi-yo'qmi noma'lum, tangalarda keltirilgan ismlarga to'g'ri kelmaydi. Shu jihatdan olib qaralganda bu masalani yanada chuqur ilmiy tahlil qilish lozim.

Arablar hukmronligi Xorazmning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotida katta o'zgarishlarga olib kelgan. Yil hisobi ham o'zgarib, hijriy yil bilan hisoblana boshlangan. Diniy e'tiqodning o'zgarishiga bo'lgan harakatlar natijasida tilni, yozishni, tarixni biladigan, bilimli barcha xorazmliklar jismonan yo'q qilingan. Shu sabab, afrig'iylar davridagi tarixning ko'p jihatlari hozirgacha no'malumligicha qolmoqda. Abu Rayhon Beruniyning asarida xorazmliklar o'z sulolasi tarixini Siyovushdan boshlaydi, deb ko'rsatilgan. Siyovush o'rta asrlardagi arab va fors manbalarida uchraydi. Xorazmliklarning og'zaki ijodida ham saqlanib qolgan. Tangalarda tasvirlarga suvoriy ham asrlar davomida o'zgarmasdan kelgan. Tadqiqotchilar ham bu tasvir Siyovush bilan bog'liq degan fikrni beradilar. Beruniyning ma'lumoti bo'yicha ham Xorazmliklarda ikkinchi yil hisobi Siyovushning kelishi bilan bog'liq va Afrig' o'zini Qay-Xisrav avlodi deb sanagan. Shuning uchun sulolasini Siyavushiylar sulolasi deb hisoblaganlar [8,c.47]. Tadqiqotchilar Siyovushni afsonaviy podsho deb ko'rsatadilar. Siyovush tarixi bilan bog'liq voqealar "Avesto" va Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham bayon qilingan. S.P.Tolstov ilk o'rta asrlarga oid tangalarni tahlil qilib, mil. avv. I asrdan to milodiy VIII asrgacha Xorazmda zarb etilgan tangalarda "Xudo-suvoriy" sifatida tasvirlangan deb ko'rsatadi.

Beruniy asarida Xorazm hukmdori Turkasabos ismi ham yozilgan. U tadqiqotchilar tomonidan

tahlil qilingan. U Vizantiya manbalaridagi Turk xoqonligi shahzodasi Turksanf deb e'tirof etilgan. Bu ma'lumotlarni tahlil qilgan O.I.Smironov "Turkasabos" ismining lug'aviy ma'nosi "turk lashkarining sohibi" deb yozadi va Xorazmda bunday ismli hukmdorning uchrashini Xorazmning Turk xoqonligi tarkibiga kirganligida deb ko'rsatadi [9,c.28]. Xorijlik tadqiqotchi S.S.Gomech esa, "Turksanf" ismi asli turkcha so'z bo'lib, "Turk shad", ya'ni Turk shahzodasi degan ma'noda kelishini ko'rsatadi. Turksanfni Turk xoqoni Ismining o'g'li, degan fikrni ilgari suradi. A.Otaxo'jaev ham 576-yilda Istami yabg'u vafot etgach, uning o'g'li Bilga Tardu – Turksanf (Tourxanth) (576- 586) hokimiyatga kelgan, deb ko'rsatadi [10,6.26]. Abu Rayhon Beruniyda Shaushafardan keyin taxtni egallagan shoh Turksabasa bo'lgan, undan keyingi shohlarda esa ismlari o'zgargan, musulmonlarga xos ismlar qo'yila boshlangan. Abdulloh keyingi shoh bo'lgan.

Beruniy asarida xorazmliklarning yil, oy boshlari, rasm-rusumlari ham sug'dliklarnikiga o'xshaydi, deb ko'rsatilgan [6,6.265]. Xorazmliklar oylarda nishonlanadigan bayramlarni muqaddas deb sanaganlar. Bu bayramlar dastlab Oyga qarab belgilangan, keyinchalik esa, bayramlar ularning orasidagi kunlarga qarab belgilana boshlangan, chunki o'sha davrga kelib, oy va quyosh faoliyatini kuzatadigan munajjimlarning yo'qligi sabab bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy asarida tabiatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan 14 ta bayramlarni sanab o'tgan, shu oylar davomida shu bayram bilan bog'liq bo'lgan boshqa bayram kunlarini ham ko'rsatib, ularga imkon qadar ta'rif bergan. Xorazmliklar tomonidan o'tkazilgan 5ta bayram haqida hech qanday ma'lumot yo'qligini ko'rsatgan. Yilning boshlanishi yangi kun deb atalib, "Navsarji" deb atalgan bayramni nishonlashgan. Kunlar isiy boshlaganda "Hrvdad" (Xurvdad) bayrami o'tkazilgan, uning ma'nosi "Endi odamlar kiyimdan chiqadi", ya'ni og'ir kiyimlardan ozod bo'lish tushinilgan. Beruniy ma'lumoti bo'yicha bu kunjut va boshqa donli ekinlarni ekish vaqtiga to'g'ri kelgan. Kunlar soviy boshlagan vaqtda "Jiri" bayrami o'tkazilgan. Beruniy taxminicha, bu bayram kuzga to'g'ri kelishi kerak edi, lekin uning davrida u yoz o'rtasiga to'g'ri kelgan. Shu bayramdan 70 kun sanab, kuzgi bug'doy ekish vaqtini aniqlashgan. "Axshrivari" bayrami ham sovuq kunlarda o'tkazilgan. Bunda shoh o'zining turar joyini

o'zgartirishi bilan bog'liq bo'lgan. Sovuq kelishi bilan Xorazm shohlari shahar chekkasiga chiqib, shu joyda qishlagan. Davlat chegaralarini tashqi dushmandan himoya qilish uchun shunday yo'l tutganlar. "Avmri" bayrami ham sovuq kunlarda o'tkazilgan. Bu bayramda xorazmliklar yog'li non yopib iste'mol qilishgan. "Rimjd" (Rimjad) bahor oyining boshlarida, hali kunlar isimasdan oldin nishonlangan. Bu "Mina kechasi" deb atalgan va bu bayram bilan bog'liq afsona Beruniy asarida berilgan. Bu bayramda xorazmliklar bug'lanadigan va tutatiladigan dorilarni ishlatganlar, jin va yomon arvohlarning zararlarini daf etish uchun is chiqarib, ovqat pishirganlar [6,6.225].

Diniy bayramlarning oltitasi sanab o'tilgan. Ularning nomlari va qaysi oyda o'tkazilishi yozib qoldirilgan. Ispandormaji oyining oxirgi besh kunida va undan so'ng keladigan qo'shimcha besh kunida ham qabristonga taom olib borganlar va bunday odat xorazmliklardan tashqari forslarda, sug'dliklarda ham bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy ilk o'rta asrlarda Xorazmda astronomiyaning rivojlanganligi to'g'risida ma'lumot bergan. Munajjim Xorazm tilida "axtar venik" bo'lib, ma'nosi "oy manzillariga qarovchi" bo'lgan. Xorazmliklar oy manzillarining nomlarini yodda saqlaganlar. Oy manzillari o'n ikki burjga taqsimlanib, burjlarning alohida xorazmcha nomlari bo'lgan. Xorazmliklarning burjlarni arablardan yaxshi bilishini Abu Rayhon Beruniy alohida ko'rsatib o'tgan [6,6.267]. Arablarning burjlar va ularning suratlarini bilmasligini misollar bilan asoslab bergan.

Dehqonchilik va chorvachilik ishlarini boshlash vaqtini aniq bilish zarurligini ta'kidlab, bularning hammasi yoritqichlarga, ya'ni osmon jismlarining harakatiga bog'liq deb ko'rsatadi. Xorazmliklarning munajjimlari ilk o'rta asrlarda yil hisobini, ya'ni qachon qanday dehqonchilik ishini boshlash lozimligini aniq bilishgan, keyinchalik esa bunday ilmga ega bo'lgan inson qolmagach, bayramlar nishonlanadigan vaqtlar ham vaqt o'tib o'zgarib ketganligini ko'rsatib o'tgan. Kabisali yillar vaqt o'tib ko'payib, kunlarni sanasa butunlay boshqa faslga to'g'ri kelgan, bu esa ekin ekish vaqtlarini aniqlashda muammolar keltirgan. Abu Rayhon Beruniy shunday paytlarda podshohlar qanday yo'l tutganliklarini ham bayon qilgan. Xorazmshoh munajjimlar maslahati bilan rimliklar va suryoniylarning oylari kabi kabisali yilni joriy qilgan. Bu voqea Beruniy ma'lumotida Iskandar

erasining ming ikki yuz yetmishinchi yilida bo'lib o'tgan, deb ko'rsatgan [6,6.270]. Bu sanani bugungi kun yil hisobiga solsak,  $1270 - 311 = 959$  soni kelib chiqadi. Demak, bu voqealar 959-yilda sodir bo'lgan. Shu yildan boshlab xorazmliklarda ham kabisali yil taqvimidan foydalanganlar. Shu asosida dehqonchilik bilan bog'liq barcha ishlarni hisoblab borishgan.

**XULOSA.** Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

-Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari ilk o'rta asrlarda Xorazm tarixini, madaniyatini o'rganishda eng muhim va ilk o'rta asrlar tarixi haqida yozilgan yagona asosiy manba hisoblanadi.

-Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarini yozishda turli fanlar va turli xalqlar kun kechiradigan geografik hududlarga oid ma'lumotlarni solishtirib, aniqroq yozib qoldirishga harakat qilgan.

-Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlarida geografiya, etnografiya, etnogenetika, antropologiya, numizmatika, topografiya sohalariga oid ma'lumotlar kengroq holda keltirib o'tilgan.

-Abu Rayhon Beruniy Xorazmshohlar davlatida o'zigacha hukmronlik qilgan sulolar tarixini kengroq yoritishga harakat qilishi bilan boshqa manbalardan farq qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston yoshlar va talabalar forumida so'zlagan nutqi. 2021-yil 30-iyun.
2. И.Мўминов. Хоразмлик буюк энциклопедист олим. Тошент. Фан, 1973.
3. Beruniy. Kitob al-Javohir. Haydarobod, 1936.
4. И.Жабборов. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. Тошкент, Шарқ, 1999.
5. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Фан, 1968.
6. Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия). Ж.И. -Тошкент: О'zbekiston НМИУ, 2020.
7. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.
8. Бируни Абу Рейхан. Памятники минувших поколений.
9. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда.
10. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-сўғд муносабатлари.
11. Kurbanbayeva, M. (2023). Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir ba'zi mulohazalar. Tamaddun nuri jurnali, 64-66.

## THE SYNTACTIC STRUCTURE OF SCIENTIFIC DISCOURSE

**Mukumov Makhmud Khudayberdievich**

Teacher of Termez University of Economics and Service

## СИНТАКСИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА НАУЧНОГО ДИСКУРСА

**Мукумов Махмуд Худайбердиевич**

Преподаватель Термезского Университета Экономики и Сервиса

## ILMIY DISKURSNING SINTAKTIK TUZILMASI

**Mukumov Makhmud Xudayberdiyevich**

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti o'qituvchisi



[caen05@gmail.com](mailto:caen05@gmail.com)

tel: +998976450081

<https://orcid.org/0009-0006-9476-845X>

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotning maqsadi ilmiy adabiyot uslubida sintaktik tarkibni o'rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqotda bog'lovchi elementlar va sintaktik aniqlikning ahamiyati ta'kidlanadi. Metodologiya sifatida sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo'llanilib, turli ilmiy asarlar o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sintaktik tuzilmalar ilmiy yozuvda aniq va mantiqiy fikrlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** sintaktik, tarkib, ilmiy, uslub, tahlil, rivojlanish.

**Аннотация:** Цель данного исследования заключается в изучении и анализе синтаксического состава научного стиля. В работе подчеркивается важность соединительных элементов и синтаксической точности. В качестве методологии используются качественные и количественные методы анализа, исследуются различные научные произведения. Результаты показывают, что синтаксические структуры играют важную роль в четком и логическом выражении мыслей в научном письме.

**Ключевые слова:** синтаксический, состав, научный, стиль, анализ, развитие.

**Annotation:** The aim of this research is to study and analyze the syntactic composition of scientific style. The importance of connective elements and syntactic precision is emphasized throughout the work. Qualitative and quantitative analysis methods are employed to examine various scientific texts. The results indicate that syntactic structures play a crucial role in clearly and logically expressing ideas in scientific writing.

**Key words:** syntactic, composition, scientific, style, analysis, development.

**INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH).** The majority of scholars emphasize the importance of studying the syntax of scientific literature, noting that syntactic organization is a defining characteristic of scientific prose style. They highlight the significance of connective elements (such as *in consequence of* and *in connection with*), the characteristic use of expanded attributive groups

(e.g., *fund-dry-feed film-flotation machine*) [2], and assert that the selection of syntactic means is subordinate to the general features of scientific exposition, particularly syntactic precision, which is essential for clearly expressing thoughts and their logical connections. It is widely accepted that complex sentences, full constructions, and avoidance of ellipsis characterize scientific style, with even the



omission of *that* and *which* in defining and supplementary clauses being avoided. In I.R.Galperin's *Essays on Stylistics*, valuable insights are provided regarding the stylistic function of certain syntactic means; for instance, interrogative sentences in specific contexts serve to focus attention on particular points, while repetitions and parallel structures in neighboring sentences within a paragraph act as means for logical segmentation – drawing the reader's attention to specific parts of the text [1].

**MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR).** Some authors note the distribution of syntactic structures across various genres of scientific works [4]. They argue that the selection of syntactic structures, particularly types of sentences, is not limited solely to scientific style but varies across genres and other text types. Finally, dissertations providing stylistic analyses of grammatical means raise intriguing issues (which may potentially apply information theory): the nature and role of chapters; the syntax of individual sentences versus the syntax of texts; the author's conclusions may be beneficial in developing methods for stylistic analysis of grammatical means in scientific style [5].

For instance, comparing word order in scientific style with other styles reveals a limited use of emotional potential in this phenomenon (not all forms of emphasis typical in literary style are utilized in scientific writing; for example, emphasis such as «Talent Mr. Micawber had...» is absent). However, there is extensive use of word order as a means to establish logical connections between sentences [6].

**DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/МУХОКАМА).** It is reasonable to assume that after reviewing and synthesizing obtained data through realistic applications within stylistic conditions using modern methodologies, there will be reflections on problem-oriented questions such as: systemicity, primary and subordinate features of scientific style, degrees of emotionality and logic within this style, and characteristics of distinct genres within contemporary language from a historical perspective [4].

Currently, addressing our research task involves answering several questions.

I. In the first stage applying stylistic analysis methods (which elucidate structural-semantic

peculiarities within comparable stylistic and extralinguistic conditions—in our case, examining features across different layers within scientific style from a lexical-morphological and grammatical perspective; concerning literary norms; across various speech styles), it is necessary to determine:

1) What indicators exist for common usage layers (structural elements such as articles) versus those specific to scientific style: a) general scientific (e.g., lexical and grammatical means for presenting material in scientific texts; substitution mechanisms; logical connections between communication units); b) those tied to specific genres—for instance, compositional units used for conveying information in humanities versus exact sciences; syntax used for presenting formulas in mathematical and chemical texts; types for forming proprietary names (e.g., *aluminum bronze* by N.C.Ashton, *Rolls-Royce*, *Mc Kechnie*), terms derived from proper names (e.g., *Schiff reaction*). Studying these indicators may reveal their relationships within the system of scientific style compared with literary language [3].

Consider facts such as using «unit» with its common meaning in scientific texts versus its specific meaning in philosophy, logic, automation, cybernetics; or as used generally versus its role as a formative element in situationally narrow adjectives like *as cast*, discovered through lexical-morphological analysis.

2) Next, we examine how linguistic means from both layers relate to literary norms (considering structural-semantic aspects such as selectivity, frequency, individual expression) [4]. For instance, one indicator reflecting how phenomena operate within scientific styles – the selectivity – considering how it relates to general canons governing scholarly creativity (impersonal exposition) – can evidently define meaning variations for terms like *will* and *would* within academic texts; negative frequency associated with personal pronouns like «I,» while positive frequency pertains to pronouns like *he*, *you*, *they*, or *we*; significant frequency alongside diverse lexical content associated with subjective infinitives [5].

II. In the second stage according to stylistic methodology when considering stylistic coloration and function among linguistic means – solving our task concerning stylistic differentiation within scientific style requires addressing similar sets of questions: 1) What are the stylistic coloration and

function among linguistic tools across all three layers? What relationships exist among them across various academic texts? 2) How do they differ concerning: a) coloration and function relative to comparable tools found within literary norms? b) coloration and function concerning studied tools across other speech styles?

When developing specific methodologies for stylistic analysis pertaining to scientific style it would be prudent to consider insights gained from analyzing literary prose styles based on synthesized data obtained during earlier stages regarding distribution patterns among linguistic resources across different strata [2].

**RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NAIJALAR).** Conversely, this methodology should duly account for extralinguistic conditions alongside general linguistic factors influencing functional styles' existence. Thus understanding stylistic coloration alongside functional expressive tools used in academic exposition will benefit from utilizing data regarding dialectical thought processes along with roles played by emotional versus logical elements during scholarly creativity endeavors. Insights from scientists regarding harmonizing both scholarly and artistic creativity – asserting that academic writing represents *a language of penetration, an exploratory poetic language yet possessing uncharted “expressive fields* – will further substantiate this premise [4].

Contemporary studies examining lexical compositions within English-language academic styles highlight distinctive vocabulary characterized by notable expressiveness. Judging by current works on stylistics, future endeavors aimed at developing methodologies specifically targeting stylistic functions associated with linguistic resources found within academic contexts (particularly syntax) will likely benefit from integrating Soviet scholarly contributions concerning communicative units' compositional nature alongside advancements made by adjacent fields addressing similar issues – ensuring that methods employed can elucidate each tool's stylistic function relative to all compositional units carrying architectonic significance while adhering cohesively along a unified line guiding logical thesis development throughout academic texts [5].

**CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA).** In summary, examining literature on academic writing

indicates several conditions presently favoring research into this domain:

1) General principles regarding distinctive characteristics inherent within linguistic styles alongside methodologies applicable for conducting stylistic analyses (within domestic linguistics);

2) Specific foundational principles outlining certain attributes related directly towards academic writing highlighted by leading Soviet stylists – addressing extralinguistic factors influencing scholarly expression alongside selecting appropriate linguistic resources pertinent towards achieving desired stylistic functions utilized throughout academia [6].

However, these sources lack recommendations detailing methodologies tailored specifically towards analyzing linguistic resources employed throughout academic writing while considering extralinguistic conditions alongside appropriateness when applying cutting-edge techniques derived from adjacent disciplines such as logic or psychology [7].

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Гальперин И.Р. *Стилистика английского языка*. Москва: Высшая школа, 1981. – С. 80.
2. Дюмон Н.Н. Понятия «научный текст» и «научный дискурс» в лингвистических исследованиях//Альманах современной науки и образования. 2008. № 8-1. – С. 65-67.
3. Johnson V. *Timber, or discoveries*. – Oxford: Clarendon Press, 1925. – P. 52.
4. Разинкина, Н. М. *Функциональная стилистика*. – М.: Высш. шк., 1989. – 182 с.
5. Кожина, М. Н. *О специфике художественной и научной речи в аспекте функциональной стилистики*. Пермь: Изд-во Перм. Гос. ун-та, 1966. – 179 с.
6. Mukumov Makhmud Khudayberdievich. (2023). **A BRIEF INSIGHT INTO INTERTEXTUALITY**. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 414–420. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1099>
7. Woolever K. R. *Doing Global Business in the Information Age// Contrastive Rhetoric Revisited and Redefined/ ed. by Clayann G. Panetta. – Mahwar, New Jersey; London, 2001. – P. 55.*

## G'ARBIY SUG'D MOZORQO'RG'ONLARIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR VA ULARDAN OLINGAN NATIJALAR

*Ochilov Shohzod Zohid o'g'li, Samarqand arxeologiya instituti  
kichik ilmiy xodimi*

## RESEARCH IN THE WESTERN SUG'D CEMETERY AND THEIR RESULTS

*Ochilov Shohzod Zohid oglu, junior research fellow at the  
Samarkand Institute of Archaeology*

## ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОВЕДЕННЫЕ НА ПАМЯТНИКАХ ЗАПАДНОГО СОГДА И ПОЛУЧЕННЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

*Очилов Шохзод Зоҳид оглы, младший научный сотрудник  
Самаркандского археологического института*



*e-mail:* [E-shohzod@mail.ru](mailto:E-shohzod@mail.ru)

<https://orcid.org/0009-0008-1968-8534>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola G'arbiy Sug'd hududida joylashgan qabr-qo'rg'onlar tadqiqotlariga bag'ishlanadi. Mazkur hududda yashagan aholining davriy jihatdan qabrlari va dafn odatlaridagi o'zgarishlar mavjud, yoshga, jinsga, ijtimoiy mavqeyiga qarab qabrlar katta-kichik, qabrdan olingan topilmalarga qarab boy-kambag'al qabrlar turlariga ajratiladi. Qablardan olingan antropologik materiallar tahliliga ko'ra, davriy etnik guruhlarining o'zgarib borish jarayonlari kuzatiladi. G'arbiy Sug'd hududida o'rganilgan qabrlarning davriy sanasi mil. avv. III-II ming yillikdan VII-VIII, hatto X-XI asrlarga oid etnik guruhlarining qabrlari, degan xulosaga kelindi.

**Kalit so'zlar:** G'arbiy Sug'd, qabrlar, mayitlar, yarim yerto'la, katakomba, bronza davri, ko'za, qo'ng'iroq.

**Abstract:** This article is about burial mounds located in Western Sughd devoted to research. There are periodic changes in the graves and burial customs of the people who lived in this area. Depending on the age, gender, social status of the graves, the graves are divided into large and small graves, rich and poor graves depending on the finds from the grave. From the anthropological materials taken from the graves, the processes of their periodical ethnic group changes are observed. It was concluded that the periodical date of the graves studied in the territory of Western Sughd is from III-II millennium BC to VII-VIII and even X-XI centuries.

**Key words:** Western Sughd, graves, corpses, semi-basement, catacomb, bronze age, jar, bell.

**Аннотация:** Статья о курганах, расположенных в Западном Согде. Посвящен исследованиям. Периодически происходят изменения в могилах и погребальных обычаях людей, живших на этой территории. В зависимости от возраста, пола, социального статуса, в зависимости от находок могилы делятся на большие и малые, богатые и бедные. По антропологическому материалу, извлеченному из могил, прослеживаются процессы периодической смены их этнической принадлежности. Сделан вывод, что периодическая датировка изученных могил на территории Западного Согда - от III-II тыс. до н.э. до VII-VIII и даже X-XI вв.

**Ключевые слова:** Западный Согд, могилы, скелет, полуподвал, катакомбы, бронзовый век, кувшин, колокол.



**KIRISH.** Sug‘d qadimdan kishilik jamiyatining barcha bosqichlarini bosib o‘tgan. Bu taraqqiyot bosqichlar davomida yuksak madaniyat yaratilgan. Qishloq, makonlar, qal‘a, qo‘rg‘onlar, shaharlar yaratilib, buyuk ipak yo‘lining savdosi qaynagan, turli madaniyatlar qorishgan o‘lka hisoblanadi. Bu hudud aholisining o‘z o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lganligini o‘rta asrlarda ipak yo‘lidagi savdoda Sug‘d tili savdo tili bo‘lganligining o‘zi isbotlaydi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Sug‘d-Sug‘diyona o‘lkasi tarixiy va arxeologiya fanlarida geografik jihatdan shartli ravishda uch qismga bo‘linadi: Samarqand viloyati hududi Markaziy Sug‘d, Buxoro va Navoiy viloyati hududi G‘arbiy Sug‘d, Qashqadaryo viloyati hududi esa Janubiy Sug‘d deb yuritilgan (A.Rayimqulov, 2017). Bundan tashqari G‘arbiy Sug‘d, uning shahar va qishloqlari haqida Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” kitobida Karmanaga shunday ta‘rif bergan: “Karmana Buxoro qishloqlari jumlasidan bo‘lib, unda jome masjid barpo etilgan, shoirlar va adib ko‘p bo‘lgan” (Narshaxiy, 1996). Markaziy Sug‘ddan G‘arbiy Sug‘dga kirish darvozasi hududida bo‘lgan Karmana tumani Shimolda Nurotaning Qorabog‘ tizmalari, shimoli-g‘arbda Qizilqum, janubda esa Ziyovuddin-Zirabuloq tog‘ tizmalari, sharqda hosildor bog‘lar bilan o‘ralgan, geografik jihatidan juda qulay joylashgan. Karmana tumani Buxoro Sug‘dining sharqiy chekkasida, ikki yirik shahar – Samarqand va Buxoro o‘rtasida, qadimiy “Shoh yo‘li” (shoh ruh) ustida joylashib, muhim markaz sifatida iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Somoniyning “Nasabnoma” asarida ham o‘rta asrlarda Karmanada bir necha olim-ulamolar yetishib chiqqanligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan (Abdulkarim As-Sam‘oniy, 2017). Istaxriy, Muqaddasiy, Yaqubiy asarlarida esa iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan rustoq markazi sifatida tilga olingan. Shu bilan birga, G‘arbiy Sug‘d hududiga kiruvchi hozirgi Qiziltepa tumani ham o‘tmishda ma‘lum va mashhur ulkan Sug‘d tarixiy-madaniy mintaqasining muhim, ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan. Qiziltepa tumani qadimda Buxoro ma‘muriy vohasi tarkibida faoliyat ko‘rsatgan va aksariyat hollarda undagi davlat tuzumi, siyosiy voqeliklar ta‘siri ostida bo‘lgan. Tumanning geografik joylashuvi alohida

xususiyatga ega bo‘lib, u Buxoro vohasining cho‘l-dasht hududlari bilan tutash eng chekka, shimoliy-sharq qismida joylashgan. Tuman shimol tomoni Qizilqumning Ichkilik qum deb ataluvchi bir qismi kirib kelgan. Voha Zarafshonning chap qirg‘og‘i bo‘ylab Malik Cho‘li, Qiziltepa, Quyimozor adirlari bilan, janub tomondan sho‘rxok taqir yerlardan iborat bo‘lgan Qarnob cho‘li bilan tutashib ketgan. G‘arb tomondan voha (G‘ijduvon, Vobkent, Buxoro tumanlari bilan birga) Shohruh kanali o‘zani bilan chegaralangan. Qiziltepa tumanining qadim o‘tmishiga daxldor arxeologiya yodgorliklarining o‘rganilish tarixi har doim shu soha mutaxassislari va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan (Ж.Мирзахамидов, Ш.Одилов, М.Пардаев, Р.Максудов, 2002). Tuman tarixiy yodgorliklari haqida dastlabki, atroflicha ma‘lumotlarni 1915-yilda Buxoroga qisqa muddatli xizmat safari bilan tashrif buyurgan Turkiston Havaskor Arxeologlari to‘garagi a‘zosi L.A.Zimin o‘z hisobotida yozib qoldirgan (Л.А.Зимин, 1916) Qiziltepa tumani hududida joylashgan arxeologik yodgorliklarda tom ma‘nodagi birinchi izlanishlarni 1934-yilda Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitaj Muzeyi va O‘zbekiston tarixiy yodgorliklarini o‘rganish qo‘mitasi hamkorligidagi ekspeditsiya tomonidan mashhur sharqshunos olim A.Yu. Yakubovskiy rahbarligida o‘tkazilgan. Ekspeditsiya a‘zolari tomonidan tumandagi Kampirak devori, Qiziltepa, Shahri Vayron, Abu Muslimtepa, shuningdek markaziy Sug‘dning g‘arbiy hududida joylashgan katta-kichik aholi punktlari shaharlarni ham sanab o‘tgan. Jumladan Dabusiya va Arbinjon (hozirgi Robijon) kabi shahar yodgorliklari haqida bu yodgorliklar Kampirak devori va buyuk ipak yo‘li yoqasida joylashgan aholisining gavjum yashaganligi haqida aytib o‘tadi. Shuningdek A.Yu Yakubovskiy o‘z tadqiqotlari davomida vohaning boshqa katta kichik qal‘a qo‘rg‘onlarida dastlabki, kichik hajmli, davriy sanalarni aniqlash maqsadida qazuv ishlari amalga oshirib, yodgorliklarning o‘lchovlari olinib yodgorliklarning topografik xaritalari yaratilgan (А.Ю.Якубовский. 1934, 1940). Bu tadqiqot ishlarida birinchi o‘zbek arxeologlari akademik Yahyo G‘ulomov, akademik V.A.Shishkin va Turdi Mirg‘iyosovlar qatnashgan. Zarafshonning quyi oqimidagi mozorqo‘rg‘onlarni o‘rganishni davriy jihatdan 3 guruhga ajratish mumkin:



Birinchi bosqich 1950-1960-yillar;  
Ikkinchi bosqich 1960-1970-yillar;  
Uchinchi bosqich 1970-yildan hozirga kunga qadar bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi.

Zarafshonning quyi oqimida topilgan birinchi ibtidoiy tarix yodgorligi 1950-1953-yillarda Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya a'zolari tomonidan o'rganilgan. Ushbu yillar davomida Buxoro viloyatining Qorako'l tumani Zamonbobo ko'li bo'yidan bir qancha qabrlar va aholi manzilgohlarining topilishi natijasida ushbu hududni Zamonbobo madaniyati deb nomlash uchun sabab bo'ldi. Zamonbobo aholisi bronza davrida (miloddan avvalgi 2-ming yillikning birinchi yarmida) yashab o'troq dehqon va uy chorvachiligi bilan shug'ulangan. Zamonbobo qabristoni 1950-yillarda aniqlangan bo'lib, 53-yillargacha akademik Y.G'ulomov 1961-64-yillarda A.Asqarovlar tomonidan arxeologik qazishma ishlari olib borilib, bu yerdan 45 ta qabr ochib o'rganilgan. Qabrlarni ochib o'rganish davomida ko'plab natijalar qo'lga kiritilgan. Jumladan qabrlarning tuzilishi, qabr ichidan topilgan jasadlarning ko'milish holati, qablardan topilgan topilmalarning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lindi. Qabrdagi jasadlar bukchaygan holatda yotqizib ko'milgan. Bu yerda o'rganilgan 45 ta qabr turli chuqurlik va o'lchamlarda saqlangan bo'lib, yer sathidan 10-15 sm chuqurlikdagi o'ra shaklidagi, 1,5-2 m li katakomba shaklidagi qabrlar o'rganilgan. Ehtimol Zamonbobo qabristonidagi qabrlarning barchasi katakomba shaklidagi qabrlar bo'lishi mumkin. Ammo qabr tuzulishiga yerning sho'rlashi va shamol o'z ta'sirini o'tkazib, qabrning asl holatining yo'qolishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. O'z holatini saqlagan qabrlarda qabr buyumlari, skelet holati boshqa turdagi qablarga nisbatan ancha boy va yaxshi saqlangan. Qablardagi mayitlar jamoaviy qabrlar, alohida yakka ko'milgan jasadlar ham mavjud bo'lib, mayit atrofida sopoldan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari, toshdan yasalgan bargsimon paykonlar, ayollar qabrlarida yarim qimmatbaho bo'lgan feruza toshlar, misdan yasalgan turli buyumlar, sopol haykalcha, baliq ovlash uchun ishlatiladigan bronza ilgak kabi topilmalar aniqlangan. Mayit atrofida qo'yilgan sopollarda boshqoqli ekinlarning kuygan qoldiqlari ham topilgan. Shuningdek, qablarda misdan yasalgan turli taqinchoq va uy-ro'zg'or buyumlari qatorida toshdan yasalgan taqinchoqlar hamda paykonlarning

topilishi Zamonbobo aholisining turmush hayotida ovchilik ham muhim ahamiyat kasb etganligini hamda toshdan yasalgan qurollardan keng ko'lamda foydalanganliklarini ta'kidlash joiz. O'rganilgan qablardan shuni xulosa qilish mumkinki, Zarafshon vohasining quyi oqimida bronza davri aholisi o'troq dehqon va uy chorvachiligining o'ziga xos taraqqiyotiga erishganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, qablardan topilgan topilmalariga qarab boy-kambag'alligi, mayitning tiriklik davrida jamoadagi ijtimoiy mavqeyiga ko'ra dafn etilgan, deb aytish mumkin (Я.Ф.Гуломов, У.Исломов, А.Аскарлов, 1966). Shuningdek, Buxoro viloyatidagi mozor qo'rg'onlarni o'rganish Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzeyi bilan hamkorlikda olib borilib, qazishmalarda K.I.Maksimov, keyin esa X.Dukelar qatnashdi. Zarafshonning quyi oqimida joylashgan qabr-qo'rg'onlarni o'rganish guruhi tarkibida turli davr mutaxassis xodimlari ham qatnashgan, jumladan V.I.Sareanidi, P.G.Velichko, A.Islamov, G.B.Suyunovlar. Qabrlarni ochib o'rganish davomida topilgan antropologik topilmalar dala va laboratoriya sharoitida kraneologik materiallarni aniqlash amalga oshirildi (O.B.Обельченко, 1992). 1952-yilda taniqli arxeolog V.A.Shishkin va O.V.Obelchinko Quyu mozor (O.B.Обельченко, 1956) va Lavandaki (O.B.Обельченко, 1961) qishloqlari atrofida arxeologik qidiruv ishlarini o'tkazdi.

**Qalqonsoy** qabrlarini umumiy tahlil qilinganda o'rganilgan 15 ta uncha katta bo'lmagan qabrlar ochilgan bo'lib qabrlarning diametri 15-20 m dan oshmaydigan, balandligi 100-150 sm gacha bo'lgan qabrlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Qabrlarning shakl tuzilishiga ko'ra yer sathidan uncha chuqur bo'lmagan qabrlar 20-30 sm hamda chuqurligi 50-1 m gacha bo'lgan qabrlar borligi aniqlangan. Qabrlarni o'rganish davomida ba'zi qablarda mayitlarning ostidan qamish, yog'och to'shamalardan foydalanilganligi ko'rinadi. Ehtimol, Qalqonsoy qabrlarining barchasida bu kabi to'shamalar mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo namlik va kemiruvchi hayvonlarning ta'siri sababli saqlanib qolmagan bo'lishi mumkin. Faqatgina bitta qabrdan juda kam sonli qabr buyumlari aniqlangan. Topilgan topilmalar: bronzadan yasalgan cho'chqa haykalchasi, toshdan yasalgan bilaguzuk, qora toshdan yasalgan qo'ng'iroqcha va choynak topilgan. Topilmalarga ko'ra ushbu qabrdagi mayit

nufuzli insonga tegishli bo'lgan bo'lishi mumkin, deb taxmin qilish mumkin.

**Hazora** qabristonidan 63 ta qabr ochib o'rganilgan bo'lib, bu yerdagi yirik hajmdagi katakomba tuzilishidagi qabrlar aniqlangan. Mazkur Katakomba qabrlarni ikki turga ajratish mumkin. Birinchi tur qabrlar dromusi, ya'ni kirish yo'lagi tepalikning shimoliy qismida joylashgan qabrlar. Ikkinchi turdagi katakomba qabrlarining kirish yo'lagi janubiy tomonda joylashganligi bilan farqlanadi. Qablardan topilgan topilmalarga boy bo'lgan qabrlar va mayitsiz kenataf turdagi qabrlar ham aniqlangan. Aniqlangan sopol idishlar ko'za, kosacha, xumcha kabi uy-ro'zg'or buyumlari mavjud. Sopol kulolchilik charxida yasalgan. Qablardagi skeletlarning ko'pchiligining bosh qismi shimolga, ba'zan sharqqa tomon yo'naltirilganligi aniqlangan bo'lsa, faqat 1 ta qabrda zardushtiylik dinidagi kabi sopol idishga solib ko'milgan qabr aniqlangan.

**Shahriyayron qabristonida** 7 ta qabr qazib o'rganilgan bo'lib, ularning o'lchamlari bir-biridan farq qiladi. Qabrdan ko'plab sopol buyumlar, suyak qoldiqlari topilgan. Ushbu hududlarda o'rganilgan qabrlarning tuzilishi va shakliga hamda topilmalarining tuzilishi shakliga ko'ra davriy jihatdan 3 ta davrga bo'linadi.

-Birinchi turdagi qabrlar tuproqli qabrlar, mil avvalgi VII-II asrlar.

-Ikkinchi turdagi qabrlar tuzilishi va topilmalarining turlariga, dafn etish tartibiga ko'ra ajratilgan bo'lib, katakomba shaklidagi yer osti qabrlari, ularning davriy sanasi mil. avv. I-II asrlar.

-Uchinchi guruh qabrlar Miloddan avvalgi II-VII asrlarga oid.

Qolgan dafn marosimlaridan farqli o'laroq, kenotaf va sopol yasalgan idishlarga ko'milgan qabr turlaridir. Kenotaf qabrlar bilan bog'liq bo'lgan o'ta noyob guruhi ossuariylar, xumlar yoki yirik uy-ro'zg'or idishlariga ko'milganligi bilan farqlanadi. Zarafshon vodiysi qabr-qo'rg'onlaridan topilgan bu oxirgi qabr guruhi V-VI asrlarga oid bo'lsa, bu dafn marosimlarida foydalanilgan ba'zi buyumlarning davriy sanasiga ko'ra, ehtimol, VII-VIII asrlarga, ya'ni arablar istilosiga qadar bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu qabrlar arablar tomonidan sug'd va aholi islom diniga o'tkazish boshlanishidan avval bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu turdagi ko'mish odati islomdan keyin ham davom etgan. Buxoro shahrining eski Shahrison qismida 2018-2019-

yillarda olib borilgan qazishma ishlari davomida ham uy-ro'zg'or buyumlariga turli sopol yasalgan xum va quvurlarga solib ko'mish odati kuzatilgan. Ushbu qablardagi aksariyat suyaklar yosh bolalarga oid ekanligi ma'lum bo'ladi (Дж.К.Мирзаахмедов, Р.Ранте, А.Торгоев, Ш.Т.АДЫЛОВ, 2018-2019).

Yosh bolalarni sopol idishlarga solib ko'mish ularni turli hasharot, qurt-qumursqalardan va yerning namligidan saqlash maqsadida va yoki yuqumli kasallik bilan vafot etgan bolalarni kasallikning tarqalishining oldini olish maqsadida sopol quvurlarga solib dafn etgan bo'lishlari mumkin, deb taxmin qilish mumkin.

Navoiy va Buxoro viloyatining turli tumanlarida o'tgan asrning 80-90-yillarida arxeologik guruhlar tuzilib qidiruv-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, 1986-yilda Navoiy tumani va Xatirchi tumanlarida qal'a qo'rg'onlar, tepaliklar va qabrlar aniqlanib ro'yxatga olingan (Ю.П.Манилов, 1987). 1986-yil Buxoro viloyati Navbahor tumani hududida qidiruv-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot natijasida qishloq, makonlar, shaharlar o'rni va qabr-qo'rg'onlar aniqlangan (Ю.П.Манилов, 1986). Shuningdek, Manilov tomonidan 1987-yilda ham Navoiy viloyatining Navbahor va Nurota tumani hududidagi arxeologik tepaliklar, karvonsaroylar hamda qoyatosh rasmlar ro'yxatga olingan. 1992-yil Buxoro viloyatining Tomdi tumanida ham arxeologik qidiruv-tadqiqot ishlari amalga oshirilib, bu yerda qabr qo'rg'onlar, qal'a va shaharning qadimgi o'rinlari borligi aniqlangan (Ю.П.Манилов, 1992). Bundan tashqari, Manilov boshchiligida Buxoro va Navoiy viloyatlarining Qiziltepa va Konimex tumanlarida qidiruv tadqiqot ishlari amalga oshirilgan (Ю.П.Манилов, Р.Абдураимов, 1988).

**МЕТОД.** Ushbu mavzuni yoritish davomida yozma manba va ilmiy adabiyotlarning bir necha uslublari, jumladan yuqoridagi ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, olingan so'nggi arxeologik izlanishlar ma'lumotlari, qazishmalardan olingan materiallar tahlili, ularning davriy ketma-ketligi tartibida hamda real aniqlikda foydalanildi.

**МУХОКАМА.** G'arbiy Sug'd hududida joylashgan arxeologik yodgorliklar va mozarqo'rg'onlar har doim bu soha mutaxassislarining diqqat-e'tibori markazida bo'lib kelgan va turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

Jumladan Zamonbobo qabristoni, aholi turarjoy qoldiqlarining topilishi va ushbu aholing tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos taraqqiyot yaratishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat ekanligi. Faqatgina Zamonbobo yodgorligi emas, ushbu mintaqada yashagan aholining qadim va ilk o'rta asrlarda bunyod etgan shahar davlatlarining taraqqiyoti, ilk o'rta asrlarda savdo yo'lidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan Buxoro kabi tarixiy sharhlarning yuksalish sabablari. Qabrlarda ko'mish odatlari, davriy sanalardagi o'zgarishlar, qabr ichidan topilgan topilmalarning ahamiyati, diniy e'tiqodidagi o'xshash tomonlarini ko'rish mumkin. Ya.G'ulomov, A.Yu.Yakubovskiy, O.V.Obelichenko, Yu.P.Manilovlarning mazkur hududda olib borgan arxeologik qazishma va kuzatuv tadqiqotlari natijasi boy tarixiy jarayonlar gavdalanirildi. So'nggi yillarda mazkur hududlarda Ya.G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti xodimlari ham o'z tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Jumladan, Navoiy viloyatining Karmana tumanida 2022-yilda arxeologik qidiruv tadqiqot ishlarini amalga oshirdi (Саидов М.М., Рахимов К.А., Холматов А.Н. 2022).


Joriy yilning 14-15-sentabr kunlar Navoiy viloyatining Navbahor tumani Duldul qishlog'ining shimoliy qismida, Navbahor va Konimex temir yo'l kesishmasining g'arbiy qismida, Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'ida baliq boqish uchun sun'iy havzalarga aylantirilgan ko'llarning yuqori qismida joylashgan dasht-cho'l hududning 5 km uzunlikdagi, eni esa 1 km bo'lgan hududda kuzatuv-qidiruv ishlari amalga oshirildi.

Qidiruv tadqiqotlar davomida turli hajimdagi 40 ta qabr, 1 ta taxminiy qishloq-makon o'rinlari aniqlandi. Topilgan qabrlardan hajmi 1m dan 25-30 m gacha, balandligi 15-20 sm dan 150-170 sm gacha bo'lgan qabrlar mavjudligi kuzatuvlar davomida aniqlandi. O'rganilgan hududdan va qabrlar atrofidan 100 ga yaqin sopol va tosh parchalari topildi. Topilgan sopol parchalari ilk o'rta asrlar va o'rta asrlar davriga oid ekanligi ma'lum bo'ldi. Topilgan sopol parchalaridan 12 tasi shakli va o'lchamlarini aniqlash imkoniyatlari mavjudligi sababli ularning chizmalari tayyorlandi. Sopollar, ko'zacha, xurmacha, xumcha, piyola va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarining parchasidan iborat. Topilgan qabrlar koordinatalari yordamida hududning zamonaviy xaritasi yaratildi.

### Qabrlarning shakliga ko'ra guruhlash.


Topilgan qabr-qo'rgonlarning katta va kichikligiga qarab 3 turga ajratildi:

- Katta hajmdagi qabrlar, ya'ni o'lchamlari 15 metrdan 30 metrgacha bo'lgan qabrlar soni 10 ta.
- O'rtacha kattalikdagi qabrlar 10 metrdan 15 metrgacha, 10 ta.
- Kichik hajimdagi qabrlar. 1 metrdan 10 metrgacha bo'lgan qabrlar 20 ta ekanligi aniqlandi (diagramma 1)



### Bundan tashqari qabrlarning balandligiga qarab ham 3 turga ajratildi:

- Birinchi tur. O'lchamlari 1m va undan yuqori bo'lgan qabrlar bo'lib, bularning soni 7 ta.
- Ikkinchi tur. Balandligi 50 sm dan 1m gacha bo'lgan qabrlar, bularning soni 4 ta.
- Uchinchi tur qabrlarning balandligi 0sm dan 50 sm gacha bo'lgan qabrlar, 28 ta.



### NATIJALAR.

Mazkur hududda bizdan oldin olib borilgan qazuv va kuzatuv ishlari davomida aniqlangan qabrlar bilan biz topgan qabrlarning tuzilishida juda yaqinliklar borligi aniqlandi. Quyimozor, Lavandaq, Hazora, Shahrivayron Qalqonsoy hududlarida o'rganilgan

qabrlarning o'Ichamlari bilan biz o'rgangan qabrlarning o'xshash ekanligi ko'rinadi. Bizning tadqiqotimiz davomida qazuv ishlarini amalga oshirmaganimiz sababidan qabrlarning chuqurligi, qabrlar ichidagi topilmalar haqida so'z yuritishdan yiroqmiz. O'rganilgan qabrlarda keyingi yillarda qazuv ishlarini olib borish va topilmalarni qiyosiy tahlil qilishni maqsad qilib qo'ydik.

**XULOSA.** G'arbiy Sug'd nomi bilan atalgan va hozirda Navoiy va Buxoro viloyati va uning tumanlari hududida qadimdan o'troq dehqon va ko'chmanchi chorvador aholi yashashi uchun qulay hudud hisoblangan. Ushbu hududlarda aholi muntazam chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Bunga asosiy sabablardan biri vohani kesib o'tgan Zarafshon daryosi bo'lsa, ikkinchi tomondan Sho'rko'l va Ayakag'itma ko'lining mavjudligi mazkur hududda yashagan ko'chmanchi chorvador va o'troq dehqon xo'jaliklarining yashashi uchun hamda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratgan deyish mumkin. Mahalliy aholi vakillaridan biri Abduqahhor boboning so'zlariga ko'ra, Zarafshon daryosi toshganda aholi biz o'rganayotgan hududga qochib chiqib jon saqlashgani haqida ma'lumotlar keltiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Zarafshon daryosining qadimda ham to'lib oqishi aholining chorvachilik, dehqonchilik va baliqchilik bilan shug'ullanishi uchun qulay bo'lgan deb aytish mumkin. Ammo bu yilgi tadqiqot mavzuyim "Qadim va ilk o'rta asrlarda g'arbiy Sug'd mozor qo'rg'onlari geofizik tadqiqotlarda" bo'lganligi sababli biz hali bu qabrlar haqida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz, chunki aniqlangan qabrlarda arxeologik qazuv tadqiqot ishlari amalga oshirilmaganligi sababli bu qabrlar qaysi davr aholisiga oid ekanligi haqida bir so'z deyish mumkin emas albatta.

O'rganilgan qabrlarning o'Ichamlariga qaraydigan bo'lsak, Hazora, Quyimozor, Lavandaq, Qiziltepa Qalqonsoy hududida aniqlangan qabrlar o'Ichamlariga yaqin. Topilgan qabrlarda arxeologik qazuv ishlarini amalga oshirish orqali qabrlarning aniq davri va sanasi, qaysi qabila va yoki etnik guruhga oid ekanligiga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A Raimkulov. Katta Sug'd. Sug'diyona. – Toshkent, 2017.
2. As-Sam'oniyy Abdukarim. Nasabnoma. – Toshkent, 2017.
3. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent, 2011.
4. А.Ю.Якубовский. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 ТОВЭ., Т.2.Лю 1940, 113-133 - 1934, 1940 .
5. Дж.К. Мирзаахмедов Р. Ранте, А. Торгоев, Ш.Т. Адылов 2018-2019. Археологические исследования у юго-западного угла старого шахристана Бухары в 2019 году // Узбекистонда археологик тадқиқотлар. 2018-2019 йиллар. – Самарқанд, 2018-2019 й.
6. Ж.Мирзаахмедов Ш. Одилов, М.Пардаев, Р.Максудов. Қизилтепа қадимиятидан лавҳалар. – Тошкент, 2002.
7. Зимин Л.А. Отчет о двух поездках в Бухару с археологической целью. Протокол ТКЛА год двадцатый, вып. – Тошкент, 1916.
8. М.М.Саидов. К.А.Раҳимов, А.Н.Холматов. О'zbekiston arxeologik yodgorliklari kattaligi. – Samarqand, Samarqand arxeologiya instituti, 2023. - Т.7.
9. Манилов Ю.П. Свод Тандынского района Бухарской области. – Самарқанд, 1992.
10. Манылов Ю.П. Работа по составлению карты археологических памятников. – Самарқанд, 1987.
11. О.В. Обельченко. Лявандакский могильник - Ташкент : ИМКУ, 1961. - Т. Вып. 2.
12. О.В. Обельченко Кую-Мазарский могильник. - Ташкент : ТИИА АН УзССР, 1957. - Т. VIII.
13. О.В.Обельченко. Культура античного Согда. – Москва, 1992.
14. Ю.П.Манилов. Свод Бухарской области Навбахарского района. – Самарқанд, 1986.
15. Ю.П.Манилов. Р.Абдураимов. Отчёт археологических исследований по составлению карты археологических памятников Кизилтепинского и Конимехского районов Навоийской области. – Самарқанд, 1988.
16. Я. Ф.Фуломов. У.Исломов. А.Аскарлов. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана // - Тошкент, 1966 г.



## ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НА МАТЕРИАЛЕ СЛАВЯНСКИХ ЯЗЫКОВ

Юлдашева Дильмира Тулкиновна, научный сотрудник  
Хорезмской академии Маъмуна, учительница 11-школы  
города Хивы

## SLAVYAN TILLARI MATERIALLARI BO‘YICHA ETNOLINGVISTIK TADQIQOTLAR

Yuldasheva Dilmira Tulqinovna, Xorazm Ma'mun akademiyasi  
ilmiy xodimi, Xiva shahar 11-son maktab o'qituvchisi

## ETHNOLINGUISTIC RESEARCH ON THE MATERIAL OF SLAVIC LANGUAGES

Yuldasheva Dilmira Tulqinovna, Researcher Khorezm Mamun  
academy, Teacher of school 11 in Khiva



<https://orcid.org/0009-0002-6780-8015>

**Аннотация:** Этнолингвистика – раздел науки, изучающий взаимоотношения языка и этнической принадлежности. Этнолингвистические исследования на материалах славянских языков направлены на изучение культуры, обычаев, исторического развития и особенностей языка славянских народов. Славянские языки же представляют собой группу языков с широко распространенной и богатой историей. К ним относятся русский, украинский, белорусский, польский, чешский, словацкий, болгарский, сербский, хорватский и другие языки. Каждый из этих языков имеет свои этнолингвистические особенности, изучение которых помогает лучше понять культуру и историю славянских народов.

**Ключевые слова:** славянские языки, лексика, семантика, этнолингвистические исследования, грамматика, язык, обычаи.

**Аннотация:** Etnolingvistika — bu til va etnos o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan sohasidir. Slavyan tillari materiallari bo'yicha etnolingvistik tadqiqotlar, slavyan xalqlari madaniyati, urf-odatlar, tarixiy rivojlanishi va tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Slavyan tillari, o'z navbatida, keng tarqalgan va boy tarixga ega bo'lgan tillar guruhidir. Ular o'z ichiga rus, ukrain, belorus, polsha, chex, slovak, bolgar, serb, xorvat va boshqa tillarni oladi. Ushbu tillarning har biri o'ziga xos etnolingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'rganilishi slavyan xalqlari madaniyatini va tarixini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**Калит со'злар:** slavyan tillari, leksika, semantika, etnolingvistik tadqiqotlar, grammatika, til, urf-odatlar.

**Abstract:** Ethnolinguistics is a branch of science that studies the relationship between language and ethnicity. Ethnolinguistic research on the materials of the Slavic languages is aimed at studying the culture, customs, historical development and peculiarities of the language of the Slavic peoples. Slavic languages, on the other hand, are a group of languages with a widespread and rich history. They include Russian, Ukrainian, Belarusian, Polish, Czech, Slovak, Bulgarian, Serbian, Croatian and other languages. Each of these languages has its own ethnolinguistic features, the study of which helps to better understand the culture and history of the Slavic peoples.

**Key words:** Slavic languages, lexicon, semantics, ethnolinguistic studies, grammar, language, customs.

**ВВЕДЕНИЕ.** Этнолингвистические исследования славянских языков начинаются прежде всего с изучения их лексики и семантики. В каждом славянском языке есть свои слова, словосочетания и выражения, отражающие обычаи, традиции и быт этого народа. Например, в русском языке слово «душа» не только означает «душа», но и олицетворяет психику, эмоции и внутренний мир русского народа. Также в украинском языке слово «село» отражает важность деревенской жизни, ее традиционные ценности и социальную структуру. Такие лексические элементы помогают понять уникальную культуру и быт славянских народов.

### **АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ.**

Этнолингвистические исследования также направлены на изучение фонетических и грамматических особенностей славянских языков. Каждый славянский язык имеет свою фонетическую систему и грамматические правила. Например, обилие согласных в русском языке и изменения в их произношении отражают музыкально-ритмические чувства русского народа. В других славянских языках, например в болгарском, имеются особенности в произношении грамматического рода и согласных. Эти особенности связаны с историческим развитием и культурой славянских народов и изучая их, можно более глубоко понять самобытность народа [7].

Этнолингвистические исследования также направлены на изучение языковых материалов, связанных с обычаями и традициями славянских народов. У каждого славянского народа есть свои традиции, праздники и обряды, которые выражаются через язык. Например, русский праздник «Масленица» отмечает конец зимы и начало весны. Традиционные блюда, песни и танцы, приготовленные в этот праздник, отражают культуру и образ жизни русского народа. Также обряд «Кукери» болгарского народа проводится для того, чтобы дождаться прихода весны и отогнать злых духов. Подобные обычаи и традиции имеют важное значение при изучении историко-культурного наследия славянских народов [4].

### **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ.**

Этнолингвистические исследования также

направлены на изучение диалектных различий славянских языков. Каждый славянский язык имеет свои диалекты, которые отличаются друг от друга. Например, русский язык имеет разные диалекты в Москве, Санкт-Петербурге и других регионах. Это связано с диалектными различиями, историческим развитием, географическим положением и общественной жизнью славянских народов. Диалекты дают много информации о взаимодействиях, культурных обменах и исторических процессах славянских народов. Этнолингвистические исследования также направлены на изучение исторического развития славянских народов. История славянских языков связана с их взаимоотношениями, культурными обменами и историческими событиями [2].

Например, в их языках отражены объединение славянских народов, войны, переселения народов и другие исторические процессы. Эти процессы играют важную роль в формировании самобытности и культуры славянских народов. Этнолингвистические исследования также изучают современное развитие славянских языков. Сегодня славянские языки развиваются под влиянием процессов глобализации, культурных обменов и технологических изменений. Эти процессы приводят к изменениям в лексике, синтаксисе и семантике славянских языков. Например, в славянских языках широко распространены слова и фразы, заимствованные из английского языка. Эти изменения затрагивают культуру и самобытность славянских народов [3].

Этнолингвистические исследования рассматривают современное развитие славянских языков по нескольким основным направлениям. Эти исследования учитывают взаимодействие языка и культуры, а также современные социальные и культурные процессы. В современных славянских языках широко распространены слова и фразы, заимствованные из английского и других языков. Этнолингвистические исследования изучают причины этих изменений, процесс их принятия и влияние на культуру славянских народов. Например, анализируется, как внедрение английских слов в области технологий, бизнеса и культуры меняет лексику славянских языков. В

современных условиях претерпевают изменения и диалектные различия славянских языков. Этнолингвистические исследования изучают языковые изменения в городской и сельской местности, а также появление новых диалектных форм среди молодого поколения. Эти процессы затрагивают социальную структуру и культурную самобытность славянских народов. Процессы глобализации затрагивают культуру славянских народов[1].

Этнолингвистические исследования изучают, как новые выражения, традиции и обычаи возникают в славянских языках в результате культурных обменов. Эти процессы важны для сохранения и развития самобытности славянских народов. Современные политические и социальные процессы влияют на развитие славянских языков. Этнолингвистические исследования изучают такие вопросы, как национальная идентичность, языковая политика и сохранение культурного наследия. Например, анализ политики защиты и развития языков в некоторых славянских странах показывает, как они влияют на современное развитие славянских языков. Современные технологии оказывают большое влияние на изменение славянских языков. Через Интернет и социальные сети появляются новые языковые формы, сокращения и новые выражения. Этнолингвистические исследования анализируют современное развитие славянских языков, изучая эти процессы. Этнолингвистические исследования также рассматривают взаимосвязь языка и идентичности при изучении современного развития славянских языков. Язык рассматривается как важный фактор, выражающий культуру и самобытность народа.

Поэтому важно изучить, какую роль играет современное развитие славянских языков в сохранении их культурной самобытности и

уникальности. Этнолингвистические исследования по этим направлениям способствуют более глубокому пониманию современного развития славянских языков. Эти процессы важны для сохранения и развития культуры, истории и самобытности славянских народов[5].

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Короче говоря, этнолингвистические исследования на материалах славянских языков направлены на изучение культуры, обычаев, исторического развития и специфических особенностей языка славянских народов. Эти исследования помогают понять самобытность, культуру и историю славянских народов. Этнолингвистика важна и в определении будущего славянских языков путем изучения их современного развития. Эти процессы играют важную роль в сохранении и развитии культурного наследия славянских народов.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. А.М.Макаров. Этнолингвистика: теория и практика. 2015.
2. В.Н.Топоров. Этнолингвистические исследования славянских языков. 2010.
3. Колесов Н.А. Культурные коды в славянских языках: этнолингвистический подход. 2018.
4. И.А.Соколова. Язык и культура: этнолингвистические исследования славянских языков. 2017.
5. Иванова Е.В. Лексические изменения и культурные обмены в славянских языках. 2019.
6. Петров О.В. Этнолингвистические исследования: современное развитие славянских языков. 2021.
7. Фролов С.А. Этнолингвистический анализ диалектных различий и славянских языков. 2020.
8. Щербакова Л.М. Глобализация и культурная самобытность славянских.



## JANUBIY OROLBO‘YI HUDUDINING NEOLIT DAVRI SUG‘ORILISH SAHIFASIDAN

Salayev Umrbek, Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy  
fanlar fakulteti, “Tarix” kafedrası, tadqiqotchi

## FROM THE PAGE OF NEOLITHIC IRRIGATION OF THE SOUTHERN ARAL RIVER

Salayev Umrbek, Urgench State University, Faculty of Social and  
Economic Sciences, Department of “History”, researcher

## СТРАНИЦЫ ИЗ ИСТОРИИ ОРОШЕНИЯ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЯ В ПЕРИОД НЕОЛИТА

**Annotatsiya:** Maqolada urush yillarida Xorazm xotin-qizlarining front va front ortidagi faoliyatining tarixiy tadqiqotlarda yoritilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birgalikda davriy nashrlardagi maqolalar ma'lumotlariga ham alohida to'xtalangan.

**Kalit so'zlar:** Milgotin, Xorazm tarixi, Xotira kitobi, front, front orti, xotin-qizlar, qishloq xo'jaligi, sanoat, ilm-fan, adabiyot, madaniyat.

**Abstract:** The article provides information on historical studies covering the activities of Khorezm women at the front and behind the front during the war. At the same time, the articles in the periodicals are also focused on information.

**Key words:** Milgotin, history of Khorezm, book of memory, front, behind the front, women, agriculture, industry, science, literature, culture.

**Аннотация:** В статье представлены сведения об исторических исследованиях, освещающих деятельность хорезмских женщин на фронте и в тылу в годы войны. При этом статьи в периодических изданиях также ориентированы на информацию.

**Ключевые слова:** Мильготин, история Хорезма, книга памяти, фронт, тыл, женщины, сельское хозяйство, промышленность, наука, литература, культура.

**KIRISH.** Bugungi kunda jahon mamlakatlarida Ikkinchi jahon urushi davri tarixini tadqiq etish o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, balki davrlar o'tishi bilan yanada dolzarbliki kuchayib bormoqda. Urush yillarida sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

hayoti hamda bu sohalar holati va muammolarini o'rganish bo'yicha MDH davlatlarida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ikkinchi jahon urushi davri mavzusi bo'yicha jahonda, sobiq SSSRda va XX asr 90-yillaridan to hozirgi kungacha MDH davlatlarida, shu jumladan

O'zbekistonda ham juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, bu tadqiqotlarning ko'pchiligi, ayniqsa, sovet davri tadqiqotlari sovet kommunistik mafkurasi asosida yoritilganligi sababli ulardan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati masalasiga oid bir nechta ilmiy izlanuvchilarning maqola, kitob, broshyura, monografiya, dissertatsiyalari, davriy nashrlardagi maqolalar va bir qancha arxiv materiallari tahlil qilindi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Maqolada obyektivlik va tarixiylik prinsipi asosida, ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilingan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** O'zbekistonliklarning Ikkinchi jahon urushi yillaridagi taqdirleri aks etgan tadqiqotlar XX asr 90-yillaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda ko'lami ancha kengaydi. Arxiv fondlarining aynan urush davriga oid qismi maxfiylik darajasidan chiqarilishi hamda og'zaki tarix ma'lumotlarining ko'payishi mazkur mavzuga yanada kengroq va ilmiy xolislik nuqtayi nazaridan yondashish lozimligini ko'rsatadi.

Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar jumlasiga, 1941-1990-yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar kirib, yuqorida ta'kidlanganidek, ularda Ikkinchi jahon urushining barcha jabhalarida yuz bergan voqealar o'z aksini topgan. Bu davr tadqiqotlarining xususiyati va mazmun-mohiyatiga asoslanib ham ikki guruhga bo'lish mumkin. Jumladan, birinchi guruh manbalari bu urush yillaridagi respublikada hamda Xorazm viloyati bo'yicha statistik to'plamlar va davriy nashrlar ma'lumotlari aks etgan arxiv materiallari; ikkinchi guruh urush yillarida o'zbekistonliklar va qisman Xorazm viloyati mehnatkashlari hayoti va faoliyati yoritilgan risola va monografiyalar.

O'zbekiston aholisining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi frontdagi va front orti faoliyatiga bag'ishlangan monografiyalar, tadqiqot va maqolalar juda katta ko'pchilikni tashkil qiladi. Shulardan ko'proq xorazmlik ayollar to'g'risida ma'lumot berilgan ilmiy asarlar keltirib o'tiladi. Qolaversa, bu tadqiqotlar sovet davri mafkurasi asosida yozilganligi uchun ulardan ehtiyotkorlik bilan, tarixiy xolislik asosida foydalanish lozim.

Tadqiqotchi V.S.Milgotinning Ikkinchi jahon urushi va unda Xorazm viloyati aholisining ishtiroki

mavzusiga bag'ishlangan "Солдаты из Хорезма" asari juda muhim asar hisoblanib, kitobda ko'plab xorazmlik qahramonlar to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilsa-da, bu tadqiqot ishida xotin-qizlar masalasiga juda kam to'xtalangan[1].

Shu bilan birga mazkur mavzuga oid tadqiqotlar ichida statistik xususiyatga ega bo'lgan va jamoa mualliflar guruhi tomonidan chop etilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega[2]. Xususan, Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining frontdagi va front ortidagi jasorati, xo'jalikning turli sohalari hamda ilm-fan va madaniyat sohasidagi mardonavor mehnati V.I.Yefimov, E.Voskoboynikov, V.Yakovlev, J.Kalimbetov, I.Po'latov, A.Mizarbayev, L.Mamedova, L.Yusupov, R.Aminova, Y.Yergasheva, Sh.Ochilova kabi tadqiqotchilar monografiya va dissertatsiya tadqiqotlarida aks etgan[3]. Yana bunday tadqiqotlar orasida davlat rahbarlarining matbuotda e'lon qilingan nutqlari asosida chop etilgan risolalar muhim o'rin tutib, ularda respublika iqtisodiyotining harbiylashtirilishi, qishloq xo'jaligi, fashizmga qarshi kurash va boshqa masalalar yoritilgan ma'lumotlar keltirilgan[4].

M.Matyaqubovning dissertatsiya ishi, monografiya va maqolalarida Xorazm viloyati mehnatkashlarining urush yillaridagi qahramonliklari doirasida, qisman Xorazm viloyati aholisining mehnat faoliyati masalasiga ham to'xtalib o'tilgan[5]. R.Djumaniyazov o'zining arxiv ma'lumotlariga asoslangan tadqiqotida Xorazmning XX asrning 20-yillaridan to 90-yillarigacha bo'lgan davrdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini xronologik izchilikda ochib bergan[6].

Yuqoridagi tadqiqotlarda tadqiqotchilar Xorazm aholisining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi ahvoliga o'z e'tiborlarini qaratgan bo'lsalar-da, ammo, ular to'liq sovet mafkurasi ta'sirida yozilganligi yaqqol ko'zga tashlanib, bu urushda g'alaba qozonishda sovet hukumati va kommunistik partiyaning o'rniga ortiqcha baho berilgan. Zero, o'sha davr vaziyatidan kelib chiqib Vatan uchun jonini fido qilib, zahmat chekkan xalqning urush yillaridagi og'ir turmush tarziga, bu g'alabaga qanchalik katta yo'qotishlar va og'ir ma'naviy-ruhiy ezilishlar asosida erishganliklari masalalariga deyarli e'tibor qaratilmagan.

Yana bir guruh manbalar bu urush davrlari va urushdan keyingi yillar matbuot materiallari bo'lib, gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalarda



Xorazm viloyati mehnatkashlarining urushi yillaridagi og'ir, ammo qahramonona faoliyati o'z aksini topgan[7]. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, aynan, 1941-1991-yillar oralig'ida Xorazm vohasi aholisining Ikkinchi jahon urushida g'alabaga qo'shgan hissasini mufassal yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilmagan.

O'zbekistonda, sobiq sovet davlati tarkibiga kirgan davlatlarda va xorijda XX asr 90-yillaridan boshlab to hozirgacha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga, mustaqillik yillarida respublikada II jahon urushi tarixi yangicha talqin va qarashlar asosida yaratilgan tadqiqot ishlari kiradi. Bular: H.Ziyoyev, D.A.Alimova, L.S.Ivanova, A.A.Golovanov, I.M.Saidov, H.I.Azimov va boshqalarning asarlari hisoblanadi. Lekin bu tadqiqotchilar tadqiqotlarida ham Ikkinchi jahon urushi front va front orti jabhalaridagi xorazmliklarning faoliyati masalasiga kam to'xtalangan. M.Matniyozov muharirligida nashrga tayyorlangan Xorazm tarixining II jildida xorazmliklarning g'alabaga qo'shgan hissasi yoritib berilgan, lekin Xorazm aholisining urush yillaridagi matonati va jasoratlari yetarlicha ochib berilmagan va tahlil qilinmagan[8].

Ikkinchi jahon urushiga va unda O'zbekiston aholisining ishtiroki masalasiga yangicha qarashlar asosida baho berishga harakat qilgan H.Ziyoyev, D.Alimova va L.S.Ivanovlar tadqiqotlarida esa, urush jabhalarida xorazmlik ayollarning jangavor va mehnat qahramonliklari haqida ko'p so'z yuritilmagan[9]. Shu bilan birga, urush yillarida O'zbekistonning turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida kechgan jarayonlar turli mavzudagi dissertatsiyalarda ham o'z aksini topgan[10].

M.Xudoyberganovning Xorazm paxta tozalash sanoati tarixiga bag'ishlangan kitobida urush yillaridagi paxta yetishtirish masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan va bu mavzu ochib berilishi barobarida urush yillarida Xorazm viloyati aholisining ham mazkur sohadagi qahramonona mehnat faoliyatlariga alohida o'rin berilgan[11].

Urushda halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan o'zbekistonlik jangchilarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida mustaqillik yillarida har bir viloyat va tumanlarga bag'ishlangan, 34 jilddan iborat "Xotira" kitobining chop etilishi ma'naviy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Xorazm viloyati "Xotira" kitobida frontdagi qahramonlar to'g'risida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da,

viloyatdagi front ortida mehnat qilgan mehnatkashlar hayoti to'liq yoritib berilmagan edi[12].

Shuningdek, 1995-yili o'zbekistonlik tarixchilar tomonidan mavzu doirasida ilmiy-nazariy anjuman tashkillashtirilishi va uning materiallarining nashr etilishi milliy tarixshunoslikda o'ziga xos o'rin egalladi[13].

**XULOSA.** Sovet davlatining va umuman sotsialistik tizimning parchalanib ketishi bilan, bu mavzuga munosabatlar ham ancha o'zgarganligini ta'kidlash lozim. MDH davlatlarida va xorij mamlakatlarida Ikkinchi jahon urushi tarixini yoritishda, sovet davri tadqiqotlarida bu mavzuga umuman noxolislik ruhida qaralgan. Ayniqsa, sovet davlatining maxfiy va mutlaqo maxfiylik grifi ostida saqlangan arxiv hujjatlarining o'rganilib boshlanishi, mazkur muammoga oid ancha yangi ma'lumotlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar mavzuga yondashish va mazmun-mohiyati jihatidan turli mafkuralar va qarashlarni o'zida aks ettirgan bo'lsa-da, Xorazm viloyati mehnatkashlarining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi faoliyati o'zida hali ko'pgina muammoli jihatlar mavjudligini ko'rsatib, bu borada hali juda ko'p tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Милготин В.С. Солдаты из Хорезма. – Т.: "Узбекистан", 1974. С.88.
2. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): С 3. т. / [Редкол.: М.А. Ахунова и др]. Т. 1.
3. Ефимов В.И. Патриотический подвиг трудящихся Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. – Ташкент: Фан, 1972. – 167 с.
4. Охунбобоев У. О'zbekistonda paxtachilikni yanada rivojlantirish.-Т.: O'zdavnashr, 1941.-26 b.; Yusupov U. Великая Отечественная война Советского народа и наши задачи. (Доклад на совещании агитаторов и пропагандистов г. Ташкента).-Т.: Ўздаврнашр, 1941,- 44 с.
5. Матякубов М. Патриотический подвиг трудящихся Хорезмской области в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.): дис. канд истор наук: 07.00.02. – История Узбекистана. – Ташкент: АН УзССР. Ин-т истории, 1973. – 206 с.



6. Джуманиёзов Р. Хорезм. Краткий очерк политической и социально-экономической истории 1920-1990 гг. –Урганч: “Фан”, 1991. S.27 (115 с).

7. Xorazm haqiqati. //1941-yil iyun - 1945 yil may sonlari.

8. Xorazm tarixi. II- jild, Mas’ul muharrir Matniyazov M. – Urganch, Xorazm nashriyoti,1997. – 300 b.

9. Алимова Д.А., Иванова Л.С. 50 лет изучения истории Узбекистана в годы войны 1941-1945 гг. Современные задачи и перспективы её историографии.– Ташкент: Фан,1995.–24 с.

10. Ибрагимов Х. Социально-экономическая жизнь Узбекистана в годы Великой Отечественной войны (1941-1945гг.): Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. ист. наук: 07.00.02 / Андиж.гос.ун-т им.З.М.Бабура. – Андижан, 1993. – 25 с.9.

11. Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi.T.: Sharq. 2004. – 127 b.

12. Xotira. Xorazm viloyati. Birinchi kitob. 1941-1945-yillardagi urushda halok bo’lgan va bedarak yo’qolgan jangchilar. – T.: O‘zbekiston, 1994. – 366 b.

13. Fashizm ustidan qozonilgan g’alabada O‘zbekistonning tarixiy hissasi (Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari). Toshkent.1996.



## MO‘MINOBOD MOZOR QO‘RG‘ONLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR TARIXI VA YANGI NATIJALAR

*Tursunov Orzimurod Yunus o‘g‘li, Samarqand arxeologiya  
instituti tayanch doktaranti*

## HISTORY AND NEW RESULTS OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH IN THE MOORING FORTRESSES OF MOMINABAD

*Tursunov Orzimurod Yunus o‘g‘li, PhD student at the  
Samarkand Institute of Archaeology*

## ИСТОРИЯ И НОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МОМИНАБАДСКИХ КЛАДБИЩАХ КУРГАНАХ

*Турсунов Орзимурод Юнус оглы, докторант  
Самаркандского института археологии*



<https://orcid.org/0009-0009-6073-9097>

e-mail:  
[tursunovorzimurod96@gmail.com](mailto:tursunovorzimurod96@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Zarafshonning o‘rta oqimida joylashgan Mo‘minobod mozor qo‘rg‘onlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi hamda oxirgi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va erishilgan natijalar haqida ma‘lumotlar berilgan. A.Asqarov tomonidan olib borilgan Mo‘minobod bronza davri qabrlarining o‘rganilish tarixi natijasida ushbu hududda ham bronza davri jomoalari yashaganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi. So‘nggi tadqiqotlar natijasida yangi topilgan arxeologik yodgorliklar va mozor qo‘rg‘onlar ilmiy tahlil etilgan. Qo‘chqorqo‘tan, Tolmazor, Chiroqtosh mozor qo‘rg‘onlari arxeologik jihatdan ochib o‘rganilishi natijasida hudud bo‘yicha yangi ilmiy ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi.

**Kalit so‘zlar:** Mo‘minobod, Muzor qo‘rg‘on, Qo‘chqorqo‘tan, Tolmazor, Chiroqtosh, antik davr, ilk o‘rta asrlar, Andronova madaniyati, G.A.Pugachenkova, sopol buyumlar.

**Abstract:** The article provides information on the history of research conducted in the Mominabad burial mounds located in the middle reaches of the Zarafshan River, as well as on the archaeological research conducted in recent years and the results achieved. As a result of the history of the study of the Mominabad Bronze Age graves conducted by A. Askarov, information is provided that Bronze Age communities lived in this area. As a result of recent research, newly discovered archaeological monuments and burial mounds were scientifically analyzed. As a result of the archaeological excavations of the Kochkorkotan, Tolmazor, and Chiroqtash burial mounds, new scientific information was obtained on the area.

**Key words:** Mominabad, Mazar Kurgan, Kochkarkotan, Tolmazor, Chiroqtash, antiquity, early middle ages, Andronova culture, G.A.Pugachenkova, ceramics.

**Аннотация:** В статье представлены сведения об истории исследований, проведенных в Моминабадских курганах, расположенных в среднем течении Зарафшана, а также сведения об археологических исследованиях, проведенных в последние годы, и достигнутых результатах. В результате изучения истории моминабадских могил бронзового века, проведенного А.Аскарковым, приводятся сведения о существовании на этой территории общин бронзового века. В результате последних исследований проведен научный анализ вновь обнаруженных археологических памятников и

курганов. В результате археологических раскопок курганов Кочкаркотан, Толмазор и Чирокташ получены новые научные сведения об этой местности.

**Ключевые слова:** Моминабад, Мазар курган, Кочкаркотан, Толмазор, Чирокташ, античность, раннее средневековье, Андроновская культура, Г.А.Пугаченкова, керамика.

**KIRISH.** Bizga ma'lumki, dunyo xalqlari turmush tarzi xo'jaligi qadimdan tabiiy geografik xususiyatlarga bog'liq holda, asosan, ikki xil tarzda shakllangan. Bulardan birinchisi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq va ikkinchisi, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi turmush tarzida shakllangan. Chorvadorlarning yashash turmush tarzi, iqtisodiy xo'jaligi, ijtimoiy hayoti va jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ularning rivojlanish taraqqiyoti, turli davr jamiyatlari ma'naviy qadriyatlari bilan uyg'unlashuvi va madaniy aloqalar yo'nalishidagi o'rni kabi masalalarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda dunyo tarixida chorvadorlar xalqlar o'tmishi bilan shug'ullanish bo'yicha ulkan tajriba to'plangan va u o'zining metodologik asosiga ega. Bugungi kunda chorvadorlar masalasida ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, o'troq dehqon va ko'chmanchi chorvadorlarning madaniy aloqalari, ko'chmanchilar migratsiyasining xususiyatlari, o'troqlashuvi va etnik jarayonlarga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Olib borilgan so'nggi ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, dasht chorvador qabilalari O'rta Osiyoning deyarli barcha viloyatlarida mil. avv. XVI-XIII asrlar mobaynida tarqalgan. Uni asoslovchi ko'plab yodgorliklar Zarafshon vohasida o'rganilgan. Ular manzilgohlar, uy-joylar qoldiqlari, tog' konchilik bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish obyektlari metallurgiya markazlari hamda mozor qo'rg'onlardan iboratdir[1-105].

Mo'minobod hududi Samarqand viloyati Urgut tumanining eng chekka sharqiy qismida joylashgan bo'lib, tabiiy sharoiti qulay geografik hududda joylashgan. Ushbu hudud Zarafshon vohasining o'rta oqimida joylashgan bo'lib, arxeologik jihatdan birmuncha yaxshi o'rganilgan. Mo'minobod hududi qadimdan chorvador aholi uchun qulay geografik hudud hisoblanib, bir qancha soylar, tabiiy buloqlar tekisliklardan iborat bo'lib hisoblanadi.

Dastlabki arxeologik tadqiqot ishlari o'tgan asrning ikkinchi yarmida olib borilib bir qancha arxeologik yodgorliklar va arxeologik topilmalar qo'lga kiritilgan hamda ilmiy muomalaga kiritilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Mo'minobod hududidagi arxeologik tadqiqot ishlari 1964-yilda Mo'minobod qabristonida olib borilgan. Ushbu qabriston Zarafshon vodiysining chap sohilida joylashgan bo'lib, D.N.Lev tomonidan dastlabki ro'yxatga olish va aniqlash ishlari olib borilgan. Arxeologik tadqiqot ishlari esa, 1966-yilda akademik A.Asqarov tomonidan olib borilgan. [2-56-62]. Dastlab mahalliy aholi tomonidan qishloq xo'jaligi ishlari olib borilishi natijasida qabrlarning ustki qismi tekislanadi hamda qablarga bir muncha ziyon yetishi kuzatiladi. Mo'minobod qabristonida 5 ta qabr ochilib arxeologik jihatdan o'rganish ishlari olib boriladi. Topilgan barcha qablarda jasadlar yakka tartibda, yonboshlatib bukchaytirilgan holatda ko'milganligi aniqlanadi. Qablardan bir qancha arxeologik topilmalar topilgan bo'lib, bular asosan zargarlik buyumlari, taqinchoqlar, sopol buyumlar, ko'zgu, hamda hayvon suyagidan yasalgan kichik naycha kabilarni ko'rishimiz mumkin. Sopol idishlarning sirtiga bezaklar uchburchak naqshlar berilganligini ko'rish mumkin. Jasadlar bosh qismi quloqlari atrofidan hamda qo'l qismida oltin va bronza blaguzuklar topilishi ham dafn marosimlari haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Ushbu qablardan topilgan arxeologik topilmalar va dafn udumlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, qabrlar Qozog'iston hamda Janubiy Sibir hududida tarqalgan Andronova madaniyatiga aynan o'xshash. Arxeologik topilmalar esa, Tozabog'yob madaniyatiga doir materiallar bilan tipologik jihatdan o'xshashligi va miloddan avvalgi XII-XI asrlarga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi[3-21.22].

Keyingi tadqiqot ishlari Samarqand Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari tomonidan 2021-yilda Mo'minobod qishlog'ining janubi-sharqiy qismida Qo'chqorqo'tan hamda Tolmazor hudularida olib borilgan bo'lib, ushbu hududlardan qishloq-makon, qabr-qo'rg'onlar hamda ohak pishirish xumdonlari ochib o'rganilgan.

Qo'chqorqo'ton yodgorligi Urgut tumani Mo'minobod qishlog'ining yuqorisida, Qo'chqorqo'tonsoyning chap qirg'oq havgasida joylashgan. Yodgorlik ark va uning shimoli-g'arbiy

tomonida joylashgan shahristondan iborat. Ark yumaloq oval shaklda, o'lchami 21x16 m. Arkning janubi-sharqiy tomonida soy o'tgan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida bir qancha sopol buyumlar, ko'zalar, xurmalar, kosalar hamda to'qimachilikda foydalanilgan buyumlar va o'choq qoldiqlari topilib o'rganiladi. Ushbu topilmalar arxeologik jihatdan o'rganilganda Sug'd hududida ilk o'rta asrlarda aynan shunday idishlardan foydalanilganligi ma'lum bo'ldi. Yodgorlikdan topilgan ko'zalar hamda xurmalar tipologik jihatdan VII-VIII asrlarda Kofirqa'la hamda Afrosiyob yodgorliklari topilmalariga o'xshashligi ma'lum bo'ldi[4-27].

Shuningdek, Qo'chqorqo'tan yodgorligining g'arbiy qismida 2ta mozorqo'rg'onda ham arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ushbu qabrlardan inson suyak qoldiqlari bilan birgalikda bir qancha sopol buyumlar ham topilib o'rganildi. Qabrdan topilgan sopol buyumlardan qadah hamda kosa analogik jihatdan o'rganilganda xuddi shunday topilmalar Markaziy Sug'd hududidan Kumushkenttepa (Kumushkent III) yodgorligida mil. avv. I asr va milodiy I asrlarda, shuningdek, Afrosiyob yodgorligida (Afrasiyob II-III) mil. avv. III-I asrlarda uchraydi. Tulxar qabristonida qayd etilgan qadahlar mil.avv. II asr oxiri va milodiy I asr boshlari bilan davrlashtirgan.

Mo'minobod hududidagi Tolmazor hududida ham arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Tolmazor ohak pishirish xumdoni Mo'minobod MFYga qarashli Qatag'on qishlog'ining janubiy qismida, Tolmazor soyining o'ng tomonida joylashgan. Qazishmalar natijasida mazkur xumdon to'liq ochib o'rganildi. Ushbu xumdon ikki yarusli olovxon va pishirish qavatidan iborat. Xumdonning olovxonasi materik qatlam ustiga qurilgan bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklida, uning devorlari kuchli yongan olov ta'sirida qizg'ish tus olgan. Xumdon olovxonasi tom qismi pishgan g'ishtlar yordamida arkasimon shaklda qurilgan. Ushbu xumdonning olovxonasi pol qismida ohak izlari hamda kuygan g'ishtlarni uchratish mumkin. Ohak pishirish xumdoni arxeologik jihatdan o'rganilganda xumdonning yasalishi unda ishlatilgan pishgan g'ishtlar o'lchamlari Shohi-Zinda [5-133] va Axsikent [6-272-277] yodgorliklarida milodiy XI-XII asrlar bilan davrlashtirilgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Ohak pishirish xumdoni XI-XII asrlarga tegishli bo'lib, bu davrda ushbu

joyda ohak pishirish uchun barcha xom ashyo yetarlicha bo'lgan, deyish mumkin.

**METOD.** Yuqorida qayd etilgan mavzini ilmiy tahlil etish orqali yozma manbalar hamda ilmiy adabiyotlarning bir necha uslublari, jumladan yuqoridagi ma'lumotlarning qiyosiy analogik tahlili, tadqiqotlar natijasida so'nggi arxeologik izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar, ularning davriy ketma-ketligi tartibida hamda real aniqlikda samarali foydalanildi.

**MUHOKAMA.** Mo'minobod hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning samarasi o'laroq ushbu hududga bo'lgan qiziqish hamda arxeologik topilmalarga boyligi joriy yilda ham ushbu hududda arxeologik qazuv va qidiruv ishlarini olib borishga undaydi. Arxeologiya instituti xodimlari tomonidan joriy yilda Mo'minobod MFYga qarashli Qatag'on qishlog'ida joylashgan Chiroqtosh mozor qo'rg'onlarida arxeologik qazuv tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Chiroqtosh mozor qo'rg'onlari Qatag'onsoyning o'ng, ya'ni sharqiy qismida joylashgan tabiiy tepalikda aniqlangan. Tepalik tabiiy tepalik hisoblanib, dengiz sathidan 1480 m balandlikda joylashgan. Tepalik uzunligi 430 m, kengligi esa, 140 m ga teng. Tepalik ovalsimon ko'rinishga ega. Ushbu tepalikning shimoliy qismi o'tgan asrning 60-70-yillariga qadar qishloqning qabristoni sifatida foydalanib kelingan. Arxeologik tadqiqot davomida joriy yilda ushbu tepalikning eng baland janubiy qismida mozor qo'rg'on deya taxmin qilingan joylarda arxeologik qazuv ishlari amalga oshirildi. Qabr qo'rg'onlar tashqi ko'rinishi chorvadorlar madaniyatiga xos belgilar, ya'ni ustki qismiga toshlar tartibsiz uyum shaklida qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Arxeologik qazuv tadqiqotlari davomida 3 ta qabrda qazuv ishlari olib borilib, bir qancha topilmalar qo'lga kiritildi. Jumladan, inson suyak qoldiqlari, sopol buyumlar, sopol qozon hamda sopol kosa, to'qimachilik buyumlari, kamon uchlari kabi topilmalar tadqiqot natijasida topildi. Ushbu topilmalarni qiyosiy o'rganish natijasida mozor qo'rg'onlar antik davrga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. Muzor qo'rg'onidan topilgan biz yuqorida ko'rib chiqqan sopol buyumlardan sopol kosa qo'lda yasalgan bo'lib, bunday sopol kosa shunga yaqin hisoblangan Mo'minobod hududidagi Qo'chqorqo'tan qabrlaridan topilgan sopol kosa bilan aynan bir xilligini ko'rishimiz mumkin.



Yuqorida keltirilgan Qo'chqorqo'tan hamda Chiroqtosh mozor qo'rg'onlari topilmalari Markaziy Sug'd hududidagi G.A.Pugachenkova tomonidan o'rganilgan Kumushkenttepaning Kumushkent III [7-50] yodgorligida topilgan topilmalar hamda Tojikiston hududidagi Beshkent vodiysida aniqlangan Tulxar mozor qo'rg'onlari topilmalari bilan o'xshashligi hamda ular mill. avv I va milodiy I asrlarga tegishli ekanligi aniq bo'ldi. Tadqiqot ishlari davomida Qatag'on qishlog'idan mahalliy aholi tomonidan qishloq xo'jaligi ishlari davomida topilgan topilmalar ham ilmiy jihatdan o'rganish uchun yig'ib olindi. Ushbu topilmalar sopol buyumlar, qo'lda yasalgan choynak hamda piyola, kichik ko'zachalar, haykalcha ko'rinishida bo'lib, ular birlamchi xulosalar natijasida Antk davrga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi.

**NATIJA LAR.** Mo'minobod hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida qishloq makonlari, antik davrga tegishli mozor qo'rg'onlar hamda ohak pishirish xumdonlari ochib o'rganilgan bo'lib, undan topilgan moddiy ashyolar hudud bo'yicha dastlabki natijalar olish imkonini beradi. Yangi tadqiq etilgan Chiroqtosh hududagi mozor qo'rg'onlar qiyosiy tahlillar natijasida antik davr uchun yangi hudud bo'lib hisoblanadi. Chiroqtosh mozor qo'rg'onlarida birmuncha hudud bo'yicha yangi materiallar, sopol buyumlar, qozon bo'laklari, butun holatda topilgan sopol kosa, kichik shakldagi qo'lda yasalgan sopol idish hamda kamon uchlari antik va ilk o'rta asrlarda aholining ushbu hududda moddiy va ma'naviy jihatdan yuksak natijalarga erishganligini ko'rish mumkin. Mo'minobod hududidagi joriy yilgi arxeologik tadqiqot ishlari natijasida qo'lga kiritilgan sopol buyumlar ko'plab qismi qo'lda yasalganligi aniqlandi. Topilgan topilmalar va ularning ilmiy natijalari yuzasidan Markaziy Sug'd hududida olib borilgan arxeologik ekispeditsiyalar hamda ularda erishilgan natijalar bilan qiyosiy solishtirish ishlari olib borildi.

**XULOSA.** Urgut tumani Mo'minobod Muzor qo'rg'onlarida olib borilgan arxeologik qazuv

va qidiruv tadqiqotlar haqida ilmiy tahlilidan kelib chiqqan holda quyidagilarni xulosa qilib aytilish mumkin. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixidan shu narsa ma'lum boladiki, hududda bronza davridan boshlab aholining yashaganligi hamda yuksak madaniyat yaratganligi ochib o'rganilgan qabrlardan chiqqan topilmalar, sopol buyumlar, zargarlik buyumlari buning yaqqol isbotidir. Shuningdek, mozor qo'rg'onlardan topilgan hamda mahalliy aholi tomonidan qo'lga kiritilgan sopol idishlarning 50% qo'lda yasalganligi aniqlandi. Muzorqo'rg'onida qayd qilingan topilmalar ilmiy tahlili ko'rsatishicha, ular antik davrga, ya'ni mil. avv. I asr va milodiy I asrlarga taalluqli ekanligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sagdullayev A.S., Xolmatov N.O., Abdullayev O.I. va boshq... Markaziy Osiyoda tarixiy madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari... B.105.
2. Аскарлов А.А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ – Тошкент: 1968. - №8. – Б. 56-62.
3. Бердимуратов А.Э. Каталог археологических памятников Узбекистана. Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимуратов А.Э. – Самарканд, 240 стр. 2017 г. 21-22стр.
4. Бердимуратов А.Э., Сандибоев А.Н., Рахимов К.А., Хўжамов С. Х., Рашидов Н.Н., Омонов Д.С. Ургут туманида олиб борилган археологик тадқиқотлар. О'zbekistonda Arxeologik tadqiqotlar: 2021-yil 14- son 27.
5. Немцева Н.Б. Шахи-Зинда. 2019.
6. Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы. – Ташкент, 2013.
7. Пугаченкова Г.А. Древности Мианкаля. – Ташкент, 1989.



## QOZOG‘ISTONDAGI O‘ZBEKLARNING O‘ZIGA XOS YASHASH TARZI VA FAOLIYATLARI

*Shadimetov Maxmudjon Negmatjanovich, Fan va texnologiyalar  
universiteti ilmiy tadqiqotchisi*

## FEATURES OF THE LIFESTYLE AND ACTIVITIES OF UZBEKS IN KAZAKHSTAN

*Shadimetov Makhmudjon Negmatjanovich, Researcher at the  
University of Science and Technology*

## ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗА ЖИЗНИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКОВ В КАЗАХСТАНЕ

*Шадиметов Махмуджон Негматжанович, научный  
сотрудник Университета науки и технологий*

**Annotatsiya:** Maqolada Qozog‘istonda bugungi kunda istiqomat qiladigan o‘zbeklar va ularning yashash tarzi hamda tarixi haqida bayon qilindi. O‘zbeklar Qozog‘istonning tub xalqlaridan biri bo‘lib, soni bo‘yicha qozoqlar va ruslardan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Ularning soni 600 mingga yaqin bo‘lib, an’anaviy ravishda ushbu mamlakat janubida yashaydi. Ilgari qozoq o‘zbeklari odatda dehqonchilik bilan shug‘ullanib, ko‘chmanchi qo‘shnilarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlaganlar.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek, qozoq, rus, o‘zaro hamkorlik, sartlar, turmush tarzi, iqtisodiyot, dehqonchilik, sanoat ishlab chiqarishi, migratsiya.

**Аннотация:** В статье описаны особенности образа жизни и деятельности узбеков, живущие сегодня в Казахстане. Узбеки являются одним из коренных народов Казахстана и занимают третье место по численности после казахов и русских. Их число составляет около 600 тысяч и они традиционно проживают на юге этой страны. В прошлом казахские узбеки обычно занимались земледелием и снабжали своих соседей-кочевников сельскохозяйственной продукцией.

**Ключевые слова:** узбеки, казахи, русские, взаимное сотрудничество, условия, образ жизни, экономика, сельское хозяйство, промышленное производство, миграция.

**Abstract:** The article describes the peculiarities of the lifestyle and activities of Uzbeks living in Kazakhstan today. Uzbeks are one of the indigenous peoples of Kazakhstan and are the third largest after Kazakhs and Russians. They number about 600 thousand and traditionally live in the south of this country. In the past, Kazakh Uzbeks were usually engaged in agriculture and supplied their nomadic neighbors with agricultural products.

**Key words:** Uzbeks, Kazakhs, Russians, mutual cooperation, conditions, lifestyle, economy, agriculture, industrial production, migration.



<https://orcid.org/0009-0002-2990-5252>

e-mail:

[Shadimetovm@mail.ru](mailto:Shadimetovm@mail.ru)

**KIRISH.** O‘zbeklar – Qozog‘istondagi etnik guruh bo‘lib, Qozog‘iston Respublikasidagi eng yirik etnik guruhlardan biridir. Ular asosan Qozog‘istonning O‘zbekiston bilan chegaradosh janubiy viloyatlarida yashaydi. 1924-yilda O‘rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishidan so‘ng ko‘p sonli o‘zbeklar hozirgi Janubiy Qozog‘iston va Jambil viloyatlari tarkibida qolgan. 2000-yildan keyin mehnat migratsiyasining kengayishi munosabati bilan etnik o‘zbeklar Qozog‘istonning boshqa shahar va viloyatlarida – Ostona va Olmaota shaharlarida, shuningdek, Olmaota, Qarag‘anda, Mang‘istau, Qizilo‘rda viloyatlarida paydo bo‘ldi [1,56-b]. 2009-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘zbeklar Qozog‘iston aholisining 2,8 foizini tashkil qilgan. 2014-yildagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Qozog‘istonda, jumladan, Oqmola viloyatida 521,2 ming kishi istiqomat qilgan – 1,2 ming, Aqtobinsk – 1,2 ming, Atirau – 1,3 ming, Olmaota – 4,6 ming, G‘arbiy Qozog‘iston – 543, Jambil – 26,5 ming, Qarag‘anda – 4 ming, Qizilo‘rda – 1,4 ming, Mang‘istau – 2 ming, Janubiy Qozog‘iston — 456,4 ming, Pavlodar — 1,2 ming, Shimoliy Qozog‘iston — 486, Sharqiy Qozog‘iston — 1,4 ming, Ostona — 8,7 ming, Olmaota — 8,8 ming kishi (2014). Qozog‘istonda 139ta o‘zbek maktabi, 2ta o‘zbek milliy teatri bor, o‘zbek tilida darsliklar, gazeta va jurnallar (10 nomdagi) nashr etiladi. “Do‘stlik” o‘zbek etnomadaniy markazlari uyushmasi Qozog‘istonning turli viloyat va shaharlaridagi etnomadaniy markazlarni birlashtirgan.

Qozog‘istondagi o‘zbek etnomadaniy birlashmalari soni 35 ta. O‘zbek teatri bor, o‘zbek tilida gazeta chiqadi. Televideniye va radioda eshittirishlar o‘zbek tilida olib boriladi. Teatr, gazeta va radioeshittirish davlat tomonidan moliyalashtiriladi. 1995-yildan boshlab o‘zbek elatlarining tili, madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini kunlari o‘tkazib kelinmoqda. O‘zbekistonning asosiy aholisini o‘zbeklar tashkil qiladi. Ular Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Rossiya, Ukraina, Afg‘oniston va Xitoyda ham yashaydilar. Umumiy soni 2014-yilgi ma‘lumotga asosan 30 million kishidan ortiq [2,78-b].

**MUHOKAMA.** O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga kiradi. Uyg‘ur tili bilan birga qarluq tillariga mansub. 1928-yilgacha o‘zbek tili yozuvi

arab alifbosiga asoslangan edi. 1928-40-yillarda lotin alifbosi qo‘llanila boshlandi, 1940-yilda lotin alifbosi kirill alifbosiga almashtirildi, 1989-yilda O‘zbekistonda lotin alifbosi qaytadan kiritildi.

Dini – sunniy mazhabiga tegishli musulmonlar. O‘zbeklarning etnogenezi O‘rta Osiyo daryolari oralig‘i va unga tutash hududlarda sodir bo‘lgan. O‘zbeklarning shakllanishida Sharqiy Eron tillarida so‘zlashuvchi O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari – sug‘diyalar, baqtriyaliklar, xorazmlilar, farg‘onaliklar, saqo-massaget qabilalari ishtirok etgan. Turkiyzabon qabilalar eramizning boshida shimoli-sharqiy va O‘rta Osiyodagi ko‘chmanchi qabilalarning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda O‘rta Osiyoga kirib kela boshladi. O‘rta Osiyo Turk xoqonligi tarkibiga kirgandan so‘ng (VI asr) turkiyzabon aholi soni ko‘paya boshladi. Keyingi asrlarda eroniyzabon va turkiyzabon aholining yaqinlashishi va qisman qo‘shilishi asosiy etnomadaniy jarayon bo‘ldi. Keyinchalik, o‘zbeklar nomi bilan mashhur bo‘lgan etnik guruhning shakllanish jarayoni XI-XII asrlarda O‘rta Osiyoni qoraxoniylar sulolasi boshchiligidagi turkiy qabilalar ittifoqi bosib olgach, ayniqsa kuchaydi. XIII asrdagi mo‘g‘ullar istilosidan keyin O‘rta Osiyo aholisiga turkiy va mo‘g‘ul qabilalarining yangi to‘lqini kelib qo‘shildi. Etnosning shakllanishining tugallanishi Temur va birinchi temuriylar hukmronligi (XIV-XV asrlarning 2-yarmi) bilan bog‘liq.

Xalq og‘zaki ijodi (dostonlar, afsonalar, turli qo‘shiq va ertaklar) gullab-yashnagan. Vohalardagi o‘zbeklarning an‘anaviy mashg‘ulotlari ko‘p tarmoqli sug‘orish dehqonchiligi, hunarmandchilik va savdo bo‘lgan. Ular asosan don (bug‘doy, arpa, sholi, jo‘xori, makkajo‘xori, tariq), dukkakkililar (mosh, loviya, no‘xat, yasmiq), sabzavot (sabzi, turp, sholg‘om, lavlagi, piyoz, qizil qalampir, koriandr va boshqalar), qovun, tarvuz, qovoq, moyli urug‘lar (kunjut, zig‘ir, otquloq), mevalar o‘rik, shaftoli, anjir, behi, nok, olma, anor, uzum, tut, yong‘oq va boshqalar, ozuqa (beda) etishtiradilar. Sevimli taomi – palov. Sabzavotlar, mevalar, uzumlar, tarvuzlar, qovunlar diyetada katta o‘rin egallaydi. Asosiy ichimlik choy, ko‘pincha yashil. Xalq amaliy san‘atining an‘anaviy turlari (kashtachilik, kulolchilik, mis idishlarni quyish va o‘yib ishlash, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik, tosh o‘ymakorligi yuksak taraqqiyotga erishdi [3,132-b].



2006-yilda madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borish, o'zbek yoshlarini o'z xalqining an'analari bilan tanishtirish, ona tilini o'rganishga qaratilgan "O'zbek etnomadaniyat markazi" tashkil etildi. Respublika bayramlarida etnomadaniy birlashmalar faollari faol ishtirok etadilar – qozoq o'zbeklarining iqtisodiyoti, madaniyati, Qozog'istonda istiqomat qiluvchi boshqa xalqlar bilan do'stlik munosabatlaridagi yutuqlari o'ziga xos ko'rinishda. O'zbek xalqining madaniyati serqirra va o'ziga xosdir. Hech bir bayram dorbozlarning chiqishlarisiz o'tmaydi. O'zbeklar azaldan polvonlari bilan mashhur bo'lgan. Surnay va o'zbek nog'oralarining sadolari konsertga chinakam sharqona ohang bag'ishlaydi. O'zbek musiqa madaniyatida lirik va qahramonlik mazmunidagi dostonlar alohida o'rin tutadi.

Qozog'istonda 30ta o'zbek bog'chasi faoliyat ko'rsatib, ularda 2000 dan ortiq bola tarbiyalanadi. Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan 150ga yaqin maktab mavjud. Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablar eng ko'p, qozoq va rus tillarida o'qitiladigan maktablar bundan mustasno. Dastlab maktablar uchun darsliklar asosan Toshkent shahridan kelgan bo'lsa, 1999-yilda Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi o'zbek tilida yangi darsliklar chiqarishga qaror qildi. Qozog'istondagi o'zbek diasporasi o'z ona tilini o'rganish, o'z etnik o'ziga xosligi va madaniyatini saqlab qolish uchun faol harakat qilmoqda: Chimkentda o'zbek teatri ochildi, davriy nashrlar tiraji ko'paytirildi, O'zbek markazi turli madaniy tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, Qozog'iston teleradiosi o'zbek tilida eshittirishlar olib boradi. Teatr, gazeta, radio va teledasturlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi. O'zbek etnik birlashmalari Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) bilan faol hamkorlik qilmoqda; Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi madaniyat arboblari, olimlari, tadbirkorlarining uchrashuvlari muntazam o'tkazib kelinmoqda, dunyoning boshqa mamlakatlaridagi diasporalar bilan aloqalar o'rnatilmoqda [4,26-b]. Hozirda ular ixcham yashaydigan hududlarda kichik va o'rta biznesda keng namoyon bo'lmoqda.

**NATIJALAR.** Keling, ular Qozog'istonda qanday paydo bo'lganligini aytib beraylik. Uning ikki tomonida kim yashamasin, Sirdaryo doimo ko'chmanchi va o'troq dunyoning chegarasi bo'lib kelgan. Undagi shaharlar esa bu

sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri va savdosini ta'minlagan. Uzoq vaqt davomida ularning eng muhimi Toshkent edi. U O'rta Osiyoning an'anaviy iqtisodiy va siyosiy markazlari bo'lgan Samarqand va Buxorodan keyin shimol va janubni bir-biriga bog'lab turardi [5,76-b]. Etnik jihatdan bu yerning birinchi aholisi so'g'diylar bo'lib, ular uchun harbiy va savdo posti bo'lgan. Ilk va yuqori o'rta asrlarda turklashganlaridan keyin esa, ularning o'rnini hozirgi o'zbeklarning ajdodlari bo'lgan, qarluq tilida so'zlashuvchi chig'atoy turklari egallagan. Aslini olganda, bular o'sha o'zbeklar. Faqat o'sha paytda ular hali bunday nomga ega emas edilar[6,98-b].

Oltin O'rdaning yakuniy parchalanishidan keyin bu davlatning sharqiy qismida nizolar boshlandi. U yerda aholisi ilgari Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo-sotiq bilan shug'ullangan ko'plab aholi punktlari vayron qilingan. Tez orada shahar hayoti izdan chiqdi va mintaqada butunlay ko'chmanchilar hukmronlik bo'ldi. Biroq, dasht aholisi hali ham faqat o'troq dunyo ta'minlay oladigan tovarlarga muhtoj edi. Qozoq hukmdori Yesimxon va uning vorislari davrida qozoqlar Buxoro va Xiva xonliklaridan Sirdaryoning katta qismidagi shaharlarni bosib oldilar. Toshkent XVI asr oxiridan boshlab ularning qishki qarorgohiga aylandi. Ruslar davrida Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Sirdaryo viloyati tuzildi. Bu ma'muriy tuzilmalarning har birining poytaxti Toshkent shahri bo'lib, u asta-sekin butun O'rta Osiyoning iqtisodiy va madaniy markaziga aylangan. Ammo, bolsheviklar yangi turdagi xalqlar va respublikalar tuzishga, bu mintaqani bo'lishga qaror qildi[7,56-b].

O'zbekiston SSR keyinchalik Toshkentga aylandi. Lekin, Sirdaryo viloyatining bir qismi Qozog'istonga ketdi. Jumladan, uning ancha yirik shaharlari: Qizilo'rda, Chimkent, Taraz, Turkiston va boshqalar. U yerda o'zbeklar anchagina katta jamoa bo'lgan va hozir ham mavjud. Qisman Markaziy Osiyoga yaqinligi tufayli janubiy Qozog'iston mamlakatning qolgan qismidan biroz farq qiladi. Bu yerdagi qozoqlarning hayoti Sharq madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Hatto bayramlarda ham beshbarmaq emas, palov pishirishadi[8,29-b].

**XULOSA.** O'zbeklar asosan bir necha avlod vakillaridan iborat ko'p bolali oilalarda yashaydi. Aynan shuning uchun ham bu muhitda, birinchidan, dastlabki etnik an'analar saqlanib qolgan bo'lsa,



ikkinchidan, bunday oilada odamlarga hurmat, kattalarni e'zozlash kulti shakllanadi. Imkon qadar o'zbek oilalari kattaroq uylarni yaxshi ko'radilar. Samimiylik va mehmondo'stlikning ko'rinishlaridan biri hisoblangan choy ichish alohida o'rin tutadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бондаренко Э.Н. Некоторые трудовые вопросы социального партнёрства // Актуальные проблемы развития социального партнёрства в современных условиях. Барнаул, Изд-во АлтГУ, 1997, стр. 50-51.
2. Садвокасова А.К. Узбеки Казахстана: история, хозяйство и культура, духовная жизнь и современность. – Казахстан, 2020.
3. Второй национальный доклад Республики Узбекистан по выполнению

положений Международного пакта об экономических, социальных и культурных правах. - Ташкент, 2010, 157 с.

4. Саттарова Г.Д. Коллективно-договорное регулирование трудовых отношений в Республике Узбекистан: Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Ташкент, 2009.
5. Аяган Б.Г., Абжанов Х.М., Селиверстов С.В., Бекенова М.С. Современная история Казахстана. Учебник. – Алматы, 2010.
6. Кабульдинов З.Е. История Астаны. – Алматы, 2007.
7. Кабульдинов З.Е. Народ Казахстана: история и современность. – Алматы, 2007.
8. Артыкбаев Ж.О., Раздыков С.З. История Казахстана: Учебник. – Астана: Фолиант, 2007.



## O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATI NAZORATINING NAZARIY VA MA’NAViy ASOSLARI

*Jomonqulov Bekzod Shokir o‘g‘li, Guliston davlat universiteti II  
bosqich tayanch doktoranti*

## THEORETICAL AND SPIRITUAL FOUNDATIONS OF DEMOCRATICIZATION AND CIVIL SOCIETY CONTROL IN UZBEKISTAN

*Jomonkulov Bekzod Shokir oglu, second-stage doctoral student at  
Gulistan State University*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ДУХОВНЫЕ ОСНОВЫ ДЕМОКРАТИЗАЦИИ И КОНТРОЛЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

*Джомонкулов Бекзод Шокир оглы, докторант II курса  
Гулистанского государственного университета*

*Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekistonda demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati nazoratining nazariy va ma’naviy asoslari tahlil qilingan. Demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishi jarayonlari jamiyat farovonligi va huquqiy adolatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish ham demokratik jamiyatni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.*

*Kalit so‘zlar: demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati, ma’naviyat, huquqiy adolat, milliy qadriyatlar, davlat va jamiyat munosabatlari, bag‘rikenglik, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy rivojlanish, ochiq muloqot.*

*Abstract: This article analyzes the theoretical and moral foundations of democratization and civil society oversight in Uzbekistan. Democratic processes, the development of civil society, and the strengthening of relations between the state and society play an important role in ensuring social well-being and legal justice. Additionally, the development of national and moral values also plays a significant role in shaping a democratic society.*

*Key words: democratization, civil society, morality, legal justice, national values, state and society relations, tolerance, youth education, spiritual development, open dialogue.*

*Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и духовные основы демократизации и гражданского контроля в Узбекистане. Демократические процессы, развитие гражданского общества и укрепление отношений между государством и обществом играют важную роль в обеспечении благосостояния общества и правовой справедливости. Кроме того, развитие*



<https://orcid.org/0009-0007-6121-5848>

*e-mail:*

[bekzodjomongulov339@gmail.com](mailto:bekzodjomongulov339@gmail.com)

национальных и духовных ценностей также играет важную роль в формировании демократического общества.

*Ключевые слова: демократизация, гражданское общество, духовность, правовая справедливость, национальные ценности, отношения между государством и обществом, толерантность, воспитание молодежи, духовное развитие, открытый диалог.*

**KIRISH.** O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi – jamiyatda erkinlik, ochiqlik va adolatni ta‘minlash orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda davlat boshqaruvida ularning ishtirokini kuchaytirishdan iborat<sup>1</sup>. Demokratlashtirish jarayoni nafaqat davlat tizimida, balki fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>. Shu sababli, ushbu maqolada O‘zbekiston kontekstida demokratlashtirish jarayonining nazariy asoslari hamda fuqarolik jamiyatining nazorati va uning ma‘naviy poydevorlari o‘rganiladi.

**ASOSIY QISM. Demokratlashtirish jarayonining nazariy asoslari** haqida to‘xtalganimizda, demokratlashtirish jarayoni jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga erkinlik, adolat va oshkoralikni olib kirishiga alohida urg‘u berishimiz kerak. O‘zbekistonda demokratlashtirish jarayoni quyidagicha amalga oshirilmoqda, deya olamiz. **Huquqiy davlat tamoyillariga rioya qilish** – qonun ustuvorligini ta‘minlash va barcha fuqarolar uchun teng huquq yaratish orqali amalga oshiriladi<sup>3</sup>. Demokratlashtirish jarayonida huquqiy davlat tamoyillariga rioya qilish fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa sud-huquq tizimini isloh qilish, mustaqil sud tizimini yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi chora-tadbirlarni talab qiladi. Huquqiy davlat tamoyillari fuqarolar va davlat o‘rtasidagi

munosabatlarni huquqiy asosda tartibga solish orqali davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu o‘rinda **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish**ni ham e‘tiborimiz markazidan chetda qoldira olmaymiz. Demokratik islohotlarni amalga oshirish uchun iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va barqarorlikni ta‘minlash zarur<sup>4</sup>. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish demokratik jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur shartlardan biridir. Iqtisodiy barqarorlik va farovonlik fuqarolarning turmush darajasini yaxshilaydi, bu esa ularning jamiyatda faol ishtirok etishiga, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilishga imkon beradi. Shu ma‘noda, iqtisodiy islohotlar orqali kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va yangi ish o‘rinlari yaratish demokratik jamiyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu o‘rinda bir savolni o‘rtaga tashlashimiz muhim: **fuqarolik jamiyati qachon kuchayadi va bunga qanday erishmoq mumkin?** Bunga jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab oluvchi tashkilotlar va institutlar faoliyat ko‘rsatishi orqali erishiladi<sup>5</sup>. Fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta‘minlaydi. Fuqarolik jamiyatining kuchayishi nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), jamoatchilik birlashmalari, mustaqil ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va boshqa fuqarolik institutlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu institutlar davlat hokimiyati faoliyatini nazorat qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolarning huquq va

<sup>1</sup> Ismailov M. (2021). From Strong State to a Strong Civil Society in Uzbekistan. Academia.edu. – b.15.

<sup>2</sup> Ubaydullaeva D. Political Liberalization and Emerging Civil Society in Uzbekistan. ANU Press, 2022. – b.34.

<sup>3</sup> Juergentliemk, H. Civil Society Reforms in Uzbekistan: More than Government Chicanery? Academia.edu, 2013 – b.45.

<sup>4</sup> Nabiyev F. Demokratiya va davlat boshqaruvi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – b.49.

<sup>5</sup> Ergashev M. Fuqarolik jamiyati asoslari. Toshkent: Nodirabegim, 2015. – b.34.

manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi hamda fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyatida **siyosiy ishtirokchilikning kengayishi** esa, demokratlashtirish jarayonida siyosiy ishtirokchilik muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Siyosiy partiyalar, saylov jarayonlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik harakatlari fuqarolarga o'z fikrlarini bildirish va davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Siyosiy ishtirokchilikning kengayishi jamiyatdagi barcha qatlamlarning manfaatlarini hisobga oluvchi qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi va bu orqali ijtimoiy adolatni ta'minlaydi.

**Axborot erkinligi va oshkoralikni ta'minlash.** Demokratik jamiyatning yana bir muhim omili bu axborot erkinligi va oshkoralikni ta'minlashdir. Fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishi uchun ularning tegishli axborotlarga ega bo'lishi zarur. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligi, davlat organlarining faoliyati to'g'risida ochiq axborot berilishi, shaffoflik tamoyillarining amalda qo'llanilishi demokratlashtirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu fuqarolarga o'z huquqlarini himoya qilish va davlat organlari faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

#### ***Fuqarolik jamiyatining nazorat funksiyasi.***

Fuqarolik jamiyati nazorati – bu fuqarolarning davlat boshqaruviga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini oshiruvchi va jamiyat hayotining barcha sohalarida davlat hokimiyati faoliyatini kuzatib boruvchi mexanizmdir. Fuqarolik jamiyati nazorati nafaqat davlat qarorlarini baholash va nazorat qilish, balki fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va jamiyatning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati nazoratining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir: **ijtimoiy nazorat, maqsadli nazorat, erkin axborot olish va tarqatish,**

**fuqarolik tashabbuslari va davlat bilan hamkorlik.** O'zbekisto fuqarolik jamiyatida ijtimoiy nazorat funksiyasi haqida gapirganda OAV, NNTlar va fuqarolik tashkilotlari orqali davlat siyosati va amaldagi qonunchilikka nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish va kuzatish nazarda tutiladi<sup>6</sup>. O'zbekiston tajribasida OAVning mustaqil va erkin faoliyat yuritishi jamoatchilik fikrini shakllantirishda va davlat organlarining faoliyatini nazorat qilishda muhim o'rin tutadi. Fuqarolar tomonidan ochiq muloqot va tanqidiy yondashuv imkoniyatlari oshirilib, davlatning faoliyatiga munosabat bildirish huquqi ta'minlanmoqda. Bu holat, o'z navbatida, davlat organlarining javobgarligini oshirish va fuqarolarning ishonchini qozonishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy nazorat bilan birgalikda, maqsadli nazorat mexanizmi ham faol tarzda ishlab turibdi. **Unga ko'ra,** turli sohalarida davlat qarorlari va harakatlarini nazorat qilish, qonunlar va siyosatni amalga oshirish jarayonlarida davlat organlarining mas'uliyatini oshirish taqozo etilmoqda<sup>7</sup>. Maqsadli nazorat orqali fuqarolik jamiyati turli sohalarida davlat organlarining faoliyatini kuzatib boradi. Bu jarayonda alohida sohalar, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy himoya sohalarida davlat tomonidan qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishi nazorat qilinadi. Bunda NNTlar, fuqarolik harakatlari va mutaxassislar o'z bilim va tajribalaridan kelib chiqib, davlat faoliyatiga baho beradilar va takliflar kiritadilar. Bunday faoliyat davlat siyosatining amalda samaradorligini oshirishga va fuqarolarning manfaatlarini hisobga olishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati nazoratining asosiy yo'nalishlaridan biri **Erkin axborot olish va tarqatish** – aholining axborotga bo'lgan talabini qondirish, siyosiy qarorlar haqida ochiq axborot berish orqali fuqarolarning davlat ishlari haqida xabardor bo'lishini ta'minlashdan

<sup>6</sup> Rasulov X. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanish yo'llari. Toshkent: Sharq, 2019. – b.75.

<sup>7</sup> Jalolov U. Ijtimoiy nazorat mexanizmlari. Toshkent: Universitet, 2014. – b.58.



iboratdir <sup>8</sup> . Fuqarolik jamiyatining nazorat funksiyasini amalga oshirish uchun axborot erkinligining ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlat organlarining faoliyati to'g'risida ochiq va aniq ma'lumotlarni aholiga taqdim etish orqali jamiyatning ishonchi va davlatga bo'lgan munosabati yaxshilanmoqda. Ochiq axborot vositalari orqali fuqarolar davlat siyosati, qabul qilingan qarorlar va qonunlar haqida to'liq ma'lumot olishlari mumkin. Bu holat fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlariga, davlat organlarining javobgarligini oshirishga va davlatning ochiqlik siyosatini rivojlantirishga yordam beradi.

Fuqarolik jamiyatining nazorat funksiyasi nafaqat tanqidiy nazoratni, balki davlat bilan hamkorlikni ham o'z ichiga oladi. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari davlat bilan hamkorlik qilib, ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadilar. Bunday hamkorlik davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Fuqarolik tashabbuslari orqali aholining ehtiyoj va muammolarini davlat siyosatiga kiritish, bu muammolarni tez va samarali hal qilish imkoniyatlarini oshiradi. Fuqarolik jamiyatining nazorat funksiyasi davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda davlat boshqaruvida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, demokratik jamiyatni rivojlantirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish imkonini beradi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va demokratlashtirish jarayonlari O'zbekistonda **yuksak ma'naviyatga** asoslanadi. Bu jarayonlar jamiyatda yuksak axloqiy tamoyillar va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

<sup>8</sup> Ismailov M. (2021). From Strong State to a Strong Civil Society in Uzbekistan. Academia.edu. – b.15.

<sup>9</sup> Ilkhamov A. (2019). The Thorny Path of Civil Society in Uzbekistan. Academia.edu. – b.102.

<sup>10</sup> <http://m.xabar.uz/uz/mahalliy/20242025-yillarda-ozbekistonda-otkaziladigan-madaniy-tadbi>

**Milliy qadriyatlarni e'zozlash** – milliy urf-odatlar va an'analarni hurmat qilish orqali jamiyatda fuqarolarning ongini o'stirish <sup>9</sup> . O'zbekiston Respublikasida milliy qadriyatlarni e'zozlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy bayramlar, madaniy meros obidalar, milliy kiyimlar va urf-odatlarni saqlash va rivojlantirish orqali fuqarolarning o'zligini anglash va ma'naviy ongini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda 1000 dan ortiq milliy-madaniy tadbirlar o'tkazilgan bo'lib, bu jamiyatda milliy qadriyatlarni e'zozlash va hurmat qilishni rag'batlantiradi<sup>10</sup>.

**Jamiyatda birdamlik va bag'rikenglik** – o'zaro hamkorlik va kelishuv madaniyatini rivojlantirishdan iboratdir<sup>11</sup>. Jamiyatda birdamlik va bag'rikenglikni rivojlantirish demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Bag'rikenglik va diniy erkinlik tamoyillari O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonda 150 dan ortiq turli millat va elat vakillari o'zaro hamjihatlikda yashayotgan bo'lib, ularning 136 ta madaniy markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa jamiyatda millatlararo totuvlikni mustahkamlashda va bag'rikenglik tamoyillarini targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi<sup>12</sup>.

**Yoshlarga ta'lim va tarbiya** – yosh avlodning yuksak ma'naviyatli va barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash orqali demokratik qadriyatlarni yoshlar orasida tarbiyalash<sup>13</sup>. Yoshlar jamiyatning kelajagi ekanligi bois, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonida nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki yoshlarda yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ham muhim hisoblanadi. O'zbekistonda hozirgi vaqtda 10 milliondan ortiq

<sup>11</sup> Ubaydullaeva D. Political Liberalization and Emerging Civil Society in Uzbekistan. ANU Press, 2022. – b.54.

<sup>12</sup> <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/51516.html>

<sup>13</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura I–jild T.: "O'zbekiston", 1996. – b.146.

yoshlar mavjud bo'lib, ularning ma'naviy rivoji davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. 2023-yilda 5000 dan ortiq ta'lim muassasalarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilgan<sup>14</sup>. Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida sport, san'at va boshqa ijodiy yo'nalishlarda ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa ularning har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

**Ma'naviyat va ma'rifat markazlari faoliyati.** O'zbekistonda demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ma'naviyat va ma'rifat markazlari muhim o'rin tutadi. Ushbu markazlar orqali aholiga ma'naviy tarbiya berish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va jamiyatdagi axloqiy tamoyillarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratiladi. 2023-yilda O'zbekistonda 200 dan ortiq ma'naviyat va ma'rifat markazlari faoliyat olib borib, ular orqali 1 milliondan ortiq aholi qamrab olingan. Bu markazlar jamiyatda yuksak ma'naviyatni shakllantirish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>15</sup>.

**Oilaviy qadriyatlarning ahamiyati.** Demokratik jamiyatda oilaning o'rni va ahamiyati katta. O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish orqali jamiyatda ma'naviy barqarorlikka erishish maqsad qilingan. Oilaning ma'naviy qadriyatlarini targ'ib qilish, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni mustahkamlash orqali yosh avlodning sog'lom va ma'naviy barkamol bo'lib shakllanishiga erishiladi. 2022-yilda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan 3000 dan ortiq tadbirlar o'tkazilgan bo'lib, bu jamiyatda oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda<sup>16</sup>.

Demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati nazoratining ma'naviy asoslari O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Milliy va ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish

orqali jamiyatda fuqarolarning o'ziga xosligi va ma'naviy ongini yuksaltirish, yoshlarning demokratik qadriyatlarni anglashiga zamin yaratish mumkin. Shu bilan birga, jamiyatda bag'rikenglik va birdamlik muhitini shakllantirish orqali demokratik jamiyat poydevori mustahkamlanmoqda.

XULOSA. O'zbekistonda demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati nazoratining nazariy va ma'naviy asoslarini rivojlantirish davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Demokratik jarayonlar va fuqarolik jamiyati mexanizmlarini mustahkamlash orqali erkin, huquqiy va farovon jamiyatni qurish yo'lida muhim qadamlar qo'yilmoqda<sup>17</sup>. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini oshiradi va ular orasidagi ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi<sup>18</sup>. Bundan tashqari, demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish orqali aholining huquqiy savodxonligi oshmoqda, bu esa ularning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlariga imkon bermoqda. Fuqarolik jamiyati va davlat hokimiyati o'rtasidagi ochiq muloqot, davlat boshqaruvidagi shaffoflikni kuchaytirib, aholining davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda. Bu jarayonlar jamiyatda ijtimoiy adolat, huquq ustuvorligi va milliy qadriyatlarning rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar, milliy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar, fuqarolik jamiyatining barcha qatlamlarini rivojlantirish orqali yurtimizda barqaror demokratik jamiyatni shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu boisdan, kelgusida O'zbekistonning demokratik rivojlanishi va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi jamiyat farovonligini yanada oshiradi va milliy birdamlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

<sup>14</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/4960>

<sup>15</sup> <https://gov.uz/oz/madaniyat/news/view/25309>

<sup>16</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-milliy-qadriyatlar-va-millatlararo-totuvlik>

<sup>17</sup> Juergenliemk, H. Civil Society Reforms in Uzbekistan: More than Government Chicanery? Academia.edu, 2013 – b.60.

<sup>18</sup> Jalolov U. Ijtimoiy nazorat mexanizmlari. Toshkent: Universitet, 2014. – b.59.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. 488 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. I–jild T.: O‘zbekiston, 1996.
3. Ubaydullaeva D. Political Liberalization and Emerging Civil Society in Uzbekistan. ANU Press, 2022. – 278 bet.
4. Juergenliemk, H. Civil Society Reforms in Uzbekistan: More than Government Chicanery? Academia.edu, 2013 – 95 bet.
5. Ilkhamov A. (2019). The Thorny Path of Civil Society in Uzbekistan. Academia.edu. 120 bet.
6. Ergashev M. Fuqarolik jamiyati asoslari. Toshkent: Nodirabegim, 2015. – 198 bet.
7. Nabiyev F. Demokratiya va davlat boshqaruvi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 210 bet.
8. Rasulov, X. (2019). O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanish yo‘llari. Toshkent: Sharq. 175 bet.
9. Ismailov M. (2021). From Strong State to a Strong Civil Society in Uzbekistan. Academia.edu. 150 bet.
10. Jalolov, U. Ijtimoiy nazorat mexanizmlari. Toshkent: Universitet, 2014. – 142 bet.
11. Yusupov, O. Demokratik davlatning huquqiy asoslari. Toshkent: Adolat, 2009. – 184 bet.
12. Xabar.uz (2023). 2023-yilda O‘zbekistonda milliy-madaniy tadbirlar. <http://m.xabar.uz/uz/mahalliy/20242025-yillarda-ozbekistonda-otkaziladigan-madaniy-tadbi>
13. Uzsmart.uz (2022). Millatlararo totuvlikni mustahkamlash. <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/51516.html>.
14. President.uz (2023). Yoshlarga oid davlat siyosati. <https://president.uz/oz/lists/view/4960>
15. Gov.uz (2023). Ma’naviyat va ma’rifat markazlari faoliyati. <https://gov.uz/oz/madaniyat/news/view/25309>
16. Cyberleninka.ru (2022). Oila institutini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-milliy-qadriyatlar-va-millatlararo-totuvlik>
17. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolik jamiyati g‘oyalarining milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 247-250.
18. Kurbanbayeva, M. (2024). O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.
19. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolar vatanparvarligi – fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishida muhim omil. Tamaddun nuri jurnali, 9 (60), 23-25.



Qabul qilindi: 05.10.2024

Chop etildi: 30.11.2024

UDK: 096.374.128

## AMUDARYO SUV YO‘LINING SHAKLLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

*Allamuratov Shuxrat Ashurovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF THE AMUDARYA WATERWAY

*Allamuratov Shuhrat Ashurovich, Termez University of Economics and Service, Doctor of Philosophy in historical sciences (PhD)*

## НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ФОРМИРОВАНИЮ АМУДАРЬИНСКОГО ВОДНОГО ПУТИ

*Алламуратов Шухрат Ашурович, Термезский университет экономики и сервиса, доктор философии по историческим наукам (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0006-6815-9319>

e-mail:  
[shuxrat\\_allamuratov@tues.uz](mailto:shuxrat_allamuratov@tues.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amudaryo suv yo‘lining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, shuningdek, qadimgi davrga oid manbalardagi Amudaryo orqali olib borilgan savdo hamda madaniy aloqalarga oid ma‘lumotlar tahlili yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** suv yo‘li, kechuvlar, lazurit, forpost, Buyuk hind yo‘li.

**Abstract:** This article highlights the history of the emergence and development of the Amudarya waterway, and also analyzes data on trade and cultural ties through the Amudarya in ancient sources.

**Key words:** waterway, crossings, lapis lazuli, outpost, Great Indian route.

**Аннотация:** В данной статье освещаются история возникновения и развития Амударьинского водного пути, а также анализируются данные о торговых и культурных связях через Амударью в древних источниках.

**Ключевые слова:** водный путь, переправы, лазурит, форпост, Великий индийский путь.

**KIRISH.** Amudaryo suv yo‘li haqidagi yozma ma‘lumotlar, asosan, antik davrdan boshlab uchraydi. Lekin bu ma‘lumotlar Amudaryo suv yo‘lidan foydalanishning boshlanishi ancha oldingi davrlarda shakllanganini rad etmaydi. Xususan, arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyoning so‘nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining tarqalishi va migratsiyasini, ushbu madaniyatlarining Qadimgi Sharq va Kavkaz hududlari o‘rtasidagi aloqalarini Amudaryo suv yo‘li bilan ham bog‘lash mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi bronza davriga oid Sho‘rto‘g‘ay yodgorligini o‘rgangan fransuz arxeologi A.P.Frangfortning fikriga ko‘ra, Sho‘rto‘g‘ay Xarappa madaniyatining shimoliy savdo forposti (chegaradagi mustahkam harbiy qal‘a, savdo punkti) hisoblanib, lazurit (“lapis-lazuli” lotincha so‘z bo‘lib, O‘rta Osiyoliklar lojuvard yoki la‘l deb atashgan) savdosi yo‘lida qurgan aholi manzilgohi bo‘lgan [1]. Tadqiqotchilar Mesopotomiya la‘l (lazurit) ikki yo‘l – quruqlik va suv



yo'li orqali tarqalganligini e'tirof etishadi. Bundan shuni taxmin qilish mumkinki, Xarappa madaniyati vakillari la'l (lazurit)ning aynan Amu-daryo suv yo'li orqali tarqaladigan joyida savdo na-zoratini boshqarish maqsadida ushbu manzilni barpo etganlar. Bu esa, miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan qadimgi Sharq madaniyatlarini bog'lovchi, Amudaryo orqali o'tuvchi Buyuk Hind yo'li-ning paydo bo'lishiga tarixiy zamin yaratgan [2].

Bundan tashqari, Amudaryo kechuvlaridan foydalanish ham taxminan rivojlangan bronza davridan, ya'ni eramizdan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Marg'iyonadan janubiy Baqtriya orqali Shimoliy Baqtriyaga qadimgi dehqonchilik madaniyati vakillari ko'chib kelgan vaqtdan boshlangan. Masalan, bronza davri yodgorliklari topografiyasi (Sopollitepa, Jarqo'ton va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, ular Cho'chqaguzar kechuvidan to'g'ri shimol tomon yo'nalishda joylashgan, taxmin qilish mumkinki, aynan shu kechuv orqali Shimoliy Baqtriyaga Dashli vohasidan (Shimoliy Afg'oniston) qabilalar migratsiya qilgan. 1984-yilda E.V.Rtveladze tomonidan Kampirtepa yaqinida joylashgan ahamoniylar davriga oid Sho'rtepa manzilgohida bronza davriga oid dafn xarobasining ochilishi[3] Amudaryo kechuvlaridan foydalanish to'rt ming yillik tarixga borib taqalishini isbotlaydi.

**MUHOKAMA.** Karki, Kalif va Termiz yaqinidagi kechuvlardan bu davrda Marg'iyona va Baqtriyadagi qadimgi dehqonchilik qabilalari foydalanarlari istisno etilmaydi. Bu yerdan o'tuvchi yo'llarni nazorat qilib turuvchi ayrim kechuvlardagi dastlabki manzilgohlar va istehkomlarning kelib chiqishi miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Ahamoniylar zamonida Baqtriyadan shimolga – Sug'dga keladigan asosiy yo'llar Termiz, Kampirtepa, Cho'chqaguzar, Karki va Kalif kechuvlari orqali o'tgan. Shunday qilib, qadimdan bu kechuvlar orqali shimol va shimoli-sharqqa olib boruvchi yo'llarda madaniy aloqalar ancha rivoj topgan. Qadimgi yozma manba ma'lumotlari (Skilak, Gekatey, Gerodot xabarlarini) va mavjud arxeologik (Suvyorgan, Tozabog'yob, Amirobod, Quyisoy madaniyatlari) yodgorliklarning qiyosiy tahliliga ko'ra, Xorazmda davlatchilik ildizlarining paydo bo'lishiga asos bo'lgan ilk shaharsozlik madaniyati o'lkaga miloddan avvalgi VI asrda janubdan qadimgi dehqonchilik madaniyatining sohiblari Amudaryo bo'ylab Baqtriyadan ko'chib kelganligi xususidagi farazlar ham mavjud. Akademik A.Asqarov

yuqoridagi tarixchilar bildirgan fikrlarni rivojlantirib, qadimgi xorazmliklarning kelib chiqishi va yoyilishiga oid o'z ilmiy xulosalarini bayon etadi. Olimning fikriga ko'ra: "Miloddan avvalgi VI asrda Eron ahamoniylari imperiyasining podshosi Doro Ining soliq siyosati tufayli, Xilmend vodiysining xorasmiylari o'z vatanlarini tashlab, Amudaryo quyi oqimi tomon ko'chishga majbur bo'ladilar. Kema va sollarda massagetlar yurtiga birinchi bor kirib kelgan xorasmiylar, bo'lg'usi Xorazm vohasining g'arbi va janubida Xumbuztepa, Hazorasp va Ko'zaliqirda birinchi bor makon topgan bo'lsalar ajab emas. Ungacha, xorasmiylar Xilmend vodiysida (Hirovohasi) yashab, o'troq hayot kechirgan, sug'orma dehqonchilik madaniyatini rivojlantirishda boy tajribaga ega bo'lganlar"[4].

**NATIJARLAR.** Makedoniyalik Aleksandr, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya hukmdorlari Amudaryo kechuvlari, suv yo'llarini mustahkamlash hamda rivojlantirishga katta e'tibor berishgan. Yunon tarixchisi Strabon o'zining "Geografiya" asarida Amudaryo suv yo'li haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Aristobul Oks (Amudaryo)ni Osiyoda ko'rgan Hind daryolaridan keyingi eng yirik daryo hisoblab, uning fikricha, Oks kema qatnoviga qulay bo'lgan. Ko'pgina hind tovarlari quyi oqim bo'ylab Girkan (Kaspiy) dengiziga, u yerdan ularni Albaniya (Ozarbayjon)ga va Kura daryosi hamda mahalliy daryolar orqali Pont Evksin (Qora dengiz)gacha yetkazib berilgan" [5]. Albatta, Strabon ham, Eratosfen ham bu ma'lumotlarni Patrokldan olgan. Yuqorida Strabonning ellinizm davridagi suv yo'li haqida keltirgan ma'lumotlari bir qator olimlar tomonidan ilgari surilgan Buyuk Hind savdo yo'lining quyidagi marshrut yo'nalishiga mos keladi: karvon avval Hindiston shimolidagi Peshavordan Chitral orqali Ko'kcha, Qunduz daryolariga kelishgan, keyin esa bu daryolar orqali savdo mollari qayiq'larga yuklanib, Amudaryoga chiqilgan va undan keyin butun Amudaryo suv yo'li bo'ylab Kaspiybo'yi va Kavkazorti xalqlari bilan aloqalar olib borishgan[2]. Bu esa, haqiqatan ham, Amudaryo suv yo'li bo'ylab Hindiston, Markaziy Osiyo, Kavkaz va Old Osiyo xalqlari antik davrdan aloqalar olib borganini tasdiqlaydi.

Rim tarixchisi Gay Pliniy Sekund o'z kitobida Pompeyning zamondoshi bo'lgan Varron ma'lumotlari asosida Hindiston tovarlari 7 kunda Baqtriyaga, aynan Baqtr daryosining Oksga quyilishi joyiga, undan Oks bo'ylab Girkan (Kaspiy)

dengiziga, dengiz orqali Kura daryosiga, Kuradan 5 kun quruqlik yo'li orqali Fasis va keyin Pont Evksin (Qora dengiz)ga kelganini ta'kidlagan[5]. Shuningdek, boshqa rim tarixchilari Gay Yuliy Solin va Ammian Marsellin asarlarida ham shu yo'nalishdagi Amudaryo suv yo'li haqida ma'lumot berilgan[6].

Amudaryo suv yo'li haqidagi ma'lumotlar xitoy manbalarida ham uchraydi. Sima Syanning "Tarixiy yilnomalar" va Ban Guning "Syan Xan Shu" asarlarida Guysuy (Amudaryo) daryosi bo'yida savdogarlar yashashi, ular quruqlik va suv yo'llari bo'ylab o'z mahsulotlarini qo'shni hamda uzoq o'lkalarga yetkazib berishi haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan[3].

Zamonaviy tadqiqotlar ham Amudaryoning Kaspiy dengizi bilan bog'lovchi suv yo'li O'zboy o'zani orqali amalga oshirilganligi haqidagi qarashlarni tasdiqlamoqda. B.I.Vaynberg ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi V - IV asrlardan O'zboy o'zaning ikkala qirg'oqlarida yashovchi xalqlar paydo bo'lgan va bu ko'chmanchi hamda yarim ko'chmanchi chorvador qabilalar qoldirgan ko'plab qarorgoh, mozorlar topilgan[2]. Bu esa, antik davrda Amudaryo bo'ylab Kaspiy va Qora dengizgacha davom etgan suv yo'li Hindiston, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq va shimoliy Qora dengiz sohillarini bog'lagan suv yo'li haqidagi malumotlar hamda izlanishlarni asoslagan[1]. Shuningdek, bu suv yo'li bo'ylab olib borilgan aloqalarni Amudaryoning yuqori oqimidagi Taxti-Sangin, Xorazm vohasidagi Yelxaras, Sariqamish deltasidagi Qal'aliqir-2, O'zboydagi Ichanlitepa, Katta Bolxondagi Garraultepa, Kavkazdagi Vani kabi ibodatxona – diniy markazlar orqali ham kuzatish mumkin[6]. Bundan kelib chiqadiki, Amudaryo bo'ylab o'tgan suv yo'llari nafaqat ichki va tashqi aloqa tizimida, balki madaniy aloqalar hamda diniy qarashlar yoyilishi rivojida ham muhim rol o'ynagan. Amudaryoning o'rta oqimida suv yo'lini nazorat qilib turish maqsadida muhim kechuvlar yaqinida Kalif, Kuregin, Karkicha (Karki), Odoydepa, Usti kabi qal'alar barpo etilgan[5]. Karkidagi qal'adan kushon-sosoniylar davriga oid madaniy qatlamlar topilib, u milodiy asr boshlarida Amudaryoning o'rta oqimidagi muhim kechuv hisoblangan. Karki kechuvi Samarqand va Buxorodan Ksenippa (Yerqo'rg'on) orqali Baqtriyaga o'tuvchi yo'lda joylashgani uning Amudaryo suv yo'lining o'rta oqimini nazorat qilib turganidan dalolat beradi[4]. Kampirtepa yodgorligi

esa nafaqat Baqtriyadan Sug'dga boradigan savdo yo'lidagi Amudaryo kechuvini, shu bilan birga Amudaryo bo'ylab olib borilgan Termiz – Urganch suv yo'lini ham nazorat qilib turgan[1]. Bu yerda kemalar to'xtashiga mo'ljallangan buxta (daryoning quruqlikka yorib kirgan yoki orollar bilan o'ralgan kichik bir qismi) va gavan (daryolarda suv sathining to'liqin, shamol va suv oqimlaridan sun'iy yoki tabiiy himoyalangan, kemalar to'xtaydigan va ta'mirlanadigan qirg'oq qismi) ham bo'lganligi aniqlangan[3]. Bu shahar (qal'a)larni qadimgi davrlarda Amudaryo suv yo'li bo'yidagi muhim bekat bo'lganligini hisobga olsak, ularning mintaqa janubidagi savdo yo'llari tizimidagi ahamiyati yanada oshadi.

**XULOSA.** Shunday qilib, antik davrga oid manbalarda keltirilgan ma'lumotlar savdo karvonlari o'tuvchi Amudaryo bo'yidagi shaharlar, qo'rg'onlar va kechuvlar mintaqa aloqa yo'llarini bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'taganligini tasdiqlaydi. Buni daryoning qarama-qarshi sohillari yoki shimoli va janubidagi aholi manzillari madaniyati mushtarak bo'lib, o'rganilgan yodgorliklarning joylashuvi, tuzilishi, shuningdek, xalqlarning xo'jalik faoliyati, uy-joy qurilishi kabi moddiy madaniyatlar isbotlaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Frangfort H.P. Fouilles de Shortughai. Recherches sur L'Asie Central protohistoriques. V.I.II. Paris: Boccard, 1989.
2. Ртвеладзе Э.В. Великий индийский путь: из истории важнейших торговых дорог Евразии. – СПб.: Нестор-История, 2012. – 296 с.
3. Ртвеладзе Э.В. Кампыртепа – греческая переправа на Амударье // Мозийдан садо. – 1999. № 4. – С. 12-15; Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. – Ташкент: MEDIA LAND, 2002. – 93 с.; Древний Термез в системе Амударьинских переправ // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 2002. № 2. – С. 57-61; Переправы и дороги Бактрии // Мозийдан садо. – 2003. №3,4. – С. 20-27.
4. Аскарлов А.А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. ЎзРФА академиги Карим Шониёзов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган халқаро илмий анжуман материаллари. – Т.: 2004. – Б. 76-84.
5. Страбон. География. В семнадцати книгах/ Пер. с греч., вступ. статья и комм. Г.А. Стратановского. – М.: ОЛМА-ПРЕСС Инвест, 2004.
6. Луниин Б.В. История Узбекистана в источниках. – Т.: Фан, 1984.

**TILNI SAMARALI O'QITISH TAMOYILLARI**

*Aripova Aziza Xasanovna, JIDU "O'zbek va rus tillari" kafedrasida  
dotsenti, f.f.n., (PhD)*

*Raximova Nargiza Xamidullayevna, JIDU "O'zbek va rus tillari"  
kafedrasida katta o'qituvchisi*

**PRINCIPLES OF EFFECTIVE LANGUAGE  
TEACHING**

*Aripova Aziza Khasanovna, Associate Professor of the Department  
of Uzbek and Russian Languages of UWED, (PhD)*

*Rakhimova Nargiza Khamidullayevna, Senior teacher of the  
Department of Uzbek and Russian languages of UWED*

**ПРИНЦИПЫ ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ  
ЯЗЫКУ**

*Арипова Азиза Хасановна, доцент кафедры узбекского и  
русского языков Университета мировой экономики и  
дипломатии, (PhD)*

*Рахимова Наргиза Хамидуллаевна, старший преподаватель  
кафедры узбекского и русского языков Университета  
мировой экономики и дипломатии*

**Annotatsiya:** Til ta'limida muloqotining muhim vazifasi – samaraga erishish va til o'rganuvchining kommunikativ imkoniyatlari kengayishiga ko'maklashish, tilni ijtimoiy kompetensiyalar sifatida o'qitish, xorijiy tillarni o'rganishlarida qulaylik yaratish, til doirasidagi bilimni egallash asosida o'quv jarayonida natijaga erishish hisoblanadi. Maqolada bugungi kun yoshlarining o'z huquq va manfaatlarini himoya qila olishlarida til bilishning muhimligi va til ta'limidagi zamonaviy yondashuvlar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** til muloqoti, metodik kompetensiyalar, sohaviy kompetensiyalar, yuksak samara.

**Abstract:** An important task of communication in language education is to achieve efficiency and help the language learner expand his communicative abilities, teach language as a social competence, create convenience in learning foreign languages, achieve results in the educational process based on mastering language-related knowledge. The article reveals the importance of language knowledge by modern youth, their ability to protect their rights and interests, through the ability and mastery of modern approaches in language education.

**Key words:** language communication, methodical competences, sectoral competences, high efficiency.

**Аннотация:** Важной задачей общения в языковом образовании является достижение эффективности, и помощь изучающему язык, в расширении его коммуникативных способностей, обучение языку как социальной компетенции, создание удобства в изучении иностранных языков,



<https://orcid.org/0000-0002-5921-6741>

e-mail:  
[mumtozim@mail.ru](mailto:mumtozim@mail.ru)



<https://orcid.org/0009-0001-0538-7828>



*достижение результатов в образовательном процессе на основе овладения знаний касаемых языка. В статье раскрывается значение знания языка современной молодежью, их способности защищать свои права и интересы, путем умения и овладения современных подходов в языковом образовании.*

**Ключевые слова:** языковое общение, методические компетенции, отраслевые компетенции, высокая эффективность.

**KIRISH.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida *“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”*, - deb ta‘kidlagan edilar.

Bugungi kun yoshlari o‘z huquq va manfaatlarini himoya qila oladigan, yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanib, mustahkam huquqiy fikrga ega, zamon talablariga hamohang ravishda rivojlanayotgan jamiyat vakillaridir.

Istalgan davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma‘lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishida o‘sha davlatdagi yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e‘tibor darajasiga bevosita va bilvosita bog‘liq. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifida, yoshlarning bilimlari hamda salohiyatlari mamlakat ravnaqining muhim omili sifatida asoslanib berildi.

Tilni samarali o‘qitishga intilish doimiy dolzarb muammolardan. Tilshunos-olim A.Rustamovning fikricha, *“...tilning birligi, ma‘rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a‘zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon yaratadi”*. Til – inson faoliyatida til olamini tushunish va mushohada almashinuv omili vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda o‘zbek va rus tillarini xorijliklar tomonidan va yoshlarimizning shu zaylda birorta xorijiy tilni mukammal va katta qiziqish bilan o‘rganilishiga asosiy sabab – jamiyatning til taraqqiyotiga ongli ta‘siri hamda ikki tomonlama hamkorlikning amaliy yuritilishi, boshqacha aytganda, til muloqotining muhim vazifasini o‘tayotganligidadir.

Xorijda ham bu borada muntazam izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda tilni ijtimoiy kompetensiyalar – o‘zaro muloqot, jamoa va guruhda ishlash, metodik kompetensiyalar – ilmiy ish olib borish, sohaviy kompetensiyalar – til doirasidagi bilimni egallash asosida o‘rgatish o‘quv jarayonida yuksak samaraga erishishga olib kelmoqda.

O‘zbek va rus tilini xorijiy til sifatida o‘rgatish, yoki mamlakatimiz talabalarining xorijiy tillarni o‘rganishlari, eng avvalo, tilga nisbatan konseptual yondashuvni, til ta‘limiga xos metodlarga nisbatan kommunikativ munosabatni, o‘zbek tilini nafaqat davlat tili sifatida, balki millatlararo muloqot tili, til vaziyati, nutq vaziyati, qurilishi kabi tushunchalarini til o‘rganuvchilar tomonidan egallanishini ham taqozo etadi. Chunki millatlararo muomala tili sifatida o‘rgatilsa, uning ijtimoiy jihatiga ham e‘tibor berilib, til qo‘llanishining ijtimoiy shart-sharoitlari, qo‘llanish sohalari, madaniy-tarixiy, etnosiyosiy amal qilinishi ta‘minlanadi. Til o‘rgatishda innovatsion yondashuv – kommunikativ kompetentlikni rivojlantirib, til o‘rganuvchilarda, shu tilni amalda yuritadigan jamiyatga nisbatan, tolerantlik va madaniy munosabat shakllanishini taqozo etadi.

**MUHOKAMA.** Tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishning eng samarali metod va usullari individual yondashuv asosida tanlanadi. Chunki, tilni egallash har kimda har xil kechadi – ba‘zilar uchun qabul qilish oson kechsa, ba‘zilarga murakkablik qilishi mumkin. Ta‘limning har qanday holatida o‘qituvchi tomonidan barcha uchun qabul qilinishi optimal ravishda samarali kechadigan foydali metod tanlanadi. Mashg‘ulot olib boruvchi darsni jonlantirib, til o‘rganishga nisbatan qiziqishni uyg‘ota olishi kerak. Tilshunos B.V.Belyayev fikricha, *“metodni samarali qo‘llay olish o‘qituvchi*



mahoratiga bevosita bog‘liq”. Samarali metodlardan biri – *til muomala madaniyati sifatida*, ya’ni mahalliy madaniyat talqini, urf-odatlarini o‘rgatish uyg‘unligida olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki xorijliklar uchun, nafaqat til qurilishi, avvalo boshqa xalq va u bilan bog‘liq madaniyat ham ko‘z o‘ngida turadi, shu sababdan, **madaniyatlararo muloqot yondashuvi** asosida til o‘rgatilsa yaxshi natijaga erishish mumkin.

**NATIJALAR.** Tilni intensiv o‘rgatish dasturida tilning grammatik, fonetik va leksik tarkibi bilan bog‘liq ham nazariy ham amaliy (matn, dialoglar bilan ishlash) jihatlari mujassamlangan. Til o‘rgatishda funksional-uslubiy yondashuvga ham e’tibor qaratilishi lozim. Zero, har bir til nafaqat adabiy til sifatida, balki mahalliy dialektlar asosida ham faoliyat yuritishi o‘qituvchiga ma’lum hodisadir. Shu sabab ham, xorijlikka kundalik muomalada qo‘llanadigan ilk leksik materialni berish jarayonida, uni mahalliy dialektlarda keladigan ekvivalenti ham tushuntirilib borilishi kerak. Til o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi dialog ishtirokchilariga mahalliy madaniyat bilan bog‘liq o‘ziga xos tomonlarini o‘rgatib borishi muhim. Masalan, turli yoshdagi va tengdosh kishilarga nisbatan doimiy hurmat shakli sifatida “siz” deb murojaat qilinishini, buyruq-istak maylining II shaxs shakli muloqotda qo‘llanishi va madaniy muloqotning nozik jihatlari tushuntirib borilishini taqozo etadi. Shu sababdan ham til o‘rgatishda shaxslararo muomala madaniyati asosidagi yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Til ta’limida madaniy urf-odat va an’analar haqida ham ma’lumot berilishi hamda mashg‘ulot davomida birorta udum bilan bog‘liq holat namoyish etilishi til o‘rganuvchida til orqali mahalliy aholiga nisbatan qiziqish uyg‘otib, uni tez fursatda o‘rganib, muomalaga kirishish istagini tug‘dirishi tabiiy.

Til ta’limi jarayonida quyidagi metodik prinsiplar qo‘llanilishi yaxshi samara beradi:

- Og‘zaki nutqni tinglab borish va qo‘llanadigan kinestetik usullarni tahlil qilish (mahalliy dialektda ishlatiladigan sheva so‘zlarini va xatti-harakatlarni tushunishga yordam beradi);

- Mashg‘ulot davomida til o‘rganuvchining “ona tili”dan foydalanish (gapirish va tarjima)ni

maksimal ravishda cheklash (talaffuz yaxshilanishiga olib keladi, chunki so‘zning orfoepik jihatiga tez ko‘nikadi);

- “M. Berlis metodi”ni qo‘llash, bunga ko‘ra so‘zlar xatti-harakat yoki predmetni ko‘rish orqali immanent qabul qilish orqali o‘rganiladi (so‘zlarning grammatik qurilishi intuitiv ravishda o‘zlashtirilib, so‘zni vizual-tasviriy qabul qilish orqali yodlashga erishiladi);

- So‘z bilan bog‘liq xatti-harakat taqlid yoki analog tovushlar talaffuzi va harakatlar yordamida o‘zlashtiriladi (asosiy muloqot shakli – dialog, barcha material tinglanadi, talaffuz etiladi, o‘qiladi, zarur holatda vizual ko‘riladi – rasm, predmet, harakat);

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, til ta’limida, xususan istalgan tilni xorijiy til sifatida o‘rgatish jarayonida, innovativ ravishda egallanib bo‘lingan, kompetensiyalarga urg‘u berilishi asosidagi sotsiolingvistik va lingvometodik omillardan foydalanish – kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishga qaratiladi. Til o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida mahalliy tilni o‘rganuvchi xorijlik o‘zining bilim darajasini mustaqil ravishda oshirib borishga qaratilgan motivatsiyani keltirib chiqaradi hamda kelgusidagi amaliy faoliyati davomida, til qirralarini mukammal o‘rganishga qaratilgan qiziqishi yanada ortadi. Til ta’limi jarayonida qo‘llanilgan konseptual yondashuv metodlari til o‘rgatish bilan bog‘liq innovatsion ilmiy-tadqiqot uslublarni shakllantirishga asos bo‘ladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. The ideal appearance of a modern teacher // AK Aripova, KS Khodjayeva. - ACADEMICIA: An International Multidisciplinary, 2020.
2. Methods, aspects and components of teaching the Uzbek (Russian) language as a foreign language on the experience of foreign students A Aripova, K Khodjayeva, N Yuldasheva - Journal of Critical Reviews, 2020.
3. Межкультурная коммуникация-как необходимый процесс глобализации // 2019.
4. Культура речи юриста: общая характеристика //2024.
5. Роль Технологических разработок В обучении языка // 2023.

## YOSHLARDA INNOVATSION TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA JADIDLAR FALSAFASINI O'RGANISH MASALALARI

*Jo'ramurodov Nodir G'aybullayevich, Samarqand davlat chet tillar instituti  
tadqiqotchisi*

## ISSUES OF STUDYING MODERN PHILOSOPHY ON THE BASIS OF DEVELOPING INNOVATIVE THINKING IN YOUTH

*Joramurodov Nodir Gaybullayevich, Researcher of the Samarkand State  
Institute of Foreign Languages*

## ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЖАДИДСКОЙ ФИЛОСОФИИ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

*Журамуродов Нодир Гайбуллаевич, научный исследователь  
Самаркандского государственного института иностранных языков*

*Annotatsiya: Maqolada axborotlashgan jamiyatda yoshlarni qadriyat va udumlarga hurmat ruhida kamol toptirish, ularning dunyoqarashi va falsafiy tafakkurini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiluvchi omillar, yosh avlod tarbiyasida jadidlar falsafiy merosining ahamiyati tadqiq etilgan.*

*Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, komil inson, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy ong va ijtimoiy fikr, falsafiy dunyoqarash, texnotron jamiyat.*

*Abstract: In the article, the factors that negatively affect the development of young people in the spirit of respect for values and traditions, the development of their worldview and philosophical thinking, the importance of the philosophical heritage of the past in the education of the young generation are studied in the article.*

*Key words: information society, perfect person, youth education, social consciousness and social thought, philosophical outlook, technocratic society.*

*Аннотация: В статье рассматриваются факторы, негативно влияющие на развитие молодежи в духе уважения к ценностям и традициям, развитие ее мировоззрения и философского мышления, значение философского наследия прошлого в воспитании молодежи.*

*Ключевые слова: информационное общество, совершенный человек, образование молодежи, общественное сознание и общественная мысль, философское мировоззрение, технократическое общество.*

**KIRISH.** Yosh avlod kamoloti, farzand ta'lim-tarbiyasi biz uchun barcha davrlarda ham eng muhim vazifa bo'lib kelgan, zotan har bir ota-ona uchun farzandining aqlan va jismonan sog'lom, ma'nan yetuk inson bo'lib kamolga yetishi chinakam baxt hisoblangan. Asrlar davomida ushbu muhim masalaga ustuvor vazifa sifatida qaralgan, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarning o'z holicha saqlanishi va kelajak avlodga bekam-u ko'st yetkazilishi ham o'sib kelayotgan yosh avlodning qay darajada ta'lim-

tarbiya olishiga, qanday inson bo'lib voyaga etishiga bevosita bog'liq bo'lgan. E'tiborlisi, farzand tarbiyasiga ota-bobolarimiz ulug' mas'uliyat va sharafli burch sifatida qarashgan, ularning izzati, obro'-e'tibori farzandlarining el-yurt, vatan uchun ko'rsatgan xizmatiga, xalq farovonligi, vatan ozodligi yo'lidagi kurashlari, janglardagi mahoratiga qarab baholangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi ustuvor masala sifatida ko'rilayotgan yangi O'zbekistonda ham



[https://orcid.org/  
0244-0024-0304-0342](https://orcid.org/0244-0024-0304-0342)  
e-mail:  
[nodirjo'ramurodov@  
gmail.com](mailto:nodirjo'ramurodov@gmail.com)

farzandlarimizning har jihatdan mukammal insonlar bo'lib voyaga etishlarini ta'minlash borasida e'tirofga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ayni masalaga butun dunyo ahli e'tiborini qaratib, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim"[1.252], deya ta'kidlaganligi ham bejiz emas. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlar manfaatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, yoshlar tafakkurining siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan oqilona siyosatning ifodasi sifatida 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun bu boradagi ishlar rivojida dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Aytish o'rinliki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi globallashuv jarayonida jamiyat hayotining turli sohalaridagi o'zgarish va evrilishlarga guvoh bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga zamonaviy texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday bir sharoitda yoshlarning aql-u tafakkurini boyitish, ajdodlarga munosib avlod bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, mamlakat istiqboli, Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan insonlar bo'lib shakllanishi uchun qulay muhit yaratish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bugun dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, erishilayotgan olamshumul yangiliklarni atigi ellik yil oldin hatto tasavvur ham qilib bo'lmas edi. Xususan, bugun axborotlashgan jamiyatda turli-tuman axborot uzatish vositalari, gadjetlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, ming yillardan buyon saqlanib kelayotgan qadriyatlarimizga ham ta'sir qila boshladi. E'tibor qiling, bugun yaqin qarindoshingizdan borib, hol so'rashdan ko'ra,

telefon orqali ko'ngil so'rab qo'yish odatga aylanmoqda. To'y-ma'rakalarga ham taklifnomalar telefon orqali jo'natilmoqda, mehr-oqibat, diyonat degan tushunchalar mohiyatiga darz ketayotgandek, go'yo. Bu esa, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida, ularning komil inson bo'lib voyaga yetishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** O'zbek adabiy tilining asoschisi, hazrat Alisher Navoiy ijodining bosh g'oyasi ham komil insonni tarbiyalashdan iborat ekanligini, buyuk mutafakkir har bir dostonida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ushbu masala bundan besh yuz yil muqaddam ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Zero, Navoiy talqiniga ko'ra, faqat komil insongina ozod va obod vatanni bunyod etishni, o'zgalarga yaxshilik qilishni, barchaga foyda keltirishni maqsad qiladi. Komil inson tushunchasi mehr-muruvvatda, xayr-u saxovatda, adolatda namoyon bo'ladi, kishidagi ornomus, iroda va matonat bilan uyg'unlashib ketadi. Hazrat Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida insoniy go'zal sifatlar xususida bayon qilib, kishi faqat ilm egallash natijasida ana shunday sifatlarga erishishi mumkinligini ta'kidlaydi.

*Dedi, har ishniki qilmish odamizod,*

*Tafakkur birla bilmish odamizod,*

-deya inson har bir ishni amalga oshira olishi mumkinligini, faqat buning uchun aql-u tafakkurini ishlatishi, ya'ni bilim egallashi keraklagiga e'tibor qaratadi[2.27]. Bundan tashqari, Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida ham yoshlar tarbiyasiga, ularning ta'lim olishlariga alohida,

*Yo'l yamon-u yaxshisidin yema g'am,*

*"Bismilloh"... degil-u qo'ygil qadam,*

- deya yoshlarni ilm olishda, hunar egallashda yo'lda uchraydigan turli sinovlardan, mashaqqatlardan cho'chimaslikka, ko'zlagan manzillari sari dadil odimlashga da'vat etadi. Shu boisdan ham, o'tgan asr boshlarida millat farzandlari ta'lim-tarbiyasi, ularning o'qib, ilm olishlarini bosh maqsad sifatida belgilab, shu yo'lda xizmat qilgan jadid bobolarimizni hazrat Navoiyning ma'rifat yog'dusini taratish yo'lidagi izdoshlari desak, yanglishmaymiz.

Bugungi Yangi O'zbekistonning komil inson bo'lishga da'vogar yoshlari ham yuqori axloqli, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lish bilan birga, ajdodlar merosiga hurmat ko'rsatuvchi, qadriyatlarimizni ardoqlashga, ulug'lashga va kelajak avlodga



yetkazishga xizmat qila olishdek qobiliyatlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, aqlan va jismonan barkamol, ma‘naviy yetuk insongina jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladi, qalbi yaxshilikka, ezgulikka moyil inson olamni go‘zallikka burkashga qodir bo‘ladi. Demak, bugungi sharoitda yoshlarning innovatsion tafakkurini boyitish, ularni milliy qadriyatlarimizga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga e‘tiborni kuchaytirish, Yangi O‘zbekistonda kechayotgan tub islohotlar, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga daxldorlik hissi bilan yashashga o‘rgatish har qachongidan ham muhim hisoblanadi.

Buyuk mutaffakkir, Turkiston jadidlarining otasi, butun umri va faoliyatini yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga bag‘ishlagan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Yoshlarga murojaat” nomli maqolasida ushbu masala xususida chuqur qayg‘urib, shunday yozadi:

“Muhtaram birodarlar! Siz xizmat qiladurg‘on doiralarda sizdan katta va sizdan oz ishlaydurg‘on va sizlarg‘a ish buyuraturg‘on kishilar borki, sizdan besh, hatto yigirma daf‘a ziyoda vazifa olur. (Ba‘zi bonka va tijoratxonalarda oyinda besh yuz, hatto ming so‘m olaturg‘on kishilar bor va ularni tijorat maktabig‘a o‘qig‘oni besh-olti yilgina-dir). Muning sababi nadir? Albatta, munga javob berursizki, bizning ustimizdan qarayturg‘onlarning “ilmi zamoniysi” bizdan ziyoda deb. Bas, ma‘lum bo‘ldiki, hozirgi zamon ishlariga kirib, vazifa olmoqqa va ish qilmoqqa “Ilmi zamoni” degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtaramlar ham o‘z avlodingizni va aziz bolalarigizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko‘ra taraqqiy etsa, din va millatg‘a xizmat etsa, shu ilmi zamoniyni tahsil qilmoq uchun harakat qilmog‘ingiz lozimdur”[3.55].

Ya‘nikim, Behbudiy aytmoqchiki, bugun ishlab turgan joyingizda olayotgan, ro‘zg‘oringizga yetib turgan besh-o‘n so‘m oylikka qanoat qilib, bundan yaxshirog‘iga intilmayapsiz. Vaholanki, sizga o‘sha oylikni berayotganlarning o‘zlari sizdan ko‘ra yigirma barobar maosh olmoqdalar. Nima uchun siz ham ularday bo‘lishga harakat qilmaysiz, o‘zingizdan pastda bo‘lgan vatandoshlaringizni bugungi darajangizga chiqishiga ko‘maklashmaysiz, -deya yoshlarni yangi marralar sari ruhlantirishga harakat qiladi. Buning birgina yo‘li esa, farzandlarga sifatli ta‘lim bermoq ekanligini bot-bot ta‘kidlaydi. Aslida, jadidlar falsafasining asosini ham

millat farzandlarining o‘qib, ilm olishlarini, zamon bilan hamnafas bo‘lishlarini ta‘minlash, yangicha fikrlaydigan, olamga sog‘lom aql va idrok bilan boquvchi yoshlarni kamolga yetkazishdek ulug‘ vazifa va maqsadlar tashkil qiladi. Jadidlar biror-bir olamshumul voqeani sodir etmadilar, ixtirolar yoki kashfiyotlar qilmadilar. Ular shunchaki, ta‘limga yangicha qarash va uslublarni olib kirdilar xolos. Ana shu birgina yangilikning o‘zi esa asrlarga tatigulik voqea bo‘ldi, aslida. Ma‘rifatparvar allomalar amalga oshirgan ushbu yangilik, ya‘ni “Jadid maktab”larining yo‘lga qo‘yilishi natijasida Turkiston o‘lkasida qanchadan-qancha yoshlar tez va oson bilim olish, savod chiqarish imkoniga ega bo‘ldilar. Ya‘ni shu paytgacha amalda bo‘lgan eski maktablar, “Usuli qadim” maktablari o‘rniga “Usuli savtiya”, ya‘ni yangi maktablarda bolalar tez va qisqa muddatlarda harf tanish bilan birga, o‘zlari uchun tamoman yangilik bo‘lgan geografiya, tarix, matematika singari fanlar bilan ham tanishdilar, dunyoga yangicha nazar, teran nigoh bilan qaray boshladilar. Eng muhimi, ma‘rifatparvar bobolarimiz nafaqat maorif va maktabdorlik sohasida, balki jurnalistika, noshirlik, kitobxonlik, teatr sohasidagi faoliyatlari orqali ham bor sa‘y-harakatlarini ushbu ezgu maqsadga, ya‘ni millat farzandlarining ta‘lim-tarbiyasiga qaratdi.

**XULOSA.** Bugungi kun yoshlarining tafakkurini boyitish, innovatsion g‘oyalari, loyihalarini rivojlantirish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu masalaga qaratilayotgan e‘tibor har jihatdan e‘tirofli. Bu esa, Yangi O‘zbekistonda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash, zamon talablari asosida ta‘lim olishlarini ta‘minlash, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan mutaxassislar bo‘lib etishishlari va provardida yoshlar jamiyatda yuz berayotgan demokratik o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lishlari masalasi ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2-jild, 2018.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 1991.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlarga murojaat. //O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati gazetasi, O‘zbekiston, 1992.



## TALABALAR ORASIDA AXLOQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY ASPEKTLARI

**Ahmedova Saodat Qodirovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti erkin tadqiqotchisi

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ СТУДЕНТОВ

**Ахмедова Саодат Кадыровна**

независимый исследователь Термезского университета экономики  
и сервиса

## SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF ETHICAL CULTURE AMONG STUDENTS

**Ahmedova Saodat Kadirovna**

independent researcher of Termiz University of Economics and Service



[saodat@mail.ru](mailto:saodat@mail.ru)

<https://orcid.org/0080-0214-0324-024x>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarini ta'lim va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalari hamda mamlakatimizdagi ta'lim tizimining asosiy talablari, dolzarb vazifalar, islohotlar zamirida erishilayotgan yuksak natijalar va yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyasini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining g'oyalarining amaliy ifodasi va pedagogik xususiyatlari bayon etilgan.

**Kalit so'z:** ta'lim, tarbiya, yoshlar, axloqiy tarbiya, islohot, odob-axloq, xalq, madaniyat, inson, axloqiy madaniyat, ma'rifat.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы воспитания молодежи в плане образования и духовно-нравственного воспитания, а также основные требования системы образования в нашей стране, текущие задачи, высокие результаты, достигнутые в ходе реформ, и практическое выражение идей восточных мыслителей. в формировании духовно-нравственного воспитания молодежи описаны педагогические особенности.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, молодежь, нравственное воспитание, реформа, нравы, народ, культура, человек, нравственная культура, просвещение.

**Abstract:** In this article, the issues of educating young people in terms of education and spiritual and moral education and the main requirements of the education system in our country, current tasks, high results achieved under the reforms and the practical expression of the ideas of eastern thinkers in the formation of spiritual and moral education of young people and pedagogical features are described.

**Key words:** education, training, youth, moral education, reform, manners, people, culture, human, moral culture, enlightenment.

**Kirish.** Inson – bu yorug' olamdagi jamiki jonzotlar ichra eng mukarrami. Odamzod yaralganidan buyon unga axloq va ma'naviyat hamroh bo'lib kelyapti. Biz esa dunyodagi axloqni o'ta yuksak darajalarga ko'targan xalqmiz. Chunki

milliy qadriyatlarimizning mag'zi-mag'zida aynan axloqiy tarbiya yotadi.

Xalqning bashariyat tamadduniga qo'shgan hissasini, shartli ravishda, «axloq» va «ma'naviyat» deb olsak, bu jihatdan biz yer yuzining sanoqli davlatlari safida ekanimiz ayonlashadi.

Ma'naviyatning odamiylik, odob-axloq, oilaviy munosabatlar, poklik, mehr-muruvvat jihatlari inobatga olinsa, dunyo avval bizga yetib olsin, deydigan darajada buyuk axloqqa ega xalqmiz. Yoshlarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e'tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir [1]. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo'ladi. Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va kishilarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo'lib, u axloqiy hayotning substansiyasi, ya'ni asosi hisoblanadi. Axloqiy madaniyatni substansiya sifatida tashkil etuvchi substansional elementlar, birinchidan, axloqiy madaniyat sifatidagi inson, ikkinchidan, insonlarning axloqiy ehtiyojlari, uchinchidan, axloqiy ehtiyojlarni anglash zaruriyatidan kelib chiqadigan va axloqiy maqsad, reja kabilarni o'z ichiga olgan. Ularning bir butunligidan axloqiy turmush tarzi, individual axloqiy munosabatlar, axloqiy tendensiyalar va xulq shakllanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Axloqiy madaniyatning sistemasini tashkil etuvchi bosh substansional elementini tahlil qiladigan bo'lsak, B.Sh.Mamarasulov: "...barcha jamiyatlar va insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, ijtimoiy o'zgarishlar zamirida boshqa jonzotlardan o'zining ongi va tafakkuri bilan tubdan farq qiladigan va maqsadga muvofiq faoliyatni amalga oshiradigan inson ijtimoiy hayot sub'yekti hisoblanadi". Markaziy Osiyo buyuk qomusiy olimi, Beruniyning chuqur falsafiy kuzatishlariga e'tibor bersak, Beruniy yoshlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalari to'g'risidagi falsafiy qarashlarining o'rni beqiyos. Kishilarning jamiyatga birlashishi urushlar va kuch ishlatish natijasida hamda odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishlari tufayli kelib chiqadi. U kishilarning mavjudligi va kamolot topishi uchun zarurdir [3]. Beruniy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm hikmatni o'rganmagan desa, uni

yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq vaodobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmatqilsin, ilm vaahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin». Bu fikrlardan Beruniyning ta'lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy-axloqiy tarbiyada alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi deb ta'kidlagan. Mutafakirimiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir. Yaxshi tarbiya ko'rgan odamning xislatlaridan biri, bunday odam o'z faoliyatida boshqalardan bir qadam oldinga o'tsa, darrov orqaga qaraydi, sheriklariga yordam qo'lini uzatadi, safini kengaytirib, yangi g'alabani ko'zlaydi [4].

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ma'naviy immunitetni yanada oshirish zarur", degan edi. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz.

Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot.

Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" deb ta'kidlagan fikrlari g'oyatda o'rindir.

O'zbekiston aholisining 60 foizdan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Bu navqiron millat sifatida katta intellektual imkoniyatlar O'zbekistonda mavjud ekanligini ko'rsatadi. Yoshlik – bu axloqiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati foydali bo'lishigina emas, balki bu faoliyat o'z shaxsiy maqsadlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkin qadar to'laroq ko'maklashishi ham g'oyat muhimdir.

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifa mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishdan iborat. Bu o'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalashdan iborat. Bunday yoshlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni soxtaaqidalar bilan buzib bo'lmasligiga ishonadilar.

Xorijdagi ayrim siyosiy kuchlar jamiyatimizning istiqboli bo'lgan yoshlarimizni o'z ta'siriga olishga urinayotgan ayni zamonda ta'lim-tarbiya tizimini yoshlar muammolarini hal qilishga qaratishimiz kerak. "Axloq" tushunchasi arabcha "xulq-atvor" degan ma'noni anglatadi. Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish vazifasini bajaradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat ijobiy xislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifatlarni bartaraf etishni, har qanday axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi kurashga yoshlarni undashni ham ko'zda tutadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, yoshlarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning usul va vositalari juda xilma-xildir. Bunda ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar katta ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi mumkin. Shuningdek, ma'ruza, seminarlar, namuna ko'rsatish, uchrashuvlarni tashkil qilish usullaridan ham foydalanish mumkin.

Axloqiy tarbiyani tashkil etishda bolalarning yoshi, ularning shaxsiy axloqiy tajribalari, axloq sohasidagi o'zlashtirgan bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish milliy va umuminsoniy qadriyatlarining barcha imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni taqozo qiladi. Jahon xalqlarining ilg'or madaniyati milliy ma'naviyatimizni yanada yuksak darajaga ko'tarishga ijobiy ta'sir etishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida boshqa xalqlar merosining ijobiy tomonlaridan qanchalik

foydalanmaylik, bari bir o'zbek milliy qadriyatlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosi bo'lib qoladi.

Yoshlarni har xil salbiy oqimlarga kirib ketishini oldini olishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni kattadir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jamiyat taraqqiyotida dalolatdir. "Avesto"ning tub ma'no mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyil, hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi hisoblanadi. Ma'lumki, har qaysi millatning o'z afsonaviy qahramonlari, o'zi ardoqlagan kishilari bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining noyob durdonalari bo'lgan "Alpomish", "Shiroq", "To'maris" dostonlari millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avloddan-avlodlarga o'tib kelayotgan dostonlardir. "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlikni, o'z yurtimizni, oilamizni asrab avaylashni o'rgatadi. O'zbek millatida bolalarni faqat ota-onalar emas, balki qarindosh-urug'lari, mahalla ham tarbiyalaydi. Yoshlarning axloqiy qiyofasi shakllanishida hamma davrlarda ham atrof-muhit katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Ko'p bolali oilalarda bolalar halol mehnat qilishga, ota-onasiga, qo'ni-qo'shniga yordam berishga yoshligidanoq odatlanadilar. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda yana bir mezon – muqaddas dinimiz ham yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodni yaxshilik va ezgulikka chorlaydi. Din – inson ma'naviyati rivojlanishining muhim omili. Diniy qarashlarni kimlardir o'z xohishi va istagi bilan yaratgan emas. Har qanday diniy ta'limotlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida obyektiv va subyektiv ehtiyojlar, zaruriyatlar asosida kelib chiqadi. Qur'on, hadislar, shariat qoidalari, islom huquqi asoslarida oldinga surilgan barcha g'oyalar zaminida ruhiy poklanish, iymon, e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan dunyoviy muammolar o'rta qo'yilgan.

Xulosa. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish bu sohada dunyo xalqlari to'plagan tajribalarini o'rganish va ijtimoiy hayotga tadbiq etish dolzarblik kasb etadi. Yoshlarni axloqiy madaniyatini shakllantirish va axloqiy tarbiya bo'yicha asosiy tadbirlarni oila va mehnat jamoalarida, xususan bolalar bog'chasi va umumiy o'rta maktablarida, oliy ta'lim muassasalarida yuksak darajada amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Данное произведение аль-Фараби будет цитироваться по изданию: Аль Фараби. Совершенный град//Ибрагим Т.К., Ефремова Н.В. Антология. Казань, 2009.

2. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (ўрта асрлар). ТДШИ нашриёти. 2010.

3. Форобий. Фазилат. Бахт-саодат ва камолот. –Т.: Ёзувчи. 2002.25-26 б.

4. Хемраевна, М. Г., & Mirzaraximovna, A. B. (2022). Mutaxassislik bo'yicha adabiyotlarni o'qish va tushinish qobiliyatini rivojlantirish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 13(1), 129-133.

5.Артикова Б.М. (2021). Укрепление основания железнодорожного пути при высокоскоростном движения поездов. Экономика и социум, 81, 492-494.





**INGLIZ VA O‘ZBEK ONOMASTIK  
LEKSEMALARINING TARJIMASI MASALALARI  
("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)**

**Aliyeva Dilafro‘z Rustam qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti magistranti

**ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА АНГЛИЙСКИХ И  
УЗБЕКСКИХ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ  
(НА ПРИМЕРЕ ЭПОСА «АЛПОМЫШ»)**

**Алиева Дилафруз Рустам кизи**

Магистрант Ташкентского государственного университета  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

**PROBLEMS OF TRANSLATION OF ENGLISH  
AND UZBEK ONOMASTIC LEXEMAS  
(IN THE EXAMPLE OF THE EPIC "ALPOMISH")**

**Aliyeva Dilafroz Rustam qizi**

Master student of Tashkent State University of Uzbek Language and  
Literature named after Alisher Navoi



E-mail: [aliyevadili@inbox.ru](mailto:aliyevadili@inbox.ru)

tel: +998901142212

<https://orcid.org/0009-0005-2348-0901>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola xalq og‘zaki ijodi namunasi – “Alpomish” dostonidagi onomastik leksemalarning ma’nolari va qo‘llanilishini atroflicha tahlil qiladi. Mazkur dostonidagi onomastik leksemalar nafaqat antroponimlarda, balki zoomimlar va fitonimlarda ham ifodalanishi mumkin. Maqolada matnning turli ko‘rinishlarida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada ushbu leksemalar qo‘llangan misralar, ularning linvomadaniy va ijtimoiy ma’nolari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot ishida statistik tahlillar amalga oshirilgan bo‘lib, ular ishning amaliy ahamiyatini yanada yaqqolroq namoyon etadi.

**Kalit so‘zlar:** onomastik birliklar, antroponimlar, zoomimlar, fitonimlar, qiyosiy tahlil, madaniy tasavvurlar.

**Аннотация.** В данной статье подробно анализируются значения и употребление ономастических лексем в эпосе «Алпомиш», образце народного творчества. Ономастические лексемы в этой саге могут выражаться не только в антропонимах, но и в зоонимах и фитонимах. В статье анализируется использование текста в разных формах. Кроме того, в статье рассматриваются стихи, в которых используются данные лексемы, а также их лингвокультурное и социальное значение. В ходе исследовательской работы был проведен статистический анализ, который наглядно показывает практическую значимость работы.

**Ключевые слова:** ономастические единицы, антропонимы, зоомимы, фитонимы, сравнительный анализ, культурное воображение.

**Annotation:** This article thoroughly analyzes the meanings and uses of onomastic lexemes in the epic “Alpomish”, a sample of folk art. Onomastic lexemes in this saga can be expressed not only in anthroponyms, but also in zoonyms and phytonyms. The article analyzes the use of the text in different forms. In addition, the article examines verses where these lexemes are used, as well as their linguistic, cultural and social meanings. Statistical analyzes were carried out in the research work, which clearly show the practical importance of the work.

**Key words:** onomastic units, anthroponyms, zoomims, phytonyms, comparative analysis, cultural imagination.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Avvalo onomastika tushunchasi xususidagi ilmiy qarashlarga murojaat qilish lozim. Ma'nolarni ifodalash ham juda muhim. Onomastika (yunoncha: *onomastikos* – ismga bog'liq, opot – ism) bo'lib, quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi [5]:

1) Tilshunoslikda otlar, ularning tarixi, tilda qo'llanilishini o'rganadi;

2) Onomiya turli xos nomlar (antroponimiya, toponimika, etnonimiya va boshqalar)ga bo'linadi. Osiyo xalqlarining oldingi joylashuvi, migratsiyalari, til va madaniy aloqalari, tillarning qadimgi holatini bilishga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, dostonlarda xalqning orzu-istaklari, maqsad-muddaolari, kasb-hunarlarini, atrof-muhitga bo'lgan qarashlari, qo'shni (ba'zan yondosh) xalqlar bilan munosabati va boshqa harakatlari atroflicha bayon etilgan. Xalq og'zaki ijodidagi, jumladan, "Alpomish" dostonidagi onimlar qimmatli madaniy-tarixiy yodgorlikdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, inson yaralganidan beri bir-biri bilan jamoa bo'lib, muloqot qilib yashashga ehtiyoj sezadi. Uning har tomonlama rivojlanib bugungi kundagi kamolotida xalq og'zaki ijodining ahamiyati beqiyos. Ma'lum bir millat leksikologiyasida mavjud so'zlarning qadimiyligini bilish uchun ularni o'sha yoki qo'shni xalqlar ijodida mavjudligini o'rganish yaxshi natija beradi. "Bu jihatdan "Alpomish" dostoni mazmuniga oid asosiy voqealar oltoy, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarda ertak, rivoyat, doston shaklida mavjud ekani asar nihoyatda qadim zamonlarda yaratilganidan darak beradi. Prof. To'ra Mirzayev doston variantlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida uning "Alpomish", "Alpamis", "Alpamis botir", "Alip – manash", "Alpamsha", "Alpamisha va Barsin xiluv" kabi nomlarda atalishini qayd etadi. Hatto "Dada Qo'rqut kitobi"ning uchinchi bo'y (doston)i "Bamsi Bayrak" o'zining syujet voqealari jihatdan "Alpomish"ga yaqin turishini ta'kidlaydi. Olimlarning ma'lumot berishiga qaraganda, XIX asr oxirida Ya.F.Kal o'zbek-qo'ng'iroq urug'i aynli aymog'iga mansub baxshi Omonnazardan dutor jo'rligida doston

tinglagani va bu doston "Alpomish" dostoni bo'lishi kerakligi haqida ma'lumotlar ham bor" [4].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Tahlil natijalariga ko'ra, "Alpomish" doston sifatida yaratilganiga ko'p asrlar o'tgan bo'lsa-da, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, xalq boshidan kechirgan turli real voqealarda ko'plab xalqlar (qabilalar, urug'lar, elatlar) ishtirok etgan va u bir davrda sodir bo'lgan. Dostonda o'ziga xos nomlar uchrab, ular ma'noga boy hisoblanadi. Doston onomastikasida qadimgi va keyingi davrlarda yaratilgan, bugungi kunda qo'llangan otlar, ularning tizimlari, modellari va boshqa turlarini uchratish mumkin. Dostonning dostonga aylanishi munosabati bilan keyingi baxshilar xalq hayotidagi so'nggi voqealarni rivojlantirib, boyitib, epik xarakterga aylantirib, yanada bezatib, umumlashtirgan. Natijada, "Alpomish"ning xalq ijodi an'analari va badiiy tamoyillariga bo'ysunib, estetik-axloqiy yo'nalishlarga ko'ra o'zgartirildi (xalq etimologiyasi yo'nalishiga ko'ra). Makon va zamon nuqtai nazaridan o'zgarishga yuz tutib, asarni xalqqa yetkazishda boshqa stilistik usullar kabi onomastik birliklar ham badiiy vositalar vazifasini bajargan. Doston geografik yoki tarixiy asar emas, u epik ertakdir. Demak, "Alpomish"dagi nomlarni epik (yoki badiiy she'riy) xos nomlar deb hisoblash mumkin. Asarning o'ziga xos nomlari, odatda, quyidagi guruhlariga bo'linadi: toponim va gidronimlar (joy va suv nomlari): Alpomish zindoni, Murodtepa, Kasha, Samarqand, Toshkand, Turkiston, Toychi viloyati, To'qayiston, Madina, Mashriq, Arpali ko'l, Achchiq ko'l, Oyna ko'li; antroponimlar (odamlar nomlari): Alpinbiy, Alpomish/Hakimbek, Anqa polvon, Bodom bikach, Barchinoy, Boybo'ri, Boysari, Bektemir, Muhammad Mustafo, Dobonbiy, Yodgor, Jilovdor, Baxshoyish, Jamshidu Ahmad, Ko'sa sinchi, Ko'kaldosh, Ko'kaman, Tovka, Layli, Majnun, Mirkulol, Suqsuroy kaniz, Surxayil, Toychixon, Ultontoz, Qorajon, Qultoy, Yartiboy oqsoqol, Hakimbek, Yusuf, Farmonqul, Qayqubot kal, Qaldirg'ochoyim, Qalmoqshoh, Baxshoyish, Shohimardon, Jamshid, Yodgor, Parpi, Xo'ja, Xo'jai Zumrati, Mirkulol, Shohizinda, Kavsar, Karim, Bashir, Doniyor, Qambar, Ali, Molik Ahmad, Qozi, Ahror, Bosaf, G'azira shayxi Xudoydod, Rizo, Holiq, So'fi Olloyor; etnonimlar (xalq nomlari)

Boysin-Qo'ng'irotdan eli, Kashal eli, O'zbek, Xitoychalar, Qalmoq, Qozoq; zoonimlar (hayvon nomlari): Boychibor, Boyqadam, Iziquti, Ko'kdo'n, Qiyg'ir, Anqo; mifonimlar, ayniqsa, mifoantroponimlar (pir, payg'ambar, jin, dev va boshqa shunga o'xshash farishta nomlari): Shohimardon pir, Baxshoyish, Zinda pir, Imomi A'zam, Rasul Muhammad, Mustaf, Rahmon, Muhammad.

Asarning inglizcha tarjimasida antroponimlar quyidagicha keladi: *Alpinbiy, Alpomish/Khakimbek, Anqa brave, Barchinoy, Boybury/Boyburi, Boysary/Boysari, Bodom bekach, Bektemir, Muhammad Mustafa, Dobonbiy, Yodgor, Jilovdor, Bakhshoyish, Jamshid and Ahmad, Kusa, Kukaldosh, Kukaman, Tovka, Layli, Majnun, Mirkulol, Suqsur, Surkhayil, Toychikhan, Ulton/Ultontoz, Qorajon, Qultoy, Yartiboy, Khakimbek, Josef, Farmonqul, Kayqubod, Qaldirghoch/Qaldirghochoyim, Qalmoqshah, Bakhshoyish, Shohimardon, Jamshid, Yodgor, Parpi, Khuja, Khujai Zumrat, Mirkulol, Shohizinda, Kavsar, Karim, Bashir, Doniyor, Qambar, Ali, Molik, Ahmad, Qozi, Ahror, Bosaf, Ghazira Shaykh Khudoydod, Rizo, Kholiq, Sufi Olloyor.*

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** O'zbek xalqi o'tmishda ko'chmanchi hayot kechirib, asosan chorvachilik bilan shug'ullangani uchun o'z turar-joylari va yaylovlarini muntazam yangilab turganligi sababli "Alpomish"da O'rta, Sharqiy va O'rta Osiyo joy nomlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'plab toponimlar berilgan. "Alpomish" dostonidagi har bir xos nom xalqning dunyoni bilish va idrok etish darajasidan kelib chiqib, aniq ma'no ifodalash uchun qo'yilgan. Dostondagi onomastik leksemalar o'zbek xalqining bebaho boyligi bo'lib, undagi har bir xos nom xalq madaniyati yodgorligining o'ziga xos qimmatli shakli hisoblanadi. Mazkur doston turkologik yo'nalishda (kontekstda) ham, umumiy onomastika fonida ham alohida o'rin tutadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Katta hajmdagi ish va unga jalb qilingan keng qamrovli materiallar "Alpomish" dostonining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, lingvomadaniyat – xalq madaniyatining tilda o'rnashib, unda aks etadigan ko'rinishlarini o'rganadi, tilni madaniyat hodisasi sifatida o'rganadi, olamni milliy til orqali ko'rish, til o'ziga xos milliy mentalitetning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat til madaniyatning ahamiyatli bir bo'laki sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Tilshunoslik va madaniyatshunoslikning kesishgan qismini o'rganadigan sohadir.

Inson va tabiat uyg'unligi folklorda ustuvor hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining alohida xususiyati ham aynan insoniyat – nabotot – hayvonot olami bilan chambarchas bog'liqligidir. Shu boisdan hayvon va parrandalar hamda ularning timsoli xalq og'zaki ijodida faol qo'llanib, insonning eng sodiq hamkori, yordamchisi sifatida gavdalanadi.

Demak, "Alpomish" dostoni va uning inglizcha tarjima matnlarini lingvistik manba sifatida atroflicha o'rganish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: Fan, 1978. – 252 b.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 234 b.
3. Иржи Л. Искусство перевода. – М.: Прогресс, 1974. – 355 с.
4. O'zbek xalq og'zaki ijodi. // <https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=15>
5. Швейцер А.Д. Теория перевода. – М.: Учитель, 1988. – 438 с.
6. Jennifer Speake. The Oxford Dictionary of Proverbs: Fifth edition. – USA.: Oxford University Press, 2007. – 658 p.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Onomastika>
8. [www.ideceonline.com/./prepositions](http://www.ideceonline.com/./prepositions)
9. [www.Let.Leidenuniv.nl/hsl-shl/prepositions](http://www.Let.Leidenuniv.nl/hsl-shl/prepositions)

## “BEOWULF” DOSTONIDA TAKROR IFODA USULINING BERILISHI MASALALARI

**Bobokulova Mohinur Fazliddin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti magistranti

## ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕДАЧА ПОВТОРОВ В ЭПОСА «БЕОВУЛЬФЕ»


**Бобокуллова Мохинур Фазлиддин кизи**

Магистрант Ташкентского государственного университета  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

## PROBLEMS OF TRANSLATION OF REPETITION IN THE EPIC “BEOWULF”

**Bobokulova Mohinur Fazliddin qizi**

Master student of Tashkent State University of Uzbek  
Language and Literature named after Alisher Navoi



E-mail:

[bobikulovamohinur@mail.ru](mailto:bobikulovamohinur@mail.ru)

tel: +998936576660

<https://orcid.org/0009-0005-2348-0902>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz xalq og‘zaki ijodi namunasi – “Beowulf” dostonidagi takrorlarning ma’nolari va qo‘llanilishini atroflicha tahlil qiladi. Mazkur dostonidagi takrorlar nafaqat xususiyatlariga ko‘ra turlari, balki badiiy matndagi funksiyalari jihatdan ham tahlilga tortilgan. Maqolada matnning turli ko‘rinishlarida takrorning qo‘llanilishi tahlil qilinadi hamda takrorning emotsional-ekspressiv ma’nolari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot ishida misollar tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, ular ishning amaliy ahamiyatini yanada yaqqolroq namoyon etadi.

**Kalit so‘zlar:** takror, madaniy tasavvurlar, qiyosiy tahlil, so‘zlovchi, nutq, emotsional-ekspressivlik, badiiy matn.

**Аннотация:** В данной статье подробно анализируются значения и употребление повторов в эпосе «Беовульф», образце английского фольклора. Повторы в этом эпосе анализируются не только по их характеристике, но и с точки зрения их функций в художественном тексте. В статье анализируется использование повтора в разных формах текста, а также рассматриваются эмоционально-экспрессивные значения повтора. В исследовательской работе проводится анализ примеров, которые более наглядно показывают практическую значимость работы.

**Ключевые слова:** повтор, культурное воображение, сопоставительный анализ, говорящий, речь, эмоционально-выразительность, художественный текст.

**Annotation:** This article thoroughly analyzes the meanings and uses of repetitions in the epic “Beowulf”, an example of English folklore. Repetitions in this epic are analyzed not only according to their characteristics, but also in terms of their functions in the artistic text. The article analyzes the use of repetition in different forms of the text and also considers the emotional and expressive meanings of repetition. In the research work, the analysis of examples is carried out, which show the practical significance of the work more clearly.

**Key words:** repetition, cultural imagination, comparative analysis, speaker, speech, emotional-expressiveness, artistic text.



## KIRISH

**(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).** Dunyo tilshunosligida stilistika, tarjimashunoslik va leksikografiya bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytmoqda. Turli tizimli tillarda takror turlari maqsad va vazifalari (tovush takrori, derivatsion takror, leksik takror, fraza takrori, semantik takror, sintaktik takror), ifoda usulining lingvistik xususiyatlari; badiiy asarlardagi takrorning semantik va stilistik tahlili; takrorning ifodalovchi til birliklarini chog'ishtirma tadqiq etish; takrorning strukturaviy va tipologik jihatdan o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, so'zlovchi nutqining emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi vositalardan biri – takrorning ayrim qirralari tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, S.A.Glazirina takrorning ingliz tilida matn yaratish funksiyasini, I.I.Kovalchuk rus tilida takror va uning matndagi funksiyalarini, Ye.V.Metlyakova A.Axmatovanning she'riy mantlari asosida leksik takrorning tadqiq qilgan. V.Yu.Kazakova esa rus va ingliz tillarida semantik takrorning universal hamda milliy jihatlarini o'rgangan. Ammo qardosh bo'lmagan tillar badiiy adabiyoti bilvosita va bevosita tarjimalari matnda takrorning qo'llanish xususiyatlari hanuzgacha yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli ingliz va o'zbek yozuvchilarining badiiy asarlari bevosita va bilvosita tarjimalarida uchraydigan takrorning talqin etish muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilshunoslarining takrorga bo'lgan qarashlari ko'proq uning qanday stilistik troplar bilan aloqadorligi, turlari va funksiyalarini ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan bo'lsa, o'zbek tilshunoslari takrorning ifodaga qay darajada hissiy ta'sir o'tkaza olishi, matndagi turli funksiyalarini tahlil etilishi bilan belgilanadi.

## МУНОКАМА

**(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Tahlil natijalariga ko'ra, tilning kommunikativ va boshqa vazifalari qatorida uning ekspressiv vazifasi ham alohida ajratiladi. Tilshunoslikda ekspressivlik (bu tushuncha emotsionallikni ham o'z ichiga oladi) ifodalanishning fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik usullari mavjud ekanligi

qayd etiladi. Mantiq va mazmun jihatidan takror o'zi bilan birga emotsionallik, ekspressivlik kabi qo'shimcha axborotni olib yurishga qodir, shu bilan birga, undan foydalanish asosida muallif uslubi va uning tasvirlanayotgan voqea-hodisaga munosabatini anglash mumkin bo'ladi.

Takror bilan bog'liq muammolardan biri – uning lisoniy maqomini aniqlash hisoblanadi. Antik davrlarda bu ritorik vositalar jumlasiga kiritilgan. Keyinchalik stilistika alohida fan bo'lib ajralib chiqqanidan so'ng u stilistik hodisa sifatida talqin etila boshlandi. Takror, uning turlari va tasnifiga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar stilistika doirasida amalga oshirilgan.

“Takror” (arab. – qaytariq, takrorlash) termini, yuqorida qayd etilganidek, lingvistik adabiyotda “takrorlash”, “reduplikatsiya” (so'z negizini takrorlash yo'li bilan yangi so'z yasash), “ikki martaga oshirish” kabi ayrim holatlarda bir-biridan farqlanmaydigan, yana boshqa hollarda esa turli ma'nolarni ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi. Namoyon bo'lishiga ko'ra takror hodisasi rang-barang va turli xildir. Tadqiqotchilar takrorlarni tilning turli sathi (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) va fan sohasi (tilshunoslik, adabiyotshunoslik)da ishlatilishi jihatidan o'rganishgan. “Beowulf” asaridan quyidagi parchani tahlil qilamiz:

“*Morning after morning, he wakes to remember that his child has gone, he has no interest in living on until another heir is born in the hall*” [1].

Mazkur misolda *morning, he* so'zlari ikki marotaba kelgan bo'lib, ular jumlagi ta'kid, hissiy ekspressivlik bag'ishlash uchun qo'llanilgan.

Yana bir misol:

“Such passages mark an ultimate stage in poetic attainment; they are *the* imaginative equivalent of Beowulf's spiritual state at *the* end when he tells his men that “doom of battle will bear [their] lord away” in *the* same way that *the* sea-journeys so vividly described in lines 210-28 and 1903-24 are the equivalent of his exultant prime” [1].

Bu misolda esa o'zbek tilida mavjud bo'lmagan *the* artikli ifodadagi otni alohida ta'kidlash uchun xizmat qilmoqda.

Quyidagi parchada esa semantik takror kelgan:

“When *the dragon* awoke, trouble flared again. *He* ripped down the rock, writhing with anger

when *he* saw the footprints of the prowler who had stolen too close to his dreaming head” [1].

Bog’langan qo’shma gap tarkibidagi birinchi sodda gapda *the dragon*, ikkinchi va uchinchi gaplarda esa *he* tarzida kelgan bo’lib, ma’no takrori ya’ni, semantik takrorga yorqin misol bo’la olgan.

**NATIJAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Tilning kommunikativ va boshqa vazifalari qatorida uning ekspressiv vazifasi ham alohida ajratiladi. Tilshunoslikda ekspressivlik (bu tushuncha emotsionallikni ham o’z ichiga oladi) ifodalanishning fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik usullari mavjud ekanligi qayd etiladi. Mantiq va mazmun jihatidan takror o’zi bilan birga emotsionallik, ekspressivlik kabi qo’shimcha axborotni olib yurishga qodir, shu bilan birga, undan foydalanish asosida muallif uslubi va uning tasvirlanayotgan voqea-hodisaga munosabatini anglash mumkin bo’ladi.

Takror bilan bog’liq muammolardan biri – uning lisoniy maqomini aniqlash hisoblanadi. Antik davrlarda bu ritorik vositalar jumlasiga kiritilgan. Keyinchalik stilistika alohida fan bo’lib ajralib chiqqanidan so’ng u stilistik hodisa sifatida talqin etila boshlandi. Takror, uning turlari va tasnifiga bag’ishlangan ko’pgina tadqiqotlar stilistika doirasida amalga oshirilgan .

“Takror” (arab. – qaytariq, takrorlash) termini, yuqorida qayd etilganidek, lingvistik adabiyotda “takrorlash”, “reduplikatsiya” (so’z negizini takrorlash yo’li bilan yangi so’z yasash), “ikki martaga oshirish” kabi ayrim holatlarda bir-biridan farqlanmaydigan, yana boshqa hollarda esa turli ma’nolarni ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi. Namoyon bo’lishiga ko’ra takror hodisasi rang-barang va turli xildir. Tadqiqotchilar takrorlarni tilning turli sathi (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) va fan sohasi (tilshunoslik, adabiyotshunoslik)da ishlatilishi jihatidan o’rganishgan.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).** Gapda qo’llangan ayrim affikslar, so’z, so’z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran

qo’llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta’sirchanligi ortadi.

Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida hosil qilinadigan aloqa zanjirli aloqa, bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig’indisidan tashkil topadigan aloqa parallel aloqa deyiladi.

Mazkur fikrlarni qo’llab-quvvatlagan holda qayd etish lozimki, tadqiq etilayotgan takror ifoda usuli leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etadi, fikriy emotsionallikni ta’minlaydi, ta’kid, kuchaytirish, diqqatni jalb qilish, jozibador to’lqinlanish kabi muhim funksiyalarni bajaradi, undan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta’sirchanligi ortadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Seamus Heaney. *Beowulf. A new verse translation.* – New York: London, 1978. – 213 p.
2. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1988. – 234 б.
3. Иржи Л. Искусство перевода. – М.: Прогресс, 1974. – 355 с.
4. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. // <https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=15>
5. Швейцер А.Д. Теория перевода. – М.: Учитель, 1988. – 438 с.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Onomastika>
7. [www.ideceonline.com/./preposition](http://www.ideceonline.com/./preposition)
8. [www.Let.Leidenuniv.nl/hsl-shl/prepositions](http://www.Let.Leidenuniv.nl/hsl-shl/prepositions)

## FOLKLORNING INFORMATIV EPIK JANRLARIGA DOIR

**Qayumov Olim**

Toshkent amaliy fanlar universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori

<https://orcid.org/0000-0003-3716-6293>

[olimkayumov@utas.uz](mailto:olimkayumov@utas.uz)

+998 94 632 22 42

## ПО ИНФОРМАТИВНЫМ ЭПИЧЕСКИМ ЖАНРАМ ФОЛЬКЛОРА

**Каюмов Олим**

доктор филологических наук  
профессор Ташкентского университета прикладных наук

## ON INFORMATIVE EPIC GENRES OF FOLKLORE

**Qaumov Olim**

Tashkent University of Applied Sciences  
Professor, Doctor of philological Sciences

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek folklorining tinglovchiga axborot tashishga xizmat qiluvchi kichik epik janrlari xususida mulohaza yuritilgan. Muallif folklorshunoslik fanida e'tibordan chetda qolgan zamonaviy informativ janr "mish-mish" lar haqida yangi ilmiy-nazariy xulosalarni o'rtaga tashlaydi.

**Kalit so'zlar:** folklor, og'zakilik, variantlilik, informativ, funktsiya.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены малые эпические жанры узбекского фольклора, служащие для передачи информации слушателю. Автор выдвигает новые научно-теоретические выводы о "слухах", современном информативном жанре, игнорируемом фольклористической наукой.

**Ключевые слова:** фольклор, словесность, вариативность, информативность, функция.

**Annotation:** This article examines the small epic genres of Uzbek folklore, which serve to convey information to the listener. The author puts forward new scientific and theoretical conclusions about "rumors", a modern informative genre ignored by folklore science.

**Key words:** folklore, literature, variability, informativeness, function.

**Kirish.** Xalq og'zaki poetik ijodi xalqimiz tomonidan og'zaki yaratilib, avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib keladigan asarlarni tashkil etadi. Folklor asarlarining tabiati, o'ziga xosligi va poetik xususiyatlari borasida izlanishlar natijasida o'zbek folklori afsona, rivoyat, naql, ertak, doston, xalq qissalari, latifa, lof, qo'shiq, og'zaki dramalar, askiya kabi nomarosimiy hamda qator marosim folklori janrlaridan tashkil topganligi aniqlandi.

Hozirga qadar folklorshunoslarimiz tomonidan aniqlik kiritilgan janrlar mumtoz folklorga xos janrlar sifatida qayd etiladi<sup>1</sup>.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Ma'lumki, shaharlashuv jarayoni qadimiy hayot tarzini o'zgartiradi. Xalqimiz ijtimoiy hayotidagi yangi ma'lumotlar tashuvchi telekommunikatsion vositalarning ommalashuvi odamlarning informasion ehtiyojlarini qondirishda bir qadar

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг! Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-2 томлар, – Тошкент, 1987.

peshqadamlilik qilmoqda. Internet tizimidagi yangiliklarni turli manbalar orqali tarqalishi an'anaviy folklor ijrochiligini ma'lum ma'noda so'nishiga olib kelmoqda. Ammo xalq yashar ekan uning tafakkuri va ijodiy jarayoni to'xtab qolmaydi. Biroq rus folklorshunosi S.Yu.Neklyudov 1995-yilda e'lon qilgan maqolasida "posle folklor" – folklorlardan keyingi jarayon tushunchasini fanga taqdim etdi<sup>2</sup>. Aksariyat olimlarimiz bu taklifni bajoni dil qabul qilishdilar. Hatto o'zbek folklorshunosligida ham postfolklorga bag'ishlab tadqiqotlar e'lon qilindi<sup>3</sup>.

Aslida folklor ijodiy jarayon bo'lib, u xalq bilan birga doimiy yashaydi. To'g'ri, folklorning ba'zi bir janrlari ijrochiligi so'nishi mumkin, ammo u qachonlardir yana qayta tiklanadi. Masalan, qadimda bobolarimiz tomonidan ijro etilgan tijorat qo'shiqlari o'tkan asrda deyarli unutildi. Ijtimoiy hayotimizda bozor iqtisodiyotining joriylanishi va tijoratga keng imkoniyat berilishi natijasida xalq tijorat qo'shiqlarining yana qayta ijro etilishiga guvoh bo'ldik<sup>4</sup>. Shu jihatdan folklorlardan keyingi jarayon atamasi va postfolklor tushunchasi o'zini oqlamaydi. Hatto rus folklorshunosi V.P.Anikin ham "folklorlardan keyingi jarayon" degan fikrga qo'shilmagan edi<sup>5</sup>. Keyingi davr rus folklorshunoslari klassik folklor va postfolklor singari folklorlarni ikkiga ajratish yo'lidan boradi. Xalq ijtimoiy hayotining barcha bosqichlarida, uning turmush tarzidan kelib chiqib tafakkurda ma'lum o'zgarishlar kechadi. Bu esa, ma'lum janrlar ijrochiligining so'nishi, boshqa janrlar ijrochiligining kuchayishiga olib keladi. S.Yu.Neklyudov folklorning ba'zi namunalari tabiiy ijro ko'rinishidan sahnaviy talqinga ko'chgan holatlariga nisbatan postfolklor atamasini qo'llagan.

Aslida bu xalq tomonidan o'z qadriyatlari, ma'naviy merosiga munosabat, uni qayta hayotga qaytarishning ko'rinishi. Shunday ekan, bu jarayon ham folkloriy xarakterdadir. Xalq tomonidan ijod qilinib, xalq tomonidan ijro etilgan va yana ijro etilayotgan folklor asarlarida ijrochilarning improvizatsiya qilishlari kuzatiladi. Bu esa, ijodiy – folkloriy jarayondir. Ijrochi tomonidan improvizatsiyaga uchragan asar variantlilik sari yuz tutayapti, improvizatsiya oqibatida folklor asarining yangi varianti hosil bo'layapti. Demak, bu to'laqonli folkloriy jarayon sifatida qaralmog'i lozim.

Insoniyat tarixining ilk onlaridan hozirgacha bo'lgan davrda afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa singari epik tur janrlari ijrochiligi faolligini kuzatamiz. Biroq, xalq tomonidan ijro etilib kelinadigan irim ayimlari, "mish-mish" yoki «g'iybat» singari muayyan ko'rinishdagi ayimlar ham mavjudki, o'zbek folklorshunosligida bu borada alohida tadqiqot olib borish zarurligini ko'rsatadi. Irim ayimlarining folklor janri sifatida o'rganilishi biz tomonimizdan 2001-yillarda, folklorshunos I.Yormatov tomonidan 2017-yilda, keyinroq folklorshunos N.Tursunova tomonidan 2022-yilda taklif etilgan edi<sup>6</sup>. Bugungi o'zbek folklorshunosligida irim, g'iybat yoki «mish-mish» kabi alohida hodisa sifatida xalqimiz tafakkurida yashab kelayotgan og'zaki ijod namunalari tadqiq etilgani yo'q. Biz xalq nasri namunalari kuzatishimiz va ularning janriy mansubiyati borasidagi nazariy qarashlarni tahlil qilar ekanmiz afsona, rivoyat, naql singari janrlar orasida yana bir janrning e'tibordan chetda qolayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Kichik syujetli, og'zaki yaratilib, og'zaki tarqaladigan, muallifi noaniq, bir necha variantlarga ega bo'lgan og'zaki hikoyalar negadir

<sup>2</sup> Неклюдов С.Ю. После фольклора // Живая старина, 1995. – № 1.

<sup>3</sup> Рахмонов Б. "Постфольклор" истилохи истеъмолга киришининг ижтимоий-эстетик омиллари. Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқиқотлар, 2021, № 5 (57). – Б.86-95; Яна ўша. Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шароитидаги ҳолати ва функционал хусусиятлари. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2022.

<sup>4</sup> Қаюмов О. Ўзбек халқ тижорат кўшиқлари ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2005 № 3.– Б.68-71.

<sup>5</sup> Аникин В.П. Не постфольклор, а фольклор (к постановке вопроса о его современных традициях) // Славянская

традиционная культура и современный мир: Сборник материалов научно-практической конференции. Вып. 2 – Москва: Государственный республиканский центр русского фольклора, 1997 –С. 224–240.

<sup>6</sup> Қаюмов О. Ирим ва мифологик талқин//Адабиёт гулшани. Илмий мақолалар тўплами. 2- китоб.– Навоий, 2001. – Б. 16-22; Ёрматов И. Ўзбек халқ ирим айтимларининг жанр хусусиятлари//Ўзбек фольклоршунослиги антологияси. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти, 2017. – Б. 471-482; Турсунова Н. Ирим фольклор жанри сифатида // Science and innovation. 2022. № 7.– P.81-86.



hozirga qadar folklor janri sifatida tilga olinmasdan kelgan. Bunga sabab rus folklorshunosligining nazariy qarashlari asosida o'zbek folklorshunosligini shakllantirish tendensiyasining yetakchiligi deb hisoblayman.

Har bir millat og'zaki ijodida keng tarqalgan «mish-mish»lar folklorning keng ommalashgan janri sifatida e'tiborga olinmog'i kerak. «Mish-mish» matnlari ham muayyan voqea – hodisani badiiy tasvirlagan qichik hajmli og'zaki nasr namunasidir. «Mish-mish» matnlarida ham folklorga xos barcha xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. «Mish-mish»lar ham xuddi afsona, rivoyatlar singari xalq tomonidan yaratiladi, muallifi noaniq, og'zaki yaratilib, og'zaki tarqaladi, har bir ijrochi tomonidan ijro qilinganida yangi variantlar hosil qiladi. Ba'zan epik qahramonining mashhurligiga ko'ra, «mish-mish»larning versiyalari ham uchrashi mumkin. «Mish-mish»lar folklorning kichik epik janrlari singari ularning ijrochisi istalgan shaxs bo'lib, istalgan joyda ijro etilishi mumkin. «Mish-mish»ning boshqa janrlardan farqli tomoni shundaki, bunday og'zaki matnlarda epik qahramon ijrochining zamondoshi – real hayotdagi kishi, u bilan bog'liq voqealar ham hayotiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

«Mish-mish»larda tasvirlangan voqealar aksariyat hollarda hayotiy uydirmaga asoslanadi. Ijro qilingan «mish-mish»lardagi tasvirlangan hodisalar tinglovchilar tomonidan haqiqat sifatida qabul qilinadi. «Mish-mish»lar informativ vazifa bajaradi. Bunday hikoyalarda epik qahramon aytuvchining zamondoshi ekanligi va kichik syujetga egaligi bu janrning tabiatini belgilovchi asosiy xususiyatlardan sanaladi.

Aslini olganda, «mish-mish»lar epik qahramoni vafot etgach, davrlar o'tishi bilan tarixiy rivoyat shaklini oladi. Folklorshunos Z.Jumayevning aniqlashicha, tarixiy rivoyatlarda tasvirlangan voqea-hodisalar hayotiy uydirmaga asoslanadi. Tarixiy rivoyatlarning o'ziga xosligi yana shunda ko'rinadiki, tarixiy rivoyatlar o'tmishda yashab o'tgan tarixiy shaxslar haqidagi voqea – hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi<sup>7</sup>. O'zbek folklorida tarixiy

afsonalarni tadqiq etgan folklorshunos M.Raxmonova tadqiqotida tarixiy afsonalarning janr tabiatida ham tarixiy shaxslar va muhim tarixiy voqealar borasida ma'lumotni tashish yotishi qayd etiladi<sup>8</sup>. Masalan, Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar ham qachonlardir Navoiy haqidagi «mish-mish» shaklida ommalashgan, ammo davrlar o'tishi, «mish-mish»ning asosiy epik qahramoni tarixga aylanishi oqibatida avlodan-avlodga og'zaki yetib kelgan hikoyalar rivoyat shaklini olgan. Yoki matnda tasvirlangan voqealar xayoliy uydirmaga asoslansa afsona sifatida ommalashgan.

Folklorshunoslikda rivoyatlar roviylar tomonidan ijro etilganligi ta'kidlanadi. Xususan, folklorshunos U.Sattorov tadqiqotlarida rivoyatlarning ijrochisi qadimda roviylar bo'lganligi qayd etiladi<sup>9</sup>. O'zbek folklorida xalq nasri namunalari tabiati borasida uzoq vaqt izlanishlar olib borgan K.Imomov tadqiqotlarida ham rivoyatlarning maydonga kelish sabablari e'tibordan chetda qolgan<sup>10</sup>. Negadir rivoyatlarning genezisi borasida biror jiddiyroq kuzatishlar ko'zga tashlanmaydi.

Biz xalq nasrining kichik janrlari maydonga kelishiga zamin tayyorlagan, hozirgacha folklorshunoslar tomonidan mustaqil janr sifatida e'tirof etilmay kelayotgan xalq ijodining ijro va yaruvchilik ibtidosi borasida to'xtalishni lozim topdik. Ijro va yaratuvchilik ibtidosi deganda qadim zamoni nazarda tutayotganimiz yo'q. Folklor ijodiy jarayon ekan har bir zamon ijro va yaratuvchilik zamoni bo'lishi mumkin. Masalan, ayni paytda qaysidir bolalarimiz yangi zamonaviy topishmoqlar yaratib uni ijro qilmoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, har qanday rivoyat dastlab voqea-hodisa sodir bo'lgan zamonda o'sha zamon kishilari tilida “mish-mish” yoki “g'iybat” tarzida paydo bo'lgan. Voqea sodir bo'lgan zamon odamlari tilida keng tarqalganda o'ziga xos variantlilikka ega bo'ladi. Ma'lum vaqt o'tishi, voqealarning zamoni eskirishi natijasida “mish-mish”lar tarixiy shaxs haqidagi rivoyatga aylanadi. Demak, rivoyatlarning maydonga kelishi dastlab jamiyat a'zolarining bir shaxs yoki hodisa

<sup>7</sup> Жумаев З. Ўзбек халқ тарихий ривоятлари. Филол.фан номз.дисс. автореф. – Тошкент, 2005.

<sup>8</sup> Рахмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналари. – Тошкент, Фан, 2001. – Б. 24.

<sup>9</sup> Сатторов У.Ф. Ўзбек халқ топонимик насрининг таснифи ва поэтикаси. Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2023. – Б. 67.

<sup>10</sup> Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент, Фан, 1981; Яша ўша. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент, Фан, 2008.

borasidagi yangi ma'lumotni tashuvchi "mish-mish" ko'rinishida paydo bo'lib, davrlar o'tishi natijasida kishilar tafakkurida o'tmishda sodir bo'lgan hayotiy haqiqat shaklidagi rivoyat sifatida ommalashishda davom etadi.

"Mish-mish" g'iybatdan farqlanadi. Mish-mish mohiyatida tashilayotgan informatsiya yoqimli – xush xabar bo'lishi yoki yoqimsiz noxush xabar bo'lishi mumkin. Mish-mishda kichik voqea hikoya qilinadi, ijrochi mish-mish matnida tasvirlangan hodisalar va uning epik qahramoniga nisbatan xolis munosabatda bo'ladi.

### **Xulosa**

G'iybat- aksariyat hollarda biror shaxsning umumjamo'a axloqiy me'yorlariga zid bo'lgan xatti-harakati borasidagi ma'lumotni tashishga xizmat qiluvchi janr. G'iybat ijrochisi tasvirlanayotgan voqealarning epik qahramoniga nisbatan o'z nafratini ifodalashi hodisa tasvirida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki ijro etilgan matnning salbiy mohiyat kasb etishi, ijrochilarning epik qahramonga nisbatan noxolis yondoshuvi: hasad, g'alamislik, nafrat tuyg'ularining ochiqcha ifodalanishi g'iybatning asosiy belgilaridan sanaladi. "Mish-mish"larda bunday belgilar yashirin holda, aksariyat hollarda "mish-mish" ijrochilari tasvirlanayotgan voqea va hodisalarga nisbatan xolis pozitsiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "mish-mish"da ham g'iybatda ham muayyan voqea tasvirlanadi, muayyan hodisa haqida ma'lumot ifodalanadi. Qizig'i, tasvirlangan voqea va hodisalarda hayotiy uydirma yetakchilik qiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har ikkalasining ham epik qahramoni ijrochining zamondoshi, ijro paytida hayot bo'lgan shaxslardir. Masalaning ayni shu jihati "mish-mish" hamda g'iybatlarning rivoya va afsonalardan ajratib turadi. Afsona va rivoyatlarda

tasvirlangan voqeaning qadim zamonda bo'lib o'tganligi urg'ulanadi. Shuning uchun afsona va rivoyat janrlarining epik qahramonlari ham o'tmishda yashab o'tgan shaxslar sanaladi.

Demak, "mish-mish", g'iybat singari poetik voqelikni ifodalovchi og'zaki ijod namunalari folklorning kichik epik janrlaridir. Ular kichik epik janrlar: afsona, rivoyat, naql singari folklor tabiatiga xos barcha belgilariga ega.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бу ҳақда қаранг! Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-2 томлар, – Тошкент, 1987.
2. Неклюдов С.Ю. После фольклора // Живая старина, 1995. – № 1.
3. Рахмонов Б. "Постфольклор" истилоҳи истеъмолга киришининг ижтимоий-эстетик омиллари. Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқиқотлар, 2021, № 4. (57). – Б.86-95; Яна ўша. Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шароитидаги ҳолати ва функционал хусусиятлари. Филол.фан докт.дисс. – Тошкент, 2022.
5. Қаюмов О. Ўзбек халқ тижорат кўшиқлари ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2005 № 3.– Б.68-71.
6. Жумаев З. Ўзбек халқ тарихий ривоятлари. Филол.фан номз.дисс. автореф. – Тошкент, 2005.
7. Рахмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналари. – Тошкент, Фан, 2001. – Б. 24.
8. Сатторов У.Ф. Ўзбек халқ топонимик нарининг таснифи ва поэтикаси. Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2023. – Б. 67.
9. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент, Фан. 1981; Яша ўша. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент, Фан, 2008.



## IRODA VA IXTIYOR ERKINLIGI TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

*Absattorova Madinabonu Rustamovna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi*

## СМЫСЛ И СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ СВОБОДА ВОЛИ И СВОБОДА ВЫБОРА

*Абсатторова Мадинабону Рустамовна*

*Преподаватель-стажер кафедры «Общественные науки»*

*Ташкентского государственного педагогического*

*университета имени Низами*

## THE MEANING AND ESSENCE OF THE CONCEPTS OF FREEDOM OF WILL AND FREEDOM OF CHOICE.

*Absattorova Madinabonu Rustamovna*

*Trainee teacher at the Department of Social Sciences, Tashkent*

*State Pedagogical University named after Nizami*



[madinabonu@gmail.com](mailto:madinabonu@gmail.com)

<https://orcid.org/0024-0020-7028-2247>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ikki ming yildan ortiq vaqt mobaynida “iroda erkinligi” va “ixtiyor erkinligi” masalasi falsafaning muhokamali mavzularidan biri sifatida e’tirof etib kelinganligi va bu bahs mavzuni azaliy muammo sifatida talqin qilishga asos bo’lishi izohlab berilgan. Bu masalasi faqat falsafiy fanlarning emas balki psixologiya fanlarining tadqiqot mavzusi ekanligiga ham e’tibor qaratilgan. “Iroda erkinligi” va “ixtiyor erkinligi” tushunchalariga qat’iy, konkret ta’rif berish mushkul vazifa hisoblanadi. Faylasuflar iroda va ixtiyor erkinligi masalasini o‘z qarashlari nuqtai-nazaridan tahlil qilishgan. Muhokama kontekstida bular bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi mustaqil tushunchalar ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Erkinlik, xulq-atvor, iroda, iroda erkinligi, ixtiyor erkinligi, tanlov, mas’uliyat, ongli faoliyat, erkinlik illyuziyasi.

**Аннотация:** В данной статье поясняется, что уже более двух тысяч лет проблема «свободы воли» и «свободной воли» признается одной из обсуждаемых тем философии и является основой для интерпретации этой темы, как древняя проблема. Обращается внимание на то, что данный вопрос является предметом исследования не только философских наук, но и психологических наук. Дать строгое и конкретное определение понятиям «свобода воли» и «свобода выбора» - трудная задача. Философы проанализировали вопрос свободы воли и свободы выбора с точки зрения своих взглядов. В философской литературе, посвященной этому понятию, нет единого определения. Фактически в контексте дискуссии утверждается, что это самостоятельные понятия, совершенно отличные друг от друга.

**Ключевые слова:** свобода, поведение, воля, свободная воля, свободная выбор, выбор, ответственность, сознательная деятельность, иллюзия свободы.

**Abstract:** This article explains that for more than two thousand years the problem of "free will" and "free will" has been recognized as one of the discussed topics of philosophy and is the basis for interpreting this topic as an ancient problem. Attention is drawn to the fact that this issue is the subject of study not only of philosophical sciences, but also of psychological sciences. Giving a strict and specific definition of the concepts of "free will" and "freedom of choice" is a difficult task. Philosophers have analyzed the issue of free will and freedom of choice from the point of view of their views. In the philosophical literature devoted to this

*concept, there is no single definition. In fact, in the context of the discussion, it is argued that these are independent concepts, completely different from each other.*

**Key words:** *Freedom, behavior, will, free will, free choice, choice, responsibility, conscious activity, illusion of freedom.*

**Kirish.** Iroda erkinligi va ixtiyor erkinligi masalasi falsafada, ayniqsa determinizm va indeterminizm kabi rakurslarda muhokama qilinganda ular farqli falsafiy kategoriyalar ekanligi oydinlashadi. “Neyrologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarda iroda va ixtiyor erkinligi haqidagi an’anaviy g’oyalar shubha ostiga olinib, bizning ko’p qarorlarimiz ongsiz jarayonlarning mahsuli sifatida baholanmoqda” [1]. Iroda va ixtiyor erkinligi asosida qabul qilgan qarorlar va harakatlar onglik jarayonining mahsuli hisoblanadi va javobgarlik erkin iroda vakilining zimmasiga yuklanadi. Shunday qilib, bu atamalar ko’pincha bir-birining o’rnida ishlatilsa-da, ularning nuanslari va farqlari muhokama kontekstida yaqqol ko’zga tashlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Iroda va ixtiyor erkinligi tushunchalarining mazmun mohiyatiga to’xtalib o’tishdan oldin bu ikki tushunchaning o’zagi bo’lgan iroda va ixtiyor tushunchalarining ta’riflarini ko’rib chiqsak. Iroda tushunchasi falsafada dastlab falsafiy mushohadalarning bahs mavzusi aylangan. Iroda ongning o’z taqdirini o’zi belgilash qobiliyati, shu jumladan axloqiy va o’ziga xos sabablarni keltirib chiqarish qobiliyati sifatida belgilanadi. Psixologiya va nevrologiyada esa, irodaning ta’rifi o’zining axloqiy jihatni yo’qotdi va faqat aqliy funktsiya sifatida talqin etila boshlandi. Rus psixologi Ivannikov V.A. o’zining “Irodaviy tartibga solishning psixologik mexanizmlari” nomli tadqiqot ishida “Iroda – bu shaxsning o’z xatti-harakati va faoliyatini ongli va maqsadli ravishda tartibga solish va nazorat qilish qobiliyati, bu maqsadga erishish yo’lidagi qiyinchiliklar va to’siqlarni yengish uchun aqliy va jismoniy imkoniyatlarni safarbar qilish qobiliyatida namoyon bo’ladi” [2] -deb ta’riflaydi. Iroda erkinligi – har bir shaxsning individual erki, irodaviy mayli, xohish-istagi va ular orqali namoyon bo’ladigan erkin faoliyatini ifoda etadigan tushuncha. Bu tushuncha falsafiykategoriya sifatida umumiy ma’noda insonning o’z xatti-harakatlarini o’z dunyo qarashiga ko’ra, mustaqil belgilab olishi, o’z qaroriga asosan ish yuritishini bildiradi. Inson biror ishga azmu qaror etar ekan, yaxshilik va yomonlik, axloqiylik va axloqsizlik o’rtasidan o’ziga yo’l tanlaydi. Bu tanlov kishining o’ziga bog’liq

bo’lgani uchun inson axloqiy mas’uliyatga egadir, shunga ko’ra uning faoliyati qoralanadi yoki olqishlanadi. Etika tarixida esa iroda erkinligi muammosi ko’pincha idealistik nuqtai-nazardan talqin etilgan.

Ko’pincha gumanitar fanlar tizimida shaxs ma’naviyati va tafakkur tarzining uzviy qismi sifatida “iroda erkinligi” izohlanadi. Faylasuflar va olimlar iroda erkinligining ikkita asosiy jihatini bir-biridan farqlaydilar:

“1. Metafizik jihat: iroda erkinligi insonning qaror va harakatlarida oldindan belgilanmaganligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, inson mustaqil va o’z harakatlari uchun javobgarligi bilan ifodalanadi.

2. Psixologik jihat: insonning o’z e’tiqodi va xohishiga ko’ra, tashqi majburlov va cheklovlersiz qaror qabul qila olishi bilan bog’liq”. [3]. Ammo shuni ta’kidlash joizki, iroda erkinligi tushunchasi ham munozarali mavzu hisoblanadi. iroda erkinligini to’liq ifodalash uchun metafizik va psixologik jihatdan tashqari, ichki va tashqi omillar, masalan, genetik moyillik, ijtimoiy muhit, dunyoqarash va boshqa jihatlarni ham hisobga olish zarur bo’lgan voqeilik sanaladi.

Qaror qabul qilish har bir inson hayotidagi eng muhim vazifadir. Aynan qaror qabul qilish Xudoning insonga bergan hodisalaridan biri – tanlash huquqi hisoblanib, insonga bu tanlov mas’uliyati yuklangan. Inson o’z hayoti yo’nalishini muvaffaqiyat yoki omadsizlik asosida belgilaydi. Bunda bitta mavhum hodisa yakuniy maqsadlarini faqat ijobiy tanlay olamaydi, balki ko’p hollarda bu maqsadlarga qanday vositalar orqali erishilishini mustaqil ravishda aniqlash va qaror qabul qilish inson oldida tanlov sifatidagi vazifaga aylanadi. Bularning barchasi insondan kuch va quvvat talab qilib, qarshilik va to’siqlarsiz amalga oshmaydigan voqeilikka aylanadi.

Demak, iroda erkinligi tushunchasini mohiyatan insonning tashqi sharoitlardan qat’iy nazar o’z tanlovi va qarorlarini qabul qilish qobiliyati deb baholash mumkin. Bundan tashqari, biz tanlashga harakat qilishimiz mumkin bo’lgan variantlar uchun har doim tashqi cheklovlar (intuitiv tuyg’ular, irratsionallik va ratsionallik) mavjud.



Bunday shartlarning mavjudligi yoki yo'qligi (odatda) bizning mas'uliyat doiramizdan tashqarida bo'lganligi sababli, tashqi cheklovlar "tanlov" yoki "iroda" sifatida talqin qilinadi.

**Muhokama.** Erkinlik insonning kundalik hayoti va faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. "Ixtiyor erkinligi" va "ixtiyor erkinligi" ham "erkinlik" tushunchasining tarkibiy qismi va ajralmas elementidir. Umuminsoniy g'oya bo'lgan erklikning real hayotini to'liq to'g'ri anglash uchun avvalo uning ilmiy-nazariy paradokslarini turli yondashuvlar asosida ko'rib chiqish lozim.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, o'zining nihoyatda boy mazmuni va murakkab mohiyati tufayli erkinlikning tarixiy jarayondagi o'zgaruvchan va moslashuvchanligi juda xilma-xil ma'nolarda talqin qilinadi. Erkinlikning bu xususiyatini, nemis faylasufi Hegel shunday izohlaydi: "Bu g'oya noaniq, polisemantik bo'lib, birorta ham fikr erkinlik kabi to'liq haqli ravishda gapirilmaydi, shuning uchun ham bu katta tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin va shuning uchun ular haqiqatda konkretlashadi" [4]. Bundan ko'rinib turibdiki, birinchi navbatda, bu inson mohiyatining asosini ifodalovchi hayotiy ehtiyoji bilan bog'liq, ikkinchidan, insonning faol ijtimoiy mohiyatini amalga oshirish, belgilangan maqsadlarga erishish va uning shaxs sifatida rivojlanishini ifodalashi bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Ixtiyor erkinligi ob'ektiv zarurat sifatida, insonning o'zini va ixtiyor erkinligini, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish ehtiyojini anglashdan kelib chiqadi. Iroda umuman olganda, insonning ichki ruhiy faoliyati, uning maqsadli harakatlari muayyan ishni bajarishga qaratilganligini bildiradi. Inson istaklarni tartibga solish va amalga oshirish uning qobiliyatiga bevosita bog'liq. O'z maqsadlariga erishish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish uchun inson ichki kuchlarini safarbar qilish kerak. Doimo irodaning zaifligi yoki irodaning yetishmasligi shaxsning o'zini-o'zi anglamasligi bilan yakunlanadi, bu uning qulashiga olib keladi. Rus faylasufi A.Spirkin irodaning qisqacha tavsifini quyidagicha ifodalaydi: "Iroda inson ongining eng faol tomonidir. U quyidagi uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: har qanday harakatni amalga oshirish istagi; ushbu harakatning yo'nalishini tanlash; ma'lum bir yo'nalishda harakat qilish to'g'risida qaror qabul qilish" [5].

Ixtiyor erkinligi insonga berilgan ilohiy ne'mat. Lekin bu ilohiy ne'matdan inson doim ham oqilona foydalanavermaydi. Birovlar o'z ixtiyor erkinligi bilan ulug'vorlikka erishadilar, boshqa birovlar esa hayvonlikdan ham quyiroq bo'lgan tubanlik darajasiga tushadilar. Faylasuf olim Abdulla Sher ixtiyor erkinligini tushunchasini axloqiy tanlov deb ifodalaydi. "Ixtiyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Zero, inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axloqiy tanlov – har bir xatti-harakat, har bir qilmishning ibtido nuqtasi" [6]. Bizning fikrimizcha "ixtiyor erkinligi"da insonda xech qanday tanlov bo'lmaydi. Chunki u insonga berilgan ilohiy ne'mat degan izohni aynan faylasuf Abdulla Sher "Axloqshunoslik" darsligida qayd etadi. Ixtiyor erkinligi tanlovni vujudga keltiradi degan qarash fatalizmdir. Bu ta'limotga ko'ra, "inson o'zini erkinlik illyuziyasi bilan aldaydi, aslida hamma narsa taqdir tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan" [7].

**Natijalar.** Shaxsning iroda erkinligi uning faoliyatini yo'naltiruvchi motivlardan kelib chiqadi, bu uning ehtiyojlari va manfaatlaridir. Shuning uchun iroda erkinligi motivlarsiz yoki tasodifiy tanlovlar bilan amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, irodaga ega bo'lgan inson o'z ehtiyojlari va manfaatlarini nazorat qila olishi bilan bog'liq bo'lgan ongli jarayondir. Shaxsning "iroda erkinligi" tushunchasining ishlash mexanizmi sxemasida o'z manfaatlarini ta'minlashga tayyorlik darajasi va muayyan harakatlar yoki muayyan faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan munosabati asosiy o'rinda turadi. Bu omil insonning umumiy xususiyatlarini va ayniqsa, uning yaxlit tuzilishini shakllantirishni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Inson va ijtimoiy hayot o'rtasidagi o'zaro va ko'p tomonlama aloqalarning ongli mexanizmi, erkinlikning shakllanishi va amalga oshirilishi darajasiga muhim ta'sir ko'rsatadi iroda uning maqsadli faoliyatida ifodalanadi va shuning uchun u nihoyatda muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, iroda erkinligi chegaralarini o'zi belgilaydi. Biroq, erkinlikning mohiyati faqat tanlash erkinligi, ya'ni erkinlikning sub'ektiv tomoni bilan chegaralanmaydi. "Insonning mavjudligi, ijtimoiy mohiyati, uning tanlash erkinligiga, qarorlar qabul qilish erkinligiga, keyin esa harakat erkinligiga aylanadi, bu o'z navbatida ob'ektiv erkinlikka

aylanadi” va aynan mana shu holatda iroda erkinligi nisbiy ekanligi namoyon bo‘ladi.

Bu jarayonda inson erkinligi va mas’uliyati bir-biridan ajralmasdir. Boshqacha qilib aytganda, inson mas’uliyati iroda erkinligidan foydalanish qobiliyati sifatida ishlaydi. Biroq, boshqa tomondan, javobgarlik erkinlikning muhim shartidir, chunki har qanday mas’uliyatsiz harakat boshqa odamlarning erkinligiga va umuman, butun jamiyat erkinligiga jiddiy zarba berishi mumkin.

**Xulosa.** Umuman olganda, yuqoridagilarga asoslanib, erkinlik fenomenining asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. **Birinchi**dan, g‘oyaviy nuqtai nazardan erkinlik – bu insonning o‘zi uchun qaror qabul qilish, hozirgi sharoitda tanlov qilish qobiliyatidir. **Ikkinchi**dan, ixtiyor erkinligi belgilangan ilohiy taqdir hodisasi bo‘lsa, iroda erkinligida inson o‘z manfaatlar nuqtai nazaridan doimo o‘z manfaatlari, maqsadlari, vazifalari, tamoyillariga ega, qaror qabul qilishda inson doimo o‘zining ehtiyojlari va manfaatlaridagi ustuvorliklarga tayanadi. **Uchinchi**dan, inson qobiliyati – tanlov jarayonida, nimani anglashi bu vaziyatlar muvaffaqiyatli amalga oshmasligi, tanlovning har doim ham ijobiy va axloqiy xususiyatga ega bo‘lavermasligi bilan harakterlanadi. **To‘rtinchi**dan, inson xulq-atvor dualistik harakterga ega bo‘lib, bu xususiyat

insonning tanlovining natijasida namoyon bo‘ladi. Tanlov xatti-harakat variantlarining mavjudligi bilan belgilanadi. **Beshinchi**dan, natija – qaror qabul qilingandan keyin paydo bo‘lgan ijobiy yoki salbiy yakun topadi. Oltinchi

dan, inson mas’uliyati inson tanlov natijasida ma’lum, o‘rnatilgan sanksiyalarga duchor bo‘lish qobiliyatidir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Майкл Газзанига: Кто за главного? Свобода воли с точки зрения нейробиологии. Перевод на русский язык. – М.: «АСТ», 2021, – С. 18.

2. Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, 2004. –Б.464.

3. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2006. – 208 с.

4. Гегель. Сочинения. Т. 3. – М.: Мысль, 1986. – С.484.

5. Спиркин, А. Г. Философия: учебник / А. Спиркин. – М.: Гардарики, 2000. – С.810.

6. Узнадзе, Д. И. Основные положения теории установки / Д. И. Узнадзе. – Тбилиси, 1977. – С.392.

7. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик дарслик. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 166



## STYLES OF TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS

*Akhmedova Nodira Djavadullaevna*

*Teacher of UzSWLU, 3<sup>rd</sup> English faculty*

## YOSHLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

*Axmedova Nodira Javadullayevna*

*O'zDJTU Ingliz tili nazariy aspektlar №3 kafedrasida katta o'qituvchisi*

## СТИЛИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА МОЛОДЫХ УЧАЩИХСЯ

*Ахмедова Нодира Джавадуллаевна*

*УзГУМЯ Старший преподаватель кафедры теоретических аспектов английского языка №3*



Nodirakhon75@gmail.com

<https://orcid.org/0024-0024-7008-254X>

**Abstract:** This composition provides a comprehensive review of the colorful styles employed in tutoring English to youthful learners. It explores traditional approaches similar as the Grammar-Translation Method and the Direct system, as well as further contemporary strategies like Communicative Language Teaching (CLT) and Task- Grounded Language Teaching (TBLT). The composition also examines the part of technology in language instruction, emphasizing the use of digital tools and interactive media. also, it discusses the significance of creating a probative and engaging literacy terrain to foster language accession among children. The effectiveness of each system is estimated grounded on current exploration findings, offering perceptivity into stylish practices for preceptors in the field.

**Key words:** Learning, methods, language games, teaching children, literacy tools, language, young learners, play-grounded learning, digital stories, songs and chants.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishdagi turli usullarni har tomonlama ko'rib chiqadi. U Grammatika - tarjima usuli va to'g'ridan-to'g'ri o'rgatish metodlari kabi an'anaviy yondashuvlarni, shuningdek, kommunikativ tillarni o'rgatish (CLT) va vazifaga asoslangan tilni o'qitish (TBLT) kabi zamonaviy strategiyalarni o'rganadi. Maqolada, shuningdek, raqamli vositalar va interaktiv axborot vositalaridan foydalanishga urg'u berib, til o'rgatishda texnologiyaning roli ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, u bolalar o'rtasida til o'zlashtirishni rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlovchi va qiziqarli o'quv muhitini yaratish muhimligini muhokama qiladi. Har bir usulning samaradorligi joriy tadqiqot natijalari asosida baholanadi, bu sohadagi o'qituvchilar uchun ilg'or tajribalar haqida tushuncha beradi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, usullar, til o‘yinlari, bolalarni o‘rganish, savodxonlik vositalari, til, erta o‘quvchilar, o‘yinga asoslangan ta’lim, raqamli hikoyalar, she’rlar va qo‘shiqlar.

**Аннотация:** В этой статье подробно рассматриваются различные методы, используемые в преподавании английского языка юным ученикам. В нем исследуются традиционные подходы, такие как метод грамматического перевода и прямое обучение, а также современные стратегии, такие как коммуникативное обучение языку (CLT) и обучение языку на основе задач (TBLT). В статье также рассматривается роль технологий в преподавании языка с упором на использование цифровых инструментов и интерактивных средств массовой информации. Кроме того, в нем обсуждается важность создания благоприятной и увлекательной учебной среды для развития овладения языком среди детей. Эффективность каждого метода оценивается на основе результатов текущих исследований, что позволяет преподавателям в этой области получить представление о передовом опыте.

**Ключевые слова:** обучение, методы, языковые игры, обучение детей, инструменты грамотности, язык, учащиеся младшего возраста, обучение в игровой форме, цифровые истории, песни и песнопения.

**Introduction.** Preface tutoring English to youthful learners is a vital aspect of education in moment's globalized world. Beforehand exposure to a alternate language, particularly English, can significantly enhance cognitive development, artistic mindfulness, and unborn academic and career openings. This composition aims to explore colorful scientifically supported styles for tutoring English to youthful learners, fastening on play- grounded literacy, liar, songs and chants, Total Physical Response(TPR), interactive and digital literacy tools, and the use of visual aids and props. These styles are designed to make literacy engaging, effective, and pleasurable for children. Understanding Young Learners Young learners, generally progressed between 3 and 10 times, retain unique cognitive and emotional characteristics that impact their literacy processes.

**The main part.** According to Piaget's stages of cognitive development, children in this age group are in the preoperational and concrete functional stages. During these stages, they're developing their language and allowing capacities, but they still calculate heavily on concrete gests and palpable objects to understand abstract generalities. youthful learners also profit from the critical period thesis, which suggests that early nonage is a particularly profitable time for language accession. [1]. During this period, children's smarts are largely plastic, making it easier for them to absorb new languages naturally and with native- suchlike proficiency.

### 1. Play- grounded Learning

Play- grounded literacy is an educational approach that uses play as the primary system for tutoring and literacy. It leverages children's natural curiosity and enthusiasm for play to grease language accession. Through play, children can exercise language chops in a relaxed and pleasurable terrain. exemplifications of play- grounded conditioning include- part- playing Children engage in part- playing scripts similar as shopping, dining at eatery, or visiting a croaker's office. These conditioning help children exercise conversational English and develop social chops.

2.Telling stories is a great way to educate English to children. Stories catch children's attention and make it easier for them to learn new words and judgment patterns. liar can be better by using pictorial details and descriptions.

a) Making the story relatable and engaging.

b) Building pressure and suspension.

c) Using a clear structure and an engaging morning, middle, and end.

d) Incorporating emotion and connecting with the followership.

Children's books with various filmland help kiddies understand the story more. preceptors can stop and ask questions, talk about filmland, and help scholars guess what will be next. This helps scholars pay attention and understand the assignment more.

### 3. Songs and Chants

Music and meter are effective tools for language literacy. Songs and chants help with memorization, pronunciation, and the natural meter of the language. Incorporating music into assignments can include



- Action songs Songs that involve physical conduct, similar as "Head, Shoulders, Knees, and Toes," help children connect language with movement, abettinretention and understanding.

- Proses and chants Simple rhymes and chants like "Twinkle, Twinkle, Little Star" or "Baa Baa Black Sheep" introduce phonetic patterns and ameliorate pronunciation. [2].

#### 4. Total Physical Response(TPR)

Total Physical Response(TPR) is a language tutoring system developed by James Asher that combines language literacy with physical movement. TPR is particularly effective for youthful learners

- Action- grounded commands preceptors give commands that children respond to with physical conduct, similar as "stand up," "sit down," "jump," and "turn around." This system helps children associate words with conduct and improves appreciation.

#### 5. Interactive and Digital literacy Tools

In the digital age, incorporating technology into language tutoring can give immersive and engaging gests for youthful learners. Digital literacy tools can include

- Educational apps Apps like Duolingo Kids, ABCmouse, and Starfall offer a variety of language conditioning that feed to different literacy styles. These apps frequently include games, quizzes, and interactive stories that make literacy pleasurable.

- Online games Websites like PBS kiddies, British Council LearnEnglish kiddies, and National Geographic kiddies offer language literacy games and conditioning that support vocabulary, alphabet, and reading chops.

- Virtual classrooms Platforms like Zoom, Google Meet, and Microsoft brigades allow for interactive online assignments, where preceptors can partake multimedia coffers, conduct virtual field passages, and engage scholars in cooperative conditioning. [3].

#### 6. Visual Aids and Props

Visual aids and props are essential tools for making abstract language generalities more concrete and accessible for youthful learners. Effective use of visual aids includes.

- Flashcards Flashcards with filmland and words help children associate vocabulary with visual

images. Flashcard games, similar as matching and memory games, make literacy interactive and pleasurable.

- Bills and maps Classroom bills and maps displaying common vocabulary, expressions, and alphabet rules give constant visual underpinning.

- Realia Using real objects, similar as fruits, toys, and everyday particulars, helps children understand and flash back new words. For illustration, bringing a handbasket of fruits to educate fruit names makes the assignment more palpable and memorable.

- Educational vids vids that illustrate vocabulary, alphabet, and artistic aspects of the English language can enhance appreciation and engagement. vids from sources like Sesame Street, Peppa Pig, and educational YouTube channels are precious coffers. [4].

**Conclusion.** Tutoring English to youthful learners is a satisfying bid that requires creativity, tolerance, and a deep understanding of child development and language accession. By exercising styles similar as play- grounded literacy, liar, songs and chants, TPR, interactive tools, and visual aids, preceptors can produce a dynamic and effective literacy experience. Creating a probative and engaging literacy terrain, furnishing formative feedback, and addressing challenges with practical results further supports youthful learners in their trip to language proficiency. Through these approaches, children can develop a strong foundation in English that will profit them throughout their lives.

#### References:

1. "Teaching English to Young Learners" by Lynne Cameron. 2001.
2. "The Primary English Teacher's Guide" by Jean Brewster and Gail Ellis. 2002.
3. "Teaching Languages to Young Learners" by Lynne Cameron. 2001.
4. "Children Learning English" by JayneMoon. 2000.
5. "Teaching Young Language Learners" by Annamaria Pinter. 2006.

## NUTQIY ETIKET BIRLIKLARNING IFODALANISHI

**Bo‘ronova Mekkamtosh Xoliqulovna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*“Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar” kafedrası o‘qituvchisi*

## ВЫРАЖЕНИЕ РЕЧЕВЫХ ЭТИКЕТНЫХ ЕДИНИЦ

**Бурунова Меккамтош Халикуловна**

*Институт предпринимательства и педагогики Денова*

*Преподаватель кафедры иностранного языка и литературы  
младших курсов*

## EXPRESSION OF SPEECH ETIQUETTE UNITS

**Boronova Mekkamtash Halikulovna**

*Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy*

*Teacher of the department of foreign language and literature lower  
courses*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqiy etiket va ularni hozirgi kun jamiyatida tutgan o‘rni, nutqiy etiket jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni tartibga soluvchi muhim omil sifatida tilshunoslikda alohida o‘rin tutishi, nutqiy etiket qoidalarining qiyosiy tahlili ochib beriladi. Ushbu ilmiy tadqiqot natijalari nutqiy etiketni o‘rganish orqali til va madaniyatlararo aloqalar haqida so‘z yuritadi.

**Kalit so‘zlar:** etiket, nutqiy birlik, munosabat, muloqot, tilshunoslik, madaniyat.

**Аннотация:** В данной статье речь идет о речевом этикете и его использовании в современном обществе. Речевой этикет занимает особое место в лингвистике как важный фактор, регулирующий культурные отношения между членами общества, выявлен сравнительный анализ правил речевого этикета. Результаты данного научного исследования говорят о языке и межкультурных отношениях посредством изучения речевого этикета.

**Ключевые слова:** этикет, речевая единица, отношение, общение, языкознание, культура.

**Abstract:** This article deals with speech etiquette and their use in today’s society place, speech etiquette has a special place in linguistics as an important factor regulating cultural relations between members of society, a comparative analysis of speech etiquette rules is revealed. The results of this scientific research speak about language and intercultural relations through the study of speech etiquette.

**Key words:** etiquette, speech unit, attitude, communication, linguistics, culture.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).** Jamiyatda nutqiy odob tushunchasi umumiy ifodalanadi. Odob har qanday shaxsning xatti-harakatlarini belgilab beradi. Bu faqatgina dasturxon atrofida emas, balki insoniy

munosabatlarning barcha me‘yorlariga tayanish ham hisoblanadi. Mana shunday qoidalar yordamida boshqalar bilan munosabatlar tartibga solinadi. Muloqot madaniyati va insonning xulq-atvor madaniyati bir-biriga uzviy bog‘langan. Ayniqsa,



E-mail: [buronova@mail.ru](mailto:buronova@mail.ru)

Tel: +998990258997

<https://orcid.org/0009-0005-1891-8084>

insonlar o'rtasidagi munosabatlarning barcha sohalarida, jumladan, ishda, oilada, shaxsiy hayotda va siyosiy maydonda ham muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Nutq etiketi, masalan, salomlashish va minnatdorchilik bildirish kabi nutq odoblari orqali namoyon bo'ladi. "Etiket" so'zi fransuz tilida "yorliq" ma'nosini anglatib, yunoncha "etos"- "odat" yoki "xarakter" tushunchalaridan kelib chiqqan va "axloq lug'ati"ni anglatadi. Odob tushunchasi boshqalar bilan munosabatda bo'lish, muloqot qilish, salomlashish usullariga rioya etish, jamoat joylaridagi o'zini tutish qoidalari va kiyinish bilan bog'liq xatti-harakatlar to'plamini ifodalaydi [2]. Nutq etiketi insoniy madaniyatning muhim jihatidan biridir. Bu keng qamrovli tushuncha bo'lib, umumbashariy miqyosda tan olingan muomala qoidalarini qamrab oladi. Nutqiy etiket ham etikaning bir qismi hisoblanib, jamiyatda, insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Etiket tushunchasi etika fanining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaga qiziqish qadim zamonlardan olim va mutafakkirlarning diqqat-markazida bo'lib kelgan. Jumladan, antik davr yunon faylasufi Aristotel o'zining axloq ilmiga oid "Nikomax etikasi" nomli asarida axloq va uning asosiy tamoyillari borasida fikr-mulohazalar keltirib o'tgan.

Nutqiy etiketni o'rganish har doim tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan. "Nutqiy etiketning o'rganilishi XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Ya'ni V.S.Kostamorovning 1957-yilda nashr etilgan "Русский речевой этикет" nomli maqolasi aynan mana shu yo'nalishdagi izlanishlarning boshlanish debochasi hisoblangan. Xuddi shu davrdan boshlab tilshunoslik bilimlarning maxsus yo'nalishi – nutqiy etiket tushunchasi paydo bo'la boshladi". [1] Nutq etiketni turli tomonlama tahlil qilish mumkin. Namunaviy nutqning asosiy talablaridan biri-aytilayotgan fikrning aniq va to'g'ri tarzda tinglovchiga yetib borishi va unda ta'sir uyg'otishidir. Buning uchun nutqqa ma'lum talablar qo'yiladi, bu talablar esa kommunikativ jihatning muhim qismi hisoblanadi. Nutq etiketi, boshqa so'z bilan aytganda, milliy va o'ziga xos stereotiplarni nazarda tutadi, suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish va uni tanlangan ohangda davom ettirish yoki tugatish uchun qabul qilingan muloqot qoidalari tizimini

bildiradi. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil, kuzatish metodlari asos qilib olinadi. Jahon tilshunosligida nutqiy etiket bo'yicha ko'plab tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shu jumladan, A.Knigge, R.Sedlashek, N.M.Firsova, R.Iyuelbgoyfts, V.Xartung, Y.D.Desheriev, X.Shonfeld, B.Yurgen, S.Augenshtein, A.A.Akishina, V.M.Alpatov, N.D.Arutyunova, B.N.Golovin, V.E.Goldin, V.G.Kostomarov, N.F.Mixeyeva, T.N.Naumova, F.Pap, L.P.Stupin, K.S.Ignatev, N.I.Formanovskaya, B.Kim, V.Bredov, I.Renate, Sh.Jems, K.Rayner, X.Lyuger, J.Mala, Sh.Friedmann, J.Schild kabi olimlar nemis, yapon, ingliz, rus, ispan, fransuz tillaridagi nutqiy etiket birliklari yuzasidan tadqiq ishlarini amalga oshirganlar. "O'zbek tilida nutq madaniyati, nutqiy odatlar masalalarining nazariy tadqiq etilishi va tilshunoslikda alohida tarmoq sifatida shakllanishida S.Ibrohimov, R.Qo'ng'urov, X.Doniyorovlar ilk tarjiba ishlarini amalga oshirishgan bo'lsa, E.Begmatov, A.Rustamov, N.Mahmudov kabi yirik olimlar, asosan, leksik birliklar, so'z kesimida samarali ish faoliyatlarini olib borishgan. [4]

#### **MUHOKAMA**

**(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Barkamol insonning ma'naviyati, uning bilimi, donoligi va, shubhasiz, nutq madaniyati bilan namoyon bo'ladi. Adabiy til me'yorlariga rioya qilish, til odobi va nutq madaniyati ko'nikmalarini egallash oliy ma'lumotli shaxs uchun katta ahamiyatga ega. Nutq madaniyati adabiy tilning barcha jihatlarini – fonetikadan uslubiyatgacha qamrab oladi. Har qanday nutq muayyan me'yorlarga amal qilishi kerak, bu esa nutq etiketi bilan boshqa nolingvistik sohalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Yaxshi nutq to'g'ri, aniq va qisqa bo'lishi kerak. Bu jihatlar ilmiy nutq uchun ham asosiy mezon sanaladi. Keng ma'noda nutq etiketi ta'sirchanlik, ifodalilik va ijodiylikni anglatadi. Shu bois, har qanday soha vakili o'z nutqini madaniy normalarga asoslashga e'tibor qaratishi lozim. Salomlashishdan boshlangan nutq odobi xushmuomala munosabatlarga kirish uchun yaxshi poydevor yaratadi, tinglovchiga ijobiy kayfiyat bag'ishlaydi.

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).**

Umumiy qilib aytganda, hozirgi kunda tilshunoslikka bo'lgan e'tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. Yurtboshimizning ham o'zbek tiliga rivojlantirish yo'lida olib borayotgan ishlari, muhim

qarorlari o‘zbek tili ravnaqi uchun katta ahamiyatga egadir. 2021-yil 21-oktabr kuni Xalqaro kongress markazida “O‘zbek tiliga davlat tili” maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi va ushbu marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so‘zladi. “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma‘naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin,” – deydi muhtaram Prezidentimiz. [3]

Agar muomala odobida inson o‘z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo‘yilgan hatti-harakatni taqozo etadi. Etiketning o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik fanining ham tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Masalan, “Muomala madaniyati” nomli darslikda “Etiket – muomala madaniyatining zamonaviy ko‘rinishi sifatida” o‘rganilib, etiketning turlari tahlil etilgan. [4]

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Xulosa qilib aytganda, nutq etiketi hayotimizda katta ahamiyatga ega, shu sababli nutq

etiketi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tilshunoslik uchun juda muhim sanaladi. Ikki til doirasida qiyosiy tahlil olib borilgan ilmiy ishlar ko‘plab afzalliklarga ega. Nutq etiketi qoidalarini ikki yoki undan ortiq tilda o‘rganish ilm-fan uchun katta yutuq hisoblanadi. Bu tadqiqotlar davlatlar va millatlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga, dunyo tilshunosligi fanining taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Atoyeva Sh. R. Murojaat – nutqiy etiketning muhim komponenti. Result of National Scientific Research 2022 SJIF-4.431. – 502 b.
2. Begmatov E. Oliy ta’lim tizimida nutq madaniyatining o‘rni. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – B. 38.
3. Kaxarov, K. Sh. Uzbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Andijon. 2020.
4. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. dis.avtoreferati. – Toshkent: 2000. – 46 b.





## ISLOM DINI MADANIYATINING EKOLOGIK VA ESTETIK JIHLARI

**Tursunov Abdimo'min Shaxanovich**

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar  
universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

## ECOLOGY OF ISLAMIC CULTURE AND AESTHETIC ASPECTS

**Tursunov Abdimo'min Shaxanovich**

*Independent researcher of Termiz State University of  
Engineering and Agrotechnology*

## ЭКОЛОГИЯ ИСЛАМСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

**Турсунов Абдимумин Шаханович**

*Независимый исследователь Термезского государственного  
университета инженерии и агротехнологий*



E-mail:

[abdimomintursunov641@gmail.com](mailto:abdimomintursunov641@gmail.com)

Tel: +998912286385

<https://orcid.org/0009-0002-3252-643X>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada islom dini madaniyatining ekologik va estetik jihatlari bugungi yoshlarning ekologik va estetik dunyoqarashini shakllantirishida, yoshlarning ma'naviy tarbiyasini takomillashtirishga, shuningdek, tabiat bilan uyg'unlikda yashashga undaydi. Shuningdek inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy dunyo ekologik muammolarni kuchaytirgan bir davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Islom dini o'z ta'limotlarida tabiatni himoya qilish va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Islom madaniyati, atrof muhit, estetik va ekologik tamoyillar, Qur'on va hadislar, islom me'morchiligi, ekologik huquq ekologik muammolar.

**Abstract:** In this article, the ecological and aesthetic aspects of the culture of Islam encourage the formation of the ecological and aesthetic worldview of today's youth, the improvement of the spiritual education of young people, and also encourage them to live in harmony with nature. Also, the interdependence between man and nature is gaining special importance in a time when the modern world has intensified ecological problems. In its teachings, Islam emphasizes the protection of nature and careful treatment of it.

**Key words:** Islamic culture, environment, aesthetic and ecological principles, Quran and hadiths, Islamic architecture, environmental law, environmental problems.

**Абстрактный:** В данной статье эколого-эстетические аспекты культуры ислама способствуют формированию эколого-эстетического мировоззрения современной молодежи, совершенствованию духовного воспитания молодежи, а также побуждают ее жить в гармонии с природой. Также взаимозависимость человека и природы приобретает особое значение в то время, когда в современном мире обострились экологические проблемы. В своем учении Ислам делает упор на защиту природы и бережное к ней отношение.

**Ключевые слова:** исламская культура, окружающая среда, эстетические и экологические принципы, Коран и хадисы, исламская архитектура, экологическое право, экологические проблемы.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Islom madaniyati, boshqa ko‘plab madaniyatlar singari, ekologik va estetik tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar odamlarni nafaqat tabiatni himoya qilishga, balki uni qadrlashga va go‘zallikni anglashga ham undaydi. Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy dunyo ekologik muammolarni kuchaytirgan bir davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Islom dini o‘z ta‘limotlarida tabiatni himoya qilish va unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni ta‘kidlaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).** Ushbu maqolada islom dini madaniyatining Qur‘on va hadislarida keltirilgan ekologik va estetik jihatlarini yoshlar ekologik va estetik ongini shakllantirishdagi ta‘siri o‘zaro solishtirish orqali qiyosiy tahlil qilgan holda o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada qiyosiy tahlil metodidan tashqari, tarixiylik, izchillik, xolislik kabi ko‘plab metodlardan ham foydalangan holda mavzu mohiyatini ochishga harakat qilingan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS)** Qur‘on oyatlari va hadislar orqali musulmonlar tabiatni asrash, suv resurslarini tejash, hayvonlarga mehr-muruvvat bilan munosabatda bo‘lishga chaqiriladi. Ushbu maqolada Islomning ekologik va estetik tamoyillari, ularning Qur‘on va hadislar asosidagi dalillari, ularning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati hamda zamonaviy ekologik amaliyotlar bilan qanday bog‘liq ekani tahlil qilinadi.

Islom dinida tabiatga alohida e‘tibor beriladi. Qur‘on va hadislar tabiatni saqlash va unga hurmat ko‘rsatish haqida ko‘plab ta‘limotlarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi jihatlar bunga misol bo‘la oladi:

- tabiatni yaratish va unga hurmat. Qur‘onda Allohning yaratilishining go‘zalligi, har bir jonning muhimligi va insonning tabiat bilan uyg‘un yashashi ta‘kidlanadi. Misol uchun, Qur‘onda tabiatga zarar yetkazmaslik va uni buzmaslik haqida ko‘plab oyatlar mavjud. “Yer yuzini buzma”(Qur‘on, 7:31) degan oyatda tabiatni buzishdan ogohlantiriladi. Qur‘on tabiatning yaratilishini Allohning

qudratining bir belgisi sifatida ko‘rsatadi va insonlarni bu go‘zallikka ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga undaydi. Shuningdek yana bir oyatda shunday deyiladi: “Yer yuzini tuzatib bo‘lganidan so‘ng u yerda buzg‘unchilik qilmang” (A‘rof surasi, 56-oyat). Bu oyatda Alloh insonlarni tabiatni buzmaslikka va uni asrashga undaydi. Ushbu ta‘limot yerning ekologik balansini saqlash va muvozanatni yo‘qotmaslikka da‘vat etadi.

- suvni isrof qilmaslikka da‘vat. Islomda suvni to‘g‘ri foydalanish va uni isrof qilmaslik haqida ko‘plab ko‘rsatmalar mavjud. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) hattoki daryodan suv olib ichayotganda ham suvni isrof qilmaslikni tavsiya qilgan. Suv islom dinida hayot manbai sifatida alohida e‘tiborga ega. Suv resurslarini asrash va isrof qilmaslik Qur‘on va hadislar orqali musulmonlarga tavsiya etiladi. Qur‘onda shunday deyiladi: “Ular isrof qilmaydilar va ziqnalik ham qilmaydilar (Furqon surasi, 67-oyat). Bu islomiy tamoyil ekologik muammolarni kamaytirishga va suv resurslaridan oqilona foydalanishga da‘vat etadi.

- chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash. Tabiiy resurslarni tejash, ularni behuda sarflamaslik va ekologik zararni kamaytirishga alohida urg‘u beriladi. Islom dini chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslarni tejashni o‘z ichiga oladi. Qur‘on tabiatdagi resurslarni isrof qilmaslikni va ularni qayta ishlash orqali tabiatga zarar keltirmaslikni o‘rgatadi. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) atrof-muhitni toza saqlashni va odamlarning o‘zlaridan keyin iz qoldirmaslikni tavsiya qilgan. Hadisda shunday deyiladi: “Ehtiyot bo‘linglar, yo‘l bo‘yida yoki soyalar ostida hojat qilmanglar” (Muslim rivoyati). Bu esa tozalikka va chiqindilarni to‘g‘ri boshqarishga undaydi.

- estetika va go‘zallik masalasi. Islomda go‘zallik, nafislik va badiiy asarlar orqali odamlarga ma‘naviy lazzat bag‘ishlash yuksak qadriyat sifatida qabul qilinadi. Hadisda “Alloh go‘zaldir va go‘zallikni sevadi” deb aytilgan. Islomda go‘zallik faqat tashqi ko‘rinish bilan cheklanmaydi, balki ichki go‘zallik ham ahamiyatga ega. Estetika islom me‘morchiligida, san‘atida va kundalik hayotida namoyon bo‘ladi. Xususan tabiat go‘zalliklariga e‘tibor qaratish. Qur‘on tabiatdagi har bir mavjudotni Alloh qudratining dalili sifatida tasvirlaydi: “Alloh yaratuvchidir, ularning (tabiatdagi mavjudotlarning) barchasini go‘zal

yaratdi” (Sajda surasi, 7-oyat). Bu oyat tabiat go‘zalligini qadrlash va uni saqlash islomdagi muhim ekologik qadriyat ekanligini ko‘rsatadi. Umuman islom dini me‘morchiligida go‘zallik va ma‘naviyat bezaklarning simmetrikligi, mukammalligi, murakkab geometrik shakllar va yozuvlar orqali Allohni yodga olishga yordam beruvchi muhit yaratiladi. Masalan, madrasalar, masjidlar va boshqa binolar ajoyib me‘morchilik namunasi hisoblanadi.

- tabiat va bog‘lar orqali go‘zallikka intilish. Islom madaniyatida bog‘ va gulzorlarni yaratish, tabiatni madaniyatning bir qismi sifatida qabul qilish muhimdir. Bu yerda tabiatning o‘zi estetik tamoyillar bilan bog‘lanadi.

- ekologik va estetik jihatlarning jamiyatga ta’siri. Ekologik va estetik qadriyatlar jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyillar jamiyatni tabiatga hurmat bilan qarashga va shaxsiy mas’uliyatni his qilishga undaydi.

- jamiyatda eko-madaniyatni shakllantirish. Ekologik masalalarda mas’uliyatni oshirish, chiqindilarni kamaytirish, tabiiy resurslarni tejash – Islom ta’limoti bilan uyg‘unlikda bularning barchasi jamiyatning yanada sog‘lom va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

- estetikaning ahamiyati va ruhiy tarbiya. Go‘zallikni qadrlash, yaxshi muhit yaratish orqali ruhiy tarbiya ham rivojlanadi. Bu insonlarning o‘zaro hurmatini oshirib, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi.

- hayvonlarni azoblamaslik haqida ko‘rsatmalar. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) bir sahobaning hayvonga azob berganini ko‘rib, bunday harakatlarni qoralagan. Hadisda shunday deyiladi: “Kim bir jonni (hayvonni) asrasagina u ajr oladi” (Buxoriy rivoyati). Bu ta’limot hayvonlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni va ularni hurmat qilishni o‘rgatadi.

- ov va chorvachilikda ehtiyotkorlik. Islom ov qilishda faqat zarur bo‘lsa ov qilishni va hayvonlarga shafqat ko‘rsatishni o‘rgatadi. Bu tamoyillar hozirgi kunda hayvonlar huquqlarini himoya qilish va ekologik barqarorlikni saqlashga qaratilgan zamonaviy tamoyillar bilan uyg‘un keladi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Islom dini madaniyatidagi ekologik va estetik tamoyillar, insoniyatga nafaqat dunyo bilan uyg‘un yashash, balki bu hayotdan go‘zallik topish uchun yo‘l ko‘rsatadi. Bu tamoyillar ekologik barqarorlik va estetik ideallarni nafaqat zamonaviy, balki asrlar davomida dolzarb bo‘lib kelgan qadriyatlar sifatida o‘rganishga xizmat qiladi. Islomning ekologik tamoyillari, Qur‘on oyatlari va hadislar asosida tabiatni saqlash, suv resurslarini tejash, hayvonlarga mehr-muruvvat bilan munosabatda bo‘lish, chiqindilarni boshqarishga oid ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar zamonaviy ekologik muammolar yechimida ahamiyatli rol o‘ynaydi va tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga undaydi. Islom ekologiyasi tabiatni Allohning in’omi sifatida qabul qilishga va uni asrab-avaylashga qaratilgan muhim qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Комилов Н. Комил инсон хақида тўрт рисола. Т., Ўзбекистон, 1997. 172-б.
2. Исломов З., Солиев А. Ислом манбашунослиги. -Тошкент: 2013. -Б: 58.
3. Шайх Абдулазиз Мансур. Куръони Карим маънолари таржимаси ва тафсири. - Т.:Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа барлашмаси, 2004. – Б 617.
4. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/kochat-ekish-fazilati?print=on>
5. <https://www.bukhari.uz/?p=32251&lang=oz>

## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARINING O'QUV LUG'ATLARINI YARATISH MASALALARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

*Ernazarova Manzura Saparboyevna –  
Navoiy davlat universiteti “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasini  
mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.*

*Husenova Muhtaram Husniddin qizi  
Navoiy davlat universiteti “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasini  
o'qituvchisi*

## ВАЖНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ВОПРОСОВ СОЗДАНИЯ УЧЕБНОЙ ЛЕКСИКИ УЧЕБНИКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Эрназарова Манзура Сапарбоевна  
заведующая кафедрой начального образования,  
Навоийский государственный университет, доктор  
филологических наук, профессор*

*Хусенова Мухтарам Хусниддин кизи  
преподаватель кафедры начального образования  
Навоийский государственный университет*

## THE IMPORTANCE OF STUDYING THE ISSUES OF CREATING EDUCATIONAL VOCABULARY OF PRIMARY GRADE MOTHER TONGUE TEXTBOOKS

*Ernazarova Manzura Saparboevna  
Head of the Department of Primary Education of the Navoi  
State University, doctor of philology, professor.*

[manzuraernazarova@gmail.com](mailto:manzuraernazarova@gmail.com)

*Khusenova Mukhtaram Khusniddin kizi  
Teacher of the Primary Education Department of the  
Navoi State Pedagogical University*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv lug'atlarini yaratishning asosiy masalalari tahlil qilingan va boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi o'quv lug'atlarini shakllantirishning ilmiy jihatlari chuqur o'rganilgan. Maqolada shuningdek, boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi o'quv lug'atlarini yaratishning asosiy maqsadlari va vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quv lug'atlari, so'z boyligi, erkin fikrlash, ona tili ta'limi, so'z, ijodiy tafakkur, kommunikativ savodxonlik.



<https://orcid.org/0009-0003-5462-5321>

[manzuraernazarova@gmail.com](mailto:manzuraernazarova@gmail.com)



[husenova19931@mail.ru](mailto:husenova19931@mail.ru)



**Аннотация:** В данной статье изучаются вопросы создания учебных словарей, научно обоснованы важные аспекты создания учебных словарей учебников родного языка начальной школы. Раскрыты цели и задачи создания учебников родного языка начальных классов.

**Ключевые слова:** учебные словари, словарный запас, свободомыслие, образование на родном языке, слово, творческое мышление, коммуникативная грамотность.

**Annotation:** In this article, the issues of creating educational dictionaries are studied, the important aspects of creating educational dictionaries of elementary school mother tongue textbooks are scientifically based. The goals and tasks of creating the textbooks of primary grade native language textbooks are disclosed.

**Key words:** educational dictionaries, vocabulary, free thinking mother tongue education, the word creative thinking, communicative literacy.

**Kirish.** Yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish va mustaqil fikrlaydigan, erkin va ijodiy shaxslarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon murakkab va sharafli bo'lib, o'z qobiliyatlari va ijodiy tafakkuri bilan turli muammolarni hal eta oladigan, shuningdek, mustaqil fikrlaydigan, rivojlangan aql-idrokka, yuqori ma'naviyatga ega, milliy tafakkuri keng va irodasi mustahkam insonlarni tarbiyalashni talab qiladi. Komil insonning ichki dunyosi boy, fikrlash qobiliyati yuqori, nutqi esa ravon va go'zal bo'lishi zarur. Buning uchun esa boshlang'ich ta'lim tizimi poydevor vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limining asosiy vazifasi – ijodiy tafakkurga ega bo'lgan, erkin fikrlay oladigan va o'z fikrini har qanday nutq sharoitida aniq ifodalashni biladigan shaxsni tarbiyalashdir. Hozirgi kunda ona tili ta'limining samaradorligini oshirish mamlakatimizning davlat siyosati yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Ona tili ta'limining asosiy kontseptual yondashuvida uning zarur vositalaridan biri sifatida lug'atlar ta'kidlanadi. Lug'atlar ona tilining cheksiz so'z boyligi, xilma-xil xazinasini o'z ichiga oladi va ularni tasvirlaydi. Ular o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va ularni og'zaki hamda yozma nutqda fikrlarini ravon va aniq ifodalashga olib keladigan qimmatli so'z boyligini yaratadi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish ona tili ta'limining eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun ko'pincha o'quvchini daryo o'rtasida turib suv izlayotgan kishi bilan solishtiramiz: daryo to'la suv, bolalar esa chanqoq.

Bizning lug'atlarimiz so'zga boy, lekin o'quvchining qobiliyatida so'z kam. Bu holat, ayniqsa, ona tili ta'limining mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida o'quv lug'atini yaratishning maqsad va vazifalari, avvalo, til ta'limiga qo'yilgan davlat standartlari talablaridan kelib chiqadi. Bu talablarning biri – mustaqil fikrga ega, og'zaki va yozma nutq madaniyati rivojlangan, savodli va axloqan yetuk shaxsni tarbiyalashdir.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Lug'atlarni o'rganishning ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi. Lug'atlar boyligi va ularning turli-tuman qo'llanish usullari, bir so'zni bir nechta uslubda ishlatish imkoniyatlari, shu bilan birga lug'atlarning to'liq va mukammal bo'lishi boshqa tillar orasida ajralib turadi. Ayniqsa, dunyodagi shevalarning xilma-xilligi ham lug'atlar o'rganilishining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Lug'at bilan ishlash — bu haqiqatan ham mashaqqatli va murakkab jarayon bo'lib, so'zlar va atamalarni aniqlash, ularni o'z o'rinlarida qo'llash, sinonimlarni tanlash va manbalarning chuqur tahlilini o'tkazish katta mehnatni talab qiladi.

Lug'atlarni yaratish bo'yicha o'tgan davrda ota-bobolarimiz ko'plab izlanishlar amalga oshirgan. Masalan, Mahmud Koshg'ariy o'zining XI asrdagi asarida turkiy so'z boyligini arab tilida izohlaydi va o'sha davrda xalqimiz yaratgan til boyligini bizga meros qilib qoldirgan. Bu an'analar keyingi asrlarda ham davom etib, Mahmud Zamaxshariyning "Asos ul-balog'a" (XII asr), Tole Imon Xiraviyning "Badoye' ul-lug'at" (XV asr), Muhammad Yoqub Ching'iyning "Kelurnoma" (XVII asr), Muhammad Rizo Xoksorning "Muntaxab ul-lug'ot" (XVIII asr), Mirzo Mehdiyxonning "Sangloh" (XVIII asr),

Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati Chig'atoyi va turkiy Usmoniy" (XIX asr) kabi ko'plab qimmatli lug'atlar yaratildi. Shuningdek, noma'lum mualliflar tomonidan yozilgan "At-tuhfat uz-zakiyati fi-l-lug'at at-turk" (XIII asr) va "Abushqa" (XVI asr) kabi lug'atlar ham o'rganilgan va tahlil qilingan.

Bundan tashqari, o'zbek tilida mavjud bo'lgan lug'atlar asosida maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan 20 dan ortiq o'quv lug'atlari ishlab chiqilgan. Ular orasida O. Shukuruv va B. Boymatovanning "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati", Y.Hamrayevaning "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati", U. To'rayeva va D.Shodmonovanning "O'zbek tilining ziddiyatli so'zlar o'quv lug'ati", B.Mengliyev va B.Bahriddinovanning "O'zbek tili so'z tarkibi o'quv lug'ati", X.Suvonova va G.Turdiyevaning "O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati", T.Nafasov va V.Nafasovanning "O'zbek tilining toponomik o'quv lug'ati", X.Norxo'jayevaning "O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati" va boshqa ko'plab lug'atlar o'quvchilar uchun taqdim etilgan.

**Muhokama va natijalar.** Tilshunoslikda yangi lingvodidaktik yo'nalish sifatida o'quv lug'atchiligi shakllandi. Rivojlangan mamlakatlarda o'quv lug'atchiligining an'anasi 20-asrning 40-50-yillarida yuzaga kelgan bo'lib, shu davrda ta'limning har bir bosqichi uchun (bog'chadan tortib maktabgacha) maxsus lug'at turlari ishlab chiqilgan va ular maktab darsliklarining ajralmas qismiga aylangan. O'quv leksikografiyasining shakllanishida P.N.Denisovning doktorlik dissertatsiyasi, bir qator ilmiy maqolalari va "Ocherki po russkoy leksikologii i uchebnoy leksikografii" nomli monografiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida o'quv lug'atlarini yaratish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlariga ega. O'quvchilarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanishlar olib borish, mavjud imkoniyatlardan eng samaralisini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlarini nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va samarali ishlatish qobiliyatini rivojlantirishda o'quv lug'atlarining o'рни juda katta. Shuningdek, o'quvchilarni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'alarimiz ruhida tarbiyalashda lug'atlar muhim vosita hisoblanadi.

"O'quv lug'ati" atamasi rus leksikografiyasida ilk bor Ye.D.Polivanovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at"iga yozgan kirish so'zida ishlatilgan. Muallif lug'atni ta'riflar ekan, "Lug'at hajmiga ko'ra o'quv lug'ati tipiga mansub" deb, o'quv lug'atlarining kichik hajmga ega bo'lishiga urg'u bergan.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida o'quv lug'atini yaratishning asosiy maqsadi – til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'рни bilan va samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, tarbiyani shakllantirish va o'quvchining ma'naviy hamda zamonaviy rivojlanishidir.

Lug'at – bu ma'lum bir tildagi so'zlarning muayyan maqsad va mavzu asosida to'plangan yig'indisidir. So'zlarni to'g'ri yozishda, ularning ma'nosi, etimologiyasi, tarkibiy tuzilishi, imlosi va talaffuzi, jumla tuzishda hamda tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot olishda lug'atlar yordam beradi. Lug'atlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va turli fan sohalari, texnika, san'at, adabiyot va nutq madaniyatini o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar tilning so'z boyligini egallashlari, til imkoniyatlarini qo'llay olishlari matnli topshiriqlarni bajarish orqali namoyon bo'ladi. Nutq boyligini oshirishda leksika va unga oid mashg'ulotlarning o'рни boshqa bo'limlarga nisbatan ancha muhimdir. Shuning uchun ta'lim vositalari orasida o'quv lug'atlari va qomuslarning roli juda katta.

Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va o'рни bilan foydalanish ko'nikmalarini, fikrni turli shakllarda ifodalash malakalarini hosil qilishdir. Bunga erishish uchun boy va to'liq so'z xazinasiga ega bo'lish zarur. Shuning uchun so'z boyligi davlat standartlarida muhim o'rin egallashi kerak, degan fikrni mutaxassis olimlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda lug'atlar bilan ishlashning ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Lug'at – so'zlarning noyob boyligi bo'lib, undan o'рни va maqsadiga muvofiq foydalanish

boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini kengaytirish, so'z boyligini oshirish va fikrni to'g'ri va ravon ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv lug'atlari, o'quvchining e'tiborini jalb qiladigan va qiziqtiradigan noyob manba bo'lishi kerak. O'quv lug'atining mukammalligi, o'quvchining yoshiga mosligi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darsligi va o'quv lug'ati ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf ona tili darsligining o'quv lug'atiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- O'quvchilarga nutqning og'zaki va yozma shakllaridan to'g'ri va keng foydalanish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni yaratish;

- O'quvchilarni so'z ma'nosi ustida ishlashga o'rgatish, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalari bilan tanishtirish;

- Fikrni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish usullari bilan tanishtirish;

- O'quvchilarda milliy ong va milliy mafkura tarbiyasini shakllantirish;

- O'quv lug'atlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish va ifodalashda muhim vosita bo'lishi;

- O'quv lug'atlari o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarining o'quv lug'atini yaratishning ijtimoiy ahamiyati juda katta. Jamiyatimiz, xalqimiz va millatimiz kelajagi, uning ravnaqi, bugungi kunda maktab partasida o'tirgan yoshlarning mustaqil turmushga tayyorlanishi, nutqiy faoliyatni samarali olib borishlari va yuqori madaniyatda so'zlashish

darajasi, avvalo, o'quv lug'atlari orqali amalga oshiriladi. Chunki so'zning qudrati insoniyat tarixida har doim katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Agar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zarur bo'lgan o'quv lug'atlari yaratilmasa, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqni o'stirishga qaratilgan darsliklar o'z vazifasini to'liq bajarolmaydi. Bu holat, shuningdek, o'zbek milliy lug'atchiligini rivojlantirish va o'rta ta'lim bosqichi uchun mavzuviy o'quv lug'atlarini yaratish masalasini qo'ymoqda. O'quv lug'atlari bilan ishlash boshlang'ich sinf ona tili mashg'ulotlarining muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Agar o'quvchilarning qo'lida lug'at bo'lmasa, biz ularni shunday lug'atlarni yaratishga o'rgatishimiz, qiziqtirishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ernazarova M., Matnazarova G. Leksikologiya bo'limini o'qitishda o'quvchilarni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish. Navoiy, 1996, 3-bet.
2. Поливанов Е.Д. Кискача русча-ўзбекча луғат. Тошкент, 1926, 98-б.
3. Денисов П.Н. Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии. Изд. МГУ. М., 1974.
4. Неъматов Х., Фуломов А., Зиёдова Т. Ҳозирги ўзбек адабий тилини ўрганишда ўқувчилар сўз бойлигини ошириш. Тошкент, «Халқ мероси», 2000, 7-б.
5. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истикболлари: Филол. фан. докт (DSc) ... дисс.– Самарқанд, 2020. – 260 б.
6. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Toshkent. O'qituvchi, 1995, 128-b.
7. G'ulomov A., Sayfullayeva R., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. –T.: 2023, 371-b.



## INGLIZCHA O'ZLASHMALARNING SEMANTIK TAHLILIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR


*Polvannazirova Sevara Xasanboy qizi, Urganch davlat universiteti  
"Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida stajor-o'qituvchisi,  
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti*

## REVIEW ON THE SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH BORROWINGS

*Polvannazirova Sevara Xasanboy qizi, intern-teacher of the  
"Theory and Practice of Translation" department of Urganch  
State University, doctoral student of Khorezm Ma'mun Academy*

## НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО СЕМАНТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ АНГЛИЙСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ

*Полванназирова Севара Хасанбой кызы, стажер-  
преподаватель кафедры "Теория и практика перевода"  
Ургенчского государственного университета, докторант  
Хорезмской академии Маъмуна*



<https://orcid.org/0009-0006-6365-8872>

e-mail:

[spolvannazirova@mail.com](mailto:spolvannazirova@mail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz tilidan o'zlashgan eng yangi qatlam semantik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada semantik tahlilga tortilgan ba'zi o'zlashmalarning ma'no qirralarini aniqlash va ularning qaysi kontekstlarda ishlatilishini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar natijasi keltirilgan. O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlarning dastlabki ma'nolaridagi o'zgarish, moslashish yoki kengayish holatlari misollar yordamida yoritilgan. Shuningdek, maqolada inglizcha o'zlashmalarning boshqa so'zlar bilan sinonimik va antonimik aloqasi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zlashma so'z, denotatsiya, konnotatsiya, metoforik ma'no, semantik transformatsiya.

**Abstract:** In this article, the newest layer acquired from the English language is analyzed semantically. The article presents the results of scientific research to determine the meaning aspects of some of the appropriations subjected to semantic analysis and the contexts in which they are used. The cases of change, adaptation, or expansion of the original meanings of English words adopted into the Uzbek language are explained with the help of examples. The article also studies the synonymic and antonymic relationship of English borrowings with other words.

**Key words:** idiom, denotation, connotation, metaphorical meaning, semantic transformation.

**Аннотация:** В данной статье семантически анализируется новейший пласт, приобретенный из английского языка. В статье представлены результаты научных исследований по определению смысловых аспектов некоторых присвоений, подвергнутых семантическому анализу, и определению контекстов, в которых они используются. С помощью примеров поясняются случаи изменения, адаптации или расширения первоначальных значений английских слов, принятых в узбекский язык. В статье также исследуются синонимические и антонимические отношения английских заимствований с другими словами.

**Ключевые слова:** фразеологизм, денотат, коннотация, метафорическое значение, семантическая трансформация.



**KIRISH.** Globallashuv jarayonida Internet fenomenining sezilarli kuchga ega bo'lishi, media diskursining ommalashishi, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari sonining keskin o'sishi, o'z navbatida, tillararo so'z o'zlashtirishning faollashuvi va neologizmlarning tillararo yoyilishi bilan bog'liq dolzarb muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Shu sababli dunyo tilshunosligida neo'zlashmalarning muqobillarini aniqlash, tavsiflash va ularning izohli lug'atini yaratish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda yangi o'zlashayotgan birliklarni semantik tahlillar asosida o'rganish va o'zlashmalarning tilning milliy tabiatiga muvofiqligi, fonetik, semantik va morfologik assimilyatsiyasiga alohida urg'u berilmoqda. O'zbek tili leksikasidagi aksariyat zamonaviy o'zlashmalar raqamli medianing keng yoyilishi bilan bog'liq. So'z o'zlashtirish jarayoni jiddiy faollashgani sababli o'zbek tilining ontologik xususiyatlarini ko'proq hisobga olish, o'zlashmalarni tilning milliy tabiatiga muvofiq holda qabul qilish ehtiyoji ham ortib boryapti.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** So'nggi yillarda o'zlashmalarni turli tomondan o'rganish o'zbek tilshunosligining tahlil talab masalasi bo'lib qolmoqda. O'zlashmalarni o'rganish borasida barakali ijod qilgan tilshunos olim, professor O.O.Jumaniyozov o'zlashmalarning tilda faol qo'llanishining sababi sifatida ularning resipiyent tildagi semantik transformatsiyasini keltirib o'tgan: o'zlashmalar "ma'nolaridagi konkretlashuv yoki umumiy lashuv, ma'nodagi torayish yoki kengayish, salbiy yoki ijobiy ma'no olishi so'z o'zlashuvining obyektiv sabablari hisoblanadi"[2]. Zamonaviy o'zlashmalar borasida R.A.Rahimov izlanishlarida o'zbek tilidagi inglizcha o'zlashmalarni o'rganishda semantik va morfologik jihatdan chuqur tahlil qilib, ularning til rivojiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatishga harakat qilgan[3]. Shuningdek, S.A.Qodirov o'zining inglizcha o'zlashmalarning semantik o'zgarishlariga bag'ishlangan ilmiy ishida o'zlashmalarni o'zbek tilida qabul qilish jarayonida ularning ma'nolaridagi o'zgarishlarni o'rganadi.

O'zlashmalar qanday qilib mahalliy madaniyat bilan bog'lanishini ko'rsatadi.

**MUHOKAMA.** Inglizcha o'zlashmalar o'zbek tilida ma'lum darajada semantik transformatsiyalarga uchraydi va bu jarayon o'zbek tilidagi semantik tizimga ta'sir ko'rsatadi, tilning rivoji va zamonaviy hayot talablariga moslashishini ta'minlaydi. Ingliz tilidan o'zlashmalarni o'rganish uchun semantik tahlil juda muhimdir, chunki u so'zlarning ma'no qirralarini aniqlash va ularning qaysi kontekstlarda ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

**Ma'no torayishi va kengayishi:** Ingliz tilidan kirib kelgan ko'plab so'zlar o'zbek tilida qo'llanilganda o'zining asl ma'nosini toraytirishi yoki kengaytirishi mumkin. Ya'ni, so'zlarning ba'zi ma'nolari faqatgina muayyan kontekstlarda ishlatilishi mumkin bo'lsa, ba'zi holatlarda ular yangi yoki kengroq ma'no yukini oladi. Quyida ba'zi o'zlashmalarni semantik transformatsiya nuqtayi nazaridan tahlilga tortdik:

**City** [siti] – "shahar" so'zi manba tilida ma'lum bir geografik hududni ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida "siti" so'zi O'zbekistondagi ko'plab turizm markazlari bo'lgan Shahar nomlariga qo'shib ishlatilmoqda "Khiva city", "Samarkand city" singari. Bundan tashqari, mazkur so'z ergonim sifatida ham faol qo'llanilayotganiga guvoh bo'lisjimiz mumkin "Mario city" o'yingohi, "Parfum city" do'koni kabi ishlatilishi "city" so'zi o'zbek tiliga o'zlashganda ma'no kengayishiga uchranganidan dalolat beradi.

**Peak** [pi:k] so'zi ingliz tilda ko'p ma'noli so'z bo'lib, "cho'qqi", "eng baland nuqta", "avjiga chiqmoq" tarzida tarjima qilinadi, ushbu so'z tilimizga o'zlashganda faqat "avjiga chiqmoq" ma'nosida ishlatiladi.

**Account** [a:kkəunt] so'zi o'zbek tiliga "hisob" deb tarjima qilinadi va ko'pincha bank-moliya sohasida "Bank hisob raqami", "Depozit hisob raqami" kabi ma'lumotlarda ishlatiladi, lekin bu so'z o'zbek so'zlashuvchilari orasida ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifasiga nisbatan ishlatiladi, ya'ni o'zbek tilida bu so'zning ma'nosi toraygan.

**Direct** [da:rekt] soʻzi manba tilida turli soʻz turkumiga mansub soʻz sifatida: “yoʻnaltirmoq”, “toʻgʻridan toʻgʻri”, “aniq” degan maʼnolarni ifodalaydi, respicient tilda esa, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarning shaxsiy sahifasiga “toʻgʻridan toʻgʻri yozish” kabi maʼnoda qoʻllaniladi. **Trend** [trend], **content** [ˈkɒntent], **post** [pɒ:st] kabi soʻzlar ingliz tilida turli maʼnolarda va kontekstlarda ishlatilsa ham, oʻzbek tilida tor doirada, asosan, internet foydalanuvchilari tomonidan ishlatiladi.

**Tilning zamonaviylashuvi va leksik boylikning oshishi:** inglizcha oʻzlashmalar oʻzbek tilining zamonaviylashuvida va yangi tushunchalarni ifodalashda muhim rol oʻynaydi. Carol Myer’s-Scottoning neologizmlar tadqiqiga bagʻishlangan ilmiy izlanishlarida oʻzlashmalarni 2 turga boʻladi: *core borrowing – tub oʻzlashmalar* va *cultural borrowing – madaniy oʻzlashmalar*[4]. Zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishlar natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun tilimizga kirib kelgan oʻzlashmalar madaniy oʻzlashmalarga kiradi: *internet, vebinar, messenjer, online, robot, smartfon, komputer* kabi oʻzlashmalar shular jumlasidandir. Tilimizda mavjud boʻlgan soʻzlarning inglizcha talqinidan foydalanish tub oʻzlashmalar sirasiga kiradi.

“Yaratuvchan” soʻzining oʻrniga “*creative*” soʻzini ishlatish, “suhbat” soʻzining oʻrniga “*chat*” soʻzi, “*parti*” (ziyofat), “*introvert*” (uyatchan), “*extrovert*” (kirishimli), “*mobil*” (moslashuvchan) soʻzlarining ishlatilishi jamiyatimizdagi oʻzbek-ingliz ikkitilliligining mavjudligi va globalizatsiya taʼsirida oʻzlashgan tub oʻzlashmalar hisoblanadi. Semantik tahlilning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

**Asosiy maʼno va konnotatsiya:** inglizcha oʻzlashmalarni semantik tahlil qilar ekanmiz, ulardagi denotatsiya va konnotatsiyaga alohida eʼtibor qaratishimiz lozim. “Denotatsiya” soʻzning asosiy atash maʼnosi boʻlgani holda, “konnotatsiya” soʻzning qoʻshimcha maʼnosi, yaʼni, ijobiy yoki salbiy maʼno yuki hisoblanadi. O.S.Ahmanovanning taʼbiri bilan aytganda, “Konnotatsiya qoʻshimcha maʼno, rang, boʻyoqdorlik. Soʻzning asosiy maʼnosi ustiga qoʻyilgan, turli xildagi ekspressiv-ijtimoiy baho obertonlarini ifodalashga xizmat qiluvchi qoʻshimcha maʼno, soʻzga hamroh boʻlgan semantik yoki stilistik ottenkalardir”[5]. Shuningdek, I.A.Sternin soʻz maʼnosining konnotativ makrokomponenti “baho”, “emotsiya” kabi semantik hamda fakultativ tarzda gonorofik komponentlarni qamrab olishini bayon qilgan[6].

Oʻzlashma soʻz	Denotatsiya	Konnotatsiya
Manager-menejer	boshqaruvchi shaxs, jamoa yoki tashkilotning rahbari	“Nufuzli”, “katta masʼuliyat egasi”, baʼzida esa “buyruq beruvchi”
Fitness	Sogʻlom hayot tarzini saqlash va jismoniy tayyorgarlik	“Sogʻlomlik”, “zamonaviylik” va “faol hayot”
Fan	Muayyan sanʼat, sport yoki shaxsga qiziqadigan odam	“Sodiq”, “gʻayratli”
Ekspert	Biror sohada yuqori bilim va tajribaga ega shaxs	“Ishonchli”, “obroʻli” yoki “bilimli”, “yuqori malakali va nufuzli”
Design-dizayn	Loyiha, reja yoki chizma tayyorlash	“Ijodiy”, “zamonaviy” va “innovatsion”
Model	Andoza yoki namunali shakl	“Chiroyli”, “zamonaviy” yoki “ideal”
Boss	Rahbar, boshliq	“Qoʻpol”, “katta kuchga ega” yoki “hukmron”

Show-shou	Tomosha yoki dastur	“Qiziqarli”, “yorqin”, “ijodiy” “muhokamali”
Bonus	Qo‘shimcha mukofot yoki imtiyoz	Qo‘shimcha foyda, rag‘bat yoki kutilmagan quvonch
Agent	Vakil yoki vositachi shaxs	“Ayyor”, “josus” yoki “yashirin kuchlar vakili”

**Kontekstual ma‘no:** so‘zlarning ma‘nosi u ishlatiladigan kontekstga qarab o‘zgaradi. Ingliz tilidan o‘zlashmalar o‘zbek tilida turli kontekstlarda ishlatilganda, ularning ma‘nosida o‘zgarishlar kuzatiladi. Quyida o‘zlashmalarning turli kontekstlarda turli ma‘nolarni ifodalashini misollar yordamida ko‘rib chiqamiz:

**“File-fayl”:** “Faylni oching” – kompyuter xotirasidagi ma‘lumotlar hujjatini nazarda tutadi. “Faylingizni to‘g‘rilang” gapida esa hujjatlarni to‘g‘ri saqlash yoki tashkil qilishga ishora qiladi.

**“Coach-koach”:** “U basketbol bo‘yicha koach” – bu yerda “koach” trener yoki murabbiyni bildiradi. “U psixologik koach yoki mentor” – ba‘zan “koach” so‘zi shaxsiy yoki kasbiy rivojlanish bo‘yicha maslahatchini ham anglatishi mumkin.

**“Marketing”:** “Kompaniyamiz marketing strategiyasini o‘zgartiryapti” – bu yerda “marketing” kompaniya strategiyasini anglatasa, “Marketing kurslariga yozildim” gapida “marketing” so‘zi tijorat yo‘nalishidagi bilim olishni anglatadi.

**“Monitor”:** “Monitorni almashtirish kerak” – bu yerda “monitor” kompyuter ekranini ma‘nosini anglatadi. “Tibbiyot markazida bemorlarni monitor qilishadi” kabi kontekstlarda kuzatish yoki nazorat qilish ma‘nosida ishlatilgan.

**“Format”:** “Hujjatni yangi formatda saqlang” – bu yerda “format” fayl tuzilishini anglatadi. “Tadbirning formati o‘zgardi» – bu yerda “format” tadbir turi yoki uslubini anglatadi.

**Sinonim va antonim tahlili:** inglizcha o‘zlashmalar va ularning o‘zbek tilidagi sinonimlari va antonimlari orasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish o‘zlashmalarning to‘liq ma‘no qirralarini aniqlash va uning boshqa so‘zlar bilan qanday munosabatda bo‘lishini tushunishga yordam beradi. Ba‘zi o‘zlashma so‘zlar bevosita o‘zbekcha so‘zlar bilan bir xil ma‘no ifodalaydi, ya‘ni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinonimlik hosil qiladi: **“platforma” – “maydon”,**

**“identifikatsiya” – “aniqlash”, “monitoring” – “nazorat”, “kompleks” – “majmua”, “effect” – “ta’sir”** kabi. O‘zlashmalarni antonimik tahlil qilar ekanmiz, ko‘pchilik o‘zlashmalar tushunchaviy xarakterga ega bo‘lganligi tufayli, ularga mos milliy so‘zlar orasida antonim juftliklar shakllanishi qiyinligiga guvoh bo‘ldik.

**Metaforik va idiomatik ma‘nolar:** ba‘zi o‘zlashmalar o‘zbek tilida metaforik yoki idiomatik ma‘no qirralarini olishi mumkin. O‘zlashma so‘zlarda metaforik va idiomatik ma‘nolar ko‘pincha ularning yangi tilda qabul qilinganidan so‘ng paydo bo‘ladi. Ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilida ham literal (asosiy) ma‘noda, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llaniladi. Metaforalar, asosan, anglash funksiyasi bilan bir narsani boshqa narsa nuqtayi nazaridan tasavvur qilish usulidir[7]. O‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilida metaforik ma‘noda ishlatilganda, ular asosiy ma‘nolaridan farq qiladi va yangi tushunchalarni ifodalaydi. Quyida o‘zlashmalarning ko‘chma ma‘noda ishlatilishiga doir ba‘zi misollarni ko‘rib chiqamiz.

**“Bomb”** so‘zi manba tilida “portlashga olib keluvchi qurol” ma‘nosida ishlatiladi va o‘zbek tiliga ham shu ma‘noda o‘zlashgan. Lekin ba‘zan mazkur so‘z “kutilmagan va katta ta’sir qiluvchi”, “shov-shuvga sabab bo‘luvchi voqea yoki xabar” kabi metaforik ma‘noda ishlatilishiga ham guvoh bo‘lamiz: “Yangi mahsulot reklamasi bozorda bomba kabi tarqaldi”.

**“Robot”** so‘zi asliyat tilida mexanik uskunalar yordamida ishlaydigan avtomatlashtirilgan mexanizmni anglatadi. Mazkur so‘z o‘zbek tilida his-tuyg‘usiz, mexanik tarzda ishlaydigan odamni ifodalash uchun ishlatiladi: “U robotdek, hech qanday his-tuyg‘usiz ishlaydi”.

**“Pirate”** so‘zi “dengizda boshqalarni talon-taroj qiluvchi jinoiy guruh a‘zosi” degan ma‘noni ifodalaydi. O‘zbek tiliga metaforik ma‘noda

o‘zlashgan, ya’ni, “noqonuniy nusxasini ko‘chirib ishlatadigan shaxs yoki mahsulot”ga nisbatan ishlatiladi: “Bu dastur pirat (noxolis) nusxada qo‘llanilmoqda”.

**XULOSA.** Inglizcha o‘zlashmalarning semantik tahlili ularning o‘zbek tiliga qanday moslashganligini, qaysi kontekstlarda qo‘llanilishini va ma’no qirralarini to‘liq tushunishga yordam beradi. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashmalarning katta qismi global tarzda internet foydalanuvchilari tomonidan qo‘llaniladigan atamalar hisoblanib, o‘zbek tiliga o‘zlashganda ma’no torayib, faqat ma’lum bir ijtimoiy qatlam foydalanadigan so‘z sifatida qabul qilingan. Inglizcha o‘zlashmalar o‘zbek tilida ishlatilganda, ular mahalliy madaniyat va til tizimiga moslashadi. O‘zlashma so‘zlar sinonim va antonim tahlilida til boyligini oshirish bilan birga, so‘zlashuvdagi ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur tahlil natijasida sinonim va antonimlik munosabatlarini, metaforik va idiomatik ma’nolar orqali o‘zlashma

so‘zlar ifoda usullarini chuqur anglab, so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishni o‘rganish mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erkaboyeva N.Q. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. T.: Akademiya, 2012.– 432 b.
2. O.Jumaniyozov. O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari. T.: Fan, 1987. – 133 b.
3. R.A. Rahimov. O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmalar: semantik va morfologik tahlil, 2023.
4. Carol Myer’s-Scotton. Multiple voices: an introduction to bilingualism. Malden, MA: Blackwell. 2006.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия. 1966.
6. Стернин И.А. Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж. 1979.
7. Татьяна Олыник. Metaphor Translation Methods. International Journal of Applied Science and Technology, 2014. 4(1), pp. 123–126.





## TABIY GEOGRAFIYA KURSIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING AHAMIYATI

<sup>1</sup>Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

<sup>2</sup>Ortiqova Iqbola Olimboyevna, Urganch davlat universiteti doktoranti



1


<https://orcid.org/0009-0002-4461-6176>

## ВАЖНОСТЬ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В КУРСЕ ЕСТЕСТВЕННОЙ ГЕОГРАФИИ

<sup>1</sup>Матсаидова Сайёра Худайбергановна, доцент УрГУ, кандидат педагогических наук

<sup>2</sup>Ортикова Икбола Олимбоевна, докторант УрГУ

## THE IMPORTANCE OF PERSONALIZED LEARNING IN A NATURAL GEOGRAPHY COURSE



2

<https://orcid.org/0009-0008-5751-4068>

[iqbola@pmkhiva.com](mailto:iqbola@pmkhiva.com)

<sup>1</sup>Matsaidova Sayyora Khudaiberganovna, Associate Professor of Urganch State University, Candidate of Pedagogical Sciences

<sup>2</sup>Artikova Iqbola Olimboyevna, doctoral student of Urganch State University

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiiy geografiya kursida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ahamiyati yoritib berilgan. Bunda, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning xususiyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda maxsus rivojlantiruvchi topshiriqlar tabiiy geografiya mavzulari misolida o'rganib chiqilgan, tajriba-sinov ishlari asosida xulosa chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, rivojlantiruvchi topshiriqlar, shaxs, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, shaxs kamoloti.

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается важность персонализированного обучения в курсе естественной географии. При этом выделены особенности лично-ориентированного образования и его значение в образовательном процессе. Специальные развивающие задания в лично-ориентированном обучении были изучены на примере тем естественной географии, сделаны выводы на основе экспериментально-тестовой работы.

**Ключевые слова:** лично-ориентированное образование, развивающие задания, личность, Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сина, развитие личности.

**Abstract:** This article highlights the importance of personalized learning in a natural geography course. At the same time, the features of personality-oriented education and its importance in the educational process are highlighted. Special developmental tasks in student-centered learning were studied using topics in natural geography as an example, and conclusions were drawn based on experimental testing work.

**Key words:** personality-oriented education, developmental tasks, personality, Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina, personality development.

**KIRISH.** Ta'lim nazariyasi ham "kimga, nimani qanday o'qitish" didaktik prinsipiga asoslangan edi. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Kimni, nima uchun, qanday o'qitish"ni tashkil etish pedagogik texnologiya yaratish talabini qo'yadi.

Jahon tajribasida zamonaviy pedagogik texnologiya va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi biri-birini to'ldiradi. Ta'lim-tarbiyaning shaxsni rivojlantiruvchi vazifasi har tomonlama yanada dolzarb muammoga aylandi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'lim-tarbiyaning uyg'unligi, ta'lim-tarbiyani shaxsga yo'naltirish metodologik asosini belgilab berdi. "Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, bu esa talim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi<sup>1</sup>".

Demak, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyillaridan biri ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligi, ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishdir. Ya'ni, o'quvchi shaxsini fikriy modellashtirish, uni shakllantirishda ta'lim mazmunining imkoniyatlarini aniqlash, tarbiyaviy vazifani belgilash va samarali metodik tizimini yaratishdir. Ma'lumki, yoshlarni shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishida o'quv-biluv jarayoni alohida o'rin tutadi[3,4].

Shuningdek, hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Olimlar va pedagoglar bola tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun farzandlarimiz kamoloti yo'lida biz mablag' va imkoniyatlarimizni ayamastik kerak"<sup>2</sup>.

Ta'lim-tarbiyaning davr talabiga mavjud shart-sharoitiga mosligi qonuniyati o'quvchi shaxsining modelidan, kelib chiqadi. Har bir fanni o'qitishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratiladi. Ta'lim-tarbiya mazmuni, metodlari, vositalari ham to'la

ma'noda o'quvchi shaxsi imkoniyatlariga asosan belgilanadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

"Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" tushunchasi fanga psixolog olim I.S.Yakimanskaya tomonidan kiritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya nazariy asosi Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida o'z ifodasini, hayotda o'z isbotini topgani fikrimiz dalilidir.

O'quvchi yoshlar o'z "men"ini bilish darajasi shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyilidir. Abu Nasr Farobiy "Ixtisa al-ulum" asarida ta'lim-tarbiya, avvalo, inson o'zligini bilishiga qaratilishini tavsiya etadi. Har bir shaxsning bioquvvatlar tizimini, fanlar tasnifini ilmiy asoslaydi, ta'lim-tarbiya yoshlarni hayotga tayyorlash yo'nalishini ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sinoning didaktik ta'limotida shaxsning har tomonlama kamolotida ta'lim-tarbiyaning imkoniyati, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim prinsiplarining tarixiy ahamiyatini ko'ramiz [5,8].


Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim –o'quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim, bu ta'lim o'qitish muhitining o'quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi.

Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan: muammoli izlanish, kichik tadqiqotlarni olib boorish, debat, bahs-munozara, evristik suhbat, kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining o'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur[9,11].

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T.: Ma'naviyat, 2008.

<sup>2</sup> Ш.М.Мирзиёев. "Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз". Тошкент "Ўзбекистон". 2017, Б. 263.



**1-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy turlari**

Maktab geografiyasining shaxsni rivojlantirishga qo'shadigan asosiy hissasi o'quvchilarda geografik madaniyatni rivojlantirish bilan bog'langan. Geografik madaniyatni rivojlantirishning dastlabki bosqichi o'quvchilar tomonidan maktab tabiiy geografiyasini o'rganish hisoblanadi.

**MUHOKAMA.** Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bu turdagi ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir o'quvchi imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirishni taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-o'quvchi yoki o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar guruhi, o'quvchi-o'quvchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi[6].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

**NATIJARLAR.** O'qituvchi shaxsga yo'naltirilgan geografik ta'limda asosiy e'tiborni

o'quvchilarda xatti-harakatlarni bajarish usullari va qoidalarini rivojlantirishga, ularning hissiy jihatlariga qaratadiki, oqibatda shaxsning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan geografik ta'limni amalga oshirishning metodik sharti maxsus rivojlantiruvchi topshiriqlar majmui va o'quv faoliyatning jamoa shakllari hisoblanadi.

Biz rivojlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqishda I.S.Yakimanskayaning nuqtayi nazariga muvofiq quyidagi parametrlarni hisobga oldik:

- topshiriqlarning o'quvchilar yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi;
- topshiriqlar orqali o'quvchining hissiy-shaxsiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatish;
- topshiriqlar mazmunida ikkita yondashuvning mavjud bo'lishi (birinchisi, qoidalar, ta'qiqlar va shu kabilar ko'rinishida topshiriqlarni to'g'ri bajarish usullari; ikkinchisi, o'quvchilar tomonidan topshiriqlarni turli yo'llar bilan mustaqil bajarish);
- topshiriqlarni yechish shakllarini tanlash imkoniyati.

Shunday qilib, o'quvchi subyektiv tajribasining uchta qismiga mos keluvchi uch xil turdagi topshiriqlar rivojlantiruvchi topshiriqlar majmuining qismlari bo'lishi mumkin.

Tajribaviy sharoitda shaxsga yo'naltirilgan tabiiy geografik ta'limni amalga oshirishda didaktik materiallar bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar e'tiborga olinib, darslik matni bilan ishlash uchun II va III turdagi topshiriqlar ishlab chiqildi.

Rivojlantiruvchi topshiriqlar majmuini yaratishda tabiiy geografiya kursi mavzularining tuzilishi hamda mazmunining farqlari hisobga olindi. Shu nuqtayi nazardan "Joy plani va geografik xaritalar" bo'limi uchun II turdagi topshiriqlar ishlab chiqildi. "Yerning tosh qobig'i – litosfera" bo'limini o'rganishda III turdagi topshiriqlardan foydalanildi [7,10].

**XULOSA.** Tabiiy geografiya kursi geografiyaning boshlangich fundamental kursi ekanligini hisobga olib, o'quvchilarda shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan foydalanish bo'yicha darslarda manbalar yaratish lozim; Tabiiy geografiya kursi bo'yicha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, dasturga mos illyustrativ materiallar tizimini yaratish; Tabiiy geografiya kursi bo'yicha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim misolidagi dars rejalaridan foydalanish lozim; Tabiiy geografiya kursi bo'yicha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim misolida o'quv uslubi qo'llanma

yaratish; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'yicha dars rejalari tanlovi tashkil qilish; tabiiy geografiya kursini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'yicha illyustrativ materiallar yaratish bo'yicha fan oyliklariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. Тошкент, Ўзбекситон. 2017. Б -263.
3. Бўри Зиямухамедов. Педагогик технологиянинг ўзбек инновацион модели асосида ўқув машғулотларни лойиҳалаш методикаси. Т.:Алишер Навоий номли Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – 2014.
4. Дадажонов М. Таълим жараёнида ўқувчилар фазовий тасаввурларининг шаклланиши (5-синф география ўқитиш мисолида).Т.: Ўқитувчи, 1980.-5-126.
5. Matsaidova S.X., Rustamova M.A.Q. Geografiya ta'limida o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish muammolari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 426-430.
6. Ишмухамедов, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологияси. Т.: Nihol.- 2013.
7. Крылова О.В. Уроки географии: 7 кл. Из опыта работы - М.: Просвещение. -1990. - 240 с.
8. Hayitov A., Boymurodov N. Talimda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. T.: Yangi asr avlodi, 2006. - 5-10 b.
9. Р.Х.Жўраев, Ў.Қ.Толипов, Ш.С.Шарипов. Узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришнинг илмий-педагогик асослари. Т.: Фан, -2014.
10. G'ulomov P., Qurboniyozov R. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi (5-sinf o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma) - T.: O'zbekiston, -2013.
11. **Internet saytlari:**  
[www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)





O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA  
PRAGMALINGVISTIKANING TADRIJIY  
TARAQQIYOTI

*Xamidov Abdumalik Kironovich, Denov tadbirkorlik va  
pedagogika instituti dotsenti*

GRADUAL DEVELOPMENT OF  
PRAGMALINGUISTICS IN UZBEK LINGUISTICS

*Khamidov Abdumalik Kironovich, Associate Professor of Denov  
Institute of Entrepreneurship and Pedagogy*

ПОСТЕПЕННОЕ РАЗВИТИЕ  
ПРАГМАЛИНГВИСТИКИ В УЗБЕКСКОЙ  
ЛИНГВИСТИКЕ

*Хамидов Абдумалик Киронович, доцент института  
предпринимательства и педагогики Денова*



<https://orcid.org/0000-0002-7039-7002>

[abdumalik07091981@gmail.com](mailto:abdumalik07091981@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistikaning tadrijiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Pragmalingvistika, ya’ni til va uning kontekstdagi ishlatilishini o‘rganish, o‘zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, so‘nggi yillarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada pragmalingvistikaning asosiy tushunchalari, metodologiyasi va o‘zbek tilidagi tadqiqotlar misollar orqali ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, pragmalingvistik tadqiqotlarning tilni o‘rganishdagi ahamiyati va uning kommunikativ funksiyalarini anglashdagi roli ta’kidlanadi. O‘zbekistonning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy sharoitlari kontekstida pragmalingvistik tadqiqotlarning rivojlanishi va kelajak istiqbollari ham muhokama qilinadi. Natijada, pragmalingvistika o‘zbek tilshunosligi uchun yangi imkoniyatlar yaratishi va tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam berishi kutilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** pragmalingvistika, o‘zbek tili, tadqiqotlar, kommunikativ funksiyalar, tilshunoslik, metod va metodologiya.

**Abstract:** This article analyzes the gradual development of pragmalinguistics in Uzbek linguistics. Pragmalinguistics, that is, the study of language and its use in context, is a relatively new direction in Uzbek linguistics, which has gained importance in recent years. The article examines the main concepts of pragmalinguistics, methodology and research in the Uzbek language through examples. Also, the importance of pragmalinguistic research in language learning and understanding of its communicative functions is emphasized. The development and future prospects of pragmalinguistic research in the context of modern socio-political conditions of Uzbekistan are also discussed. As a result, it is expected that pragmalinguistics will create new opportunities for Uzbek linguistics and help to understand the language more deeply.

**Key words:** pragmalinguistics, Uzbek language, research, communicative functions, linguistics, method and methodology.

**Аннотация:** В данной статье анализируется постепенное развитие прагмалингвистики в узбекском языкознании. Прагмалингвистика, то есть изучение языка и его использованию в контексте, является относительно новым направлением в узбекском языкознании, приобретавшим значение в последние годы. В статье на примерах рассматриваются основные понятия прагмалингвистики, методологии и исследований узбекского языка. Также подчеркивается важность прагмалингвистических исследований в изучении языка и понимании его коммуникативных функций. Также обсуждаются развитие и дальнейшие перспективы прагмалингвистических исследований в контексте современных общественно-политических условий Узбекистана. В результате ожидается,

что прагмалингвистика создаст новые возможности для узбекского языкознания и поможет глубже понять язык.

**Ключевые слова:** прагмалингвистика, узбекский язык, исследование, коммуникативные функции, лингвистика, метод и методология.

**KIRISH.** Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillaridan pragmalingvistika alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Semantika tarkibidan pragmatikaning ajralib chiqishi rasmiy nutqni pragmatik jihatdan o'rganish unda til birliklarining nutqiy muloqot jarayonidagi ta'sir va samaradorligi ma'no qirralarini o'rganishga ilmiy ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Buning natijasida rasmiy matnlarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish va uni idrok etish jarayoniga pragmalingvistik yondashish dolzarb masalaga aylandi. Dunyo tilshunosligida bugungi kunda antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlaridan biri deb e'tirof etilayotgan pragmalingvistika keng qamrovli sohaga aylandi. Rasmiy nutqda muloqot jarayoni va uning nutqiy vaziyat, shaxs omillari bilan bog'liqligi, nutqiy akt nazariyasiga oid tadqiqotlar maydonga keldi. Matnning pragmatik maqsadi, presuppozitsiya va tagma'no masalalari, modallik, baho kategoriyalariga oid izlanishlarga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Rasmiy nutqqa tizimli tarzda yondashilib, uning leksopragmatika, pragmasintaktik, morfopragmatik kabi qator tarmoqlari rivojlanmoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy<sup>1</sup>. Ona tilimiz – o'zbek tilini rivojlantirishda jahon tilshunosligi yutuq va tajribalariga asoslangan holda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kompyuter lingvistikasi, pragmalingvistika kabi zamonaviy sohalarga oid tadqiqotlar miqyosi kengayib bormoqda. Ayniqsa, rasmiy matnni pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning ta'sir mexanizmi hamda samaradorlik

omillarini aniqlash, shaxs, nutqiy vaziyat, nutqiy akt, kommunikativ strategiya va taktika kabilarning muallif intensiyasi bilan aloqadorligini tahlil qilish tilning pragmatik zahirasini ochib berish imkonini beradi.

**ASOSIY QISM.** O'tgan asrlar davomida barcha sohalar kabi tilshunoslikda ham yangi nazariyalar, yangi yo'nalishlar maydonga olib chiqildi va ularning mohiyatini ochib berish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi, hozir ham bunday ilmiy izlanishlar davom etib kelmoqda. Jumladan, XX asrning so'nggi choragidan boshlab til birliklarini antroposentrik tadqiq tamoyillari asosida o'rganish dunyo tilshunosligining yetakchi vazifalariga aylandi. Shu qatorda o'zbek tilidagi rasmiy nutqqa oid matnlarni pragmalingvistik jihatdan tadqiq etish tilshunosligining dolzarb muammolaridan hisoblanmoqda. Dastlab, pragmatika nima, uning paydo bo'lish tarixi, kimlar tomonidan fanga olib kirilgani, uning o'rganilishi haqidagi turli qarashlarga to'xtalib o'tmoqchimiz. "Pragmatika (grek. pragma, pragmatos – ish, harakat, amaliy) – til belgilarining nutqdagi vazifasini tadqiq etuvchi tilshunoslikning alohida yo'nalishi"<sup>2</sup>. "Pragmatikaning manbasi Ch.Pirs, U.Djems, D.Dyun, Ch.Morris kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funkcionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi"<sup>3</sup>.

Pragmatika yuqoridagi olimlarning g'oyalari asosida shakllangan bo'lsa, termin sifatida amerikalik olim Ch.Morris tomonidan ilmiy tilga olib kirildi: "Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch.I.Morris tomonidan ilmiy muomalaga

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. Тошкент. – 2019 йил 21 октябрь.

<sup>2</sup> Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: "Akademnashr", 2013. – 155-бет.

<sup>3</sup> Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. -М., 1985.- С.471.

olib kirilgan”<sup>4</sup>. Keyinchalik ushbu termin bir necha olimlarning ilmiy asarlarida keng qo‘llanilib, turli qarashlar vujudga keldi. Mana shu nazariyalar orqali XX asrning 60-70-yillarida tilshunoslikda pragmatik yo‘nalish paydo bo‘la boshladi.

**MUHOKAMA.** Pragmatika haqidagi qarashlar turlichadir. Jumladan, N.D.Arutyunova, Yu.S.Stepanovlar pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning subyektiv xususiyatlarini, matnda ijodkorlarning “men”ini ifodalash uslublarini o‘rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishdi (Arutyunova 1981; Stepanov 1985). Kiseleva esa pragmatikani so‘zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o‘quvchi) bo‘lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta’sirchanlik kuchini aniqlovchi fan (nutqiy ta’sir nazariyasi) sifatida tasavvur etuvchilar, deya ta’rifladi (Kiseleva 1983).

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** O‘zbek tilshunosligida pragmaligvistika so‘zi, til va nutqning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishini o‘rganadigan bir ilmiy yo‘nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pragmaligvistikada asosiy e’tibor nutqning maqsadlari, kontekst va muloqotda ishtirok etuvchi shaxslarning niyatlariga qaratiladi. O‘zbek tilshunosligida pragmaligvistikani tadqiq qilishda quyidagi jihatlar ko‘rib chiqilishi zarur:

1. Tadqiqot doirasi: o‘zbek pragmaligvistikasining rivojlanishi bilan bir qatorda, tillarning o‘ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy kontekstdagi o‘zgarishlar ham e’tiborga olinishi lozim. Bu soha rivojlanishi uchun yangi metodologiyalar va uslublar qo‘llanilishi kerak.

2. Til va madaniyat: pragmaligvistikada til va madaniyatning o‘zaro ta’siri muhimdir. O‘zbekistonning turli hududlarida tilning foydalanish xususiyatlari va madaniyati farqlari tadqiq qilinishi zarur.

3. Tadqiqot metodlari: pragmaligvistika tadqiqotlarida empirik metodlar, kuzatish, suhbatlar va eksperimentlar orqali ma’lumot to‘plash muhimdir.

4. Amaliy qo‘llanilishi: o‘zbek pragmaligvistikasining natijalari ta’lim, psixologiya, sotsiologiya kabi sohalarda amaliy qo‘llanishi mumkin.

1. Pragmaligvistika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish: universitetlarda bu yo‘nalishda maxsus kurslar tashkil etilishi va aspirantura dasturlari ishlab chiqilishi kerak.

2. O‘zbek tilidagi pragmaligvistik tadqiqotlarni xalqaro miqyosda tanitish: mahalliy tadqiqotlarni xalqaro ilmiy jurnallarda chop etish orqali O‘zbekistonni pragmaligvistika sohasida tanitish.

3. Resurslarning yaratilishi: pragmaligvistikaga oid elektron resurslar, ma’lumot bazalari yaratish orqali tadqiqotchilar uchun qulay sharoitlarni ta’minlash.

4. Amaliy seminarlar va konferensiyalar tashkil etish: tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun amaliy seminarlar o‘tkazilib, bilim almashinuvi amalga oshirilishi lozim. O‘zbek tilshunosligida pragmaligvistikaning tatbiqi nafaqat akademik sohada, balki keng jamoatchilikda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalishni yanada rivojlantirish uchun ko‘p tomonlama yondashuv talab etiladi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони. Тошкент. – 2019 йил 21 октябрь.
2. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 155-бет.
3. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. -М., 1985.- С.471.
4. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 155-бет.
5. Toshpo‘latov, O. (2015). Pragmaligvistika: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
6. Qosimova, M. (2018). O‘zbek tilida pragmaligvistik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar. Tashkent: Fan va texnologiya.
7. Isakov, A. (2020). Pragmaligvistika va uning o‘zbek tilidagi o‘rni. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 1(3), 45-50.

<sup>4</sup> Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. – 155-бет.

## КЎЧИРУВЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МАҲАЛЛИЙ ХАЛҚЛАРИНИНГ СИЁСИЙ, ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида)

*Турсунова Гавҳар Бегмуродовна, Самарқанд давлат  
тиббийёт университети “Ижтимоий ва гуманитар  
фанлар” кафедраси ўқитувчиси, (PhD)*

## THE EFFECT OF THE MIGRATION POLICY ON THE POLITICAL AND CIVIL SITUATION OF THE LOCAL PEOPLE OF SIRDARYA PROVINCE (The second half of the XIXth century - the beginning of the XXth century)

*Tursunova Gavhar Begmurodovna, Teacher (PhD) of the  
Department of Social and Humanities, Samarkand State Medical  
University*



<https://orcid.org/2004-0058-0060-2024>

e-mail:

[tursunova.gavhar2020@mail.ru](mailto:tursunova.gavhar2020@mail.ru)

## ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ НА ПОЛИТИЧЕСКОЕ И ГРАЖДАНСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ МЕСТНОГО НАСЕЛЕНИЯ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

*(вторая половина XIX века – начало XX века)*

*Турсунова Гавхар Бегмуродовна, преподаватель кафедры  
социальных и гуманитарных наук Самаркандского  
государственного медицинского университета, (PhD)*

**Аннотация:** Мақолада кўчирувчилик сиёсатининг Сирдарё вилояти маҳаллий халқларининг сиёсий, фуқаролик аҳволига таъсири масаласи муҳокама қилинади.

**Калит сўзлар:** сиёсий, рақобат, фуқаро, халқ, маҳаллий, бошқарув.

**Abstract:** The article discusses the impact of resettlement policy on the political and civil situation of local peoples of the Syrdarya region.

**Key words:** political, competition, citizen, people, local, management.

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние переселенческой политики на политическое и гражданское положение местных народов Сырдарьинской области.

**Ключевые слова:** политический, конкуренция, гражданин, народ, местный, управление.

### КИРИШ.

Туркистондаги мустамлакачилик тажрибаси ҳақида шуни таъкидлаш лозимки, Россия империяси сиёсий доираларининг асосий мақсади Туркистон ўлкасини босиб олинининг дастлаби даврларидан бошлаб империяда мавжуд

конунларни, бошқарув тизимини ўлкани бошқаришда қўллаш бошлади. Туркистон ўлкаси босиб олинганидан бошлаб маъмурий бошқарув тизимида вилоятлар, уездлар, участка, посёлка ва қишлоқлар тарзидаги бошқарув тизими яратилди. Биринчи ўринда ер-сув масалалари



тартибга олина бошлади. Барча ерлар давлат мулки деб эълон қилинди. Вақф мулклари аста-секинлик билан қисқариб бориши натижасида маҳаллий аҳолининг диний эҳтиёжларига жуда катта салбий таъсир кўрсатилди.

Туркистон маъмурияти бутун мустамлака даврида узоқни кўзловчи ниятларда вақф мулкани, айниқса, вақф ерини мусодара этиш, қисқартириш чораларини кўрди. Вақф мулкани ташкил этувчи ердан, савдо дўконларидан, боғлардан, тегирмонлардан ва ҳоказолардан олинadиган даромад ҳисобидан мадрасалар, мактаблар, катта бўлмаган қишлоқларда эса, масжидлар ҳам таъминланарди. Зеро, юзаки қараганда, мустамлакачи маъмуриятнинг Россиядан кўчириб келтирилганлар манфаатлари йўлида амалга оширилгандек бўлиб кўринган бу чоралар, аслида ислом таъсирини камайтириш, мусулмон муассасалари ролини заифлаштириш сиёсатининг таркибий ва энг асосий қисми бўлиб қолди. Вақф мулканинг тортиб олиниши, унинг миқдори зўрлик билан камайтириб борилиши маҳаллий деҳқонлар орасида ерсизлар ва ишсизлар сонининг ошиб боришига олиб келди, натижада, улар кўпинча батрақлар сафига кўшилиб кетарди.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ.** Генерал-губернатор К.П.Фон-Кауфман давридан бошлаб, 1873 йилдаёқ исломга ёндашув ҳамда туб миллатлар халқ оммаси орасида мафкуравий иш олиб боришга, Туркистонда мавжуд анъанавий таълим тизимини мустамлакачилик мақсадларига мувофиқ тарзда ислоҳ қилишга ёндашувларининг ишлаб чиқилиши муносабати билан империя ҳарбий вазири Милютинга ёзилган мактубида “маънавий ва ижтимоий ҳаётида туб тафовутлар мавжудлиги туфайли” [1] кўчманчи аҳолини ўтроқ аҳолидан ажратиш зарурлиги асослаб берилди ва кўчманчиларнинг руслар билан яқинлашувга мойиллигини таъкидлаб: “Биз ҳозирнинг ўзидаёқ, номаълум келажакка қолдирмай, улар орасида рус фуқаролигини ёйиш тўғрисида ташвиш тортишимиз ва бу билан, бир томондан, кўчманчиларни маданий халқлар оиласига олиб кириш борасида зиммаимизда турган инсонпарварлик бурчимизни бажаришимиз ва иккинчи томондан, уларни ўзимизга яқинлаштириб, кўчманчилар орасида ёйила

бошлаган мусулмонлик таъсиридан ажратиб олишимиз лозим” [2] - деб ўқтирилди.

Туркистон генерал-губернаторлиги ва Дашт генерал-губернаторлиги мусулмон аҳолисининг анъанавий ўқув юртлари тизимини қисқартириш ва ўзгартириш бўйича Россия империяси ва мустамлакачи маъмурият сиёсатида эса “Россияда истиқомат қилувчи бегоналар таълими бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги империя қонунида (1870 йил март) таърифлаб берилган: “Ватанимиз худудида истиқомат қилувчи барча бегоналарга таълим беришдан кўзланган пировард мақсад, сўзсиз, уларни руслаштириш ва рус халқи билан қўшиб юборишдан иборат бўлиши лозим”[3], - деган тезис асос бўлган.

Россия империясининг ҳукмрон доиралари, мафкурачилари ислом динига, мусулмонларга қарши экспансияни мусулмон халқларни сиёсий ва ғоявий пароканда қилиш учун зарур, деб ҳисобладилар, чунки бусиз ҳокимиятнинг мустамлакачи тузумини ҳамда Туркистонга кўчирилаётган рус аҳолининг иқтисодий, сиёсий мавқеининг ҳукмронлигини таъминлаб бўлмасди.

**ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.** Россия империяси томонидан келтириб жойлаштирилган рус аҳолиси маҳаллий туб халқларга доимий тазйиқ ўтказиб туришнинг муҳим омили сифатида қараларди. Дастлабки йилларда Россия ҳукмрон доиралари мустамлакачи маъмуриятининг Туркистон бошқаруви учун махсус мўлжалланган ёндашув ва фаолият услублари бўлмаганлигини, фикримизча, қуйидагича изоҳлаш мумкин: империя ҳукумати Ғарбий Европа давлатлари, энг аввало Буюк Британия ва Франция билан муносабатлар янада мураккаблашиб кетишидан хавфсираб, XIX асрнинг 60-йиллари бошида козоқ хонликларига кириб боришдан ташқари, Қўқон хонлиги худудининг катта қисмини истило этиш билан вақтинча кифояланиш ниятида эди. Устига устак, маълумки, 1865 йил августда Туркистон вилояти тузилганидан кейин империя ҳукумати шу вилоят ўрнига Россия протекторати остида бўлиши лозим бўлган Тошкент хонлигини тузишни мўлжаллаган эди. Оренбург генерал-губернатори Крижановский 1866 йил баҳорда шу мақсадда Тошкентга келганди. Бироқ бу фақат дипломатик найранг эди, чунки Туркистоннинг ички маъмурий-

худудий тузилишининг ўзи келажакда соф ҳарбий вазифаларни амалга оширишга мослаштирилган эди [4].

Россия империяси туб халқларнинг қуролли қаршилиқ кўрсатишидан чўчиб, 1874 йилда Шимол (Сибир), Шимолий Кавказ, Туркистон мусулмон аҳолиси вакиллари қарбий хизматга жалб этишни расмий равишда таъқиқлади.

Бирок, К.П.фон-Кауфманга бу чора, шунингдек, мустамлака режимини мустаҳкамлаш бўйича кўрилган бошқа чоралар ҳам етарли эмасдек туюлди, шу боис, у ҳарбий вазирга ёзган маърузаномада: “Агар биз ўлкани бундан буён ҳам шу тарзда бошқарадиган бўлсак, унинг аҳолиси (туб аҳоли назарда тутилмоқда–Г.Т.) бизни ҳукмдорлар деб ҳисобламай, ихтиёрида ҳар эҳтимолга қарши жиддий ҳарбий куч бўлган полиция агентлари деб адолатли равишда ўйлайди”[5], - деб таъкидлаганди.

**ХУЛОСА.** Гарчи империя ҳукмрон доиралари томонидан Кауфманнинг барча ислохотчилик таклифлари ҳисобга олинмаган бўлса-да, 1886 йилда қабул қилинган “Туркистон ўлкасини бошқариш тўғрисида Низом”га мувофиқ илгари либерал деб овоза қилинган ҳарбий-халқ бошқаруви маъмурий-полиция бошқарувига алмаштирилди [6]. Лекин ўлка, вилоят, уезд бошлиқлари, турли идоралар амалдорлари, анъанавий равишда асосан, Россия ҳарбийларидан тайинланар эди. Шу билан бирга, Россиянинг ҳукмрон доираларида, Туркистондаги империяча истилочилик, мустамлакачилик сиёсатини қўллаб-қувватлаб чиққан рус зиёлилари муҳида кўп миллатли туб аҳолининг маданий, маънавий бойлиги ҳамда

анъаналарининг мафкуравий таъсирини заифлаштириш усуллари, шунингдек, исломни инкор этиш ва руҳонийларнинг машҳур вакиллари мустамлака ҳокимлари тарафига оғдириш ёки православ руҳонийларининг миссионерлик фаолиятини ташкил қилиш билан баробар мусулмонлик салоҳиятига қарши ошқора таъсир кўрсатиш тўғрисидаги баҳс-мунозаралар тинмай давом этарди.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв): Автореф. дисс. докт. истор. наук. – Тошкент, 1994.
2. Кауфман А.А. Переселение: Мечты и действительность. – М., 1906.
3. Гофоров Ш.С. Тарих ва тақдир; Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).Т.:Фан. 2006.
4. Южаков Ю.Д. Итоги двадцатисемилетнего управления нашим Туркестанским краем.– Спб.,1891.
5. Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (Социально-экономические аспекты).- Т.:Фан.1983.
6. G.Tursunova. The policy of the Russian empire in Turkistan in relation to the religion of islam. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS)ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 5, May., 2022.



## “QUSHNOMALAR”NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Halimova Shahlo To‘lqin qizi*  
*Alfraganus university o‘qituvchisi*

## ОСОБЕННОСТИ ЭПОСОВ СЕРИИ «ПТИЧЬИЙ ЯЗЫК»

*Халимова Шахло Тулкин кизи*  
*Преподаватель Университета Альфраганус*

## FEATURES OF THE EPICS OF THE “BIRD’S LANGUAGE” SERIES

*Khalimova Shakhlo Tulkin kizi,*  
*Teacher of Alfraganus University*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada asrlar davomida sayqal topgan “Qushnomalar” ning matniy ildiziga doir qarashlar tahlilga tortildi. Ularning tub mohiyatini hamda ularda mujassamlashgan islomiy-tasavvufiy ruhiyatni, targ‘ib etilgan ezgu g‘oyalarning davri bilan bog‘liq jihatlari tavsiflandi.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy, genezis, payg‘ambar, Iso, lison, Qaqnus, Qur‘on, oyat, tasavvuf, qasida.

**Аннотация:** В статье проанализированы взгляды на текстуальные корни серии былин «Птичий язык», отшлифованные веками. Описаны их фундаментальная сущность и воплощенный в них исламско-мистический дух, аспекты пропагандируемых благих идей, относящиеся к эпохе.

**Ключевые слова:** Навои, бытие, пророк, Иисус, язык, Какнус, Коран, аят, мистика, касыда.

**Abstract:** The article analyzes views on the textual roots of the series of epics “Bird’s Language”, polished over centuries. Their fundamental essence and the Islamic-mystical spirit embodied in them are described, aspects of the promoted good ideas related to the era.

**Key words:** Navoi, genesis, prophet, Iso, language, Qaqnus, Qur‘an, verse, mysticism, qasida.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotining ko‘plab tarmoqlarida “genезis” tushunchasi bilan takror va takror to‘qnashyapmiz. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da genezis-“yunoncha” “genезis”– kelib chiqish, paydo bo‘lish tarixi mazmunidagi so‘z sifatida izohlab o‘tilgan [5:492]. Darhaqiqat, ushbu atama yunoncha ildizga ega bo‘lib, u rus tiliga “kelib

chiqishi, yaratilishi, tug‘ilishi”-, deya tarjima qilinib, bizning til boyligimizga “ibtido” muqobilida kirib kelgan. “Genезis”– kosmosdan tortib, hayotning murakkab olamigacha bo‘lgan hamma narsaning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi bilimga bo‘lgan doimiy izlanishni aks ettiradi. Uning ilmiy talqinini tushunish bizning dunyo haqidagi tasavvurimizni boyitadi, bilim va tushunishga



shahlokhlimova41@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-4790-4186>

Tel: (91) 312-73-90

intilishda keyingi izlanish va kashfiyotlarga ilhomlantiradi. “Qush tili” dostonlari genezesini tadqiq etish orqali biz “Qushnoma” turkumidagi dostonlarning yaratilish tarixi hamda sabablariga oydinlik kiritamiz. Alloh taolo insoniyatni go‘zal bir shaklda yaratarkan, uning butun vujudiga tana a‘zolarini, har bir qon tomirlarigacha shunday yuksak mukammallik ato etganki, so‘ngida unga iymon ziynatini jo aylab, qalb va aqlni vobasta ayladi. Jamiyki maxluqot-u mavjudotlar ichida insonni sharaflab- nutq irod etmoq uchun til ne‘matini hadya etdi. Yer yuzida mavjud, mavdud, yaratgan, yaratilgan, xayol qilingan, ma‘lum bo‘lgan, taxmin qilingan nimaiki bo‘lsa, til barchasini o‘zida mujassam qiladi, ularning bor yoki yo‘qliklarini e‘lon qiladi. Ilmga oid barcha narsani til oshkor qiladi. Ilm esa haq va botilning barcha jabhasida o‘zining borligi asos ekanligini bildiradi [2:4]. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam quyidagicha marhamat qiladilar: “Mo‘min kishining tili qalbining ortidadir. Gapirmoqchi bo‘lganida qalbi bilan hisoblashib ko‘radi, so‘ngra tili bilan aytadi, qalbi bilan o‘ylab ko‘rmaydi”[2:13].

Inson tilining mavjudotlar orasidagi o‘ziga xos qudratini yuqoridagi hadis yaqqol tasvirlaydi. Tarixdan bilib olamizki, har bir payg‘ambar Alloh tomonidan oddiy insonlarning kuch yetolmaydigan g‘ayritabiiy qobiliyat va donolikka ega bo‘lgan. Shu kabi noyob mo‘jizalarga ega bo‘lgan Sulaymon alayhissalomga Alloh "qush tilini" – ya‘ni, qushlar bilan muloqot qilish qobiliyatini bergan. Bu Qur‘oni Karimning “Naml” surasidagi oyatda tasvirlangan: Sulaymon alayhissalom otasi Dovud alayhissalomdan meros qilib olgan payg‘ambarlik va ilm bilan, “Ey odamlar, bizga qushlarning (va boshqa barcha jonivorlarning) tili, shuningdek, (payg‘ambarlar va podshohlarga xos) boshqa barcha ne‘matlar berildi”, deganlar [6:419].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Tasavvuf adabiyotimizda “Qush tili” ramzi orqali inson ruhi nafsiga emas, balki uni zabt etib, ilohiy muhabbatga – Allohning yaqinligiga va marhamatiga erishish g‘oyasi badiiy asarlarga singdirilgan. Qur‘oni Karimning “Naml” surasi (20-23-oyatlar)da Hudhud qushi Sulaymon alayhissalomga Yamanning Saba shahrida Bilqis malikasining hukmronligi va xalqining quyoshga sig‘inishi

haqida xabar beradi. Ushbu oyatlar Hudhudning butun bir xalqning islomga kirishi haqidagi xabarni yetkazishini tasvirlaydi. Buyuk shoir Alisher Navoiyning ham ilhom manbai bo‘lgan Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni “Naml” surasining 16-oyatiga, ya‘ni Sulaymon alayhissalomga “qush tili” ilmining berilishiga ishora qiluvchi baytlarni o‘z ichiga oladi:

*“Qilcha berdi chumoliga, kamar  
Ul Sulaymon birla bo‘ldi hamsamar.  
Berdi xil‘at unga, abbosiy tuni,  
Bebadal “Tosin” ga esh etdi uni”*[7:15].

“Naml” surasi nomi arabcha “chumoli” so‘zidan olingan bo‘lib, Alloh taoloning eng zaif va mehnatkash mavjudotlardan biri bo‘lgan chumoli haqida ham zikr qilinishi tufayli shu nom bilan atalgan. Ushbu sura “To sin” so‘zi bilan boshlanadi. “Mantiq ut-tayr”dan ilhomlangan Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarini yaratdi. Asarning 85-bobida Hudhud qushining javobida, “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” asarlarida Hudhud qushining boshqa qushlardan ilm va aql-idrok jihatidan ustunligining Qur‘oni Karimdagi Sulaymon alayhissalom bilan bog‘liq voqeaga asoslanganligi ko‘rsatiladi.

*“O‘truda bu bo‘ldi Hudhudning so‘zi:  
“Kim manga tushmish Sulaymonning ko‘zi.  
Haq taolokim anga aylab nazar,  
Ham rasul aylab edi, ham tojvar.  
Jinnu insu vahshu tayr ustida shoh-  
Aylab erdi oni lutf aylab iloh.  
Bo‘yla sohibdavlati sohibsarvi-  
Iltifotin topti men yanglig‘ haqir.  
Ondin o‘ldi bu qadar izzat manga,  
Bosh uza bu afsari rif‘at manga.  
Kimga-kim aylar nazar ahli safo,  
Ul nazar tufrog‘ni aylar kimyo”*[1:132].

Mana shu ilm hikmati ila Hudhud dunyo qushlarining Simurg‘ni izlab chiqqan safarlarida har bir savolga donishmandlik va bosiqlik ila javob beradi. Zotan, Hudhud Qur‘oni Karimda nomi zikr etilgan yaratilmishlar safidadir.

## **NATIJALAR (PEZYJBTATY / RESULTS)**

Shu xususda inson lisonining ilohiy hamda irfoniy jihatdan nimalarga qodir ekanligini namoyon etish uchun qush obrazini badiiyatda jonlantirish, ularga nutq ato etish Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan didaktik ruhdagi “Qushnomalar” genezisi



ilohiy-muqaddas kitob Qur'oni karim bilan bog'liq ravishda o'rganilishi eng maqbul yo'ldir. Ilohiyot va tabiat bir-biriga uzviy bog'liq. Yozma adabiyotda qush obrazi mavjudki, u o'zida ilohiy vazifani bajarayotgandek. Baqara surasining 260-oyatida: "Eslang (ey, Muhammad), Ibrohim: "Ey, Robbim, menga o'liklarni qanday tiriltirishingni ko'rsat, deganida, Alloh "Ishonmadingmi?"- dedi. Ibrohim aytdi: Yo'g'e, lekin dilim yanada taskin topsin". Alloh aytdi: "To'rtta qushni olib huzuringga jamla (va ularni maydalab), so'ng (atrofingdagi) har bir tog'ning ustiga bo'lak-bo'lak qilib qo'yginda, keyin ularni chaqirgin, (ular tirilib) darhol huzuringga keladilar. Bilginki, albatta, Alloh qudrat va hikmat egasidir" [8; 30]. Ushbu oyatdagi o'limdan keyin qayta tirilish ayni Allohning va'dasi ekanligi "Qushnomalarda" Qaqnus qushi obrazida badiiylashtirildi.

Fariduddin Attor "Mantiq ut-tayr"ning 17-maqolatida bu qushga alohida hikoya bag'ishlab, tarixan rivojlanib kelayotgan ushbu obrazning adabiyotga olib kirgan g'oyaviy genezesini yaqqol ochib beradi. Olima Z.Mamadaliyeva Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ramziy obrazlar tizimi mavzusidagi tadqiqot ishida Qaqnusni quyidagicha ta'riflaydi: "Uning ko'rinishi burgutsimon va rangi qizil-tillasimon yoxud olov rangda deb tasavvur qilingan. Aytishlaricha, umrining oxirida u turli xushbo'y o'tinlar bilan o'z uchasini yondirmish va uning kulidan yangi qaqnus paydo bo'lar ekan. Misrliklarning tasavvuri bo'yicha, u o'tlarning xushbo'y hididan o'lar ekan, so'ng esa quyoshda yonib ketarmish va uning tanasidan Qaqnus bola chiqar emish"[3:82]. "Mantiq ut-tayr"da tiriklik va o'lim o'rtasida bosib o'tiladigan manzil ifodasi Qaqnus orqali tasavvufona ifoda etiladi. Hudhud tilidan hikoya qilingan Qaqnus tarixining yoritilishiga Oliy ishq talabida yo'lga chiqqan qushlardan birining ushbu manzilga omon yetishligiga ko'zi yetmayotganligi, o'lim xavfidan shikoyat qilganligi sabab bo'ladi.

*Chun ajalni eslasam, titrar dilim,*

*Avvalin manzilda topgaymen o'lim[7:234].*

Ushbu baytda o'limdan qo'rqish, dunyo tashvishlari ifodasi borligi ko'rinadi. Ikkinchi misrada o'lim haqida chuqurroq ma'no bor. Bu yerda, o'lim vaqtida ruh oldingi o'rinda, ya'ni o'limdan keyin mavjud bo'lgan hayotda bo'lishi ta'kidlanadi. Tasavvufiy tahlil doirasida bu joy

ma'naviyat, o'lim esa ruhning dunyo dardlaridan xalos bo'ladigan burilish nuqtasidir. Bu haqida Qur'oni Karimda quyidagi oyat keltirilgan:

*"Ey Robbim! Meni muborak manzilga tushirgin! Sen (manzilga tushiruvchilarning yaxshisidirsan[10:344].*

Mu'minun surasining ushbu 29-30-oyatlarida Nuh(a.s) lutfi ila kema'dagi hamrohlarini go'zal manzilga yetkazishligini tilab duo qilgan mazmun aks etgan. Har ikki holatda ham: Nuh (a.s)ga ergashgan qavm vakillari va hikoyadagi qushlarning ham safardan maqsadlari bitta - Alloh buyurgan manzilga (ya'ni ruhimiz kelgan joy nazarda tutilyapti) gunohlardan poklangan holda yetishish. O'lim qanchalar qo'rqinch uyg'otmasin, lekin undan keyin ruh uchun haqiqiy hayot boshlanishi mana shunday qushlar obrazi orqali mahorat-la badiiylashtirilgan. Hudhudning javobi orqali fikriy dalillari aynan yana Qur'on oyatlariga ishora qilayotganligini yuqoridagi suraning 12-14-oyatlar orqali muqoyasa qilishimiz mumkin.

*Dedi Hudhud: ey zaif-u notavon,*

*Bir hovuch patsen, suyaksen, ustuxon.*

*Ustuxonlar ul birikmishtar tuzuk,*

*Ul suyaklar ichra so'ng issiq ilik [7:234].*

Oyat: "...laxta qonni parcha go'sht qilib yaratdik, bas, parcha go'shtni suyaklar qilib yaratib, bu suyaklarga go'sht qopladik, so'ngra unga jon kiritib oldingi holidan butunlay boshqacha bir vujudni paydo qildik" [8:342]. Ayonki Hudhudning tilidan ifoda etilmish fikr, inson yaralishining qay jarayonlarda kechishi Yaratganning qo'lida ekanligiga qaratilgan. Baytdagi "ustuxon" so'zi etimologik lug'atda oyatdagi singari "suyak ustidan qoplangan go'sht" mazmunida izohlangan. Shu orqali Qaqnus obrazi o'lim, qayta tug'ilish va o'limdan keyingi hayot talqinlarini namoyon etishi bilan diniy va ma'naviy asarlarda muhim ahamiyat kasb etdi.

"Mantiq ut-tayr"da Qaqnus obrazining rivojlangan nuqtalaridan yana biri, Attor kul orasidan katta qush emas, balki uning polaponi paydo bo'lishiga ishora qiladi:

*Cho'g' bo'lur xirmon yonib, Qaqnus-da ul,*

*So'ng qolur cho'g' o'rnida bir to'da kul.*

*Kul sovib, o'tgach yana fursat picha,*

*Kul aro paydo bo'lur qaqnus bacha [7:237].*

Turkiy adabiyotimiz peshvosi Hazrat Alisher Navoiy ijodiy merosida Qaqnus obrazi talqinini ko'p o'rinlarda uchratishimiz mumkin, ammo "Lison ut-tayr" dostonida uning mukammal namunasi tasvir etilgan, -desak adashmaymiz. Dostonda Qaqnus va uning kulidan ochilgan "qaqnusbacha" orqali ma'naviy ota-o'g'il o'rtasidagi ijodiy ko'prik mohiyati ochib beriladi. Hazrat Navoiy Qaqnus tasnifi va tavsifiga xos jihatlarni mohirona Attor hayoti va ijod yo'liga qiyoslab qalamga olganki, har qancha tahsinga loyiqdir.

*Ulki ul kullardin axgardek chiqib,*

*Balki axgardin samandardek chiqib.*

*Har nekim avvalg'i qushqa erdi shon,*

*Zohir o'ldi munda ham ondin nishon [ 1:265].*

Ya'ni Navoiy bu yerda ustozini olovda yongan Qaqnusga qiyoslab, zohirda u o'lgandek ko'rinsa-da, undan buyuk nishon borligiga ishora sifatida Shayx Attorning ijodiy merosiga ishora qiladi. O'zining bu ijod maydoniga kirib kelishini yonib turgan kuldan "axgardek", ya'ni cho'g'dek ajralib chiqishga qiyoslaydi. Keyingi misrada ruju san'atini qo'llash orqali "axgardin" o'tda yonmas "samandardek" ko'tarildi, -deya badiiy mahoratini namoyon etadi. Bu o'rinda Qaqnus metaforasi o'zgarish hamda yangi boshlanish imkoniyatlarini ta'kidlash uchun ishlatilganligi diqqatga sazovordir.

Yuqoridagi mazmunga yaqin oyatlar Qur'oni karimda Iso alayhissalom nomi bilan ham bog'liq. Oli Imron surasining 49-oyatida: "Shuningdek, Isroil avlodiga payg'ambarligim (qilib yubordi va aytadi): "Men sizlarga Rabbingiz huzuridan (payg'ambarligimga dalolat qiluvchi) mo'jiza bilan keldim; men sizlarga loydan qush shaklini yasab, unga dam ursam-u Allohning izni bilan (rostakam) qush bo'ladi..." [10:38]. Mazkur suraning 110-oyatida: Eslang, Alloh: "...Mening iznim bilan loydan qush shaklini yasading. So'ngra unga dam urganingda, u Mening iznim bilan (chinakam qushga) aylandi..."

Qush ramzi Ibrohim va Iso alayhissalomlarning tiriltirish mo'jizalari bilan bog'liq bo'lsa, "Yusuf" surasida esa tush motivi orqali namoyon bo'ladi. "Yusuf" surasi (36-oyat)da Yusuf alayhissalom bilan birga qamoqda yotgan podshohning nonvoyi quyidagi tushi haqida hikoya qiladi: "Men boshimda non ushlab turgan edim, qushlar undan yeyishardi. Bu tushning ta'birini

ayting, chunki sizni ezgu ish qilguvchi odam ekanligingizni ko'rmoqdamiz". Yusuf alayhissalom esa javoban: "...u (dorga) osiladi, qushlar uning boshiga tushishadi..." deydi. Demak, qushlar ham tush olami, ham haqiqiy hayotda bir xil vazifani o'taydi.

## **MUHOKAMA(OBSUZHDENIYE/DISCUSSION)**

Kalomullohning "Nahl" surasida esa qushlarning osmonda muaallaq tura olishi, parvoz qilishi Alloh taoloning mo'jizasi, Uning qudrati ekanligiga ishora beriladi. "Osmon fazosida (uchishga) bo'yin sundirilgan qushlarga boqmaydilarmi?! Ularni faqat Alloh tutib turibdi-ku! Albatta, bunda imon keltiradigan qavm uchun alomatlar bordir"[10:174]. "Nahl" surasida qushlarning havoda uchishi tasvirlangan bo'lsa, "Mulk" surasining 19-oyatida esa: "Ularning ustida qanotlarini yoyib, uchib yurgan qushlarni ko'rishmadimi? Ularni faqat Rahmongina ushlab turibdi..."- deyilgan. Bu oyatlar va "Nahl" surasidagi tasvirlar payg'ambarlar hayoti, Allohning yagona ekanligiga aqliy dalillar, yer-osmon va barcha mavjudotlarning Allohning qudrati va hikmati bilan yaratilganligi hamda din va ibodatga oid boshqa masalalarni yoritadi. "Anbiyo" surasining 79-oyatida "Bas, Biz uni Sulaymonga anglatdik. Biz har ikkisiga hikmat (payg'ambarlik) va ilm ato etdik. Tog'lar va qushlarni Dovud bilan birga tasbeh aytadigan qilib bo'yinsundirib qo'ydik. Biz shunday qila oluvchidirmiz" [10:214].

Ushbu oyatni XI asr fors adabiyotining so'fiy vakillaridan biri bo'lmish Sanoiyning "Tasbih ut-tayr" nomli qasidasi bilan izohlashni joiz deb bildik. Misol tariqasida so'zboshidan quyidagi kichik parchani tahlilga tortamiz.

Musicha qaytaradi: "O, rizq ato etguvchi, har bir jonzotga luqma berguvchi, qalbgga hayot berguvchi!"

Turna deydi: "Sen eng qudratli, sen tirk jonni o'lim bilan jazolaysan!"

Suvdan turib o'rdak shunday deydi: "Sen - hukmdor, dunyoga tuhfa Sendirsan!"

Burgut aytadi: "Sen payg'ambarga ishonadigan xalqlarni asraysan!"

Shunda kalxat aytadi: "O'zining qudrati bilan Egam olamdagi barcha narsani asraydi" [5:475].

Sharqshunos M.L.Reysner bu matnning qiziq talqinini keltiradi: qasidaning markaziy qismi

bir paytning oʻzida ibodat qilayotgan qushlar tilga olingan Qurʼon oyatlariga sharh va soʻfiylar orasida keng tarqalgan Alloh nomlarining tilga olinishining oʻzgacha usuli(zikr)ni oʻz ichiga oladi. Bu fikrni kengaytirib, Reysner yozadiki, Sanoiy “Nur” surasida keltirilgan Allohga maqtovlar keltirayotdan qushlar haqidagi oyatdan ruhlanib qasidani yozadi: “Allohga osmonlar va yerdagi bir jonzot va saf tortgan holidagi qushlar tasbih aytishini ham koʻrmaysanmi? Har biri oʻz duosi va tasbihini, batahqiq, bilmishdir. Alloh esa nima amal qilishlarini oʻta bilguvchidir” [6:28]. Darhaqiqat, har bir qush nutqida Asmo ul-husna-Allohning goʻzal sifatleri mazmuni aks etganining guvohi boʻlamiz. Ushbu turli sifatlar bilan Allohning ulugʻlanishi: musicha Uni rizq berguvchi (Ar-Rohmaan, Al-Qobid, Al-Baasit, Ar-Rozzaq) ekanligini aytib oʻtadi; humo qushi Allohning yagonaligini (Al-Malik, Al-Qoviy); turna esa qudratligidan (Al-Aʼziim, Al-Kabir, Al-Jalil, Al-Qodir) xabar beradi; oʻrdak Uni olamlar Robbisi (Al-Ahad,As-Somad,Al-Baqi) deb ulugʻlaydi, tustovuqlar uning barcha sirlarni bilguvchi ekanligi; lochin U barcha iymon egalarini muhofaza (Al-Hafiz, Al-Vadud, Al-Valiy) etishini, kalxat esa Alloh borliqning asosi (Al-Muhyi, Al-Mumit, Al-Hayy) ekanligini aytadi. Va asta-sekinlik bilan qushlar tomonidan kuylangan duolar Allohni ulugʻlashning asosiy formulasi bilan umumlashadi. Bu aynan oʻsha Sulaymon paygʻambarga Alloh tomonidan ato etilgan “qush tili” (“mantiq ut-tayr”)ning tugʻilish paytidir. Keltirilgan barcha maʼlumotlar qushnomalarning Qurʼonga oid mazmunini tiklashga yordam beradi.

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Muxtasar qilib aytganda, “Qushnomalar” turkumidagi asarlar tasavvuf gʻoyalarini oddiy va tushunarli tarzda keng ommaga yetkazish vazifasini oʻtagan. Garchi ular toʻliq tasavvuf adabiyoti janriga kirmasa ham, qush obrazidan foydalanib, tasavvufiy-ilohiy tushunchalarni badiiy adabiyotda

yuqori darajada ifodalashga erishilgan. Qushlar Alloh tomonidan yaratilgan, zikr aytishga buyurilgan va itoatkor mavjudotlardir. Shuning uchun “Qushnoma”lardagi asosiy obraz sifatida qush tanlangani bejiz emas, chunki qushlarning tasavvuf va ilohiylik darajasi Qurʼoni Karim oyatlari bilan tasdiqlangan.

#### **ADABIYOTLAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019.
- 2.Имом Аҳмад Ғаззолий. Тил офатлари ва ундан сақланиш йўллари. Тошкент: MUNIR, 2021..
- 3.Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонидаги рамзий образлар тизими. / Филол.фан.номз....дисс. Тошкент: ЎЗМУ, 2011.
- 4.Раҳматиллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Ж.1.Тошкент: Университет, 2000.
- 5.Рейснер М.Л. Птицы и мистико-символических касыдах Санаи и Хакани (XII в) (к проблеме становления символического языка в классической персидской касыде)//Исследования по иранской филологии. Выпуск первый. Москва, 1997.С. 26-28.
- 6.Федорова Ю.Е. От касыды до трактата: философский анализ сюжетов о беседах птиц //Ориенталистика. 5(3). 2022. С. 474-488.
- 7.Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.
- 8.Ўзбек тилининг изоҳли луғати /Мадвалиев А. Ж.3.Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 1981.
- 9.Куръони Карим.Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон, 2001.
- 10.Куръони Карим: маъноларининг таржима ва тафсири/Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Т.: Тошкент ислом университети, 2016.



**AYOLLAR TADBIRKORLIGINING  
JAMIYATDAGI AHAMIYATI**

*Qanoatova Feruza Bobokulovna  
Shahrisabz Davlat pedagogika instituti dotsenti*

**ЗНАЧЕНИЕ ЖЕНСКОГО  
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ОБЩЕСТВЕ**

*Каноатова Феруза Бобокуловна  
Доцент Шахрисабзского государственного педагогического  
института*

**THE IMPORTANCE OF WOMEN'S  
ENTREPRENEURSHIP IN SOCIETY**

*Kanoatova Feruza Bobokulovna  
Associate Professor of Shahrisabz State Pedagogical Institute*



Tel: +998912118848

e-mail: fkanoatova@  
yandex.ru

[https://orcid.org/0009-  
0003-2396-4128](https://orcid.org/0009-0003-2396-4128)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada O'zbekistondagi xotin-qizlar xususiy tadbirkorligining o'ziga xos tomonlari, ayollar ishbilarmonligi erkaklar tadbirkorligi bilan farq qiluvchi tomonlari, uni rivojlantirilishda hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirish mexanizmlari, ularni iqtisodiy, ijtimoiy faolligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida nodavlat tashkilotlari, jumladan, mahalla, partiya va boshqa turli uyushmalarning olib borayotgan amaliy ishlari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** biznes, ijtimoiy siyosat, hususiy tadbirkorlik, ijtimoiy –iqtisodiy faollik, davlat, nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, kredit imtiyozlari, ayollar bandligi.

**Аннотация:** В данной статье исследуются специфические аспекты женского частного предпринимательства в Узбекистане, механизмы реализации государственной политики поддержки развития женского бизнеса, практическая работа неправительственных организаций, включая махалли (кварталы), партии и различные другие объединения, с целью повышения их экономической, социальной активности, широкого вовлечения в предпринимательской деятельности.

**Ключевые слова:** политика, бизнес, частное предпринимательство, социально-экономическая деятельность, государство, неправительственные организации, общественные объединения, кредитные льготы, женская занятость.

**Abstract:** This article examines the specific aspects of women's private entrepreneurship in Uzbekistan, the mechanisms for implementing state policy to support the development of women's business, the practical work of non-governmental organizations, including neighborhoods, parties and various other associations, in order to increase their economic, social activity, and broad involvement in entrepreneurial activities.

**Key words:** politics, business, private entrepreneurship, socio-economic activity, state, non-governmental organizations, public associations, credit benefits, women's employment.



**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Hozirgi zamonda har qanday davlatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishda iqtisodiyot dinamikasining eng muhim drayveri tadbirkorlik va uning kafolati, shaxsiy erkinlik, shaxs va jamiyat farovonligini ta'minlovchi asosiy yo'li ekanligini isbotlandi. Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolar, ayniqsa xotin-qizlarning tadbirkorlikdagi ishtiroki nisbatan yuqori bo'lishi ushbu faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlangandir. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturining asosiy maqsadlari gender tenglikka erishish hamda tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning faolligini oshirish aholi turmush tarzini yuksalishidagi muhim omil ekanligiga qaratildi. Shu munosabat bilan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, gender tengligini shakllantirish tendensiyasini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kengayib borayotgani kuzatilmogda. Ushbu jarayonlar esa mazkur mavzuni o'rganish bugungi kunda dunyo tarixshunosligida ham dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Xotin-qizlar tadbirkorligining o'rni va roli masalalari jahon ilmfanida falsafiy, iqtisodiy, sotsiologiya, huquqiy aspektida kengroq o'rganib kelinayotganligini ta'kidlash o'rinli.

Xususan, BMT rivojlanish dasturi, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan Ming yillik rivojlanish dasturiga doir o'tkazilgan tadqiqotlarda, Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik sohasidagi islohotlar ("Business report Kazakstan, Turkmenistan, and Uzbekistan"-AQSH) da o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot mavzusiga yaqinroq bo'lgan ilmiy tadqiqotlar nemis olimlari Devid Smallbone va Friederike Velter va Vohrmann Frieder[1:218], inglizlik Keyt V. Lyuis va rossiyalik F.V.Sugarovalar ishlarida aks ettiriladi. Ularda aynan O'zbekiston alohida o'rganish obyekti sifatida olinmagan bo'lsada, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida sobiq Sovet davlatlari qatorida mamlakatimizda ham ayollarning iqtisodiy va

ijtimoiy o'zgarishlarga qo'shayotgan potensial hissasi haqida shuningdek, XXI asrda Markaziy Osiyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va bandlik bilan bog'liq bo'lgan muammolar, ayollar duch keladigan qiyinchiliklar, ayollarni mehnat bozorida raqobatbardoshligini kamaytirish, qashshoqlik feminizatsiyasining[2] tobora ortib borayotgani haqida iqtisodiy tahlillar va kontseptual tushunchalar tadqiq etiladi.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Tadqiqotlarda ayollar asrlar davomida tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelishgani, ammo tadbirkor hisoblanmaganlar, chunki bu atama faqat erkaklar uchun edi. XVIII-XIX asrlarda ayollarga tegishli bo'lgan korxonalarining aksariyati meros yoki qo'shimcha shaxsiy daromadga asoslangan edi. 1900-yillarda jamoatchilik fikri o'zgardi va feminizm keng tan olingan harakatga aylandi, bu esa odamlarga biznesdagi ayollarni tadbirkor deb atash imkonini berganligini o'rganildi.

Keyingi 15 yil ichida nashr etilgan tadbirkorlik muammosi bo'yicha adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik funksiyasi nazariyasini shakllantirishda bir qancha asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Dastlabki bosqichda ekspertlar tadbirkorlikning tavakkalchilik kabi muhim va murakkab jihatiga e'tibor qaratdilar. Ikkinchi bosqichda innovatsionlik tadbirkorlik faoliyatining yetakchi xususiyati ekanligi va uchinchi bosqichda tadbirkorning biznesni rivojlantirishning eng istiqbolli yo'llarini topishga bo'lgan alohida sezgirligini, qarorlar qabul qilishda o'z mulohazalarining mustaqilligini ko'rsatildi [3].

**NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** So'nggi yillarda xotin-qizlar tadbirkorligi gender nuqtayi nazaridan o'rganilganda tadbirkorlik ruhi, tashabbusi va umuman ayollar biznesining tabaqalanish muammolari, ayollar va erkaklar o'rtasida farqlanish borligini kuzatish mumkin.

Tahlil natijasida ayollar tashkilotda rahbarlik lavozimlarga erishish qobiliyatini baholashda juda ehtiyotkor bo'lib, buni, birinchi navbatda, ularning o'zlari ushbu lavozimlarni egallashni istamaydi, shuningdek, kuchli gender roli stereotiplarining ta'siri borligi aniqlandi.

№	Tavsiflar	Tadbirkor erkak	Tadbirkor ayol
	Biznesni boshlashdagi yoshi	25-25	30-40
	Mablag' olishdagi manbalar	Omonatdan foydalanish, bank kreditlari, investorlarni jalb etish, yaqin tanishlardan qarz olish	Omonatdan foydalanish, yaqin qarindoshlardan qarz olish, qo'llab-quvvatlash guruhlari, do'stlar, biznes hamkorlar, turmush o'rtog'i, oila a'zolari, ayollar uyushmalari
	Motivatsiya	Biznes qilish istagi, mustaqillikka erishish, vaziyatlarni boshqarish	qo'yilgan maqsadga va mustaqillikka erishish
	Ma'qul bo'lgan tarmoqlar	sanoat, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish	xizmat ko'rsatish, oilaviy, sanoat, yengil sanoat, kasanachilik
	Shaxsiy sifatlar	O'z fikrini ma'qullaydi, haddan ortiq o'ziga ishonadi, nostandart fikrlaydi, mustaqil, kuchli	Boshqalar fikrini o'rganadi, moslashuvchan, chidamli, maqsad sari intiluvchan, kuchli, nostandart fikrlaydi

O'zbekistonda ham ayollar tadbirkor bo'lish yo'lida an'anaviy tarzda jiddiy to'siqlarga duch kelishgan, bu muammolarga javoban ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy strategiyalar va turli chora-tadbirlar ishlab chiqilshi ayollarga to'siqlarni engib o'tishga yordam berdi va biznesga yaxshiroq kirishi uchun har tomonlama qo'llab - quvvatlandi. Bu harakatlar ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun zarur bo'lib tuyulsa-da, tadbirkor ayollarni tushunish uchun yetarli emas edi, chunki, ayollar o'zlarining motivatsiyalari, orzu-umidlari va tashvishlari bilan noyob guruh ekanligini e'tibordan qochirmaslik kerak[4].

Ayollar tadbirkorligi butun dunyo bo'ylab eng tez o'sayotganiga qaramay, mamlakatda ayollarning o'z-o'zini ish bilan ta'minlashi va biznesga qo'shgan hissasi erkaklarnikiga qaraganda ancha pastligicha qolmoqda. Asosiy sabablardan biri sifatida ayollar o'zlarining kasbiy rivojlanishlarini oshirish, o'z loyahasini yaratish yoki ish hayotini boshqarish va nazorat qilish kabi orzu - istaklar asosida tadbirkorlikka kirishga ko'proq qiziqishida deb o'ylaymiz. Erkaklar esa ko'proq o'z kuchga ishongan, ishsizlikka muqobilligi katta ekanligi sabab biznesga kirishadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosati ahamiyatidagi dolzarb masalaga aylanganligi natijasi o'laroq, Global indeksda bu sohada O'zbekiston 62-o'rinni egalladi. "Tadbirkor ayol" xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi O'zbekistonda birinchi bo'lib ayollar uchun ishbilarmonlik muhiti va mamlakatimizda ayollar biznesining istiqbollarini o'lchash bo'yicha ayollar tadbirkorligining Global indeksini joriy etish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu indeks butun dunyo bo'ylab ayollar tadbirkorligi salohiyatini rivojlantirishni o'lchaydigan o'ziga xos indeksdir. WBI (Women Business Index) jahon bankining ko'rsatkichi bo'lib, u O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va ijtimoiy muhit darajasini aks ettiradi, 2019-yilda dunyo bo'yicha o'rtacha baho 2017-yilga nisbatan 75,2 – 73,9 ni tashkil etdi[5].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** O'zbekistonda ayollar tadbirkorligi ham azal-azaldan, asosan ilk o'rta asrlardan buyon shakllanib kelgan, biroq bu holatga aynan tadbirkorlik deb nom qo'yilmagan edi. Mamlakatimizda ham 90-yillarning oxirlarida ayollar tadbirkor bo'lish yo'lida an'anaviy tarzda jiddiy to'siqlarga duch kelishgan, bu muammolarga javoban ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni

qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy strategiyalar va turli chora-tadbirlar ishlab chiqilshi ayollarga to'siqlarni yengib o'tishga yordam berdi va biznesga yaxshiroq kirishi uchun har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish orqali ularni faolligini oshirish, maishiy turmush tarziga e'tiborni kuchaytirishga yo'naltirilgan davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligi bilan ajralib turadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА  
/ REFERENCES)**

1. Wohrmann Frieder. Economic Discourse in Uzbekistan: The Perception of Economic Change Between Market Principles and Social Traditions. – Bochum, 2000. - 278 p. (Экономический дискурс в Узбекистане: восприятие экономических изменений

между рыночными принципами и социальными традициями). - Bochum, 2000. - 278 p.

2. Douglas, Ann. The feminization of American culture: Free Download, Borrow, and Streaming: Internet Archive (Энн Дуглас (1988). Феминизация американской культуры) - <https://archive.org/details>
3. Предпринимательство в конце XX века. Дынкин А.А., Стерлин А.Р., Тулин И.В. и др. - М.;1992.- <https://allfind.kpfu.ru>
4. F.Qanoatova. O'zbekistonda ayollar oilaviy tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi. // Sohibqiron. - Qarshi № 4. – 2022.
5. Xotin-qizlar qo'mitasining Prezident farmoni ijrosi bo'yicha hisoboti - O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi. 2019-yil arxiv materiallari.



## GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY TARBIYA VA G'OYAVIY IMMUNITETNI KUCHAYTIRISH ZARURATI

*Panjiyev Suhrob, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrasida v.b. dotsenti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## НЕОБХОДИМОСТЬ УКРЕПЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

*Панжиев Сухроб, Термезский университет экономики и сервиса  
Исполняющий обязанности доцента кафедры Социальных наук*

## THE NEED TO STRENGTHEN NATIONAL EDUCATION AND IDEOLOGICAL IMMUNITY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

*Panjiyev Sukhrob, Termez University of Economics and Service  
Acting Associate Professor of the Department of Social Sciences*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni milliy qadriyatlarga tayangan holta tarbiyalash, ularning boy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish va g'oyaviy immunitetini kuchaytirish dolzarb masala ekanligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, milliy tarbiya, g'oyaviy tarbiya, milliy qadriyat, madaniyat, ma'naviyat, immunitet, g'oyaviy immunitet, mafkuraviy jarayonlar.

**Аннотация:** В статье утверждается, что в современных условиях глобализации актуальным является воспитание молодежи на основе национальных ценностей, формирование у нее богатого духовного мировоззрения, укрепление ее идеологического иммунитета.

**Ключевые слова:** глобализация, национальное образование, идеологическое воспитание, национальные ценности, культура, духовность, иммунитет, идеологический иммунитет, идеологические процессы.

**Abstract:** This article argues that in today's globalization environment, it is an urgent issue to educate young people in a way that is based on national values, to form their rich spiritual outlook, and to strengthen their ideological immunity.

**Key words:** globalization, national education, ideological education, national values, culture, spirituality, immunity, ideological immunity, ideological processes.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Yuksak ma'naviyatga madaniyat va ma'rifatni rivojlantirish orqali erishiladi. Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatida, o'z oilasi, millati Vatani va o'zga insonlarga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar samimiylik, o'zaro hurmat, oila muqaddasligiga amal qilish, millat taqdiriga va istiqboliga mas'ullik, Vatanni jon-dildan sevish, unga barqaror ehtiyoji sifatida qaray bilish, o'zi bilan

yonma-yon yashayotgan millatlar vakillariga hurmat bilan qarash va ularning ham o'ziga xos manfaatlari mavjudligini e'tirof eta bilish va ularni hisobga olish kabilarda yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ammo, bunday munosabatlarning o'z-o'zidan paydo bo'lmasligini esdan chiqarmaslik zarur. Ularning shakllanishida oila, ta'lim-tarbiya tizimi, milliy qadriyatlar, insoniylik fazilatlarining ta'siri va jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega bo'ladi.



E-mail:

[suhrob.panjiyev@mail.ru](mailto:suhrob.panjiyev@mail.ru)

ru

Tel: +998996788788

<https://orcid.org/0009-0004-2448-9047>



**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Milliy-ma'naviy omillar avvalo jamiyat a'zolari orasidagi munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Oila va jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik o'zaro munosabatlardagi samimiylilik, hurmat, e'tibor, ma'naviyatli insonlarning ko'pchilikni tashkil etishni ma'naviyat darajasini belgilovchi mezonlardan hisoblanadi. Ma'naviyat oilada, ijtimoiy muhitda millat qadriyatlarini ta'sirida shakllanadi, rivojlanadi hamda o'z navbatida u jamiyat taraqqiyotiga inson kamolotiga xizmat qiladi.

Yot g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinayotganlar qabih maqsadlariga yetish uchun turli usullarni qo'llamoqdalar. Bular milliy va insoniy qadriyatlarga zid, axloqsizlikka, ma'naviyatsizlikka undovchi vosita va usullardir. Shuningdek, yoshlarimiz toza qalbiga yovuzlik urug'ini sochishga zo'r berayotgan noqonuniy diniy sektalar, missioner guruhlar faoliyatlaridan ogoh bo'lmoq va farzandlarimizni bunday yovuzliklar ta'sirlardan asrab-avaylamoq insoniylik burchimizdir. Bunday illatlar zaminida g'arazli maqsadlar yoritishni har bir sog'lom fikrli inson yaxshi anglab yetadi. [6]

Taniqli faylasuf olim S.Otamurodov bu jarayonning salbiy oqibatlari haqida to'xtalar ekan, bunday fikrlarni ilgari suradi:

“Globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli daraja va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Dastlab bu jarayon stixiyali ravishda kechgan ma'lum vaqtdan keyin iqtisodiyot taraqqiyotining rivojlanishiga qanchalik ijobiy ta'sir o'tkazmasin, uning millatlar “Men”ning barbod bo'lishiga, ayniqsa yoshlarning axloqiy jihatdan qashshoqlashuviga o'tkazayotgan ta'siri tobora xatarli tus olmoqda. Buning oldini olish o'ta muhim, kerak bo'lsa, planeter muammodir”. Millat va uning madaniyati har bir tarixiy bosqichda rivojlanib, takomillashib boradi va bu jarayonda uning ehtiyojlariga javob bera olmay qolgan xususiyatlari, an'analari o'z o'rnini yangilarga “bo'shatib” beradi. Faqat millat va uning madaniyatidagi, ma'naviyatidagi qadriyat darajasiga ko'tarilgan qismi va xususiyatlarigina “abadiylashib” sayqallashib boraveradi. Millat barhayotligini xuddi ana shu qadriyatlar ta'minlab turadi. Shu ma'noda madaniyat millatning muhim belgisi va rivojlanish omili hisoblanadi.

Madaniyatda millatning barcha o'ziga xos xususiyatlari mujassamlashadi. Shuning uchun ham u milliy madaniyat deb yuritiladi. To'g'ri, milliy madaniyat faqat milliy o'ziga hoslikni aks ettirish bilangina cheklanmaydi, shuning barobarida millat ruhiyatini kamol toptirish, uning abadiyligini ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan vazifalarni ham qamrab oladi. Agar mazmun milliy zamin, hayot go'zalligini atrof-muhit turli-tumanligini aks ettirsa, uning shakli an'analar, qadriyatlar va xalq ijodiyoti va boshqalar vositasida amalga oshiriladigan, ishlar majmuidir. Bu o'ziga xoslik til, ong (milliy ong) milliy o'zlikni anglash ruhiyati, turmush, axloq va boshqalarda namoyon bo'ladi. [5]

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Muayyan milliy o'ziga xoslik, aholida milliy kalorit bir millat madaniyatini boshqa madaniyatdan farqlovchi sifat hisoblanadi. Ammo, milliy o'ziga xoslik, milliy madaniyatlarning bir-biriga zidligini anglatmaydi, balki xuddi ana shu xilma-xillik ularning bir-birlarini boyitib borishiga xizmat qiladi. Ular bir-biridan nimanidir qabul qiladilar va nimanidir beradilar. Ana shu jarayon orqali umummilliy taraqqiyot davom etadi.

Milliylikni ifoda ettirmagan madaniyat hech kimniki bo'lmay qoladi. Xuddi ana shu ma'noda madaniyat millatning ichki va tashqi qiyofasini aks ettirib turuvchi belgisidir. Milliy o'ziga xoslik adabiyot va san'at asarlarida, millat vakillarining xatti-harakatlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda rus kompozitori N.A.Rimskiy-Korsakov musiqa “Millatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi va umuminsoniy deb hisoblaydigan har qanday musiqa aslini olganda milliydir. Betxoven musiqasi nemislarniki, Vagner musiqasi albatta nemislarniki, Verdi musiqasi fransuzlarniki, Meyrber musiqasi ham xuddi shundaydir” deganda mutlaq haq edi. Demak millat tushunchasida milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyat (ma'naviyat) omillariga ustuvorlik berilsagina uning salohiyati yuzaga chiqadi. Chunki milliy madaniyat va ma'naviyat har bir millatning, qolaversa, davlatning mustaqilligini ta'minlashning qudratli omillar hisoblanadi. Shunday qilib, millat deb, kishilarning yagona til, milliy o'zlikni anglash ruhiyati, ma'naviyat (keng ma'noda), xayrli an'analar, qadriyatlar yagonaligi asosida ma'lum hududda birgalashib yashovchi o'z davlatiga ega bo'lgan, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil

subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boylklarni ifodalovchi hamda yaratuvchi bo'lgan insonlarning etnik birligiga aytiladi. [4]

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).**

Berilayotgan bu ta'rifning ilgari mavjud bo'lgan an'anaviy ta'riflardan farqli tomoni uning mavjudligini ta'minlashda moddiy omillar emas, balki ma'naviy omillarga ustuvorlik berilishidir. Milliy o'zlikni anglash omili hamda milliy madaniyatning belgisi sifatida tan olinishi millatning shakllanishi va taraqqiyotida bu omillarning hal qiluvchi o'rnida ifodalaydi. Milliy-ma'naviy omillarning millatning shakllanishi va taraqqiyotidagi muhim o'rni deganda qo'yidagilar nazarda tutiladi:

**Birinchi**dan, millatlar bir-birlaridan til, o'z-o'zini anglash ruhiyati, an'analar, madaniyat va qadriyatlardagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadilar.

**Ikkinchi**dan, bu xususiyatlar millatlar mavjud bo'lgan har qanday sharoitda, millat real subyekt sifatida o'zini namoyon eta olish va rivojlanib, takomillashib borishi bilan ta'kidlanadi.

**Uchinchi**dan, milliy-ma'naviy omillar qanchalik o'zaro yaqinlashmasin, ular o'z-o'zidan "assimilyatsiya" bo'lib ketmaydilar, balki ulardagi o'ziga xos xususiyatlari, millatni birlashtirib turuvchi manba rolini bajarib turaveradi. [1]

Yosh avlodda g'oyaviy immunitetni kuchaytirishning yana bir muhim usuli-ijtimoiy targ'ibotdir. Ijtimoiy targ'ibotning bugungi hayotimizdagi muhim vazifasi – milliy mustaqillikni mustahkamlash g'oyasini yurtdoshlarimiz ongiga singdirish, ularni bir maqsad atrofida jpsiplashtirishdan iborat bo'lmoqda. Odamlar ongiga, xatti-harakati va xulqiga ta'sir etuvchi targ'ibotning turli uslublari qatorida sotsiologik uslub ham hayotiy qadriyatlarga muayyan munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq sotsiologik targ'ibot o'zining jo'shqinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ko'rgazmali nashrlar, kino, reklama va ayniqsa televideniye singari kuchli texnik vositalarga ega bo'lgan bu uslubning mohiyati turmush tarzini targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lib, mazkur vazifani g'oyalar talqiniga asoslangan umumiy mulohazalar va xulosalar yordamida emas, balki jonli obrazlar, badiiy vositalar orqali ham amalga oshirildi. [2]

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Yuqorida bildirib o'tgan fikrlarimizga tayangan holda aytishimiz mumkinki, bugun yoshlarimizning

ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi-ongiga, avvalo jamiyatimizda tom ma'noda ma'naviy hayotning yangilanish jarayoni davom etayotganligini O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk davlat barpo etish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolinayotganini singdirish lozim. Bu jarayon, g'oyaviy immunitetni kuchaytirish bilan bog'liq. Bu jarayonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "agar bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iy va ma'suliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin". [3]

Shu bois, yurtimizda yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy barkamol avlodni qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Chunki ma'naviy barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosidir.

Demak, jamiyatimiz barkamol insonni shakllantirishga nechog'lik ijobiy ta'sir qilsa, barkamol inson ham jamiyat taraqqiyotiga shunchalik samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan har bir yangilanish ishlari bevosita yoki bilvosita milliy tarbiya va g'oyaviy immunitetini mustahkamlashga qaratilmoqda. Bu esa, intensiv rivojlanib va o'zgarib borayotgan ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2018.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma'naviyat, 2008. – B. 111.
3. Panjiyev S. "Ma'naviy tahdidlar sharoitida haqiqatning ahamiyati. O'zMU xabarlar. – T.: "Universitet". 2013-yil maxsus son. – B. 202.
4. Husanov B.E. "Globallashuv jarayonida axloq va estetika fanlarining o'rni. O'zMU xabarlar. – T.: "Universitet", 2009 yil 4-son. – B. 6.
5. Falsafa qomusiy lug'at: Q.Nazarov va boshq. – T.: O'zFMJN. 2004.
6. Tafakkur jurnali. – Toshkent. 2013. 2-son. – B. 88.

## JADID MA'RIFATPARVARLIK G'UYALARI VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH

*Raxmanov Abdimalik Ergashevich*

*Termiz davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi*

## ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ “ЖАДИД” И ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

*Рахманов Абдималик Эргашевич*

*Термезский государственный университет, кандидат  
философских наук*

## EDUCATIONAL IDEAS OF “JADID” AND UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY

*Rakhmanov Abdimalik Ergashevich*

*Termez State University, candidate of philosophy*



[raxmanov-57@mail.ru](mailto:raxmanov-57@mail.ru)

<https://orcid.org/0009-0001-8927-4168>

Tel: +998905195503

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda jadid ma'rifatparvarlik harakatining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari, ularning milliy o'zlikni anglash, milliy istiqloq, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy islohotchilik g'oyalari va ularning bugungi yangilanish va milliy yuksalish davri uchun ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Milliy o'zlikni anglash, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy ozodlik harakati, islohot, maorif islohoti, ijtimoiy-siyosiy islohot, milliy mustaqillik, milliy yuksalish.

**Аннотация:** В данной статье анализируются этапы зарождения и развития движения «джадидизм» в нашей стране, их идеи национального самосознания, национальной независимости, духовно-просветительского и социально-политического реформирования и их значение для сегодняшнего периода обновления и национального подъема.

**Ключевые слова:** национальное самосознание, модернизм, просвещение, национально-освободительное движение, реформа, образовательная реформа, общественно-политическая реформа, национальная независимость, национальный подъем.

**Abstract:** This article analyzes the stages of the emergence and development of the movement «Jadidism» in our country, their ideas of national consciousness, national independence, spiritual and educational and socio-political reform and their significance for today's period of renewal and national upsurge.

**Key words:** national consciousness, modernism, education, national liberation movement, reform, educational reform, socio-political reform, national independence, national upsurge.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Xalqimizning milliy o'zligini anglashi jarayonida jadid ma'rifatparvarlik g'oyalari va ularning amaliy harakatlari muhim rol o'ynagan. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, ijtimoiy taraqqiyotga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun tarixning turli

davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zaxmat chekkanini ko'ramiz. Turkistondagi jadidlar faoliyati ham buning yaqqol tasdig'idir. Jadidchilik Osiyo va Yevropadagi ilg'or o'zgarishlar ta'siri ostida, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan mustamlakachilik hamda favqulodda qoloq



iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, ularning milliy o'zligini anglashini shakllantirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida, milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini ko'zlagan harakat sifatida, tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga kelgan fenomendir. [2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish bilan bog'liq masalalarga alohida to'xtalib, "...jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", deya ta'kidladilar.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (JIITEPATYPA II METOD/MATERIALS AND METHODS).**

Jadidchilik, uning atoqli namoyondalari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga oid kitoblar, to'plamlar, ko'plab ilmiy anjuman materiallari, risola va maqolalar chop etilmoqda. Bular B.Qosimovning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" nomli monografiyasi, "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" nomli maqolalar to'plami, "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" nomli Toshkent islom universitetida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari shular jumlasidandir. Ushbu adabiyotlarda tarixiylik va mantiqiylik metodi asosida jadidchilik harakati ma'naviy-ma'rifiy asoslarining mohiyati, xalq tafakkurini o'stirish, ma'naviyatini boyitish, milliy o'zligini anglashi uchun olib borgan faoliyatlari tahlil qilingan [3]. Ayniqsa taniqli tarixchi olim D.A Alimovning "Jadidchilik fenomeni" kitobi alohida diqqatga sazovordir. Unda jadidchilikning mohiyati va uning O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi o'rni va ahamiyati yaxlit va xolis tahlil qilingan. Jadidchilik harakati davrlashtirilgan, harakat namoyondalarining tarix, madaniyat, din va davlatchilik masalalariga qarashlari o'rganilgan,

ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi roli yoritilgan [4].

#### **MUHOKAMA**

**(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** Taniqli tarixchi olimlarimiz N.Karimov va D.Alimovlar o'z tadqiqotlarida jadidchilikning XX asr boshlarida maydonga chiqqanligini va ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo'lgan rivojlanish yo'lini bosib o'tganligini ta'kidladilar. Turkiston xalqlarining milliy onggi va ma'naviyatiga, milliy o'zligini anglashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan jadid ma'rifatparvarlarining g'oyalari ham jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi tarixiy o'zgarishlar ta'siri ostida mazmunan boyib bordi. Turkistonda jadidlarning birlashishi va keng qanot yozishida "jadidlar rahbari" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1879-1919-yy.)ning xizmatlari beqiyosdir. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida, ya'ni XVI asrdan boshlangan inqiroz va diniy jaholat, o'zaro ichki nizolar va milliy parokandalik tufayli o'lkani zabt etgan Rossiya mustamlakachilari uni turg'un va tutqun saqlashga urinayotgan bir sharoitda yashab ijod qildi va diniy va dunyoviy bilimlarga bir xil munosabatda bo'lib, ular asosida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, milliy o'zligini anglash va taraqqiyotga boshlash lozimligini ta'kidlaydi. U jamiyat islohotini maktab va madrasadan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi, deb ko'rsatadi. O'limidan biroz avval o'z maslakdoshlariga "maorifni Buxoro tuprog'iga yoyingiz", deb vasiyat qiladi [5].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Jadidchilik XX asr boshlaridan 1917-yil fevral inqilobiga qadar bo'lgan o'z rivojining birinchi bosqichida maorif islohoti, yangi tipdagi maktablarni ochish, xalqni ma'rifatlashtirish g'oyalari ilgari surib jadid maktabi, matbuoti, adabiyoti va teatriga asos soldilar. O'z siyosiy qarashlarida esa parlamentar monarxiya tuzumini yoqlab Davlat Dumasida turkistonlik vakillar bo'lishiga, so'ngra birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqiga kirishga intildilar. Shu tariqa jadidchilik yetuk siyosiy milliy ozodlik harakatiga aylandi. XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasida milliy uyg'onish davri boshlandi. Bu jarayon yetakchilari jadid ziyolilari edilar. Holi zabun, ruhi so'nik millatning qadim madaniyati, iqtisodiyoti va maishiy turmush tarzini tiklash uchun avvalo uni



ma'rifatli qilish lozim edi. Zamonaviy ilmdan bexabar har qanday millat, har qanday jamiyat tanazzulga uchramog'i tayinligi bois jadid ziyolilari millatni bunday ofatdan xalos etmoqlikni ham qarz, ham farz deb bildilar. M.Behbudiy "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqolasida "Arabiy bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo'ldan ketar. Turkiy va forsiyning kerakligiga so'z yo'qtur. Yana bir xil til borki, butun olam bir-birila aning ila so'ylaydur. Ul fransa xati ila tilidur... Bizga lozimki, o'z naf'iliq uchun ruscha bilaylik, hukumat maktablarida o'qiyluk. Davlat mansablarig'a kirayluk... Musulmon bo'lib turib, taraqqiy qilayluk...", deb yozgan edi [6].

Fevral inqilobi, chor hukumatining zaiflashuvi va nihoyat bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi davrlarida jadidchilik harakati o'zining ikkinchi bosqichida asl siyosiy maqsadini ifodalovchi g'oyalarni – milliy istiqlol, mustaqil davlatni barpo etish, demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanadigan demokratik jamiyatni shakllantirish g'oyalarini amalga oshirishga kirishdi. Biroq, mustabid sho'rolar tuzumining ta'qibi, kuchli va birlashgan siyosiy tashkilotga ega bo'lmaganligi hamda xalq ommasini hali uyg'ota olmaganligi bois jadidlar o'z maqsadlariga erisha olmadilar. Markazi Qo'qonda bo'lgan "Turkiston muxtoriyati" hukumatini sho'rolar davlati go'dakligidayoq yanchib tashladi, jadidlar ta'qibi avj oldi [3].

Mustabid sovet tuzumining hukmronligi va ta'qibi avj olgan 20-30 yillar davrida jadidchilik o'zining so'nggi yakunlovchi bosqichini boshdan kechirdi. Bu davrda ular xalqimiz olib borgan milliy ozodlik va mustaqillik kurashining yetakchilari va g'oyaviy rahnamolari bo'ldilar, madaniyat va maorif sohasida samarali faoliyatlarini davom ettirganlar. Ushbu davrdagi jadidlar faoliyatining uch yo'nalishini ta'kidlash mumkin: milliy ozodlik kurashi sifatida ko'tarilgan "bosmachilik harakati"ga g'oyaviy tashkiliy rahbarlik qilish, maxfiy uyushgan siyosiy tashkilotlarda faoliyat olib borish, sho'ro hukumatining mustamlakachilik siyosatini demokratik asosda oshkora tanqid qilish. Istiqlolchi jadidlar e'tibor bergan asosiy masalalardan biri milliy ruhni tarbiyalash va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish bo'ldi [5].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Bugun atoqli ma'rifatparvarlarimizning orzu-armonlari to'liq ushaldi. Milliy mustaqilligini qo'liga kiritgan xalqimiz keng ko'lamlil va uzoqni ko'zlagan

islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa ma'rifatparvar jadid ziyolilarining nomlari ham, g'oyalari ham hamisha barhayot ekanligidan dalolatdir. Jadid ma'rifatparvarlarining islohotlar yo'li bilan jamiyatni yangilash, milliy o'zligini yuksaltirish, ma'rifat va taraqqiyotga yetaklash g'oyalari bugungi kundagi jamiyatimizni innovatsion rivojlantirish g'oyalari bilan hamohangdir. Ayniqsa, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini hamda 2022-2026-yillardagi Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini hayotga tatbiq etish uchun mustaqil yurtimizning yangi tarixida "islohot", "innovatsiya", "modernizatsiya", "ma'naviy yangilanish", "ma'rifatli jamiyat", "Uchinchi Renessans" singari g'oyalar asosidagi amaliyot o'zining ijobiy samaralarini berib kelmoqda.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Alimova D.A. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B.272.
2. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: "Universitet", 1999.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19(7521).
5. Rakhmanov A.E. Socio-philosophical significance of the concept of national state sovereignty. – Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, vol. 3, 2022, page 49-51.
6. Rakhmanov A.E. The principle of separation of powers in the history of the state. – World Bulletin of Social Sciences (WBSS), Vol.34, May 2024, page 79-81.
7. Raxmanov A.E. Milliy-ma'naviy yuksalishda jadid ma'rifatparvarlik g'oyalarining ahamiyati. // "Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi: tarix va zamonaviylik" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2023-yil 29-30-noyabr). – Samarqand, 2023, 84-88-betlar.
8. Raxmanov, A. Sharq renessansi davri gumanizmining gnoseologik va ontologik asoslari. - Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, 2(10), 668-674.

Qabul qilindi: 15.10.2024

Chop etildi: 30.11.2024

UDK:316.42:101.001.89

## FAHRIDDIN AR ROZIY YASHAGAN DAVRDAGI ILMIY-FALSAFIY MUHITNING O'ZIGA XOS JHATLARI

*Sapayev Valisher Odilbek o'g'li, Ma'mun universiteti  
v.b.dotsenti*



[sapayev.vali.2017@gmail.com](mailto:sapayev.vali.2017@gmail.com)

<https://orcid.org/0000-0002-6751-5864>

## ОСОБЕННОСТИ НАУЧНОЙ И ФИЛОСОФСКОЙ СРЕДЫ В ПЕРИОД ФАХРИДИНА АР РОЗИ SPECIFIC ASPECTS OF THE SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL ENVIRONMENT DURING THE PERIOD OF FAHRIDDIN AR ROZI

*Sapayev Valisher, Associate Professor of Ma'mun University*

**Annotatsiya:** Bu maqolada Roziyning ilmiy-falsafiy muhitdagi o'rni va davri falsafiy yo'nalishlari haqida so'z boradi. Shuningdek, Roziy ijodi va qarashlari nafaqat o'z davrida, balki keyingi avlodlarga ham katta ta'sir ko'rsatishi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Faxriddin ar-Roziy, ilmiy-falsafiy muhit, islom falsafasi, kalam, mo'tazila, ismoiliylar, karromiylar, sunniylik e'tiqodi.

**Абстрактный:** В данной статье говорится о месте Рази в научно-философской среде и философских течениях его времени. Также утверждается, что творчество и взгляды Рази оказали большое влияние не только в его время, но и на последующие поколения.

**Ключевые слова:** Фахриддин ар-Рази, научно-философская среда, исламская философия, калам, мутазилизм, исмаилиты, карромисы, суннитская вера.

**Abstract:** This article talks about the place of Razi in the scientific and philosophical environment and the philosophical trends of his time. It is also stated that Razi's work and views had a great influence not only in his time, but also on the next generations.

**Key words:** Fakhriddin ar-Razi, scientific-philosophical environment, Islamic philosophy, kalam, Mu'tazilism, Ismailis, Karromis, Sunni belief.

**Kirish.** Abu Abdullo Muhammad ibn Umar ibn Husayn ibn Hasani Tabaristoni Roziy ramazon oyining 25-kuni 543-yil Ray shahrida tug'ilgan. Manbalarda keltirilishicha, uning ismi Abuabdullo va laqabi Faxriddin. Ba'zi mualliflar uni "Abufazl" va "Abuma'oli" nomlari bilan yodga olganlar va bu ommaviy qo'llanilmagan. U asosan Imom Roziy, Faxriddin Roziy, Ibni Xatibi Ray nomlari bilan mashhur bo'lgan. Otasi Ziyovuddin Ray shahrining xatibi edi. Shuning uchun ba'zan Faxriddin Roziy Ibn Xatibi Ray deb ham tilga olinadi. Otasining naslnasabi birinchi musulmon xalifasi Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga borib taqaladi. Ayrim tarixchilarning yozishicha, Roziy oilasi Ray shahrida istiqomat qilgan bo'lsa-da, aslida ular Tabaristondan kelgan bo'lgan. Bu voqea xuddi Mavlono Jaloliddin

Rumiyni hayotini eslatadi. Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiy Rumi, asli Balx shahridan bo'lib, keyinchalik oila Konya shahriga kelgan bo'lgan. Imom Roziyning vafoti boshidan kechirgan og'ir kasallikdan so'ng 62 yoshida hijriy 606-yili shavvol oyining birinchi dushanbasida Hirot shahrida sodir bo'ldi [1]. Uni Muradxon nomli qishloqda, ba'zi nusxalarda Mazdaxon deyilgan, Masoqib tog'ining yaqinida dafn etishgan. Ba'zi boshqa manbalarda aytilishicha esa uni uyida dafn etishgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Ba'zi tarixchilarning keltirishicha, «Karromiylar» firqasi bilan doimiy bahslari va e'tiqodiy tushunmovchiliklari Faxriddin Roziyni zaharlashi va uning o'limiga sabab bo'lgan. Hijriy 585-yilda Karromiylar tomonidan hujumga

uchragan, uni murtad va “mulhid” [2] deb ayb qo'yishgan, Ammo bu hujumda u jonini sog' saqlab qolgan, oxir-oqibat 606-yilda vafot etgan. Aytishlaricha uni aynan Karromiyalar zaharlab o'ldirishgan. Tarixchilarning aytishicha, Temuriylar davridan oldin Faxriddin Roziyning qabri ustida maqbara bo'lgan, janglar va harbiy to'qnashuvlar sababli, Faxriddin Roziyning maqbarasi vayron bo'lib, keyinchalik qayta ta'mirlangan.

1328-shamsiy yilida Hoji Odamxon va ba'zi yaxshilikni istagan odamlar sa'y-harakatlari bilan Faxriddin Roziyning qabri ustida kichik ayvon qurilib, uning ustiga lavh o'rnatiladi. Zoirshoh hukumatining dastlabki yillarida, milodiy 1320-yilda, Abdulloxon Malikiyori Hirot valisi bo'lgan paytda, Faxriddin Roziyning qabristoni qarshisida katta ayvon quriladi, ammo bu ayvon Sovet Ittifoqi Afg'onistonga bostirib kiringunga qadar saqlanib qoladi. Yaxshi niyatli va obodonchilikka intiluvchi odamlar tashabbusi bilan Faxriddin Roziyning qabri yonida kutubxona quriladi, ammo uzoq vaqt o'tmay, urush va hujumlar natijasida bu bino yana vayron bo'ladi. Sovet va Afg'on kuchlari o'rtasidagi to'qnashuvlar davom etar ekan, Roziyning mozori asta-sekin urush olovida vayron bo'ladi.

So'nggi o'zgarishlardan so'ng, hijriy 1374-yilida Afg'onistonda, Hirotlik tadbirkorlardan biri tomonidan Faxriddin Roziyning mazori qayta obod qilindi. Hozirgi vaqtda Faxriddin Roziyning maqbarasi Hirot shahrida tarixiy binolarning yiriklaridan biri hisoblanadi va u umumiy ziyoratgohga aylangan.

**Tahlil va natijalar.** Faxriddin Roziy o'z davrining fan va ilmlari bo'yicha eng mashhur va nufuzli olimlardan biri edi. U o'z davrining mutakallim, faylasuf, mufassir, faqih va hakimlaridan edi. Usuli din-da Imom Ash'ariyga, mazhablardan esa Imom Shofeyyga ergashgan. Dastlabki ta'limni otasi Ray xatibi Ziyouddin Umardan olgan. Otasining vafotigacha uning yonida sarf, nahv, fiqh, hadis va tafsir ilmlarini o'rganadi. Keyin Sijistonga borib, biroq vaqt Kamoli Simmoniy yonida dars oladi.

Murtazo Mutahhari o'zining “Islom va Eronning o'zaro xizmatlari” kitobida Islom davrifalyasufklarini o'rganib, ularni toifalarga ajratgan. Uning o'zi aytganidek: “Islomda falsafa yo'nalishini faylashuflar toifalarini vaqt jihatidan tanimasdan o'rganish mumkin emas. Masalan M. Mutahhari o'z tasnifida Islom davri faylasufklarini 33 toifaga ajratgan va Majdiddin Chelini o'ninchi

toifadan joy olgan. Bu haqda shunday yozadi: “Bu odam haqida ko'p ma'lumotimiz yo'q, faqat shuni bilamizki, u Marog'a [3]da dars bergan va Roziy uning oldida tahsil olgan... Ko'rinib turibdiki, u ham hakim, ham mutakallim, ham faqih bo'lgan” [4].

Shayx Shahobiddin Suhrawardiy, mashhur Shayx Ishroq nomi bilan tanilgan, o'z davrining eng mashhur hukamolaridan biri bo'lib, taxminan 549-hijriy yilda Zanjonga qarashli Suhravard nomli joyda tug'ilgan. Dastlabki ta'limotlarini Marog'ada, Majdiddin Cheliy huzurida olgan, keyin boshqa joylarga, jumladan Isfahonga borib, Zahiruddin Forsi (Qori) huzurida o'zining navbatdagi ta'limini olgan. U "Ishroq maktabi" nomli maktab tashkil etgan va ko'plab masalalarda ushbu maktab yo'lini mashshoi maktabidan ajratgan. Halab shahrida, Salohiddin Ayyubiyning o'g'li, otasi tomonidan ushbu hudud hokimiyatini zimmasiga olgan Almalik Azzohir tomonidan hurmat qilingan.

"Shayx Shahobiddin Suhrawardiyning shuhrati shunday darajaga yetdiki, natijada Shayx Shahobiddin Suhrawardiy qamalib, nihoyat 586-587 hijriy yilda, taxminan 37 yoshida o'ldiriladi. Uni o'ldirilish sabablari va voqealari turlicha hikoya qilinadi. Shayx Ishroq Suhrawardiy qisqa umrida ko'plab asarlar yaratgan, ular orasida fors va arab tillarida yozilganlari bor. Jumladan, "Hikmat-ul-Ishroq", "Al-mutaharot", "At-talvihot", "Hayokin-nur", "Partavnom", "Lug'ati muron", "Aqli surx", "Ovozi pari Jabroil", "Safiri simurgh", "Buston-ul-qulub", "Sanduq-ul-amal" va boshqalar. “Osor-ul-bilod va axbor-ul-ibod” asarining muallifi Shayx Shahobiddin Suhrawardiy haqida shunday deydi: “Abulfutuh Muhammad, Yahyo o'g'li, Shayhobuddin taxallusi bilan tanilgan, tug'ilgan joyi Suhravarddir. Shayx Shahobuddin Suhrawardiy ulug' mashoyix va kashf hamda karomat egalaridan edi. Uning mo'jizakor ishlarini ko'rishgan, qimmatli so'zlarini eshitishgan. U chin zohid edi. Faqat Xudoni izlar va butunlay dunyodan voz kechgan. Shayx Shahobuddin Suhrawardiy Imom Faxriddin Roziyning zamondoshi bo'lib, ular orasida bahs va tortishuvlar bo'lgan. Aytishlaricha, bir kuni Shayx Shahobuddin do'stlari bilan hovuz yonida o'tirib, payg'ambarlarning mo'jizalari haqida suhbatlashgan. "Biri dedi: Muso (a.s)ning daryoni ikki qismga bo'lishi, boshqa har qanday mo'jizadan ajablanarliroqdir. Shahobiddin javob berdi: bu ish, boshqa payg'ambarlarning mo'jizalariga nisbatan eng oson mo'jiza hisoblanadi. Qo'l ishorasi bilan



hovuz suvi ikki qismga bo'lindi, hamrohlarining ostini quruq ko'rdilar. Aytishlaricha, bu voqeadan bir oz o'tgach, Shayx Shahobuddin Suhravardiy Halab shahridagi zindonda qamalgan" [5].

Faxriddin Roziy Majdiddin Cheliy huzurida asosan kalom va hikmat ilmlarini o'rgangan va Juvayniyning aytishicha kalom ilmi bo'yicha yozilgan "Ash-Shomil" kitobini yod olgan. Ta'limni tugatgach Xurosonga borib, Abu Ali ibn Sinoning kitoblarini o'rganishga kirishgan. Faxriddin Roziyning ilmiy silsilasi o'n ustozlari orqali Imom Shofe'iyga borib taqaladi. Silsilaning birinchi qatorida Faxriddin Roziyning otasi Ziyuddin Umar joy olgan va u Abu Muhammad Husayndan, u esa Qozi Husayni Marvaziydan, u esa Qaffoli Marvaziydan, u esa Abu Zaydi Marvaziydan, u esa Abu Ishaq Marvaziydan, u esa Abulabbos Shurayhdan, u esa Abulqosim Anmotiydan va u esa Ibrohim Muzaniydan ilm olgan. Ibrohim Muzaniy Imom Shofe'iyning shogirdlaridan biri hisoblanadi. Faxriddin Roziy ko'plab shogirdlarni ta'lim va tarbiya qilgan, ulardan eng mashhurlari Shamsuddin Xusravshohiy, Qutbuddin Misriy, Shamsuddin Xuyiy, Shahobuddin Nishopuriy, Zaynuddin Keshiy va boshqalar hisoblanadi.

Imom Faxriddin Roziy Xuroson safaridan keyin Movarounnahr tomon yo'l oladi va Sulton G'iyosuddin Muhammad ibn Somi G'uriy va uning akasi Shahobuddin huzurida maxsus maqom topadi. Biroq bu holat uzoq davom etmaydi, chunki "Karromiyalar" unga turli bahona va e'tirozlarni bildirib, azob-uqubat, haqorat va nihoyat uning qotilligiga sabab bo'lishadi. Jumladan, Karromiya firqasining Faxriddin Roziyga nisbatan azob va haqoratlari uning nutq so'zlagan paytda unga yomonlik va haqoratlar to'la xatlar yuborishdan iborat bo'lgan. Bunday ish takrorlanganida, Faxriddin minbarda bir maktub o'qib, unga quyidagicha javob beradi: "Bu maktubda o'g'lim, xotinim va qulimni yomon ishlarga aloqador qilib ko'rsatishgan. Faraz qilaylik, agar bu da'volar to'g'ri bo'lsa, demak o'g'lim yosh va yoshlik bu – aqliy ravon bo'lmaslikning bir qismidir, umid qilamanki, u yomon ishdan qaytib, tavba qiladi. Ammo ayollar va qullar haqida kamroq gapirish kerak, chunki Xudo ularni har qanday yomon ishdan saqlaydi.

Aslida, Karromiyalarning Faxriddin Roziyga bo'lgan bunday munosabati bejiz emas, chunki

Faxriddin Roziy tasbeh va tajsimga oid masalalarda Karromiyalar bilan bahsga kirishib, ularni tanqid va malomat qilgan. Umuman, ma'lum bo'lishicha, Imom Roziy haqiqiy din va to'g'ri aqidani himoya qilish va qo'llab-quvvatlash uchun mu'tazila va boshqa noto'g'ri firqalar bilan ko'p bahslar va munozaralarga kirishgan. Aytishicha, Faxriddin Roziy dastlab Ismoilিয়া firqasi bilan yaxshi munosabatda bo'lmagan va ular haqida gap ketganda g'azablanib, ularga la'nat aytgan. Keyinroq Faxriddin Roziy bu harakatidan voz kechib, ular haqida hech nima demay qo'ygan. Bazi bir kishilar o'rtalarida o'zaro tushunish va do'stlik o'rnatilgan deb o'ylashgan, ammo vaqt o'tishi bilan ma'lum bo'lganki, Ismoilিয়া firqasining bir a'zosi o'zini Faxriddin Roziyning shogirdlari orasiga qo'shib, bir muncha vaqt uning darslarini tinglagan. Bir kuni Faxriddin Roziy yolg'iz joyda topib, uning bo'yniga xanjar qo'yadi va aytadi: "Agar yana biz haqimizda yomon gapirsang, bu xanjar bo'yingga tushadi". Shundan keyin Imom Faxriddin Roziy ular haqida gapirishdan voz kechadi va atrofda gilar sababini so'raganda, Imom Roziy shirin tabassum bilan aytadi: "Men ularning qat'iy va yengilmas dalilini o'z ko'zim bilan ko'rdim.

**Xulosa.** Islom madaniyatining oltin davrining mashhur olimi, faylasuf va teolog olim Faxriddin ar-Roziy davrining faylasuflari orasida o'z orniga ega bo'lgan. Uning zamondoshlari kuchli olim, bahslarni sevuvchi faylasuf deb bilishgan. Uning asarlari o'z davrining turli firqalariga raddiyalar bilan to'lib-toshgan bir faylasuf olimi bo'lgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Genri Tomas. Faylasuflar. Fariduni Badra tarjimai. - Tehron, 1386 sh.
2. Муртазо Мутаххарӣ. Хадамоти мутақобили ислом ва Эрон. Ройзани фарҳангии сафорати Ҷ И Эрон дар Тоҷикистон. – Душанбе, 2007.
3. Алиасғари Ҳалабий. Ислом давридан то ҳозирги кунгача Эрон фалсафаси тарихи. – Техрон, 1973.
4. Амирсодиқи Табрезий (таржимон). Аҳли суннат ақоидининг шарҳи. – Санандаж: Курдистон нашриёти, 1380 ҳ.ш. (2001 м.).
5. Али Иброҳим Мансур. Тафсир усуллари ва муфассирлар методлари. – Душанбе, 2011.



Qabul qilindi: 15.10.2024

Chop etildi: 30.11.2024

UDK:93/94

# THE EVOLUTION AND IMPACT OF CURRENCY IN THE SHAYBANID KHANATE'S ECONOMIC STRUCTURE

*Sirojov Bahodir Nishon ugli*

*First-Year PhD Student in the History of Uzbekistan*

*Faculty of History, National University of Uzbekistan (NUUz)*

## ЭВОЛЮЦИЯ И ВЛИЯНИЕ ВАЛЮТЫ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЕ ШЕЙБАНИДСКОГО ХАНСТВА

*Сирожов Баходир Нишонович*

*Аспирант первого курса по истории Узбекистана*

*Исторический факультет, Национальный университет*

## SHAYBONIYLAR XONLIGI IQTISODIY

## TUZUMIDA TANGA-PULNING RIVOJLANISHI VA TA'SIRI

*Sirojov Bahodir Nishon o'g'li*

*O'zbekiston tarixi 1-kurs tayanch doktoranti*

*Tarix fakulteti, O'zbekiston Milliy universiteti (O'zMU)*

**Abstract:** *Research Objectives: This study aims to analyze the role of the tenge currency in the economic structure of the Shaybani Khanate from the 16th century, focusing on its minting, value fluctuations, and its broader implications on trade and governance.*

**Key words:** *Shaybanid Khanate, Tenge currency, Monetary policy, Economic structure, Coin minting, Silver tenge, Inflation, Trade routes.*

**Аннотация:** *Данное исследование направлено на анализ роли валюты тенге в экономической структуре Шейбанидского ханства XVI века с акцентом на её чеканку, колебания стоимости и более широкие последствия для торговли и управления.*

**Ключевые слова:** *Шейбанидское ханство, валюта тенге, денежная политика, экономическая структура, чеканка монет, серебряное тенге, инфляция, торговые пути.*

**Annotatsiya:** *Ushbu tadqiqot XVI asr Shayboniylar xonligining iqtisodiy hayotida tenge nomli pulning rolini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning zarb etilishi, qiymat o'zgarishlari va savdo hamda boshqaruvga kengroq ta'sirini o'rganadi.*

**Kalit so'zlar:** *Shayboniylar xonligi, tenge puli, pul siyosati, iqtisodiy tuzilma, tanga zarbi, kumush tanga, inflyatsiya, savdo yo'llari.*

**Introduction.** The article *The Evolution and Impact of Currency in the Shaybanid Khanate's Economic Structure* explores the pivotal role of the tenge currency in shaping the economic and political landscape of the Shaybanid Khanate during the 16th century. It examines the processes of minting and regulating the tenge, its fluctuating value, and the impact of monetary policies on trade, governance, and societal stability. Additionally, the study delves

into how external forces like the Timurids, Safavids, and Russia influenced the Khanate's economic system, revealing both the strengths and vulnerabilities of its monetary framework. This analysis sheds light on the interconnectedness of currency, power, and economic resilience in the context of early modern Central Asia.

**Research Materials:** The research mainly uses a wide range of historical and modern works,



[sirojovbahodir@gmail.com](mailto:sirojovbahodir@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0005-8762-1436>

+99899 871 09 96

including: Primary Historical Texts: Zayniddin Mahmud Vosefi, *Badoye'ul Vaqoye'* (translated by Naim Norqulov), 1979. Davidovich, "Monetary Policy" (P. 431-443, 433). İsmail Safa Üstün, *The Shaybani Khanate (1500-1599)*, 2015. Kutgan, *Musahharü'l-Bilâd* (P. 154-155). B.J. Eshov and A.A. Odilov, *History of Uzbekistan, Volume II*, 2024. Secondary Studies: Davlathoja Davudi, *Monetary Circulation of Ancient and Medieval Hatlon (5th Century BC - Early 20th Century AD)*, 2006. Burton, *The Bukharans, and Togan, The Contemporary Turkish World. Observations from Vasifi, a resident of Samarkand in 1512-1513*

*Results and Novelty:* Economic Challenges: The Shaybanid rulers regularly modified the weight and value of the tenge, reflecting both local inflation and regional instability. External conflicts and internal divisions led to differing monetary policies across regions, exacerbating economic disparities.

Currency Evolution: Coins minted under rulers like Shaybani Khan and Abdullah Khan reveal shifts in their weight, value, and symbolic elements. Abdullah Khan's reforms standardized minting practices but failed to address the fundamental instability.

External Influences: Interactions with Timurids, Safavids, and Russia significantly influenced monetary policy. For example, Russian silver was imported for minting during economic crises.

Impacts on Society: Fluctuating currency values disrupted trade, widened wealth disparities, and eroded public trust in the economic system. Urban centers such as Samarkand experienced economic decline due to unreliable monetary policies, leading to reduced endowment revenues and abandonment of trade routes

The currency in circulation in the Shaybani Khanate was the tenge. This coin is also known as Khani or Tengi concepts. In the 16th century, the tenga was used as an economic tool. We can say that it was minted from silver metal by the Shaybanids. Even before the Uzbeks set foot in Maverannehir, their ancestors ruled In the Dasht-i Kipchak region, the Golden Horde Khanate used this currency in its economic structure. It was also circulated by the Timurids, the previous rulers of Maverannehir, in the form of tenge or tenke. Also during this period, the Safavids kept this currency in force as gold, silver and copper coins.

Moreover, in India, Mahmud of Ghazni, during his conquests, exchanged Arab dirhams for coins and called them tenke. As far as we understand, the tenge has a historical background. Following the enthronement of the Shaybanid khans, as a requirement of the khanate signs were minted in their names. The silver coin minted in the name of Shaybani Khan dated 910 (1504) in the city of Merv is a striking example of this. Description of silver coin of Muhammad Shaybani Khan. The Obverse - in the center, a circle with the symbol of the Muslim religion. Around it, in compartments, are the names and honorable titles of the first four caliphs. A linear border. The Reverse - in the center, a four-lobed cartouche with the inscription 'zarbi sarmard' or 'shirmard.' Around it are the name, titles of the khan, and blessings for him – 'Abu al-Fath Muhammad... (ad) al-Imam al-Zaman Khalif ar-Rahman Muhammad al-Shaybani Khan, may Allah preserve his glory and...' Silver, weight – 5.17g, diameter – 25-30 mm;[1] After Shaybani Khan, Timur Sultan, Abu Said Khan, Ubaydullah Khan, Pir Muhammad Khan, Iskender Khan, Abdullah Khan and Abdulmumin Khan also had coins minted in their names.[2] It is clear that these coins, which were issued as a sign of khanate, were used by the khans to organize the economic structure from the very beginning of their rule, It has been used as an important tool in consolidating and sustaining it. As we begin to explain the currency of the Shaybanid Khanate, the sources of this subject Among them; court records on the economic life of the period, waqfnamas, foundations or ambassadors. There are also modern scholars who have produced important studies on this subject. One of them, Davidovich, makes very important observations on the printing of the tenga, its rate and type, as well as the general arrangements that the Shaybanid khans made in the Shaybanid economic life.[3]

In this context, Davidovich argues that as a result of Shaybani Khan's conquests, the region's economic. The first thing that his structure has to do with this issue is the question of the ratio of the silver tenge and the gold dinar.[4] 1 Timurid silver coin of 1 miskal (4.8 g), In May 913 (1507), with the intervention of Shaybani Khan, it was reduced to an average weight of 5.1-5.2 gr. In another comparison, Timurid tenges were raised to 6 kebeki dinars. While the new tenges minted in the name of Shaybani Khan weighed 6.5 kebeki (5.2g) was recognized as dinars.

As a result of this change, 1 tenge is normally 18 copper dinars, while in 1506 this rate would be doubled to 36 copper dinars. This makes the system extremely expensive, given that retail sales of food and consumer goods operate on the basis of the dinar rate will have an impact. This change in monetary regulation by Shaybani Khan after Herat, in 914 (1508-9) the standard weight in all the cities of the Maweraunnehir as a means of economic regulation.[5] In addition, Shaybani Khan organized the economic structure. He also ordered that the previous tenges be added to the new dirhams and dinars. Another change of Shaybani Khan was the minting of the gold coin called ashrafi proportion of the Shah's power. For two years after the death of Shaybani Khan (916-18/1510-1512), Shah The occupation of the lands of Maweraunnehir by Ismail and Babur, the Shaybanid Khanate in every aspect. However, in 918 (1512), the victory over Babur as a result of the victory and the convened kurultay, Kuchkuncu Khan (1510-1530), the economic situation began to normalize. In this respect, first of all standard weight of money raised again, e.g. 932 (1525-6) and 934 (1527-8) 1 tenge was printed in 4.8 g. In this way, one of the causes of inflation and loss of confidence in the monetary system was tried to be eliminated. Apparently, these changes in the printing of money during the reign of Köchkuncu Khan could not ensure the realization of economic balance and development at the desired rate.

One consequence of the shock was that the prices of commodities and food rose. Vasifi, who resided in Samarkand in the years 1512-13, describes this rise and made important points in this regard.[6] This economic crisis led to the demonetization of the coins minted during the reign of Shaybani Khan. Out of circulation, making it necessary to bring the standard weight closer to the old rate brought. In 1512, the weight of the tenga decreased from 5.2 to 3.2 or even 2.8 This sudden reduction of the standard weight of the currency led to a rise in prices. According to Davidovich, this meant that different denominations of local and non-local coins were put into circulation. This situation was exacerbated by the fact that the sultans pursued different monetary policies in their respective regions when the 1512 kurultay established the regional division of territory and administration in accordance with the Uzbek conception of sovereignty. The sultans of Tashkent, who were in a constant struggle against Abdullah

Khan, would represent the most typical example of this difference, stamping their own names on the coins of the years 980 (1572-3) and 981 (1573-4) issued in Tashkent. As can be seen from our explanations so far, Shaybani Khan, Kochkunchu weight of tenga minted during the reigns of Khan and Ubeydullah Khan (1507-40)

The average corresponds to 4.7 g. Under subsequent rulers Abdullatif (1540-51), Nawruz Ahmad (1551-6) and Pir Muhammad Khan (1556-60), this weight dropped to 4.65 g (1540-60), and under Iskender Khan and Abdullah Khan (1560-98), it dropped further to between 4.55 and 4.6. As we mentioned in the previous lines, the Shaybanid sultans had their own territories. The khanate's different monetary policies were the main reason for the khanate's economic difficulties of the most prominent reasons. Especially after the death of Ubaidullah Khan This difference between the sultans was largely eliminated during the reign of Abdullah Khan. As it will be remembered, Abdullah Khan declared himself khan of khans in 991 (1583) after establishing political rule in cities such as Bukhara (1557), Balkh (1573), Samarkand (1558) and Tashkent (1582).[7] This unity made it inevitable to settle other economic issues, especially the issue of minting money between these cities. In this context, Abdullah Khan, as soon as he proclaimed his khanate, printed money step by step,[8] one of the signs of his sovereignty, and printed the tenga with a weight of 4.5 grams. During his 16 years of rule, this weight changed by 0.3 or 0.05 g every 5 years. In addition to the gram changes in the weight of the money, Davidovich notes that the weight of silver, copper and gold, whether it is new or old that these issues were also subject to frequent changes during the aforementioned periods. In addition to these changes, the silver tenga was valued at a lower value. A regulation has been put into effect that it will not be changed. When we look at Abdullah Khan's monetary policy, we see that four points we would suggest that we should not lose sight of this. First, It is about 1 new tenga. It was raised to the rate of the Shaybani Khan period, equivalent to 30 copper dinars. The second is the increase of 1 tenga to 960 sterling silver. Third, the minting of the tengain As we mentioned above, the place of minting of the tenges was previously Kabul, but in this period, this place of minting was shifted to various cities such as Bukhara, Samarkand, Herat and Mashhad as the



cities under their control increased. During the reign of Abdullah Khan, the minting of coins in different cities and not allowing their movement between cities became one of the existing economic problems. The fourth is the minting of coins in gold (asrefi). These coins were minted in Mashhad, Herat and Bedakhshan in 995 (1586-7) and 1005 (1596-7).

From all these practices that we encountered during the reign of Abdullah Khan We are convinced that there was a constant change in its value. This is evidenced by Jenkinson's account of his time in Bukhara. He reports that the rate of silver was raised or lowered almost every month. According to him, Abdullah Khan could not deal with this situation properly in the first years of his rule. We can say that this lack of interest was caused by Abdullah Khan's campaigns, especially against the members of the dynasty. Abdullah Khan raised a new issue related to administrative arrangements reduced the proportion of metal in the minting of coins to 10% and put them on the market.[9] In addition collecting old coins that are current in the society and replacing them with new coins with low weight/value The introduction of the market is another regulation. However, these regulations do not allow society to move forward. This led to the further enrichment of the wealthy and damage to the merchants. Again, this situation caused merchants to reduce their commercial activities and to not hold on to money because of the uncertainty of whether the value of money would rise or fall. Abdullah Khan had not yet begun to print money during his father's reign.

One of the changes he introduced during his reign was the use of gold coins, known as ashrafi, for awards and gifts, as well as for certain payments. Abdullah Khan also fixed the weight of these coins. He strictly followed his decision by imposing fines on those who did not comply with these rules. He also reduced the minting of money in order to encourage trade, standardized the value of the tenga, and uniformized the silver coin in order to reduce its constant devaluation. Incidentally, we may mention here Abdullah Khan's reform of the economic structure in the city of Balkh. Following his military campaign against Balkh, Abdullah Khan not only restored the city's destroyed political and administrative order, but also its economic order. In this regard, he revitalized the bazaar, which was the center of the city's shopping, on the basis of justice, accelerated the circulation of money, reorganized the

purchase and sale issues, and thus attempted to regain people's trust. Abdullah Khan gave 20,000 tenga as a gift to Nazari, one of his emirs who provided him with a great deal of support during the Balkh campaign, and also promised him the governorship of Herat.

He also donated 10,000 tenga to the Agha of Nazar Chekhre. In order to ensure economic order, Abdullah Khan provided material and moral aid to many places outside the city of Balkh. For example, in 1579, he gave 100,000 tenga to Urus Mirza, a Mangit-Nogai mirza living in Bashkortostan. The last time Abdullah Khan sent silver envelopes to the palace in this regard was in 1589. for silver from Moscow in order to have it made. Abdullah Khan asked for silver and 1000 rubles. The main reason for this situation was the great money crisis in the Shaybani Khanate in 1586. According to Togan, this money, which was demanded from Moscow under the pretext of palace ornaments, was a kind of foreign borrowing in the modern sense. Our contemplation arising from this borrowing is that, on the one hand, the manifestation of the distress in the economic structure of the Shaybani Khanate, and on the other hand, the situation of demanding money from the Russian tsar with an increased limit starting from the XVIth century should be read as the first steps of a process that would result in the Russian invasion of the Shaybani Khanate and other khanates around it in the following centuries. As a result of these explanations; all these proportional changes in the grammage of money are evidence of the crisis of the currency in particular and the crisis of the Shaybani economic structure in general throughout the century. In this regard, the waqf documents of Samarkand, Bukhara, and Balkh from the Shaybanid period show us the cycles of the local currency crisis and the changes in land value. For example, in the first half of the 16th century, in regions such as Balkh, where agriculture was allocated more for export than for local needs, land and real estate revenues gradually declined, cities that were centers of trade became empty, large ribats on trade caravan routes were abandoned, real estate in such places was mostly unsaleable, and some madrasas (Bukhara and Samarkand), whose endowments consisted of shops in the cities, saw their revenues gradually decline.[10]

**In conclusion,** The Shaybanid Khanate's economy heavily relied on the tenga currency, which



played a significant role in its political and economic life. It seems coinage wasn't just about facilitating trade-it was also a way for rulers to showcase their power and legitimacy. Starting with Shaybani Khan, coins were carefully designed to include Islamic motifs, genealogical references, and blessings for the rulers. This wasn't random; it reflected their claim to spiritual and political authority. Later rulers followed this practice, using coinage not only to navigate economic challenges but also to consolidate their hold on power. But the monetary system had its flaws. Internal divisions and external pressures constantly challenged its stability. For example, splitting territories among various Shaybanid sultans led to inconsistent monetary policies. This created chaos, as each region minted its own coins, resulting in disparities in currency value-especially during times of political unrest. One of the main issues highlighted in the article is how shifting currency standards-like changes in the weight and value of the tenge-undermined economic stability. Shaybani Khan tried to stabilize things by altering the silver-to-gold ratio and introducing new coins. While these reforms might have seemed promising at first, they often backfired, causing inflation and eroding public trust in the currency. The situation didn't improve much under Kuchkunchi Khan, who introduced weight standardization and demonetization. Unfortunately, these efforts also failed to restore confidence.

Things looked a little better during Abdullah Khan's rule. He made notable attempts to fix the system, like standardizing the tenge and centralizing minting practices. For elite transactions, gold ashrafis were introduced, while lower-value coins were minted less often. These reforms aimed to encourage trade and stabilize the economy. However, ongoing fluctuations in silver and copper values, coupled with the stubborn independence of local rulers, kept undermining progress. External powers like the Timurids, Safavids, and the growing Russian Tsardom also influenced the Khanate's monetary policies. For instance, during tough times, the Khanate had to rely on Russian silver imports to keep its system running. This reliance not only highlighted the fragility of their economy but also hinted at the creeping influence of Russia in Central Asia. The economic fallout from these challenges was severe. Trade routes connecting major cities like

Samarkand, Bukhara, and Balkh started to wither. Merchants faced too much uncertainty to continue their activities, land values dropped, and even waqfs-religious endowments-suffered financially. The abandonment of caravanserais and marketplaces became a clear sign of a deeper economic crisis. The Shaybanid Khanate's monetary policies show how currency was more than just money; it was also a tool for power. Leaders like Shaybani Khan and Abdullah Khan tried to use coinage to strengthen their authority and regulate the economy. But internal divisions and external pressures often got in the way. In the end, the instability of the monetary system didn't just hurt the economy-it contributed to the Khanate's political decline. This history really shows how crucial monetary stability is for maintaining power and fostering prosperity in any state. It's a lesson that still resonates today.

#### REFERENCES:

1. Davlathoja Davudi, "Monetary Circulation of Ancient and Medieval Hatlon (5th Century BC - Early 20th Century AD)". – Dushanbe, 2006. P. 319. (In Russian)
2. İsmail Safa Üstün, "The Shaybani Khanate (1500-1599)". – Istanbul, 2015. P. 303. (In Turkish)
3. Davidovich, "Monetary Policy," P. 431-443. (In Russian)
4. Davidovich, "Monetary Policy," P. 433. (In Russian)
5. İsmail Safa Üstün, "The Shaybani Khanate (1500-1599)". – Istanbul, 2015. P. 304. (In Turkish)
6. Zayniddin Mahmud Vosefi, "Badoye'ul Vaqoye' (Rare Events)", translated from Persian by Naim Norqulov. – Tashkent: Gafur Ghulom Literature and Art Publishing House, 1979. P. 27-30. (In Uzbek)
7. Kutgan, "Musahharü'l-Bilâd". P. 154-155. (In Turkish)
8. B.J. Eshov, A.A. Odilov, "History of Uzbekistan, Volume II (From the Mid-14th Century to the Second Half of the 19th Century)". – Tashkent: "NIF MSH," 2024. P. 157. (In Uzbek)
9. Burton, "The Bukharans". P. 415. (In Turkish)
10. Togan, "The Contemporary Turkish World". P. 120. (In Turkish)

Qabul qilindi: 15.10.2024

Chop etildi: 30.11.2024

UDK:93/94

MARKAZIY OSIYO VA KO'RFAZ  
MAMLAKATLARI DOIRASIDA O'ZBEKISTON  
VA SAUDIYA ARABISTONI  
MUNOSABATLARINING TARIXI,  
RIVOJLANISH DINAMIKASI VA  
ISTIQBOLLARI

*Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o'g'li, O'zRFA Abu Rayhon  
Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti*

HISTORY, DEVELOPMENT DYNAMICS AND  
PROSPECTS OF RELATIONS BETWEEN  
UZBEKISTAN AND SAUDI ARABIA WITHIN  
THE FRAMEWORK OF CENTRAL ASIA AND  
THE GULF COUNTRIES

*Kamoliddinov Farrukh Burkhoniddin ugli, a doctoral student at  
the Al-Biruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy  
of Sciences*

ИСТОРИЯ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ ОТНОШЕНИЙ  
УЗБЕКИСТАНА И САУДОВСКОЙ АРАВИИ В  
РАМКАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И СТРАН  
ПЕРСИДСКОГО ЗАЛИВА

*Камолитдинов Фаррух, докторант Института  
востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук  
Республики Узбекистан*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining bugungi kunda xalqaro maydonda olib borayotgan iqtisodiy hamkorlik aloqalari uning strategik joylashuvi, tabiiy resurslar boyligi va dunyoning iqtisodiy markazlaridan biri bo'lgan Arab davlatlari orasida yetakchilaridan biri hisoblangan Saudiya Arabiston Podshohligi bilan rivojlanayotgan munosabatlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Saudiya Arabistoni Podshohligi, Fors ko'rfazi, Markaziy Osiyo, president, aloqalar, savdo, iqtisodiy, siyosiy, investitsiya.

**Abstract:** This article analyzes the economic cooperation relations of the Republic of Uzbekistan in the international arena today with its strategic location, wealth of natural resources, and developing relations with the Kingdom of Saudi Arabia, which is one of the leaders among the Arab countries, which is one of the economic centers of the world.

**Key words:** Uzbekistan, Kingdom of Saudi Arabia, Persian Gulf, Central Asia, president, relations, trade, economic, political, investment.

**Аннотация:** В данной статье анализируются отношения экономического сотрудничества Республики Узбекистан на международной арене сегодня с ее стратегическим расположением, богатством природных ресурсов, а также развивающимися отношениями с Королевством Саудовская Аравия, которое является одним из лидеров среди арабских стран, которое является один из экономических центров мира.



<https://orcid.org/0009-0007-8423-7193>

e-mail:  
kamoliddinov9494@gmail.com

*Ключевые слова:* *Узбекистан, Королевство Саудовская Аравия, Персидский залив, Центральная Азия, президент, отношения, торговля, экономика, политика, инвестиции.*

**KIRISH.** Dastlabki diplomatik aloqalar oʻrnatilishi Saudiya Arabistoni Podshohlighi va Oʻzbekiston Respublikasi oʻrtasidagi munosabatlar boshlanishi bevosita 1991-yilga borib taqaladi. Xususan, 1991-yil 30-dekabrda Saudiya Arabistoni Podshohi mustaqil Oʻzbekiston suvernitetini tan oldi. Diplomatik vakolatxonalar almashinuvi toʻgʻrisidagi bitim respublikamiz mustaqilligining ikkinchi yilida yaʼni 1992-yil aprel oyida Oʻzbekiston respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning Saudiya Arabistoniga rasmiy tashrifi chogʻida Saudiya Arabistoni Podshohi Fahd bin Abdulaziz bilan imzolandi[3]. Ikki mamlakatning diplomatik vakolatxonalari ochilishi bu tarxiy munosabatlar boshlanishining mantiqiy davomi sifatida 1992-yil noyabrda Jidda shahrida Oʻzbekiston Respublikasi konsulxonasi, 1995-yil may oyida Ar-Riyodda elchixonasi, 1997-yil 27-martda Toshkentda Saudiya Arabistoni elchixonasi ochilishi boʻldi.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR**

**TAHLILI.** Mazkur munosabatlarni yoritish boʻyicha adabiyotlarni quyidagicha tahlil qilish mumkin. Oʻzbekistonlik tarixchi, siyosatchi va iqtisodchilari tomonidan tahlil qilingan Z.Munavvarov, Sh.Yovqochev, S.Gʻafurov, tadqiqotlarida Fors koʻrfazi arab davlatlarining xalqaro va mintaqaviy jarayonlarda olib borayotgan siyosatini tahlil qilish orqali Markaziy Osiyo xususan Oʻzbekiston bilan ham oʻrnatilgan munosabatlarning tahliliga ham eʼtibor qaratilgan. Jumladan, Z.Munavvarovning asarida[6] Saudiya Arabistonning XX asrda global va mintaqaviy munosabatlarda Xususan Markaziy Osiyo respublikalari bilan oʻrnatilgan hamkorlik aloqalarining rivojlanish yoʻnalishlari va muammolari hamda gʻoyaviy qarashlardagi farqlari tahlil qilingan.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Mazkur maqolada keltirilgan muammoni yoritishda metodologik jihatdan Oʻzbekistonlik olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar hamda Oʻzbekiston va arab davlatlarining rasmiy saytlarida eʼlon qilingan materiallari tizimli ravishda kontent tahlil asosida oʻrganildi. Bunga qoʻshimcha ravishda maqolada fanlararo yondashuv usulidan ham keng foydalanildi hamda ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlar xronologik usulda ham tahlil qilindi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Oʻzbekiston va Saudiya Arabiston Podshohlighi oʻrtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil oʻrnatilganidan soʻng, dastlabki aloqalar oʻrnatilishi uchun asosiy omil diniy omil sifatida eʼtirof etilgan[1]. Shu nuqtayi nazardan ham ikki mamlakatlar oʻrtasida dastlab haj va madaniy aloqalar rivojlana boshladi. Xususan, mustaqillikning dastlabki yilidan 1997-yilgacha respublikamizning 45 mingdan ortiq fuqarosi haj, 35 mingdan ziyod fuqarosi umra safarlarida boʻldilar[2]. Bundan tashqari Saudiya islomiy tashkilotlari va Islom taraqqiyot banki orqali Oʻzbekistonda bir qator ijtimoiy loyihalar qoʻllab-quvvatlandi.

Ikki mamlakat oʻrtasida 2000 – yillardan boshlab madaniy sohadan tashqari iqtisodiy sohada ham aloqalar rivojlana boshladi. Bunga ikki mamlakat oʻrtasida Oʻzbekiston Respublikasi va Saudiya Arabistoni qirolligi oʻrtasida savdo, iqtisodiyot, investitsiyalar, fan va texnika, madaniyat, sport va yoshlar ishlari sohasida hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim asos boʻldi[8]. Yuqoridagi bitimni bajarilishi ustidan nazorat qilish maqsadida qoʻshma komissiya ham oʻz faoliyatini boshladi. Dastlab Saudiya Arabistoni neft-kimyo, qishloq xoʻjaligi va energetika sohalarida Oʻzbekiston bilan hamkorlik qilishga qiziqish bildirdi. 2002-yilda Oʻzbekiston — Saudiya Arabistoni oʻrtasidagi tovar aylanmasi 3,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi[4]. Oʻzbekistonning Saudiya Arabistoniga eksporti, asosan, savdo va unga aloqador xizmatlardan iborat. Ayni paytda, Saudiya Arabistonidan shirinliklar, don, gilam va polni qoplaydigan mahsulotlar, oʻsimlik va mol yogʻi, mebel va choyshablar, spirtsiz ichimliklar, optika jihozlari, poyabzal, boʻyoqlar, oʻyinchoq va sport anjomlari olinadi[2].

Oʻzbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlari 2010-yillarda asosan Strategik hamkorlikning mustahkamlanishi mazmunini kasb etdi. Buning amaldagi harakatlari asoslaridan biri sifatida 2011-yil 25-aprelda imzolangan Eron Islom Respublikasi, Ummon Sultonligi, Turkmaniston va Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatlari oʻrtasidagi xalqaro transport va tranzit yoʻlagini yaratish toʻgʻrisidagi Bitimni (Ashxobod Bitimi) koʻrstishimiz mumkin. Bu bitimga koʻra bitim



imzolagan Markaziy Osiyo respublikalari uchun transport koridori orqali Fors ko'rfaziga chiqish imkoniyati yaratiladi. Bu Saudiya Arabistonining Fors ko'rfazi orqali Markaziy Osiyoga kirib kelishiga imkon yaratdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saudning taklifiga binoan 2017-yil 20-21-may kunlari Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan Arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammitidagi ishtiroki, ikki tomonlama hamkorlik tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Davlatimiz rahbarining mazkur tashrif doirasidagi uchrashuvlarida ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari kelishib energetika, infratuzilma va sog'liqni saqlash sohalarida qator kelishuvlar imzolandi. Yuqorida berilgan ikki yirik kelishuvlar O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning rivojini ko'rsatib berdi.

Saudiya Arabistonining 2017–2021-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga kiritgan sarmoyalari sezilarli darajada oshdi va ikki tomonlama munosabatlarning butun tarixidagi ko'rsatkichlaridan oshib ketdi. Oxirgi besh yil ichida tovar aylanmasi sezilarli darajada oshdi.

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda bir-birini izchil qo'llab-quvvatlash orqali ikki tomonlama va ko'p tomonlama diplomatik aloqalarni mustahkamlamoqda. Saudiya Arabistoni Markaziy Osiyo mintaqasining strategik barqarorligiga alohida e'tibor qaratib, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qilishni qo'llab-quvvatlagan. Bundan tashqari, u BMT Bosh Assambleyasining Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga oid rezolyutsiyasiga ijobiy munosabat bildirgan.

2019-yilda Saudiya Arabistoni BMT doirasida ishlab chiqilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi hammualliflaridan biri sifatida faol ishtirok etdi. Bu tashabbus diniy bag'rikenglikni rag'batlantirish hamda ekstremizmga qarshi kurashda xalqlararo muloqotni rivojlantirishga qaratilgan edi.

2020-yilda Saudiya Arabistoni O'zbekistonning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylanishi uchun ovoz berib, xalqaro hamkorlikda o'z faol qo'llab-quvvatlashini yana bir bor namoyon etdi. Shu bilan birga, qirollik

O'zbekistonning boshqa global va mintaqaviy tashabbuslarini ilgari surishda ham o'z hissasini qo'shdi. Bu hamkorlik ikki davlatning xalqaro maydondagi siyosiy hamkorlikni yanada kengaytirishga intilayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Saudiya Arabistonining xalqaro maydondagi turli tashkilotlar va qo'mitalarga a'zolicini qo'llab-quvvatlab, o'zaro siyosiy va diplomatik hamkorlikni mustahkamlamoqda. Jumladan, O'zbekiston Saudiya Arabistonining BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasi, Ijtimoiy-iqtisodiy kengash, Inson huquqlari bo'yicha kengash, Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi, va Irtiqiy kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasidagi nomzodlarini qo'llab-quvvatlagan.

Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining YUNESKO Ijroiya kengashi, Butunjahon merosi qo'mitasi, va "Axborot hamma uchun" dasturi bo'yicha hukumatlararo maslahatlar kabi muhim platformalardagi ishtirokiga ham yordam ko'rsatmoqda. Ushbu yondashuv ikki davlat o'rtasidagi xalqaro hamkorlikning kuchayishiga xizmat qilmoqda va BMTning davriy hisobot berishning universal mexanizmi doirasida ham o'z ifodasini topgan.

Ikki tomon milliy ma'ruzalarni muhokama qilish jarayonida ham bir-birini qo'llab-quvvatlab, inson huquqlari va xalqaro normalar ijrosini samarali monitoring qilishga hissa qo'shmoqda. Bu yondashuv nafaqat ikki tomonlama diplomatik rishtalarni mustahkamlash, balki global mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga ham xizmat qiluvchi qadamdir.

Ikki mintaqaviy vakillari o'rtasidagi munosabatlar 2020-yillarda integratsiya va xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu davrda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar turli sohalarda, xususan, savdo, energetika va madaniyat yo'nalishlarida faollashdi. Natijada iqtisodiy aloqalar mustahkamlanib, investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik kuchaydi. Shu bilan birga, tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasida strategik masalalarda birgalikda ishlashni kuchaytirib, mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo'shishni maqsad qilganligi kuzatildi. Xususan bu ikki mamlakat aloqalarni 2023-yil 19-iyul kuni Saudiya Arabistonining Jidda shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" yetakchilarining



birinchi sammiti doirasida ham ko'rib o'tadigan bo'lsak[7], ikki mamlakat o'rtasida texnologiya va investitsiya, "yashil" iqtisodiyot, savdo va transport aloqalarini mustahkamlash, ekologiya va iqlim o'zgarishi, turizm, madaniyat va ta'lim kabi qator muhim yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish borasida kelishuvlar amalga oshirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlari 1992-yilda diplomatik aloqalar o'rnatilgandan buyon sezilarli darajada rivojlanib, dastlab diniy va madaniy sohalarda hamkorlik bilan boshlangan. Haj va umra safarlari, shuningdek, Saudiya Arabistonining ijtimoiy loyihalarga ko'rsatgan yordami ikki mamlakat aloqalarini mustahkamlagan. Saudiya Arabistoni tomonidan kiritilgan sarmoyalar va tovar aylanmasining oshishi iqtisodiy aloqalarning izchil rivojlanishini ta'minladi.

Mintaqaviy va xalqaro tashkilotlardagi o'zaro qo'llab-quvvatlash hamkorlikning kengayishiga xizmat qilmoqda. BMT, YUNESKO va boshqa tashkilotlardagi faoliyat ikki mamlakatning xalqaro maydondagi siyosiy hamkorligini mustahkamladi. Jidda shahrida 2023-yilda bo'lib o'tgan sammit doirasida texnologiya, yashil iqtisodiyot, transport, turizm va ta'lim kabi sohalarda yangi kelishuvlar imzolandi. Umuman olganda, O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiy, madaniy va siyosiy yo'nalishlarda izchil rivojlanib bormoqda.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdusattorov A. A. Fors ko'rfazi davlatlari tashqi siyosatida islom omilining siyosiy tahlili. Toshkent. 2002. – B 271.
2. Mirabzalov M. M. Iqtisodiy taraqqiyot modellarida sanoat ishlab chiqarishni diversifikasiyalash muammolari ( Saudiya Arabistoni va O'zbekiston misolida) Toshkent. 2014. – B 250.
3. Tolipov M. Sh. Fors ko'rfazi neft eksport qiluvchi mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari. Toshkent 2009. – B 175.
4. G'afurov, S.M. Fors ko'rfazi arab davlatlari va O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy va umumjahon xavfsizlikni ta'minlashdagi mavqei. Siyosiy fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2002. – B 190.
5. Баходиров Р.М. Мунавваров З.И., Абдухалимов Б.А. Султанат Оман: история, цивилизация, экономика, внешняя политика. Ташкент. Фан, 2015. – В 210.
6. Мунавваров, З.И. Страны аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях XX века. Т., 1997. – В 150.
7. <https://president.uz/oz/lists/view/6493>
8. <https://lex.uz/ru/docs/-1594935?ONDATE=22.01.1997>



## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “O‘GAY” KONSEPTNING LINGVOPRAGMATIK ASPEKTI

*Qayumova Mohinur Murodullayevna, Denov tadbirkorlik va  
pedagogika instituti o‘qituvchisi*

## LINGUOPRAGMATIC ASPECT OF THE CONCEPT OF “STEP” IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

*Kayumova Mohinur Murodullaevna, Teacher of the Denov  
Institute of Entrepreneurship and Pedagogy*

## ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ КОНЦЕПТА «НЕРОДНОЙ» В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

*Каюмова Мохинур Муродуллаевна, преподаватель  
института предпринимательства и педагогики Денова*



<https://orcid.org/0009-0000-8527-2846>

e-mail:

[m.qayumova26@gmail.com](mailto:m.qayumova26@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot o‘zbek va ingliz tillarida “O‘gay” tushunchasining pragmatik jihatlarini o‘rganadi. Maqolada har ikkala madaniyatdagi “O‘gay” tushunchasi bilan bog‘liq semantik tushunchalar, ijtimoiy in‘ikoslar va madaniy ta’sirlar tahlil qilinadi. Tadqiqot o‘gay oilalarga bo‘lgan jamiyat munosabatlarini va bu munosabatlardagi hissiy dinamikani qanday aks ettirishini o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘gaylik, pragmatika, o‘zbek tili, ingliz tili, oilaviy munosabatlar, lingvistik tadqiqotlar, ijtimoiy identitet, madaniyatlararo tahlil.

**Abstract:** This study explores the pragmatic aspects of the concept of «step» in Uzbek and English languages. The paper analyzes the semantic nuances, social perceptions, and cultural implications surrounding the notion of «step» children in both cultures. It investigates how language reflects societal attitudes towards stepfamilies and the emotional dynamics within these relationships. Through comparative analysis, this research aims to highlight the similarities and differences in the conceptualization of «step» across cultures, contributing to the understanding of linguistic pragmatics in familial contexts.

**Key words:** stepchildhood, pragmatics, Uzbek language, English language, family relations, linguistic research, social identity, cross-cultural analysis.

**Аннотация:** В этом исследовании изучаются прагматические аспекты понятия «неродной» в узбекском и английском языках. В статье анализируются семантические нюансы, социальные восприятия и культурные импликации, окружающие понятие «неродной» в обеих культурах. В ней исследуется, как язык отражает общественные установки по отношению к сводным семьям и эмоциональную динамику в этих отношениях.

**Ключевые слова:** усыновление, прагматика, узбекский язык, английский язык, семейные отношения, лингвистические исследования, социальная идентичность, кросс-культурный анализ.

**KIRISH.** Oila har bir jamiyatda muhim rol o'ynaydi va uning tuzilishi shaxsiy aloqalar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalarni aks ettiradi. O'zbek va ingliz tillarida «o'gay» tushunchasi, bu oila tizimida ko'plab ijtimoiy va madaniy konnotatsiyalarga ega. Ushbu maqola, o'zbek va ingliz tillaridagi «o'gay» tushunchasining ma'nosi, ijtimoiy qabul qilinishi va uning oilaviy aloqalardagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. «O'gay» tushunchasining lingvopragmatik tahlili orqali, jamiyatlarda oilaviy munosabatlar qanday shakllanayotganini va o'zaro aloqalar qanday o'rnashayotganini o'rganish maqsad qilingan.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Ushbu tadqiqotda o'zbek va ingliz tillarida «o'gay» konseptining lingvopragmatik aspektlarini chuqurroq o'rganish maqsadida sotsiologik tahlil, analiz va sintez, taqqoslash kabi tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy usullar ishlatildi:

##### **1. Lingvistik tahlil:**

Ushbu tadqiqot jarayonida, o'zbek va ingliz tillarida «o'gay» so'zining leksik, semantik va pragmatik aspektlari batafsil tahlil qilindi. Lingvistik tahlil yordamida so'zning ma'nosi, uning kontekstual foydalanishidagi o'zgarishlar va turli madaniyatlarda qabul qilinishi ko'rib chiqildi. O'zbek va ingliz tillaridagi lug'atlar, ilmiy maqolalar va boshqa adabiyotlardan foydalanilib, «o'gay» tushunchasining konnotativ ma'nolari aniqlanadi.

##### **2. Madaniyatlararo tahlil:**

Madaniyatlararo tahlil usuli, o'zbek va ingliz madaniyatlari o'rtasidagi «o'gay» tushunchasining o'ziga xosligi va farqlarini aniqlashga qaratildi. Bu jarayonda ijtimoiy norma, qadriyatlar, oilaviy aloqalar va madaniy kontekstga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqildi. Madaniy kontekstda «o'gay» tushunchasining qanday hissiy ta'siri borligi, oila ichidagi aloqalarni qanday shakllantirishi ham o'rganildi.

**MUHOKAMA.** O'zbek tilida «o'gay» so'zi asosan o'zgacha farzandlar yoki oila a'zolari uchun ishlatiladi va ko'pincha salbiy konnotatsiya bilan bog'liq. O'gay farzandlar o'z oilalarida ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ularning

psixologik holatiga va o'zaro aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbek madaniyatida, o'gay farzandlar ko'pincha «to'liq» oilalarga nisbatan kamroq ahamiyatga ega bo'lishadi, bu esa kamsitish his-tuyg'ularini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy qabul qilish: O'zbek jamiyatida o'gay farzandlarning ijtimoiy qabul qilinishi ko'pincha muammolar bilan bog'liq. Ular ko'pincha o'z oilasida o'z o'rnini topa olmaydilar, bu esa o'z-o'zini anglash jarayonida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. O'zbek tilidagi bunday salbiy konnotatsiya, o'gay farzandlarni atrofdagilardan izolyatsiyalashga olib keladi. Natijada, ularning psixologik va hissiy holati jiddiy ta'sirlanishi mumkin.

Hissiy aloqalar: O'zbek madaniyatida o'gay farzandlar ko'pincha oiladagi hissiy munosabatlardan chetda qoladilar. Ular ko'pincha o'zlarini qiyinchilikda his qiladilar va o'z-o'zini anglash jarayonida muammolarga duch kelishlari mumkin.

##### **Ingliz tili kontekstida:**

Ingliz tilida «step» so'zi ijobiyroq konnotatsiyaga ega va o'gay farzandlar ko'pincha ijtimoiy qabul qilinadi. O'gay oilalarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lib, bu esa o'gay farzandlar uchun ijtimoiy integratsiyani osonlashtiradi. Ingliz madaniyatida o'gay farzandlar odatda oilaga qo'shilish va ijtimoiy munosabatlarga kirish jarayonida ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi[1].

Ijtimoiy qabul qilish: Ingliz jamiyatida «step» so'zi ko'proq ijtimoiy qabul qilish uchun ishlatiladi. O'gay oilalar, ko'pincha o'gay farzandlarga qarshi ko'rsatilgan ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash bilan birga, ularning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi. O'gay farzandlar, odatda, oilaning bir qismi sifatida qabul qilinadi, bu esa ularning o'z-o'zini anglash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hissiy aloqalar: Ingliz tilidagi o'gay farzandlar ko'pincha hissiy jihatdan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi. Ular o'gay oilada ijtimoiy va hissiy qo'llab-quvvatlashni his qiladilar, bu esa o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. O'gay oilalarda hissiy aloqalar ko'pincha kuchli va sog'lom bo'lib, o'gay farzandlar o'zlarini oilaning

bir qismi sifatida his qilishadi. Bu, o'z navbatida, ularning o'z-o'zini anglash jarayonini yengillashtiradi va ularni ijtimoiy hayotga ko'proq jalb qiladi[3].

Umumiy tahlil:

Ushbu tadqiqot natijalari, o'zbek va ingliz tillarida «o'gay» tushunchasining ijtimoiy qabul qilinishi va psixologik ta'siri haqida muhim fikrlarni keltirib chiqardi. O'zbek madaniyatida o'gaylik ko'proq kamsitish va izolyatsiya bilan bog'liq bo'lsa, ingliz madaniyatida o'gay farzandlar ko'proq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ega. Bu, o'z navbatida, ularning o'z-o'zini anglash jarayonini va hissiy aloqalarini sezilarli darajada ta'sir qiladi[5].

**NATIJJALAR.** O'zbek va ingliz tillarida «o'gay» tushunchasining lingvopragmatik jihatlari chuqur madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq farqlarga ega. Bu tushunchaning konnotatsiyasi va foydalanishidagi tafovutlar, har bir jamiyatning oila tuzilmasiga nisbatan munosabati va o'gay farzandlarning jamiyatda qabul qilinishini aks ettiradi[5].

O'zbek madaniyatidagi «O'gay» tushunchasi.

O'zbek tilida «o'gay» tushunchasi ko'pincha salbiy konnotatsiyaga ega bo'lib, bu so'z odatda oiladagi boshqa a'zolaridan farqli ravishda o'gay farzandlarni ajratib ko'rsatadi. Jamiyatda o'gay farzandlarga nisbatan stigma va kamsitish hollari ko'p uchraydi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga va oiladagi aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek tilida o'gaylik tushunchasining ko'proq negativ bo'lishi, madaniyatning oila birligi va biologik aloqalarga katta ahamiyat berishi bilan bog'liq. Oila mustahkamligini saqlashda biologik ota-onaning o'rni muhim hisoblanadi, bu esa o'gay farzandlar yoki o'gay ota-onalar bilan aloqalar murakkablashishiga olib keladi. Shu sababli, o'zbek jamiyatida o'gay farzandlar ko'pincha izolyatsiyalangan yoki chetlatilgan hissiyotlarga duch keladilar[6].

Ingliz madaniyatidagi «Step» tushunchasi.

Ingliz tilida «step» so'zi ko'proq neytral yoki ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, o'gay farzandlar ko'pincha jamiyatda ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi. Ingliz madaniyati, ayniqsa zamonaviy davrda, oila tuzilmasining turli shakllarini, jumladan o'gay

oilalarni qabul qiladi va ularni qo'llab-quvvatlaydi. Buning natijasida o'gay farzandlar ingliz jamiyatida ko'proq ijtimoiy integratsiyani boshdan kechiradilar. Bu esa ularning psixologik rivojlanishiga, o'z-o'zini anglash jarayoniga va hissiy munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[4].

Oila tuzilmasi va madaniy qadriyatlar.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila tuzilmasi va madaniy qadriyatlar «o'gay» tushunchasining qabul qilinishi va ishlatilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbek madaniyatida oila birligi va biologik bog'liqlikka katta e'tibor berilishi, o'gay farzandlarga nisbatan munosabatning salbiyroq bo'lishiga sabab bo'ladi. Ingliz madaniyatida esa, oilaning xilma-xil shakllari ijtimoiy jihatdan qabul qilinadi va bunday oilalardagi hissiy munosabatlar yanada ijobiy ko'rinishga ega.

Ushbu lingvopragmatik tahlilning ahamiyati shundaki, u oila ichidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va har ikki madaniyatda o'gay farzandlarning o'z-o'zini anglash jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi. O'zbek madaniyatida o'gay farzandlarning o'zaro aloqalari ko'pincha qiyin bo'lsa-da, ingliz madaniyatida bu aloqalar ko'proq qo'llab-quvvatlanadi, bu esa jamiyatda bunday farzandlarning o'z o'rnini topishlariga yordam beradi[2].

**XULOSA.** Ushbu tadqiqot, o'zbek va ingliz tillarida «o'gay» konseptining lingvopragmatik jihatlarni o'rganishga qaratilgan. O'zbek madaniyatida o'gay farzandlar ko'pincha kamsitilishsa, ingliz madaniyatida ularning ahamiyati va ijtimoiy pozitsiyasi yuqori baholanadi. O'gaylik tushunchasi, oila tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot natijalari, kelajakdagi lingvistik tadqiqotlar uchun muhim asos bo'lishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimova D. O'zbek tilida o'gaylik tushunchasining lingvopragmatik aspektlari. O'zbekiston milliy universiteti. 2020.
2. Smith J. Steppar relationships: An overview of the English context. Journal of family studies. 2019.
3. Abdurazokova S. Oila va o'gaylik: O'zbek madaniyatidagi o'zgarishlar. Lingvistik tadqiqotlar. 2021.



4. Muxlisa, S., & Mohinur, Q. (2022). Lingvokulturalogiyaning kelib chiqish tarixi. Евразийский журнал академических исследований, 2(3), 379-383.
5. Nasrullayeva, G. (2019). An Anthropocentric Metaphor In The System Of A Linguistic World Picture. Philology Matters, 2019(1), 64-70.
6. Sobirjonova, M., Qayumova, M., Turdalieva, S., & Xayitaliyev, S. (2024). Lingvokulturalogiyaning shakllanishida konseptning o'rni. Interpretation and researches.
7. Sobirjonovna, S. M., & Xoliqulovna, B. M. (2024). The Concept of "Loneliness" and "Alienation" in the English Language. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(6), 400-403.
8. Murodullayevna, Q.M. (2023, December). Explanation of discourse markers. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 2, №. 12, pp. 118-127).



## RUHIYATGA YONDOSH SHE'RIYAT

Otamuratova Muyiba O'ktamovna, Urganch davlat universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi

## POETRY APPROACHING THE SPIRIT

Otamuratova Muyiba Oktamovna, teacher of the “Uzbek language and literature” department of Urganch State University

## ПОЭЗИЯ ПРИБЛИЖАЮЩАЯСЯ К ДУХУ

Отмуратова Муйиба Ўктамовна, преподаватель кафедры

“Узбекский язык и литература” Ургенчского

государственного университета



<https://orcid.org/0000-0001-7472-8289>

e-mail:

[muyiba.otamuratova@gmail.com](mailto:muyiba.otamuratova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatida mahorat bilan qalam tebratayotgan shoirlar Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Guljamol Asqarova ijodining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, mazkur ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlardagi ruhiyat tasviriga chizgilar talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** she‘riyat, ruhiyat, timsol, obraz, lirik qahramon, ijodiy barkamollik, mahorat.

**Annotation:** In this article, the unique features of the works of poets Zebo Mirzo, Khosiyat Rustamova, Guljamol Askarova, who skillfully swing a pen in modern Uzbek poetry, will be highlighted. Also, lines are interpreted as the image of the soul in the works created by these artists.

**Key words:** poetry, spirituality, symbol, image, lyrical hero, creative perfection, skill.

**Аннотация:** В данной статье будут освещены уникальные особенности творчества поэтов Зебо Мирзо, Хосият Рустамовой, Гульжамол Аскаровой, искусно владеющих пером в современной узбекской поэзии. Также в произведениях этих художников линии трактуются как образ души.

**Ключевые слова:** поэзия, духовность, символ, образ, лирический герой, творческое совершенство, мастерство.

**KIRISH.** Bugungi o‘zbek she‘riyatiga nazar tashlar ekanmiz, undagi qorishqlik, yangi tamoyillarni o‘z qatiga singdirish, ruhiyatga yaqin asarlarni qalamga olish kabi bir qator masalalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zamonaviy ijodkorlar o‘z asarlarida aynan yuqoridagi tamoyillarni yuzaga chiqarayotgani ham bejiz emas. Bu jarayon nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham kuzatilmoqda. Chunki bugungi davr insoni she‘riyatdan ijtimoiy hayotni emas, balki o‘z qalbini va ruhiyatini izlayapti. Aniq ifodalaydigan bo‘lsak, davr kishisi adabiyotdan o‘z shaxsiy “men”ini topishga urinmoqda. Ushbu jarayon esa ijodkor shaxsiyatiga ham xosdir. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida inson kechinmalari va ruhiyati tasviri keng yoritib kelinmoqda. Ayniqsa, ayol qalb tasviri va siyratiga go‘zal chizgilar berilgan badiiyat namunalarning

adabiyotga kirib kelishi bu olamga yanada sirlilik va joziba bag‘ishlaydi.

**MAVZUNING DOLZARBLIGI VA HOZIRGI HOLATI.** Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida vujudga kelayotgan ijod namunalariga xos xususiyatlarni tahlil qilish, ulardagi fikriy yangilanishlar, badiiy tafakkur tadrijini o‘rganish tadqiqotchi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi davr she‘riyatida inson psixologiyasi va kechinmalar tasviriga alohida diqqat qaratilmoqda. Ayniqsa, nozik qalb egalari bo‘lgan ayol shaxsiyati va ruhiyati yorqin aks etgan badiiyat namunalari ko‘pchilikni tashkil etmoqda. O‘zbek adabiyotshunosligida bu xususda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy o‘zbek she‘riyatida ayol ruhiyati ifodasi maxsus talqin qilinmagan. Bu borada olib borilgan ishlar

umumiylik kasb etgan. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida ayol ruhiyati ifodasi masalasining istiqloq davri o‘zbek ayol shoirlari ijodida izchil tadqiq qilishni taqozo etishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**TAJRIBA QISMI (TADQIQOTNI AMALGA OSHIRISH).** Inson ruhiyatini, shaxsiyatini teran tasvirlash, o‘z ichki “men”ni badiiy ijod namunalariga singdirish kabi jihatlar mahoratli o‘zbek shoirlari Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Guljamol Asqarovalar she‘riyatida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlarning asarlarida, avvalo, inson ruhiyati va o‘z qalblarining ifodasi – ayol shaxsiyati go‘zal chizgilar orqali ochib beriladi. Bu jihatlarni ularning badiiyat namunalari misolida tahlil qilish o‘rinli bo‘ladi.

Taniqli o‘zbek shoirasi Zebo Mirzoning “Qayting” sarlavhali she‘rida shunday misralar keltiriladi:

*Yo‘lga tushing,*

*Tushing g‘urur otidan...*

*Bu yog‘i Yolg‘izlik – Ruhiyat yo‘li...*

*Chiqing bu qafasdan...*

*Xasm yodidan...*

*Chirmashib tortsa-da chirmovuq go‘li...*

Yuqoridagi misralarda shoiraning lirik qahramoni o‘z yorini va shu yor obrazi orqali ko‘nglidagi barcha istaklarni jilovlab yashashga majbur bo‘lgan zotlarni g‘urur otidan tushib, ortqa qaytishga undaydi. Uni bu olam g‘avg‘olaridan yuz burib, o‘z yo‘lida yolg‘iz bo‘lishga chorlaydi. Zero, shoir nazdida yolg‘izlik bu ruhiyat yo‘lidir. Chunki inson faqat yolg‘iz qolgandagina o‘zini aslidagidek tuta oladi, faqat o‘zidagina andisha qilmaydi, faqat o‘z qalbigagina quloq sola biladi. Shu bois, shoir lirik qahramonini barcha qafaslardan ozod bo‘lishga chorlaydi.

*Dunyoni qoldiring...*

*Qoldiring tanni...*

*Ilon terisini yechgandek... Yeching!*

*Izlang... ichingizda kutgan Vatanni...*

*Zanjir Oltin bo‘lsa-da... Keching!..*

Keltirilgan bandeda ijodkor lirik qahramonni mavjud dunyoni va zohiriy tanni xuddi ilon po‘st tashlagandek yechib tashlab, ichida kutgan Vatanni – ya‘ni o‘zi halovat topadigan maskanni izlashga da‘vat etadi. Bu joyga esa tana bilan emas, balki ruh bilan boriladi. Band yakunida esa asl maqsadni –

zanjir oltin bo‘lsa-da kechish lozimligini keskin ta‘kidlaydi.

*Tirik tomiringiz tuproqda toki...*

*Demak,*

*Ruhingizda Haq etar zuhur!*

Mazkur satrlarda inson mavjud ekan, uning ruhi hamisha haqqa yondosh ekani mahorat bilan aks ettirilgan.

*Sizni kutib turgan shu diydor haqqi...*

*Parvardigor haqqi,*

*Asl Yor haqqi...*

*Ichkariga kiring!..*

*Yurakka qayting!*

Qayd etilgan misralarda shoir lirik qahramonni diydor haqqi va insonning asl yori bo‘lmish Parvardigor haqqi uyga kirishga – yurakka qaytishga chorlaydi. Bu yerda ijodkor lirik qahramoni hisoblanmish yorni sevgilisining yoniga chorlash barobarida uni o‘z yuragiga – o‘zligiga qaytishga ham undaydi. Chunki o‘z yuragiga qaytgan inson, avvalo, haqni taniydi va barcha kishanlardan ozod bo‘lgan baxtiyor shaxsga aylanadi.

Zebo Mirzo she‘riyatida inson kechinmalari tasviri teran namoyon bo‘ladi. Uning badiiyat namunalarida hayotning inson qalbiga uyg‘un nuqtalari mahorat bilan yoritib beriladi.

“Shuni aytish kerakki, istiqloq adabiyotimizning jozibasi sirtida emas, botinda, matn zamirida. Bu adabiyotning asl namunalari osongina o‘qilib ketilaveradigan asarlar sirasiga kirmaydi. Bu asarlar o‘quvchidan muayyan hozirlikni, intellektual-ruhiy zo‘riqishni talab etadi. Odamga, olamga boshqacharoq nigoh tashlashni taqozo qiladi” [7:21].

Insonni yangicha fikrlashga, olamga o‘zgacha nigoh ila qarashga undaydigan asarlar haqida gap borar ekan, bu borada iste‘dodli shoir Xosiyat Rustamova ijodini e‘tirof etish o‘rinlidir. Ijodkor tomonidan yaratilgan she‘rlarda ijodiy individuallik va fikriy tiniqlik satrlarga joziba hamda sehr bag‘ishlaydi. Xosiyat Rustamovaning musavvir Gulnora Rahmonga bag‘ishlab yozilgan she‘rida shunday misralar mavjud:

*Men har kun*

*o‘zimni olib uchaman,*

*Oy-yulduz sochilgan*

*ko‘kda don kabi.*

*Suratim yonida*

*cho‘kka tushaman,*

*Ruhidan ajralib chiqqan jon kabi...*

*Bilmayman!*

*O'zi ham bilmas,*

*balki sir!*

*Har kun yuragimga*

*kelib-ketar ko'k.*

*Ellik yildan oshdi, mashhur Musavvir –*

*Hali meni chizib tugatgani yo'q...*

Yuqoridagi misralarda shoira insonning o'z qalbi, ruhi bilan bevosita muloqotini aks ettiradi. Lirik qahramon har kuni o'z tanasini ko'tarib, ruh qanotlarida ko'kka parvoz etadi. O'z suratiga boqar ekan, ruhidan ajralgan jon kabi iztirob chekadi. Ilohiy iste'dodga loyiq ko'rilgan shoira bu yerda o'zining ruhiy olamiga chizgi berar ekan, uning qalbiga har kun ko'kning tashrif buyurishini, ya'ni uni samoning o'zi yo'qlashini va bu buyuk sir ekanligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, undan go'zal inson yaratgan buyuk Musavvir – Parvardigor hamon uning ustida mahorat ila ishlayotganini e'tirof etadi va shukrona keltiradi.

*Bilmam, menga qarab*

*neni o'ylagan,*

*Yoki ko'rsatmagan jur'atlarini.*

*Hali suratlarga*

*olib ko'rmagan...*

*Bu hayot ruhinning suratlarini...*

Inson yashar ekan, hamisha tevarak-atrofidagi boshqa odamlar uni anglashini istaydi. Yuragini boshqalarga ochishni orzu qiladi. Ammo insonning Yaratgandan boshqa yori yo'qligi ham ayon. Chunki faqat Tangrigina o'zi yaratgan qalbning botinini ko'ra oladi. Shu boisdan, shoira bu hayot uning o'z ruhini anglamaganini iztirob ila tasvirlaydi.

Xosiyat Rustamova ijodi, chin ma'noda, olamga cheksiz hayrat nigohi bilan qaraydigan, dunyoni teran anglashga intiladigan va uning turfa qirralarini yorqin aks ettiradigan she'riyatdir. Shoira ochunni qanday ko'rsa va tushunsa, shunday tasvirlaydi ham. Bu esa ijodkor ruhiyatining kitobxon ruhiyatiga tezroq ko'chishiga sabab bo'ladigan bosh omillardan biridir.

O'zining inja bitiklari bilan she'rxonlar qalbida chuqur joy egallagan betakror shoira Guljamol Asqarova ijodida ham ayol ruhiyati masalasiga keng o'rin berilgan. Ijodkorning "Endi" sarlavhali she'rida bu holatga guvoh bo'lishimiz mumkin:

*Qaro sochlar oqarib borar,*

*Jism-u jonim o, qarib borar.*

*Borgan sari umrim rangida,*

*Qaro ortar, oq arib borar.*

Yuqoridagi misralarda shoira so'z o'yini vositasida inson umri va uning iztiroblarini yorqin bo'yoqlarda aks ettirgan. Qaro sochlarning oqarishi, jismning kundan-kunga qarimog'i va inson umrining ranglarida yillar o'tgani sayin yoshlikdagi musaffolik kamayib, qora ranglarning ortib borishi tasviri jo bo'lgan satrlarni o'qir ekanmiz, bevosita o'z o'tgan umrimizni sarhisob qila boshlaymiz. Keksayish erkaklar uchun odatiy hol sifatida qabul qilinsa, ayollar uchun ko'pincha bu holat fojeaviylik sifatida qabul qilinadi. Chunki ayollar hamisha go'zallikka, muhabbatga oshuftadir. Umr rangida ortib borayotgan qora ranglar esa yurakda yig'ilgan yillar iztirobidir.

*O'tdi ayyom, davr-u davronlar,*

*Mast-u behud, sayr-u sayronlar,*

*Oshiq bo'ldim, endi yoronlar,*

*Qayga borsam, ishq olib borar.*

She'r yakunida ijodkor barcha o'tkinchi hoy-u havaslar va davr-u davronlar uni tark etib, nihoyat o'ziga oshiqlik maqomi nasib etganligi va ana shu ishq uni endi tog'ri yo'lga boshlashiga ishonch bildiradi va uning ortidan qayerga boshlasa-da, borishni maqsad qilishini ta'kidlaydi. "Chin ijodkor so'zdan mo'jizaviy koshonalar bino qiladi. Bu koshona uchun "yurak qonidan loy qoriladi". Ruhiy iztiroblar girdobida aylanib, dard chekadi. G'am-qayg'usidan, surur va anduhidan so'zlaydi. Shoir qalbining aks-sadosi – she'r. Agar bu ovoz ijodkorning o'zligidan darak bersa, nur ustiga nur..."[1:154].

Darhaqiqat, Guljamol Asqarova she'riyatida Ishq ulug'lanadi. U inson qalbining gultoji sifatida yuksak qadrlanadi. Shoira o'z badiiyat namunalariga, chin ma'noda, o'z qalbining aks-sadosini muhrlaydi. Bu holat esa asl she'riyatning bosh mezonidir.

**XULOSA.** Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy o'zbek she'riyatida inson qalbi kechinmalarini tasvirlashning yuqori darajaga ko'tarilishi asl adabiyot taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bunday asarlar she'riyat ixlosmandlari – ko'ngil kishilari tomonidan yuksak qadrlanadi. She'r gulshani mangu xushbo'y iforlarni taratib turishiga zamin hozirlaydi.



## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 364 b.
2. Guljamol Asqarova. Oshiqlar tumori. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 84 b.
3. Djumaniyazova N. Istiqlol davri o'zbek lirikasida uslub va mahorat. Urganch, 2019. 124 b.
4. Jumaboyeva J. Odamiylik – ilm gavhari. Toshkent: Istiqlol, 2021. 308 b.
5. Xosiyat Rustamova. Ishg'ol. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 144 b.
6. Zebo Mirzo. Ishq. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 128 b.
7. Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.



Qabul qilindi: 15.10.2024

Chop etildi: 30.11.2024

UDK: 81-139

## EVALUATION OF MATERIALS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

*Djumaniyazova Djeran Kakadjanovna*  
*Urgench Ranch University of Technology*  
*English language instructor*

## ОЦЕНИВАНИЕ МАТЕРИАЛОВ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

*Джуманиязова Джеран Какаджановна*  
*Ургенчский технологический университет Ранч*  
*Преподаватель английского языка*

## INGLIZ TILI O'QITISHDA MATERIALLARNI BAHOLASH

*Djumaniyazova Djeran Kakadjanovna*  
*Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi*

**Abstract:** *The article examines the significance of evaluating materials and textbooks in English language teaching. It also analyzes key principles underlying the selection of instructional materials. Furthermore, it explores evaluation frameworks proposed by linguists such as Williams, Breen, McDonough and Shaw, and Grant.*

**Key words:** *ELT (English language teaching) materials, evaluation, principles and procedures, framework, guidelines.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается значение оценивания материалов и учебников в преподавании английского языка. Также анализируются ключевые принципы, лежащие в основе выбора учебных материалов. Кроме того, в ней рассматриваются критерии оценивания, предложенные такими лингвистами, как Уильямс, Брин, Макдоноу и Шоу, а также Грант.*

**Ключевые слова:** *материалы ELT (преподавание английского языка), оценка, принципы и процедуры, структура, рекомендации.*

**Annotatsiya:** *Maqolada ingliz tilini o'qitishda materiallar va darsliklarni baholashning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'quv materiallarini tanlashning asosiy tamoyillarini tahlil qiladi. Bundan tashqari, Uilyams, Brin, McDonough, Shou va Grant kabi tilshunoslar tomonidan taklif qilingan baholash asoslarini o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ELT (Ingliz tilini o'qitish) materiallari, baholash, tamoyillar va tartiblar, tuzilish, ko'rsatmalar.*

**INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ / KIRISH).** Materials are defined as anything that can be used to facilitate the learning of a foreign language. It usually includes coursebooks, flash cards, websites, readers, etc. [9]. Materials can be instructional in that they educate learners about language, they could be experiential in that they offer immersion in the language in use. Also, materials can be exploratory in that they contribute to discoveries about language use. EFL (English as a foreign language) educators are consistently tasked with the responsibility of selecting appropriate materials for instructional purposes. Therefore, it is essential for educators to employ a variety of approaches or

strategies when assessing instructional materials. Griffith explains that evaluation of materials and textbooks aids in the selection of the textbook that is important in the EFL classroom. It is an important part of teaching and it always influences how teachers manage the classroom [3].

**MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR).** In the history of materials development there have been several attempts to create different methods to develop materials free approaches to the teaching of languages. For example, the Dogme movement that was created by Scott Thornbury and Meddings in



[jjumaniyazova89@gmail.com](mailto:jjumaniyazova89@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0007-1866-2087>

2001. However, it is widely accepted that in most language classrooms around the world the majority of lessons are based on materials. Sheldon, Ellis, Tomlinson, and other linguists emphasize that evaluating instructional materials and textbooks is an integral aspect of teaching. They suggest that educators may benefit from a structured framework or set of guidelines to support them in selecting and utilizing appropriate resources effectively. In this article the frameworks and guidelines of linguists such as Williams, Breen, and McDonough & Shaw, Grant have been analyzed that can assist teachers when evaluating materials that are used in EFL classrooms.

### **MUHOKAMA**

**(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).** The capability to assess teaching materials effectively is crucial for all EFL teachers. According to Williams, textbook evaluation is a simple, analytical matching procedure that matches needs to potential solutions [10]. Nikoopour and Farsani say that many EFL teachers evaluate materials regularly in their professional lives [6]. O'Neill states that "no other medium is as easy to use as a book" however, the reality for many EFL teachers is that the given textbook is the only choice they have [7]. Numerous linguists, including Williams, Breen, McDonough & Shaw and Grant have proposed guidelines and evaluation frameworks that can serve as the basis for developing checklists tailored to the needs of language teaching [1], [5].

Williams, Breen, McDonough & Shaw and Grant claim that it is crucial for EFL teachers to carry out external evaluation of materials first in order to have a general overview of the organizational processes. After that, teachers can move on to an internal evaluation of the materials to see the objectives of a teaching program. Williams and Grant presents a framework for evaluation that can be utilized in language teaching [2]. His checklist includes the following principles: modern methodology, guidance for non-native teachers, needs of second language learners and their alignment with the sociocultural context. Breen, McDonough & Shaw suggest using the set of questions in two phases [1], [5]. The first stage is the formulating initial questions regarding the effectiveness of the teaching materials. The second

stage is using more specific methods to ensure the effectiveness of the materials to be used in the EFL classroom. The questions can be connected with the following topics: the evaluation in relation to other available textbooks, the instructional approach utilized in the textbook, the focus on developing all four language skills, the balance between linguistic competence and communicative proficiency, the methodology applied in implementing the textbook, the language structures and the strategies employed, logical organization and progression of content, authenticity and appropriateness of the content, addressing the learners' educational needs, proportion between visual elements and textual material, the overall design and layout of the textbook.

### **RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ /**

**NATIJAR).** As observed, materials evaluation requires precise and comprehensive understanding. Different methods and approaches should be utilized in materials and textbook evaluations. Analyzing the frameworks and guidelines proposed by Williams, Breen, and McDonough & Shaw, Grant it can be stated that the two main processes are needed such as internal and external evaluations when selecting materials or textbooks. They state that it is necessary to conduct both external and internal evaluations of materials and textbooks is highly beneficial for EFL educators. An external evaluation provides an overall overview of the materials from an external perspective. The teacher's objective is to assess the structure of the materials by reviewing elements such as the blurb, introduction, and table of contents. At this stage, EFL instructors must determine the target audience, assess the proficiency level, evaluate the context in which the materials will be utilized, and analyze how the language is structured and organized into teachable units. There are some other factors that teachers have to consider at the external stage as well. For example, the availability of a teacher's book, the inclusion of a vocabulary list, the visual materials, clear layout and presentation, cultural appropriacy, minority group representation, the inclusion of audio/video material and the inclusion of tests in a teacher's book. Littlejohn and Windeatt investigated that some textbooks can be biased because they do not represent ethnic background or class and may contain reference to PARSNIP

(Politics, Alcohol, Religion, Gender, Narcotics, - Isms, and Pork) topics such as smoking and drinking [4].

The next stage of materials evaluation is the internal evaluation. One of the most important issue here is to analyze the extent to which the external evaluation factors align with the coherence and systematic structure of the materials. In order to conduct an internal evaluation we need to analyze at least two units or more of a book to examine main factors. These are some of the concerns that should be investigated: the skills presentation of the materials, sequencing, reading or discourse skills, listening and speaking skills, the relationship of tests and exercises and suitability of various learning styles.

Both types of evaluations include a range of factors that must be carefully considered by EFL instructors. Therefore, these factors play a critical role in ensuring the appropriateness and effectiveness of the selected materials for language instruction.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Materials have constantly been evaluated by EFL teachers using a range of checklists and guidelines to identify their suitability for use in teaching contexts. Sometimes materials evaluation can be a frustrating process for EFL instructors, as a result, they need to use particular guidelines and frameworks that can help them to choose the appropriate materials. The purpose of this article has been to suggest how the internal and external evaluations could be accomplished. External evaluation offers a general overview, allowing teachers to assess the broader structure and suitability of materials, while internal evaluation delves into the coherence and functionality of specific content. By utilizing established frameworks and guidelines proposed by experts such as Williams, Breen, McDonough and Shaw, and Grant, teachers can develop tailored

checklists to analyze critical factors, including methodology, learner needs, cultural appropriacy, and design features. Ultimately, conducting thorough evaluations enables educators to make informed decisions, enhancing the overall effectiveness of language teaching and learning.

#### REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Breen, M. (1987). Learner contributions to task design. In C.Candlin and D.Murphy(eds). *Lancaster Practical Papers in ELT.Vol.2*. London:Prentice Hall International.
2. Grant, N. (1987). *Making the most of your textbook*. Oxford: Heinemann Publishers Ltd.
3. Griffiths, C. (1995). "Evaluating materials for teaching English to adult speakers of other languages." *English Teacher Forum*, July, 50-51.
4. Littlejohn, A. and S. Windeatt (1988): *Beyond Language Learning: Perspectives on materials design*. In Johnson, R.K. (ed.) : *The Second Language Curriculum*. Cambridge: Cambridge University Press,155-175.
5. McDonough, J. & Shaw, C. (1993). *Materials and Methods in ELT*. Blackwell.
6. Nikoopour, J., and Farsani, M. A. (2011). English language teaching material development. *Journal of Language and Translation*, 2(2).
7. O'Neill, R. (1982): *Why use textbooks?* *ELT journal*,36/2, 104-11.
8. Richards and Rodgers (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. 2nd Ed. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Tomlinson, B. (2010). Principles of effective materials development. In Harwood, N. (ed.) *English Language Teaching Materials*. Theory and Practice.
10. Williams, D. (1983). Developing Criteria for Textbook Evaluation. *ELT Journal* 37/3:251-5.





## THE ROLE OF KINETIC UNITS IN MULTIMODAL COMMUNICATION

*Tangriyev Valisher Azamovich*

*EFL teacher, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy  
The Department of Foreign language and literature lower courses*

## РОЛЬ КИНЕТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В МУЛЬТИМОДАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

*Тангриев Валишер Азамович*

*Преподаватель английского языка, Институт  
предпринимательства и педагогики города Денау,  
Кафедра иностранного языка и литературы младших  
курсов*

## KINETİK BIRLIKLARNING MULTIMODAL KOMMUNIKATSIYADAGI ROLI

*Tangriyev Valisher Azamovich*

*Ingliz tili o'qituvchisi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
"Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslari" kafedrasida*



E-mail: [v.tangriev@dtpi.uz](mailto:v.tangriev@dtpi.uz)  
<https://orcid.org/0000-0002-2698-9641>

**Abstract:** This study investigates the indispensable role of kinetic units, including gestures and body movements, in multimodal communication. It highlights their contribution to enhancing verbal interactions, conveying cultural meanings, and expressing emotional states. The interdisciplinary approach integrates linguistic, psychological, and cultural perspectives, providing insights into their structural, functional, and cultural dimensions.

**Key words:** Kinetic units, multimodal communication, gestures, culture, emotions, education, pragmatics, interaction.

**Аннотация:** В исследовании рассматривается важнейшая роль кинетических единиц, включая жесты и движения тела, в мультимодальной коммуникации. Отмечается их вклад в усиление вербального взаимодействия, передачу культурных значений и выражение эмоциональных состояний. Междисциплинарный подход объединяет лингвистические, психологические и культурные аспекты, предлагая понимание их структурных, функциональных и культурных измерений.

**Ключевые слова:** Кинетические единицы, мультимодальная коммуникация, жесты, культура, эмоции, образование, прагматика, взаимодействие.

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot kinestik birliklarning, jumladan, imo-ishoralar va tana harakatlarining multimodal kommunikatsiyadagi muhim rolini o'rganadi. Tadqiqotda ularning og'zaki muloqotni yaxshilashga, madaniy ma'nolarni yetkazishga va emotsional holatlarni ifodalashga qo'shgan hissasi ta'kidlangan. Fanlararo yondashuv lingvistik, psixologik va madaniy nuqtai nazarlarni birlashtiradi va ularning tuzilish, funksional va madaniy o'lchovlari bo'yicha tushunchalarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** kinestik birliklar, multimodal kommunikatsiya, imo-ishoralar, madaniyat, emotsiyalar, ta'lim, pragmatika, muloqot.

**INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ / KIRISH).** Human communication relies on both verbal and nonverbal elements, with kinetic units—gestures, body movements, and expressions—playing a vital role in complementing speech and conveying nuanced meanings [1, p. 17]. Nonverbal

cues significantly enhance interpersonal communication, often surpassing verbal input in importance [3, p. 47]. These units clarify messages and encode emotions and cultural identities beyond the scope of words. This study investigates the structural, functional, and cultural roles of kinetic

units, addressing how they enhance multimodal communication and facilitate cross-cultural understanding. Integrating linguistic, psychological, and cultural perspectives, it highlights the essential role of these units in enriching human interaction and cultural exchange. Far from being mere supplements, kinetic units are integral to communication, deeply embedded in cultural contexts and closely tied to verbal language. This paper examines their capacity to improve clarity, evoke emotions, and convey cultural meaning.

**MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR).** The role of kinetic units in multimodal communication is extensively documented. Patel [3, p. 47] highlights their contribution to over half of interpersonal communication, while Donald and Richard [4, p. 35] emphasize their functional versatility in expressing emotions and intentions. Hyisung [6] underscores the cultural variability of gestures, showing how they encode sociocultural norms and reduce miscommunication. Nasrin [7, p. 91] demonstrates how synchronized gestures enhance comprehension and engagement, paralleling verbal markers in educational contexts. This study adopts an interdisciplinary approach, drawing on linguistics, psychology, and cultural studies to analyze kinetic units. Linguistic analysis examines their semiotic and pragmatic roles, psychological insights explore how gestures align with cognitive processes and emotions, and cultural perspectives highlight their embeddedness in sociocultural norms [4, p. 35].

Data sources include academic literature, video recordings, and cross-cultural case studies. Gestures were categorized into basic motion units, composite units with specific functions, and culturally embedded gestures. For instance, nodding paired with leaning forward signals agreement in Western cultures, while bowing conveys respect in East Asia [5, p. 236].

Thematic analysis examined gesture-speech synchrony, focusing on how gestures emphasize verbal content, clarify spatial references, and express emotions. Examples include pointing gestures as deictic markers grounding verbal references, and open-arm movements conveying inclusivity in educational settings [7, p. 91]. Cross-cultural comparisons highlighted differences, such as bowing

in Japan versus handshakes in the West, illustrating gestures' role in cultural identity [6].

This framework bridges theory and practice, showing how kinetic units enhance verbal communication by fostering clarity, emotional resonance, and cultural understanding.

**DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/ MUHOKAMA)** The findings confirm the pivotal role of kinetic units in multimodal communication, demonstrating their capacity to enhance verbal language and independently convey meaning. Basic motion units, such as hand movements and postural adjustments, serve as foundational elements that combine into composite gestures conveying specific functions or emotions, like pointing to emphasize spatial references or shrugging to express uncertainty. Their cultural embedding adds depth, reflecting societal norms and values [3, p. 47].

Kinetic units work in synchrony with speech to form cohesive multimodal messages. For example, pointing gestures ground abstract verbal references, while nodding or head tilts reinforce conversational cues like agreement or deference. In education, instructors' use of expansive gestures and deliberate postures improves student engagement and mirrors verbal discourse markers in directing attention and signaling importance [7, p. 91]. These findings highlight their practical applications, particularly in fostering clarity and emotional engagement. Cultural variability in gestures was evident, with symbols like bowing in East Asia signifying respect and hierarchy, while handshakes in the West convey professionalism. Misinterpreting such gestures in intercultural settings can lead to misunderstandings, underscoring the need for cultural competence in using and interpreting kinetic units [6].

The interaction between kinetic units and speech underscores the multimodal nature of communication, where various channels combine to create cohesive messages. For instance, open hand movements and upright posture enhance authority in professional settings, paralleling prosodic features like intonation in speech. Gesture clusters, such as pointing combined with leaning forward, intensify communicative intent, aligning with verbal content and reinforcing key points [5, p. 236].

**RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ / NATIJALAR).** The findings underscore the critical role of kinetic units in multimodal communication,

demonstrating their ability to complement verbal language and independently convey meaning. Gestures, body movements, and nonverbal cues enhance semantic depth, emotional resonance, and pragmatic clarity. Basic motion units like hand movements and posture shifts form the foundation for composite gestures, such as pointing to emphasize spatial references or shrugging to express uncertainty [3, p. 47]. Kinetic units synchronize with speech to create cohesive multimodal messages. Pointing gestures, for example, anchor deictic expressions like "this" in physical space, while nodding or head tilts reinforce conversational cues such as agreement. In educational settings, expansive gestures and deliberate posture adjustments improve comprehension and engagement, acting like verbal discourse markers [7, p. 91].

Cultural analysis reveals the variability of gestures across societies, such as bowing in East Asia symbolizing respect and hierarchy, while handshakes in the West signify professionalism. Misinterpretation of gestures, like the "thumbs up" symbol in some regions, highlights the need for cultural competence in intercultural communication [6].

In professional and leadership contexts, gestures such as open-hand movements and upright posture enhance authority and trustworthiness. Gestural clusters, like pointing combined with leaning forward, amplify communicative intent and parallel prosodic features in speech, such as intonation [5, p. 236].

**CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / XULOSA).** This study highlights the essential role of kinetic units in multimodal communication, demonstrating their ability to enhance semantic clarity, emotional resonance, and interpersonal rapport. Gestures, body movements, and nonverbal cues synchronize with speech to form cohesive messages, showcasing their cognitive efficiency and seamless integration with verbal elements. The cultural significance of kinetic units underscores

their ability to reflect societal norms and values. Gestures like bowing in East Asia and handshaking in the West serve as culturally specific markers of respect and professionalism, emphasizing their importance in cross-cultural communication. However, the variability in gesture meanings also highlights the need for cultural competence in globalized interactions. By integrating linguistic, psychological, and cultural perspectives, this study shows that kinetic units are not only complements to verbal language but also independent carriers of meaning. Their structural and cultural relevance makes them indispensable in fostering effective communication in educational, professional, and intercultural contexts. Future research should explore their evolving applications in digital and globalized environments.

#### REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Nabiyeva, D. B., & Ashurali, M. B. (2023). The role of paralinguistic tools in the communication process. *Involta Innovation Scientific Journal*, 2(1), 17–21.
2. Corletto, L. (2020). Kinesthetic language: A dialect of kinesics. *CSUSB ScholarWorks*.
3. Patel, M. (2014). Body language: An effective communication tool. *IUP Journal of English Studies*, 9(3), 47-55.
4. Donald, R., & Richard, J. (1978). Nonverbal communication: A functional perspective. *Journal of Counseling Psychology*, 25(1), 35-39.
5. Cesario, J., & Higgins, E. T. (2008). Making Message Recipients "Feel Right": How Nonverbal Cues Can Increase Persuasion. *Psychological Science*, 19(5), 415-420. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9280.2008.02102.x>
6. Hyisung, C. (2013). Cultural similarities and differences in emblematic gestures. *Springer*.
7. Nasrin, M. (2017). The role of nonverbal cues in academic success. *Journal of Advances in Medical Education & Professionalism*, 5(2), 91-97.



## MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA GENDER IDENTIFIKATSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna, Xalqaro Nordik universiteti  
katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0008-2953-4379>

## DEVELOPMENT OF GENDER IDENTITY IN PRESCHOOL AGE

Razzokova Mahliyo Kasimjonovna, Senior lecturer of the  
International Nordic University

e-mail:  
mahliyoqosimjonovna06@gmail.com

## РАЗВИТИЕ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ДОШКОЛЬНОМ ПЕРИОДЕ

Раззокова Махлиё Касимжоновна, старший преподаватель  
Международного университета Нордик

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishi muhim masala bo'lib, bu jarayon bolalarning rivojlanishi va ijtimoiylashuviga olib keladi. Ota-onalar va pedagoglar bolalarga gender rollarini o'rgatishda namuna ko'rsatishlari, gender stereotiplarini minimallashtirishlari va ochiq muloqot qilishlari zarur. Genderifikatsiyasi rivojlanishida oila, maktabgacha ta'lim, shaxsiy va madaniy muhit muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonning sog'lom rivojlanishi uchun qulay muhit zarur.

**Kalit so'zlar:** gender, maktabgacha davr, gender identifikatsiya, gender ta'limi, stereotip.

**Abstract:** Preschool education is an important issue in the development of children's gender identity, and this process leads to the development and socialization of children. Parents and teachers should set an example in teaching children gender roles, minimize gender stereotypes and communicate openly. Family, preschool education play an important personal and cultural role in the development of genderization. In order for this process to be healthy and develop, a favorable environment is necessary.

**Key words:** gender, preschool period, gender identity, gender education, stereotype.

**Аннотация:** Дошкольное образование является важным вопросом в развитии половой идентичности детей, и этот процесс приводит к развитию и социализации детей. Родители и педагоги должны подавать пример в обучении детей гендерным ролям, минимизировать гендерные стереотипы и открыто общаться. Семья, дошкольное образование играют важную личностную и культурную роль в развитии гендеризации. Для того чтобы этот процесс был здоровым и развивался, необходима благоприятная окружающая среда.

**Ключевые слова:** гендер, дошкольный период, гендерная идентичность, гендерное образование, стереотип.

**KIRISH.** Gender - bu yosh bolalar tushunishi uchun ko'p harakat qiladigan shaxsiyat elementidir. Bu shuningdek, erta bolalik davrini tarbiyachilar har doim ham eng yaxshi tarzda hal qilishni bilmaydigan mavzu hisoblanadi. Hozirgi kunda tinmay bong urilayotgan gender masalasi

pedagoglar va yosh avlod tarbiyachilarining ham xayollarini shamoldek to'zg'itib yubordi. Chunki masalaga turlicha yondashuvlar paydo bo'ldi, ularning hammasini ham to'g'ri deb bo'lavermaydi. Mana shu masalaga kelganda oqsash paydo bo'lganini bugungi kunda ta'lim-tarbiya



jarayonimizda kuzatib kelmoqdamiz. O'tgan 9 yillik pedagoglik faoliyatim davrida men yosh bolalarda gender o'ziga xosligi haqidagi g'oyalari o'zlari tomonidan rivojlantirilayotganini kuzatdim. Tez orada men gender ifodasini kattaroq ijtimoiy adolat masalasi sifatida tushunib yetdim, maktabgacha ta'lim guruhlarida tashqi ta'sirlar qanday ta'sir etayotganini, bolalarning o'zaro munosabatlariga, o'yin va izlanish tanlashlariga ta'sir etayotganini angladim.

Bu masala mening professional hayotimdagi katta ustuvor vazifaga aylandi, bu meni o'zgarishlarni himoya qilish yo'llarini izlashga olib keldi. Bu ishtiyoqning ba'zilarini gender identifikatsiyasini tanlov deb qabul qilish fikri xato ekanligi, ota-onalarda va tarbiyachilarda jinsiy tarbiya berish noto'g'ri tushunilgan va bu tarbiyaning nihoyatda nozik va muhim ekanligini bildiradi. Bu shaxsiy tajribalar meni maktabgacha yoshdagi bolalarning kichik yoshdanoq gender identifikatsiyasini rivojlantirish bo'yicha izlanishlarga olib keldi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Gender identifikatsiyasi rivojlanishini tushunish uchun dastlab ayrim nazariyalarni o'rganish zarur. Shu sohada taniqli nazariyotchilar – Lawrence Kohlberg, Sandra Bem, Albert Bandura, Carol Martin va Charles Halversonlar hisoblanadi. Bu nazariyotchilar bolalarning gender identifikatsiyasi shakllanishi bosqichlarini, ijtimoiy ta'sirni va kognitiv omillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratgan[1].

Kohlbergning gender identifikatsiyasi rivojlanishi nazariyasi uch asosiy bosqichdan iborat:

Gender identifikatsiyasi (2-3 yosh) – bola o'z jinsini anglay boshlaydi va o'zini qiz yoki o'g'il bola sifatida tanishtira oladi.

Gender barqarorligi (3-4 yosh) – bola jinsining o'zgarishligini tushunib, bu identifikatsiyani mustahkamlaydi.

Gender doimiyligi (5-7 yosh) – bola jinsning tashqi ko'rinishga qarab emas, balki biologik xususiyatlarga asoslanganligini tushunadi[2].

Sandra Bemning gender sxemalari nazariyasi esa bolalarning o'z jinsiga mos keladigan sxemalarni shakllantirishi va ularni amaliyotda qo'llashini

tushuntiradi. Bemning tadqiqotlariga ko'ra, bolalar gender rollarini jamiyatda qabul qilingan qoidalar orqali o'rganadi[3].

**MUHOKAMA.** Gender ta'limi – bolalarda haqiqiy erkaklar va ayollar haqida g'oyalarni shakllantirish va bu insonning normal va samarali ijtimoiylashuvi uchun zarurdir. Pedagoglar va ota-onalarning ta'siri ostida maktabgacha yoshdagi bola jinsiy rolni yoki insonning xatti-harakatlarining gender modelini o'rganishi kerak, shunda u ayol yoki erkak sifatida aniqlanadi[4].

Gender ta'limi nafaqat bolalarga o'zlarini u yoki bu jins vakili sifatida tan olishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Gender tarbiyasining dolzarbligi bolada o'z jinsi haqidagi barqaror tushunchani shakllantirishdan iborat – men qizman; men o'g'il bolaman va har doim shunday bo'ladi [4].

Gender ta'limining dolzarbligi haqida gapiradigan bo'lsak, pedagoglar va ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarni gender tarbiyalashda gender ta'limi o'yinlari kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

“Oila” rolli o'yini illyustratsiyalar, badiiy adabiyotlar yordamida suhbatlar va hokazo;

Axloqiy mazmunga ega muammoli vaziyatlar;

Onalar, dadalar, do'stlar uchun sovg'alar tayyorlash;

Didaktik o'yinlar: “Kim nima qilishni yaxshi ko'radi?”, “Kimga nima?”, “Men o'sib bormoqdaman”, “Nima umumiy, biz qanday farq qilamiz?”, “Men shundayman, chunki ...”, “Kim bo'lish kerak?”, “Bolani kiyintir, qizni kiyintir”.

Pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda gender yondashuvini talab qilishi haqida tobora ko'proq gapirmoqda. Hamma ota-onalar bu atamaning ma'nosini bilishmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning gender ta'limi bolalarning jinsiga muvofiq individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirish masalasi bugungi kunda psixologiya va pedagogika sohasida muhim o'rin tutadi. Gender identifikatsiyasi – bola o'z jinsiga xos xususiyatlarni anglash, o'zini shu

jamoaga mansub his qilish va shu asosda ijtimoiy rollarni qabul qilish jarayonidir[6].

**NATIJALAR.** Gender identifikatsiyasi rivojlanishida oila muhiti muhim o‘rin tutadi. Bolalar oiladagi jinsiy rollarni kuzatish orqali ularni o‘rganadi. Masalan, ota-ona o‘z xatti-harakatlari, ishlari va munosabatlari orqali bola ongiga erkak va ayol rollari haqidagi dastlabki tushunchalarni singdiradi. Shu orqali bola ijtimoiy va hissiy jihatdan jinsiga mos keladigan rol modellarini shakllantiradi.

Bolalar bog‘chada turli faoliyatlarga jalb qilinadi va gender rollari bilan bog‘liq o‘yinlar o‘ynaydi. Bu muhitda tarbiyachilarning munosabatlari va o‘yinlarda tanlangan rollar bolalarning gender identifikatsiyasini shakllantirishga ta‘sir qiladi. Genderga asoslangan o‘yin va faoliyatlar bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida o‘z jinsiga xos ko‘nikmalarni egallashiga yordam beradi.

Jamiyatda mavjud gender stereotiplari va madaniy qadriyatlar bolalarga turli yo‘llar bilan ta‘sir qiladi. Masalan, “o‘g‘il bolalar kuchli, qiz bolalar muloyim bo‘lishi kerak” kabi tushunchalar bolalarning gender identifikatsiyasi shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu stereotiplar ko‘pincha bolalar kiyimi, o‘yinchoqlari va o‘yinlariga oid tanlovlarda ham namoyon bo‘ladi[5].

Axborot manbalari, ayniqsa, televizion dasturlar va bolalar kitoblari gender identifikatsiyasi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ba‘zi telekanallar bolalarga jinsga xos rollarni targ‘ib qilish orqali genderni oid stereotiplarni kuchaytiradi. Masalan, qahramonlar orasida qiz bolalar o‘ziga g‘amxo‘rlik qiluvchi va o‘g‘il bolalar jasorat ko‘rsatuvchi tarzda tasvirlanishi mumkin.

**Gender identifikatsiyasining rivojlanishida ota-onalarga tavsiyalar.** O‘rnak bo‘lish: Ota-onalar farzandlariga gender rollari haqida nafaqat so‘zlar, balki amaliy namuna orqali tushuntirishlari kerak. O‘g‘il bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda qilish, qiz bolalarga esa faol va yetakchi bo‘lish imkoniyatlarini berish kerak.

Genderni bog‘liq stereotiplarni minimallashtirish: ota-onalar qiz va o‘g‘il bolalarga bir xil imkoniyatlar yaratishi lozim. Masalan, qizlarga faqat yumshoq o‘yinchoqlar, o‘g‘il bolalarga esa faqat mashinalar berish gender stereotiplarini kuchaytiradi.

Ijobiy kommunikatsiya: bolalar bilan ochiq muloqot qilish, ularning savollariga javob berish va jins bilan bog‘liq tushunchalarni to‘g‘ri yetkazish muhim. Bolalar bilan jinsning o‘zgaruvchanligini va ularning insoniy xususiyatlarga qanday ta‘sir qilishini muhokama qilish foydali bo‘ladi[6].

**XULOSA.** Maktabgacha yoshda gender identifikatsiyasini shakllantirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali hisoblanadi. Bu jarayon bolalarning psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va o‘ziga ishonchini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy, ijtimoiy va madaniy omillar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, gender identifikatsiyasini sog‘lom va ijobiy shakllantirish uchun ota-onalar va ta‘lim muassasalari mas‘uliyatni anglab, bolalarga sog‘lom gender identifikatsiyasini shakllantirish uchun qulay muhit yaratishlari zarur.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Kendra Cherry. Gender Schema Theory and Roles in Culture. Updated on October 26, 2023.
2. Lawrence Kohlberg. A Cognitive-Developmental Analysis of Children’s Sex-Role Concepts and Attitudes. 1966. – 18 p.
3. Nagel O. Maktabgacha yoshdagi bolalarning gender ta‘limi haqida. //Maktabgacha ta‘lim jurnali, 2008. – B. 232-238.
4. *Бондаренко Р.А. Педагогические условия полоролевой социализации подростков: Дис. ... канд. пед. наук:13.00.01. – Ярославль, 1999.165 с.*
5. Бужигеева, М.Ю. Гендерные особенности детей на начальном этапе обучения / М.Ю. Бужигеева. // Педагогика. - 2002. -№ 8. - С. 29-35.
6. Доронова Т. Девочки и мальчики 3-4 лет в семье и детском саду. – М.: Линка-пресс, 2009.
7. **Muqaddas Kurbanbayeva.** BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA SIFATLI VA SAMARALI TAYYORLASH. (2024). *TAMADDUN NURI JURNALI*, 4(55), 425-428. <https://doi.org/10.69691/wnanmp84>

## O‘ZBEK TILI LINGVOMADANIY POTENSIALINI KO‘RSATISHDA O‘XSHATISHLARNING AHAMIYATI

*Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna, Alisher Navoiy nomidagi  
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi*

## THE IMPORTANCE OF ANALOGIES IN SHOWING THE LINGUISTIC AND CULTURAL POTENTIAL OF THE UZBEK LANGUAGE

*Tursinbaeva Shakhlokhon Alimbaevna, researcher of Toshlyme  
State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher  
Navoi*

## ЗНАЧЕНИЕ АНАЛОГИЙ В ПОКАЗЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

*Турсинбаева Шахлохон Алимбаевна, научный сотрудник  
Ташкентского государственного университета узбекского языка  
и литературы имени Алишера Навои*



e-mail:

[shaxloxontursinbayeva@gmail.com](mailto:shaxloxontursinbayeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy aspektda o‘rganilgan. Xususan, o‘zbek tilida o‘xshatishlarning milliy o‘ziga xosligi bevosita o‘zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va maishiy hayotini ko‘rsatib beruvchi, o‘zbek xalqiga xos xarakter, xislatlarning ifodalanishi hamda adabiy-badiiy tilda aks etishini ko‘rsatuvchi bu lingvomadaniy birlik imkoniyatlarini Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” asari asosida jamlangan misollar orqali ochib berishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvomadaniyat, o‘xshatish, turg‘un o‘xshatishlar, novator o‘xshatishlar, potensial.

**Аннотация:** В данной статье лингвокультурные особенности сравнений изучаются в сравнительном аспекте. В частности, национальная специфика сравнений в узбекском языке непосредственно отражает общественную, культурную и бытовую жизнь узбекского народа, выражение характера и особенностей узбекского народа и показывает, что она находит свое отражение в литературно-художественном творчестве. Язык направлен на раскрытие возможностей языкового и культурного единства на примере «Великого султаната» Мухаммеда Али.

**Ключевые слова:** лингвокультура, сравнение, устойчивые сравнения, инновационные сравнения, потенциал.

**Abstract:** In this article, the linguacultural features of comparisons are studied in a comparative aspect. In particular, the national specificity of comparisons in the Uzbek language directly reflects the social, cultural and everyday life of the Uzbek people, the expression of the character and characteristics of the Uzbek people and shows that it is reflected in literary and artistic creativity. The language is aimed at revealing the possibilities of linguistic and cultural unity using the example of the “Great kingdom” of Muhammad Ali.

**Key words:** linguistic culture, simile, stable similes, innovative similes, potential.

**KIRISH.** Tilshunoslikda shunday hodisalar mavjudki, ular turli yondashuvlar asosida tadqiq etilsa ham, ma'lum jihatlari sirligicha qolaveradi. Chunki ular til sistemasida yashar ekan, ularning sistem-struktur tabiati yagona tadqiqot orqali ochib berilishi mumkin, lekin nutqdagi cheksiz "tovlanishlari", pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik qirralari alohida tadqiqotni talab etadi. Til sistemasidagi shunday sirli va murakkab hodisalardan biri o'xshatishlar hisoblanadi.

O'xshatishlar — har bir xalqning milliy-madaniy boyligi bo'lib, ular o'zida milliy dunyoqarash, predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir.

Badiiy matnda o'xshatishlardan foydalanish bu yaratilayotgan badiiy asar talabi va tabiiy jarayondir. Ammo badiiy matnning quroli badiiy so'zligini hisobga olsak, bu har qanday so'z emas, balki qahramon yoki obyektning ruhiy-ijtimoiy, jismoniy, tasviriy holatini "o'qirman" ko'z o'ngida jonlantirishdagi muhim omillardan biridir. Tadqiqot mavzusi sifatida Muhammad Alining "Ulug' saltanat" asaridan to'plangan o'xshatishlar ham turg'un, ham novator o'xshatishlar bo'lib, asar qadr-qimmatiga o'z estetik jozibasi va xalqmizning dunyoni o'z ma'naviy qarashlari orqali qanday idrok etishi, olamning lisoniy manzarasini tilda qanday holatda aks ettirishini bo'rttirishlarsiz va o'zbek tilining boy ichki imkoniyatlari orqali yozuvchi qalamga olgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Ta'kidlash joizki, ma'lum bir millatning fikrlash tarzi va usulini ochib berishda lingvomadaniy birliklar sifatida paremiologik birliklar qatori *o'xshatish, metafora, metonimiyalar* alohida o'ringa ega ekanligi ko'plab lingvokulturologik adabiyot va tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Turg'un o'xshatishlar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan dastlabki tadqiqotlar rus tilshunosligida

L.G.Boyko va Yu.Feninlar tomonidan tadqiq qilingan va ularning baho munosabati hamda milliy-madaniy konnotatsiyasi aks etgan madaniy markerlangan mundarijasini yaratish bilan boshlangan[1,13]. O'zbek tilshunosligida R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov, D.Xudoyberganova va N.Mahmudovlar<sup>1</sup> izlanishlarini keltirishimiz mumkin. N.Mahmudovning o'zbek tili turg'un o'xshatishlari haqidagi maqolalari o'zbek tilshunosligida o'xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlar hisoblanadi. Shuningdek, N.Mahmudov va D.Xudayberganovalar tomonidan tuzilgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da tilimizdagi 500dan ziyod o'xshatishlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan yoritib berilgan.

Lingvokulturologik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan ishlardan biri D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasidir. Ishning IV bobida aspektlar birma-bir izohlanadi va eng muhim aspekti sifatida esa o'xshatish va metaforalarni ilmiy jihatdan asoslangan misollar bilan tushuntiradi[2]. Chunki matnda keltirilgan o'xshatishlar madaniyatni yaqqol aks ettiradigan vosita bo'lib qolmay, madaniyatlarni namoyon etuvchi hodisa hamdir.

Mazkur masalaga — o'xshatishlarga oid oxirgi izlanishlardan biri F.Usmonovning "O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'lib, o'xshatishlar keng qamrovda o'rganish obyektiga aylantirilgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** O'xshatishlar — tildan foydalanish jarayonida insoniyat ma'lum bir voqea-hodisalarni izohlash uchun turli so'z va jumla, ibora hamda qiyoslardan unumli foydalanib kelishgan. Shu zaylda nutqimizda o'xshatishlar

<sup>1</sup> Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. — Тошкент: Фан, 1977. — 152 б.; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. — Тошкент: Фан, 1976. — 88 б.; Худайберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. ...канд.филол.наук. —Ташкент, 1989. — 127 с.

Махмудов Н. Ўхшатишлар — образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 2011. — №3. — Б. 19-24; Махмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ / Тил тилсими тадқиқи. —Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. —Б. 166-175.



vujudga kelgan. Insonlar o'zlari uchun begona yoki hali noma'lum bo'lgan vaziyatni tushuntirish uchun doimo biror predmetga qiyoslash va yoki o'xshatishga ehtiyoj sezadi. Bu individ nutqining mukammallashishi va rivojlanishiga olib kelgan. Shuning uchun ham badiiy asarlarda xoh u nazm

bo'lsin, xoh u nasr, qalamnavis va shoirlar o'xshatishlardan keng foydalanishadi. O'xshatish jarayonida ularni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar ishtiroki muhim ahamiyatga egadir. Ular quyidagicha:

<i>Affikslar vositasida</i>	<i>So'zlar vositasida</i>
<i>-day(-dek), -simon, -ona, -omuz, -namo, -larcha, -chasiga, -dan.</i>	<i>sifat (o'xshash, teng), ko'makchi (kabi, singari, qadar), bog'lovchi (go'yo, go'yoki), olmosh (o'zi), ravish (aynan)</i>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Temurbekning o'zi bir guruh bahodirlar ichida yulduzlar o'ramidagi <b>oydek</b> balqib yo'lga tushdi.</li> <li>2. O'tirgan joyida yumaloq buyum<b>day</b> bo'ldi-qoldi.</li> <li>3. ...ko'p sa'y-harakatlar ko'rgizildi, ammo barchasi toshga yoqqan yomg'ir<b>dek</b> benaf ketdi.</li> <li>4. <b>Malaksiymo</b></li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tabiati bahor havosi <b>kabi</b> o'zgaruvchan.</li> <li>2. Dunyo - odam shakl<b>idagi</b> ilon va chayonlarga to'la oltin sandiqning <b>naq o'zi</b> ekan.</li> <li>3. Dastavval, ikki tomon uzoqdan o'q otishib, <b>go'yo</b> bir-birlarini qitiqlab sinashganday bo'ldirlar.</li> <li>4. <b>Bamisli</b> yangi ochilgan atirguldai toza</li> <li>5. <b>Xuddi</b> oqqush suzib ketayotganday</li> <li>6. Temurbek ulkan daryo ekan, butun dolg'alari tubida pinhon, sirdan esa limmo-lim to'lib oqayotgan Jayxun <b>singari</b> sokin...</li> </ol>

Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romanida **-day, -dek** affikslaridan keng foydalangan, hatto, so'z vositasida yasalgan o'xshatishlar bilan solishtirganda ham, deyarli affiksli o'xshatishlarning barchasi shu qo'shimchalar bilan yasalgan. Bundan ko'rinadiki, badiiy adabiyotda va tilda o'xshatishlarni hosil qilishdagi bu affiksial vositalar eng ko'p foydalaniladigan unumli qo'shimchalardir.

Lingvomadaniyatshunoslikning funksiyasi millat madaniyatini namoyon etuvchi til birliklarining milliy-madaniy mazmunini ochib berish hamda uning tili orqali madaniy streotiplarini aniqlash va shu bilan birga ushbu madaniyatning qadriyatlar tizimini idrok etishdir. "S.V.Ivanov va Z.Z.Chenisheva streotiplarning etnomadaniy konnotatsiyasi, asosan, metaforik va metonimik ko'chimlar, o'xshatishlar, iboralar hamda maqollarda ko'rinadi deb hisoblaydi"[1,11].

Bu o'rinda olamning konseptual manzarasini ijodkor o'zi yaratayotgan badiiy asarda olamning lisoniy

manzarasi sifatida ifoda etishi kerak. Sababi, olamning konseptual manzarasi tushunchasi lisoniy manzarasiga qaraganda keng qamrovli tushunchadir. F.Usmonov ta'biri bilan aytganda, "Olamning lisoniy manzarasi uning konseptual manzarasiga teng emas, uning tilda ifoda topgan qismidir. O'z ifodalovchisiga ega bo'lish esa shu konseptning millatning amaldagi kommunikatsiyasida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Olamning konseptual manzarasi uning lisoniy manzarasiga nisbatan keng va serqirradir. Chunki konseptual manzara yaralishida tafakkurning turli, jumladan, noverbal shakllari ishtirok etadi. Milliy til, aniqrog'i, uning egasi konseptual manzarani milliy-madaniy libosga o'raydi"[1,10-11].

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, romanda 4 xil o'xshatishlardan keng foydalanilgan va bu o'xshatishlarda xalqning milliy streotiplarini hamda qadriyatlarini ko'rishimiz mumkin:

1.	Zoonim bilan bog'liq o'xshatishlar;	<p><b>Burgutday</b> qanot bog'lab uchsalar kerak!  <b>Itday</b> quvib haydamoq  Haybati <b>sherday</b>  Yuraklari qafasdagi <b>qushday</b> potardi.  Begunoh <b>qo'zichoqlarday</b> omonatgina yotishgan  <b>Chigirtkaday</b> boshingni uzib tashlardim, ablah!  ...bamisoli o'ljasiga tashlangan <b>qoplonday</b> haligi odam ustiga o'zini otdi.  <b>Musichalarday</b> mungrashib  Kin-u adovat daryosining <b>nahang balig'i</b> Zindachashm-opardiy o'sha daryoning o'zida g'arq bo'ldi.  Onasining pinjiga qisingan <b>qulunday...</b> qulog'iga nimalarnidir shivirlay boshladi  Ey <b>buqalamuni</b> kajraftor dunyo!  Zindachashm-opardiyning kulgisi, kulgi emas, ko'proq qafasga tushib qolgan <b>sher bolasining</b> alamli nidosiga o'xshab ketdi.  Yurakni kattaligini ko'ringiz! Naq <b>otning kallasi-ya</b>  <b>Zarg'aldoqday</b> tilda bor-u, dilda hech narsa bo'lmaydi  <b>To'rg'ayday</b> tili tutilib qoladi  <b>Bo'riday</b> shiddatli  <b>Yo'lbarsday</b> kuchga to'lgan  <b>Ayg'irday</b> chopag'on  No'xtalangan <b>otday</b> aqli to'lishdi</p>
2.	Osmon jismlari va hodisalari bilan bog'liq o'xshatishlar	<p>Xonzoda xonim o'zini o'sha <b>osmonga intilgan</b>, undan bahra olgan, mehri bilan yashnagan <b>yerday</b> tutmakka rozi!  Husni ortib, <b>oyday</b> balqib ko'rinar.  ...ko'p sa'y-harakatlar ko'rgizildi, ammo barchasi toshga yoqqan <b>yomg'irdek</b> benaf ketdi.  Tim qora <b>hilol</b> qoshlari o'ziga yarashgan  <b>Yulduzdek</b> yarq etmoq  Yer to'shak, <b>Osmon</b> ko'rpa bo'libdi.</p>
3.	Fitonimlar bilan bog'liq o'xshatishlar;	<p><b>Chirmovuqday</b> chirmashingiz  O'ng-u so'lda yana ham quyiroqda har joyda qorovullarning olachuqlari ko'klam yomg'iridan so'ng bodrab chiqqan <b>qo'ziqorinlarday</b> sochilib yotardi.  Yomg'ir qatralaridek behisob, <b>daraxt barglaridek</b> beaded qo'shin  Surx <b>novdaday</b> nozik qo'llarini  Iqbol bo'stonining <b>guli</b>  <b>Anoday</b> ko'ksidan  Chiroyli ekilgan <b>daraxtlar</b>, sarkardasini qarshi olgan navkarlarday saf tortishganча, rang-barang <b>gullar esa xushchaqchaq, ochilishib-sochilishganча kutib olardi.</b>  <b>Yaproq</b> yozmoqqa shaylangan <b>chechak</b>, ochilib o'z ko'rk-u jamoli bilan olamni hayratga solmakni diliga tukkan <b>bir g'unча.</b></p>

4.	Diniy qarashlar bilan bog'liq o'xshatishlar.	<p>Sendek bevafo <b>iblisning</b> jazosi faqat o'lim</p> <p><b>Hur</b> qizlarday</p> <p><b>Bilqisi</b> zamona</p> <p><b>Jannatday</b></p> <p><b>Behishtdek</b></p> <p><b>Hurliqoday</b></p> <p><b>Malaksiymo</b></p> <p><b>Parilardek</b> g'oyib bo'ldi</p> <p><b>Farishta</b> kabi suyuklik</p>
----	--	--

Yuqorida keltirilgan o'xshatishlar orqali shuni ta'kidlashimiz mumkinki, turkiy xalqlar qadimdan ko'chmanchi bo'lganligi sababli **“ot”** zoonimini alohida qadrlashgan va buni ko'plab nutqni yaratish va mukammallashtirishdagi vositalar, ya'ni til birliklarida (*ibora, maqol, matal va o'xshatishlar*) o'z ifodasini toptirganlar. O'xshatishlar ichida **“qo'zichoq va qulun, qo'y va buzoq”** bilan aloqador qiyoslashlar ham mavjud. Bular xalqning qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanganligini bildirgan va tilga bevosita singib ketgan, natijada bugungi kungacha bunday o'xshatishlar tilda saqlanib qolgan, shu bilan birga unumli foydalaniladi.

**“Bo'ri”** zoonimi barcha turkiy xalqlar uchun kult darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bo'ri doimo kuch-qudrat ramzini ifodalab kelgan. Lekin barcha xalqlarda ham bunday emas. Masalan, rus, fransuz va inglizlarda **“bo'ri”** zoonimi qonxo'rlik va ochko'zlik ramzini bildiradi.

- 1) Eat like a wolf – bo'ridek yemoq;
- 2) Greedy as a wolf – bo'ridek yeb to'ymas;
- 3) Une faim de loup – bo'rining ochligi [3,16].

Bu shundan dalolatki, o'xshatishlar yaratilish jarayonida baho semasiga alohida ahamiyat beriladi. Baholash jarayonida salbiy yoki ijobiy baho berish individning ongidagi madaniy stereotiplarga uzviy bog'liqdir. Ya'ni **“...bunda millatning qadriyatlarini, asrlar davomida shakllangan madaniy me'yorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qiyoslash amaliyotida inson baho obyekti bo'lganda ham, baho subyekti bo'lganda ham mezon uning o'zidir. Bu inson olam uzvlariga baho berayotganda har qanday holatda o'zining ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari va boshqa qarashlari asosiy mezon vazifasini o'tashini anglatadi. Shunday qilib, til belgisi semantikasida reallashgan baho munosabati madaniy**

konnotatsiyani aks ettiradi”[1,16]. O'xshatishlarning, asosan, ijobiy yoki salbiy konnotatsiyasini aniqlashda **“biomorf kod”** [1, 19] muhim ahamiyatga ega. O'xshatishlarda biomorf kod orqali insonning deyarli barcha xususiyatlari aks ettirilishi mumkin: jasurlik – *burgutdek*, baquvvatlik – *ayiqdek*, mashaqqatli mehnat qilish – *itdek*, avramoq – *ilondek*. O'zbek tilida salbiy munosabatni ifodalovchi kod – ilondir. Fauna guruhi vakillarining ko'pini **ambivalent** etalonlar deb atash mumkin. Bo'ri – hamla qilish ma'nosi ifodalanganda yirtqichligi tufayli salbiy baholansa, shu etalonlar vositasida baquvvatlik va mardlik xususiyati aks etishi bilan ijobiy konnotatsiya ko'rsatadi[1,19]. **“Bo'riday shiddatli”** – bir vaqtning o'zida ham ijobiy ham salbiy konnotatsiya berishi mumkin, faqatgina uning ijobiy yoki salbiy baho ekanligini matndan anglashimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan zoonimlar o'zbek mentalitetida ijobiy rol kasb etgani bilan boshqa xalq va mentalitetlarda turlicha ma'no qirralariga egadir. Masalan, **“qo'y”** zoonimi mentalitetimizda **“qut-baraka”** timsoli bo'lsa, rus mentalitetida bu – **“ahmoqlik va nodonlik”** ma'no qirralariga ega. Yoki **“eshak”** zoonimi kognitiv fikrlash tarzimizda – **“qaysarlik”**ni anglatadi, ingliz va fransuz tillatida bu zoonim – **ayyorlik, qo'rqqoqlik va yo o'ziga ortiqcha ishonib ketish, maqtanchoqlikdan tashqari odamning yana bir kamchiligi – ahmoqligini ham bildiradi. Masalan, Every ass likes to hear himself bray – har qanday eshak o'zining hangrashini eshitishni yaxshi ko'radi. Les ânes parlent latin – eshaklar lotin tilini yoqtirishadi** (boshqalarning maslahatiga quloq solishni istamaydigan ahmoqlarga nisbatan qo'llanilgan) [3,18]. **“It”** zoonimi ko'p hollarda salbiy ma'no ottenkasini

berishda qo‘llaniladi va asosan, o‘xshatish, maqol, matal va frazemalarda bunday holatlarning ko‘p bora guvohi bo‘lamiz. Asarda “*itday quvib haydamoq*” shaklida salbiy ma‘no ifodalash maqsadida qo‘llanilgan. Masalan, D.Baxronovanning “Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi”[4] monografiyasida “*it*” zoonimi salbiy ottenkada barcha madaniyatlarda qo‘llanilishi, xususan, ispan madaniyati misolida keltiradi. “*Itning duosi qabul bo‘lsa edi, osmondan suyak yog‘ardi*”, ya‘ni xulqi buzuq odamlarning qarg‘ishi qabul bo‘lmasligi ochib berilgan.

Osmon jismlari va u bog‘liq bo‘lgan o‘xshatish va qiyoslashlar qadimdan mavjud va u bugun ham tilimizda keng iste‘molda. Muhammad Ali “Ulug‘ saltanat” asarida, aynan, XIV va XV asrlarni yaqqolroq aks ettirish va muhitga kitobxonni jalb qilish va his ettirish maqsadida bunday o‘xshatishlardan unumli foydalangan.

Fitonimlar vositasida, asosan, asarda lashkar miqdori va kuch-qudratni ifodalashda “*daraxt, yaproq va qo‘ziqorin*” o‘xshatishlaridan keng foydalanilgan bo‘lsa, “*gul, g‘uncha va novda*” qiyoslari orqali ayollarning latofatini hamda qahramonlarning ruhiy kechinmalari o‘z aksini topgan.

Diniy qarashlar bilan bog‘liq o‘xshatishlarda esa “*hur, farishta, Jannat, iblis*” kabi obrazlar

ishtirokida turg‘un o‘xshatishlardan foydalanilgan. Shu bilan birga, bu konseptda sinonimik qatorlardan ham mahorat bilan foydalanilgan.

**Hur** — *farishta, hurliqo, malaksiymo, pari.*

**Jannat** — *bihisht.*

**Iblis** — *shaytoni la‘yin, mal‘un, kabi.*

Badiiy asar yaratilishi jarayonida yozuvchi va ijodkorlar ikki xil o‘xshatish tizimidan foydalanishadi. Biri individual o‘xshatish bo‘lsa, boshqasi turg‘un o‘xshatishdir.

**1. Individual** — muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar;

**2. Umumxalq yoki turg‘un (doimiy)** o‘xshatishlar farqlanadi [5].

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratadi, bu o‘xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o‘quvchini jalb qiladi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi. Asarda keltirilgan quyidagi o‘xshatishlar ham individual bo‘lib, faqatgina Muhammad Ali ijodidagina uchraydi.

1.	<i>Jahongir Mirzoning xayollari chang‘aroqqa borib urindi, undan o‘tib erkin qushlardek bepoyon osmon qa‘rlariga otildi.</i>	<b>-dek</b> affiksi asosida yaratilgan individual o‘xshatish
2.	<i>Temurbek ulkan daryo ekan, butun dolg‘alari tubida pinhon, sirdan esa limmo-lim to‘lib oqayotgan Jayxun singari sokin...</i>	<b>“singari”</b> o‘xshatish vositasi orqali yasalgan
3.	<i>Birovlar shamol bo‘ladi, ularga sir aytsang, og‘zingdan yulib olib butun dunyoga yoyadi.</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
4.	<i>Chiroyli ekilgan daraxtlar, sarkardasini qarshi olgan navkarlarday saf tortishgancha, rang-barang gullar esa xushchaqchaq, ochilishib-sochilishgancha kutib olardi.</i>	<b>-gancha</b> affiksi asosida yaratilgan individual o‘xshatish
5.	<i>Bilingizkim, iqbol niholi adolat va xayr-ehson bulog‘idan suv ichmas erkan, ul baxtiyorlik mevasini tugmas, saodat soyasini bermas...</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
6.	<i>Shahzodaning beg‘ubor kulgisi shaharning jazirama issiqda holsizlanib yotgan tuproq ko‘chasiga bezakday taqildi.</i>	<b>-day</b> affiksi asosida yaratilgan individual o‘xshatish



7.	<i>Kin-u adovat daryosining nahang balig'i Zindachashm-oparday o'sha daryoning o'zida g'arq bo'ldi.</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
8.	<i>Janub tomonda maysazorlar oxirida qishloqlar ufq qoshiga tortilgan o'smaday chiroyli ko'zga tashlanadi.</i>	<b>-day</b> affiksi asosida yaratilgan individual o'xshatish
9.	<i>Quruq yog'ochni ekib yaproq chiqishini kutib o'tiribdilar-a, tosh ustida gul o'stirmoqchilar-a valine'mat Sohibqiron!</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
10.	<i>Sipohlar qumga sochilgan suvdek shaharga sochilib ketdilar.</i>	<b>-dek</b> affiksi asosida yaratilgan individual o'xshatish

Turg'un o'xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi [6].

1. Chirmovuqday chirmashmoq;
2. Majnunvor;
3. Dokadek oqargan;
4. Shirin suhbat;
5. Naq otning kallasi-ya;
6. Otilgan o'qdek;
7. Oyday jamoling;
8. Boshini sapchaday uzmoq, kabi.

Tilshunos olimlarimizning aksariyati turg'un o'xshatishlarni idiomalarga yaqin ekanligi yoki idioma maqomida bo'lishini, kishilar nutqida ko'p vaqtlar davomida faol qo'llanilganligi sababli turg'unlashib, mustahkamlanib qolishi, o'xshatish asosidagi obrazning o'zi bog'liq bo'lgan so'z bilan yaxlitlanib, qat'iy bog'lanib qolishini ta'kidlaydi. An'anaviy o'xshatishlar umummilliy madaniyatga xos bo'lib, barcha uchun tushunarli, tanish bo'lgan o'xshatishlardir. Turg'un o'xshatishlar tilda avvaldan mavjud bo'ladi va nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Dastavval, erkin ya'ni individual tarzda vujudga kelgan o'xshatishlar yillar davomida keng iste'molda bo'lganligi bois turg'unlashib qoladi. Shu sabab, o'xshatishlar tilshunosligimizda komparativ (**"compare"** inglizcha – qiyoslamoq, solishtirmoq) iboralar deb ham yuritiladi [7].

O'zbek tilidagi inson va uning a'zolari bilan bog'liq bo'lgan turg'un o'xshatishlar ham ma'noviy jihatdan

guruhlariga tasnif qilingan bo'lib [8,94-95], ular quyidagicha:

a) *inson a'zolari bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar*: Barchasi yo'lning ikki chetida zich ekilgan teraklarday g'oz turishibdi; Surx novdaday nozik qo'llarini...

b) *insonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq o'xshatishlar*: Haybati sherday; Alpomish yanglig'.

c) *insonning jismoniy xususiyati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar*: Shaxzoda cho'pday ozib ketgandi; Novcha erkaksabziga o'xshagan;

d) *insonning ovozi bilan bog'liq o'xshatishlar*: Uning ovozi qop ichidan qovog'ari g'o'ng'illashiday eshitildi.

e) *inson nutqi bilan bog'liq o'xshatishlar*: To'rg'ayday tili tutilib qoladi.

f) *insonning xarakteri bilan bog'liq o'xshatishlar*: Bolalarday samimiy; Temurbek ulkan daryo ekan, butun dolg'alari tubida pinhon, sirtidan esa limmolim to'lib oqayotgan Jayxun singari sokin...

g) *insonning holati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar*: Salqin tog' shamoli tekkanidan miyasining qopqog'i ochilib qolganday, rohat qildi; Shu paytgacha o'zini ignaning ustida o'tirganday his qilgan chopar...

h) *insonning xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar*: Chirmovuqday chirmashingiz; Elchini xuddi bozorda xurjunlarini yo'qotgan sho'rlik bozorчилarday qaytarib yuborishim mumkin edi-yu... Otilgan o'qdek.

**XULOSA.** Muxtasar qilib aytganda, Muhammad Ali individual o'xshatishlar yaratish mahoratini va turg'un o'xshatishlardan unumli foydalanish salohiyatini yuqorida keltirilgan misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Muhammad Ali o'z romanida qo'llagan paremiologik birliklari, metafora va o'xshatishlar orqali lingvomadaniy jihatdan o'zbek tilining naqadar serqirra ekanligini va turkiy tillarning lug'at boyligi jihatidan ustun

ekanligini, bir-birini takrorlamaydigan o'xshatishlardan foydalanish orqali isbotlab beradi. O'xshatishlarni qo'llash jarayonida sinonimik qatorlardan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Har bir yaratilgan yangi o'xshatish namunalari va har bir foydalanilgan turg'un o'xshatishlarda xalqning qadriyatlarini namoyon etish bilan birga, uning streotiplarini ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. O'xshatishlar ma'lum bir xalqning va millatning milliy-madaniy potensialini ochib berishda unumli foydalaniladigan til birligi desak ham, xato bo'lmaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. – Б.13.
2. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, ЎзР ФА ТАИ, 2015, Б.94-95.
3. Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (лингвомаданий аспект). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси.
4. Вахронова Д.К. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. Fil.fan.dok... dis. -Toshkent: TURON-IQBOL nashriyoti, 2021.
5. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 5.
6. О'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B. 162.
7. Xudayarova S. Turg'un va erkin o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari. Maqola "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli, masofaviy onlayn konferensiya.
8. Xudoyberganova D. "Matnning antroposentrik tadqiqi" O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent. – 2013, bet-94-95.



## REALIYA TILSHUNOSLIKNING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

*Umarxonova Guliruxsor Murotxon qizi, Termiz iqtisodiyot va  
servis universiteti*

*Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 2-kurs magistranti*

## РЕАЛИИ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ

*Умархонова Гулирухсор Муротхон кызы, магистр 2-курса по  
специальности «Иностранный язык и литература»  
(английский язык) Термезского университета экономики и  
сервиса*

## REALIA AS AN OBJECT OF STUDY IN LINGUISTICS

*Umarxonova Guliruxsor Murotxon qizi, Termez University of  
Economics and Service  
2nd year Master student of Foreign Language and Literature  
(English language)*



<https://orcid.org/0009-0007-2075-4140>

e-mail:

[Umarxonova91@gmail.com](mailto:Umarxonova91@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola realiyalar, ularning mazmun-mohiyati, lingvomadaniy xususiyatlariga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada o'zbek tilidagi muqobilsiz leksika doirasiga kiruvchi realiyalar tahlil qilinib, tilga milliy koloritning o'ziga xosligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** muqobilsiz leksika, realiya, etnografik, frazeologik va leksik birliklar, termin.

**Abstract:** This article is devoted to realities, their essence, linguacultural features. The article also analyzes the realities that are part of the Uzbek vocabulary, and shows the uniqueness of the national coloring characteristic of the language.

**Key words:** non-equivalent lexicon, realia, ethnographic, phraseological and lexical units, term.

**Аннотация:** Данная статья посвящена реалиям, их сущности, лингвокультурным особенностям. Также в статье анализируются реалии, входящие в состав узбекской лексики, и показывается своеобразие национального колорита, характерного для языка.

**Ключевые слова:** безэквивалентная лексика, реалии, этнографические, фразеологические и лексические единицы, термин.

**KIRISH.** Realia termini lotincha “realis” – “ashyoviy”, “haqiqiy” degan ma’noni beradi va S.I.Ojegovning lug’atida qayd etilganidek, “realiyalar moddiy madaniyati predmeti, obyektiv dunyo hodisasi, alohida jism, narsa sifatida ham namoyon bo’ladi”[5].

L.K.Latishev leksik muqobilsizlikning dastlabki sababini “boshlang’ich tilning leksik birligi uning sohiblariga yaxshi tanish bo’lgan hamda til leksikasiga mustahkam o’rnashgan hodisani bildirsa, bu hodisa tarjima tili sohiblariga ma’lum bo’lmagan

va shu boisdan ularning leksik tizimida aks etmaganligida” ko’radi. Olim ularga realiya deb nomlanuvchi – faqat shu xalqning moddiy va ma’naviy hayotiga xos bo’lgan tushuncha sifatida qaraydi [4].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODLAR.** O.S.Axmanovanning “Lingvistik terminlar lug’ati”da realiya termini quyidagicha izohlanadi: “Realia (lot. realia – ashoviy, haqiqiy) – tashqi lingvistika tomonidan o’rganiladigan turli-tuman omillar – muayyan mamlakatning davlat

tuzumi, xalqning tarixi va madaniyati, mazkur til sohiblarining kommunikatsiyada ishtiroki, moddiy madaniyat predmetlari” [1].

S.I.Vlaxova va S.Florinning fikricha, “Realialar aksariyat hollarda ot soʻz turkumiga oid birliklar bilan ifodalanadi. Darhaqiqat, yuqorida koʻrib chiqilgan taʼriflardan kuzatiladiki, realialar koʻpincha predmetlar va hodisalarni nomlaydi. Shuningdek, realialar deb otdan yasalgan sifatlarni ham hisoblash mumkinki, ularning mazmuni bevosita realialar mazmuni bilan bogʻliq”[2]. Oʻzbek tilshunos olimi I.Mirzayev “Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык” nomli nomzodlik dissertatsiyasida fransuz soʻz realialarini lingvostilistik xususiyatlari va ularni oʻzbek tilida berilishini tadqiq qilgan. Olimning tadqiqotida fransuz realialarining oʻzbek tilida berilishi, tarjima muammolari badiiy adabiyot misolida ochib berilgan.

**MUHOKAMA.** Mavzu borasida olib borilgan tadqiqot natijasiga koʻra I.Mirzayev realialarni til birligining muhim leksik birligi sifatida qarab, realiya milliy xususiyatni namoyon qiladi, deb hisoblaydi va quyidagicha taʼriflaydi: “Realiya soʻzlar bir maʼnoli soʻz yoki soʻz birikmalari boʻlib, milliy tushuncha va predmetlarni, shuningdek, hodisalarni anglatadi. Realialar ijtimoiy geografik, etnografik, ijtimoiy voqelikni aks ettiradi. Shuning bilan birga realialar tegishli til qonuniyatlariga boʻysunadi”[3]. Olim realialar mavjud, tegishli boʻlgan tilning qonuniyatlariga boʻysunishi borasida fonetik, leksik va grammatik qonuniyatlarini nazarda tutadi.

Shuningdek, realialar uchun polisemiya, sinonimiya va antonimiya hodisasi xarakterli emasligi, shunga qaramay, realialarda omonimiya hodisasi kuzatilishi hamda ularning asosiy funksiyalaridan biri nominativlik ekanligini taʼkidlaydi. Olim realiya soʻzlarni “sof koʻrinishdagi termin” sifatida qaraydi. Mazkur fikrlarining isboti sifatida quyidagi oʻzbek realialarining ingliz va rus tillarida ifodalanishini kuzatishimiz mumkin: хужра – hujra– хужра, гузар – guzar – гузар, куроқ– kurok – куроқ, мисвоқ – misvok – мисвоқ, тиллақош – tillakosh – тиллақош, чакмон – чакмон – чакмон va h.k.

Realialar borasida yana bir muhim mezon A.D.Shveyser tomonidan berilgan. Bu realiyaning xabardagi funksional vazifasi mezoni boʻlib, u

Sanlastırırwdıń qaraqalpaq leksikografiyasına tásiri, ásirese, 2000-jıllardan baspa sózlikler menen bir qatarda sanlı resurslar payda bola baslaǵanına baslap sezilerli boldı. 2020-jılları baspa sózliklerden onlayn formatlar hám mobil qosımshalardı ótiw ámelge asırıldı, bul bolsa sózlik resurslarınan paydalanıwdıń qolaylılıǵın hám qolaylılıǵın sezilerli dárejede arttırdı. Lugat.uz, glosbe.com hám fromto.uz sıyaqlı platformalar paydalanıwshılardı tez hám anıq awdarma imkaniyatın jarattı, bul globalasıw hám milliy tilge qızıǵıwshılıqtıń artıwı sharayatında ayrıqsha áhmietke ie. Sanlı texnologiyalar qaraqalpaq tilin keń auditoriyada, ásirese, jaslar arasında saqlap qalıw hám galaba en jaydırırw imkaniyatın berdi, olar ushın sanlı platformalar ádetke aylanǵan quralǵa aylandı.

Leksikografiya milliy ózligimiz hám mádeniyatımızdı saqlaw hám rawajlandırırwda úlken áhmietke iye. Basıp shıǵarılǵan hám baspa, hám elektron sózlikler qaraqalpaq tilin keń kólemde en jaydırırwǵa xızmet etedi hám paydalanıwshılardı,



sonın ishinde, studentler, oqıtıwshılar hám izertlewshilerdi tildi úyreniw hám paydalanıw ushın zárúr qurallar menen támiyinleydi. Bul resurslar oqıw baǵdarlamaların qollap-quwatlap, qaraqalpaq tilin akademiyalıq hám mádeniy kontekstlerge engiziwge járdem beredi. Solay etip, leksikografiyalıq jumıslar tek ǵana awdarma hám úyreniw quralı emes, al mádeniy ózine tánliktiń áhmiyetli elementi bolıp, bilim hám dástúrlerdi keleshek áwladlarǵa jetkeriwge xızmet etedi.

#### **JUWMAQ:**

Juwmaqlap aytqanda, ótkerilgen analiz qaraqalpaq tili leksikografiyasınıń tariyxı rawajlanıwı jamiyettegi ózgerisler menen úzliksiz baylanıslı ekenligin kórsetedi. 1940-jıllardan baslap bir jazıw sistemasınan ekinshisine ótiw sózliklerdi dúziw hám olardıń mazmunına úlken tásir kórsetken, bul bolsa óz gezeginde qaraqalpaq tiliniń rawajlanıwı hám saqlanıwına járdem bergen. Hár bir dáwir leksikografiyalıq jumıslardıń ózine tán ózgeshelikleri menen xarakterlenedi, bul tildiń evolyuciyasını hám onıń jańa sharayatlarǵa beyimlesiwiniń sáwlelendiredi. Sonıń menen birge, zamanagóy texnologiyalar leksikografiyanı jáne de rawajlandırıw ushın jańa imkaniyatlardı ashadı, bul bolsa til resursların kóbirek en jayıwı hám ráńbáreń etip, tildi keleshek áwladlar ushın saqlaw imkaniyatın beredi.

#### **ADEBIYATLAR DIZIMI:**

1. Дубичинский, В. В. Лексикография русского языка: учебное пособие. Наука-Флинта, 2008.
2. Паликова, О. Двужычний словарь и функционально значимые связи слова. 2007.

Докторская диссертация, Европейский Союз.

3. Попова, Л. В. "Словарная статья в условиях современной лексикографии." Вестник Челябинского Государственного Университета, но. 33, 2011, п. 248.
4. Дамбуев, И. А. "Современная лексикография: статус и направления развития." Вестник Государственного Бурятского Университета, но. 10, 2011, пп. 16-21.
5. Аманалиева, Г. Э. "Составление словаря: концептуальная модель, этап, функционирование." Бюллетен науки и практики, вол. 6, но. 3, 2020, пп. 628-633.
6. Серова, Т. С., анд Г. Р. Чайникова. "Содержание поэтапной разработки учебного терминологического словаря теразусного типа." Филологические исследования: теория и практика, 2015, п. 149.
7. Суюмбаева, А. Ж. "Двужычніе и многоязычніе терминологические словари в Республике Казакхстан." Челябинский гуманитарий, но. 3, 2015.
8. Турабаев, А., эт ал. Русско-каракалпакский словарь. Эдигед бй А. Турабаев, Шарк, 2010, п. 624.
9. Баскаков Н. А., Бекназаров С. Б., Кожуров. Под ред. Н. А. Баскакова. "Русско-каракалпакский словарь" Москва, 1947, п. 831D.
10. S. Nasirov, K. U. Ubaydullayev. "Qaraqalpaqsha-russha sozlik" "Shet til milliy sozlikler" milliy baspası, Moskva, 1958, p. 892.



## REASSESSING GREEN BOX SUBSIDIES: A CRITICAL EVALUATION WITHIN THE WTO AGREEMENT ON AGRICULTURE FRAMEWORK

*Toiurov Azizbek,  
A senior lecturer of Tashkent  
State University of Law*

## ПЕРЕОЦЕНКА СУБСИДИЙ «ЗЕЛеноЙ КОРЗИНЫ»: КРИТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА В РАМКАХ СОГЛАШЕНИЯ WTO ПО СЕЛЬСКОМУ ХОЗЯЙСТВУ

*Тойиров Азизбек,  
Старший преподаватель, Ташкентский  
Государственный юридический университет*



<https://orcid.org/0009-0004-2640-5679>

[azizbektovrov7@gmail.com](mailto:azizbektovrov7@gmail.com)

## “YASHIL SAVAT” SUBSIDİYALARINI QAYTA BAHOLASH: QISHLOQ XO‘JALIGI BO‘YICHA QXK KELISHUVI BO‘YICHA TANQIDIY VAHO

*Toiurov Azizbek,  
Toshkent Davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi*

**Abstract:** This article critically examines the scope, criteria, and implementation challenges of green box subsidies within the AoA framework. Special attention is given to the nuanced conditions for qualifying subsidies, the balance between social objectives and trade obligations, and the implications for developing countries, particularly in achieving food security.

**Keywords:** WTO, Agreement, agriculture, green box, trade, sustainable, domestic food aid, food security.

**Аннотация:** В этой статье критически рассматриваются сфера, критерии и проблемы внедрения субсидий зеленой корзины в рамках ССХ. Особое внимание уделяется нюансам условий получения субсидий, балансу между социальными целями и торговыми обязательствами, а также последствиям для развивающихся стран, особенно в достижении продовольственной безопасности.

**Ключевые слова:** WTO, Соглашение, сельское хозяйство, зеленая корзина, торговля, устойчивое развитие, внутренняя продовольственная помощь, продовольственная безопасность.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola QXK doirasida yashil quti subsidiyalarining ko‘lami, mezonlari va amalga oshirish muammolarini tanqidiy ko‘rib chiqadi. Kvalifikatsion subsidiyalar uchun nozik shart-sharoitlar, ijtimoiy maqsadlar va savdo majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanat va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi oqibatlariga alohida e‘tibor beriladi.

**Kalit so‘zlar:** JST, Bitim, qishloq xo‘jaligi, yashil quti, savdo, barqaror, ichki oziq-ovqat yordami, oziq-ovqat xavfsizligi.

**INTRODUCTION.** According to Annex 2 of the Agreement on Agriculture (AoA), WTO members are not obligated to reduce expenditures on

domestic support measures that meet the specified criteria. To qualify as a "green box" measure under

this provision, two fundamental requirements must be satisfied.

First, the measure must either have no effect on production or, at most, a minimal trade-distorting impact. Second, the support must meet the following conditions:

1. It must be implemented through a publicly funded government program, including instances where government revenue is foregone, but it must not involve direct transfers to consumers.

2. It must not function as a price support mechanism for producers.<sup>1</sup>

These overarching criteria are complemented by a range of specific agricultural support measures explicitly outlined in Annex 2 of the AoA.<sup>2</sup> These measures are further categorized into three primary types of government service programs that qualify as green box subsidies:

1. **General government services:** These include activities that benefit the agricultural sector as a whole, such as research, pest control, and extension services.

2. **Domestic food aid programs:** These are designed to improve food security and ensure access to sufficient and nutritious food for vulnerable populations without distorting trade.

3. **Direct payments to producers:** These payments are decoupled from production and market prices, ensuring they do not incentivize overproduction or distort competitive market dynamics.

Each of these measures is carefully crafted to ensure compliance with the non-trade-distorting principles of the AoA, thus reflecting the WTO's objective of maintaining fairness and sustainability in global agricultural trade.<sup>3</sup> The specific details and implementation challenges of these measures are examined in the subsequent sections.<sup>4</sup>

These measures are characterized as government expenditures or instances of revenue forgone, aimed at providing services or benefits to

the agricultural sector without taking the form of direct payments to individual producers. Annex 2 of the Agreement on Agriculture (AoA) outlines a non-exhaustive list of seven types of support measures that fall under this category:

1. **Research Initiatives:** This includes research activities, particularly those associated with environmental programs or the development of specific agricultural products to enhance sustainability and innovation.

2. **Pest and Disease Control:** This encompasses quarantine measures and eradication efforts designed to safeguard agricultural productivity and trade by managing biosecurity risks.

3. **Training Services:** Programs aimed at equipping agricultural stakeholders with knowledge and skills necessary for adopting advanced and sustainable practices.

4. **Extension and Advisory Services:** Support services to disseminate technical expertise and assist farmers in improving efficiency, productivity, and sustainability in their operations.

5. **Inspection Services:** These ensure compliance with quality, health, and safety standards, thereby facilitating smoother trade and consumer confidence.

6. **Marketing and Promotion Services:** Initiatives designed to enhance market access and promote agricultural products both domestically and internationally, fostering competitiveness.

7. **Infrastructure Development:** Investments in rural infrastructure, such as irrigation systems, transportation networks, and storage facilities, to support agricultural productivity and trade logistics.<sup>5</sup>

If food stocks for food security purposes are acquired and distributed at administered prices, the discrepancy between the acquisition price and the external reference price must be included in the Aggregate Measurement of Support (AMS).<sup>6</sup> The

<sup>1</sup> R. Ortiz, Ch.Bellman, J.Hepburn, "Agricultural subsidies in WTO Green Box, Ensuring Coherence with Sustainable Development Code", (Cambridge University Press, 2010), p.370.

<sup>2</sup> See Annex 2 of the Agreement on Agriculture (AoA).

<sup>3</sup> See P. Bossche, W.Zdouc, "World Trade Organization Text, Cases and materials", (5th edition, Cambridge University Press), p.957.

<sup>4</sup> See further R. Ortiz, Ch.Bellman, J.Hepburn, "Agricultural subsidies in WTO Green Box, Ensuring Coherence with Sustainable Development Code", (Cambridge University Press, 2010), p.371.

<sup>5</sup> See Annex 2 of the Agreement on Agriculture (AoA)

<sup>6</sup> See further R. Ortiz, Ch.Bellman, J.Hepburn, "Agricultural subsidies in WTO Green Box, Ensuring Coherence with Sustainable Development Code", (Cambridge University Press, 2010), p.371.

external reference price, as defined under the Agreement on Agriculture (AoA), represents the average market price of the product at a standardized valuation point. For net food-importing countries, this price corresponds to the average free on board (f.o.b.) unit value for basic agricultural products, while for other countries, it reflects the cost, insurance, and freight (c.i.f.) unit value. This calculation ensures that any subsidy component embedded in the administered price is accurately reflected in the AMS. Specifically, if the administered price of foodstuffs covered under food security measures exceeds the external reference price, the resulting price differential is considered a component of the AMS. This inclusion subjects such subsidies to stricter scrutiny under the subsidy disciplines of the AoA. Consequently, while food security programs aim to achieve critical social and economic objectives, their design must carefully balance these goals with compliance to WTO rules to avoid triggering disputes over trade distortions.

Domestic food aid constitutes the second category of domestic support programs under the Agreement on Agriculture (AoA). To ensure clarity and fairness, eligibility for such aid must be explicitly defined based on objective nutritional criteria. Food aid may be distributed either to specific population groups or through mechanisms that enable eligible individuals to purchase food at subsidized prices. This flexibility is particularly significant for developing countries, as it empowers member states to design and implement domestic policies that align with their unique social and economic circumstances. By permitting countries to establish their own eligibility criteria, the AoA accommodates diverse approaches to addressing food security challenges while maintaining compliance with WTO disciplines. This tailored framework ensures that domestic food aid programs can support vulnerable populations effectively without unnecessarily distorting trade.<sup>7</sup> The Agreement on Agriculture (AoA) establishes a nuanced framework for regulating green box subsidies, aiming to strike a balance between promoting agricultural development and minimizing trade distortion. These subsidies, outlined in Annex 2 of the AoA, encompass government-funded measures designed to enhance sustainability, ensure

food security, and foster long-term agricultural productivity while adhering to non-trade-distorting principles. Green box measures, such as general government services, domestic food aid, and public stockholding programs, are instrumental in supporting agricultural sectors globally. They prioritize initiatives like research, pest control, infrastructure development, and domestic food security without granting unfair advantages to specific producers or distorting competitive market dynamics. These measures are subject to stringent conditions, such as transparency, market-conforming procurement, and fair pricing, ensuring alignment with WTO obligations. However, the practical implementation of green box subsidies presents challenges. Programs like public stockholding and domestic food aid must carefully balance social objectives with compliance to WTO disciplines, particularly regarding their inclusion in the Aggregate Measurement of Support (AMS). This ensures subsidies are monitored for potential trade distortion, safeguarding the integrity of multilateral trade rules.

**CONCLUSION.** In conclusion, the green box framework under the AoA underscores the importance of sustainable agricultural practices within a rules-based trading system. By facilitating tailored approaches that accommodate diverse national circumstances, the AoA fosters equitable trade and food security while minimizing distortions. This highlights the critical role of green box subsidies in promoting global agricultural development and maintaining the balance between national policies and international trade commitments.

#### REFERENCES

1. R. Ortiz, Ch. Bellman, J. Hepburn, "Agricultural subsidies in WTO Green Box, Ensuring Coherence with Sustainable Development Code", (Cambridge University Press, 2010), p.370.
2. Agreement on Agriculture (AoA), under WTO.
3. Bossche, W. Zdouc, "World Trade Organization Text, Cases and materials", (5th edition, Cambridge University Press), p.957.

<sup>7</sup> See G/AG/NG/S/18.



## UTOPIYA VA ANTIUTOPIYA JANRLARINING XX ASR ADABIYOTIDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Xalilova Shohista Muhammadi qizi, Denov tadbirkorlik va  
pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

## STAGES OF DEVELOPMENT OF THE GENRES OF UTOPIA AND ANTI-UTOPIA IN THE LITERATURE OF THE 20TH CENTURY

*Khalilova Shahista Muhammadi kizi, Denau Institute of  
Entrepreneurship and Pedagogy, independent researcher*

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ЖАНРОВ УТОПИИ И АНТИУТОПИИ В ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

*Халилова Шахиста Мухаммади кызы, Денауский  
институт предпринимательства и педагогики,  
независимый исследователь*



<https://orcid.org/0009-0001-3874-7981>

e-mail:

[shohistakhalilova95@gmail.uz](mailto:shohistakhalilova95@gmail.uz)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola XX asr adabiyotda utopiya va antiutopiya janrlarining shakllanishini, ularning o'zaro aloqadorligini va kirishuvini, shuningdek, ushbu janrning shakllanishi, utopik fikrlarning jadal rivojlanishi, jamiyatda "ilmiy eyforiya" shakllanishi hamda antiutopiya janrlarining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, utopiya, antiutopiya, ilmiy eyforiya, xalq utopiyasi, salbiy utopiya, sintez.

**Abstract:** This article analyzes the formation of utopia and anti-utopia genres in the literature of the 20th century, their interrelation and introduction, as well as the formation of this genre, the rapid development of utopian ideas, the formation of "scientific euphoria" in society, and the stages of development of anti-utopia genres.

**Key words:** literature, utopia, anti-utopia, scientific euphoria, folk utopia, negative utopia, synthesis.

**Аннотация:** В статье анализируется формирование утопических и антиутопических жанров в литературе XX века, их взаимосвязь и внедрение, а также становление этого жанра, бурное развитие утопических идей, формирование «научной эйфории» в обществе и этапы развития антиутопических жанров.

**Ключевые слова:** литература, утопия, антиутопия, научная эйфория, народная утопия, негативная утопия, синтез.

**KIRISH.** XX asrda texnologik kelajak, hokimiyat va ilm-fan o'rtasidagi ittifoq va ilmning din bilan sintezi muhim rol o'ynaydi. Odamlar ongida antiutopiyaga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi va u mustaqil janr sifatida shakllana boshladi. Antiutopik adabiyot asarlarida

totalitarizm, hokimiyatga bo'lgan nafrat, texnologik taraqqiyotning insoniyatga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlari, insoniyatning tabiiy resurslarga bog'liqligi va xususiy hayotga tahdidlar tasvirlanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Ingliz faylasufi A.Morton [4] xalq utopiyasi haqida shunday yozadi: “Shoirilar, payg‘ambarlar va faylasuflar utopiyani zavq va ta‘lim berish vositasiga aylantirdilar, lekin ularning oldidan xalq o‘z xayollari va umidlari bilan utopiyani yaratgan edi”[6]. Xalq utopiyasi ko‘plab nomlar bilan ataladi va turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu inglizlarning “Cokaygne” mamlakati, fransuzlarning “Cocagne”si, Tog‘li Braziliya, Venes tog‘i va Yoshlar mamlakati, Lyuberland va Shlarafenland kabi joylar bo‘lib, ular qashshoqlar uchun jannat, mo‘l-ko‘l oziq-ovqat va mangu yoshlik timsoli bo‘lgan. Utopiyaning ahamiyati shundaki, uning ta‘rifi imkon qadar to‘liq bo‘lishi kerak. Ba‘zi tanqidchilar utopiyaganing ayrim xususiyatlarini bema‘ni deb hisoblab, butun utopik g‘oyani rad etadilar. Alternativ jamiyat loyihalari ayrim yechimlar qiymati bilan emas, balki ularning butunlikdagi ahamiyati bilan o‘lchanadi. Turli xil ijtimoiy qatlamlar va madaniy an‘analari farqi utopik g‘oyalarni qabul qilish yoki rad etishda katta rol o‘ynaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ijobiy utopiya boshqa qadriyatlar va ehtiyojlarga ko‘ra, o‘zining teskarisiga – salbiy utopiyaga aylanishi mumkin. Shu sababli, utopiyaning qadriyatlari ayrimlar uchun ideal bo‘lsa ham, ayrimlar uchun umuman ma‘qul bo‘lmasligi mumkin [5].

**MUHOKAMA.** Salbiy utopiya – bu istalmagan, nosog‘lom dunyo tasviri bo‘lib, antiutopiya esa utopiyaning o‘ziga qarshi kurashadigan janr sifatida yuzaga kelgan. Antiutopiya faqat XX asrda shakllangan bo‘lsa-da, uning ayrim elementlari oldingi davrlarda ham mavjud edi. Ushbu maqola materiallari sifatida Utopiya bosqichlari va ushbu bosqichlarda ijod qilgan yozuvchilarni olishimiz mumkin. Mazkur ishning samaradorligini oshirish uchun metodlardan foylanib tahlil jarayonlarini olib borish mumkin. Utopiya va antiutopiya janrlarida qo‘llaniladigan metodlar tahlili keng qamrovli va murakkab jarayon bo‘lib, har ikki janr o‘zining yuksak ijtimoiy, siyosiy va madaniy maqsadlariga erishish uchun turli usullarni qo‘llaydi. Ushbu janrlar orqali insoniyatning ijtimoiy tuzilmalari, boshqaruv tizimlari va jamiyatning kelajagi haqida fikr yuritiladi. Quyida utopiya va antiutopiya janrlarida

ishlatiladigan asosiy metodlar keltirilgan: sotsial-tahliliy metod, narrativ va struktural metod, didaktik metod, deyarli ilmiy metod, ironik metod, kritik metod, simvolik metodlardan samarali foydalanildi. Ixtiyoriy jamiyatlarni tasvirlaydigan asarlar, ular hech qanday holatda ideal deb hisoblanmasligi, shuningdek, ularni yaratgan shaxslar tomonidan ham bunday qabul qilinmasligi, ancha ko‘pdir. Ular tasvirlagan manzaralar dahshat uyg‘otgan, qo‘rqitgan, qo‘rqinchli tushlarni ko‘rsatgan, idilliyalarni emas. Eng ko‘p tanilgan asarlar qatoriga E.Zamyatinning “Biz” (1920), O. Hakslining “Ajoyib yangi dunyo” (1932), D. Oruellning “1984” (1949), K.Vonnegutning “Mexanik pianino” (1952) va R.Bredberining “451° Farengeyt bo‘yicha” (1953) romanlari kiradi [3].

**NATIJALAR.** Utopiya va antiutopiya janrlari ijtimoiy va siyosiy tizimlarni tasvirlashda, insoniyatning ideal va haqiqiy holatlarini o‘rganishda turli metodlar va yondashuvlar yordamida yakuniy natijalarga erishishga intiladi. Bu janrlar asarlarini tahlil qilish orqali biz ijtimoiy tuzilmalarning, siyosiy tizimlarning va madaniyatlarining ko‘plab jihatlarini anglaymiz. Har ikki janr ham jamiyatni yaxshilash, taraqqiy ettirish yoki tanqid qilish niyatida bo‘lib, ular orqali mualliflar o‘z fikrlarini va g‘oyalarini ilgari suradi.

XX asrdagi utopik tafakkur rivojlanishi uchta asosiy bosqichga bo‘lingan:

Birinchi bosqich Morning “Utopiya” asari va Fransiya inqilobi davrigacha davom etdi. Ushbu davrda xususiy mulkdan voz kechish va ijtimoiy tenglikka asoslangan utopiyalar shakllandi. Ushbu modelda inson baxti oson erishiladigan maqsad sifatida ko‘rilgan va jamiyat tinchlik va osoyishtalikka intilgan [2].

Ikkinchi bosqich utopik sotsializmning paydo bo‘lishi bilan boshlangan bo‘lib, Sen-Simon va Fyure<sup>1</sup> kabi mualliflarning g‘oyalari asosida shakllangan. Ushbu bosqichda jamiyat ichida, insonlar o‘rtasidagi tenglikdan ko‘ra ijtimoiy tenglikning ahamiyatiga urg‘u berildi. Jismoniy mehnatning osonlashuvi va kafolatlangan daromad asosiy qadriyatlardan biri edi.

Uchinchi bosqich psixologik jihatdan chuqurlashtirilgan “eupsixiya” tushunchasiga asoslangan bo‘lib, unda inson shaxsiyatining o‘zini namoyon etishi va individuallik masalalari birinchi

<sup>1</sup> Manuel. 1965, 293–323.

o'rinda turadi. Bu bosqichda tenglikning o'rnini "o'z-o'zini amalga oshirish" va shaxsiyati shakllanmagan odamlardan xalos bo'lish g'oyalari egalladi [5].

Maqola davomida utopiya va antiutopiya janrlarining umumiy va farqli tomonlari muhokama qilindi. Utopik adabiyot o'zining idealistik qarashlari bilan ideal jamiyat modelini yaratishga intiladi va inson baxtini o'z maqsadiga aylantiradi. Antiutopik adabiyot esa kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni tasvirlash orqali insonlarni ogohlantiradi. Antiutopik asarlar ko'pincha totalitarizm va texnologik nazoratning inson shaxsiyatiga tahdid solishini ko'rsatadi.

O.Xakslining "Jasur yangi dunyo" asari va J. Oruellning "1984" asari antiutopik adabiyotning yorqin namunalaridan hisoblanadi. Ushbu asarlar orqali mualliflar hokimiyatning inson erkinligiga qanday tahdid solishini va insonlarning o'z erkinliklari uchun qanday kurashishlarini tasvirlaydi. Oruellning "1984" asarida insonlar o'z erkinligini yo'qotgan va har qanday individualizm davlat tomonidan bostirilgan jamiyat tasvirlanadi [2].

Utopiya va Antiutopiyaning janr xususiyatlari:

Utopiya va antiutopiya bir-biriga qarama-qarshi janr bo'lsa-da, ikkalasi ham o'ziga xos ideal jamiyat yoki undan yiroq bo'lgan dunyo modelini yaratishga intiladi. Utopistlar o'zlarining ideal jamiyatlariga intilib, insonni ruhiy va jismoniy taraqqiyotiga erishish uchun harakat qiladilar, antiutopistlar esa insoniylikni va individualist qadriyatlarni saqlab qolish uchun kurashadi. Antiutopiya janri asosan utopik tafakkurga qarshi turadi va utopik dunyoqarashlarni kamsituvchi tasvirlardan foydalanadi. Antiutopiya, odatda, mavjud tizim yoki g'oyalarning inson hayotiga salbiy ta'sirini ko'rsatish uchun haddan tashqari salbiy muhit yaratadi. Masalan, Xaksl va Oruell asarlarida insonning his-tuyg'ulari, shaxsiy erkinligi va orzu-umidlari qanday qilib jamiyat tomonidan eziladi va boshqariladi, shuningdek, davlatning totalitar tuzumi inson hayotini qanday nazorat qiladi, tasvirlanadi. Antiutopiyada ko'pincha jamiyatning butunlay tenglikka asoslangan tuzilmasi tanqid

qilinadi. Masalan, Oruell asarlarida ko'rilgandek, shaxsiy erkinlikdan mahrum qilingan jamiyatda barcha insonlar o'rtasidagi tenglik o'z-o'zidan mavjud emas, balki kuchli davlat nazorati orqali saqlanadi. Bu nazorat insonlarning irodasini va tanlov erkinligini to'liq cheklab, ularni o'ziga tobe qiladi. Shu bilan birga, shaxsiy mulkdan voz kechish va umumiy mulkka asoslangan utopik g'oyalar ham antiutopiyalarda kamsitiladi. "Erkinlik bu faqat bir so'z, u hech qachon mavjud bo'lmagan va hech qachon mavjud bo'lmaydi", – deb yozgan edi [3].

**XULOSA.** Demak, antiutopik asarlar odatda kelajakdagi totalitar dunyo tasvirlari orqali insonlarni o'z erkinligini himoya qilishga undaydi. Ular jamiyatda mavjud bo'lgan ayrim tuzumlarining haddan tashqari nazoratiga qarshi turishni rag'batlantiradi va insonlarning shaxsiy ehtiyojlari va erkinliklarini o'rganadi. Shu tarzda antiutopiya, insoniyat uchun ogohlantiruvchi qo'ng'iroq vazifasini o'taydi, unda mualliflar insoniyatni jismoniy va ruhiy erkinliklaridan mahrum qiladigan xavf-xatarlarga diqqat qaratadi. Antiutopiya utopiya janrining o'ziga xos qarama-qarshi tasviri hisoblanadi. Utopiyada inson va jamiyatning ideal holati tasvirlanadi, antiutopiyada esa inson hayoti qattiq nazorat ostida bo'lgan va insoniylikka xos jihatlari yo'qotilgan jamiyat aks ettiriladi. Antiutopik asarlarda davlat tomonidan nazorat qilish, shaxsiy erkinliklarning cheklanishi va jamiyatdagi yolg'on farovonlik kabi elementlar kuchli tanqid ostiga olinadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.V.Kuznetsova. Utopia genre genesis and antiutopia in the english literature of the 20th century//2012. – P. 1-17.
2. Bradbury,R. *Fahrenheit 451*. Ballantine Books. 1953.
3. Orwell, G. Secker & Warburg. 1984.
4. Мортон А.Л. Английская Утопия. – Москва: 1956. – С.156
5. Уэллс Г. Люди как боги. Собр. соч.: в 15 т. Т.5. 1964.
6. <https://www.scribd.com/document/688264743/Atamurodova-Feruz>

## INGLIZ TILIDA SUFFIKS YORDAMIDA HOSIL BO'LGAN SO'ZLARNING SEMANTIK-STURUKTUR TAHLILI

*Sohibova Dilnoza Ergashevna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi*

## SEMANTIC-STRUCTURAL ANALYSIS OF WORDS FORMED WITH THE HELP OF SUFFIXES IN ENGLISH

*Sohibova Dilnoza Ergashevna, Teacher of Termez University of Economics and Service*

## СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ СЛОВ, ОБРАЗОВАННЫХ С ПОМОЩЬЮ СУФФИКСОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Сахибова Дилноза Эргашевна, преподаватель Термезского университета экономики и сервиса*



<https://orcid.org/0009-0002-8650-4017>

e-mail: [sohibova@mail.ru](mailto:sohibova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tilida suffiks yordamida hosil bo'lgan so'zlarning semantik-sturuktur tahlili tahliliga bag'ishlangan. Ingliz tilida suffiksli so'zlar semantikasining universal va differensial tomonlari aniqlangan va tahlilga tortilgan. SSlar sifatdoshning umumiy ma'nosiga ko'ra 12 tematik guruh asosida tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z yasalishi, suffiksli so'zlar, semantika, tematik guruh, sifatdosh, ingliz tili.

**Abstract:** This article is devoted to the analysis of the semantic-structural analysis of words formed with the help of suffixes in English. The universal and differential aspects of the semantics of suffixed words in English have been determined and analyzed. SSs were analyzed on the basis of 12 thematic groups according to the general meaning of the adjective.

**Key words:** Word formation, suffixed words, semantics, thematic group, adjective, English language.

**Аннотация:** Статья посвящена анализу семантико-структурного анализа слов, образованных с помощью суффиксов в английском языке. Определены и проанализированы универсальные и дифференциальные аспекты семантики суффиксальных слов в английском языке. СС анализировались на основе 12 тематических групп по общему значению прилагательного.

**Ключевые слова:** словообразование, суффиксальные слова, семантика, тематическая группа, прилагательное, английский язык.

**KIRISH.** Chog'ishtirilayotgan turli tizimli tillarning, ingliz va o'zbek tillarining strukturaviy tahlili nuqtayi nazaridan ko'rib chiqib, ularning semantikasini o'rganish muammosi paydo bo'ladi. "Semantika" til birliklarining semantik tomonini, ularning muloqot jarayonida kommunikativ rolini bildiradi. Uning gnoseologik asosini hamisha inson ongida voqelik predmetlari, hodisalari va munosabatlarining aks etishi tashkil etadi. Suffiks yordamida hosil bo'lgan so'zlarning semantikasini ochish

– bu elementlarning qiymatlari bo'lgan harakatni ochishni anglatadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Suffiks yordamida hosil bo'lgan so'zlarni tipologik o'rganish ularning muhim ma'nolaridan ajralgan holda to'liq va asosli bo'lishi mumkin emas. Bizning vazifamiz ingliz tilida suffiksli so'zlar semantikasining universal va differensial tomonlarini aniqlash va tahlil qilishdir. E.S.Kubryakova so'z yasalishining semantik tahlili-



ga katta ahamiyat qaratadi. "Tildagi rasmiy mezonlarning barcha ahamiyatiga qaramay, ma'lum ikki tomonlama birliklarni o'rnatishda semantik va funksional mezonlar ma'lum bir xususiyatga ega", deya ta'riflaydi[2].

Ingliz tilida biz  $A + N + -ed$  turiga ko'ra yaratilgan ikki yuzdan ortiq shakllanishlarni tanladik, ular ikkinchi komponentlarining xususiyatlariga ko'ra qiziqish uyg'otadi, ularning xarakterli xususiyati bir xildir.

Ayniqsa, SSda *-eyed, -faced, -legged, -headed, -footed* biz ko'zli, yuzli, boshli, oyoqli va boshqa ko'plab komponentlarni uchratamiz. Bunday komponentlar haqida E.S.Kubryakova tildagi sintaktik so'z yasash jarayonlariga parallel ravishda analogiya yo'li bilan hosila so'z yasash jarayonlari doimo sodir bo'ladi, deb yozadi [3].

**MUHOKAMA.** O'xshatishning murakkab so'zlarni yaratishdagi ta'siri boshqa tadqiqotchilarning ham e'tiborini tortgan. O'xshatish yo'li bilan yaratilgan so'zlar endi so'z birikmasi bilan emas, balki ular tarkibiga kirgan va ma'lum bir semantik rol o'ynaydigan konstruktsiya semantikasi bilan motivlangan bo'ladi, agar komponentlar tez-tez bo'lsa, bu holda so'z tarkibi natijasida hosil bo'lgan murakkab birliklarni o'z ichiga olgan so'zlarni izohlash imkoniyati *-eyed, -hearted, -footed, -faced, -legged* /-ko'zli, -yurakli, -oyoqli, -yuzli, -oyoqli kabi komponentli so'zlarni SSga ajratamiz, chunki bunday so'zlarning shakllanishida ularda uch komponent qatnashadi: ikkita o'zak va qo'shimcha[1].

"(adj + n) + -ed" modeldagi so'zlar murakkab hosiladir, chunki ular ikki so'z yasash jarayoni – birikma va qo'shimchaning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Bu so'zlar gaplar bilan tarkibiy - semantik aloqani namoyon qiladi: *blue-eyed - ko'zlari ko'k, has blue eyes, narrow - brimmed - tor - fikrli -has narrow brims - tor fikrli*. Biroq, bizning fikrimizcha,  $A + N + -ed$  turiga ko'ra yaratilgan murakkab tuzilmalar SSsifatida tasniflanishi kerak.  $(A + N) + -ed$  turiga ko'ra yaratilgan so'zlar murakkab asosli hosilalardir[4].

Biz tanlagan ingliz tilidagi SSLar sifatdoshning umumiy ma'nosiga ko'ra kichik guruhlariga bo'lingan: Tahlil SS doirasida sifatdosh o'zak va ot o'zak ma'nolarining mos kelishining quyidagi qonuniyatlarini aniqlashga imkon berdi: 1. **Inson tanasining qismlari.** Weak – handed/qo'li kalta, hard - fisted/qo'li qattiq "kuchli qo'llar bilan", weak

- headed/irodasiz; white-faced/-oppoq yuzli, full-faced/dumaloq yuzli, bare – headed/kal, Red - handed/qizil qo'l, big-boned/gavdali.

2. **O'simlik yoki uning bir qismi.** Hardwooded/qobig'i qattiq, brown-berried/large-leaved/katta bargli, narrow-leaved/mayda bargli, red-seeded/qizil urug'li.

3. **Hayvon tanasi qismlari.** Longwooled/uzun junli, red-tailed/qizil dumli, hortwooled/kalta dumli, white-winged/oq panjali, bigbellied/qorinli.

4. **Geometrik tushunchalar.** Sharp-cornered/o'tkir burchakli, yellow-banded/sariq chegara bilan.

5. **Harakatlar.** Short-breathed/qisqa nafas oladigan, long-sighted/uzoqni ko'ra oladigan, slow-paced/sekin yurish, even-paced/bir qadamda yurish.

6. **Mavhum tushunchalar.** Whole-souled/butun qalbli, samimiy, old-fashioned/eskicha, hardfeatured/qo'pol, full-rigged/yangicha fikrlash, new-fangled/yangi moda, old-fangled/eski moda.

7. **Vaqt tushunchalari.** Middle-aged/o'rta yosh, old-aged/keksa.

8. **Fizik tushunchalar.** Small-sized/kichik razmer, high-pitched/baland ovozli, strongvoiced/yuqori ohang, middle-sized/o'rta razmer.

9. **Geometrik tushunchalar.** Slab-sided/tekis tomonlari bilan.

10. **Intellekt.** Double-minded/ikki xil fikrli, single-minded/bir fikrli.

11. **Xarakter.** Quick-tempered/jahldor, highspirited/jasur, large-souled/katta qalbli, weakspirited/qo'rqqoq.

12. **Qurol qismlari.** Single-barrelled/bir qirrali, double-egded/ikki qirrali.

**NATIJARLAR.** Ikki xil tizimli tillar komponentlarining (xususiyat va leksik-semantik guruh) moslik matritsalarini tahlil qilib, SSni shakllantirishda qaysi leksik-semantik guruhlar ishtirok etishini va qaysi biri universal va differensial xususiyatga ega ekanligini aniqlash mumkin.

Ingliz tilining SS tuzilishi strukturaviy elementlarning osonroq bo'linishi bilan ajralib turadi. O'rganilayotgan ikkala til ham bir qo'shimchali yoki ikki qo'shimchali qo'shma so'zlar bilan tavsiflanadi[2].

Tipologik jihatdan, asosiysi o'rganilayotgan tillarda SS ning uch komponentli turi.

1-jadval

### Ingliz tilining ikki tayanchli SS inventarizatsiyasi

1. N + N + -ed	hook-nosed	Ilgak burunli
2. A + N + -ed	white-livered	Oq yashagan
3. Num + N + -ed	three-cornered	Uch burchakli
4. N + N + -er	straw -hatter	Somon qalpoqchi
5. A + N + -er	local-preacher	Mahalliy voiz
6. Num + N + -er	two-decker	Ikki qavatli
7. N + V + -er	cinema-goer	Kino tomoshabin
8. A + V + -er	merry-maker	Quvnoq odam
9. Adv + V + -er	back-slider	Orqaga suruvchi
10. V + Adv + -er	go-alonger	Yolg'iz yuruvchi
11. N + Adv + -er	sun-downer	quyosh botishi
12. Prep + N + -er	between-ager	Yosh oralig'ida
13. N + Num + -er'	page-oner	Sahifalovchi
14. V + N + -er	do-gooder	yaxshilik qiluvchi
15. Pron + N + -er	no-chancer	Imkonsiz odam

Hozirgi ingliz tilida bir so'zning o'zi ayni bir paytda bir necha so'z turkumiga taalluqli bo'lishi mumkin. Bu hozirgi ingliz tilidagi ot va fe'lda ayniqsa yaqqol ifodalanadi, chunki reduksiya natijasida ingliz tilidagi ot va fe'ning oxiridagi farq qiluvchi belgilar yo'qoladi. So'zning biror leksik-grammatik so'z turkumiga taalluqliligini aniqlashda katta qiyinchilik tug'diradi. Hozirgi ingliz tilida so'zlar morfologik ko'rsatkichlarga boy emas[3].

### 2-jadval

#### Misol tariqasida SSLarning umumiy morfemik tahlilining bir qismini keltiramiz:

Ingliz tilida

odd-toed	Adj+Noun+ed	g'alati barmoqli
off-wheeler	Pred+Noun+er	g'ildiraksiz mashina
old-fashioned	Adj+Noun+er	eskicha fasonli
one-aloner	N+ Adj+er	bitta yakkaxon
one-armed	N+Noun+ed	bir qurolli
one-celled	N+Noun+ed	bir hujayrali
one-coloured	N+Noun+ed	bir rangli

**XULOSA.** Ingliz tilida affiksatsiya usuli bilan termin yasaliishi umumadabiy til leksik birliklarini hosil qiluvchi ayni soʻz yasovchi qoʻshimchalar hamda soʻz yasovchi qoliplar yordamida amalga oshiriladi. Ingliz tilida affikslar qoʻshilish oʻrniga koʻra prefiks hamda suffiks xarakterida boʻladi. Ushbu tilda yasama soʻzlar prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari bilan hosil qilinadi va bular soʻz yasaliishining faol usullari hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Boʻronov J.B. Ingliz va oʻzbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent. 1973.
2. Marchand H. The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation. Munchen, Wilhelm Fink, 1969. – 427 p.
3. Арнолд И.В. Лексикология современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – 295 с.
4. Linguistic status of entities with -man-type elements in modern English language. Abstract of thesis cand. philol. sci.]. Kiev, 1979. – 22 p.



## SAID AHMAD QALAMIGA MANSUB "UFQ" TRILOGIYASINING HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

*Axmedjanova Farida Djavairovna*  
*SamDChTI Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasini*  
*o'qituvchisi*

## THE CONTRIBUTION OF THE "UFQ" TRILOGY WRITTEN BY SAID AHMED TO MODERN UZBEK LITERATURE

*Akhmedjanova Farida Dzhavairovna*  
*Teacher of the Department of History and Grammar of the*  
*English Language of Samarkand State Institute of Foreign*  
*Languages*

## ВКЛАД ТРИЛОГИИ «UFQ» САИДА АХМЕДА В СОВРЕМЕННУЮ УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ

*Ахмеджанова Фариди Джаваировна*  
*Преподаватель кафедры истории и грамматики*  
*английского языка Самаркандского государственного*  
*института иностранных языков*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan S. Ahmadning "Ufq" trilogiyasining tilimizga ta'siri, adabiyotimiz rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi, maqola analitik xarakterga ega bo'lib, unda muallif trilogiya haqida umumiy ma'lumot beri, tahlil qiladi, har bir qarashlarini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** trilogiya, roman, Said Ahmad, adabiyot rivoji, tamaddun.

**Abstract:** In this article, the impact of S. Ahmed's "Horizon" trilogy, one of the brightest representatives of Uzbek literature, on our language, and its contribution to the development of our literature is analyzed. The article has an analytical character, in which the author provides general information about the trilogy, gives information, analyzes, justifies each of his views.

**Key words:** trilogy, novel, Said Ahmed, development of literature, civilization.

**Аннотация:** В данной статье анализируется влияние трилогии С. Ахмеда «Горизонт», одного из ярчайших представителей узбекской литературы, на наш язык, и ее вклад в развитие нашей литературы. Статья носит аналитический характер, в том числе, в которых автор дает общие сведения о трилогии, дает информацию, анализирует, обосновывает каждое свое мнение.

**Ключевые слова:** трилогия, роман, Саид Ахмед, развитие литературы, цивилизация.



<https://orcid.org/0009-0005-6108-7079>

[axmedjanovafarida@gmail.com](mailto:axmedjanovafarida@gmail.com)



## KIRISH

“Ufq” trilogiyasi — Said Ahmad qalamiga mansub 1964–1974-yillar oralig‘ida yozilgan uch qismdan iborat roman. Ilk marotaba 1976-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti tomonidan 60000 nusxali qattiq muqovada nashr etilgan. Trilogiya ikkinchi jahon urushi, urush va urushdan keyingi yillardagi o‘zbek millati hayoti va Katta Farg‘ona kanali qazilgan davrdagi voqealarini o‘z ichiga oladi.

## ASOSIY QISM

1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida tug‘ilgan. Uning bolaligi Elbek, Oybek, G‘afur G‘ulom singari adiblar davrasida o‘tdi. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga kirib kelguncha juda ko‘p sohalarda o‘zini sinab ko‘rdi: agitplakatlar yozdi, artist bo‘lishga urinib ko‘rdi, doktorlik maktabida o‘qidi, qurilish texnikumida tahsil oldi, rassomlik maktabiga qatnadi, mashhur fotochi Pensonga shogird tushdi, gazetalarga xabarlar yozdi.

Roman O‘zbekiston mustaqilligi yillarida boshqa nashriyotlar tomonidan ham ko‘p bora qayta nashr etildi. 2015-yilda Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 912 betli qattiq muqovada chop etildi [1]. 2019-yilda yozuvchining qizi Nodira Xusanxo‘jayeva muharrirligi ostida Sano satandar nashriyoti tomonidan 680 betli qattiq muqovada, lotin yozuvida nashr etildi [2]. Roman-trilogiyada yozuvchi Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o‘zbek dehqonlarining front orqasida ko‘rsatgan mehnat qahramonliklari haqida hikoya qiladi, urushdan oldingi va keyingi davr muammolari haqida fikr yuritadi. Romanda davrga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar ichida urush va mehnat frontiga safarbar qilingan yoshlar: Azizxon va Lutfinisa, Nizomjon va Dildor, Tursunboy va Zebixon kabi tutashgan taqdirlar hayotidagi fojialar tasvirlangan. Qiyinchiliklardan keyin qahramonlarning yana sevgiga va sadoqatga ro‘baro‘ bo‘lishi, birinchi muhabbat davr va sinovlar qa‘riga singib ketishini ko‘rish, jonli tasvirlar orqali tarixiy ma‘lumotlar bilan tanishish, ezilgan xalqning hayot mashaqqatlarini tushunish mumkin.

Tildagi sintaktik vositalarning pragmatik imkoniyatlarini o‘rganish, jumladan, tinglovchiga murojaat shakllarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. So‘zlovchining olam lisoniy

manzarasini anglashdagi o‘ziga xosligi, illokatsion niyatiga mos keladigan sintaktik birliklarni tanlashi hamda adresatning diskursiv vaziyatdagi ijtimoiy voqelikni idrok etishi va baholashi jarayonida sintaktik vositalarni qabul qilishdagi pragmatik yondashuvi doirasidagi tadqiqotlar ma‘lum darajada adresant va adresatning ichki holatini ifoda etuvchi psixolingvistik asoslarni o‘rganish imkonini beradi. “Fikrlashimizning psixologik asosi bo‘lgan tasavvurlar zahirasini avvalgi taassurot va kechinmalarimiz taqdim etadi va tajribalar yig‘ilib boradi; bu fikrlarning kommunikativ aktda birlashishi gapning psixologik asosini tashkil etadi”. Ma‘lumki, o‘zbek tilida senlab yoki sizlab murojaat qilishning o‘ziga xos lisoniy-uslubiy me‘yorlari mavjud. Asosan, yoshi, mavqei, lavozimi, rasmiy maqomi kabi omillar asosidagi vertikal munosabatlarda sizlab murojaat qilinadi. Aksincha, o‘ziga nisbatan kichik yoshdagilarga, tengqur, do‘stbirodar, yaqin qarindosh yoki norasmiy maqomdagilarga nisbatan sensirab murojaat qilish mumkin. “O‘zbekistonning hamma hududlarida bobo, buvi, ota, ona, amaki, amma, tog‘a, xola, aka, opa kabi katta yoshli tinglovchilarga sizlab, nabira, farzand, jiyan, uka, singil singari kichik yoshdagi tinglovchilarga asosan senlab murojaat qilish kuzatiladi” [2,198-204]. Quyidagi matnda 3 xil munosabat shakllarining me‘yoriy darajasi aks etgan: ona (ota) → bola, er → xotin munosabatida sensirash mumkin, xotin→er munosabatida esa, albatta, sizlab murojaat qilinishi shart [4].

- Yig‘lamang-da, ayajon, mana, yuripman-ku. Menga jin urmaydi. Ona hamon uni bag‘ridan qo‘yib yubormas, peshanalaridan silar, yuz-ko‘zlaridan tinmay o‘pard.

- Rangi-ro‘yingni qara, senga nima bo‘ldi, bolam. Voy-bu, kiyim-boshlaring ham juldur bo‘lib ketibdi. Nima yeb, nima ichib yuribsan, tentakkinam. Menginani ko‘ndirib shaqlarda yuribman degin.

Shu payt Ummatali yetib keldi.

- Qo‘y endi, onasi, damini olsin, ishlab turgan joyidan chaqirib kelyapman.

- Voy, shoshmang, diydorginasiga bir to‘yvolay. (Said Ahmad. “Ufq” trilogiyasi).

O‘zbek mentalitetiga ko‘ra ayollarning o‘z umr yo‘ldoshlariga senlab murojaat qilishi muloqot xulqi me‘yorlarining o‘ta qo‘pol buzilishi, ma‘naviyatsizlik belgisi hisoblanadi.

Xotining bu kesatig'ini eshitib, Ismoil aka battar asabiylashdi, oqibatda er-xotin biroz g'ijillashib olishdi. Aslida shunaqa paytda ayol kishi bir pog'ona past tushib, bitta gapdan qolsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Lekin O'g'ilo y opa yana tiliga erk berdi.

- Doim shu zormandani ichib olib, janjal qo'zg'aysan, - dedi ayol xo'jayinini sensirab battar izzat-nafsiga tegib.

Qaynonasining qaynotasiga qilgan bunday hurmatsizligini ko'rib, kelini Sharifa labini tishladi.

Shuningdek, aka(opa)→singil (uka) munosabatida sensirash, singil (uka) → aka(opa) munosabatida esa sizlash odatiy me'yor hisoblanadi.

- Rahmatli onam seni menga tashlab ketgan. El-yurt oldida boshimni xam qilib ketding, orqangdan quvmadim. Marg'ilon yo'lini menga berk qilib ketding, indamadim. Jigarchilik, deb chidadim.

Lutfinisa akasining betiga tik qaradi.

- Qistamang, aka. Ketolmayman. Biron haftadan keyin kanalga suv ochiladi. Men shu yerda bo'lishim kerak. Akbarali istehzoli kuldi.

- Tavba, sen bo'lmasang kanalga suv kelmay qolarkanmi. Ahmoq bo'lma! (Said Ahmad. "Ufq" trilogiyasi).

"Ufq" romanida bayon etilgan voqealar zamirida tinchlik, urush, mardlik, sadoqat, farzandlar tarbiyasi mavzulari mujassam. Bu kitob bugun ham kitobxonlar orasida qo'lma-qo'l. Kitobxon mutolaa davomida nafaqat jonli tasvirlar orqali tarixiy ma'lumotlar bilan tanishadi, balki hayot mashaqqatlaridan saboq chiqarishga, insoniylik va muhabbat aynan qiyinchiliklar ta'sirida toblanishiga amin bo'ladi. Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asardagi mahoratini shunday ta'riflaydi: "Bu kitobni ("Ufq" romanini ) kitobxon boshdan- oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost..." Darhaqiqat, ushbu asar "... odamga quvvat beradigan umid, uning boshini "toshdan" qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir". Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo'lmasa kerak [3].

"Ufq" trilogiyasining ta'siri uning bevosita hikoyasidan tashqariga chiqadi. Ahmad ijodi

O'zbekistonda yangi avlod yozuvchilariga yo'l ochdi, ularni shakl, ovoz va mazmun borasida tajriba o'tkazishga undadi. Trilogiyaning shaxsiy hikoyalari va hissiy haqiqiylikiga urg'u berilgani yosh mualliflarni adabiy manzarada o'z ovozlari yaratishga ilhomlantirdi. O'zbek adabiyotidagi bu evolyutsiya Ahmadning adabiy jamiyatdagi o'zgarishlar va yangilanishlarning katalizatori sifatidagi muhim rolini ko'rsatadi. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi zamonaviy o'zbek adabiyoti ichida madaniy o'ziga xoslik, zamonaviylik mavzulari va yangicha adabiy uslub bilan o'zaro bog'langan monumental asar sifatida turibdi. Uning hissasi shunchaki hikoya qilishdan tashqarida; u Ozarbayjon jamiyatining murakkabliklari bilan shug'ullanadigan hayotiy madaniy hujjat bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar "Ufq" trilogiyasining boy hikoyalari bilan tanishar ekanlar, ular nafaqat adabiy sayohatda qatnashmoqda, balki o'z shaxsiyatlari va atrofdagi dunyoning doimiy o'zgarib borayotgan tabiati haqida fikr yuritishga taklif qilinadi. Ahmad ijodi, shubhasiz, zamonaviy o'zbek adabiyoti hikoyasida salmoqli bob bo'lib, kelajak avlodlarni ilhomlantirib, chaqirishda davom etadi.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad butun ijodi davomida xalq ruhiga sodiq qoldi, uning namunalarida mujassamlashgan xalq qalbini, tabiatini, zukkoligi va donoligini, samimiy kulgusini o'z asarlariga ko'chirishga intildi. Xalq ijodiga bunday munosabat yozuvchi asarlariga, qolaversa, kulgisiga teran xalqchilik baxsh etdi, noyob va kutilmagan obrazlar yaratishga, dono hikmatlarni eslatuvchi ma'nodor iboralar qo'llashiga keng yo'l ochib berdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kitobxon.com/oz/kitob/ufq>.
2. <https://kitoblardunyosi.uz/ufq-lotin>.
3. Murotova, Y. F. (2023). SAID AHMAD NASRINING NAFISLIGI. SCHOLAR, 1(12), 128-131.
4. Abduolimova, M. (2024). Ingliz va o'zbek adabiyotida ayol obrazi. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 236-238.

## “QISASI RABG‘UZIY” ASARINING QO‘LYOZMA NUSXALARI

*Anorqulova Dilobar*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti  
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi*

РУКОПИСНЫЕ КОПИИ С

ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КИСАСИ РАБГУЗИ»

*Anorkulova Dilobar*

*аспирант 2 курса Международной исламской  
академии Узбекистана Область текстологии и  
литературного источниковедения*

MANUSCRIPT COPIES OF THE WORK

"QISASI RABGUZI"

*Anorkulova Dilobar*

*2nd year graduate student of the International Islamic  
Academy of Uzbekistan*

*Field of textual studies and literary source studies*



<https://orcid.org/0000-0001-5942-2230>

[dilobarmirzarahimova999@gmail.com](mailto:dilobarmirzarahimova999@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Qisasi Rabg‘uziy” asarining dunyo bo‘ylab saqlanib kelinayotgan qo‘lyozma nusxalari va O‘zFA Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti fondida mavjud bo‘lgan qo‘lyozma nusxalari haqida ma‘lumotlar berilib, ularning ba‘zilari tasniflab berildi.

**Kalit so‘zlar:** manbashunoslik, qo‘lyozma nusxa, invertar, faksimele.

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения о сохранившихся по всему миру рукописных экземплярах произведения «Кисаси Рабгузи» и рукописных экземплярах, имеющих в фонде Института востоковедения УзФА, причем некоторые из них засекречены с учетом

**Ключевые слова:** источниковедение, рукописный экземпляр, инвертор, факсимиле.

**Abstract:** This article provides information about manuscript copies of the work "Qisasi Rabguzi" preserved around the world and manuscript copies available in the fund of the Institute of Oriental Studies of the UzFA, and some of them are classified given

**Key words:** source science, manuscript copy, inverter, facsimile, calligrapher.

**KIRISH.** Payg‘ambarlar qissalari Qisas al-Anbiya so‘nggi ming yil ichida musulmonlarning ko‘p e‘tiborini o‘ziga tortgan kitoblardan biridir. Ushbu kitob turli mintaqalarda yozilgan bo‘lib, asrlar davomida va hozirgi kungacha saqlanib qoldi.

Nosiruddin Rabg‘uziying “Qisasi Rabg‘uziy” asari ham qimmatli tarixiy manbalar qatoridan o‘rin olgan bo‘lib, bu asar payg‘ambarlar hayoti haqidagi ibratli qissalardan tashkil topganligi uchun “Qisas ul-anbiyo” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Shuning uchun uning ko‘plab nusxalari dunyoning turli hududlariga olib ketilgan va har xil

tillarga tarjima qilingan. Bu esa asarni manbashunoslik jihatidan tadqiq qilish orqali asarning asl nusxasiga yaqin nusxasini aniqlash zaruratini tug‘diradi.

**ASOSIY QISM.** “Qisasi Rabg‘uziy” asari yozilgandan buyon uning nusxalari butun dunyo bo‘ylab tarqaldi. Asar tilining sodda va ravonligi uning keng tarqalishini ta‘minlab berdi. A.Xaliullina asarning grafo-fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga, uning dunyo fondlarida 35 ta qo‘lyozma nusxasi borligi hamda A.Sherbak, E.Tenishev, A.Baskakov, N.Nasilov kabi



turkiyshunos olimlar asarning til xususiyatlariga doir turli mulohazalar bildirishgani haqida ham ma'lumot berib o'tganlar. Rabg'uziy tomonidan yozilgan Qisasul-Anbiyoning turli kutubxonalarda ko'plab nusxalari mavjud. Uning lingvistik jihatlarini aks ettirish bo'yicha ishning eng qadimiy va eng yaxshi nusxasi Londondagi kutubxonada saqlanayotgan nusxasidir. Shu bilan birga, dunyoning turli burchaklarida ham uning nusxalari mavjud.

**Ключевые слова:** терминология, дорожные знаки, терминосоочетания, структурно-семантические, лексико-семантические, фраза, двухкомпонентные терминальные соединения.

**KIRISH.** Til yillar osha eskirmaydigan, balki yangilanib boraveradigan hodisa bo‘lganligi uchun o‘rganilishi kerak bo‘lgan tomonlari paydo

bo‘laveradi. Shu bilan bir qatorda, terminologiya bo‘yicha ham yuzlab tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ammo, ingliz va o‘zbek tillaridagi yo‘l



<https://orcid.org/0009-0002-0414-176X>

e-mail:

[nasiba.khushbakova.93@mail.ru](mailto:nasiba.khushbakova.93@mail.ru)



belgilariga oid terminlar yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun biz ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga tegishli terminlar va termin birikmalarni struktur-semantik jihatdan o'rganishga harakat qildik. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillariga oid yo'l belgilari termin birikmalarining struktura-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ilmiy ishning dolzarbligi xalqaro transport tizimida muqobil muloqotni ta'minlash, bu sohada tarjima jarayonlarida duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish hamda terminologik uyg'unlikni shakllantirishdan iborat. Tadqiqotda yo'l belgilari terminlarining leksik-semantik xususiyatlari va ularni qo'llashdagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rib chiqishga harakat qildik.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Izlanishimiz jarayonida tabiiy ravishda bir savol tug'iladi. Biz ishlatadigan terminlar, aslida, oddiy so'zlardan qanday farq qiladi? Rus olimi G.O.Vinokur so'z va termini farqlash va ajratish jarayonida ularning leksik-semantik, funksional-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratib, ikki xil yondashuv asosida izohlagan: 1) *terminlarning ma'nolaridagi* (maxsus soha ga nisbatan) xoslik, ma'no chegaralaridagi aniqlik va ixchamlik; 2) *intellektual shaffoflik, majoziy va hissiy jihatdan neytrallik*[4]. Olimning fikrlariga qo'shilgan holda R.A.Budagov: "*Termin – qat'iy aniq fikr, termin bir ma'nolilikka intiladi*"[2], – deb ta'kidlaydi. Olim termin va so'z nisbatiga yanada teranroq tavsif bergan. Boshqa bir us olimi A.A.Bragina "*Termin so'zlardan nafaqat bir ma'nolilikka moyilligi bilan farqlanadi, balki his-tuyg'uni ifodalovchi xususiyatlardan "mahrumligi" bilan ham ajralib ham turadi* [3], – deya ta'kidlanadi. Ushbu fikrlar tahlili asosida terminlar yengil va kuchli ta'sirchanlik, ijodiy yorqinlik, o'tkirlilik, noziklik, his-tuyg'u kabi xususiyatlarni o'zida mujassam ettirmaydi, deyish maqsadga muvofiq, albatta. Tilshunos olimlardan biri X.Arziqulov ham fan va texnikaning sohaga ta'sirini hisobga olib, ilmiy tadqiqotida terminlar haqida o'ziga xos noyob fikrlarini havola etadi: "*Har qanday so'z va so'z birikmasi, hatto tinish belgilari, relyatorlar ham terminlar vazifasini bajaradi*"[1].

**MUHOKAMA.** Ushbu maqolada turli xil lingvistik metodlardan foydalanilgan. Jumladan, rus olimi G.O.Vinokur so'z va termini farqlash va ajratish jarayonida ularning leksik-semantik,

funksional-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratib, ikki xil yondashuv asosida izohlagan va uning fikrlarini keltirgan holda *kuzatuv metodidan* foydalandik. Bundan tashqari ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga oid terminlarning leksik-semantik jihatdan analiz qilish jarayonida *chog'ishtirma metodidan* foydalandik. Misol uchun: ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarining aksariyat qismi *sifat + ot* va *ot + ot* (*steep ascent, road work*) so'z turkumlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lsa, o'zbekcha ikki tarkibli termin birikmalardan esa *sifat + ot* (*tik balandlik*) ko'rinishidagi termin birikmalar ustunlik qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga oid terminlarning so'z turkumlari bilan birgalikda hosil bo'lish jarayonlari orqali *struktur tahlil* metodidan foydalandik. Masalan, ingliz tilidagi "give way" (fe'l + ot) va o'zbek tilidagi "yo'l bering" (ot + fe'l) tuzilmalari tahlil qilingan. **Etimologik tahlil orqali esa o'zbek tilidagi ba'zi terminlarning kelib chiqishi hamda tarkibiy qismlarining shakllanishi ko'rib chiqildi.** Masalan, "avtomagistral" yoki "bojxona" so'zlari o'z ma'nolarini qayerdan olinganligi tahlil qilingan.

**NATIJALAR.** Quyida o'zbek tilidagi yo'l belgilariga oid ikki tarkibli terminlarni keltirib o'tamiz: *yo'l bering, ko'tarma ko'prik, sohilga chiqish, xavfli burilish, tik nishablik, tik balandlik, sirpanchiq yo'l, noteks yo'l, yo'lning torayishi, ta'mirlash ishlari, boshqa xavf-xatarlar, asosiy yo'l, kirish ta'qiqlangan, harakatlanish ta'qiqlangan, nazorat joyi, qayrilish ta'qiqlangan, to'xtash ta'qiqlangan, aylanma harakatlanish, velosiped yo'lkasi, piyodalar yo'lkasi, harakatlanish chizmasi, yo'nalishlar ko'rsatkichi, manzil nomi, masofalar ko'rsatkichi, to'xtash chizig'i, reversiv harakatlanish, ajratuvchi bo'lak, harakatlanish bo'lagi, majburiy to'xtash, qatnov qismi, quvib o'tish, yondosh hudud, yo'l harakati, transport vositasi, to'xtab turish.*

Xuddi shu sohada ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalar esa quyida keltirilgan: *give way, other dangers, road work, parking place, side wind, falling rocks, turning left, turning right, slippery road, unevenroad, opening (swing) bridge, wild animals, steep ascent, staggered junction, traffic merges, hump bridge, zebra crossing, keep left, minimum speed.*



## Ingliz va o'zbek tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarning strukturasi

Ingliz termin birikmalar	Tuzilishi	O'zbek termin birikmalar	Tuzilishi
Give way	V+N-fe'l+ot	Yo'l bering	Ot+Fe'l
Other dangers	Determiner+N -Sifat +ot	Boshqa xavf-xatar	Sifat +Ot
Parking place	N+ N-Ot+Ot	To'xtab turish joyi	Fe'l+Fe'l+Ot
Road work	N+N-Ot+Ot	Ta'mirlash ishlari	Fe'l+Ot
Side wind	N+N-Ot+Ot	Yonlanma shamol	Sifat+Ot
<b>Turn left</b>	V+Adj-Fe'l+Sifat	Chapga burilish	Sifat+Fe'l
Falling rocks	Adj+N-Sifat+Ot	Toshlar tushishi	Ot+fe'l
Slipper yroad	Adj+N-Sifat+Ot	Sirpanchiq yo'l	Sifat+Ot
Uneven road	Adj+N-Sifat+Ot	Notekis yo'l	Sifat+Ot
Steep ascent	Adj+N-Sifat+Ot	Tik bandlik	Sifat+Ot
Wild animals	Adj+N-Sifat+Ot	Yovvoyi hayvonlar	Sifat+Ot
Opening (swing) bridge	N+N-Ot+Ot	Ko'tarma ko'priq	Sifat + Ot

Yuqorida ko'rib turganimizdek, ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarning aksariyat qismi **sifat + ot** va **ot + ot** (*steep ascent, road work*) so'z turkumlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lsa, o'zbekcha ikki tarkibli termin birikmalardan esa **sifat + ot** (*tik balandlik*) ko'rinishidagi termin birikmalar ustunlik qiladi. Bu termin birikmalar alohida-alohida kelganda boshqa soha termini bo'lib kelishi mumkin.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi yo'l belgilariga oid termin birikmalarni struktur-semantik jihatdan o'rganib, terminlar maxsus sohalarga oid bo'lib, ular ma'noni aniq beradi va funksional neytral jihatdan oddiy so'zlardan farq qiladi, degan xulosaga keldik. G.O.Vinokur va R.A.Budagovlarning ta'kidlaganidek, terminlar hissiy ta'sirdan xoli, qat'iy ma'noni ifodalovchi birliklardir. Bundan tashqari ingliz tilidagi ikki tarkibli termin birikmalar, asosan, *sifat + ot* va *ot + ot* tuzilmalaridan iborat. Misol: *steep*

*ascent* (sifat + ot), *road work* (ot + ot). O'zbek tilidagi ikki tarkibli termin birikmalarda esa *sifat + ot* tuzilmalari ustunlik qiladi. Misol: *tik balandlik* (sifat + ot), *ta'mirlash ishlari* (ot + ot).

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арзикулов Х. Семантические проблемы в терминологических системах французского языка (на материале онкологической терминологии). Автореф. дис...канд.филол.наук. – Л.: 1980. – 24 с.
2. Будагов Р.А. Человек и его язык. – М.: МГУ, 1976. – С.176.
3. Брагина А.А. Значение и оттенки в термине. // Терминология и культура речи. – М.: Наука, 1981. – С. 37–38.
4. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классика терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218 – 284.

## JAMOAT ETOSFERASIDA KORRUPSIYANI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN AXLOQIY MEKANIZMLAR

Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li  
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi  
ЭТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СНИЖЕНИЯ  
КОРРУПЦИИ В ОБЩЕСТВЕННОЙ СФЕРЕ

Шакаров Ойбек Худойберди угли  
научный сотрудник Самаркандского государственного  
института иностранных языков

ETHICAL MECHANISMS FOR REDUCING  
CORRUPTION IN THE PUBLIC ETHOSPHERE

Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li  
Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages



[shakarovoybek@mail.ru](mailto:shakarovoybek@mail.ru)

<https://orcid.org/2084-0284-0424-0244>

**Annotatsiya:** Jamiyatda korrupsiya darajasini pasaytirish masalasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, bu boradagi muammolarni faqat iqtisodiy yoki huquqiy yondashuvlar yordamida hal etish mumkin emas. Axloqiy mexanizmlarni rivojlantirish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu mexanizmlar jamiyatning axloqiy qadriyatlari va normativ asoslarini mustahkamlashni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, axloq, etosfera, madaniyat, halollik, qadriyat, adolat.

**Аннотация:** Снижение уровня коррупции в обществе представляет собой сложную и многогранную задачу, решение которой невозможно только с помощью экономических или правовых подходов. Развитие нравственных механизмов имеет важное значение в борьбе с коррупцией, так как эти механизмы включают укрепление моральных ценностей и нормативной основы общества.

**Ключевые слова:** коррупция, нравственность, этосфера, культура, честность, ценности, справедливость.

**Annotation:** The issue of reducing the level of corruption in society is complex and multifaceted, and it cannot be resolved solely through economic or legal approaches. The development of ethical mechanisms plays a crucial role in combating corruption, as these mechanisms involve strengthening the moral values and normative foundations of society.

**Key words:** corruption, ethics, ethosphere, culture, integrity, values, justice.

**Kirish.** Axloqiy mexanizmlar jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etishda asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Ular insonlar ongida halollik, adolat va javobgarlik kabi qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, korrupsiyaga nisbatan muhosasizlik madaniyatini rivojlantiradi. Mazkur mexanizmlar shaxsiy va jamoaviy ongni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi, chunki korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy inqirozning ham ko'rinishi hisoblanadi. O'zbekistonning milliy strategiyalarida aynan

axloqiy mexanizmlarni shakllantirish orqali korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Axloqiy mexanizmlar jamiyatda muhim o'rin tutadi, chunki ular nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ongni shakllantirishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Ularning mohiyati, asosan, korrupsiyaga qarshi muhosasizlikni rivojlantirish va fuqarolarning halollik tamoyillariga sodiq bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Shaxsiy va ijtimoiy axloqiy qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhitni

shakllantiradi va ular jamiyatdagi har bir a'zoning xulq-atvorini, qaror qabul qilish jarayonlarini, shuningdek, ijtimoiy muammolarni hal qilish usullarini belgilab beradi. Jamiyatda korrupsiyaning oldini olishning eng samarali usulining biri bu axloqiy mexanizmlardan foydalanishdir, chunki ular orqali har bir a'zoning mas'uliyatini oshirish va axloqiy me'yorlarga rioya qilishni ta'minlash mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonning milliy strategiyalarida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Bu davlatning fuqarolari va uning idoralari orasida korrupsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirishni anglatadi. Jamiyatda korrupsiyaning keng tarqalishi va bunga qarshi kurashish zarurati ko'p yillar davomida jiddiy muammo sifatida yoritilib kelinmoqda. O'zbekiston hukumati korrupsiyani kamaytirish maqsadida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Bularning ichida davlat xizmatlarida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlashni rivojlantirish, davlat idoralariidagi xodimlarning faoliyatini tahlil qilish va ularga nazoratni kuchaytirish kabi chora-tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Bu usullar orqali davlat xizmatlarining shaffofligini oshirish va korrupsiyani kamaytirish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyatning barcha qatlamlarini o'z ichiga oladi. Bu kurash nafaqat iqtisodiy va huquqiy choralardan orqali, balki axloqiy mexanizmlar yordamida ham amalga oshiriladi. Korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirishning samarali usullaridan biri jamiyatda halollik, adolat va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishdir. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimi, diniy va madaniy qadriyatlar, shuningdek, media va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirishda yuqoridagi elementlar birgalikda ishlashi kerak, chunki bu jarayon jamiyatdagi barcha qatlamlarning faol ishtirokini talab qiladi. O'zbekistonning 2030-yilga qadar bo'lgan rivojlanish strategiyasi aynan shu yo'nalishda axloqiy me'yorlarni rivojlantirishni maqsad qilgan [2].

**Tahlil va natijalar.** Ta'lim tizimi jamiyatni shakllantiradigan asosiy institutsiyalardan biridir. Yoshlarni halollik, adolat va mas'uliyatga o'rgatish orqali korrupsiyaga qarshi kurashni boshlash mumkin. O'zbekistonning 2030-yilgi strategiyasida

yoshlarni korrupsiyaga murossasiz bo'lishga o'rgatish, ta'lim jarayonlarida axloqiy ko'rsatmalarni joriy qilish tavsiya etilgan. Bu jarayon faqat maktablarda emas, balki oliy o'quv yurtlarida ham amalga oshirilishi kerak. Ta'limda axloqiy tamoyillarni targ'ib qilish yosh avlodning axloqiy ongini shakllantiradi va ular ijtimoiy adolatni, halollikni va mas'uliyatni o'zlarining hayotiy qadriyatlarini sifatida qabul qilishadi. Misol uchun, ta'lim tizimiga korrupsiyaga qarshi maxsus darsliklar, treninglar va seminarlar kiritish orqali bu tamoyillarni yosh avlodga etkazish mumkin.

Bu jarayon yoshlarni faqat axloqiy me'yorlar asosida tarbiyalashni anglatmaydi, balki ularning amaliy faoliyatlarida halollikni qo'llashga ham o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida, jamiyatda korrupsiyaga qarshi yangi va mustahkam axloqiy madaniyatning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimi korrupsiyani fosh qilish, unga qarshi kurashish va axloqiy barqarorlikni ta'minlashda ham faol ishtirok etishi kerak. Shunday qilib, halollik tamoyillarini ta'lim tizimiga kiritish jamiyatda korrupsiyaga qarshi murossasizlikni shakllantiradi va bu jarayonning uzoq muddatli samarasini ta'minlaydi.

Din va an'anaviy qadriyatlar jamiyatda halollik, adolat va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning madaniy va diniy an'alarida adolat va halollik tamoyillari mustahkam o'rin tutgan. Dinning o'rni jamiyatda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda va korrupsiyaga qarshi kurashishda beqiyosdir. Din orqali insonlarga adolat va haqiqatga sodiqlik, xolislik va halollikni targ'ib qilish mumkin. Masalan, islom dini korrupsiyani qoralaydi va uning oldini olishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Mashhur hanafiy olim Abu Bakr Jassos "Ahkumul Qur'on" asarida poraxo'rlik hukmi haqida to'xtalib, ushbu oyati karimani dalil qilgan: "(Ular) yolg'on (to'qish uchun Siz)ga quloq soladigan va haromni yeydiganlardir..." (Moida surasi, 42-oyat). Olim oyatdagi "harom" deb tarjima qilingan "suht" kalimasi ildizi bilan sug'urib olmoq, yo'qotmoq ma'nolarini anglatishini ta'kidlaydi va bunday yozadi: «"Suht" so'zi porani anglatadi. Zero, pora barakani yo'qotib, gunohkorni halok qiladi».[3; 606] Shuning uchun diniy targ'ibot orqali jamiyatda korrupsiyaga qarshi murossasizlikni oshirish mumkin.

Bundan tashqari, madaniy qadriyatlar orqali ham korrupsiyaga qarshi kurashish mumkin. O'zbekistonning qadriyatlarida halollik, adolat va mas'uliyatning ahamiyati katta. Bu qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi va ijtimoiy muammolarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, diniy va madaniy qadriyatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda axloqiy mexanizmlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki bu qadriyatlar ijtimoiy madaniyatning asosiy qismi bo'lib, korrupsiyani faqat shaxsiy axloqiy tuyg'u emas, balki jamiyatning umumiy qabul qilgan axloqiy qoidalari sifatida qarashni talab qiladi. Islom shariati molni muhofaza qilish maqsadida bironing molini botil yo'l bilan yeyishni harom qildi. Alloh taolo «Niso» surasida shunday marhamat qiladi: «Ey iymon keltirganlar! Biribirlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang» (29-oyat). «Bironing molini botil yo'l bilan yeyishga ribo, qimor, poraxo'rlik, aldanchilik, narxni sun'iy ravishda ko'tarish, o'g'rilik, (qimorbozlik,) tovlamachilik va boshqalar kiradi» [4; 262].

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va media korrupsiyaga qarshi kurashda juda kuchli vositaga aylangan. Ijtimoiy tarmoq va media orqali korrupsiyaga qarshi targ'ibot qilish, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi kurashda qanday ishtirok etish kerakligi haqida ma'lumot berish mumkin. O'zbekistonning axloqiy barqarorlikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashdagi harakatlari ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqatilmoqda. Media va ijtimoiy tarmoqlar jamiyatda korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. Korrupsiyaga qarshi chiqish uchun birgalikda harakat qilish va shaxsiy mas'uliyatni oshirish kerak. Ijtimoiy tarmoqlar va media, shuningdek, korrupsiyani fosh qilishga xizmat qiladi. Misol uchun, media orqali korrupsiyaga oid holatlar ochiq-oshkora fosh etilishi, davlat idoralari va xizmatchilarining ishdan bo'shatilishi kabi jarayonlar ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Media orqali korrupsiyaning salbiy ta'sirlarini jamiyatga yetkazish, fuqarolarning korrupsiyaga nisbatan fikrini o'zgartirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yordamida korrupsiyaga qarshi turli jamoat tashabbuslari va aksiyalarni tashkil etish mumkin. Bu orqali jamiyatning har bir a'zosini korrupsiyaga qarshi

kurashga jalb qilish, ularni birlashtirish va ijtimoiy muhitda korrupsiyaga qarshi pozitsiyani mustahkamlash mumkin. Ijtimoiy tarmoq va media ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki ularni omma yaxshi ko'radi va ular orqali keng auditoriyani qamrab olish mumkin. Shunday qilib, media va ijtimoiy tarmoqlar korrupsiyaga qarshi kurashda mustahkam vositalar bo'lib, jamiyatda korrupsiyaga qarshi yangi madaniyatni yaratishda katta yordam beradi.

**Xulosa.** Korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirishda ta'lim tizimi, diniy va madaniy qadriyatlar, shuningdek, media va ijtimoiy tarmoqlar asosiy vositalar hisoblanadi. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi strategiyasi jamiyatda axloqiy me'yorlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun jamiyatning barcha qatlamlarini birlashtirish va korrupsiyaga nisbatan to'liq murosasizlikni shakllantirish zarur. Bunda axloqiy va madaniy asoslarni mustahkamlash orqali korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashda axloqiy mexanizmlar iqtisodiy va huquqiy vositalar bilan birgalikda ishlashi kerak. Bu yo'nalishda ta'lim, axloqiy tarbiya, liderlik namunalari va fuqarolarning faol ishtiroki asosiy vositalar bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning strategik maqsadlari jamiyatni korrupsiyasiz rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni keng qamrovli amalga oshirishni nazarda tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
3. Abu Bakr Jassos "Ahkomul Qur'on". – B. 606
4. B.A.Aliyev, A.Muxtarov, T.O.Norov, N.N.Qodirov, J.K.Bayaliyev, A.Muzaffarov "O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi strategiyasi". Toshkent – 2021. B-262.
5. Ochilova B. Korrupsiya va ijtimoiy hayot. (Keys-stadi) / Metodik ishlanma: Bilim sohasi 100000 – Ta'lim. Ta'lim sohasi 110000 – Ta'lim. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Jizzax, "Tahririy-nashriyot bo'limi", 2021, 72 – bet.



## MUSTAQILLIKNING ILK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI HOLATI

*Xo‘janazarov Absalom Ziyadullayevich,*

*Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)*

## СОСТОЯНИЕ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

*Xujanazarov Absalom Ziyadullaevich,*

*Старший преподаватель Термезского государственного педагогического института, доктор философии по истории (PhD)*

## THE STATE OF THE HEALTHCARE SYSTEM OF THE SURKHANDARYA REGION IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE

*Xujanazarov Absalom Ziyadullaevich,*

*Senior Lecturer of the Termez State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in History (PhD)*



Tel: +998904112173

E-mail:

[xujanazarov@mail.ru](mailto:xujanazarov@mail.ru)

<https://orcid.org/0009-0006-9711-5163>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryoda ijtimoiy soha tarmoqlaridan biri bo‘lgan sog‘liqni saqlash sohasida olib borilgan keng qamrovli islohotlar shuningdek, qishloqlarda aholi salomatligini tiklash va tibbiyot sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ayrim chora-tadbirlar hamda o‘zgarishlar haqidagi ma‘lumotlar tahlili o‘z ifodasini topgan.

**Kalit so‘zlar:** sog‘liqni saqlash tarmog‘idagi islohotlar, qishloq aholisi salomatligi, tibbiy xizmat, davolash-profilaktika muassasalari, ambulatoriya, poliklinika.

**Аннотация:** В данной статье содержится анализ комплексные реформы, проведенные в сфере здравоохранения, которая является одной из отраслей социальной сферы в Сурхандарьинской области, также некоторых мероприятий и изменений, осуществленных для восстановления здоровья населения в селах и укрепления материально-технической базы медицинской сферы, также отражена анализы сведений об этих изменениях.

**Ключевые слова:** реформы в системе здравоохранения, здоровье сельского населения, медицинское обслуживание, лечебно-профилактические учреждения, амбулатория, поликлиника.

**Abstract:** This article contains an analysis the comprehensive reforms carried out in the healthcare sector, which is one of the branches of the social sphere in the Surkhandarya regio, also of some of the activities and changes carried out to restore the health of the population in the villages and strengthen the material and technical base of the medical sphere, and analyzes of information about these changes are also reflected.

**Key words:** reforms in the healthcare system, health of the rural population, medical care, medical institutions, outpatient clinic, polyclinic.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryoda qishloq aholisiga berilayotgan tibbiy yordam hali sifatli va yuqori darajada emas, bolalar va onalar o‘limi yuqoriligi, yuqumli va sil

kasalliklari hamda nogironlar sonining o‘sayotganligi qayd etildi. Ayniqsa, sil kasalligining ko‘payishi, oilaviy kasallanish qishloq aholisi orasida me‘da-ichak, kamqonlik, asab, tayanch bo‘g‘in, teri va boshqa kasalliklar mavjud edi.

Respublika qishloq aholisining 90-95 foizida kamqonlik kasalligining har xil turlari borligi, bolalarning 45-50 foizida vitamin yetishmovchiliklari aniqlangandi [1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tashabbusi bilan 1994-yilning 30-31-may kunlari Andijon viloyatida tibbiyot xodimlari anjumani bo'lib, unda bozor munosabatlariga o'tish davrining eng dolzarb muammolaridan biri «Qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishning sifati va madaniyati, saviyasi, samarasini yanada oshirish masalasi»ni ko'rib chiqib, muhokama qilindi. Ushbu anjumanda Surxondaryo viloyati shifokorlaridan vakillar ishtirok etib, fikrlar almashinildi.

Mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralari ko'rib chiqildi. 1994-yilda Respublika miqyosida 163 ta, viloyatlarda markaziy shifoxonasida 26 ta, 451 ta tuman va qishloq uchastka shifoxonasida faoliyat ko'rsatayotganligi qayd etildi. Har yili kasalxonalarda davolanib chiqayotgan bemorlarning 58-59 foizi qishloq aholisini tashkil etdi. Ularning 70 foizga yaqini markaziy tuman, qishloq va uchastka shifoxonalarida davolangan. 1993-yilda qishloq ambulatoriyalariga bo'lgan qatnov 20,6 mln. kishiga yetdi [1].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Mustaqillikning dastlabki yillarida viloyat tibbiyoti infratuzilmasini yaxshilanishiga ham e'tibor qaratilib, aholiga tibbiy xizmatni ko'rsatish, yangi zamonaviy bilimga ega tibbiyot xodimlar bilan ta'minlash, kasalxonalarni zamonaviy talab darajasida qurish, yetarli dori-darmon, tibbiyot asbob-uskunalar bilan ta'minlash bo'yicha muhim tadbirlar ishlab chiqildi.

Natijada 1995-yildan viloyatda tibbiy xizmat ko'rsatish yaxshilana boshlandi. Davolash maskanlari soni oshib, shifoxonalardagi o'rinlar soni viloyatda 19 ta kasalxonada 2100 o'ringa yetdi. Jumladan, Denov tumanida 4 ta kasalxonada 350 o'rin, Sho'rchi tumanida 2 ta kasalxonada 400 o'rin, Sherobod tumanida 2 ta kasalxonada 480 o'rin, Qumqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxonada 490 o'rin, Jarqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxonada 520 o'rin, Boysun tumanida 2 ta kasalxonada 280 o'rin mavjud edi. Ularda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatildi va

kasalxonalar zamonaviy qayta ta'mirlanib, yangi tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi [2]. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholiga sifatli va talab darajasida tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha viloyat hokimligi sog'liqni saqlash tashkilot va muassasalari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. 1996-yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №182-sonli Qarori viloyat sog'liqni saqlash masalasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi hukumat qarorini bajara borib, yaxshi natijalarga erishildi. 1996-yilning o'zida 13 ta o'rniga 16 ta yangi tipdagi qishloq davolash punkti qurildi. Dasturda belgilanganidan tashqari, Angor tumanida 2 ta qishloq davolash punkti foydalanishga topshirildi [3].

Viloyatda 1997-yilda 109 ta sog'liqni saqlash sohasiga xizmat qiluvchi kasalxonalar bo'lib, davolash o'rinlari soni 8784 taga yetdi. Viloyatda 10 ming aholiga o'rtacha 59,6 kasal o'rni to'g'ri keldi. 1997 yilda 6 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi va 16 ta qishloq vrachlik punktlari qurib ishga tushirildi. 1997 yilda viloyatda 10 ming aholiga xizmat ko'rsatuvchi ambulatoriya-poliklinika markazlari tashkil etildi. Bu markazlar 88,4 o'ringa mo'ljallangandir [4]. 1996 yil Boysun tumanida 100 o'rinli ambulatoriya-poliklinikasi va 30 o'rinli yangi davolash kasalxonasi; Jarqo'rg'on tumanida 150 o'rinli ambulatoriya poliklinikasi; Qumqo'rg'on tumanida 100 o'rinli ambulatoriya poliklinikasi; Sherobod tumanida 50 o'rinli ambulatoriya poliklinikasi va 100 o'rinli kasalxona; Sho'rchi tumanida 50 o'rinli ambulatoriya poliklinikasi qurib ishga tushirildi [4].

**NATIJAHLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Tibbiy xizmat ko'rsatish asosini davlat ta'minotidagi muassasalar tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, pulli tibbiyot yoki sug'urta tibbiyoti imkoniyatlari kengaytirildi. Aholiga sifatli va talab darajasida tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha, viloyat hokimligining sog'liqni saqlash tashkilot va muassasalari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi hukumat qarorlari bajarilib, tibbiyot maskanlarining soni va salmog'i o'sib bordi.

Mustaqillikning dastlabki o'n yilliklarida O'zbekistonda tibbiyotning ko'pgina sohalarida, ko'plab sog'liqni saqlash muassasalari, Toshkent davlat tibbiyot institutining bosh o'quv binosi va Respublika bolalar kasalxonasi, Semashko nomidagi shifoxona,

ko'p sohali bolalar kasalxonasi, mikroxiirurgiya, buyrak, yurak, o'pka xirurgiyasi markazlari qurildi. 1998-yilga kelib, O'zbekistonda 1250 kasalxona, 177 davolash hamda ambulatoriya poliklinika muassasasi, 6288 feldsherlik-akusherlik markazi, 220 sanatoriya-epidemiologiya stansiyasi, 1900 dan ortiq dorixonalar aholiga xizmat ko'rsatdi [5].

Surxondaryo viloyatida sog'liqni saqlash ishlari 1999-2000-yillarda yanada yaxshilanib bordi. 1999-yildan Surxondaryo viloyatida 63 ta tibbiyot muassasasi nodavlat sektorda faoliyat ko'rsatib, ushbu davolash profilaktikasining 19 tasi o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minladi [6].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, viloyat, tuman va shaharlarida tibbiy xizmat ko'rsatish zamonaviy asosda tashkil etilganligini kuzatish mumkin. Masalan, Boysun shahrida aholi sog'likni saqlash masalasida ibratli ishlar qilinib, keng tarmoqli davolash usullari joriy etildi. Boysun shahrida aholiga xizmat ko'rsatish uchun 1998 yil 2 ta kasalxonada 90 ta vrach, 250 ta o'rta tibbiyot xodimlari bo'lib, kasalxonalardagi o'rinlar soni 150 tani tashkil etgan. Shaharda tez yordam stansiyasi, faoliyat ko'rsatib, har 10 ming aholiga 16,3 vrach, 61,3 o'rta tibbiyot xodimlari, 27,5 kasalxona o'rinlari aholiga xizmat ko'rsatgan [7].

Surxondaryo viloyatining aholisiga 1999-yili 290 ta ambulatoriya, poliklinika muassasalari xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 2000-yilning olti oyi ichida bu muassasalar soni 281 tani tashkil etdi. Viloyatning davolash profilaktika muassasalarida o'rinlar soni 9035 ta bo'lgan bo'lsa, 2000 yilning olti oyi ichida 8823 tani tashkil qildi. Shifoxonalarda 1999-yili 211 861 bemor davolangan bo'lsa, 2000 yilning olti oyi ichida 142 908 bemor davolangan [8].

2000-yilda sog'liqni saqlash sohasida viloyat aholisiga 91 ta kasalxona (shu jumladan, 85 tasi byudjet, 6 tasi byudjetdan tashqari, shundan 5 tasi xususiy) xizmat ko'rsatdi. Viloyat markazi Termiz shahrida zamonaviy tez tibbiy yordam markazi hamda ona va bola markazi qurib foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari viloyat aholisiga 345 ta quvvati bir smenada 19,4 qatnovga mo'ljallangan vrachlik ambulatoriya-poliklinikalari (shundan 51 tasi xususiy, quvvati bir smenada 1,7 qatnovga mo'ljallangan) tibbiy xizmat ko'rsatdi [8].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahliliga asoslanib, viloyat aholisini sog'liqni saqlash, zamonaviy davolash maskanlarni qurish, qayta ta'mirlash, davolash o'rinlarini yangilash, xonalarni

zamon talabi asosida jihozlash sohasida katta amaliy ishlar qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

2000-yilga kelib yangi tibbiyot asbob-uskunalarini chet eldan olib kelib, o'rnatib xalqqa tibbiyot sohasini yangi usullari bilan xizmat ko'rsatish yaxshilandi. Viloyatdagi davolash muassasalari va o'rinlari soni 2000-yilda viloyatdagi 16 ta kasalxonada 1885 o'rin, Denov shahrida 4 ta kasalxonada 470 o'rin, Sho'rchi tumanida 2 ta kasalxonada 470 o'rin, Sho'rchi tumanida 2 ta kasalxonada 510 o'rin, Sherobod tumanida 2 ta kasalxonada 500 o'rin, Qumqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxona 520 o'rin, Jarqo'rg'on tumanida 3 ta kasalxonada 545 o'rin, Boysun tumanida 2 ta kasalxonada 300 o'rin shahar aholisini sog'lig'ini saqlashga xizmat qildi [2].

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillarida viloyatda bir qator tibbiyot muassasalari qurib foydalanishga topshirildi. Bu davrda, birinchi navbatda, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga alohida e'tibor berildi. Yangi qurib foydalanishga topshirilayotgan muassasalarni zamonaviy tibbiyot jihozlari va uskunalari, dori-darmonlar bilan ta'minlash borasida ham katta ishlar amalga oshirildi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy rivojlanishidagi ayrim ko'rsatkichlar tahlili (1991-2000-yillar). – Termiz, 2000.
2. Surxondaryo viloyati xokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi (1991-2002-yillar). – Termiz, 2004.
3. Surxondaryo viloyati hokimligining joriy arxivi. Viloyat Kengashining I/VI sessiyasi materiallari (10.01.1997-y.). – Termiz, 1997.
4. Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika boshqarmasi (10.01.1998-y.). – Termiz, 1998.
5. Surxondaryo viloyati hokimligi joriy arxivi. 1-bayonnoma, 4-hujjat, 1999 yil.
6. "Surxon tonggi" gazetasi, 2000-yil, 13 fevral, №13-soni.
7. Boysun shahar hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi (20.01.2000-y.). – Termiz, 2000.
8. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zgasida. – Toshkent: Sharq, 2001.



**O'ZBEKISTONDA MILLIY-MADANIY MEROSNI  
ASRASH, QADRIYATLARNI TIKLASH VA  
SAQLASHDA XALQARO OLTIN MEROS  
XAYRIYA JAMOAT FONDINING ISHTIROKI**

*Mavlanova Sitora Sheraliyevna*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*O'zbekiston tarixi kefedrasi 1-kurs tayanch doktoranti*

**УЧАСТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО  
БЛАГОТВОРИТЕЛЬНОГО ОБЩЕСТВЕННОГО ФОНДА  
«ЗОЛОТОЕ НАСЛЕДИЕ» В СОХРАНЕНИИ  
НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ,  
ВОССТАНОВЛЕНИИ И СОХРАНЕНИИ ЦЕННОСТЕЙ В  
УЗБЕКИСТАНЕ**

*Мавланова Ситора Шералиевна*

*Национальный университет Узбекистана*

*Студент 1 курса базового докторантуры кафедры истории  
Узбекистана*

**PARTICIPATION OF THE INTERNATIONAL GOLDEN  
HERITAGE CHARITABLE PUBLIC FUND IN THE  
PRESERVATION OF NATIONAL-CULTURAL HERITAGE,  
RESTORE AND PRESERVATION OF VALUES IN  
UZBEKISTAN**

*Mavlanova Sitora Sheraliyevna*

*National University of Uzbekistan*

*1st year basic doctoral student of the Department of History of  
Uzbekistan*

**Аннотация:** Ushbu maqolada Xalqaro "Oltin meros" xayriya fondining tashkil topishi, asosiy maqsad va vazifalari, zarur instutsional hamda tashkiliy-huquqiy asoslari yoritib berilgan. Xalqaro "Oltin meros" xayriya fondining milliy madaniy merosimizni asrab-avaylash, qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelinayotgan ziyoratgoh, qadamjo va obidalarni obodonlashtirish, qadimiy hunarmandchilik maktablarini tiklash, xorijiy mamlakatlarda milliy mumtoz san'atimizni namoyish qilish borasida olib borgan faoliyati va o'zaro hamkorlik aloqalari haqida bayon etilgan.

**Калит so'zlar:** Xalqaro "Oltin meros" xayriya fondi, moddiy-madaniy meros, qadriyat, monumental san'at, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoatchilik nazorati, xalqaro hamkorlik, konvensiya, YUNESKO.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается организация Международного благотворительного фонда "Золотое наследие", его основные цели и задачи, необходимые институциональные и организационно-правовые основы. Деятельность Международного благотворительного фонда "Золотое наследие" по сохранению нашего национального культурного наследия, восстановлению наших ценностей, благоустройству святынь, культовых сооружений и памятников, почитаемых нашим народом, восстановлению старинных ремесленных школ, демонстрации нашего национального



[mavlanovasitora247@gmail.com](mailto:mavlanovasitora247@gmail.com)

Tel: +99893 560 61 11

<https://orcid.org/0009-0005-4999-7942>



классического искусства в зарубежных странах, Говорится об отношениях взаимного сотрудничества.

**Ключевые слова:** международный благотворительный фонд “Золотое наследие”, материальное и культурное наследие, ценность, монументальное искусство, неправительственные некоммерческие организации, общественный контроль, международное сотрудничество, конвенция, ЮНЕСКО.

**Annotation:** In this article, the organization of the International “Golden Heritage” charity fund, its main goals and tasks, necessary institutional and organizational-legal foundations are explained. The activities of the “Golden Heritage” international charitable foundation in preserving our national cultural heritage, restoring our values, beautifying shrines, places of worship and monuments revered by our people, restoring ancient craft schools, demonstrating our national classic art in foreign countries, and It is stated about mutual cooperation relations.

**Key words:** “Golden Heritage” international charity fund, material and cultural heritage, value, monumental art, non-governmental non-commercial organizations, public control, international cooperation, convention, UNESCO.

**Kirish.** O‘zbekistonning milliy-madaniy qadriyatlarini Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlilik an‘analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq bo‘y tarixga ega. Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘zbekiston hududida ko‘plab tarixiy-me‘moriy va folklor yodgorliklari joylashgan bo‘lib ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.

O‘zbekiston o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach jamiyat hayotining barcha sohalari kabi moddiy va madaniy merosni tiklash, qadriyatlarni saqlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini uning ma‘naviy va madaniy rivojisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bugun ma‘naviyatga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir” [1] – deb ta‘kidlab o‘tgan masalaning dolzarb ekanligidan dalolatidir.

Moddiy va madaniy merosni saqlash, qadriyatlarni qayta tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan va mustaqillikning ilk yillaridan boshlab milliy qadriyatlar va xalqning urf-odatlarini inobatga olgan holda mavjud shart-sharoit va mukammal qonunchilik ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. Istiqlolning dastlabki yillarida davlat tashkilotlari qatori tarixiy-madaniy merosni tiklash va saqlash borasida faoliyat ko‘rsatuvchi bir qancha nodavlat notijorat tashkilotlari vujudga keldi. Xalqaro “Oltin

meros” xayriya jamoat fondi shular jumlasidandir. “Oltin meros” xayriya jamoat fondi respublika hududida va xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalar, madaniy, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik, xalq og‘zaki ijodi namunalari, san‘at va badiiy asarlar, qadimiy davlatchilik tarixiga oid hujjatlar, qadimiy cholg‘u asboblari yig‘ish, saqlash, xalqqa tanitish va bu orqali tarixiy-ma‘naviy qadriyatlarimizning naqadar chuqur ildizga ega ekanligini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. “Oltin meros” xayriya jamoat fondining tashkil topishi, milliy-ma‘naviy merosni tiklash va keng targ‘ib qilish borasida olib borgan faoliyati haqida A.Karim o‘zining “Tarixning uzilgan parchasi” nomli risolasida keltirib o‘tgan [2]. Risolada asosan 1996-2014-yillar davomida fondning olib borgan faoliyatini yoritib bergan.

Bilamizki, mustaqillikning ilk yillari tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash, ularni asrab-avaylash masalasi nafaqat davlatning oldida turgan asosiy vazifa bo‘libgina qolmay, davlatga qarashli bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkilotlarning ham bu sohada faolligini talab qildi. Bu masalada A.A.Insopov o‘zining tadqiqotlarida tarixiy madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlashda davlat va nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy sherikligi masalasiga ham o‘z e‘tiborini qaratib Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining tashkil topishi, bu borada qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar, faoliyat yo‘nalishlari va o‘tish davrining eng qiyin

bosqichlarida bu kabi tashkilotlarga katta ehtiyoj borligi yuzasidan “Xalqaro Bobur”, “Amir Temur” xayriya jamg‘armalarining faoliyati hamda milliy-ma’naviy merosni muhofaza qilishda jamoatchilik nazorati dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib borayotganligi haqida keltirib o‘tgan [3].

**Muhokama.** Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikada ilm-fan, madaniyat, xalq ta’limi, adabiyot va san’atni rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta’mirlesh, asliga qaytarish, moddiy va madaniy merosni tiklash asosiy vazifalar qatoridan o‘rin oldi. 1972-yil 16-noyabrda YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya”da tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish va saqlash borasida muhim vazifalar belgilangan. O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki davrida konvensiyani ratifikatsiya qilgan va konvensiyaning 4-bandida ishtirokchi davlatlarga madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish, saqlash, targ‘ib qilish va avlodlarga yetkazish kabi muhim vazifalar belgilab qo‘yilgan [4]. Bugungi kunda ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar soni 194 taga yetdi. Mamlakatimizda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun madaniy meros sohasidagi munosabatlarning huquqiy asosini yaratibgina qolmay, davlat va nodavlat tashkilotlarining bu sohadagi hamkorligiga poydevor yaratdi.

Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi jamoatchilik tashabbusi, 1996-yil 9-sentyabrdagi “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samardorligini oshirish to‘g‘risida”gi PF №1559-Farmon hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-sentyabrdagi “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi huzuridagi “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi №338-qarorga, 2006-yil 25-avgustdagi “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samardorligini oshirish to‘g‘risida”gi PQ №451-qarorga asosan o‘z o‘zini boshqaradigan, mustaqil, nodavlat xayriya jamoat fondi sifatida tashkil etilgan. Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi huquqiy maqomi, maqsadi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilish va faoliyat prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “Homiylik to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat

tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunlar hamda yuqorida qayd etilgan huquqiy hujjatlarga asoslangan fond Ustavi bilan belgilanadi.

Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi bosh maqsadi xalqimiz milliy madaniy merosini izlab topish, asrab avaylash, mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda targ‘ib qilishdan iborat. Buning uchun Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi viloyatlarda va bir qancha tumanlarda o‘z muassasalariga ega. Fond milliy madaniy merosimizni avaylab asrash, qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz tomonidan e‘zozlanib kelinayotgan ziyoratgoh, qadamjo va obidalarni obodonlashtirish, tarixini o‘rganish bo‘yicha talay ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, fond tomonidan 50 dan ziyod qadamjo, ziyoratgoh va obidalar obodonlashtirildi, tiklandi [5]. Toshkent shahridagi XIX asr tarixiy yodgorligi bo‘lgan Abulqosim madrasasi, Toshkent viloyati hududidagi “Shomirqori avliyo”, “Shodmalik ota”, Samarqand viloyatidagi Hazrati Dovud, G‘avsul A‘zam, Chorchinor, Shirvoq ota, Qarshi shahridagi XVI asr yodgorligi Qilichbek madrasasi, Farg‘onadagi Hazrati Ali, Shohimardon, Sadkak azizlar, Bibi Ubayda, Surxondaryo viloyatidagi Oq Ostona bobo, Sulton Saodat kabi yodgorliklar shular jumlasidandir. Nodavlat notijorat tashkiloti sifatida Xalqaro “Oltin meros” xayriya fondi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va bitimlar ijrosini ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida “Nomoddiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi 2010-2020 yillarga mo‘ljallangan dastur qabul qilinib, bu dastur asosida fondga ma’lum vazifalar yuklatilgan [6]. Dastur ijrosi yuzasidan 2011-yildan boshlab fond Toshkent, Buxoro, Farg‘ona viloyatida nomoddiy merosimizni targ‘ib etuvchi shou dasturlarni, jumladan “Shashmaqom” yo‘lidagi mumtoz ashulalarimizni, katta ashulalarni targ‘ib etishni yo‘lga qo‘ydi.

**Natijalar.** O‘tgan yillar davomida fond muzeyi 600 ga yaqin qadimiy qo‘lyozma va toshbosma asarlar, 40 dan ziyod kartinalar, bir qancha arxeologiya va hunarmandchilik ashyolari bilan boyidi. Jamg‘arma ustav maqsadlaridan biri qadimiy hunarmandchilik maktablarini tiklashdan iborat.

Shuning uchun Toshkentdagi Abulqosim madrasasida usta hunarmandlar jalb qilinib, bu yerda ustoz-shogirdlik an'analari yo'lga qo'yildi. Natijada Abulqosim madrasasi respublikaning hunarmandchilik markazlaridan biriga aylandi. Hunarmandchilik markazi, shuningdek, Buxoro shahridagi Ko'kaldosh madrasasida ham tashkil etilgan. 2005-yildan buyon Buxoro shahridagi 32-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga ham bepul hunar o'rgatib kelmoqda. Tashkil etilgan hunarmandchilik markazlari a'zolari AQSH, Yaponiya, Yevropa mamlakatlariga o'zbek milliy hunarmandchilik mahsulotlarini namoyish qilib keldilar. Jumladan, ular Jahon hunarmandchiligi ko'rgazmasida, Yunonistonning Kavala shahridagi Jahon madaniyati ko'rgazmasida, Buyuk Britaniyaning Ekzeter shahrida o'tgan xalqaro ko'rgazmada, Buyuk Britaniyaning London shahrida o'tgan Jahon hunarmandchiligi Bahor ko'rgazmasida muvaffaqiyat bilan ishtirok etib qaytdilar. Bu faoliyat uchun fond Gresiyada YUNESKO medali bilan taqdirlandi.

Ayni paytda fond Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi Xalq ijodiyoti ilmiy uslubiyat markazi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun ko'rgazma va tanlovlarni o'tkazmoqda. Havaskor karnay va surnay ijrochilarining an'anaviy "Surnay sehri", "O'lan va lapar ijrochilari" tanlovi, Baxshi va oqinlar, jirovlar bellashuvi, "Milliy xalq o'yinlari" festivali, xalq teatri jamoalari Respublika tanlovi, "Yosh hunarmand ustalarning respublika ko'rgazmasi", "Alla" ijrochilari ko'rik tanlovi, askiyachi va qiziqchilar Respublika tanlovi, maqom va katta ashula ijrochilari tanlovi, "Qo'g'irchoqbozlik va sahna tomosha san'atlari" festivali, "Eng namunali madaniyat va istirohat bog'i" tanlovi kabi tadbirlarni faol ravishda o'tkazib kelmoqda. 2016-yilda fond tomonidan "O'zbekiston ziyoratgohlari" turkumidan Navoiy, Surxondaryo, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi ziyoratgohlar o'rganilib "Buyuklik yo'li", "Nurli Nurota", Qashqadaryoda "Shajara - oliy qadriyat", "Tutak ota", "Usmon Nosir fojiasi", "Toshkentning tabarruk ziyoratgohlari", "Turonzamin aziz avliyolari va ulamolari" nomli risola va kitoblar chop etildi [8].

Fondning Toshkent viloyat muassasasi tomonidan "Xo'jakent tarixi", "Zangiota", "Shohruxiya", "Yangiyo'l" kitoblari, "Qirqqiz" risolasi chop etildi. Fondning Farg'ona viloyat

muassasasi tomonidan 12 bosma toboqli ajdodlarimiz hayoti haqidagi "Ajdodlar ibrati", "Toshkent ziyoratgohlari", "Malaka saboqlari", G'avsul A'zamning Farg'ona viloyatidagi avlodlari haqidagi "Vodiy qadamjolari", "Fayzi zohir Xonaqoh", "Qora yozi" risolalari, Marg'ilonda XIX-XX asrlarda yashab o'tgan ma'rifat peshvosi Xo'jajon qozi Nizomiddin o'g'li Rojiy Marg'inoniy haqidagi "Xo'jajon qozi Rojiy Marg'inoniy" monografiyasi chop etildi. Qashqadaryo viloyat muassasasi tomonidan esa "Tarovat" nomli ro'znoma milliy madaniy merosimiz, qadriyatlarimizga oid maqola va lavhalar bilan har ikki haftada bir marta nashr etilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya bilan hamkorlikda O'zbekiston Milliy kutubxonasida bir qancha davlat muzeylari, davlat arxivlari xodimlari bilan birgalikda fondning o'ndan ziyod vakillari YUNESKOning "Jahon xotirasi" dasturi yuzasidan o'qish va tajriba almashinish jarayonida ishtirok etdilar. O'tkazilgan dastur doirasida 16 ta dastlabki hujjatli merosimiz "Jahon xotirasi" milliy dasturiga kiritildi. Fond tomonidan ushbu xalqaro loyihaning Milliy dasturi ro'yxatiga "Kesh xattotlik maktabi" hujjatli merosini kiritish bo'yicha YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Komissiyasiga so'rovnoma kiritildi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi tarixiy va madaniy meros obyektlarining xaritasi ham chop etildi. Unda Toshkent shahridagi 6 ta madrasa, 22 ta masjid, 23 ta ziyoratgoh, 13 ta tarixiy qabriston, Toshkent viloyatidagi 73 ta madaniy meros obyekti qayd etilgan. Fond boshqa viloyatlarda ham shu kabi xaritalarni chop etishni o'z oldiga maqsad qilgan.

Fond madniy merosni targ'ib etish yuzasidan talay ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Oliy majlis qoshidagi NNTlarni qo'llab quvatlash granti doirasida "Ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekiston madaniy merosini targ'ib qiluvchi sahifalar yaratish"ga kirishildi. Fondning Toshkent viloyat muassasasi esa shu kabi grant asosida Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida Iloq etnografik festivali o'tkazildi. Fond tomonidan xalqimiz merosini o'rganish uchun bir qancha ilmiy konferensiyalar, tarixiy ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilmoqda. "Ajdodlar ibrati: Amir Temur", "Termiziy allomalar merosi", Jizzaxdagi madaniy meros obyektlarining o'rganilishi" kabi ilmiy amaliy

konferensiyalar, Shosh-Iloq merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ekspeditsiyalar shular jumlasidandir.

**Xulosa.** Mustaqillik o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini tiklash, o‘tmish allomalari xotirasini yodga olish, qadamjolarini obod etish va ular qoldirgan boy ma’naviy merosni keng targ‘ib qilishga yo‘l ochib berdi. Shuningdek, milliy ma’naviy qadriyatlarni, an’analarni tiklash, yosh avlodni vatanparvarlik va milliy iftixor g‘oyalari ruhida tarbiyalashga, haqqoniy tarixni yuzaga chiqarishga imkon berdi. Bu borada amaliy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida nafaqat davlat, balki davlatga qarashli bo‘lmagan “Oltin meros” kabi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016, 19-oktyabr.

2. A. Karim. Tarixning uzilgan parchasi. Adabiy-publitsistik maqolalar, safarnomalar. -T.: Turon - Iqbol, 2015.168-bet.

3. A.A. Insopov. O‘zbekistonda fuqorolik jamiyatini barpo etishda davlat va nodavlat tashkilotlar ijtimoiy sherikligi (1991-2016 yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. - Toshkent, 2021.157-bet.

4. M.T. Tojiboyev. O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi: Avtoref.diss.tarix fan. nom. - Toshkent, 2000. 43-bet.

5. A.A Insopov. O‘zbekistonda tarixiy madaniy qadriyatlarni tiklashda davlat siyosati. // Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari to‘plami / Arxivlar va moddiy-madaniy meros obyektlari: integratsiya jarayonlari, muammolar va ularning yechimlari. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, 2017. -19 b.

6. “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniyat meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2010.10.07. <http://lex.uz>.

7. A. R. Karimov. Buyuk meros muhofazasida. -T.: “Mohiyat” gazetasi, 2017-yil 3-avgust. 27-son.

8. Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining joriy arxiv ma’lumotlari, 2016-yil.





**RAQOBATSIZ TA'LIM (FINLANDIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)****Mirzayeva Kamola Uralovna***Xalqaro Nordik universiteti 2-kurs magistranti***ОБРАЗОВАНИЕ БЕЗ КОНКУРЕНЦИИ (НА ПРИМЕРЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ФИНЛЯНДИИ)****Мирзаева Камола Ураловна***Магистр 2 курса Международного Университета Нордик***EDUCATION WITHOUT COMPETITION (ON THE EXAMPLE OF THE FINNISH EDUCATION SYSTEM)****Mirzaeva Kamola Uralovna***2nd year Master's student of the International Nordic University*

E-mail:

[kmirzayeva212@gmail.com](mailto:kmirzayeva212@gmail.com)

+998908968806

<https://orcid.org/0009-0002-2537-4140>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Finlandiya ta'lim tizimining raqobatsizlik tamoyiliga asoslangan modeli tahlil qilinadi. Ta'limda tenglik, hamkorlik va o'quvchilarga erkinlik berish tizimning asosiy jihatlari sifatida ko'rsatiladi. Raqobatsizlikning o'quvchilar psixologik farovonligi, ijodkorlik va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, baholash tizimi va ta'limda stresssiz muhit yaratishning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Finlandiya ta'lim tizimi, raqobatsizlik, ijodkorlik, ijodiy erkinlik, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim, stresssiz muhit.

**Аннотация:** В статье анализируется модель финской системы образования, основанная на принципе неконкуренции. Равенство в образовании, сотрудничество и предоставление свободы учащимся выделяются как основные аспекты системы. Подчеркивается роль неконкуренции в развитии психологического благополучия учащихся, креативности и социального равенства в обществе. Также рассматривается система оценки и важность создания среды обучения без стресса.

**Ключевые слова:** финская система образования, отсутствие конкуренции, креативность, творческая свобода, лично-ориентированное образование, среда, свободная от стресса.

**Annotation:** This article analyzes the model of the Finnish education system based on the principle of non-competition. Equality in education, cooperation and giving freedom to students are highlighted as the main aspects of the system. The role of non-competition in the development of students' psychological well-being, creativity and social equality in society is highlighted. It also examines the assessment system and the importance of creating a stress-free learning environment.

**Key words:** Finnish education system, non-competition, creativity, creative freedom, student-centered education, stress-free environment.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Finlandiya ta'lim tizimi, bugungi kunda butun dunyoda e'tirof etiladigan yuqori darajadagi samaradorligi bilan ajralib turadi. Biroq uning shakllanishi uzoq va mashaqqatli jarayon bo'lib, bu tizim o'zining hozirgi kundagi muvaffaqiyatiga erishishi uchun bir necha

bosqichlardan o'tgan. Finlandiya ta'limi ko'plab o'zgarishlarga uchrab, zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali rivojlanib borgan. 1980-yillardan boshlab, Finlandiya ta'lim tizimi o'quvchilarga erkinlik va ijodkorlik berishga ko'proq e'tibor bera boshladi. Baholash tizimining o'zgartirishi va

an'anaviy sinovlardan voz kechish ta'lim jarayonida raqobatni minimallashtirishga imkon yaratdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Samarali ta'lim tizimini yaratish uzoq muddatli islohotlar va jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchanlikni talab qiladi. Ushbu bosqichni muvaffaqiyatli bosib o'tgan Finlandiya ta'lim tizimi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyoda yetakchi o'rinni egallay boshladi [1]. PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro tadqiqotlarda Finlandiya o'quvchilari yuqori natijalarga erishdi. Bu natijalar Finlandiya ta'lim tizimi global miqyosda tan olinishi va uning noyob yondashuvlari boshqa mamlakatlar tomonidan ham o'rganilishiga sabab bo'ldi. Ta'lim tizimining muvaffaqiyatiga ta'limda tenglikka e'tibor qaratish, barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish, raqobatsizlikni targ'ib qilish va o'qituvchilarga erkinlik berish kabi yondashuvlar asosiy omil bo'ldi. Finlandiya ta'lim tizimi, o'zining asosiy tamoyillari bilan boshqa ko'plab mamlakatlardan farq qiladi. Ushbu tamoyillar ta'lim jarayonini tashkil etishda va uni boshqarishda asosiy yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Insonparvarlik, tenglik, erkinlik va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim Finlandiya ta'limining ajralmas qismidir. Ushbu prinsiplar Finlandiya ta'lim tizimini yanada demokratik va barcha uchun ochiq qilgan [2].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Insonparvarlik tamoyili, ta'lim jarayonida o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Bu o'quvchilarga nafaqat bilim, balki insoniy qadriyatlar, jamiyatda o'z o'rnini topish, jamoaviylik hissini shakllantirish va mas'uliyatli shaxs bo'lib shakllanishlariga yordam beradi. O'quvchilar qobiliyat va imkoniyatlariga qarab rivojlanishi kerakligi e'tiborga olinadi.

Tenglik Finlandiya ta'limining asosiy tamoyillaridan biridir. Ta'limning barcha uchun ochiqligi va barcha ijtimoiy qatlamdagi bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida Finlandiyada ta'lim mutlaqo bepul. Ta'lim tizimi qashshoqlik yoki iqtisodiy tengsizlik kabi omillarni hisobga olmay, har bir bola uchun eng yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu tamoyil asosida, Finlandiyada o'quvchilar oilaviy kelib chiqishidan qat'i nazar bir xil imkoniyatlarga ega bo'ladi. Mamlakatda xususiylar maktablar deyarli

mavjud emas, davlat maktablari esa juda yuqori sifat bilan xizmat ko'rsatadi.

Erkinlik tamoyili Finlandiya ta'lim tizimining eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar va o'qituvchilarga erkinlik berish orqali Finlandiya ta'lim tizimi ijodkorlik va mustaqillikni rivojlantirishga intiladi. O'quvchilar o'zlarini erkin his qilib, o'z qiziqishlariga qarab ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi. O'qituvchilar ham darsni qanday o'tkazishni mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'lib, ularga ta'lim dasturlarini moslashtirish va ijodkorlik bilan ishlash huquqi berilgan [3].

O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi Finlandiya ta'lim tizimining yana bir muhim elementi hisoblanadi. Bu prinsiplarga ko'ra, ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar passiv bilim oluvchilar emas, balki faol ishtirokchilarga aylanadi. O'quvchilarga ko'proq mustaqillik va o'z bilim jarayonini boshqarish erkinligi beriladi. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Finlandiya ta'lim tizimining eng ajralib turuvchi xususiyatlaridan biri uning raqobatga bo'lgan munosabatidir. Ko'plab mamlakatlarda ta'lim tizimi o'quvchilar o'rtasidagi raqobatga asoslangan bo'lsa, Finlandiyada buning aksini ko'rishimiz mumkin. Raqobat o'rniga o'zaro hamkorlik va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga katta ahamiyat qaratiladi. O'quvchilarni bir-biriga qarshi qo'ymasdan, ularni o'z qobiliyatlariga ko'ra rivojlantirishga e'tibor qaratiladi [4]. Ya'ni har bir o'quvchida turlicha qobiliyat va iqtidor bo'ladi deb qaraladi va o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlariga diqqat qaratiladi. Finlandiyada raqobatsiz o'qitish ta'limda sog'lom ruhiy muhitni saqlashning asosiy yo'llaridan biri deb hisoblanadi. Shuningdek, raqobatsizlik o'quvchilarni doimiy bosim va stressdan himoya qiladi, bu esa ularning psixologik salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar baholanishda o'zaro taqqoslanmaydi, aksincha, har biri o'z yutuqlari va rivojlanish darajasi bo'yicha baholanadi. Bu tizim o'qituvchilarga ham katta erkinlik beradi. Ular o'quv dasturlari qat'iy belgilangan tizimga bo'ysunmagan holda, ijodkorlik bilan dars o'tish imkoniyatiga egadirlar. Bu esa o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil qilishga yordam beradi. Finlandiya

ta'lim tizimining baholash usullari ham uning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Finlandiyada sinovlar va reyting tizimi an'anaviy ta'lim tizimlaridagidek markaziy rol o'ynamaydi. Aksincha, o'quvchilarning bilimlari va rivojlanish darajalari davomiy kuzatishlar orqali aniqlanadi. Baholash tizimida o'quvchilarning natijalari reyting tizimi orqali emas, balki ularning individual rivojlanishiga asoslanadi. Bu o'quvchilarning yutuqlarini faqatgina bir-biri bilan taqqoslashdan ko'ra, o'z shaxsiy maqsadlari va imkoniyatlari doirasida baholashga yo'naltirilgan. Maktablarda ko'plab an'anaviy sinovlar o'tkazilmaydi, o'quvchilarga ma'lum vaqt oralig'ida o'z maqsadlariga erishganliklari haqida xabar beriladi. Sinovlar yoki imtihonlar o'quvchilarni bilimini o'lchash vositasi emas, balki ularning rivojlanish jarayonini tahlil qilish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Bu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi va ularning stress darajasini kamaytiradi.

**NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Raqobatsiz ta'lim tizimi o'quvchilarning psixologik salomatligi uchun juda muhim omil hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlarda mavjud bo'lgan raqobatga asoslangan ta'lim tizimlari o'quvchilarda yuqori darajada stress va bosimni keltirib chiqaradi. Bunday muhitda o'quvchilar doimiy ravishda o'z tengdoshlariga nisbatan o'z yutuqlarini o'lchashga majbur bo'ladilar [5]. Bunday bosim esa ko'pincha ruhiy zo'riqish va stress holatlariga olib keladi. Finlandiyada esa raqobatning yo'qligi, o'quvchilarga o'z imkoniyatlariga mos ravishda rivojlanish imkonini beradi. O'quvchilar o'z bilimlari va qobiliyatlarini erkin rivojlantiradi, ular o'zlarini boshqa o'quvchilar bilan solishtirishdan qochadi. Bu yondashuv o'quvchilarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlaydi va ularni ijobiy muhitda o'qishga rag'batlantiradi. Natijada, stress

darajasi past bo'lgan bolalar yanada faol va ijtimoiylashgan shaxs bo'lib yetishadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Xulosa qilib aytganda, Finlandiya ta'lim tizimining raqobatsizlikka asoslangan yondashuvi o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki jamiyat uchun mas'uliyatli, hamkorlikka tayyor va ijtimoiy jihatdan faol shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bu tizimning ta'limda tenglik, hamkorlik va stressiz rivojlanish tamoyillariga asoslanishi jamiyatning umumiy rivojlanishiga, barqarorligiga va insoniy qadriyatlarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Nosirov A. Erkinlik, quvnoqlik va ishonchga asoslangan ta'lim. – Toshkent: Ma'rifat, 2024. – 87 b.
2. Ari Pokka. Top Class: Finnish School Leadership and Management. – Jyvaskyla. 2015. – p. 35-36.
3. Aho E., Pitkanen K., Sahlberg P. Policy Development and Reform Principles of Basic and Secondary Education in Finland since 1968. 2006. – 132 p.
4. Ibragimov Sh.M. Theoretical foundations of the problem of individualization of teaching as a basic principle in teaching. 2021. – 83 p.
5. Yuldasheva G. I. Shermatova K. M. The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, 2021. – P. 466-468.
6. Локша О.М. К проблеме самостоятельной работы студента в учебном процессе. Вестник РГУ им. И.Канта. 2006. Вып. 2. Филологические науки. – С. 25-29.



## THE HISTORY OF THE SARDOBAS; ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE

*Begaliev Nurbek Khasan ugli*

*Shahrisabz State Pedagogical Institute*

## ИСТОРИЯ САРДОБ: НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОГО ХАНСТВА

*Бегалиев Нурбек Хасан угли*

*Шахрисабзский государственный педагогический институт*

## SARDOBALAR TARIXI: BUXORO XONLIGI MISOLIDA

*Begaliyev Nurbek Xasan o'g'li*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*



[nurbek050295@gmail.com](mailto:nurbek050295@gmail.com)

Phone: +998909344797

<https://orcid.org/0000-0002-2984-7155>

**Annotation:** In the context of accelerating globalization on a global scale, water usage and management, which significantly affect the ecological situation of countries worldwide, remain pressing issues, along with the need to address water scarcity based on existing resources. This article discusses the history of sardobas (water reservoirs) located in the Bukhara Khanate.

**Key words:** Central Asia, hydrotechnical structures, middle ages, caravan routes, history of cisterns, ponds and wells, socio-economic factors, Bukhara-Karshi caravan route, caravan routes, architectural solutions, technological innovations, lower basin of Syrdarya, historical-typological analysis, Amudarya midstream.

**Аннотация:** В условиях ускоряющейся глобализации в мировом масштабе актуальной проблемой остается использование воды и водных ресурсов, серьезно влияющих на экологическое состояние стран мира, а также устранение дефицита воды исходя из имеющихся возможностей. В данной статье рассказывается об истории сардоб, расположенных в Бухарском ханстве.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, гидротехническое строительство, средняя девятка, караванная дорога, история цистерн, ручьев и колодцев, социально-экономические факторы, караванная дорога Бухара-Кариши, караванная дорога, архитектурное решение, технологические новации, нижний бассейн Сырдары, Среднее течение Амудары.

**Annotatsiya:** Jahon miqyosida jadallashib borayotgan globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlarining ekologik holatiga jiddiy ta'sir etuvchi suv va suvdan foydalanish, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holatda suv tanqisligini bartaraf etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada Buxoro xonligida joylashgan sardobalar tarixi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, gidrotexnik inshootlar, o'rta asrlar, karvon yo'llari, sardobalar tarixi, hovuzlar va quduqlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, Buxoro-Qarshi karvon yo'li, karvon yo'llari yo'nalishlari, me'moriy yechimlar, texnologik yangiliklar, Sirdaryoning quyi havzasi, Amudaryoning o'rta oqimi.



## **INTRODUCTION (ВЕВЕДИНИЕ/КІРІШ).**

The Bukharan Khanate was a large state that encompassed large areas of Central Asia, and trade relations played an important role in ensuring the mutual relations of various regions of the country. Trade, as an important branch of the economy, played a key role in ensuring stable socio-economic relations between different regions of the khanate, shaping a unified economic system with interconnectedness, and stimulating the production of goods for domestic and foreign markets [1]. Trade relations were carried out through caravan routes connecting the major cities and trading centers of the khanate, and the functioning of this system required the presence of appropriate infrastructure and roadside structures.

The majority of the khanate consisted of steppes and deserts, and establishing caravan routes through these territories was always a central focus of the central government. The Shaybanid and Ashtarkhanid rulers constructed numerous hydraulic structures - wells, pools, and sardobas (underground water reservoirs) - to provide water for trading caravans, travelers, and pack animals moving through the steppe and desert regions of the khanate. At this point, it is worth briefly discussing the history of these hydraulic structures that served to meet the need for drinking water in our hot climate region [2].

**MATERIALS AND METHODS (ЎИТЕРАТУРА И МЕТОД/АДАБИЙОТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР).** The majority of the region's population met their needs for fresh water by digging wells and using groundwater. The hot and dry climate characteristic of the region has required the construction of wells since ancient times. In the Karakum and Kyzylkum, as well as in other desert and steppe areas of the region, ancient wells have been used by local shepherds for centuries. The historical names of Uchkuduk, Kulkuduk, Juzkuduk, Tamdi, and other places in the Kyzylkum also point to this [3]. The discovery of wells in the Bronze Age settlements of the region was of great importance in determining the period of the emergence of this uncomplicated structure. In the steppes and deserts of the region with a dry and hot climate, wells without complex hydraulic structures have been the main means of providing drinking water for trade caravans, transportation vehicles, and livestock from ancient times to the present day [3].

## **DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/МУҲОКАМА)**

Wells were built not only in desert areas, but also in settled agricultural oases, allowing for the use of fresh groundwater for drinking, and the emergence of this hydraulic structure corresponded to the process of population settlement and the development of settled agricultural culture. As a result of archaeological research, wells were discovered in many cities and fortified fortresses on the caravan route in the Middle Ages. Since the developed Middle Ages, a special department (divan) has been operating in all cities of the region, managing wells, pools, and closed pools (sardoba). In the Middle Ages, wells were also found in public buildings, caravanserais, and in the inner courtyards of bazaars in all cities of the region. In Bukhara, the capital of the Khanate, many large open pools and water sardoba were built to meet the population's need for drinking water [4].

The construction of cisterns expanded in the developed Middle Ages. The oldest sardoba that has come down to us is the one on the Karmana-Bukhara caravan road, Rabati Malik. The Arab geographer al-Muqaddasi wrote that there were covered pools with staircases in the city of Merv, one of the major administrative and economic centers of Khorasan. Renowned archaeologist M. Masson According to Masson's data, a sardoba existed in the 10th century in the Karshi steppe, along the Bukhara-Bezda trade route. Sardoba remains were also found on the caravan route from Merv to Khwarazm. Archaeological research has shown that there were two cisterns near the ruins of the 11th-12th-century caravanserai at the site of the Kaltepa monument, located on important routes of the caravan route from Nurata to the steppes in the north of the region. This and many other data indicate that in the Middle Ages, the construction of cisterns along major trading centers and important caravan routes was carried out on a large scale. [5]

**RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/НАТИЖАЛАР).** It is important that, as a result of research conducted in the Ferghana Valley in recent years, information has been obtained that confirms the existence of cisterns in this area. In particular, some researchers provide information that there were 3 cisterns in the Ferghana Valley in the Middle Ages. [6] During our research on this topic, we were unable to collect accurate and reliable information about them.

Sardoba was also built during the reign of Amir Timur and the Timurids. The construction of these structures was carried out on a much wider scale, especially during the Shaybanid period. This is evidenced by the construction of sardoba on the roads leading from Jizzakh to the Syr Darya crossings, from Bukhara through Karshi to the Kerki and Kelif crossings in the middle reaches of the Amu Darya River. During the reign of the Shaybanid dynasty, numerous sardoba were built along important caravan routes passing through the steppe and desert regions of the khanate. The construction of these structures, which formed an important element of the communication system and survived to our time on the Bukhara-Karshi trade route, along the caravan routes leading from Karshi to the Kelif, Kerki and Burdolik crossings in the middle reaches of the Amu Darya, is associated with the name of the Shaybanid ruler Abdullah Khan II. The first major stop on the Bukhara-Karshi route, which formed the first part of the caravan route from Bukhara to Balkh, was the Karaulbazaar, where a large caravanserai (unfortunately, the caravanserai here has not survived to our time) was built by Abdullah Khan II at the end of the 16th century [4]. This structure was demolished in the 30s of the 20th century, without the permission of the organization dealing with the protection of historical monuments at that time, without notification, by the management of the Karavulbazar karakul farm) and there was a large sardoba, which is now called Gumbaz by the local population. The next stations, Kush Sardoba, which was destroyed in the 1880s, and Buzach, located 16 versts away from Karaulbazar, also had a rabat and a sardoba. According to sources, the next station, called "Qaqir," also had a rabat and a sardoba, which was built in the 17th century at the expense of a man named Zakir biy, who held the position of a table-maker in the palace of the Bukhara Khan, and the sardoba was built by Amir Nasrullo in the first half of the 19th century [7]. These two structures have not survived to our time. Researcher U. According to Mavlonov, their ruins are located in the Mubarek district.

#### **CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA).**

According to researchers, the construction of cisterns in Mirzachul is connected to the construction activities of Amir Timur and Abdullah Khan II. Russian officer A.P. Khoroshkin and archaeologist M.E. Masson, who provided information about the

sardoba and rabat in this area, quoted an opinion known and popular among the local population that a thousand sardoba and a thousand rabat were built by Abdullah Khan II.

The hot climate of Central Asia and the need to provide water to large cities led to the construction of cisterns in cities. The fact that a sardoba was built by Abdullah Khan II in Karshi and by Subkhonkuli Khan in Bukhara is reflected in the sources. The sardoba built by Subhankuli Khan in Bukhara was located in the courtyard of the Dor-ul Shifa madrasah, and in addition to this sardoba, there were two more sardoba in Bukhara (within the mosque of Khalifa Khudoydod and the Eshon Imla mausoleum) and one around the city (in the Jewish cemetery near the Sallahan Gate). Unfortunately, they have not reached our time. Conducting research in this direction may lead to the acquisition of new information unknown to science in the future, further clarifying their role in the activities of the caravan road system in the region.

#### **REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ**

#### **ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI):**

1. Оразбаев А.М. Колодцы на поселении Чаглинка (Шагалалы)/Поиски и раскопки в Казахстане. – Алма-Ата. Наука, 1972, – С. 154-162., Черников С.С. Восточный Казахстан в эпоху бронзы. – М. – Л., 1960. – С. 53-54.
2. Бабаджанов Р. К вопросу о скотоводчес-ком хозяйстве туркмен Тедженского оазиса в кон-це XIX начале XX в. // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1975. – С. 1975. – С. 220-229.
3. Qarang: Кудукларнинг устки қисми ёғочдан, гувала ёки хом гиштдан қурилган махсус кўтарма билан ўраб олинган. Мустаҳкам арқон билан чархга боғланган ва одатда теридан қилинган қовға ёрдамида қудукдан сув олинган.
4. Бичурин Н (Иокинф) Собрание сведений ... Ч. II. – С. 170.
5. Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1981. С. 74-95.
6. Qarang: Қизқальанинг жануби-ғарбий қисмида пишиқ гиштдан ишланган қудук, ғарбий қисмида 5 та айлана ва тухумсимон шаклдаги ҳовуз топилган. Бу ҳақда қаранг: Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957. – С. 162.
7. Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 74-95.

## СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ

*Усманова Муниса Шухрат кизи, базовый докторант  
Ташкентского государственного педагогического  
университета имени Низами*

## RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA IJTIMOIY-MADANIY YONDASHUV

*Usmanova Munisa Shuxrat qizi, Nizomiy nomidagi  
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

## SOCIOCULTURAL APPROACH TO TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

*Usmanova Munisa Shukhrat kizi, Basic doctoral student of  
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*



<https://orcid.org/0009-0002-1628-7950>

e-mail:

[usmanmunisa.ru@gmail.com](mailto:usmanmunisa.ru@gmail.com)

**Аннотация:** В статье рассматривается социокультурный подход как методологическая основа в обучении русскому языку как иностранному. Особое внимание уделяется интеграции языковой подготовки с приобщением обучающихся к культурным ценностям, традициям русского народа. Подчеркивается, что данный подход способствует развитию коммуникативных навыков. Социокультурный подход рассматривается как эффективный инструмент для формирования гармоничной, социально адаптированной личности, готовой к взаимодействию в глобальном обществе.

**Ключевые слова:** образование, социальная культура, социокультурный подход, русский язык как иностранный, коммуникация, коммуникативная компетенция.

**Annotatsiya:** Maqolada rus tilini chet tili sifatida o'qitishning uslubiy asosi sifatida ijtimoiy-madaniy yondashuv ko'rib chiqiladi. Talabalarni rus xalqining madaniy qadriyatlarini va an'analari bilan tanishtirish bilan tilni o'qitishning integratsiyasiga alohida e'tibor beriladi. Bunday yondashuv muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi ta'kidlanadi. Ijtimoiy-madaniy yondashuv barkamol, ijtimoiy moslashgan, global jamiyatda o'zaro munosabatda bo'lishga tayyor shaxsni shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, ijtimoiy madaniyat, ijtimoiy-madaniy yondashuv, rus tili chet tili sifatida, muloqot, kommunikativ kompetensiya.

**Abstract:** The article examines the socio-cultural approach as a methodological basis in teaching Russian as a foreign language. Particular attention is paid to the integration of language training with introducing students to cultural values and traditions of the Russian people. It is emphasized that this approach contributes to the development of communication skills. The socio-cultural approach is considered as an effective tool for the formation of a harmonious, socially adapted personality, ready to interact in a global society.

**Key words:** education, social culture, sociocultural approach, Russian as a foreign language, communication, communicative competence.

**ВВЕДЕНИЕ.** Современное образование невозможно представить без учёта социокультурных факторов, которые формируют личность обучающегося и определяют его способность к эффективному взаимодействию с окружающим миром. Социокультурный подход в образовании базируется на признании того, что развитие личности происходит не в вакууме, а в тесной связи с социумом, культурными традициями и ценностями, которые её окружают.

Социокультурный подход является одним из ключевых методологических направлений в обучении русскому языку как иностранному (РКИ). Этот подход направлен на интеграцию языковой подготовки с приобщением обучающихся к культурным ценностям, традициям и особенностям русского общества, что способствует более глубокому пониманию языка как живого явления и укрепляет мотивацию к его изучению.

**ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД.** Социокультурные факторы в преподавании русского языка как иностранного являются объектом внимания многих исследователей: Е.М.Верещагин, Д.Дэвидсон, И.А.Зимняя, Н.Н.Конева, В.Г.Костомаров, О.Д.Митрофанова и др. Современная методика характеризуется все большим распространением коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам, значимая роль при этом отводится социокультурному аспекту. Одной из важнейших характеристик социокультурного подхода является акцент на взаимосвязь языка и культуры. Еще Л.С.Выготский отмечал, что язык является не просто средством коммуникации, но и основным инструментом освоения культурного опыта[4]. Это утверждение стало методологической основой для многих исследователей, работающих в области РКИ.

Процесс обучения языку представляется как совершенствование ряда компетенций, и прежде всего коммуникативной. Коммуникативной компетенцией, по определению Д.Дэвидсона и О.Митрофановой, считается «способность к выбору и реализации программы речевого общения и поведения с учетом конкретной обстановки, ситуации и тем, социально-коммуникативных ролей, задач и установок участников общения» [3,с.6]. Значимый вклад в концепцию обучения языку как средству коммуникации внес

Е.Пассов. Он акцентирует внимание на развитии индивидуальности в диалоге культуры, обосновав идеи коммуникативной лингвистики и психологической теории деятельности в фундаментальной работе «Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению»[5].

Вопросы взаимодействия языка и культуры рассматривались и в работах В.В.Воробьева, основателя лингвокультурологии. По его мнению, необходимо изучать материальную и духовную культуру, отраженную в языке, компоненты которой составляют языковую картину мира изучаемого народа[2].

**ОБСУЖДЕНИЕ.** Рассуждая о социокультурной компетенции, В.Сафонова отмечает, что она, наряду с языковой и речевой компетенциями, является неотъемлемой частью компетенции коммуникативной[6]. В своих работах исследователь вычленяет отдельные социокультурные стратегии анализируемой компетенции – приемы, используемые участниками коммуникативного процесса для установления и поддержания межкультурного контакта, «а также для создания адекватных социокультурных портретов страны изучаемого языка и участников межкультурной коммуникации»[7,с.13]. В.Сафонова акцентирует внимание на развитии таких социокультурных способностей обучающихся, как любознательность, наблюдательность, непредвзятость. Она предлагает идею социокультурного образования средствами иностранного языка, которое закладывает основы для переноса позитивного опыта ознакомления с культурой страны изучаемого языка, исходя из индивидуальных потребностей обучаемых.

**РЕЗУЛЬТАТЫ.** Таким образом, в рамках социокультурного подхода обучение русскому языку как иностранному должно строиться на принципе взаимодействия языка и культурных реалий. Например, изучение русских идиом, пословиц и поговорок помогает обучающимся лучше понять специфику мышления и повседневной жизни русского народа. По замечанию Е.Верещагина, пословицы и поговорки отражают национальный характер, менталитет и историю народа, что делает их изучение особенно важным в процессе овладения иностранным языком[1]. Следовательно,



использование культурно насыщенных материалов в обучении становится неотъемлемой частью образовательного процесса. На практике социокультурный подход реализуется через использование аутентичных материалов, таких как фильмы, литературные произведения, песни, статьи и т.д. Эти ресурсы позволяют студентам не только изучать язык, но и знакомиться с культурной средой его носителей.

Еще одним важным компонентом социокультурного подхода является обучение речевому этикету. Русский язык богат разнообразными формами вежливости, которые зависят от уровня формальности, возраста собеседников, их социального положения и других факторов. Например, использование форм обращений («вы» или «ты») или различных конструкций при выражении просьб и благодарностей требует знаний социокультурных норм. В этой связи С.Г.Тер-Минасова отмечает, что эффективность общения, «помимо знания языка, зависит от множества факторов: условий и культуры общения, правил этикета, знания невербальных форм выражения (мимики, жестов), наличия глубоких фоновых знаний и многого другого»[8,с.27].

Реализация социокультурного подхода может также осуществляться через внеаудиторную деятельность. В рамках таких мероприятий, как культурные экскурсии, участие в праздниках или организация языковых клубов, обучающиеся могут на практике закреплять свои знания, взаимодействуя с русской культурой. Социокультурный подход способствует не только более глубокому изучению русского языка, но и формированию межкультурной компетенции, необходимой для успешной адаптации иноязычных обучающихся в русскоязычную среду. Для успешной реализации социокультурного подхода необходимо комплексное взаимодействие образовательных учреждений, педагогов, родителей и общества в целом. Это включает разработку новых учебных материалов, повышение квалификации педагогов, поддержку внеаудиторной активности и внедрение инновационных технологий в образовательный процесс.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Таким образом, социокультурный подход в образовании является важным средством формирования гармоничной и социально ответственной личности. Он позволяет интегрировать академическое обучение с процессами социализации, предоставляя обучающимся возможности для полноценного развития в условиях современного общества. Учитывая растущую потребность в воспитании граждан мира, способных уважать культурное многообразие и эффективно взаимодействовать в глобальной среде, социокультурный подход становится неотъемлемой частью образовательной системы.

### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М., 1990. – 246 с.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М., 2008. – 340 с.
3. Дэвидсон Д., Митрофанова О.Д. Функционирование русского языка: методический аспект: пленарный доклад // Русский язык и литература в общении народов мира: проблемы функционирования и преподавания. – М.: Русский язык, 1990. – 26 с.
4. Козлов Н.И. Культурно-историческая теория Л.С. Выготского // Психологос. – 2006. [Электронный ресурс]. – URL: <https://psychologos.ru/articles/view/kulturno-istoricheskaya-teoriya-l.s.-vygotskogo>
5. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 2013. – 299 с.
6. Сафонова В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций. [Электронный ресурс]. – URL: <https://unis.shpl.ru/Pages/Search/BookCard.aspx?Id=47105>
7. Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранному языку как специальности: автореф. дис. ... док. пед. наук: 13.00.02 – Москва, 1999. – 47 с.

8. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2000. – 146 с.
9. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. *Tamaddun nuri jurnali*, 5(56), 520-522.
10. Курбанбаева, М. (2023). Влияние современного жаргонизма на изучение русского литературного языка иноязычной молодежью. *Tamaddun nuri jurnali*, 4(43), 52-55.
11. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. *Tamaddun nuri jurnali*, 4(43), 15-18.



TAMADDUN NURI

## «МАШАРИКУ-Л-АНВОР»ДА ХАДИСЛАРГА БЕРИЛГАН ҲОШИЯЛАРНИНГ МАЗМУНИ

**Бобоходжаев Саъдулла**

*Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази Халқаро  
алоқалар ва зиёрат туризмни ривожлантириш бўлими  
бошлиги*

## «ПРОЯСНЕНИЕ СНОСОК: ХАДИСЫ В «МАШАРИКУ-ЛЬ-АНВАР»

**Бобоходжаев Садулла**

*Начальник отдела международных связей и развития  
паломнического туризма Международного научно-  
исследовательского центра имама Термизи*

## «ILLUMINATING THE FOOTNOTES: HADITHS IN MAŠĀRIQU-L-ANWĀR»

**Sadulla Bobokhodjaev**

*The Head of the International Relations and Pilgrimage Tourism  
Development Department at the Imam Termizi International  
Research Centre*



Тел: +998995095637

E-mail:

[grandyhappeness@gmail.com](mailto:grandyhappeness@gmail.com)

[m](https://orcid.org/0009-0001-3879-1042)

Orcid: 0009-0001-3879-1042

**Аннотация.** Ушбу мақола асар қўлёзмаларида берилган ҳошияларнинг мазмун моҳияти, турлари ва қўлланилиши ҳақида сўз юритади. Асар ҳошиялардаги морфологик изоҳлар бошқа мазмунга нисбатан кўпроқ баён қилинган.

**Калим сўзлар:** ҳошия, шарҳ, ҳадис, изоҳ, Маšāriqu-l-anwār, қўлёзма.

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о значении, видах и использовании сносок, которые даются в рукописях произведений. Морфологические комментарии в сносках произведения более подробны, чем остальное содержание.

**Ключевые слова:** сноска, хадис, комментарий, Маšāriqu-l-anwār, рукопись.

**Abstract.** This article talks about the meaning, types and use of the footnotes given in the manuscripts of the work. Morphological comments in the footnotes of the work are more detailed than other content.

**Key words:** footnote, hadith, commentary, Маšāriqu-l-anwār, manuscript.

### КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Асарларда хусусан қадимий қўлёзма манбаларда ҳошиялар кўп учрайди. Шунингдек, «Машарику-л-анвор»нинг кўплаб нусхаларида ҳам ҳошияларни учратиш мумкин. Асар нусхаларининг ичида ҳошияси аниқроқ ва кўплиги билан ажралиб турадиганларидан бири ТЕ-8 нусхасидир. Нисбатан кейинроқ кўчирилган ушбу нусхада ҳошиялар аниқ ва тушунарли берилган.

### АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

“Ҳошия” сўзи арабча бўлиб, “чети”, “қирраси” маъноларини англатади. Асарларда эса, китоб ёки дафтар варағи атрофидаги хат ёзилмай очиқ қолдирилган қисмига ҳошия дейилади. Ҳошияда асарда келган сўзларга изоҳ, воқеликка шарҳ ёки ҳикоя акс этган бўлади. «Машарику-л-анвор» асарида келган ҳошияларни ўрганиш давомида улар асардаги сўзларга изоҳ, ҳадисларда тушиб қолган сўз ва бирикмалар ҳамда бирор воқеага шарҳ эканининг гувоҳи бўламиз [3].

Ҳошияларни аниқлаб ва белгилаб олиш учун хаттот қизил сиёҳда арабча ҳарф ва рақамлардан фойдаланган. “Шарҳ” сўзи арабча

شَرَحَ феълидан олинган бўлиб “очиқламоқ, изоҳламоқ, ёрмоқ” деган маъноларни англатади. Ҳадис шарҳлаш илми ҳадис соҳаларидан биридир. Муҳаддислар “Қирқ ҳадис” номи остида кўплаб асарлар ёзишган. Пайғамбаримиз айтдилар: “Ким умматимдан қирқ ҳадисни ёд олса, мен унга қиёматда шафоатчи бўламан”. Ушбу ҳадис саҳиҳ эмас. Ҳадисларни шарҳлаш илми уларнинг маъно ва мақсадини баён қилиш ҳамда улар билан боғлиқ ҳукмлар, уламолар баёни билан шуғулланувчи фандир. Истелоҳда: Ҳадисни шарҳлаш илми – Расулulloҳ билан боғлиқ бўлган нарса ва воқеаларнинг маънолари ва фикҳини тушунтириш, кенг қамровли масалалар ва тамойилларни билиш, унинг маъноларини аниқлаштириш ва тушунтиришдан иборат илмдир. Бундан келиб чиқадики, бу ҳадис фикҳи илми, ҳадисни шарҳлаш илми, ҳадис маънолари илми ёки ҳадис тафсирининг асослари илми деб аталади [2].

#### МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Ҳадисни шарҳлаш уч жиҳат билан боғлиқ бўлиб, улар қуйидагилардир: Ҳадис санади билан боғлиқ бўлган нарса, ҳадис даражасини баҳолаш ва ойдинлаштириш, ровийларни таништириш ва ровийлар исмларидан нималарни аниқлаштириш зарурлигини кўрсатиш, шу билан бирга, ҳадисда эътибордан четда қолган ва ноаниқ бўлган нарсаларни чуқур таҳлил қилмасдан шарҳлаш. Чунки санад билан боғлиқ бу жиҳатларнинг ҳар бири унга хосдир.

Ҳадис калималарининг маъноларини тушунтириш билан боғлиқ бўлган нарса - луғат ва тил қоидаларига оид китобларга мурожаат қилиб, тушунтиришга муҳтож [4].

Ҳадис нимани назарда тутаётганини шарҳлаш ҳадиснинг фикҳи бўлиб, унда уламоларнинг қарашлари ва уларнинг хулосалари муҳимдир. Сўзнинг маъносини тил нуқтаи назаридан тушунтириш билан ҳадисдан кўзланган маънони тушунтириш ўртасида фарқ борлиги таъкидланади.

Ҳадис муфассирлари ҳадисларни шарҳлашда учта усулдан бирига амал қилганлар: **Объектив шарҳ:**

Бу усулда муфассир санад занжири ва матнни ўрганади ва ҳадисларни мавзулар ҳамда масалаларга ажратади ва маълум бир мавзуга оид ҳамма нарсани ҳадислардан тўплайди.

Ушбу усулни олган шарҳлар орасида эътиборлилари:

Арида ал-Аҳвазий (عارضه الأحوذى) “Саҳиҳи Термизийнинг шарҳи” (شرح صحيح الترمذى). Шарҳловчи – Ибн Ал-Арабий;

“Аҳком ҳадислари шарҳи” (شرح بأحاديث) (الأحكام). Шарҳловчи – Ибн Дақиқ;

“Жомеъ ас-саҳиҳ шарҳи” (التوضيح لشرح) (الجامع الصحيح). Шарҳловчи – Ибн Мулаккон. [5]

Мавзуни шарҳлаш ёки оғзаки шарҳлаш. Унда муфассир ҳадис матни ёки ҳатто унинг нақл қилиш занжиридаги маълум ўринларга мурожаат қилади ва “ва унинг баёни” (قوله) сўзи билан бошланади, бу ибора юритилаётган сўз ёки ноаниқ иборани изоҳлайди.

Бу усулни танлаган муфассирлар:

Абу Довуд Хаттобий (“Ma‘ālimu-s-sunan” (معالم السنن), Мозурий (“al-mu‘allim bifawā’idī muslim” (المعلم بفوائد مسلم), Қози Иёз (“Ikmal-l-mu‘allim” (إكمال المعلم), Ибн Ҳожар ал-Асқалоний (“Фатхул Борей” (فتح الباري).

3. Аралаш шарҳлаш – айнан шорих ҳадисдаги ғализ сўз ёки иборани ўзига хос ибора билан аралаштириб юборса, ўқувчи бу бирикмани ўқиса, сўзнинг маъносини тушунади. Бунга Қасталонийнинг (“Iršādu-s-Sārī ila šarḥi ṣaḥīḥi-l-Bu ḥārī” (إرشاد الساري إلى شرح صحيح البخاري) асарини мисол қилишимиз мумкин.

#### НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Асардаги сўз ва бирикмалар учун берилган хошиялар:

زيد ابن خالد الجهني رضي الله عنه من أوى (ط) ضالّة(ه) فهو ضالّ 1. ما لم يُعرّفها

Ҳадисдаги биринчи хошия ط ҳарфи белгиси билан أوى сўзи учун берилган:

بمدّ الهمزة وقصرها أي ضم اليه وكل منها يجيء لازماً ومتعدّياً لكن القصر في اللازم والمدّ المتعدّي أشهر به جاء القرآن العزيز قال الله تعالى إذ أويّننا الى الصخرة وأويّننا هما الى ربوة.

Ҳамза мад ёки қискартириш билан яъни қўшганда, у лозим ва мутааддий бўлади. Аммо Лозим феълда қискартириш ва Мутааддийда мад

راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. مكتبة جامعة كينجنيكس سلوف. مخطوطة. رقم. 8-TE-12. ص1



қилиш Қуръони каримда оят билан исботланган [6].

Ҳадиснинг иккинчи ҳошияси • (беш) рақами билан ضالّة (золлатун) учун берилган ҳошия:

وهي ما ضلّ من البهيمة واللّقطه تعم لكنّ اكثر استعماله في غير الحيوان.

Бу ҳайвондан йўқолган нарса, лекин кўпроқ ҳайвон бўлмаган турларда қўлланилади.

أبو هريرة من أخذ أموال الناس يريد أداءها أدّاها الله عنه أتلفه الله. ومن أخذ يريد إثلافها

أموال النَّاسِ хошия Ушбу ҳадисдаги (инсонларнинг моли) бирикмаси учун берилган:

وهذا الاخذ أعم من ان يكون بحقّ او بغيره ولهذا لم يقيد به بقوله ظلما. Бу маъно адолатли ёки ноҳақдан кенгрокдир. Бинобарин, “ноҳақ” дейиш билан чекламайди.

Биринчи ҳошияда умумий маънода, иккинчи ҳошияда келажакдан хабар берилаётганлиги, учинчи ҳошияда инсон йиққан, жамлаган мол-дунёсининг заволи бўлиши ҳақида келган.

#### **ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).**

Чағоний «Машарику-л-анвор» асарида келган ҳошияларда мураккаб бўлган сўзларнинг изоҳи, саҳобалар ҳаётига доир тарихий воқеалардан хабар бериши, тушиб қолган сўзлар

қизил чизик тортилиб ҳошияда берилиши асарнинг лексика қисми ёритилгани ҳамда мазмуни тўлиқ берилганига далолат қилади.

Асарнинг ҳошияларида ҳадис ва оятлар шаръий ҳукмларининг баён қилиниши асар мазмуни бойитган.

Асар ҳошияси учун белги бўлиб келган ط، ع، ظ، ط، ظ، ع، ط، ظ، ٨، ٧، ٥، ٤، ٢، ٣ рақам ва ҳарфларнинг ишлатилиши ҳошиялар безак берганлиги ўзига хослик касб этган.

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. مكتبة جامعة TE-8. كنيجنيكس سلوف. مخطوطة. رقم سعود. مخطوطة. رقم 213-138. ق
2. راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. جامعة الملك سعود. مخطوطة. رقم 213-138. ق
3. راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. مكتبة السليمانية، تركيا. مخطوطة. رقم 165-153. ق
4. راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. مكتبة الحرم المكي. مخطوطة. رقم 691. 189 ق
5. راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. مكتبة المدرسة الاسبانية. مخطوطة. رقم 492-150. ق
6. راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. جامعة الامام محمد. مخطوطة. رقم 8131-123. ق
7. راضي الدين صاغني. مشاريق الأنوار. جامعة الامام محمد. مخطوطة. رقم 6898-394. ق



## O‘ZBEKISTONNING MINTAQA VA XALQARO MAYDONDA OLIB BORILAYOTGAN HAMKORLIK MASALALARI

**Madraximova Gulshanoy Sotiboldiyevna**

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Milliy iftixor  
va harbiy vatanparvarlik kafedrasi professori*

## ВОПРОСЫ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА НА РЕГИОНАЛЬНОЙ И МЕЖДУНАРОДНОЙ АРЕНЕ

**Мадрахимова Гульшаной Сатыболдиевна**

*Профессор кафедры национальной гордости и военного  
патриотизма Академии Вооруженных Сил Республики  
Узбекистан*

## ISSUES OF UZBEKISTAN'S COOPERATION IN THE REGIONAL AND INTERNATIONAL ARENA

**Madrakhimova Gulshanoy Satboldiyevna**

*Professor of the Department of National Pride and Military  
Patriotism of the Academy of the Armed Forces of the Republic of  
Uzbekistan*



<https://orcid.org/0009-0003-1931-0092>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz tashqi siyosatida namoyon bo‘layotgan ko‘p qirrali faoliyat, jumladan, xorijiy davlatlar, xorijiy va mintaqaviy tashkilotlar bilan o‘rnatilayotgan diplomatik munosabat, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar bo‘yicha ilgari surilayotgan tashabbuslar haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga mintaqada hamda boshqa davlat va xalqaro institutlar o‘rtasida yangi formatlar tuzilishi Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshib borishiga xizmat qilishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo davlat, mintaqada, xorijiy, diplomatiya, tashqi siyosatida, rezolyusiya, xavfsizlik, tinchlik, siyosiy, investitsiyaviy, tendensiya,

**Аннотация:** В данной статье рассматривается многогранная деятельность, проявляющаяся во внешней политике нашей страны, в том числе дипломатические отношения, устанавливаемые с иностранными государствами, зарубежными и региональными организациями, выдвигаемые инициативы по актуальным вопросам регионального и международного масштаба. При этом анализируется, что структура новых форматов между регионом и другими государствами и международными институтами будет способствовать росту геополитического и экономического значения Центральной Азии.

**Ключевые слова:** центральноазиатское государство, регион, иностранный, дипломатия, внешняя политика, резолюция, безопасность, мир, политическая, инвестиционная, тенденция.

**Abstract:** This article reflects on the multifaceted activities that are manifested in the foreign policy of our country, including diplomatic relations established with foreign countries, foreign and regional organizations, and initiatives that are being put forward on current issues of regional and international level. At the same time, it was analyzed that the structure of new formats between the region and other state and international institutions will serve to increase the geopolitical and economic importance of Central Asia.

**Key words:** Central Asian state, region, foreign, diplomacy, Foreign Policy, Resolution, Security Peace, political, investment, trend.

**Kirish.** Bugungi kunda davlatimiz tomonidan mintaqada va xalqaro maydonda olib borilayotgan faol hamkorlik, ulkan imkoniyatlarga eshik ochmoqda. 2024-yil yurtimiz tashqi siyosati uchun samarali yil bo'ldi. Ayniqsa, mintaqaviy ijobiy o'zgarishlarga erishishda tashqi siyosatdagi izchillik, har qanday sharoitda davlat manfaatini himoya qilish strategiyasi, ochiqlik tufayli amaliy xalqaro ahamiyatga ega natijalarga erishildi. Dunyoning barcha davlatlari bilan o'zaro teng huquqli va manfaatli munosabat davom ettirildi. Tashqi siyosiy kun tartibidagi barcha tendensiyalarni mohirlik bilan anglash va milliy manfaatni hisobga olish asosida, avvalo, yangi mintaqaviy diplomatiya O'zbekistonning qiyofasiga aylandi. Bu esa mamlakatimizning nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham istiqbolidan darak beradi.

Mamlakatimiz uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatni tizimlashtirish muhim masaladir.

*Birinchi*dan, O'zbekistonda Markaziy Osiyoning, deyarli, yarim aholisi yashaydi. Shu bilan birga ayni payt Markaziy Osiyo mamlakatlari ham iqtisodiy jihatdan o'smoqda.

*Ikkinchi*dan, mintaqaning barcha davlatlarida tug'ilish o'sishi sur'ati ijobiy.

*Uchinchi*dan, dini, o'tmishi bir bo'lgan xalqlarimiz bir hududda yashab, ikki daryodan suv ichadi. Ulkan salohiyatga ega mintaqamiz dunyo hamjamiyatida iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan o'z jozibasini namoyon etish imkoniyatidan unumli foydalanishi kerak [1].

Ayni ustuvor vazifalarni bajarish, oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qo'shni davlatlar birga olib borayotgan amaliy harakatlar bugun samarasini bermoqda.

Mamlakatimiz tashqi siyosatida namoyon bo'layotgan ko'p qirrali faoliyat, jumladan xorijiy davlatlar, xorijiy va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'rnatilayotgan diplomatik munosabat, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbuslar, olib borilayotgan muloqotlar, birinchi navbatda, xalqimiz tinch, xavfsiz yashashi, erkin faoliyat yuritishi, zamonaviy bilim olishi, yangi kasblarni egallashi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, uchun barcha shart-sharoitni yaratish, odamlar muhofazasini davlat tomonidan ta'minlashga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yetti yil O'zbekiston tashabbusi asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh

Assambleyasi tomonidan 10 dan ziyod rezolyutsiya qabul qilindi. Jahon banki bu yil mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 5,3 foiz o'sishini taxmin qildi. Bu juda yuqori ko'rsatkich. Xalqaro valyuta jamg'armasi e'tirof etganidek, 2023-yil yalpi ichki mahsulotimiz ilk bor 100 milliard dollardan oshdi.

Ma'lumki, keyingi yillarda jahonda yangidan shakllanayotgan xalqaro tartibotda ziddiyatli xususiyat vujudga kelishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch inqirozga uchragani bilan bog'liq. Ayni payt bir tarixiy davr tugab, bashorat qilish mushkul bo'lgan yangi davr boshlanayotgani sir emas. Bunday murakkab sharoitda hech bir mamlakat o'z qobig'iga o'ralib olib, ushbu global xavf-xatarni chetlab o'tish yoki bartaraf etishga qodir emas. O'zaro chambarchas bog'langan dunyoda xavfli muammolar girdobidan chiqishning yagona yo'li samarali muloqot, har bir tomon manfaatini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko'p tomonlama samarali xalqaro hamkorlikdir. O'zbekistonning tashqi siyosatdagi manfaatini ta'minlash jarayoni so'nggi yillarda mamlakatimizda yuz berayotgan yangi o'zgarishlar, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni bilan uyg'un. Davlatimiz o'z manfaatidan kelib chiqib, mavjud vaziyatni tahlil qilib bormoqda, tegishli xulosalar chiqarib, tashqi siyosat bo'yicha strategik qarorlar qabul qilmoqda, tegishli vazifalar ijrosini ta'minlamoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston hududiy yaxlitligi, suverenitetini saqlash, ishonchli sheriklar topishga harakat qilyapti va bunga erishyapti ham.

Bu borada xalq va davlat manfaatlari uyg'unlashtirilib, 2030-yilgacha mo'ljallangan reja belgilangan va vazifalarni hozir amalga oshirishga kirishilgan. Asosiysi, davlat manfaati ta'minlanishiga oid qoida va me'yorlar, maqsad, yo'nalish va vazifalardan kelib chiqib, hatti-harakatlar muayyan mantiq asosida olib borilyapti.

O'zbekiston taraqqiyoti mintaqa umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Ta'kidlash joiz, Ostona shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari oltinchi Maslahat uchrashuvida ilk bor qabul qilingan "Markaziy Osiyo-2040" konsepsiyasi mintaqa istiqboliga doir yondashuvlar mushtarakligini tasdiqladi. Ushbu hujjat aniq amaliy rejalarini amalga oshirish shakli va mexanizmini belgilab berdi.

Mintaqaviy muloqot natijasi yuqori siyosiy doiralarda o'zaro ishonch darajasi ortgani, savdo-

iqtisodiy aloqalarda ijobiy ko'rsatkich qayd etilgan, ayniqsa O'zbekistonning chegara hududlarida o'zaro anglashuv muhiti shakllanib, barqaror xususiyat kasb etganida kuzatildi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2018-yil 22-iyunda qabul qilingan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiya tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy faoliyatimizning muhim yo'nalishlaridan biri afg'on zaminida tinchlik va barqarorlikka erishishdir. Boisi, O'zbekiston Afg'onistonga Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qaraydi va shu nuqtai nazardan tizimli va kompleks yondashuvga ega. Respublikamiz tashabbusi bilan 2022-yil qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash" maxsus rezolyutsiyasida Afg'onistonning mintaqalararo savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishdagi alohida o'rni e'tirof etilgan.

2024-yil 6-iyun kuni Anqara shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an raisligida O'zbekiston-Turkiya Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston rahbari ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik izchil sur'atda rivojlanib borayotganidan mamnunligini bildirdi. So'nggi besh yilda turk sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni uch barobarga oshdi va 2 mingtaga yetdi, investitsiyalar hajmi ikki barobarga ortdi [2].

– Biz hamkorlikning yangi, yanada mustahkam ko'priklarini qurayapmiz. Hech shubhasiz, O'zbekiston-Turkiya Strategik hamkorlik kengashi yig'ilishi hozirgi vaqtda aloqalarimiz tarixida yangi sahifa ochmoqda. Bunday yuksak darajadagi muloqot formati o'zaro ishonch va hurmatning oliy ifodasidir [3], - dedi Prezidentimiz.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning ijobiy sur'ati qayd etildi. So'nggi yillarda o'zaro savdo hajmi 1,5 baravarga, qo'shma korxonalar soni 2 baravarga, investitsiyalar 2,5 baravarga oshgan [4]. Ikki mamlakat shaharlari o'rtasida haftasiga 90 ta havo qatnovi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan keng ko'lamli hamkorligi esa, har ikki davlat o'rtasida imzolangan Strategik hamkorlik va Ittifoqdoshlik munosabatlari to'grisidagi

shartnomalar asosiga qurilgan. Shuningdek, hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Shu o'rinda tashqi savdo hamkorlarimiz orasida Rossiya Federatsiyasi yetakchi o'rnlarni egallab kelayotganini e'tirof etish lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq qo'shma korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, loyihalar portfeli qariyb 45 milliard dollarni tashkil qiladi. 2024-maydagi Rossiya Federatsiyasi prezidentining tashrifi doirasida 20 milliard dollarlik yangi loyihalar bo'yicha kelishuvlar imzolandi [5].

Yuqorida sanab o'tilgan rivojlangan davlatlarning barcha sohalardagi tajribasini o'zlashtirish va ulardan mamlakat taraqqiyoti yo'lida samarali foydalanish O'zbekiston uchun hozirgi islohotlar va yuksalish davrida eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu davlatlar bilan muvaffaqiyatli savdo-iqtisodiy, siyosiy, investitsiyaviy va moliyaviy aloqalarni rivojlantirgan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ko'tarish, to'gridan-to'gri investitsiyalarni jalb qilgan holda mikro va makro iqtisodiyotimizni rivojlantirish hamda xalqimiz hayotini yuksalishiga erishishimiz mumkin.

**Xulosa.** O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan faol tashqi siyosat mintaqada tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zaro munosabatda yaqin qo'shniçilik va qardoshlik ruhini kuchaytirish, faol savdo-iqtisodiy aloqa qilish, turli sohalarda loyihalarni izchil amalga oshirish orqali strategik sheriklikni yanada mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor tendensiyaga aylanmoqda.

Shu bilan birga mintaqada hamda boshqa davlat va xalqaro institutlar o'rtasida yangi formatlar tuzilishi Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshib borishiga, shuningdek mintaqaga xalqaro munosabatlardagi yaxlit siyosiy-diplomatik subyekti sifatida qaralishiga olib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston>.
2. [O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazdilar \(president.uz\)](https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston).
3. <https://president.uz>
4. Yangi O'zbekiston. № 112, 2024 yil 7-iyun.1-b.
5. <https://pravacheloveka.uz/>



## XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

<sup>1</sup>Инатов Мурот Ниятович, ТошДТУ “Ўзбекистон тарихи”  
кафедраси профессори в.б.

<sup>2</sup>Сафаров Сойиб Бердиевич, ТошДТУ “Ўзбекистон тарихи”  
кафедраси доценти в.б.

## ОСОБЕННОСТИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА 20-ГОДЫ XX ВЕКА

<sup>1</sup>Инатов Мурот Ниятович,  
и.о.профессор каф. “История Узбекистана” ТашГТУ имени  
Ислама Каримова

<sup>2</sup>Сафаров Сойиб Бердиевич,  
и.о.доцент, каф. “История Узбекистана” ТашГТУ имени  
Ислама Каримова

## FEATURES OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE 20S OF THE TWENTIETH CENTURY

<sup>1</sup>Inatov Murot Niyatovich,  
Professor kaf. “History of Uzbekistan” Tashkent State Technical  
University named after Islam Karimov

<sup>2</sup>Safarov Soyib Berdievich,  
acting associate professor, department, “History of Uzbekistan”  
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

**Аннотация:** Мақолада XX аср иккинчи ярмида Ўзбекистон иқтисодиётининг ўзига хос жиҳатлари таҳлили келтирилган бўлиб, республика иқтисодиётининг суғуриворланганлиги сабаблари кўрсатиб ўтилади. Мақолада Республика иқтисодиётининг ҳолати билан боғлиқ бўлган кўплаб статистик маълумотлар таҳлил этилади. Буларнинг барчаси “ўрганилаётган даврда” Ўзбекистон иқтисодиёти ҳақида тўлақонли маълумотлар беради.

**Калим сўзлар:** иқтисодиёт, ер-сув ислоҳоти, саноат, пахтачилик, ценз саноати, ипакчилик, янги иқтисодий сиёсат, бозор муносабатлари, қосибчилик, тоғ-кон саноати.

**Аннотация:** В статье приводится анализ особенностей экономики Узбекистана во второй половине XX века, в которой указываются причины слабого развития экономики республики. В статье анализируются многие статистические данные, связанные с состоянием экономики республики. Все это дает достоверную информацию об экономике Узбекистана в изучаемый период.

**Ключевые слова:** экономика, земельно-водная реформа, промышленность, хлопководство, цензовая промышленность, шелководство, новая экономическая политика, рыночные отношения, ремесленничество, горнодобывающая промышленность.

**Annotation:** The article provides an analysis of the features of the economy of Uzbekistan in the second half of the 20th century, which indicates the reasons for the weak development of the economy of the republic. The article analyzes many statistics related to the state of the republic's economy. All this provides reliable information about the economy of Uzbekistan in the "studied period."

**Key words:** economy, land and water reform, industry, cotton growing, qualification industry, sericulture, new economic policy, market relations, handicrafts, mining industry.



1

<https://orcid.org/0009-0009-5160-6137>



2

<https://orcid.org/0009-0005-7272-3245>

**Кириш.** Бугунги кунда якин ўтмиш тарихимизни ўрганиш, унинг зиддиятли ва мураккаб жиҳатларини таҳлил этиш собиқ Иттифоқ давридаги Республика ижтимоий-иқтисодий ҳаёти билан боғлиқ жараёнларни янада теранроқ англашга имкони беради. Мақолани тайёрлаш жараёнида айнан республика ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги мураккаб вазият ҳақида қимматли маълумотлар берадиган архив ҳужжатлари, статистик маълумотлар таҳлил этилди.

**Усуллар** мақолани тайёрлаш жараёнида тарихий тадқиқот усулларига эътибор қаратилди, хусусан, таҳлилий, қиёслаш, тарихий изчилик, баҳолаш, ҳулосалар бериш.

**Муҳокама.** Собиқ иттифоқ даврида мамлакатимиз иқтисодиёти мураккаб ва ўзига хос ривожланиш жараёнини бошидан кечирди. Республика иқтисодиётининг муҳим йўналиши –

**Ўзбекистон ценз саноати бош тармоқларининг % ҳисобида умумий ценз саноатига нисбатан қиёсий ҳажм (1927 йил маълумотлари)[4]**

Соҳа тармоғи	Маҳсулот қиймати	Ишчилар сони	Қувват и
Пахта тозалаш	67,6	30,4	36,1
Ёғ ишлаб чиқариш	10,0	14,1	19,4
Дон янчиш	6,1	3,4	5,6
Виночилик, ароқ и/ч	3,7	3,0	1,9
Ипакни қайта ишлаш	1,1	8,3	0,5
Пиво–асал и/ч	1,3	2,2	1,4
Ширинликлар	1,2	2,1	0,6
Электростанциялар	1,0	2,5	21,3
Босмаҳоналар	1,0	8,3	0,4
Тоғ-кон саноати (нефть, кўмир, тоғ мўми)	0,8	3,5	0,5
Бошқалар	4,4	15,8	7,7
<b>Жами:</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

Шундай қилиб, маҳсулот қиймати бўйича 77,6% ни, ишчилар сони бўйича 44,5 % ни, двигателлар қуввати бўйича 55,5 % ни ташкил этувчи пахтачилик (пахта тозалаш ва ёғ ишлаб чиқариш билан бирга) саноатининг етакчи

бу Ўзбекистоннинг фабрика- завод саноати бўлиб, у жуда заиф ривожланганлиги билан ажралиб турар эди. Республика саноатини характерлайдиган асосий белгилари қуйидагилардан иборат эди: кишлоқ хўжалигига нисбатан ёрдамчи характерда эканлиги, заиф ташкилий капитал курилиши, техник жараёнларнинг қолоқлиги, қатор тармоқлардаги жиҳозларнинг ўта соддалиги, жуда кўп корхоналарнинг кичиклиги. Ўзбек ценз муассасаларининг кўпчилигида ишчилар сони ўнлик, камдан-кам ҳолларда юзлик рақам билан саналарди. Ишчилар сони бўйича Ўзбекистонда энг йирик ҳисобланган Фарғона пиллачилик фабрикасида жами 500 - 600 ишчи бор эди. Республикадаги ценз саноатидаги барча ишчилар умумий сони 15 726 кишидан иборат бўлган.

Ўзбекистон саноатининг айрим тармоқлари ҳақида қуйидаги жадвал аниқ тасаввур беради.

ролидан ташқари, тўқимачилик саноатининг деярли йўқлиги ва металл саноатининг арзимас ўрни равшан кўриниб турибди. Ҳолбуки, айнан шу тармоқлар саноати ривожланган ҳар бир мамлакатда асосийлардан бўлиб, биз тадқиқ

қилаётган даврда жаҳон саноати тизимида ҳал қилувчи аҳамиятга эга эди.

Тоғ - кон саноати ҳам жуда заиф бўлган. Яхлит олганда бутун Ўзбекистон саноатини иккита катта гуруҳга бўлиш мумкин. Биринчиси, асосий гуруҳ бўлиб, қишлоқ хўжалиги хом-ашёларига дастлабки ишлов бериш билан банд бўлган. Иккинчиси, бевосита шаҳар эҳтиёжларини қондиришга мўлжаллаган ва шаҳар ҳаёти ривожланиши билан пайдо бўлган: тегирмон, пиво-асал пишириш, озиқ-овқат

саноати, шунингдек, асосан четдан келтирилган хом-ашё ҳисобига ишлаган электростанциялардир.

Ушбу заиф ишлаган саноат ишлаб чиқариши маҳсулотлари билан қишлоқ аҳолисининг эҳтиёжлари қондирилган эмас. Бу саноат шаҳар аҳолисининг ҳам тўла таъминлай олмаган. Халқ истеъмол моллари собиқ иттифокнинг саноат марказларидан келтирилган ҳамда республиканинг косиб-хунармандчилик санаотида ишлаб чиқарилган.

#### Ўзбекистон ценз саноати динамикаси:[2]

Йиллар	Ишчилар сони	Ялпи маҳсулотнинг (млн. сўм миқдорда) қиймати	Пахта тозалаш саноати маҳсулотлари қиймати
1926-27	14260	179,8	121,7
1927-28	15726	239,8	165,6
1928-29	19199	331,3	218,7

Келтирилган маълумотлар шундан гувоҳлик берадики, саноатни тиклаш бевосита қишлоқ хўжалигининг ривожини билан боғлиқ бўлган. Ялпи маҳсулот ва ишчилар сонининг кўпайиши ҳам саноатнинг ўсишидан дарак беради. Вайронагарчилик йилларидан кейин Ўзбекистон ценз саноати тезда ўзини тиклаб олди ва урушгача (биринчи жаҳон уруши, *изоҳ муаллифники*) бўлган даражадан ошиб кетди.

Ўзбекистон Иттифокдош республика сифатида мавжуд бўлган вақтда ташкил топган 12 та пахта тозалаш заводидан фақатгина 2 таси Тошкент округида, 5 таси пахтачиликнинг тарихий маркази бўлган Фарғонада, қолган 5 таси Бухоро, Қашқадарё, Хоразм округларида фаолият юритган.

Урушгача бўлган даврда Ўзбекистон ҳудудида ишлаб турган 19 та ёғ ишлаб чиқариш заводидан 1926 йилда фақатгина 6 таси фаолият кўрсатган бўлиб, улар анча йирик ва яхши жиҳозланган эди. Уларда 2050 киши меҳнат қилган. Бу заводлар: Бухоро, Қўқон, Наманган, Андижон, Тошкент, Янги Урганч шаҳарларида, фақатгина биттаси Андижон округида жойлашганди. Ёғ ишлаб чиқариш заводининг энг йириги Қўқон шаҳрида эди. Энг саноатлашган округлар: Тошкент, Андижон, Фарғона ва Самарқанд ҳисобланарди. Бу 4 округ агар пахта

тозалаш саноатини истисно қилсак, ценз саноати маҳсулотлари умумий қийматининг 81,9%ини, маҳсулотларнинг 93,4 %ни етказиб берарди.

Иқтисодчи олимларнинг эътирофига кўра, Ўзбекистон халқ хўжалигининг асосий шакли аввалгидек қишлоқ хўжалиги бўлиб қолди, унинг саноати шу замирда ривожланди. Бу даврда Ўзбекистонни санатлаштириш йўналишида, яъни унинг саноатини оддийгина тиклаш эмас, балки тубдан қайта қуриш соҳасида катта ишлар қилинди. Қайта қуриш тадбирларига, аввало пахтачилик саноатини такомиллаштириш, муассасаларини географик жиҳатдан тўғри жойлаштиришга эътибор кучайтирилди. Самарқанд, Бухоро, Марғилондаги пиллачилик фабрикалари асосида ўзбек пиллачилик саноати шаклланди, Ўзбекистоннинг сув омилларидан фойдаланиш йўлида илк қадам бўлган Бўзсув электростанцияси қурилди.

Гарчи бу даврда косиб - хунармандчилик аста-секин ўз солиштирма салмоғини пасайтириб борса-да, умуман олганда у ҳам ривожланди ва Ўзбекистон саноати ялпи маҳсулоти умумий қийматининг 35,5 % ини етказиб берди. Айни пайтда бу тармоқда банд кишилар ценз саноатидагидан кўра 7 баравар кўп эди.

Асосан қишлоқ хўжалиги хом-ашёларига дастлабки ишлов бериш билан банд бўлган

фабрика-завод саноатининг акси ўлароқ Ўзбекистон косибчилик саноатининг деярли барча тармоқларида кенг истеъмол маҳсулот тайёрлашга эътибор қаратилган эди: қайта ишланган хом-ашё ва ишлаб чиқариш қуролилари биргаликда маҳсулот қийматининг  $\frac{1}{4}$  ни берарди.

1926-1927 йилларда барча маҳсулотнинг 56% қийматини берган ҳунармандчилик саноатининг асосий тармоқлари: дон янчиш, нонвойлик, ёғ ишлаб чиқариш, совун тайёрлаш, қандолатчилик саноати, маҳаллий ширинликлар

ишлаб чиқариш, виночилик, кийимлар тайёрлаш ва ҳ.з.лардан иборат эди.

Маҳсулот қиймати бўйича ҳунармандчилик саноатининг учинчи гуруҳини пахтага ишлов бериш тармоғи ташкил этарди. Бу соҳа ўзида банд бўлган кишиларнинг сонига кўра аввалги икки гуруҳга нисбатан устунликга эга бўлиб, унда 34 мингдан зиёд киши банд эди, холбуки кийим-кечак ва совун тайёрлаш гуруҳида 30 минг, озиқ-овқат ва ширинликлар тайёрлаш гуруҳида 20 мингга яқин киши ишларди.

#### Аҳамиятига кўра Ўзбекистонга ғалла - бугдой келтириш энг юқори ўринда туради [4]

Йиллар	Келтирилган ғалла (минг пуд)
1913	21475
1924 - 25	8600
1925 - 26	15509
1926 - 27	21047
1927 - 28	23126

Жадвалдан кўриниб турибдики, республикага ғалла асосан ташқаридан олиб келинган. Ғалла олиб келиш йилдан-йилга ўсиб борган. Республика ўзининг ғалла мустақиллигини йўқотди. Асосий куч пахтачиликни ривожлантиришга қаратилди.

Четдан етарлича ғалла келтирмай туриб, пахтачиликни ривожлантириш мумкин эмас эди, чунки ғалла етишмаслиги тезда унинг баҳосини ошириб юборар, бу эса пахтага нисбатан баҳонинг барқарорлигида деҳқон учун пахтачиликни даромадсиз соҳага айлантириб қўярди.

Хулоса шундан иборат бўлдики, XX асрнинг 20-йиллари иккинчи ярмида Ўзбекистон иқтисодиёти ночор ҳолатда бўлиб, секинлик билан ривожланиб борган. Иттифоқ маркази республика иқтисодиётини бир томонлама ривожлантиришга ҳаракат қилиб, асосан ташқи

муҳитга боғлаб қўйган. Бу ҳолат одамлар яшаш шароитини ҳам ёмонлашувига олиб келган.

#### Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар:

1. Бу ерда ва бундан кейин фабрика-завод ҳамда кустарчилик саноати бўйича рақамлар. С.И. Фролова, Ю. И. Кривоноговларнинг “Ўзбекистан. Пособие по изучению экономики края. (– Т.: Узбекгосиздат, 1930)” асаридан келтирилади: 176-177, 197-203-бетлар.
2. М.Инатов. Хатларда битилган тарих ва тақдир: Ўзбекистон фуқароларининг хатлари тарихий манба сифатида (XX аср 20-йилларининг иккинчи ярми) Т.; 2023. 35-б.
3. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. Самарканд, 1926. 162-б.
4. Фролов С. И., Кривоногов Ю.Н. Кўрсатилган асар. 239-б.



## ЎЗБЕКИСТОНДА ЕЧИМЛАР ЖУРНАЛИСТИКАСИ ТАРАҚҚИЁТИДА ХУДУДИЙ МЕДИАНИНГ ЎРНИ


*Бекчанова Дилбар Зариповна, Ўзбекистон Республикаси  
Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва  
оммавий коммуникациялар Агентлиги Хоразм вилояти  
бошқармаси бошлиғи*

## РОЛЬ РЕГИОНАЛЬНЫХ МЕДИА В РАЗВИТИИ ЖУРНАЛИСТИКИ РЕШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА

*Бекчанова Дилбар Зариповна, руководитель управления  
Агентства информации и массовых коммуникаций при  
Администрации Президента Республики Узбекистан в  
Хорезмской области*

## THE ROLE OF REGIONAL MEDIA IN THE DEVELOPMENT OF SOLUTIONS JOURNALISM IN UZBEKISTAN

*Bekchanova Dilbar Zaripovna, Head of the Khorezm Regional  
Department of the Agency for Information and Mass  
Communications under the Administration of the President of the  
Republic of Uzbekistan*



[xorazm.matbuot@umail.uz](mailto:xorazm.matbuot@umail.uz)

**Аннотация:** Ушбу мақолада Интернет журналистикаси вужудга келиши билан зарурият юзасидан янги йўналиш-ечимлар журналистикаси, ижтимоий муаммоларга муносабатларни ва далилларга асосланган тўлақонли жавобни шакллантириши борасидаги ёндашувлар Хоразм вилояти етакчи электрон нашрлар мисолида таҳлил қилиб берилди.

**Калит сўзлар:** медиа макон, сўз эркинлиги, расмий муносабат, ижтимоий муаммо, негатив оқим, тўлақонли ечим, видеоконтент,

**Аннотация:** В этой статье будет проведен анализ появления интернет-журналистики и нового направления- журналистики решений - на примере ведущих электронных изданий Хорезмской области. Рассматриваются подходы к формированию обоснованных ответов на социальные проблемы и отношения к ним, основанные на доказательствах.

**Ключевые слова:** медиaprостранство, свобода слова, официальная позиция, социальная проблема, негативный поток, комплексное решение, видеоконтент,

**Abstract:** This article analyzes the emergence of Internet journalism and the necessity for a new direction— solutions journalism—addressing social issues and forming evidence-based comprehensive responses, using examples from leading electronic publications in the Khorezm region.

**Key words:** media space, freedom of speech, official stance, social problem, negative flow, comprehensive solution, video content, public awareness.

**Кириш:** Бутун жаҳон миқёсида бўлгани каби Ўзбекистонда ҳам интернет коммуникация, ахборот технологиялари жараёнлари шиддат билан тараққий этиб, ундан фойдаланувчилар сони кундан-кунга ошиб бормоқда. Таниқли сиёсатшунос А.Саидов ушбу мислсиз жараённи шундай таърифлайди: “Биз яшаётган XXI аср-глобал ахборот жамияти шиддат билан шаклланиб бораётган том маънодаги ахборот асридир. Бугун ахборот жамият тараққиётининг бош омили сифатида намоён бўлмоқда. Ахборот ва билим энг муҳим миллий ва дунёвий бойликки, уларни яратиш ва тарқатишни таъминлайдиган тизимлар эса, барқарор ривожланишнинг стратегик омилларига айланди”. [1.3-бет].

Табиийки, медиа маконда ечимлар журналистикаси атамаси ҳам ўз-ўзидан пайдо бўлиб қолмади. Зарурият юзасидан у ана шу тинимсиз ривожланишлар шароитида вужудга келди. Ушбу термин ўз фаолияти доирасида аҳолининг хабардорлигини таъминлаш мақсадида бизнинг ҳам истеъмолимизга кенг кириб келди ҳамда мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий ҳаётидан чуқур ўрин олди. Ечимлар журналистикаси негативлар оқимида, муаммолар уммонида ижтимоий турмушнинг ўзига хос муҳим эҳтиёжи, зарурияти сифатида намоён бўлмоқда. Таниқли журналист Тина Розенбергнинг таърифича, “Одамлар муаммолардан чарчашгани ҳақ. Бугун улар ижобий натижалар, позитив ёндашувлар ва муваффақиятли яқунлар ҳақидаги ахборотларга, янгиликларга муҳтождирлар. Бу йўналишдан журналистиканинг муҳим бир жанри сифатида муаммолар ечимига кучли таъсир қилиш инструменти сифатида фойдаланилади”. (7. 3-бет. Русчадан эркин таржима муаллифники.)

Ечимлар журналистикаси ижтимоий ҳаётимизда юзага келаётган муаммоларни холисона таҳлил қилиш, ўз вақтида сифатли, тўғри ва тўлақонли жавоб ёки муносабат беришнинг ҳамда ечимларни тақдим этишнинг жуда муҳим, қулай ва мақбул стратегияси - усулларидан биридир. Ечимлар журналистикаси ҳатто жуда мураккаб саволларга комплекс ёндашади, жавоблар излайди.

Ушбу мақолада Хоразм вилоятидаги ҳудудий медианинг Ўзбекистонда ечимлар

журналистикасини ривожлантиришдаги муҳим аҳамияти кўриб чиқилади. Шунингдек, минтақанинг етакчи интернет нашрлари материаллари мисолида таҳлил қилинади.

**Материаллар ва методлар:** Ҳар қандай даврларда, жамиятда муаммолар бўлган ва бундан сўнг ҳам бўлаверади. Ечимлар журналистикасининг кенг маънода жамоатчилик фикрини бошқариш, жамият ва давлат идоралари ёки тижорат тузилмалари ўртасидаги муносабатларни ўрнатишдаги ўрни яққол кўриниб қолди. Ечимлар журналистикаси тушунчаси қисқа вақт ичида замонавий ёндашувлар билан касбий фаолиятда ўзига хос маъно ва мазмун касб этди, десак муболаға бўлмайди. Айни замонда ечимлар журналистикасининг муҳим концепциялари куйидагиларда намоён бўлмоқда:

1. “Ечимларга урғу бериш”. Муаммоларни аниқлаган кишилар эмас, уларни қандай ҳал қилаётганлар ҳақидаги маълумотни батафсил ёритиш.

2. “Жараённи таснифлаш, ёхуд ёрқин, равшан ифодалаш”. Ечимлар журналистикаси муайян ечим қандай ишлаётгани, унинг самарадорлиги ва қандай муаммоларни ҳал қилишга қодирлигига эътибор қаратади.

3. “Контекст ва таҳлил”. Материаллар нафақат ечимни, балки унинг кенгрок контекстидаги аҳамиятини ҳам ёритиши керак, унинг бошқа ҳудудларда ёки соҳаларда қўлланиши мумкинлигини таҳлил қилади.

### **Муҳокама**

Ечимлар журналистикаси ривожланаётган давлатлар учун, жумладан, Ўзбекистон учун жуда катта аҳамият касб этади. Негаки, бугун мамлакатимизда изчил давом этаётган ижтимоий ва иқтисодий ислохотлар жараёнида медиа энг яхши тажрибаларни тарқатишда фаол бўлиши зарур. Айниқса, ҳудудий медиа бу масалада муҳим роль ўйнайди, чунки улар маҳаллий шароитни, аҳоли талаби ва муаммоларини, ҳудуднинг ўзига хос жиҳатларини ҳаммадан кўпроқ яхши тушунадилар.

Шу жиҳатдан ҳам Хоразм вилоятидаги ҳудудий медианинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Хўш, булар нималарда акс этади? Энг аввало вилоят-ўзига хос маданий ва тарихий

идентификацияга эга. Жумладан, баъзи бир ижтимоий-иқтисодий муаммоларга дуч келаётган ҳудуд ҳисобланади. Сўнгги йилларда маҳаллий медиа, айниқса, интернет нашрлари, аҳоли учун муҳим ахборот манбаига айланди. Унинг аҳоли орасида аҳамияти, унга бўлган эҳтиёж ва зарурият, ишонч ошиб бормоқда.

Вилоятдаги ҳудудий медиа ечимлар журналистикасида қуйидаги асосий мавзуларга эътибор берилиши керак:

1. “Экологик муаммолар”. Сир эмас, ҳозирги кунда Хоразм шўрланиш, тупроқ ҳолатининг ёмонлашуви, сув ресурсларининг етишмовчилиги, атмосфера ҳавосининг муттасил равишда ёмонлашиб бориши, атроф-муҳитнинг ифлосланиши каби экологик муаммоларга дуч келмоқда.

Интернет журналистикаси ф.ф.н. Наргиза Қосимованинг таърифлаганидек, “Анъавийдан фарқли ўлароқ веб-матн қисқа, аниқ, фактларга бой, бадий жиҳатдан ёрқинроқ бўлади” (2.186-бет). Анъанавий медиа бу муаммоларнинг ҳажми, кўламини инобатга олса, ечимлар журналистикаси эса сувдан оқилона ва самарали фойдаланиш, исрофгарчиликларнинг олдини олиш, ер ва тупроқ шароитларини тиклаш ёки яшил боғлар, маконлар яратиш сингари натижадор, муваффақиятли ташаббусларни батафсил ва ёрқинроқ ёритиши билан кўп афзалликларга эга. Мисол учун, замонавий суғориш технологиялари, ирригация механизмларини ҳаётга жорий қилиш борасидаги асосли материаллар, таклифлар бу соҳадаги муаммоларни қай йўсинда ечимини топиш лозимлигини кўрсатади.

2. “Ижтимоий ташаббуслар ва соғлиқни сақлаш”. Хоразмда соғлиқни сақлаш, таълим ва ижтимоий ҳимояни яхшилашга қаратилган кўплаб ижтимоий лойиҳалар амалга оширилмоқда. Ҳудудий медиа шу ўринда олис қишлоқлардаги тиббий хизматларни ташкил қилиш ёки инклюзив таълим дастурларини татбиқ этилиши масалаларини кенг ёритишда муҳим роль ўйнаши мумкин.

3. “Иқтисодий ривожланиш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш”. Яхши биламиз, Хоразмнинг иқтисодиёти асосан қишлоқ хўжалиги ва хунармандчиликка боғлиқ. Ҳудудда айни пайтда инвесторлар кўмагида саноат корхоналарининг ва кўплаб ишчи

ўринларининг яратилаётгани ҳам таҳсинга лойиқ. Бу ўринда ҳудудий медиа инновацияларни ёки давлат дастурларини қўллаб-қувватлаган тадбиркорларнинг муваффақиятли тарихларини ёритиб беради.

4. “Йўл ва инфратузилма масалалари”. Маълумки, вилоятнинг катта магистраль ва ички йўллари тез-тез таъмирталаб ҳолга келади. Айниқса, шаҳар ва туманларни бирлаштирувчи Шовот канали узра кўприкларни деярли ҳар икки йилда бир марта енгил таъмирлаш талаб қилинади. Бунинг асосий сабаби тупроқнинг шўрланиш ҳолати бўлса, иккинчидан йўл ётқизиш стандартларининг бузилиши муаммолари ва шунингдек, бу йўлдан оғир юк тортувчи автомобиль ва тиркамаларнинг ўтиб туриши масалалари бўлиши мумкин. Ушбу муаммолар ечимини топиш ва уни баргарф этишда одамларнинг ишончига кирган интернет нашрларининг нуфузи ошиб кетганлигини кузатиш мумкин. Бу ижтимоий тармоқларнинг тараққий этиши билан боғлиқ албатта.

#### **Натижа**

Хоразм вилоятида бугунги кунда 22 та ҳудудий электрон нашр мавжуд. Агар таҳлил қиладиган бўлсак, бундан 6-7 йиллар илгари воҳада ОАВ сифатида рўйхатдан ўтган электрон нашрлар 5 тани ташкил қилса, кейинги пайтда журналистиканинг мазкур турига қизиқиш ва унинг салмоғи ошганлигини кузатиш мумкин.

Хоразм вилоятининг етакчи интернет нашрлари материалларини таҳлил қилиш орқали ечимлар журналистикаси услублари ва тамойилларига мос келадиган қуйидаги мисолларни ажратиб кўрсатамиз:

“**Xorazmliklar**” интернет нашри орқали тақдим қилинган “Табиатни ўйламай қўйдик” мавзусидаги видеоматериалда воҳада экилаётган арча дарахтлари қуриб бораётгани, уларга сарфланаётган маблағлар бир-бирга ҳавога учиб кетаётгани, уларнинг ўрнига иқлим ва тупроқ шароитига мос манзарали дарахтларни экиш ва парваришlash яхши наф бериши ҳақидаги муҳим масала кўтарилган. Бу ташаббус Хоразмнинг қуруқ иқлими шароитида униб ва ўсиб кетиши мушкул бўлган дарахтлардан воз кечиш кераклиги, аксинча гужум, тут, қорақарағай, терак дарахтларини экиш орқали яхши натижаларга эришиш мумкинлигини таъкидлашган. Чиқиш омма ўртасида яхши

резонанс берди ва ўз самарадорлигини намоён этди, бу орқали нашр нафақат экология билан боғлиқ муаммоларни, балки унинг ечимларини ҳам баён қилди.

**“Qonun doirasida”** электрон нашрининг воҳада фаолият кўрсатаётганига кўп бўлмади, аммо соҳада муаян тажриба орттириб, қисқа вақт ичида аҳолининг ишончига кирди. Ёшлон қилинган видеоконтент “Эҳтиёт бўлинг! Захарланиб қолманг!” деб номланган. Унда Урганч учун махсус ишлаб чиқарилган сифатсиз ёғлар бозорлар ва магазинларда сотилаётганлиги муаммоси кўтарилган. Маълум бўлишича, ушбу ёғ маҳсулоти бошқа вилоятдан, яъни Бухородан олиб келиниб, тадбиркорларга нақд пулга етказиб берилаётгани аниқланган. Ишлаб чиқарувчиси номаълум бўлган бу ёғлар бир қараганда бошқа ёғлардан ҳеч фарқ қилмайди. Аммо Хоразм вилоятида ишлаб чиқарилаётган пахта ёғлар ва сифатсиз ёғлар орасида бир қатор фарқлар борлиги ҳам асослаб берилган. “Ёғ маҳсулотларида “Урганч шаҳри учун” деб ёзилган ёзувларни кўришингиз мумкин”, - дейилади мақолада. “Савол: нега айнан Урганч шаҳри учун сифатсиз маҳсулотлар ишлаб чиқарилган? Мақсад сифатсиз маҳсулотларнинг кириб келишининг олдини олиш ва фуқароларнинг соғлигини таъминлашдир”. Қандай қилиб? Репортаж давомида бу саволга бозордаги тадбиркорлар билан учрашув ва суҳбат жараёнида жавоб келтиради.

**“Haqiqat yo'lida”** интернет нашрининг воҳа шароитига хос бўлган мавжуд муаммоларни кўтариб чиқиши ва унинг ечимлари устида ишлаши борасида ўзига хос тажрибаси бор. “Пилла қурти боқувчиси куйиб қолди” сарлавҳаси остида жойлаштирилган видеоматериалда ижодий бир дадиллик билан муаммо ўртага ташланган. Тут плантатсиясига туташ худудда пахта экин даласига заҳарли химикатлар сепилган. Оқибатда тут барглари билан боқилган пилла қуртлари нобуд бўлган. Фермер пахта даласига заҳарли химикат сепиши натижасида тутлар зарарлаган. Кўшкўпир туманидаги касаначи Неъматжон 23 та қути олиб, ундан 1 тоннагача ипак топширишни режалаштирган эди. Натижада куйиб қолди. Фермернинг тут плантацияси эгасини огоҳлантирмасдан қилган ҳатти-ҳаракати сабабли нобуд бўлган ипак қуртлари ҳақидаги

аянчли воқеа бошқа ипак қурти боқувчиларга ҳам ибрат сифатида атрофлича таҳлил билан ҳикоя этилган.

Хоразмда шунга ўхшаган танқидий-таҳлилий муаммоларни деярлик ҳар кун ижтимоий тармоқларда кузатиш мумкин. Бу жараёнларда ҳудудий электрон нашрларнинг фаол ҳаракатлари яққол кўзга ташланади.

Ўзбекистонда ечимлар журналистикасини ривожлантиришда ҳудудий медиа муҳим ролни ўйнаётган экан, унинг муваффақияти ва афзалликларини қуйидагича таҳлил қилса бўлади:

1. “Аудиторияга яқинлик”. Ҳудудий медиа миллий ёки халқаро нашрларга қараганда ўз аудиториясини яхшироқ билади. Бу уларга маҳаллий аҳоли учун долзарб бўлган ва уларни қийнаётган аниқ мавзуларни ёритиш имконини беради.

2. “Медиага ишонч ошганлиги”. Маҳаллий медиа миллий ёки халқаро ОАВга нисбатан кўпроқ ишончга эга бўлиши мумкин. Бу ишонч ечимлар журналистикасида ижобий ўзгаришларни тарғиб қилишда самарали натижани тақдим этади.

3. “Ижтимоий ўзгаришлар учун муваффақиятли восита”. Ечимлар журналистикаси тарқатилаётган ахборотнигина эмас, балки фаол фуқаролик жамиятини шакллантиришда ҳам муҳим рол ўйнайди. Ҳудудий медиа фуқароларни, жамиятни ўз муаммоларига ечим топишга илҳомлантирувчи, рағбатлантирувчи фаол жараён ҳисобланади.

Таниқли журналист М. Обидовнинг фикрича, “Суриштирув жанрининг бошқалардан асосий фарқли томони шундаки, унда журналист муаммони ўртага ташлаш ва уни мустақил ўрганиш билан кифояланмайди. Баъзида суриштирув материалида бу очиқ-ошкор ёритилмаслиги мумкин, лекин журналист тўплаган факт, далил ва изоҳлар аудиторияни тўғри хулоса чиқаришга ундайди” (4.91- бет) Ечимлар журналистикасида ҳам худди шундай услублардан фойдаланилади.

**Хулоса.** Бемалол айтиш мумкинки, ечимлар журналистикаси Ўзбекистоннинг ҳудудий медиаси учун янги имкониятлар эшигини очди. “У ижтимоий муаммоларга муаллифнинг ўзига хос жавоб беришига



қаратилган янгиликлар репортажидир”. (7.5-бет. Русчадан эркин таржима муаллифники.)

Айниқса, ижтимоий, иқтисодий ва экологик чақириқларга, муаммоларга жавоб бериш учун конструктив ёндашувлар зарур бўлган Хоразм вилоятида бу янада яққол кўринмоқда. Худудий интернет нашрлари видеоконтентлар орқали маҳаллий аҳолининг турмуш шароитини яхшилашга доир муаммоларни муваффақиятли ечиш бўйича амалий мисолларни тарқатиш платформасига айланиши мумкин. Бу эса ўз-ўзидан аёнки, бошқа худудларни шундай ечимларни излашга илҳомлантиради, рағбатлантиради. Жамиятдаги ўзига хос муаммоларни ечимини топишда ташаббускор журналист-ижодкорлар командасини яратади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сўз, фикр ва ахборот эркинлиги: Халқаро ҳуқуқий асослар. “Инсон ҳуқуқлари кутубхонаси”. 2021, 3-бет.
2. Журналистлар ихтисослашуви борасида турли йўналишларда ўтказилган ўқув-услугий семинарлар бўйича материаллар тўплами. Наргиз Қосимова. “Анъанавий ва интернет журналистика: Ўхшашлик ва тафовутлар” Тошкент. 2012, 186-бет.
3. Ж. Раматов, Б. Салимов, Ҳ. Ражабов. Глобаллашув шароитида тинчлик ва барқарорликка таҳдид солувчи ғоявий, мафкуравий ва ахборот хуружларига қарши курашнинг маънавий-маърифий усуллари ва воситалари. Тошкент. 2020, 113-бет.
4. Муҳаммаджон Обидов. Журналист суриштируви: Тажриба ва таҳлил. “Фарғона нашриёти. 2018, 91-бет.
5. Хуршид Дўстмуҳаммад. “Ахборот-мўъжиза, жозиба, фалсафа. Тошкент. 2013.
6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Журналистлик фаолиятини химоя қилиш тўғрисида”. Тошкент. 1997 йил 24 апрель.
7. Тина Розенберг. Журналистика решений: Solutions Journalism. “Что такое журналистика решений?” Lismimmid.tilde.ws 16 июн. 2018. Статя в интернете.
8. Автор Solutions Journalism Network. Jun 16. 2022. Специальные темы.”Что такое журналистика решений и почему она заслуживает внимания?”. Статя в интернете.
9. Новости MediaSavod. Журналистика решений: Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 10 октябрь. 2023. Интернет издание.
10. uz.qlever.asia Журналистика решений: Как СМИ содействуют поиску решений для социальных проблем. 27 март. 2024. Интернет платформа.
11. Рубрика. rubryka.com. Где искать решение? Что такое журналистика решений и почему это о “Рубрике”. 6 июнь. 2020. Статя в интернете.
12. Wikipedia. uz.m.wikipedia.org Ечимлар журналистикаси. Кириш. Сўнгги таҳрир 2022.



**RANGNING ANTROPOTSENTRIK SUBSTANSIYA  
SIFATIDAGI TALQINI**

*Matmurodov Xojimurod,  
UrDU tayanch doktoranti*

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЦВЕТА КАК  
АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОЙ СУБСТАНЦИИ**

*Матмуродов Хажимурод,  
докторант УрГУ*

**INTERPRETATION OF COLOR AS AN  
ANTHROPOCENTRIC SUBSTANCE**

*Matmurodov Khojimurod  
full-time PhD student, UrSU*



[matmurodov94@urdu.uz](mailto:matmurodov94@urdu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi ingliz tilida asosiy rang leksemalari qatoriga kiruvchi qora, ko'k, jigarrang, yashil, kulrang, to'q sariq, pushti, binafsha, qizil, oq, sariq kabi rang belgilarining shakllanishi va semantik o'ziga xosliklari, rang nominatsiyasining kognitiv jihatlari antropotsentrik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** rang leksemalari, rang belgilari, semantik xoslik, rang nominatsiyasi, kognitiv tilshunoslik, denotativ ma'no.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются формирование и семантические особенности таких цветовых обозначений, как черный, синий, коричневый, зеленый, серый, оранжевый, розовый, фиолетовый, красный, белый, желтый, которые входят в число основных цветовых лексем в современном английском языке. Анализируются когнитивные свойства цветовой номинации.

**Ключевые слова:** цветовые лексемы, цветовые символы, семантическое свойство, цветовая номинация, когнитивная лингвистика, денотативное значение.

**Abstract:** This article examines the formation and semantic features of such color designations as black, blue, brown, green, gray, orange, pink, purple, red, white, yellow, which are among the main color lexemes in modern English. The cognitive properties of color nomination are analyzed.

**Key words:** color lexemes, color symbols, semantic property, color nomination, cognitive linguistics, denotative meaning.

**Kirish.** Rang antropotsentrik substansiya sifatida keng ko'lamli moddiy va ideal xususiyatlar va hodisalarni, assotsiativ ma'nolarning boyligini belgilashi bilan ajralib turadi va shuning uchun turli xil bilim sohalari mutaxassislari, shu jumladan tilshunoslar e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda. Olimlarning e'tibori rangning lingvistik vositachiligining keng ko'lamli masalalariga qaratiladi, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

rang nomlarining shakllanish tarixi va ularning diaxroniyada rivojlanishi;

turli tillarda rang belgilarining milliy va madaniy xususiyatlari;

rangni bildiruvchi leksik birliklarning semantik o'ziga xosligi;

rang nominatsiyasining kognitiv jihatlari va boshqalar.

Hozirgi ingliz tilida quyidagi rang leksemalari asosiy ranglar qatoriga kiradi: qora, ko'k, jigarrang,

yashil, kulrang, to‘q sariq, pushti, binafsha, qizil, oq, sariq.

Ranglarni asosiy rang nomlari guruhiga kiritish uchun zarur bo‘lgan to‘rtta mezonni aniqlashtirib olish kerak:

so‘z hosila bo‘lmasligi va murakkab so‘zlarga aloqador bo‘lmasligi kerak;

rang nomining qiymati shunga o‘xshash rang soyasini ko‘rsatadigan boshqa rang nomining qiymati bo‘lmasligi kerak;

so‘z keng moslikka ega bo‘lishi kerak;

ma‘lum bir tilda so‘zlashuvchilar uchun so‘z psixologik jihatdan ajralib turadigan, ma‘noli (ko‘zga ko‘rinadigan) bo‘lishi kerak.

Birinchi mezonidagi “asosiy” ranglar ro‘yxatidan ko‘k-yashil yoki qizg‘ish kabi so‘zlarni, uchinchi mezon esa ko‘mir, akvamarin va shunga o‘xshash so‘zlarni hisobga olmaydi. Ikkinchi mezon qirmizi, marjon kabi rang nomlarini “asosiy bo‘lmagan” deb ko‘rib chiqishga qaratilgan bo‘lib, ular qizil rang soyalari hisoblanadi. Uchinchi mezon mazmunan eng tarqoq va turli yo‘llar bilan talqin qilinishi mumkin.

Taklif etilgan mezonlarni to‘liq deb hisoblash to‘g‘ri emas, shuning uchun tilshunoslikda bu masala bo‘yicha boshqa fikrlar ham mavjud. Turli madaniyatlarda ko‘plab o‘xshash rang soyalari orasida doimiy ravishda ajralib turadigan va mos keladigan asosiy rang nomining belgisi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan “fokal rang” tushunchasi paydo bo‘ldi. Etnograflar odatda rangga madaniy voqelik sifatida qarash va ranglar toifalari tizimining izchil rivojlanishi g‘oyasiga juda e‘tibor bilan qaraydilar.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Ushbu maqolada tadqiq etilayotgan mavzuga doir bir necha adabiyotlar tahlilga tortildi. Shunday adabiyotlar sirasiga xorij olimlaridan B.Berlin va P.Kaylarning Berlin B. Basic colour terms: their universality and evolution / B.Berlin, P. Kay. – Berkeley: University of California Press, 1969-yilda nashr qilingan tadqiqotlari, “English Adjective: Enjoy the World of variety. Английское прилагательное: окунишь в мир разнообразия” nomli Серякова И. И., Яновья О.А. lar qalamiga mansub Kiyevda 2009-yilda nashr qilingan asari, Драгалина-Чёрная Е.Г. ning “Цвета в логическом пространстве Людвига Витгенштейна”//Вопросы философии. 2020.№6.С.146-156 sahifalarida e‘lon qilingan maqolalari, Цыганок И.И.ning “Цветовая

Психодиагностика. Модификация полного клинического теста Люшера” nomli 2007-yilda Moskvada nashr qilingan tadqiqotlari, Gyotening “К теории цвета” deb nomlangan 1810-yilda Moskvada nashr qilingan asarlari kiradi. Bu tadqiqotlarning deyarli barchasida rang va uning inson ruhiyatiga ta’siri, ranglarning ishlatilishida inson va u mansub bo‘lgan millatning qadriyarlari, urf-odatlari antropotsentrik nuqtai nazardan tavsif qilingan. Mashhur yozuvchi Gyotening “К теории цвета” asari[1] da ayniqsa ranglarning (fokal) soya (fokal)lari haqida faktli fikrlar bildirilgan.

Maqolada qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

**Muhokama.** Ko‘pchilik xorij olimlari B.Berlin va P.Kay nazariyasini[2] rang tushunchalarining tuzilishini belgilaydigan iqtisodiy va mehnat faoliyatining o‘ziga xos tarixiy tahlili yo‘qligi uchun qoralaydilar. Ushbu bilim bo‘shlig‘i keyingi davr tilshunoslari tomonidan allaqachon to‘ldirilmoqda. Agar birinchi bosqich haqida gapiradigan bo‘lsak, unda ko‘plab manbalar oq va qora, ya’ni ikkilik qarama-qarshiligining ustuvorligini ishonchli tarzda ifodalaydi: dastlab inson hayoti ikki omil - kunduzi va tun qorong‘iligi bilan tartibga solingan. Yorug‘lik faollik va quyoshning issiqligi bilan, tun qorong‘iligi esa passivlik, sovuqlik va sir bilan bog‘liq bo‘lgan. Bunday qarashdan esa oq, oqlik, yorug‘lik va qora, qorong‘ulik, qorong‘uning salbiy ma’nolarining ijobiy ma’nolari majmuasi kelib chiqadi, bular esa aksariyat til madaniyatlari uchun barqarordir.

*whiter than white* - oqdan oq (idioma) – (odamning) butunlay halol va axloqiy jihatdan mukammal ekanini ko‘rsatadi;

*white hope*- oq umid (norasmiy) – jamoaga, tashkilotga va hokazolarga muvaffaqiyat keltirishi kutilayotgan shaxs;

*white lie*- oq yolg‘on – zararsiz yoki mayda yolg‘on, ayniqsa, biror kishini xafa qilmaslik uchun aytiladigan yolg‘on;

*the Black Death*- Qora o‘lim- 14-asrda Yevropa va Osiyoda millionlab odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan o‘ta og‘ir yuqumli kasallik (bubonli vabo deb ataladi) uchun qo‘llanilgan nom;

*blacklist*- qora ro‘yxat- tashkilot yoki hukumat nomaqbul deb hisoblagan va undan qochish kerak bo‘lgan odamlar, kompaniyalar, mahsulotlar yoki mamlakatlar nomlari ro‘yxati;

*Nina shot him a black look*- Nina unga qora ko‘z bilan qaradi (g‘azablangan, g‘azab yoki nafratga

to'la). Kelajak juda qora ko'rinadi (ruhsizlik, umidsizlik). Qora komediya- yoqimsiz yoki dahshatli narsalar, masalan, qotillik kulgili tarzda muhokama qilinadi.

Olim O. A. Yanovaya rangli lug'atni rivojlantirish tendensiyasini ilgari suradi, ya'ni, boshqa tillardagi tadqiqot natijalaridan foydalangan holda zamonaviy ingliz tilining ranglar haqidagi materiallarini mukammallashtirish[3]. Keyingi uchta rang toifasining ahamiyati ("yashil", "sariq" va "ko'k") eng avvalo, atrofimizdagi voqelikda bu ranglarga asos bo'lgan tabiiy obyektlar (suv, osmon, yer, qum) va o'simliklar rangining ustunligi bilan izohlanadi.

Ranglar haqida bildirilgan fikrlarga, xulosalarga qaramay B. Berlin va P. Kay nazariyasi hozircha benuqsonligicha qolmoqda.

Ko'p sonli tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan har qanday jiddiy nazariya singari, u bir necha bor turli tomonlarning, shu jumladan, mualliflarning o'zlari tomonidan keskin tanqidlarga uchragan. Ammo bu nazariya qanday tanqid qilinmasin, nazariya mualliflarining yutuqlari ochiqsigicha qolmoqda.

Birinchidan, tilshunoslar "asosiy rang nomlari" tushunchasini kiritdilar va shunga mos ravishda rang atamalarini tizim sifatida tavsiflash muammosiga ilmiy nuqtai nazardan yondashish imkonini beradigan tanlash mezonlarini taklif qildilar.

Ikkinchidan, mualliflar rangning ayniqsa muhim (fokal) soylarini aniqladilar va ularning "asosiy" rang nomlari bilan aloqasini o'rnatdilar. Ushbu bog'liqlik unchalik aniq bo'lmagan (ko'pgina tadqiqotchilar ingliz tilidagi natijalarni aniq takrorlay olmadilar) va unchalik universal bo'lmagan (bu kamdan-kam tillar uchun to'g'ri kelmaydi) bo'lishiga qaramay, rang nomlarini taqqoslashning boshlang'ich nuqtasi aniqlandi.

Uchinchidan, "asosiy" rang atamalarining rivojlanish evolyutsiyasining universal tabiati aniqlandi. Ba'zi tadqiqotchilar allaqachon ba'zi pozitsiyalarni rad etishlariga qaramay, Yevropa tillarining katta guruhidagi "asosiy" rangli lug'atning rivojlanishidagi o'xshashlik hali ham hayratlanarli va bu holat keyingi ilmiy tadqiqotlarga yo'l ochadi deb o'ylaymiz. Shu bilan birga, turli etnik madaniyat vakillari tomonidan dunyoning ranglar turkumidagi farqlar masalasi chuqur o'rganishni taqozo qiladi. Hozirgi Yevropa tillarida

mavjud bo'lgan rang nomlari tizimi ko'p asrlar davomida rivojlandi va ona tilida so'zlashuvchilarning rang orqali ifodalanuvchi tuyg'ulari ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zgarishlarga duch keldi.

**Natija.** Ko'p miqdordagi til materiallarini o'rganish tadqiqotchilarga quyidagi xulosaga kelishga imkon berdi: turli xil inson guruhleri, turli davrlardagi turli xalqlar atrofidagi rang dunyosini turlicha qabul qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, ekstralingvistik omillarning butun majmuasi ma'lum bir rang soyasining bir vaqtning o'zida faollashishini aniqlaydi, bu nafaqat og'zaki nutqda nom oladi, balki jamiyat hayotining muayyan sohalarida (arxitektura, to'qimachilik sanoati) ustuvor o'rinlarni egallay boshlaydi. Inson tajribasi to'plangan sari tilda ham rivojlanish, ham boyish sodir bo'ladi.

Jahon madaniyati tarixida Yevropa tillarida rang belgilarining rivojlanishi jamiyatdagi o'zgarishlar bilan jadal sodir bo'la boshladi. Bu jarayonda ilmiy-texnikaviy inqilob va sanoatning keyingi rivojlanishi, xususan, to'quvchilik va bo'yashning ko'plab yangi va shu paytgacha noma'lum bo'lgan rang soylari (fokal) yaratilgan davr alohida o'rin tutadi.

Kompyuter va mobil texnologiyalar davri ko'p terminlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shunday yangi paydo bo'lgan so'zlardan biri bluetooth atamasidir. Daniya bletandining inglizcha versiyasida tuzilgan "ko'k tish" - Daniya va Norvegiya qiroli Xarald I (Harald Bluetooth) ga nisbatan epitet, u turli xil Daniya qabilalarini yagona qirollikka birlashtirgan. Bluetooth Daniyacha Bletand so'zining inglizcha ko'rinishidir - Ble ko'k degan ma'noni anglatadi - 10-asr qiroli Xarald Gormssonga berilgan g'alaba unvoni. Xarald taxminan 935-yilda tug'ilgan va taxminan 958-yilda Daniya qiroli va 970-yilda Norvegiya qiroli sifatida hukmronlik qilgan.

Bluetooth texnologiyasi 1994-yilda Shvetsiyaning Ericsson kompaniyasi tomonidan ixtiro qilingan bo'lib, uni bir nechta Daniya qabilalarini va Norvegiyaning bir qismini yagona qirollikka birlashtirgan Skandinaviya qirolining sharafiga nomlashni o'rinli deb topishgan.

Gap shundaki, Bluetooth qurilma sifatida aloqa protokollarini bitta universal standartga birlashtiradi. Bluetooth atamasi metaforik



antonomaziya kelib chiqadi va rang bilan bog'liq emas.

Antonomaziya - bu tarixiy shaxs, adabiy qahramon yoki boshqa umumiy o'ning ismini almashtirish orqali o'ziga xos yoki tegishli xususiyatlarni belgilash uchun stilistik qurilma. U so'zning mantiqiy va nominal ma'nolarining o'zaro ta'siriga asoslanadi, shaxs/hodisaning asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatadi.

Antonomaziya badiiy adabiyot va jurnalistikaga xosdir. Biroq, ko'k rang belgisi ushbu qurilma bilan bog'lana boshlaydi, bu simulyatsiya neologizmlarning paydo bo'lishiga yordam beradi, masalan: *bluejacking*- qabul qiluvchining xohish-istaklaridan va bu xabarning uning uchun ahamiyatidan qat'iy nazar, Bluetoothni qo'llab-quvvatlaydigan qurilmaga xabar anonim tarzda yuborilgan spamning bir turi; *bluechalking* - Bluetooth orqali suhbatlashishni istaganlar tomonidan foydalaniladi, kiyimdagi chiziqlar, stikerlar, tatuировkalar ko'rinishidagi ma'lum ramziylik.

**Xulosa.** Demak, hozirgi davrda tilshunoslarning e'tibori rangning lingvistik

vositachiligiga qaratilar ekan, bu masala nihoyatda keng ko'lamlı tadqiqni talab qiladi. Va, albatta, ular orasida quyidagilar alohida o'rin egallaydi: rang nomlarining shakllanish tarixi va ularning diaxroniyada rivojlanishini tahlil qilish, turli tillarda rang belgilarining milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlash, rangni bildiruvchi leksik birliklarning semantik o'ziga xosligini izohlash, rang nominasiyasining kognitiv jihatlarini antropotsentrik substansiyada ilmiy jihatdan asoslash. Bu masalalar tadqiqi tilshunosligimizda qilinayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida muhim o'rin egallayotir desak bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Гёте. К теории цвета 1810. Москва. С-188.
2. Berlin B. Basic colour terms: their universality and evolution / B.Berlin, P. Kay. – Berkeley: University of California Press, 1969.С-207.
3. English Adjective: Enjoy the World of variety. Английское прилагательное: окунись в мир разнообразия. Серякова И. И., Яновая О. А.2009. Киев. С-178.



## NEMIS TILIDAGI ES OLMOSHI VA UNING ISHLATILISHIDAGI BA'ZI XUSUSIYATLARI

*Gulnora Abdullayeva, UrDU katta o'qituvchi*

## МЕСТОИМЕНИЕ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ И НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЕГО УПОТРЕБЛЕНИЯ

*Гулнора Абдуллаева, старшая преподаватель УрГУ*

## PRONOUN IN THE GERMAN LANGUAGE AND SOME FEATURES OF ITS USE

*Gulnora Abdullayeva, senior lecturer, Urgench State  
University*



E-mail:  
[gulnora2003@mail.ru](mailto:gulnora2003@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nemis tilidagi olmoshlar, ularning turlari, vazifalari va qo'llanilishi, shuningdek, bu boradagi ilmiy izlanishlarga atroflicha to'xtalangan holda, xorijlik hamda mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlariga o'z munosabatini bildirgan.

**Kalit sozlar:** olmosh, olmosh turlari, shaxssiz olmosh, sintaktik pozitsiya, grammatik kategoriya, shaxssiz konstruktsiya, korrelat.

**Аннотация:** В этой статье подробно рассматриваются немецкие местоимения, их виды, функции и употребление, а также научные исследования на эту тему, автор статьи выразил свою реакцию на работы зарубежных и отечественных ученых, анализ которых был представлен.

**Ключевые слова:** местоимение, виды местоимений, безличное местоимение, синтаксическая позиция, грамматическая категория, безличная конструкция, коррелят.

**Annotation:** This article takes a detailed look at German pronouns, their types, functions and usage, as well as scientific research on the topic; the author of the article expressed his reaction to the work of foreign and local scholars.

**Key words:** pronoun, types of pronouns, impersonal pronoun, syntactic position, grammatical category, impersonal construction, correlate.

### KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda an'anaviy tilshunoslikdan farqli ravishda, olmoshlar o'z kategoriyasiga ko'ra, bir-birining o'rnini egallaydigan birlik kabi, shu bilan birga o'tli birikmalar yoki determinant birliklar kabi intransitiv artikl sifatida kishilik olmoshlarining variantlarini ifodalaydi. Olmoshlar asosiy kategoriyada an'anaviy

qarashlarga ko'ra so'z turkumlaridan farq qiladi. Nutqda relyativ munosabatlarni shakllantiradigan element hisoblanuvchi olmoshlar o'zining leksik-grammatik vazifasidan tashqari nutqiy vaziyatga qarab turlicha stilistik vazifalarni ham bajaradi va emotsional-ekspressiv ottenkalarni vujudga keltiradi. O'zbek tilshunosligida ham olmosh so'z turkumi haqida tadqiqotlar salmog'i anchagina<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> X.Жамолхонов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.Фан. 1966.; Ўзбек тили грамматикаси. 1том. "Фан" нашриёти, Т.1975; Русская грамматика. Т.1. "Наука". М.1982; А.Ҳожиёв. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. "Ўқитувчи", Т.2007; Ш.Раҳматуллаев. Тил қурилишининг асосий бирликлари. "Университет". Т.2002; X.Неъматов, P.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т. "Ўқитувчи". Т.1995; X.Неъматов, O.Бозоров. Тил ва нутқ. "Ўқитувчи". Т.1993.

А.Ходжиев, А.Нурманов, Н.Махмудов. Спорные вопросы в системе словообразования тюркских языков. Советская тюркология.1989. №2. Ш.Ў. Мирзакулов. Ўзбек тилида сўз ясалиши маъноси ва парадигмаси. Автореферат. Самарқанд. 1995. Ўзбек тили грамматикаси. 1том. Морфология. "Фан" нашриёти, Т.1975. А.Фуломов, М.Аскарлова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. "Ўқитувчи", Т.1987. P.Сайфуллаева, Б.Менглиев, Г.Боқиева,

Suningdek, nemis tilida “es” shaxssiz olmoshining o‘zbek tilidagi ma’noviy hamda funksional-semantik jihatdan tadqiq qilish zaruriyati “es” shaxssiz olmoshi bo‘yicha bir qancha tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘zlarning inson, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat singlarlarni ifodalashdagi o‘ziga xos jihatlarini belgilash maqsadida ularni muayyan guruhlar va turkumlarga ajratgan holda tahlil etish borasida tilshunoslar yakdildirlar. O‘zbek tili leksik-grammatik tizimida alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan olmoshlar ham so‘z turkumlari orasida mustaqil guruh sifatida e’tirof etib kelinmoqda-ki, bu e’tirof ma’lum nazariy asoslarga ega. So‘z turkumlarining, jumladan olmoshlarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi haqida S.Ashirboyevning “O‘zbek tili grammatik qurilishining o‘rganilish tarixidan (1875-1917-yillardagi rus turkologlari asarlari asosida)” mavzusida yozilgan nomzodlik dissertasiyasi va J.Eltazarovning “So‘z turkumlari haqida lingvistik nazariyalar” nomli monografiyasida ma’lumotlar batafsil berilgan<sup>2</sup>. O‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab o‘zbek olimlari ham grammatikaga oid asarlar yarata boshladilar. Q.Ramazon va X.Qayumiy, X.Qayumiy va S.Dolimov, O.Usmon va B.Azizovlar ham muallifliklarida yaratilgan qo‘llanma va darsliklar shular jumlasidandir. Bu asarlarda olmoshlar haqida ayrim ma’lumotlar berilgan.

U.Sanaqulovning doktorlik dissertasiyasida olmoshlar evolyutsiyasi xususida ham so‘z yuritilgan. Unda To‘nyuquq, Kultegin, Oltin yoruq kabi yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan ban (men), na, kanty (kandy), o‘z, qamug‘- qamuq (hamma, barcha), alqu (hamma), anaqaya (ana-mana), sa-si (sen), yshyl, oshal, shyl, ysh, oshny, ashny, na-ns, nschyk, mlyk, nstsk, nsgu, nssha, qay, qach, qan, qanda, qayan singari olmoshlar tahlil qilingan<sup>3</sup>. Shuningdek, V.V.Vinogradov, E.D.Polivanov,

X.Altenmyuller, A.Eschbach, M.L.Fisher, H.G.Konsalik, X.Ziergiebellar tomonidan ham olmoshni alohida so‘z turkumi sifatida izlanishlar olib borganlar va Hind-Yevropa tillarida olmoshlarning tarixiy rivojlanishi nazariyalari (A.Meie, A.N.Savchenko, Yu.S.Stepanov, T.V.Gamkrelidze, V.V.Ivanov) va olmoshlarning nemis tilidagi (V.Braune, G.Paul), V.M.Jirmunskiy, N.I.Filicheva, V.G.Admoni, L.R.Zinder), shuningdek, til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat nazariyalari, shaxs/shaxs toifalari (V.Gumboldt, A.A.Potebnya, A.M.Peshkovskiy, L.Elmslev) kabi masalalarning ahamiyatini tahlilga tortganlar.

#### TADQIQOT

#### METODOLOGIYASI

Mazkur maqola oldiga qo‘yilgan muammolar yechimiga javob topish uchun qiyosiy-tarixiy metodga murojaat qilindi.

#### TAHLILLAR VA NATIJALAR

An‘anaga ko‘ra, “es” olmoshlari uchun uchta grammatik toifani ajratish odatiy holdir, uning nemis tilida mavjudligini quyida sanab o‘tish mumkin:

- 1) kishilik (shaxs) olmoshlari (das Personalpronomen): Der Arzt hielt die Hände unter *das Wasser*, dass *es* spritzte<sup>4</sup>.
- 2) ko‘rsatish olmoshlari (das Demonstrativpronomen): Wir alle, die ihn gekannt haben, wussten *es* besser<sup>5</sup>.
- 3) shaxssiz olmoshlar (das unpersönliche Pronomen): Von diesem Siege zu erzählen trieb *es* ihn, trotzdem er wusste, wie Jenny zu diesen Dingen stand<sup>6</sup>.

Biroq, lingvistik reallikda, lingvistik vaziyatlar batafsil ko‘rib chiqilsa, es olmoshi u yoki bu, majburiy yoki ixtiyoriy funksiyani bajarib, juda keng doiradagi strukturaviy-semantik gaplarning xususiyatlarini oshkor qiladi, qaysiki, o‘z ichiga olgan subyekt yoki obyekt olmoshi sifatida.

Es olmoshini faqat u mavjud bo‘lmagan pozitsiyalarda qo‘llash tildagi funksional ekvivalent va aks ettirilgan tarjima paytida foydalanish

M.Курбонова, З.Юнусова, М.Абузалова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. Т. 2006. Р.Сайфуллаева. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.2006.

<sup>2</sup> Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2005. – 270 б; дисс. автореферати. – 44 б. 11 қўлланмалар yozishgan. O‘tgan asrning 30-yillaridan

<sup>3</sup> Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.

<sup>4</sup> A. Seghers. Das siebte Kreuz. Berlin, 1955.S.223

<sup>5</sup> H. Zur Mühlen. Unsere Tochter die Nazinen. Berlin; Weimar, 1983.S.123

<sup>6</sup> Th. Fontane. Frau Jenny Treibel. Leipzig, 1973.S.127

hisoblanadi. Gap shaxssiz es olmoshi va nemis tili grammatikasida korrelyatsiya (das Correlat) atamasi ostida birlashgan es ko'rsatish olmoshi ma'nolarining qismlari haqida ketmoqda. Aynan shu faoliyat sohasi, asosan, o'quvchilarni nemis tilidagi mavjud bo'lmagan til vositalarini o'zlashtirish jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi va har safar til tarkibidagi tegishli ma'lumotlarni biror bir tilga o'tkazish variantlari va yo'llari haqida o'ylashga majbur qiladi. Es olmoshi darajalar tizimida biroz boshqacha o'rinda turadi. U, ham ikki qismli jumalarda birikma, ham umumiy -jumlar va egasi yo'q, kesim esa passiv subyekt bilan ifodalangan bir qismli jumalarda ham uchraydi. Masalan:

*Es waren einmal zwei Brüder, Franz und Ferdinand. ...es fehlte wenig, so war ich ganz betrunken. Es bleiben tot die Toten, / Und nur der Lebendige lebt. Es wollte heute keine rechte Wärme aufkommen... Es wurde auf dem Balkon oder unter dem großen Kastanienbaum gefrühstückt*<sup>7</sup>.

Uning sintaktik pozitsiyasining ba'zi bir beqarorligi, ya'ni es gapning bo'lagi emas, balki, nemischa jumlada faqat birinchi sintaktik o'rinda, va, unga qisman mansubligi haqidagi munozarali tortishuvlar tasdiqlanib, nemis tili grammatikasida uning bir qator notalarida ham uchrashi, xususan, tilshunoslarning semantik bo'shliqni terminologik formallik bilan mustaqil gap bo'laklariga tegishli deb topish istagidan dalolat beradi (die Begriffswörter), cp.: das satzeröffnende Formwort, präludierendes *es*, das Füllwort, das Füllstück, der Platzhalter, der Autakt. Shu bilan birga, bu qurilish elementining lingvistik vazifasi, intonatsiyadagi roli iboraning milliy to'liqligi, shuningdek, uning shartliligi gaplarni mavzu-rematik bo'linish vazifalarining paydo bo'lishi quyidagi misollarda yaqqol ko'rinadi:

*Es waren viel Menschen und viel Betrieb, es wurde erzählt und gelacht, immer kurz und quer durcheinander ging es. Aber ich schätze, es würden sich wenige finden, die meinen Sinn für Humor teilen. Und es begann Tony Buddenbrocks dritte Ehe. Das wahr alles sehr geschickt gesagt. Und es ließ sich darauf kaum etwas entgegenen. Es tat ihr nicht nur der Fuß weh, sondern auch der Rücken. -Warum haben Sie eigentlich solche Angst? -Weil es damals vor vielen Jahren nicht alles in Ordnung war?*

Ba'zi tilshunos olimlarning bu boradagi fikrlarini to'g'ri deb qarashlar ham mavjud, negaki ular es ni nemis tilidagi olmoshlar safiga emas, balki yuklamalarning grammatik kategoriyasiga (die Partikeln) kiritadilar, chunki bu yuklama butunlay desemantizatsiyalanganligi sababli, gapda faqat sof grammatik vazifa bajaradi.

Nemis tilida ishlatiladigan shaxssiz es olmoshi til tarkibiy jihatdan majburiy element sifatida – grammatik subyekt - har xil turdagi qo'shma otlar bilan birgalikda predikat, shuningdek, og'zaki predikat bilan, birinchi qarashda, tushunish va assimilyatsiya qilish uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'dirmaydi:

Damals war *es* Abend und Herbst.

Mittlerweile war *es* Frühling geworden, ...

Den anderen Tag war die Welt wieder in Ordnung, und *es* war wieder Schule nach wie vor.

In ihm war *es* leer.

Eine Weile bleibt *es* still, dann ... .

Muss ich auch der noch klarmachen, dass *es* nicht allein um mich geht?  
antwortet Theo.

Aber Timo ist der Meinung, nun langt *es*.

Bei Ihnen muss *es* gleich krachen, bis Sie etwas merken.

To'g'ri, shakllardan foydalanishda o'zgaruvchanlik erkinligi kichik mavzu es yoki shaxssiz jumalarda uni rad etish, ham og'zaki, ham qo'shma nominal predikat bilan ketma-ketlikda kuzatilishi mumkin va nemis tili uchun juda xarakterli ikki qismli jumalarga moyillik bor, hattoki sof rasmiy til ham, yuqoridagi misol bilan solishtirganda o'quvchilarda ma'lum bir tushunmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan: Und nun *ist Mittag*, und die schwere, brütende Hitze lagert über dem Walddorf.

Ko'pincha, jismoniy yoki hissiy holatni ifodalovchi jumalarda shaxssiz es mavjud emas. Buning egasi Dativ yoki Akkusativ to'ldiruvchisi bilan ifodalanadi. Ko'pincha bunday to'ldiruvchi shaxsiy olmoshdir, lekin umumiy yoki atoqli ot ham uchrab turadi.

Masalan: Es war ein herrlicher Frühsommertag, aber mir war schwer ums Herz. Sie fühlte, wie es ihr kalt um das Herz wurde.

<sup>7</sup> Th. Mann. Gesammelte Werke, Bd I. Berlin, 1983.S.118



Je lauter und heftiger die Mutter konversierte, ... desto beklommener wurde ihr. "Das ist mir neu", sagte der Riese. Ihm wurde unheimlich. ... da graute ihm doch vor der heißen mittäglichen Arbeit.

Plötzlich fror ihn – er war so nahe am Ziel. Geschke hörte genau mit zu... Es fröstelte ihn.

... mir schwindelte, wenn ich daran dachte, dass ich nur die Hälfte dieser Leute am Ende kennenlernen musste.

Mich ekelt davor, weißt du? Ich mag keine Frösche“, sagte sie... „Es ekelt mich.“

Da wurde der Frau eiskalt.

Shuni tan olish kerakki, es ning to'g'ridan-to'g'ri obyekt sifatida ishlatilishiga oid taqdim etilgan misollarda biz deyarli butunlay desemantsiyalangan olmoshga duch kelamiz, qaysiki faqat juda shartli ravishda indikativ deb hisoblanishi mumkin.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu maqolada keltirilgan materiallar lingvistik voqelikning real faktlari bo'yicha faqat bir qator individual kuzatishlarni aks ettiradi, qamrab olishning to'liqligi va umumlashmalarning chuqurligini da'vo qilmaydi. Bunda, asosan, es ning fe'l bilan munosabatlari, ularning o'zaro bog'liqlik doirasi xilma-xilligi va qanchalik boy ekanligi tahlilini amalga oshirishga harakat qilindi hamda ushbu muammoga qiziquvchi tadqiqotchilarga nemis tili grammatikasi yuzasidan tadqiqolarni ishonarli dalillar asosida amalga oshirish imkoniyati ham taqdim qilindi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.Жамолхонов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.Фан. 1966.; Ўзбек тили грамматикаси. 1том. “Фан” нашриёти, Т.1975

2. В. Г. Адмони, Введение в синтаксис немецкого языка, М. 1973

3. М. Г. Арсеньева, I. А. Зыганова. Грамматик der deutschen Sprache. S. 257

4. U. Danella. Eine Heimat hat der Mensch. München, 1984.

5. Duden. Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. PC Bibliothek. Mannheim, 2000.

6. А. В. Федоров, Н. Н. Кузнецова, Е. Н.

Морозова, И. А. Цыганова. Немецко-русские языковые параллели. М., 1961. С. 205.

7. O. Behagel. Deutsche Syntax. Heidelberg, 1924. Bd. 2. S. 124.

8. Th. Mann. Gesammelte Werke, Bd I. Berlin, 1983.

9. H. Hesse. In der alten Sonne. Leipzig, 1977.

10. L. Feuchtwanger. Erfolg. Berlin 1956

11. U. Danella. Alles Töchter aus guter Familie. München, 2003.

12. A. Seghers. Die Toten bleiben jung. Berlin, 1953.

13. H. Borgelt. Das war der Frühling von Berlin. München, 1980.

14. H. Fallada. Wolf unter Wölfen. Berlin, 1954.

15. E. M. Remarque. Drei Kameraden. Moskau, 1960.

16. A. Seghers. Die Toten bleiben jung. Berlin, 1953.

17. A. Seghers. Das siebte Kreuz. Berlin, 1955.

18. H. Zur Mühlen. Unsere Tochter die Nazinen. Berlin; Weimar, 1983

19. Th. Fontane. Frau Jenny Treibel. Leipzig, 1973



## ZAMONAVIY QISSALARDA XARAKTER YARATISH IZLANISHLARI

*Nizomov Farxod Muso o'g'li, Navoiy davlat universiteti  
o'qituvchisi, tayanch doktorant*

## QUESTIONS FOR CHARACTER CREATION IN MODERN SHORT STORIES

*Nizomov Farkhod Muso o'g'li, Teacher of Navoi State University,  
doctoral student*

## ВОПРОСЫ ДЛЯ СОЗДАНИЯ ХАРАКТЕРОВ В СОВРЕМЕННЫХ РАССКАЗАХ

*Низомов Фарход Мусо оглы, преподаватель Навоийского  
государственного университета, докторант*



<https://orcid.org/0009-0000-7572-4781>

e-mail:

[farkhodnizomov22@gmail.com](mailto:farkhodnizomov22@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada adabiyotshunoslikda keng o'rganilgan mavzulardan biri adabiy xarakter masalasiga oid ba'zi mulohazalar bildirilgan. Uning turlari va yaratish mashaqqatlari, yozuvchi badiiy mahorati, uslubining bu boradagi roli, epik tur janrlarida xarakterning ahamiyati kabi masalalarga asosli fikrlar bildirishga harakat qilindi. Istiqloq davri o'zbek nasrining ikki mohir vakili Abduqayum Yo'ldosh va Luqmon Bo'rixon qissalari asosida mavzu yoritilgan. Ularning xarakter yaratishdagi ijodiy yondashuviga oid tahlillar keltirilgan. Fikrlarni asoslashda atoqli adabiyotshunos olimlarning nazariy qarashlari hamda jahon adabiyotining ayrim namunalari murojaat etilgan.

**Kalit so'zlar:** obraz, xarakter, konflikt, estetik ideal, psixologik tasvir, uslub, qissa, vatanparvar shaxs, o'qituvchi, bola, zamonamiz qahramoni xarakterlari, tip.

**Abstract:** In the article, one of the widely studied topics in literary studies is expressed some comments on the question of literary character. An attempt was made to express reasonable opinions on issues such as its types and difficulties of creation, the writer's artistic skills, the role of his style in this regard, and the importance of character in epic genres. The topic was discussed during the analysis of the stories of Abdukayum Yoldosh and Lukman Borikhon, two skilled representatives of Uzbek prose of the independence period. Analysis of their creative approach to character creation is provided. In justifying the opinions, the theoretical views of famous literary scholars and some examples of world literature were referred to.

**Key words:** image, character, conflict, aesthetic ideal, psychological image, style, story, patriotic person, teacher, child, characters of the hero of our time, type.

**Аннотация:** В статье, одной из широко изучаемых тем в литературоведении, выражены некоторые комментарии к вопросу о литературном характере. Предпринята попытка высказать обоснованные мнения по таким вопросам, как его виды и трудности создания, художественное мастерство писателя, роль его стиля в этом отношении, значение персонажа в эпических жанрах. Данная тема обсуждалась в ходе анализа рассказов Абдукаюма Юлдоша и Лукмана Борихона, двух искусных представителей узбекской прозы периода независимости. Приведен анализ их творческого подхода к созданию персонажей. При обосновании мнений были приведены теоретические взгляды известных литературоведов и некоторые примеры мировой литературы.

**Ключевые слова:** образ, персонаж, конфликт, эстетический идеал, психологический образ, стиль, рассказ, патриотическая личность, учитель, ребенок, характер героя нашего времени, тип.

**KIRISH.** Xarakter, obraz, tip kabi istilohlar, ular o'zida mujassamlashtirgan vazifalar badiiy asarlarning yaratilishida muhim asos vazifasini bajaradi. Chunonchi, asli vazifasi insonshunoslik bo'lgan badiiy adabiyot namunalari, eng avvalo, inson obrazini, bu obrazning xarakter sifatida shakllanishi va ularning faoliyati mukammallashib, adabiy tip darajasiga ko'tarilishi sifatida namoyon bo'ladi. Jahon adabiyotining Gerakl, Odissey, Axilles (Gomer), Farhod, Majnun, Iskandar (A.Navoiy), Otello, Gamlet (Shekspir), Onegin (Pushkin), Pechorin (Lermontov), Taras Bulba (Gogol), Hojimurod, Andrey Bolkonskiy (A.Tolstoy), Radion Raskolnikov, Dmitriy Karamazov (F.Dostoyevskiy), Martin Iden (J.London), Santyago (Xeminguey), Otabek, Anvar (A.Qodiriy), Navoiy, Yo'lchi (Oybek), Tanaboy, Edigey, Bo'ston (Ch.Aytmatov) kabi adabiy obrazlar oddiy obraz-personaj darajasidan yetuk adabiy tip darajasiga ko'tarilgan badiiy timsollar sanaladi. Sababi, bu obrazlarning barchasi davr va muallifning o'zaro munosabatlarini o'zida jamlagan hamda xarakter darajasiga ko'tarila olgan personajlardir. Har qanday obraz xoh asosiy bo'lsin, xoh ikkinchi darajali qahramon bo'lsin bu personajlarda qisman bo'lsa-da, muallif xakteri aks etadi. Yozuvchi shu yo'l vositasida davr bilan munosabatga kirishib, fikr va qarashlarini namoyon etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Bu dolzarb masala Arestotel, V.Belinskiy, L.Timofeyev, V.Jirmunskiy, A.Veselovskiy, M.Xromchenko, M.Baxtin, D.Blagoiy, I.Sulton, M.Qo'shjonov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, T.Sarimsoqov singari yetuk adabiyotshunoslarning turli tadqiqotlarida ham atroflicha talqin qilingan. Masalan, akademik Izzat Sultonning yozishicha, "Badiiy asarda ozmi-ko'pmi tafsilot bilan tasvir etilgan, personaj, obraz yoki xarakter deb ataladi. Xarakter (obraz) insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviridir. Xarakter ma'lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishiga xos xususiyatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi, xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir"[7;191-192-betlar], desa "Adabiyotshunoslik lug'ati"da: "Xarakter – (yun. character-iz, belgi, farqlovchi xususiyat) – badiiy xarakter; muayyan davr va muhit

kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi" [5;352-bet], deya qayd etilgan.

To'g'ri, faqat yirik miqyosli adabiy qahramonlar (Gerakl, Farhod yoxud Gamlet kabi) emas, balki hayoti, ma'naviyati to'kis ochib berilgan hajman kichikroq obrazlar ham xarakter darajasiga ko'tarilgan bo'lishi mumkin. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonidagi (A.Navoiy) Shopur, "Xo'jayin va xizmatkor" (L.Tolstoy) qissasidagi Nikita, "Oq kema" qissasidagi Mo'min bobo, O'rozqul (Ch.Aytmatov) kabi yetuk, xarakterlar bilan birga, Bola, Qulibek, Qoratoy singari personaj-obrazlar ham mohiyatan xarakter darajasida tasvirlangan.

#### **MUHOKAMALAR VA NATIJALAR.**

Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov: "Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtayi nazardan tasvirlashi bilan bir-biridan farq qiladi. Eng qisqa she'rlarda ham xarakterning nozik bir nuqtasi aks etganidek, epik asarlarda inson ruhiyati, maqsadlari butunligicha tasvirlanadi"[6;27-bet], degan mulohazalaridan ayonki, nasriy asarda tiynat – xarakter bo'rtib ifodalanadi. Abduqayum Yo'ldosh, Luqmon Bo'rixon qissalarida Otabek, Yo'lchi, Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Anvar, Kumush, Ra'no, Otaqo'zi, Ochil bobo, G'ayborov singari yirik badiiy xarakter-obrazlar kam uchrasa-da, ammo xarakter darajasidagi timsollar namunasi ham yaratilgan. Bu ikki adib ijodida uchraydigan xarakter obrazlarni shartli tarzda beshga bo'lish mumkin:

- 1.Vatanparvar shaxs xakteri.
- 2.O'qituvchi xakteri.
- 3.Bola xakteri.
- 4.Chin oshiqlar xakteri.
- 5.Zamonamiz qahramonlari xakteri.

"Sunbulaning ilk shanbasi" qissasidagi [8;3-72-betlar] Abdiqayum (ya'ni roviy) – bu qahramon o'zining sadoqatliligi, adabiyotning o'lmas mavzusiga aylangan oshiq-ma'shuqqa bergan beg'araz yordami, ularning sevgisidan ilohiy kuch olib, pok qalbdan qilingan e'tiqodi, chin do'stligida, shu bilan birga, oshiq yigit (asarda sheriklari Dovdir deb atashadi) va Suluv munosabatlarida, beg'ubor orzular ro'yobi uchun qilingan kurashlarda hayotiylik yuzaga chiqadi. Mazkur o'rinlar ularni xarakter darajasidagi obraz deyishimizga, bizningcha, yetarli.

“Jadid” qissasidagi [9;223-302-betlar] bosh qahramon Ubaydulla Xo‘jayevning haqiqiy vatanparvar, dorulilm sohibi, e‘tiqod-u diniy-ma‘rifiy tarbiyasi, turli sud ishlarida o‘z yurtdoshlarini qo‘rqmasdan dadil himoya qilishida, ulug‘ adib L.Tolstoy bilan yozishmalardagi o‘tkir mulohazalari, hukumat rahbari, yozuvchi va tarjimon sifatida amalga oshirgan ishlarida haqiqiy vatanparvar xarakter egasini uchramiz. Hattoki, shu obrazga konflikt sifatida tasvirlangan Mixail Yefremov obrazidagi o‘ziga ishonch, rus shovinizm g‘oyalarini nihoyatda yuqori darajadagi ko‘rinishining shu obrazda ifodalanishi ham tiynatdir. “Ishq sadolari va gadolari” [10;194-318-betlar] qissasidagi Nurali obrazida va‘daga, qasamga, ahdga sadoqat, Nafisa obrazida ishonch, ota-onaga hurmat-izzat, ularni qo‘llab-quvvatlash kabi samimiy munosabatlarning yorqin ifodasini ko‘rishimiz mumkin, va albatta, bu obrazlarga konflikt sifatida Rajab obrazini ham xarakter darajasiga ko‘tarish mumkin. Nuraliga havas qilgan holda u ham yosh, go‘zal, xushbichim, gaplaridan beg‘ubor, samimiy soddalik sezilib turgan qizni pinhona sevib yuradi, hatto yozuvchi buni rashk qilgan o‘rinlarda sezdirib ham qo‘ygan (boshqa o‘rinlarda oshkora aytilmagan). Ruhiyatidagi yolg‘izlik uni ich-ichidan yemirardi, oxirida onasi vafot etgan Rajab beixtiyor bog‘da sahna-lashtirilayotgan qo‘g‘irchoq teatri tomoshasidagi ovozni tanib o‘sha tomonga intiladi, go‘yoki o‘sha ich-etini yemirib yolg‘izlikka, yuragiga hukmdorlik qilgan vijdon azobi ertak yakunining yaxshilik bilan tugashining guvohiga aylanadi.

A.Yo‘ldoshning “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Shoirning muhabbati”, “Ishq savdolari va gadolari” qissalari tasvir-talqini, hikoya qiluvchi-rivoyatchi usullari, bir qaraganda, qadimgi sharqona sevgi yoki jangnoma qissalari, hatto A.Navoiyning Shayx Sanon (“Lison ut-tayr”) yoki Farhod-Shirin, Layli-Majnun, Bahrom-Dilorom ishq-muhabbati tasvirlariga o‘xshab ketgandek tuyuladi. Qissalarning obraz-xarakterlar talqini, badiiy san‘atlardan, arxitektonikasi, psixologik tahlillardan unumli foydalanish borasida esa dunyo nasrining yangicha tamoyillariga mos ravishda ekanligi bilan e‘tiborli.

Abduqayum Yo‘ldosh yaratgan “Shoirning muhabbati”[10;72-189-betlar] nomli qissasi mazmun, shakl, badiiylik jihatlarida mohiyatan quyidagicha holatda e‘tiborni tortadi. Qissada

texnika instituti tolibi Nozimning Oltinoyga bo‘lgan pokiza muhabbati qalamga olingan, asar syujetining, hayotiylik darajasining tabiiyligi Nozimning kursdoshi va yotoqxonadagi hamxonasi tomonidan hikoya qilinishi bilan izohlanadi. Buning qissa arxitektonikasidagi o‘ziga xosligi shundaki, uning hayotiy haqqoniyligi shu jarayonlarni shaxsan ko‘rgan yigit nigohi bilan tasvirlanganligi bilan izohlanadi. Bunday adabiy shakl “qissa ichra qissa” ko‘rinishidagi qoliplash poetikasini eslatadi, yozuvchi bu kabi qiziqarli shaklni chuqur psixologik tahlil, ramziylik uslubi bilan yanada o‘qimishli, qiziqarlilik bilan bezay olgan. Asar boshidan haqgo‘y, to‘g‘riso‘z, chin oshiq – Nozim va visolsiz mahbusasi Oltinoyning qismati yakunda fojiali tugaydi. Bu obrazlar muhabbat va sadoqatni tarannum etganligi, nomusni muqaddas tutishlari bilan xarakterlidir.

Yoshlarning uchuvchilik kasbiga qiziqishlariga oid badiiy talqini bilan bog‘liq “Osmon og‘ushi” qissasida [11;124-189-betlar] qahramonlararo konflikt ham qabariq aks etgan. Yetakchi obraz Eralining xarakter tadrijida bu jihatda guvoh bo‘lamiz. Dastlab, maktab yillari Sobir, Usmon kabi ko‘rolmas “do‘stlar” bilan o‘rtadagi ziddiyat, ikkinchidan, aviatsiya bilim yurtida bir necha kursdoshlari bilan o‘zaro raqobatlar, imtihonlardan yiqilish, qoniqarli baholar bilan zo‘rg‘a o‘tish, nihoyat, endi hammasi yaxshi bo‘ladi deya harbiy uchuvchilik bo‘limiga ishga o‘tgan yigitning ishxonada Tohir, Nodir kabi obrazlar bilan raqobatida Eralining chin xakteri yuzaga chiqadi. Shuncha qiyinchilik va mashaqqatlarga qaramay ko‘plab yutuqlarga erishadi, harbiy operatsiya paytida ko‘rsatgan jasorati uchun hukumat farmoniga ko‘ra “Jasorat” medali bilan taqdirlanishi esa obraz xakterining quvvatini oshiradi.

Xakterni yuzaga chiqaradigan jihatlar: sabr, intilish, hayotga muhabbat, aql, iste‘dod, o‘zlik, kurash, g‘oliblik va mag‘lublik kabi turli insoniy va ijtimoiy munosabatlardir. Luqmon Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” qissasidagi [1;14-56-betlar] Baxtiyor mustaqillikka o‘tish davridagi ishsizlik, omadsizlik, layoqatsizliklar girdobida qolib o‘zidagi iste‘dodi uchun jur‘at bilan olg‘a qadam tashlay olmagan zamon qurboni sifatida xakterlanadi, “Xizr ko‘rgan yigit” qissasidagi [1;207-288-betlar] Qorjov esa o‘z kuchi, ilmi, salohiyatiga ishonsa-da, odamlar to‘qib chiqargan e‘tiqodga hamfikir, duo



olishning omadi doim yurishib, ishi o'ngidan kelishini ifodalab beradigan, bir ishni boshlasa, oxirigacha yetkazadigan, kirishimli, samimiy xarakter xususiyatiga egadir.

“Quyosh hali botmagan” qissasida [2;56-207-betlar] Absal polvon, Norsoat, Tanzila obrazlarining xarakter darajasida namoyon bo'lishini bevosita ulardagi samimiy qishloq insonlaridagi ishonch, samimiylik, kamtarinlik, milliy ruhning bo'liq ko'rinishlarida, ayniqsa, Absal polvonning xalq urf-odatlariga bo'lgan hurmatida, kurashni e'zozlashi, hammaga halollik borasida o'rnaklik uni xarakter darajasiga olib chiqqan. Bu jihatdan, “Yulduzlar mangu yonadi” (T.Murod)ning Bo'ri polvoniga muqoyasa qilish mumkin. Shuningdek, qissada bolalar (Norsoat, Tanzila)ning yangi muhitga o'rganish jarayonidagi ziyraklik gruzin adibi Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasi syujeti va hikoya qahramoni Yanguli obrazi xarakteriga o'xshab ketadi. Ushbu qahramon timsolida vatanparvarlik, erksevarlik xarakterlarini ham kuzatish mumkin.

Yozuvchining “Sirli muallim” qissasida [3;65-127-betlar] Najot G'aybullay, direktor Qalqonov, muallim B.Boymurodov obrazlarining xarakter darajasida namoyon bo'lishini ham kuzatish mumkin. Qissada Najot G'aybullaning dars jarayonini qiziqarli tashkil etishi, darsliklar yetishmasligidan qiyalayotgan maktabga o'z mablag'idan darsliklar olib keltirishi, o'ziga ajratilgan sinf xonani jihozlashi, o'quvchilarni dars davomida o'rgangan narsalarini yaxshi esda saqlab qolish uchun tropik meva, ya'ni banan bilan dars jarayonini olib borishi kabi o'rinlarda uning bugungi o'qituvchi qanday bo'lishi kerak, savoliga chin ma'noda javob bo'ladi. U rasman hech qayerda o'qimagan, ammo diplomni olishning imkoniyatini eplagan. Asar sarlavhasi, bosh qahramon ismida ham shu jihat nazarda tutiladi. Bunga sabab maktab, kasb va o'quvchilarga bo'lgan cheksiz muhabbatdir. Bu asardagi tushuntirish xatlarida ham bayon etiladi. Maktab hayotidagi turfa ziddiyatlar fonidagi qissada haqiqiy o'qituvchi xakteri yuzaga chiqadi. Bu o'rinda Dyushen (Ch.Aytmatov) qahramoniga o'xshab ketadi.

L.Bo'rixonning matbuotda ko'p bahs etilgan “Olis qo'rg'on fuqarosi” qissasi [4;3-67-betlar] favqulodda voqealarga boyligi, badiiy xronotopning mukammalligi, ramziylik va adabiy detallarning sermazmunligi, xalq og'zaki ijodi tasviriga moyilligi va muallif ifoda uslubi jihatidan o'ziga xos asar.

Unda o'z qishlog'iga ko'ngil qo'ygan No'mon ismli bolaning ko'ngil qo'rg'onidagi kontrastlar, o'smir yigit psixologiyasi, o'rtoqlaridan kulgiga qolsa ham, ertangi kunga ishonchini yo'qotmagan mard, to'g'riso'z bola obrazi g'aydalanadi. O'z qalbining, tug'ilgan go'shasining, o'qigan kitob-u dostonlarining ta'sirida yuradigan, ulardek qahramonliklar bajarishga intilgan bola xakteri aks etgan. Uning otasi – Qulmurod bobo siymosida shoshqaloq, behafsala, qiziqqon, ayni paytda qat'iyatli, hayotga rost boqadigan odam timsoli g'aydalanadi. Muallif qissada ota-bola obrazini savqi tabiiylik bilan, jo'n usulda puxta tasvirlaydi. Voqelik folklorning ertak va dostonlariga o'xshaydi. No'mon timsolida o'zligida bo'lgan xatoliklarni yengishga harakat qilayotgan shaxsni ko'ramiz. Bu esa xakter mazmunini boyitgan.

**XULOSA.** Demak, istiqloq davri qissalarida xakterning yangicha ko'rinishlari mazmuniy va shakliy jadal, izchillik bilan rivojlanmoqda. Mualliflar mukammal xakter yaratish yo'lida muntazam ijodiy izlanishdalar. Mazkur masalada kengroq mazmunda ilmiy mulohazalar va ilmiy tadqiqot faoliyatlarini olib borish mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Бўрихон Л. Қуёш ҳали ботмаган.//Бир томчи ёш. Қиссалар ва ҳикоялар. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б.14-56.
2. Бўрихон Л. Қуёш ҳали ботмаган. Қиссалар ва ҳикоялар. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б.56-207.
3. Бўрихон Л. “Сирли муаллим” //қисса ва ҳикоялар. Тошкент: “Рead book” нашриёти, 2024. 65-127-бетлар.
4. Бўрихон Л. Тун қаъридаги шуъла// Олис қўрғон фуқароси, қисса ва ҳикоялар. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2014. 3-67-бетлар.
5. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент “Академнашр”, 2013.- Б.352.
6. Расулов А. Адабий хактер/ Бадийлик – безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. Тошкент: Шарқ, 2007. 27 бет.
7. Султон И. Адабиёт назарияси. “Ўқитувчи”, - Тошкент-1980, 191-192-бетлар (392 бет).
8. Йўлдошев А. Ишқ афсунари.//Сунбуланинг илк шанбаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б.3-72.
9. Юлдошев А. Шараф йўли// Жаид (қисса). – Тошкент: “Саҳҳоф”, 2023. Б.223-302.
10. Йўлдошев А. Ишқ афсунари.// Ишқ садолари ва гадолари. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б.194-318.
11. Йўлдошев А. Осмон оғуши. Қиссалар ва ҳикоялар. Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2018, 124-189-бет.

## ТАЛАБАЛАРДА МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ТЎҒРИ РИВОЖЛАНТИРИШ

*Курбанбаева Мукаддас Козибаетна,*

*Тошкент гуманитар фанлар университети "Тиллар ва педагогика" кафедраси ўқитувчиси*

## ПРАВИЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ У СТУДЕНТОВ

*Курбанбаева Мукаддас Козибаетна,*

*Преподаватель кафедры "Языки и педагогика" Ташкентского гуманитарного университета*

## CORRECT DEVELOPMENT OF SKILLS OF INDEPENDENT WORK IN STUDENTS

*Kurbanbaeva Mukaddas Kozibaevna,*

*Lecturer at the Department of Languages and Pedagogy of Tashkent University of the Humanities*

**Аннотация:** Мазкур мақолада олий таълимда, хусусан педагогика ва психология фанларини ўрганишда мустақил ишнинг роли, талабалар билимини ошириш ва мустақамлашдаги аҳамияти ҳақида гап боради.

**Калим сўзлар:** мустақил фаолият, мустақил фикрлаш, креатив гоя, хулоса, билим, малака, кўникма.

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли самостоятельной работы в учреждениях высшего образования, особенно при изучении педагогики и психологии, и ее значении в совершенствовании и закреплении знаний студентов.

**Ключевые слова:** независимая философия, независимое мышление, творческие идеи, резюме, знания, навыки.

**Abstract:** This article discusses the role of independent work in higher education, in particular in the study of pedagogy and psychology, and its importance in increasing and strengthening students' knowledge.

**Key words:** independent activity, independent thinking, creative idea, conclusion, knowledge, qualifications, skills.

**Кириш.** Бугунги кунга келиб давлатимизда кечаётган ўзгаришларнинг асосий мақсади жамиятда фаровон ҳаёт қурувчилари бўлмиш ёш авлоднинг таълим олишлари учун қулай, самарали шароитларни яратиш беришга қаратилган. Таълим тизимимизда мустақил қарор қабул қила оладиган кадрларни етиштиришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда.

Келгусида мустақил, тўғри қарорлар қабул қила олишлари учун мустақил таълим соатлари улушини ошириш, талабаларда мустақил таълим олиш, танқидий ва ижодий фикрлаш, тизимли таҳлил қилиш, тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, ўқув жараёнида

компетенцияларни кучайтиришга қаратилган методика ва технологияларни жорий этиш, ўқув жараёнини амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтириш, бу борада ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услугий материалларни кенг жорий этиш [1] Олий таълим тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари ва устувор йўналишларида кўрсатиб берилган.

**Методология ва адабиётлар таҳлили.** Мустақил ишлашга ўргатиш ҳам педагогик технологиялардан биридир. Ўқитиш технологияси биринчи бор ўтган асрнинг 50-



[gurbanbayevamuqaddas9@gmail.com](mailto:gurbanbayevamuqaddas9@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0005-7425-273X>

йилларда америкалик олим Скиннер томонидан қўлланилган. У ўқитиш технологияси психология фани ютуқларини педагогик амалиётда қўллашдан иборат”, деб таърифлаган. Беспалько фикрича, “Педагогик технология ўқитувчи маҳоратига боғлиқ бўлмаган ҳолда педагогик муваффақиятни кафолатлай оладиган ўқувчи шахсини шакллантириш жараёнининг лойиҳасидир”, деган эди.

**Муҳокама.** Олий таълимда мустақил таълим талабалар ўқув фаолиятининг муҳим бир шакли бўлиб, мустақил таълимни психологик-педагогик омиллари, метод ва усуллари билан бир қаторда талабаларда мустақил таълим олиш кўникма, малакаларини шакллантиришга, талабаларнинг назарий билимларини амалий жиҳатдан мустақамлаш орқали касбий компетентликни оширишдан иборат.

Мустақил таълимнинг асосий хусусиятлари:

\* Мустақиллик: Талабалар ўзларининг таълим жараёнини бошқаришади ва ўзларига нисбатан жавобгар бўлишади.

\* Мақсадлик: мустақил таълим аниқ мақсадларга эга бўлиши керак. Талабалар нимани ўрганиши кераклигини билиши ва бу мақсадга эришиш учун режа тузиши муҳим.

\* Фаоллик: мустақил таълим пассив ўқиш эмас, балки фаол ўрганишни талаб қилади. Талабалар ўқув материаллари билан фаол ишлаши, уларни таҳлил қилиши ва ўзларига нисбатан қўллаши керак.

\* Жавобгарлик: Талабалар ўзларининг таълим натижаларига жавобгар бўлишади. Улар ўзларининг билимлари ва кўникмаларини доимий равишда баҳолаб туришлари ва зарур бўлса, ўзларининг ўрганиш стратегияларини тузатишлари керак.

\* Ижодийлик: мустақил таълим талабаларга ўзларининг ижодий салоҳиятларини намоён этиш имкониятини беради. Улар ўрганиш жараёнида ўзларининг тажрибалари ва қизиқишларидан фойдаланишлари мумкин.

**Натижалар.** Мустақил фикрлашга, ўз билимлари асосида илмий ва амалий хулосалар чиқаришга, замонавий ижодий ғоялар муаллифига айланишга қодир ёшларни тарбиялашда ўқитувчининг энг яқин ёрдамчиси мустақил ўрганиш шаклидир. Талаба маълум бир мавзу бўйича мустақил ишлаганда, у ўзининг

кичик тадқиқотларини олиб боради, билимларини кенгайтиради, бир хил саволга бир неча хил ёндашувларни ўрганади ва ўз хулосасига келади. Шу билан бирга, у ўз ғояларини ривожлантиради ва уларни асосли тарзда ифода этишни ўрганади. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, талабалар учун юқори сифатли таълимни таъминлашда мустақил иш ҳам муҳим рол ўйнайди [2].

Маълумки, талабаларнинг фаол билимларни эгаллашлари учун мустақил таълимолишнинг ҳар қандай усулларидан фойдаланишлари талаб қилинади. Мустақил ишлаш талабалар таълимининг ажралмас бир бўлагидир. Мустақил таълимни бажарар экан талаба ҳар томонлама ўқиб изланишига тўғри келади, кўплаб адабиётларни топиб мавзусини ёритиш йўлида тинмай ҳаракат қилади. Мустақил таълим устоз назоратида ва раҳбарлигида кечадиган жараён бўлиб, бунда талаба ҳамфикрликни, тарихий тажрибаларни ўрганади, назарий билимларини ошириш, интеллектуал қобилиятларини ривожлантириб боради.

Мустақил ишлар изчил ва мақсадга мувофиқ кечиши учун унинг дастлаб режаси тузиб олиниши керак. Режада мустақил фаолиятнинг ҳар бир турига алоҳида аниқ кўрсатмалар берилади, режалаштирилган ишларининг ҳажми ва тартиби белгиланади, бажарилиш муддати белгилаб олинади. Мустақил иш кириш, асосий қисм ва хулосадан иборат 3 та асосий қисм ташкил қилади. Схемалар, расмлар киритилиши керак бўлса илова тарзида киритилгани маъқул. Агар мустақил ишда цитаталар, иқтибослар келтирилса уни қўштирноққа олинганлигига аҳамият бериш керак. Фойдаланилган адабиётлар хулосадан кейинги қисмда келтирилади.

Мустақил ишни бажариш маълум талаб ва стандартларга жавоб бериши керак. Мустақил иш матни саҳифанинг маълум чегаралари, чизма ва жадвалларнинг расмийлаштирилиши, бир хил форматдаги қоғозлардан фойдаланиши ишни сифатли ва умумий талаблар бўйича ёритилишига олиб келади.

Талабалар мустақил ишлашида самарали бўлишининг асосий кафолати сифатида адабиётларни тўғри танлай билишлари талаб

қилинади. Бу иш талабага адабиётлар ичидан мавзуга доир энг муҳимини, илмий асосланган, шу кун учун долзарб адабиётларни танлаб, аналитик-синтетик қобилиятларини ишга солишни ўргатади.

Фақат дарс давомида етарлича билимларни ола олмаслигини талабалар тушунишлари керак. Шу мақсадда улар кўпроқ мустақил таълим олиш шакллари (аудиторияда ва аудиториядан ташқарида) бажаришлари керак. Олий таълимда бўлим, боб, семестр якунидан ташқари қуйидаги ҳолларда ҳам талаба мустақил ишларни амалга ошириши керак бўлади:

- семинар машғулотларига тайёргарлик кўриш,
- ўрганилган билимларга таянган ҳолда мавзу юзасидан янги слайдлар тақдимотини ўтказиш,
- схема жадваллар тайёрлаш,
- илмий мақолалар ёзиш,
- ўқув лойиҳалар тайёрлаш,
- фан олимпиадаларида иштирок этиш ва б.

Хусусан, “Умумий педагогика ва психология” фанларини эгаллашларида, касбий компетентликларини оширишда замонавий таълим технологияларидан, интерфаол методларни киритиб, креатив ёндашилган мустақил ишнинг ҳар қандай турларини бажаришлари зарур бўлиб ҳисобланади.

“Мустақил ишлар қуйидаги турларга бўлинади:

**Эвристик мустақил ишлар** – маъруза, лаборатория, амалий машғулотлар, семинарларни мустақил равишда ҳал қилишга қаратилади.

**Мустақил тадқиқот ишлари** - тадқиқот муаммосини кўриш, уни мустақил равишда тақдим этиш, гипотезани шакллантириш, муаммони ҳал қилиш режасини ишлаб чиқиш ва уни ҳал қилишга қаратилган.

**Ижодий тадқиқотлар** - муаммони ҳал қилиш йўллари топиш, тадқиқот, дизайн ва ҳ. к.” [3].

**Хулоса.** Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, мустақил таълимнинг қуйидаги афзалликлари бор:

\* Билимларнинг чуқурлаштирилиши: Талабалар ўзлари қизиққан мавзуларга чуқурроқ шўьмул бўлишлари мумкин.

\* Мустақил фикрлаш ва муаммоларни ечиш қобилиятларининг ривожланиши: мустақил таълим талабаларни мустақил равишда фикрлашга ва муаммоларни ечишга ўргатади.

\* Ўз-ўзини бошқариш ва жавобгарликни ривожлантириш: мустақил таълим талабаларнинг ўз-ўзини бошқариш ва жавобгарликни ривожлантиришга ёрдам беради.

\* Таълимнинг самарадорлигининг ошиши: мустақил таълим талабаларнинг ўқув материалларини тезроқ ва самаралироқ ўзлаштиришига ёрдам беради.

\* Ижодий салоҳиятнинг ривожланиши: мустақил таълим талабаларга ўзларининг ижодий салоҳиятларини намоён этиш имкониятини беради.

Умуман, талабалар бўлғуси педагог, психологлар сифатида ўзларининг келажакларини тўғри кўра олсалар, таълим олишга бўлган қизиқишлари янада ортади. Рақобатбардошликни талаб қилаётган бу даврда талабалар тинмай ўз устларида ишлашлари, мустақил таълим олишни янада ривожлантиришлари керак. Таълим соҳасида таълим самарадорлиги учун, жамиятимиз равнақи учун, қандай қилса фарзандларимизни жаҳон билан бўйлашадиган кадрлар қилиб тайёрлаш мақсадида яхши маънодаги ўзгаришларни тўғри қабул қилиб, биргаликда ривожланишлари керакликларини уқтиришимиз зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармон.
2. М.Курбанбаева. Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке. (2023) TAMADDUN NURI JURNALI, 5 (44) 95-95. <https://doi.org/10.69691/9fenej09>
3. Д.Қ.Абдиева, Олий таълим муассасалари талабаларини мустақил фикрлашга йўналтириш // Замонавий таълим / Современное образование, 2019, 4 (77).
4. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Москва.: Просвещение.1997.



## PRAGMATIKA VA PRAGMALINGVISTIK TADQIQOTLAR

*Xushmanova Gulshoda Ibragimovna, Iqtisodiyot va pedagogika  
universiteti NTM katta o'qituvchisi*

## PRAGMATICS AND PRAGMALINGUISTIC RESEARCH

*Khushmanova Gulshoda Ibragimovna, Senior Lecturer, Department  
of Linguistics, University of Economics and Pedagogy*

## ПРАГМАТИКА И ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

*Хушманова Гульшода Ибрагимовна, старший преподаватель  
Экономико-педагогического университета*



<https://orcid.org/2000-0222-042x-0200>

e-mail: [gulshoda@mail.ru](mailto:gulshoda@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola pragmatika va pragmalingvistikaning tilshunoslikdagi o'рни hamda asosiy jihatlariga bag'ishlangan. Pragmatikaning tarixiy ildizlari falsafiy oqim sifatida Sokratdan beri o'rganib kelingan bo'lsa, tilshunoslikda XIX-XX asrlarda Ch.Pirs, Ch.Morris va J.Layonz kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Pragmatika til va muloqot jarayonlarida so'zlovchi va tinglovchining o'zaro aloqalarini, kontekst bilan bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Maqola pragmalingvistikaning asosiy tushunchalari: tagma'no, oshkora va yashirin tagma'no, propozitsiya va nutqiy vaziyatning tilshunoslikda ifodalanishi hamda bu sohadagi o'zbek olimlarining hissa va tadqiqotlarini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, pragmalingvistika, lingvistik pragmatika, lingvopragmatika, tagma'no, oshkora tagma'no, yashirin tagma'no, propozitsiya, nutqiy vaziyat, kontekst bilan aloqadorlik.

**Abstract:** This article is dedicated to the role and key aspects of pragmatics and pragmalinguistics in linguistics. While the historical roots of pragmatics as a philosophical movement have been studied since Socrates, it was further developed in linguistics during the 19th and 20th centuries by scholars such as C. Peirce, C. Morris, and J. Lyons. Pragmatics helps to determine the relationships between the speaker and the listener, as well as the relevance of context within language and communication processes. The article examines the core concepts of pragmalinguistics, including implicature, explicit and implicit implicature, propositions, and how speech situations are represented in linguistics. Additionally, it analyzes the contributions and research of Uzbek scholars in this field.

**Key words:** pragmatics, pragmalinguistics, linguistic pragmatics, linguopragmatics, implicature, explicit implicature, implicit implicature, proposition, speech situation, contextual relevance.

**Аннотация:** Данная статья посвящена роли и ключевым аспектам прагматики и прагмалингвистики в лингвистике. Хотя исторические корни прагматики как философского направления изучались со времен Сократа, в лингвистике она была развита в XIX-XX веках такими учеными, как Ч.Пирс, Ч.Моррис и Дж.Лайонс. Прагматика помогает определить отношения между говорящим и слушающим, а также значимость контекста в языковых и коммуникативных процессах. В статье рассматриваются основные понятия прагмалингвистики, такие как импликатура, явная и скрытая импликатура, пропозиция и способы их представления в лингвистике. Кроме того, анализируются вклад и исследования узбекских ученых в этой области.

**Ключевые слова:** прагматика, прагмалингвистика, лингвистическая прагматика, лингвопрагматика, импликатура, явная импликатура, скрытая импликатура, пропозиция, речевая ситуация, контекстуальная значимость.

**KIRISH.** “Pragmatika” (yunoncha pragma – ish, harakat, bajarilgan, ishga qobiliyati bor, ishchan) aslida falsafiy tushuncha bo‘lib, u faylasuf Sokratdan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J. Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm g‘oyalarning keng targ‘ibi boshlandi. Amerika va Yevropada bu targ‘ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Pragmatika haqidagi asosiy g‘oya amerikalik olim Ch.Pirs tomonidan o‘rtaga tashlangan. Yana bir amerikalik olim Ch.Morrisush bu g‘oyani rivojlantirgan va “pragmatika” terminini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘ziga qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl va tashqi ko‘rinishga ega emas. Uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa aralashuvidagi o‘zaro munosabatlari, aloqa aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalari kiradi. Nutq subyektini bilan bog‘liq holda biror bir axborot yoki fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, istak, iltimos, maslahat, uzr so‘rash, shikoyat; nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so‘zlashish qoidalari, so‘zlovchining maqsadi, so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar o‘rganiladi. Pragmatikada nutq adresati, o‘zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga harakat qilganlardan yana bir tilshunos G.Klaus bo‘lib, u pragmatikani “belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi” fan sifatida ta‘riflaydi. Ushbu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi, u “pragmatika dastlabki o‘rinda lisoniy

belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o‘rganuvchi nazariyadir” deb xulosa chiqaradi.

J.Layonz pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta‘rifini berishga harakat qildi: “Pragmatika tinglovchini uzatlayotgan axborotni xuddi so‘zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo‘llanishini tavsiflaydi. Pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug‘ullanadi”.

A.Kasherni pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini “qo‘yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta‘minlovchi insonga xos bo‘lgan qobiliyat qoidalari” yoritish va tushuntirish deb ta‘riflaydi. Pragmalingvistika tilshunoslikning yo‘nalishi sifatida 1970-yillardan tadqiqot obyekti sifatida o‘rganila boshlangan. Albatta, tilning pragmatic tabiati xususida qadimdan turli qarashlar bayon etilgan. Bu mavzu Suqrot, so‘ng Aristotel davrida o‘rganilgan bo‘lib, fikr ifodalashda til bilan hamohang ravishda yordamchi vositalar ham ahamiyatli ekani, tilning asosiy vazifasi aloqa-aralashuv ekan, uni ro‘yobga chiqarishda so‘zlovchi va tinglovchi asosiy figura bo‘lishi, notiqlik san‘atida fikr uzatishda ovozning sifat o‘zgarishlari, ovozning baland yoki past ifodalanishi axborotni uzatishda qo‘shimcha nozikliklar berishi aytib o‘tilgan edi.

O‘tgan asrning 20-30-yillarida falsafada alohida oqim sifatida pragmatizm g‘oyalari ham targ‘ib qilingan. Pragmatika o‘zbek tilshunosligida XXI asr boshlarida o‘rganila boshlandi. Sh.Safarovning “Pragmalingvistika”, M.Hakimovning “O‘zbek tilida matnning pragmatik tadqiqi”, “O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari”, M.Qurbonovanning “O‘zbek bolalar nutqining pragmatik aspekti” kabi asarlari bu yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan dastlabki monografik plandagi ishlar sanaladi.

M.Hakimovning “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektida tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo‘nalishning tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o‘zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan.

M.Hakimovning mazkur tadqiqoti o'zbek tilshunosligidan hozirgi vaqtda antroposentrizmning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvistik pragmatikaga doir tushuncha va terminlarning o'rin olishida muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot, xususan, nutqiy akt nazariyasi hamda matnning pragmasemantik masalalarini yoritib berganligi bilan e'tiborga molikdir. Dissertatsiyada lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berishda muhim rol o'ynashi alohida ta'kidlanadi: "Millatga bo'lgan hurmatning asl namunasi sifatida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o'zbek tili va unga xos milliy xususiyatlarni o'rganishga dunyo xalqlari intilishining qiziqishi pragmatika nazariyasiga, uning mohiyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Sababi lingvistik pragmatika nazariyasi, ya'ni nutqning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq hodisalar talqini o'sha tilga xos milliy o'ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi".

Professor Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" nomli monografiyasi ham alohida o'rin tutadi. Monografiyada Sh.Safarov til va nutq dixotomiyasi, lisoniy faoliyat, lisoniy qobiliyat, diskurs kabi tushuncha va terminlar haqidagi jahon tilshunosligida mavjud fikrlarga munosabat bildiradi. A.Nurmonovning ta'kidiga ko'ra mazkur monografiya yuqori saviyada yozilgani bilan ajralib turadi va o'zbek tilshunoslarini tilshunoslikning yangi yo'nalishi bo'lgan pragmalingvistika muammolari bilan chuqur va atroflicha tanishtiradi. M.Hakimov, M.Gaziyevlar tomonidan nashr etilgan "Pragmalingvistika asoslari" darsligi pragmalingvistika borasidagi izlanishlarni yengillashirdi, deyish mumkin. Mualliflar aytganidek, "magistr talabalarning "Pragmalingvistika" kursini o'zlashtirishlarida hamda bu mutaxassislikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan izlanuvchilarning fanga doir tayanch tushunchalarni egallashlarida "Pragmalingvistika asoslari" darsligi ahamiyatga molik".

**TAHLIL VA NATIJALAR.** "Pragmalingvistika asoslari" darsligida pragmalingvistikaning umumiy va xususiy masalalari atroflicha ochib berilgan, deyish mumkin. Pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida aloqa-aralashuv jarayonidagi tovush sezgisiga asoslangan verbal ifodalar, ko'rish va his qilish sezgilariga asoslangan nolisoniy ifodalar aytiladi. Kishilar o'rtasidagi kommunikativ munosabat, bilamizki, yo verbal, yoki noverbal shaklda bo'ladi. Shuningdek, barcha axborotlar osh-

kora yoki yashirin tarzda bo'ladi. Bu nutqiy vaziyat, so'zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Ifodaning yashirin bayoni, jumlaning tagma'nosi so'zlovchi va tinglovchining fikrlash faoliyati, olam haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'liq. So'zlovchining tashqi olam haqidagi tasavvurlari qanchalik keng bo'lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shu qadar tez fahmlaydi. So'zlovchi oshkora ifodalab bo'lmaydigan axborot ko'rinishini tagma'no shaklida ifoda etadi. Umumiyashirin ma'no tagma'no usuliga aylantiriladi yoki turli tana harakatlari bilan yuzaga chiqadi. Tagma'no, ya'ni "matn ichida matn", "yashirin matn" rus tilshunosligida "podtekst" atamasi bilan ifoda etiladi. Tagma'no badiiy asarlarda ikki usulda beriladi: oshkora verbal bayon (bunda muallif tagma'noni o'zi izohlagan bo'adi), nooshkora (yashirin) bayon. Pragmalingvistika sohasi ish ko'radigan yana bir hodisa bu propozitsiya sanaladi. Bu hodisa ham nutq jarayonida, nutq vaziyati bilan bog'liq holda so'zlovchi va tinglovchi uchun muhim sanaladi. Masalan, nutqiy jarayonda "Bu kishi Ahmadjonning ukasi Karimjon bo'ladi" gapi orqali so'zlovchi va tinglovchiga oldindan quyidagilar ma'lum ekanligi anglashiladi: 1.Ahmadjonning tinglovchi uchun tanish ekanligi. 2.Tanishtiruvchi shaxs (Karim) Ahmaddan kichik ekanligi. 3.Ahmadjon haqida noo'rin so'zlamalik lozimligi.

**XULOSA.** Xullas, pragmalingvistika so'zlovchi (matn yaratuvchi) hamda tinglovchi (kitobxon) orasida munosabatni belgilaydigan, har ikkala taraf uchun obrazli qilib aytadigan bo'lsak, "ko'prik" vazifasini o'taydigan hodisa sanaladi. Badiiy matnni pragmatik tahlil qilish har bir tahlilchidan sinchkovlik va e'tiborlilikni talab etadi. Ta'kidlash kerakki, bu yo'nalishning nazariy-amaliy jihatlari to'la ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi. Bu muammolarni hal qilish bugungi kun pragmalingvistika sohasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar oldida turgan vazifalardan hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. ДДА. -Т., 2010.
2. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДДА. -Т., 2001, 129 б.
3. Ҳақимов М., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. -Т., 2020.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.



## AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI

*Turapov Voxid Mamadiyorovich, Samarqand pedagogik mahorat  
markazi katta o'qituvchisi*

## TRANSFORMATION OF MORAL VALUES IN THE CONDITIONS OF AN INFORMATION SOCIETY

*Turapov Voxid Mamadiyorovich, Senior teacher of the Samarkand  
Center for Pedagogical Skills*

## ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА

*Турапов Вохид Мамадиёрович, старший преподаватель  
Самаркандского центра педагогического мастерства*



<https://orcid.org/2400-0012-4422-093x>

e-mail:

[tvoxidbek90@gmail.com](mailto:tvoxidbek90@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola axborotlashgan jamiyat sharoitida axloqiy qadriyatlarning o'zgarishini ilmiy-falsafiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning axloqiy qadriyatlarga ta'siri, milliy va global qadriyatlarning o'zaro munosabati, shuningdek, yangi axloqiy me'yorlarning shakllanish jarayoni ko'rib chiqilgan. O'zbekiston misolida axborot madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi raqamli transformatsiya sharoitida axloqiy inqirozning oldini olish va ma'naviyatni mustahkamlash masalalarida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** axborotlashgan jamiyat, axloqiy qadriyatlar, axborot madaniyati, raqamli transformatsiya, ijtimoiy mas'uliyat, milliy qadriyatlar, globalizatsiya, ma'naviyat, texnologik inqiroz, axborot etikasi.

**Abstract:** This article is dedicated to the scientific and philosophical analysis of the transformation of moral values in the context of an information society. It examines the impact of information and communication technologies on ethical values, the interaction between national and global values, and the process of forming new ethical norms. Using Uzbekistan as a case study, the paper explores the prospects for developing information culture and social responsibility. The relevance of the research is reflected in the need to prevent an ethical crisis and strengthen spirituality amidst digital transformation.

**Keywords:** information society, moral values, information culture, digital transformation, social responsibility, national values, globalization, spirituality, technological crisis, information ethics.

**Аннотация:** Данная статья посвящена научно-философскому анализу изменений нравственных ценностей в условиях информационного общества. Рассмотрено влияние информационно-коммуникационных технологий на этические ценности, взаимодействие национальных и глобальных ценностей, а также процесс формирования новых нравственных норм. На примере Узбекистана проанализированы перспективы развития информационной культуры и социальной ответственности. Актуальность исследования проявляется в предотвращении этического кризиса и укреплении духовности в условиях цифровой трансформации.

**Ключевые слова:** информационное общество, нравственные ценности, информационная культура, цифровая трансформация, социальная ответственность, национальные ценности, глобализация, духовность, технологический кризис, информационная этика.



**KIRISH.** Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bugungi kundagi eng muhim ijtimoiy-falsafiy masalalardan biridir. Axborot texnologiyalari inson hayotining barcha sohasiga kirib kelar ekan, ular nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki axloqiy qadriyatlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida milliy va global axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabat yangi etik muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqola O'zbekistonda axborotlashgan jamiyatning axloqiy mezonlarini tahlil qilish orqali axborot etikasi va ma'naviyatning yangi qirralarini ko'rsatishga qaratilgan.

### **ADABIYOTLAR**

Axborotlashgan jamiyat texnologiyalarning ijtimoiy hayotdagi ustuvorligini ifodalaydi va axborot asosida shakllangan yangi ijtimoiy munosabatlarni anglatadi. Bunda texnologiyalar nafaqat iqtisodiyot, balki ta'lim, madaniyat va siyosiy boshqaruv kabi sohalarda ham yetakchi o'rinni egallaydi. T.Parsons va D.Bell kabi tadqiqotchilar bu jarayonni iqtisodiy va texnologik rivojlanishning yangi bosqichi sifatida ko'rsatgan. Bellning postindustrializm nazariyasiga ko'ra, axborot boshqa iqtisodiy resurslardan ustun bo'lgan eng muhim resurs sifatida namoyon bo'ladi va ijtimoiy munosabatlarning asosi sifatida ko'riladi [1].

Postindustrializm nazariyasi doirasida Bell axborotning iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va bilimga asoslangan iqtisodiyotda muhim o'rin egallashini ta'kidlagan. Axborotlashgan jamiyatda xizmatlar sohasi va texnologik innovatsiyalar sanoat ishlab chiqarishidan ustunlikka erishadi. Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi o'z navbatida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatning har bir sohasiga chuqur kirib borishini ta'minlaydi, bu esa insonlar o'rtasidagi muloqot, bilim almashinuvi va axborot oqimlarining o'zgarishiga olib keladi.

Shu bilan birga, axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi bilan birga yangi ijtimoiy muammolar ham paydo bo'ladi. Bu muammolarga raqamli tafovut, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, axborot etikasi va texnologiyalarning inson hayotiga haddan tashqari aralashuvi kiradi. R.Castellsning fikriga ko'ra, axborotlashgan jamiyatda bilimga asoslangan ijtimoiy tuzilmalar shakllanadi, biroq bu jarayon global tengsizlik va ijtimoiy o'zgarishlarning yanada kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** O'zbekiston kontekstida axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti milliy qadriyatlarni saqlab qolish va global axborot makoniga integratsiyalashish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari milliy taraqqiyotning strategik asosi sifatida ko'riladi va ularning axloqiy hamda ijtimoiy mas'uliyat nuqtayi nazaridan rivojlantirilishi muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda ham axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishga doir davlat strategiyalari mavjud bo'lib, ular axborot xavfsizligi, texnologiyalarning axloqiy mas'uliyati va milliy qadriyatlarni saqlash masalalariga qaratilgan [1].

Axborot texnologiyalari axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasiga ikki xil yo'nalishda ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Pozitiv o'zgarishlar: axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotda yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda, bu esa axloqiy qadriyatlar rivojlanishi va ularga zamonaviylik ruhini olib kirishga yordam bermoqda. Ma'lumotga erkin kirish va axborot tarqatish imkoniyatlari oshib borishi odamlar orasidagi o'zaro muloqotni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Endilikda, ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalari faqat milliy doirada emas, balki global miqyosda ham rivojlanmoqda.

Axborot texnologiyalari turli milliy qadriyatlarni dunyoga tanitish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va veb-platformalar orqali xalqning an'anaviy qadriyatlari, san'at va madaniyati jahon hamjamiyatiga ko'rsatilmogda. Milliy merosni targ'ib qilish, shu bilan birga, boshqa xalqlarning madaniyatini o'rganish orqali xalqaro muloqotlar va madaniy integratsiya rivojlanmoqda.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim va ilm-fan sohasida keng imkoniyatlar yaratilmogda. Elektron darsliklar, masofaviy o'qitish tizimlari va ilmiy resurslarga erkin kirish jamiyatda ma'rifatparvarlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bu jarayon axloqiy bilimlarni boyitadi va yoshlar orasida insoniylik, mas'uliyatlilik kabi qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi[3].

2. Negativ oqibatlar: axborot texnologiyalarining salbiy ta'sirlari ham jamiyatda kuzatilmogda. Eng asosiy muammolardan biri – axborot xurujlari va noto'g'ri ma'lumotlarning keng

tarqalishi. Bu jamiyatda axloqiy inqiroz holatini kuchaytiradi, ayniqsa yoshlar o'rtasida.

O'zbekistonda bu muammo ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri yoki manipulyativ kontentning tarqalishi orqali namoyon bo'lmoqda. Yoshlar orasida nomaqbul xulq-atvor, masalan, soxta imijlar yaratish, haddan tashqari iste'molchilikka moyillik va virtual muhitga qaramlik holatlari kuchaymoqda.

Axborot texnologiyalaridan noto'g'ri foydalanish natijasida individualizm va shaxsiy manfaatlar ustuvorligi kuchaymoqda. Bu esa ijtimoiy birdamlikni zaiflashtirishi mumkin. Axborot texnologiyalari orqali axloqiy me'yorlarni buzuvchi kontentning tarqalishi, jumladan, zo'ravonlik va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi video va tasvirlarning ommalashishi, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[4].

Axborot texnologiyalari axloqiy qadriyatlarining transformatsiyasida ikki tomonlama rol o'ynamoqda. Ular insoniyatni axloqiy o'sish va muloqotga yetaklaydigan kuch bo'lishi mumkin, shu bilan birga, noto'g'ri qo'llanilganida axloqiy tanazzulga ham sabab bo'ladi. O'zbekistonda ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun axborot madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar talab qilinadi.

Globalizatsiya jarayonida milliy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish O'zbekiston uchun muhim masaladir. Shuning uchun milliy o'ziga xoslikni raqamli maydonda saqlash strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Axborot madaniyatining rivojlanishi milliy qadriyatlarning global maydonga chiqishini ta'minlashi lozim[5].

Axborotlashgan jamiyatda axborot etikasi yangi tamoyillarni shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, axborot xavfsizligi va shaxsiy hayotni himoya qilish mas'uliyatlari dolzarb masalalar sirasiga kiradi. O'zbekistonda bu borada qabul qilingan qonunchilik axborotdan foydalanishning axloqiy qoidalarini belgilashga xizmat qiladi[6].

**XULOSA.** Axborotlashgan jamiyat sharoitida axloqiy qadriyatlarining transformatsiyasi jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston uchun bu jarayon milliy qadriyatlarni saqlab qolish va global axborot madaniyatiga moslashish orqali amalga oshmoqda. Axborot etikasi va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini rivojlantirish bu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bell, D. The Coming of Post-Industrial Society. Basic Books, 1973.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. 21.03.2012 yildagi PQ-1730-son
3. Castells, M. The Rise of the Network Society. Blackwell Publishers, 1996.
4. Webster, F. Theories of the Information Society. Routledge, 2006.
5. Мелухин, И.С. Эволюция информационного общества. Санкт-Петербург, 2008.
6. O'zbekiston Respublikasining Axborot xavfsizligi to'g'risidagi Qonuni.



## MA'RIFATLI JAMIYAT QURISHDA MA'NAVYI-AXLOQIY QADRIYATLARNING ROLI: XALQARO TAJRIBALAR

*Matchanova Barno Irkinovna, Urganch davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti*

### THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN BUILDING AN ENLIGHTENED SOCIETY: INTERNATIONAL EXPERIENCES

*Matchanova Barno Irkinovna, Associate Professor of Urgench State Pedagogical Institute*

### РОЛЬ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОСТРОЕНИИ ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

*Матчанова Барно Иркиновна, доцент Ургенчского государственного педагогического института*



<https://orcid.org/2084-0022-8042-0284>

e-mail:

[barnomatchanova@mail.ru](mailto:barnomatchanova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqola ma'rifatli jamiyat qurishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar o'ynaydigan rol haqida chuqur tahliliy yondashuvni taqdim etadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tushunchasi, ularning ta'lim, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlarining ma'naviy qadriyatlarga ta'siri hamda bu qadriyatlar kelajak avlodlar tarbiyasida qanday qo'llanilishi mumkinligini muhokama qiladi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatli jamiyat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, jamiyatda barqarorlik, texnologiya va ma'naviyat, globallashtiruv, ijtimoiy adolat.

**Abstract:** The article presents a deep analytical approach to the role played by spiritual and moral values in building an enlightened society. The concept of spiritual and moral values, necessary for the sustainable development of society, their importance in education, economy and social life are considered. The article also discusses the impact of modern technologies and globalization processes on spiritual values, and how these values can be used in the education of future generations.

**Keywords:** enlightened society, spiritual and moral values, stability in society, technology and spirituality, globalization, social justice.

**Аннотация:** В статье представлен углубленный аналитический подход к роли духовно-нравственных ценностей в построении просвещенного общества. Рассмотрено понятие духовно-нравственных ценностей, необходимых для устойчивого развития общества, их значение в образовании, экономике и общественной жизни. В статье также рассматривается влияние современных технологий и процессов глобализации на моральные ценности и то, как эти ценности могут быть использованы в воспитании будущих поколений.

**Ключевые слова:** просвещенное общество, духовно-нравственные ценности, стабильность в обществе, технологии и духовность, глобализация, социальная справедливость.

**KIRISH.** Ma'rifatli jamiyat qurish – bu faqatgina iqtisodiy yoki texnologik rivojlanish bilan cheklanmaydigan, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning chuqur tushunilishi va amalga

oshirilishini talab qiladigan jarayondir. Jamiyatning har tomonlama taraqqiyotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu qadriyatlar jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarini,

ularning qaror qabul qilish jarayonlarini va umuman jamiyatning ijtimoiy tuzilishini shakllantiradi. Murakkab ilm-fan, madaniyat va axloqiy me'yorlar bilan belgilab qo'yilgan, aholining salmoqli qatlamlari ta'lim va axborotdan foydalanish imkoniga ega bo'lgan, ijtimoiy adolat va tenglik asosida qurilgan sivilizatsiyada ma'rifatli jamiyatni belgilaydigan xususiyatlar ana shulardir. Bunday jamiyatdagi har bir shaxsga o'z hayoti davomida o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyati beriladi. Ular hozirgi zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqilsa-da, ma'rifiy jamiyat qurish uchun zarur bo'lgan muhim ma'naviy-axloqiy tushunchalar o'z manbasini tarix davomida mavjud bo'lgan ijtimoiy me'yorlardan oladi. Insonparvarlik, adolat, halollik, mehnatsevarlik va bilimlilik ular orasida katta ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tamoyillardandir. Jamiyat a'zolari o'rtasida mavjud bo'lgan shaxslararo o'zaro munosabatlar ushbu qadriyatlar bilan tartibga solinadi va bu a'zolarining birgalikda ishlash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shaxsning rivojlanishi va jamiyat maqsadlarini amalga oshirish haqida gap ketganda, yaxshi tarbiyalangan jamiyatda axloqiy qadriyatlar mutlaqo zarurdir. Aholi bir-birini hurmat qilsa, bir-biriga insof va samimiylik bilan munosabatda bo'lsa, jamiyatda hamma birdek mas'uliyat hissi paydo bo'lsa, jamiyat ma'rifatli hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Yaponiyada har bir lahzani diqqat bilan o'tkazishni ta'kidlaydigan "ichigo ichie" g'oyasi ham shaxsiy, ham professional sohalarida, jumladan, biznes va xizmat ko'rsatish sohalarida mashhurdir. Ushbu konsepsiya mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshiradi va ijobiy ish muhitini rivojlantiradi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga erishishni osonlashtiradi. "Pflichtgefuhl", shuningdek, "burch tuyg'usi" sifatida ham tanilgan, Germaniyada keng tarqalgan axloqiy idealdir. U jamiyatning turli sohalarida o'zaro majburiyat tushunchasini targ'ib qilishga xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya va ta'lim – bu qadriyat eng aniq namoyon bo'ladigan sohalaridir. Bu hududlarda odamlar bir-biriga yordam berishga, qo'llab-quvvatlashga tayyor, bu esa o'z navbatida jamiyat barqarorligini ta'minlaydi. Bu davom etar ekan, amerikalik sotsiolog Robert Putnam axloqiy qadriyatlar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda quyidagi ta'kidlaydi: "Fuqarolik jamiyati qanchalik rivojlangan bo'lsa,

uning a'zolari o'rtasidagi ishonch darajasi shunchalik yuqori bo'ladi, natijada bu siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi"[1]. Putnam axloqiy qadriyatlar fuqarolarning jamiyatdagi ishtirokiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida keyingi rivojlanishga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston va boshqa xalqlar misolida yaqqol ko'rinib turibdiki, har qanday jamiyatning yuksalishi uchun zarur bo'lgan eng muhim jihatlarning uning a'zolari tomonidan tutilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlaridir. Ularning mavjudligi nafaqat individual munosabatlarning, balki butun iqtisodiyot va siyosiy tizimning barqarorligini ta'minlaydi. Binobarin, har bir millat va jamiyat o'zining asosiy axloqiy-ma'naviy tamoyillarini yuksaltirishga jiddiy e'tibor qaratishi zarur.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasi zamonaviy ta'lim tizimlarida muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, u talabalarga nafaqat ma'lumot va ko'nikmalar beradi, balki ularning shaxsiy o'sishini shakllantirishga ham hissa qo'shadi. Ushbu yondashuv nafaqat talabalarga o'z fanlari bo'yicha sertifikatlangan mutaxassislar bo'lishga yordam beradi, balki ularga jamiyatning mas'uliyatli a'zolari va munosib fuqarolar bo'lishga yordam beradi.

Talabalarga turli xil ma'naviy-axloqiy tamoyillarni o'rgatish orqali zamonaviy ta'lim tizimlari o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, axloqiy me'yorlarga hurmat va axloqiy hukm chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Halollik, adolatlilik, hamkorlik, hurmat va javobgarlik bu toifaga kiritilgan qadriyatlardandir. Bu ideallar o'quvchilarning shaxsiy hayotida ham, kasbiy hayotida ham kelajakdagi faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Misol tariqasida, amerikalik o'qituvchi Nell Noddings o'zining "G'amxo'rlik: axloq va axloqiy tarbiyaga ayol yondashuvi" nomli kitobida ta'lim sohasidagi g'amxo'rlik etikasining ahamiyatiga katta urg'u beradi. "Maktablar nafaqat ta'lim muassasasi, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya beruvchi muassasa sifatida ham faoliyat yuritishi kerak" deb yozganlaridan bir parcha keltiramiz. Noddings fikriga ko'ra, "O'quvchilarga shaxsiy g'amxo'rlik ko'rsatish natijasida o'qituvchilar ularning axloqiy tuyg'ularini kuchaytirishi mumkin" [2]. Noddingsning ushbu mulohazasi butun ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida mavjud



bo'lgan o'zaro munosabatlarda ishtirok etadigan axloqiy mulohazalarga e'tibor qaratadi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Axloqiy qadriyatlar bilimli jamiyat qurishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday bo'lsa-da, bu jarayon davomida turli muammolar paydo bo'ladi, ular samarali muammolarni hal qilish yondashuvlarini talab qiladi. Bu muammolar ko'pincha axloqiy ta'limdagi nomuvofiqliklar, madaniy qadriyatlar to'qnashuvi va zamonaviy texnologiyalar ta'sirida ko'tarilgan axloqiy dilemmalar sifatida namoyon bo'ladi.

Asosiy muammo shundaki, ta'limda axloqiy me'yorlar izchil o'qitilmaydi. Axloqiy qadriyatlar har doim ham maktablarda yoki boshqa ta'lim muassasalarida muntazam yoki tizimli ravishda o'rgatilmaydi. Bu esa yoshlarning axloqiy asoslarida o'ziga xos illatlarning rivojlanishiga olib keladi. Bu muammoni yengish uchun ta'lim muassasalarida axloqiy tushunchalarni tizimli va ta'sirchan tarzda o'rgatish zarur. Maxsus o'quv dasturlarini amalga oshirish o'qituvchilarga ushbu mavzu bo'yicha malakalarini oshirishga yordam beradi.

Ikkinchi muammo – bir nechta madaniyatlar o'rtasidagi ideallarning to'qnashuvi. Globallashuv madaniy almashinuvlarni ko'paytirar ekan, turli xil madaniy qadriyatlardan kelib chiqadigan nizolar ham ko'payadi. Bu vaqti-vaqti bilan ijtimoiy to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish strategiyalaridan biri madaniy tushunish va hurmatni rag'batlantiradigan ta'lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Bunday tadbirlar ko'plab madaniyatlarni qabul qilish va bag'rikenglikni rag'batlantiradi.

Uchinchi masala zamonaviy texnologiyalarning ta'siri natijasida paydo bo'lgan yangi axloqiy muammolarga qaratilgan. Bu muammoni AI va ma'lumotlar maxfiyligidagi axloqiy ikkilanishlar yaxshi ko'rsatadi. Ko'tarilgan axloqiy qiyinchiliklarga qarshi turish uchun biz axloqiy me'yorlar doirasini kengaytirishimiz va o'zgartirishimiz kerak. Ushbu usul rivojlanayotgan texnologiyalarning axloqiy qadriyatlarni o'qitish dasturlariga ta'siri haqidagi savollarga javob berishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tamoyillar jamiyat barqarorligiga, o'zaro hurmat madaniyatini yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shadi. Shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi ushbu standartlar jamiyatdagi hamkorlikda muvaffaqiyatli ishtirok

etish imkonini beradi. Axloqiy tushunchalar jamiyatda barqarorlik va o'zaro hurmat madaniyatini rivojlantirishning turli usullari, jumladan, axloqiy me'yorlarni shakllantirish, adolatli munosabatlarni rag'batlantirish va turli madaniy va ijtimoiy guruhlarini qo'llab-quvvatlash.

Axloqiy tamoyillar axloqiy me'yorlarni belgilaydi. Bu me'yorlar shaxslararo munosabatlarda o'zaro hurmat va adolatni targ'ib qiladi. Axloqiy me'yorlar jamiyat a'zolarining xatti-harakatlarini tartibga soladi va odamlar o'rtasida o'zaro javobgarlikni ta'minlaydi. Axloqiy me'yorlar jamiyatda o'zaro hurmat va tushunishga yordam beradi.

Ikkinchidan, axloqiy tamoyillar teng huquqli hamkorlikni rag'batlantiradi. Jamiyatda adolat tuyg'usining mavjudligi uning a'zolari o'rtasida tenglik taassurotini oshiradi, demak, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zaro teng huquqlilik odamlarning ijtimoiy mavqeini yaxshilaydi va jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi.

Axloqiy tamoyillar turli madaniy va ijtimoiy guruhlarini qo'llab-quvvatlab, jamiyatdagi xilma-xillikka yordam beradi. Turli guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish jamiyat barqarorligi uchun juda muhimdir. Natijada, turli xil ijtimoiy guruhlarining odamlari integratsiya va hamkorlik qilish ehtimoli ko'proq.

Axloqiy-ma'naviy tamoyillar jamiyatda barqarorlikni, o'zaro hurmatni ta'minlaydi. Ular axloqiy me'yorlarni o'rnatish, adolatni rivojlantirish va turli guruhlariga yordam berish orqali jamiyat farovonligini kafolatlaydi. Axloqiy va ma'naviy ideallar jamiyatning o'sishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalari jamiyatning axloqiy va ma'naviy ideallariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari jamiyatning ko'p jabhalarida, jumladan, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy aloqalarda sezilarli o'zgarishlar yaratmoqda. Ular yangi axloqiy dilemmalar va qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi bilan birga, axloqiy me'yorlarning yangi turlarini o'rnatishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari ham axloqiy tamoyillarga, jumladan shaxsiy hayotga yangi xavflarni taklif qiladi. Masalan, katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi bilan shaxsiy

ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu qiyinchiliklar shaxsiy ma'lumotlarni saqlash va foydalanuvchi ruxsatini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Biroq, texnologiya yangi axloqiy imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, Internet turli madaniyatlarni o'rganish va qadrlash imkonini beradi, bu o'zaro tushunish va bag'rikenglikni targ'ib qiladi. Texnologiyadan ta'lim imkoniyatlarini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi turli xil ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ham foydalanish mumkin.

Kelajakdagi ma'rifatli jamiyatni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tamoyillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyat barqarorligi va farovonligi uchun, ayniqsa, jadal rivojlanayotgan texnologiyalar va global muammolar sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu g'oyalar kelajak avlodlarning axloqiy me'yorlariga ta'sir qiladi, ijtimoiy birlikka, siyosiy barqarorlikka va iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi.

Maktab tizimida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyati ortib bormoqda. Zamonaviy ta'lim tizimlari o'quvchilarni faqat ma'lumot berishdan ko'ra, jamiyatning to'laqonli, mas'uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk a'zosi sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Bunday yondashuv o'quvchilar o'rtasida teng huquqli o'zaro munosabatlar, o'zaro hurmat va hamkorlikni rag'batlantiradi va shu bilan jamiyat barqarorligini ta'minlaydi.

Ma'naviy va axloqiy tamoyillar global hamkorlik va muammolarni hal qilish uchun muhimdir. Global isish, atrof-muhitning tanazzulga uchrashi va ijtimoiy tengsizlik faqat texnik yechimlar bilan hal qilinadigan muammolar emas; ularga yaxlit axloqiy yondashuv kerak. Jamiyat a'zolarining bunday global muammolarga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishi ularni qanday hal qilishni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy va ma'naviy tamoyillar ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlaydi. Bu ideallar axborot shaffofligi va texnologik taraqqiyot bilan birgalikda shaxs huquqlari va imkoniyatlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Axloqiy va ma'naviy tamoyillar kelajakdagi jamiyat rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Amerikalik faylasuf Marta Nusbaumning fikricha, "Axloqiy va ma'naviy qadriyatlar global muammolarga mas'uliyat bilan yechim topish va kelajak jamiyatlarini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega" [4]. Nusbaumning mulohazasi jamiyat taqdirini shakllantirishda axloqiy tamoyillarning rolini ko'rsatadi. Axloqiy ideallar kelajak bilimli jamiyatni shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular jamiyat a'zolarining axloqiy me'yorlarini oshirishga, o'zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirishga va global muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi. Axloqiy me'yorlar kelajakda jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga ta'sir qilishda davom etadi.

**XULOSA.** Ma'rifatli jamiyat qurish uchun ma'naviyat juda zarur. Bu jamiyatning ma'naviy asosi, uning a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, qarorlar qabul qilishda qo'llaniladigan tartiblar, ijtimoiy tuzilmalarning shakllanishi. Ta'lim, iqtisodiyot va siyosatga ma'naviy g'oyalar sezilarli darajada ta'sir qiladi. Ular adolat, tenglik, o'zaro hurmatni ta'minlash bilan birga, jamiyatda huquqiy ijtimoiy himoyani ham kafolatlaydi. Globallashuv ham, texnologik taraqqiyot ham odamlarga paydo bo'lgan axloqiy jumboqlarga javob berishga va jamiyat a'zolarini birlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ma'naviy insoniylik kelajak avlodlar uchun juda muhim, chunki yoshlar o'zlarining faol va mas'uliyatli faoliyatda ishtirok etishlari orqali jamiyatga ta'sir qilish qobiliyatiga ega.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Putnam R. et al. Social capital: Measurement and consequences //Canadian journal of policy research. – 2001. – T. 2. – №. 1. – C. 41-51.
2. Bergman R. Caring for the ethical ideal: Nel Noddings on moral education //Journal of Moral Education. – 2004. – T. 33. – №. 2. – C. 149-162.
3. Giddens A. The 'individual' in the writings of Emile Durkheim //The Palgrave Handbook of Methodological Individualism: Volume I. – Cham: Springer International Publishing, 2023. – C. 513-533.
4. Nussbaum M., Sen A. (ed.). The quality of life. – Clarendon press, 1993.

## MNEMONIK TEXNIKALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

*Abdurashidova Rushana Farhodovna*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti*

## DEVELOPMENT OF STUDENTS' ORAL AND WRITTEN SPEECH BY MEANS OF MNEMONIC TECHNIQUES

*Abdurashidova Rushana Farkhodovna*

*Graduate student of Tashkent State Pedagogical University*

## РАЗВИТИЕ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ МНЕМОНИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ

*Абдурашидова Рушана Фарходовна*

*Магистрант Ташкентского государственного педагогического  
университета*



[sunnat.rahmonov@inbox.ru](mailto:sunnat.rahmonov@inbox.ru)

0000-0001-8448-875X

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqlarning rivojlanishi ularning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishi hamda o'z fikrlarini mustaqil ifoda eta olishlarida muhim ahamiyat kasb etadigan mnemonik texnikalarning qo'llanilishi va uni o'quvchilarda xotirani yaxshilash, ma'lumotlarni samarali o'zlashtirish va eslab qolish qobiliyatlarini shakllantirganligi haqida izoh berilgan va munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** mnemonik texnikalar, nutq, xotira, akronim, vizualizatsiya, kompetensiya, qobiliyat.

**Abstract:** In this article, the use of mnemonic techniques, which are important for the development of oral and written speech in students, their successful participation in the educational process, and the ability to express their thoughts independently, and to improve the memory of students, to use information effectively commenting and reacting to the formation of acquisition and recall skills.

**Key words:** mnemonic techniques, speech, memory, acronym, visualization, competence, ability.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование мнемических приемов, которые важны для развития устной и письменной речи учащихся, их успешного участия в учебном процессе, умения самостоятельно выражать свои мысли, а также для улучшения памяти учащихся, эффективно использовать информацию, комментируя и реагируя на формирование навыков приобретения и запоминания.

**Ключевые слова:** мнемонические приемы, речь, память, аббревиатура, визуализация, компетентность, способность.

### ABSTRACT (KIRISH / ВВЕДЕНИЕ)

Bugungi kunda o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash salohiyatini va tafakkurini rivojlantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Pedagogika fanining eng muhim vazifasi ham o'quv jarayonini yaxlit rejalashtirishni takomillashtirish va o'quvchilarning

bilish faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirishdan iborat. O'quvchilar va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta'lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o'qitish zarurligi masalasini ko'tarib chiqdi. U tomonidan o'tkazilgan

sinov tadqiqotlari (1958-1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o'zbek bolalariga ruscha og'zaki nutqni o'rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan. XX-asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbayeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda o'qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. S.O.G'oziyeva tomonidan

(E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'zbek xalq og'zaki ijodidan (xalq ertaklari, o'yinlar) foydalanish asosida atrofdegilarga adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi. 1979-yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili va o'zga tilni (rus, ingliz,) o'qitish muammosi O'zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshqa.) [1]. Sh.Sh.Nizomova ("Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari"), Q.Shodiyevalar ("Nutq o'stirish uslubi") tomonidan ham o'quvchilarning nutqi va undagi kamchiliklari yuzasidan tadqiqot olib borishgan. Har bir faoliyat muvaffaqiyatining sharti nafaqat bilim, ko'nikma, ma'lumotni topish va u bilan ishlash qobiliyati, balki ijodkorlik, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyati bo'lishi mumkin. Biroq, ko'plab o'quvchilar ma'lumotlarni eslab qolishda shuningdek, uni topishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning o'z fikrlarini to'g'ri va ravshan ifoda etishlariga to'sqinlik qiladi. Zero, o'quvchilar rivojlanishi va ta'lim jarayonida ularning qobiliyatlariga yo'naltirilgan texnikalar mavjud bo'lib, bu texnikalardan biri mnemonik texnikalardir. Mnemonik texnikalar – xotirani mustahkamlashga qaratilgan vositalar bo'lib, ushbu muammoni hal qilishda yordamga keladi.

Mnemonika yaxshi so'z boyligini o'rgatish usullaridan biridir. U o'quvchilarga so'z boyligini yaxshi yodlashda yordam berish va so'zlarni eslab qolish osonroq va qiziqarli bo'lishi uchun qo'llaniladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Mnemonika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib "yodlash san'ati" degan ma'noni

anglatadi. Mnemonika xotira faoliyatini yaxshilashga yordam beradigan qoidalar to'plamidir. Mnemonika murakkab ma'lumotlarni inson miyasida oson eslab qolishiga yordam beradi [2].

Mnemonik so'z asli "mnēmōnikos" dan olingan bo'lib, xotirani bildiruvchi qadimgi yunoncha so'zdir. Qadimgi yunonlar yunon mifologiyasida xotira ma'budasi bo'lgan Mnemosinaga ham sig'inishgan. Hatto bugungi kunda ham xotira va xotirani o'rganish haqida gapirganda, "mnemonika" atamasi tez-tez ishlatiladi [3. B. 393-397].

Mnemonik texnikalar – bu ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtirish uchun ishlatiladigan strategiyalar va usullar to'plamidir. Mnemonika - bu xotirani yaxshilash texnikasi. Qadimgi yunonlar ming yil oldin bu texnikani asosiy tamoyil sifatida rivojlantirgan (Yates, 1966) va bugungi kunda bu tamoyillar ko'p turli yo'llar bilan amalga oshiriladi, oddiy qisqartmalardan tortib ma'lum narsalarni eslab qolishingizga yordam beradi. Oddiy qisqartmalardan tortib, aniq eslab qolishga yordam beradigan turli xil usullarida amalga oshiriladi. Masalan g'oyalar, raqamlarni o'ziga xos so'zlar sifatida yozib, murakkab strategiyalar va iboralarni eslab qolishga yordam beradi. Zamonaviy xotira tadqiqotlari mnemonika muayyan obyektlar ro'yxatini eslab qolish kabi muayyan kontekstlarda kuchli o'rganish vositasi bo'lishi mumkinligini aniq ko'rsatdi (Bauer, 1970). Ko'pgina tadqiqotchilar mnemonika tabiiy ravishda foydalanish orqali xotirani yaxshilaydi, deb hisoblashadi, ba'zi asosiy mnemonik qurilmalarning qisqacha tavsiflarini vizual tasvir, tashkilot va batafsil kodlash o'z ichiga oladi bu esa xotira jarayonlarida sodir bo'ladi [4]. Shuningdek, bu texnikalar inson miyasida vizual tasvirlar yaratish qobiliyatidan foydalanadi, ya'ni bunda o'quvchi yangi ma'lumotlarni mavjud bilimlar bilan bog'laydi va mnemoniklar ularda oson eslab qolishga yordam beradigan aloqalarni hosil qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, innovatsion ta'lim jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishda mnemonik texnikalar, ya'ni xotirani yaxshilash va ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtirish usullari asosiy vazifani bajaradi. Ayniqsa, bu texnikalar ingliz tilidagi lug'atlarni o'rganishda samarali qo'llaniladi.

**DISCUSSION(MUHOKAMA/OBSUJDENIJE)**

Mnemonika - bu o'quvchilarning kundalik hayotida ba'zi so'zlarni eslab qolishlari uchun



qo'llaniladigan texnikadir. Eng mashhur mnemonik texnikalar quyidagicha xarakterlanadi:

Birinchisi akronimlar bo'lib, u so'zlarning birinchi harflaridan foydalanish orqali qisqartmalar yaratish va eslab qolish texnikasidir;

Ikkinchisi, vizualizatsiya, ya'ni vizual tasvirlar bo'lib, ma'lumotlarni tasvirlar yoki sahnalar orqali eslab qolish (masalan, "uy" so'zini eslab qolish uchun uyning tasvirini ko'z oldiga keltirish);

Uchinchi, asosiy so'zlar bo'lib, o'rganilayotgan ma'lumotlardan asosiy tushunchalarni ajratib olish;

To'rtinchi, hikoyalar yaratish ya'ni turli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qisqa va eslab qolishga oson hikoyalar yaratishda qo'llaniladi;

Beshinchi, ritm, ya'ni ma'lumotlarni ritmik shaklda ifodalash hamda raqamlarni eslab qolish uchun harflardan foydalanish (masalan, "Bir, Ikki, Uch..." v.h.).

Oltinchi, mnemonik qo'shiqlar ya'ni, ma'lumotlarni eslab qolish uchun maxsus qo'shiqlar yaratish;

Yettinchi, turli so'zlar bilan bog'liq tasvir yoki ramzlarni eslab qolish (Masalan, "quvonch" so'zi bilan quyoshli kunni tushunish);

Sakkizinchi, barcha ma'lumotlarni xarita shaklida saqlab qolishdan iborat. Ushbu mnemonik texnikalar o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda yaxshi samara berib, ularni turli ma'lumotlarni eslab qolish qobiliyatini osonlashtiradi. Masalan, tarixiy voqealarni yoki ilmiy terminlarni akronimlar orqali yodlash mumkin. Ular ijodkorlikni oshirib, vizualizatsiya va ritmik usullar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Bu esa og'zaki nutqning boyib borishini ta'minlaydi [5].

Mnemonik texnikalarning afzalliklari qiyin ma'lumotlarni eslab qolishni yaxshilab, o'quvchilarning faol ishtirokini oshirishda, ijodiy fikrlashni rivojlantirib, mavzuga oid ma'lumotlarni o'rganish jarayonini yanada qiziqarli bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Mnemonik texnikalar orqali o'quvchilarning nutqiy faoliyati rivojlanib gap tuzish ko'nikmalarini yaxshilanadi. O'quvchilar gap tuzishda asosiy so'zlarni ajratib olish orqali mantiqiy fikrlashni ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Mnemonik ma'lumotlarni oson eslab qolish orqali o'quvchilarda stressni kamaytirib bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

**CONCLUSION (XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ)**

Xulosa qilib aytganda, mnemonik texnikalar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirib, ularning lug'at boyligini kengaytiradi, so'zlarni turli ta'riflar bilan bog'lab, ularni osonroq eslab qolishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida esa ushbu usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlanib, ularning nutqiy ko'nikmalari rivojlantiriladi. Mnemonik texnikalar o'quvchilarga ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtirib, fanni o'zlashtirish jarayonining qiziqarli bo'lishga nutqiy qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, mnemonik texnikalarni qo'llashda o'quvchilarning individual qobiliyatlari va ma'lumotlarni o'zlashtirish uslubini hisobga olish o'qituvchilarning pedagogik mahoratini belgilaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent-2018

2. Mnemonika. [https://uz.wikipedia.org/wiki-](https://uz.wikipedia.org/wiki-3.Q.Qahhorov, S.Usmonova, Y.Azizov)

3.Q.Qahhorov, S.Usmonova, Y.Azizov. Mnemonic techniques for teaching english language. Scientific Journal Impact Factor. Volume 4 | ISSUE 2 | 2023. – Pp. 393-397.

4.Adam L. Putnam. Mnemonics in Education: Current Research and Applications. Translational Issues in Psychological Science. © 2015, American Psychological Association. This manuscript is not the copy of record and may not exactly replicate the final, authoritative version of the article. Please do not copy or cite without authors' permission.

5. H.Jumaniyozova. Chet tillarini o'rganish uchun mnemonika zarurmi?

6.Ерыкина Мария Андреевна. Методика интеграции аутентичного песенного материала в систему средств обучения иностранному языку (английский язык; неязыковой ВУЗ), М.:– 2017.

7.Айвазян Оксана Оганесовна. Развитие письменной русской речи учащихся начальной школы в процессе работы над изложением. Майкоп – 2013.

8.Тивьяева Ирина Владимировна. Когнитивно-коммуникативная концепция мнемической деятельности. Москва–2018.

9.Кошечкина Татьяна Вячеславовна. Формирование текстовой компетенции учащихся 5-6-х классов общеобразовательной школы. Москва – 2008.

## MA'NAVY BARKAMOLLIKDA MILLIY QADRYATLARNING O'RNI

Axmedov Sherzodjon Zokirovich  
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti  
tadqiqotchisi

## THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN SPIRITUAL MATURITY

Akhmedov Sherzodjon Zokirovich  
Researcher of the Institute of the Ministry of Internal  
Affairs of the Republic of Uzbekistan

## РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДУХОВНОЙ СОВЕРШЕННОСТИ

Ахмедов Шерзод Зокирович  
Соискатель института повышение квалификации МВД  
Республики Узбекистан



[sunnat.rahmonov@inbox.ru](mailto:sunnat.rahmonov@inbox.ru)

0000-0001-8448-875X

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ma'naviy barkamollikda milliy qadryatlarning o'rni masalasi yoritilgan. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonida yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an'analarni mustahkam shakllantirishdir. Pirovard maqsadimiz esa ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalashdir.

**Kalit so'z:** ma'naviyat, ma'rifat, komil inson, globallashuv, taraqqiyot, milliy qadriyat.

**Abstract:** This article discusses the role of national values in spiritual maturity. In today's era of socio-economic development, one of the important ways of ensuring the youth's activity is the solid formation of national customs and traditions in their minds. Our primary goal is to educate a spiritually mature and perfect person.

**Key words:** spirituality, enlightenment, perfect person, globalization, development, national value.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль национальных ценностей в духовной совершенности. В современную эпоху социально-экономического развития одним из важных способов обеспечения активности молодежи является прочное формирование в ее сознании национальных обычаев и традиций. Наша основная цель – воспитать духовно зрелого и совершенного человека.

**Ключевые слова:** духовность, просвещение, совершенный человек, глобализация, развитие, национальная ценность.

### KIRISH(BВЕДЕНИЕ / ABSTRACT)

Bugungi globallashgan davrda jamiyatda ma'naviyat rivojlansagina ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik vujudga kelib, saqlanib qolishi va rivojlanishini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblangan yosh avlodning barkamol rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Ma'naviyatning o'zagi bo'lgan milliy – an'analar oila bag'rida va mahalla ostonasida

shakllanib ko'p asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan urf-odat va qadriyatlar sifatida ularning ahamiyati bugungi kunda beqiyosdir. Shu bilan birga, bugungi axborot xuruji taraqqiyotimiz uchun xavfli bo'lgan, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, yoshlarni destruktiv ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladigan buzg'unchi g'oyalar endi nafaqat chet el ommaviy axborot vositalari balki internet va turli ijtimoiy tarmoqlar orqali ham keng targ'ib qilinmoqda.

Bunday tahdidlardan o'z vaqtida himoyalaniş, unga qarshi javob bera olish uchun yuksak ma'naviyatli va ma'naviy barkamol yoshlar jamoasini shakllantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Aynan shunday ma'naviy va mafkuraviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o'z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o'z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)**

Milliy qadriyatlar insonni o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururga ega bo'lishi, o'z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o'tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo'lib yetishishi uchun xizmat qiluvchi mezondir [1].

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonida yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an'analarni mustahkam shakllantirishdir. Zero, milliy urf-odatlar har bir xalq hayotining barcha sohalariga singib ketgan bo'lib, xalqlarning milliy o'zligini tarannum etuvchi dalildir.

Bugungi yosh avlodni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar zanjiri bo'lgan xayr-sahovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, bosiqlik, ulug'vorlik va sabrlik kabi ma'naviy fazilatlar mezonlari asosida tarbiyalash ularda mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik va halol mehnat qilish kabi tuyg'ularning shakllanishiga olib keladi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir.

Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boylıklar bilan qo'shib, taraqqiyotimizni tezlashtirishi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashi ham ayni haqiqatdir. Qadriyatlarining barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalardir [2].

Ertangi oldimizdagi turgan eng ezgu maqsadlarimiz biri mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon

hayotimiz uchun yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o'rni bilan bog'liqdir. Yoshlar tarbiyatiga bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, hayrihohlik, imonlilik, halollik, mehr-shavqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish ularni vatan taqdiriga nisbatan ma'suliyatni his qiluvchi muayan jamiyat vakili sifatida jamiyat vakili sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizning jahondagi nufuzini oshirishda mas'ullik tuyg'ularini shakllantiradi.

Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma'naviyati takomil bosqichlari bu o'lka xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, ko'pgina tadqiqotchilar milliy ma'naviyatimizning necha ming yillik tarixini quyidagi uchta yirik davrga ajratib o'rganishgan:

Birinchi va ikkinchi renessans davridagi milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti;

Yangi davrdagi milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti [3].

Islomgacha bo'lgan milliy ma'naviyatimiz va uning takomillashishi haqidagi eng muhim manbalar zardushtiylikning "Avesto" kitobi va turkiy bitiklar, arxeologik yodgorliklar – moddiy ashyolar va turli inshootlar hamda xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot namunalari, urf-odat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar sanaladi.

Til – har bir xalq va millatning milliy o'zligini namoyon qilishda muhim vositadir [4]. O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy – ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singdiriladi. Shuning uchun til millatning ruhi sifatida e'tirof etiladi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" deb tilga ta'rif bergan [5].

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini yoshlarda, shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g'urur bo'lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlari jo'sh urmaydi.

Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Vatan istiqloli va istiqboli haqida qayg‘urish;

- xalqi, yurti qadr-qimmatini, or-nomusini anglash va buni himoya qilish;

- butun mehnati, iste‘dodi, imkoniyatini, zarur bo‘sa jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalardir [6].

## **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Mustaqillik, bu - bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma‘naviyatdir. Shu ma‘naviyatni har birimiz avaylab-asrashimiz davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim vazifa va burchdir. Shu vazifani amalga oshirish va hal qilishda yoshlar va butun xalq ongiga mustaqillik ruhini singdirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ma‘naviy barkamollikning qirralaridan yana biri milliy iftixordir. Milliy g‘urur bu milliy iftixordir. Milliy g‘urur o‘z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma‘naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlarini, an‘analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma‘naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e‘zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashdir.

O‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxirlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydi. Bunday kishilarni ma‘naviy barkamol inson deya olmaymiz.

Ma‘naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash vazifasi qanchalik murakkab bo‘lmasin, uni amalga oshirganimizdagina pirovard maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma‘no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o‘zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko‘zga tashlanadi. Qur‘oni Karim insonparvarlik g‘oyalari asosida qurilgan. Muhammad alayhissalom hadislarini shu g‘oyalarga boy hikmatlar majmuasi sanaladi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shavqatida, diyonatda, o‘zaro ko‘maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko‘rinadi.

O‘zbek xalqi doimo umuminsoniyat dardini qo‘llab kelgan. Al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlaridagi g‘oyalar – insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning qarashlarida, vatanga, xalqqa sadoqat eng avvalo uning taqdiri ustida g‘amxo‘rlikdan iboratdir. Navoiy ijodida bu mavzuning alohida o‘rin egallaganligi tahsinga sazovordir. U nafaqat badiiy ijodda, balki o‘z amaliy faoliyatida ham yuksak insonparvarlikka sodiq qolgan mutakfakkirdir. U xalq uchun, El-ulus uchun, beva-bechora, yetim-yesirlar uchun madrasalar, shifo maskanlari qurdirgan. Bunday misollarni juda ko‘p keltirish mumkin.

Ma‘naviyatni shakllantirishga bevosita ta‘sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta‘lim bo‘lib u tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta‘limni - tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir [7].

## **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Shaxs ma‘naviyatini shakllantirishda ta‘lim-tarbiya muassalarining o‘rni nihoyatda kattadir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan ma‘naviy tarbiya jarayonida, barcha o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar, qo‘shimcha adabiyotlarda, o‘tkaziladigan tadbirlarda quyidagi ma‘naviy-ma‘rifiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi maqsadga muvofiq:

- Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish;

- ona tilimizga muhabbat va hurmat uyg‘otish;

- milliy qadriyatlarimiz, ma‘naviy merosimizga hurmatni kuchaytirish;

- ezgulik timsoli bo‘lgan ayolni ulug‘lash; -umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg‘or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanligini uqtirish;

- dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglatish;

- huquqiy madaniyat, sog‘lom dunyoqarash, sog‘lom ma‘naviy fazilat shakllanishining muhim omili ekanligini tushuntirish;

- o‘z tarixini bilish orqali o‘zligini anglash kabi tamoyillar shulardan iborat [8].

Ma‘naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta‘siri xususida



to'xtalish albatta o'rinlidir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning holidan xabar olish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha'ni uchun kurash, o'zaro yordam kabi fazilatldarni kamol topishida mahallaning o'rne beqiyos.

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Xulosa qilib aytganda, bugungi zamonaviy taraqqiyot va axborotlashgan jamiyat davrida ta'lim muassasalarida yaratilgan o'quv qo'llanmalardan tortib, sinf va auditoriyalargacha barchasini mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim beruvchi ijtimoiy ko'rgazmali qurollar bilan jihozlash maqsadga muvofiq. Shundagina shaxs ma'naviyatini shakllantirish borasida qo'ygan maqsadga erishamiz. Shuning bilan ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirib borish ham eng dolzarb vazifalarimiz qatorida turganligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati": Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: ... nashriyoti, 2023. – 480-bet. Mas'ul muharrir: Olimjon Davlatov.
2. X.P.To'xtayev. Milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro aloqadorligi // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari, International Scientific Conference National University of Uzbekistan, aprel 2022. – B. 513.
3. Имомназаров М., Эшмухамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. Т., 2001.97-б.
4. M.Qurbonova. Til – millatning ma'naviy boyligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4 (5), May, 2024. – B. 519.
5. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: “Ўқитувчи”, 1992.
6. С.Отамуратов, Ж.Раматов, С.Хусанов. Маънавият асослари. Маърузалар матни. Тошкент, 2000. Б. 167.
7. I.Karimov “Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch”. — Т.: «Ma'naviyat», 2010. — 176 b.
8. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. Тошкент, «Шарк», 1998.



## ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ОБУЧАЮЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

*Хусанова Маишхура Бурхановна, студент Университета  
экономики и педагогики*

*Сафарова Зулфия Каримовна, преподаватель  
Университета экономики и педагогики*

<https://orcid.org/0842-0240-5242-042x>

e-mail:

[zulfiyasafarova00@mail.ru](mailto:zulfiyasafarova00@mail.ru)

## PEDAGOGICAL EXPERIENCE OF FORMING CRITICAL THINKING IN STUDENTS IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS

*Khusanova Mashkhura Burkhanovna, Student of the University of  
Economics and Pedagogy*

*Safarova Zulfiya Karimovna, Lecturer of the University of  
Economics and Pedagogy*

## RUS TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAJRIBASI

*Xusanova Mashxura Burkhanovna, Iqtisodiyot va pedagogika  
universiteti talabasi*

*Safarova Zulfiya Karimovna, Iqtisodiyot va pedagogika  
universiteti o'qituvchisi*

**Аннотация:** Статья посвящена развитию критического мышления у школьников на уроках русского языка. Рассматривается понятие критического мышления с позиций философии, психологии и педагогики, и анализируются его характеристики как контролируемого, обоснованного и целенаправленного процесса. Отмечается значение дискуссий и работы с текстами для формирования навыков анализа, аргументации и рефлексии. В статье также подробно рассматриваются методики и приемы, такие как кластерный метод и метод «INSERT», которые используются для развития критического мышления через осмысленное чтение и письмо.

**Ключевые слова:** критическое мышление, осмысленное чтение, аргументация, дискуссии, кластерный метод, метод «INSERT», когнитивные навыки, рефлексия, учебный процесс, русская литература.

**Annotation:** The article is devoted to the development of critical thinking skills in students during Russian language lessons. It examines the concept of critical thinking from philosophical, psychological, and pedagogical perspectives, analyzing its characteristics as a controlled, reasoned, and goal-oriented process. The significance of discussions and working with texts is highlighted as essential for building analysis, argumentation, and reflection skills. The article also explores specific techniques, such as the cluster method and the "INSERT" method, used to cultivate critical thinking through meaningful reading and writing.

**Keywords:** *critical thinking, meaningful reading, argumentation, discussions, cluster method, INSERT method, cognitive skills, reflection, educational process, Russian literature.*

**Annotatsiya:** *Maqola rus tili darslarida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga bag'ishlangan. Tanqidiy fikrlash tushunchasi falsafa, psixologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilib, uning nazorat qilinadigan, asoslantirilgan va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatidagi xususiyatlari tahlil qilinadi. Tahlil qilish, argumentatsiya va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish uchun munozaralar va matnlar bilan ishlashning ahamiyati qayd etiladi. Shuningdek, maqolada mazmunli o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda foydalaniladigan klaster usuli va "INSERT" usuli kabi metodika va usullar batafsil ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *tanqidiy fikrlash, mazmunli o'qish, argumentatsiya, munozaralar, klaster usuli, "INSERT" usuli, kognitiv ko'nikmalar, refleksiya, o'quv jarayoni, rus adabiyoti.*

**ВВЕДЕНИЕ.** Современное общество в целом и современный образовательный процесс требуют от ученика умения ориентироваться в большом потоке поступающей информации, анализировать ее и принимать решения на основе полученных результатов, что определяет формирование метапредметных универсальных учебных действий. М.И.Махмутов [1] в статье «Интеллектуальный потенциал» отмечает, что наиболее ценными в педагогике считаются такие виды мышления, как: логическое, творческое и критическое, которое, по мнению автора, отражает высший уровень интеллектуальных способностей человека.

Понятие «критическое мышление» является междисциплинарным и рассматривается с точки зрения философии, психологии, педагогики. В своей книге «Психология критического мышления» Д.Халперн [2] рассматривает критическое мышление как использование когнитивных техник или стратегий, которые увеличивают вероятность получения желаемого конечного результата. Данное определение подчеркивает, что процесс критического мышления контролируем, обоснованный и целенаправленный, именно поэтому используется при решении задач, формулировании выводов, вероятностной оценке и принятии решений. Таким образом, критическое мышление – это психическая активность, которая направлена на решение конкретной когнитивной задачи. Д.Халперн [3] отмечает, что слово «критическое» имеет оценочный компонент, мысля критически, человек оценивает результаты своих мыслительных процессов – насколько правильно

принятое решение и насколько удачно решена поставленная задача.

## **АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ.**

Критическое мышление включает в себя оценку самого мыслительного процесса – хода рассуждений, которые привели к полученным выводам. Иногда критическое мышление называют «направленным», поскольку оно нацелено на получение желаемого результата, чем и отличается от автоматического мышления (мгновенные оценочные мысли, не являющиеся результатом размышлений, и возникающие как реакция на определенные события). Иначе говоря, критическое мышление – это процесс оценки или категоризации ранее приобретенных базовых знаний. Установка на критическое мышление – один из важных его компонентов. В случае отсутствия положительной установки навыки мышления становятся пассивными и используются реже. О наличии положительной установки к критическому мышлению свидетельствуют следующие качества личности: готовность к планированию, определению цели в терминах результата, гибкость мышления [3]. Дж.Браус и Д.Вуд [2] определяют категорию критического мышления как мышление разумное и рефлексивное, сфокусированное на решении задачи «Во что верить и что делать».

По мнению исследователей, критическое мышление – это поиск здравого смысла: «как рассудить объективно и поступить логично с учетом, как своей точки зрения, так и других мнений, умение отказаться от собственных предубеждений». Урок русского языка тем отличается от многих других школьных уроков, что имеет огромный потенциал не только для получения специальных, предметных знаний, но и для формирования личностно важных качеств

(толерантности, воспитанности, патриотизма, чувства прекрасного) и умений, а также творческих, индивидуальных, коммуникативных, интеллектуальных способностей человека. Формирование и развитие критического мышления на уроках русского языка – неотъемлемая часть данного курса в школьном образовании нашей страны.

Слово всегда оказывало сильное влияние на человека, поэтому неудивительно, что работа с учебными и художественными текстами лежит в основе приемов формирования критического мышления. Одной из главных технологий формирования критического мышления на уроках русского языка является Технология развития критического мышления через чтение и письмо (далее – РКМЧП), разработанная в конце XX века в США членами консорциума «За демократическое образование» (Ч.Темл, Д.Стил, К.Мередит, С.Уолтер). Данная технология представляет собой целостную систему, формирующую навыки работы с информацией в процессе чтения и письма. Она направлена на освоение базовых навыков открытого информационного пространства, развитие качества гражданина открытого общества, включенного в межкультурное взаимодействие [2].

Основная идея технологии: создание такой учебной обстановки, в которой обучающиеся совместно с педагогом активно работают, сознательно размышляют над процессом обучения, отслеживают, подтверждают, опровергают или расширяют знания, новые идеи, чувства или мнения об окружающем мире. Это технология ставит перед собой следующие задачи [4]: 1.Формирование нового стиля мышления, характеризующегося гибкостью, рефлексивностью, осознанной внутренней многозадачностью позиций и точек зрения, альтернативностью принимаемых решений. 2.Развитие базовых качеств личности (критического мышления, рефлексивности, коммуникативности, креативности, мобильности, самостоятельности, толерантности, ответственности за свой выбор и результаты своей деятельности).

По мнению последователей технологии, критическое мышление есть комплекс навыков и умений, которые формируются постепенно в

ходе развития и обучения ребенка. Способствовать эффективности формирования критического мышления может создание таких условий для учеников, где они являются не пассивным слушателем, а занимают активную позицию: находятся в самостоятельном поиске информации, соотносят уже усвоенные знания с имеющимся практическим опытом, самостоятельно устанавливают внутрипредметные и межпредметные связи. Обучающиеся должны научиться подвергать сомнению достоверность и авторитетность информации, проверять логику доказательств, делать выводы, конструировать новые примеры для использования теоретического знания, принимать решения, изучать причины и последствия различных явления. Систематическое включение критического мышления в учебный процесс должно формировать особый склад мышления и познавательной деятельности обучающегося [4].

Образовательная технология РКМЧП осуществляется в три этапа: 1)вызов; 2)осмысление содержания; 3)рефлексия. Применение технологии РКМЧП на уроках русского языка может осуществляться посредством использования множества приемов. Кластер; ИНСЕРТ. Работа с различными вопросами; Открытые и закрытые вопросы; Верные и неверные утверждения; Тонкие и толстые вопросы. Визуальная организация материала: Дневники; Работа направленная на постановку и решение проблем:

Работа с различными видами текста особенно важна для развития критического мышления обучающихся, поскольку направлена на формирование умения воспринимать текст, устанавливать причинноследственные связи, выделять главную мысль, что укладывается в понятие смыслового (осмысленного) чтения[3]. Осуществляется работа с текстом может посредством разных приемов и методов. Наиболее популярным является кластерный метод. «Кластер» переводится как «гроздь» или «пучок». Данный метод является универсальным и может использоваться на любом этапе урока. Суть метода заключается в систематизации и графическом представлении информации по определенной теме. В центре записывается ключевое понятие, в стороны от него –



определения второго, третьего уровня, характеризующие центральное слово. В итоге получается графическая структура, отражающая ход размышлений ученика. Метод может осуществляться как индивидуально, так и совместно с учителем[3]. На уроке русского языка можно в виде кластера представить схематичное изображение признаков глагольных категорий, что позволит школьникам структурировать информацию, вследствие – лучше ее запомнить.

С.И.Заир-Бекк[4] предлагает следующие рекомендации для учителя по организации работы с кластерным методом: 1)Оцените текст, с которым будете работать. Определите, нужна ли в данном случае разбивка на «грозди». Можно ли выделить в тексте большие и малые смысловые единицы. 2)Помогите обучающемуся в случае возникновения сомнений или затруднений с выделением смысловых единиц. 3)Озвучьте свои «грозди». Выслушайте презентацию кластеров обучающихся. Выберите наиболее удачные варианты. 4)Предложите ученикам объяснить связи между вашими ветвями. 5)Если какая-то из ветвей кластера, по вашему мнению (в данной ситуации), является наиболее важной, попросите учеников сделать ее наиболее яркой (можно использовать цветные карандаши). Достоинство использования данного метода в процессе формирования критического мышления заключается в том, что обучающийся учится ставить вопросы, выделять главное, устанавливать причинно-следственные связи и строить умозаключения, переходить от частного к общему внутри проблемы, сравнивать и анализировать, приводить аналогии. Ученик

анализирует не только учебный материал, но и собственные оценочные суждения.

#### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ.**

«INSERT»

(аббревиатура от: intensive noting system affective reading thinking) – эффективный прием формирования критического мышления обучающихся на уроках русского языка. Его суть заключается в маркировке текста по мере его прочтения. Обычно данный прием используется на стадии осмысления материала. Работа с текстом способствует положительному развитию критического мышления у обучающихся. В ходе выполнения таких заданий они не только пополняют свой жизненный опыт через текстовые материалы предложенные учителем, но и учатся классифицировать информацию, выделять важное, строить логические цепочки.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Тихонова, Л.П. Об актуальных внедрениях современных цифровых технологий в образование / Л.П.Тихонова // Вестник Череповецкого государственного университета. – 2019. – № 1 (88). – С. 203-221.
2. Камолова, Ш. Т. Иновационные методы преподавания русского языка и литературы / Ш.Т.Камолова // Экономика и социум. – 2022. – № 9 (100). – С. 392-395.
3. Халперн,Д. Психология критического мышления / Д.Халперн. – Санкт-Петербург : Питер, 2000. – 512 с. – ISBN 5-314-00122-5.
4. Чатфилд,Т. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение / Т. Чатфилд. – М: Альпина Паблишер, 2019. – 328 с. – ISBN 978-5-9614-2081-4.



## ZAMONAVIY JAMIYATDA KORRUPSIYA PROFILAKTIKASI

*Aripov Alisher Sayfiddinovich, Navoiy davlat pedagogika instituti  
mustaqil tadqiqotchisi*

## CORRUPTION PREVENTION IN MODERN SOCIETY

*Aripov Alisher Sayfiddinovich, independent researcher of the  
Navoi State Pedagogical Institute*

## ПРОФИЛАКТИКА КОРРУПЦИИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

*Арипов Алишер Сайфиддинович, независимый научный  
исследователь Навоийского государственного  
педагогического института*



<https://orcid.org/0000-0001-6517-0252>

e-mail:

[alisher\\_aripov@internet.ru](mailto:alisher_aripov@internet.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy jamiyatdagi korrupsiyaning falsafiy tahlili, korrupsiya xavfini falsafiy o'rganish, korrupsiyaning oldini olishda ijtimoiy-falsafiy yondashuv, korrupsiya elementlarini tushunish usullari, korrupsiyaning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri, korrupsiyaga qarshi kurashda zamonaviy-falsafiy texnikalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiyaning falsafiy tahlili, korrupsiyaga qarshi kurash, korrupsiyaning oldini olish, korrupsiya elementlari, korrupsiyaning salbiy ta'siri.

**Abstract:** The article describes the philosophical analysis of corruption in modern society, the philosophical study of the danger of corruption, the socio-philosophical approach to the prevention of corruption, the methods of understanding the elements of corruption, the negative impact of corruption on public life, and the modern-philosophical techniques in the fight against corruption.

**Keywords:** philosophical analysis of corruption, fight against corruption, prevention of corruption, elements of corruption, negative effects of corruption.

**Аннотация:** В статье описан философский анализ коррупции в современном обществе, философское исследование опасности коррупции, социально-философский подход к предупреждению коррупции, методы понимания элементов коррупции, негативное влияние коррупции на общественную жизнь, и современные философские методы борьбы с коррупцией.

**Ключевые слова:** философский анализ коррупции, борьба с коррупцией, предотвращение коррупции, элементы коррупции, негативные последствия коррупции.

**KIRISH.** Zamonaviy jamiyatda davlat boshqaruvi va fuqarolar bilan munosabatlar o'rtasidagi korrupsiya fenomeni xalqaro, shu jumladan bizning olimlarimizning ham tadqiqot obyektiga aylanib, ushbu murakkab jarayonga turlicha yondashilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Janubiy Afrikada korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan falsafiy yondashuvlarni o'rganar ekan,

S.V.Vorster ta'kidlaganidek, deontologik yondashuv me'yoriy-axloqiy nazariyaning asosi sifatida korrupsiyalashgan shaxsni obyektivlashtiradi va shaxsiy aniq maqsadlarni tadqiqot doirasidan tashqarida qoldiradi.

O'z-o'zidan savol tug'iladi, korrupsiya aynan kimlar tomonidan sodir etiladi? Bugungi kunda bir tomondan korrupsiya muayyan vakolatga yoki imkoniyatga ega shaxslar tomonidan amalga

oshiriladi, ikkinchi tomon esa ushbu harakatlarga o'z moyilligini bildiradi, ularning o'zaro noqonuniy munosabatlariga uchinchi shaxslar aralashuvi ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham korrupsiya munosabatlar orqali shakllanadi. Jamiyatda korrupsiyaning oldini olish uchun esa insonlar o'rtasidagi munosabatlarni sog'lomlashtirish talab qilinadi.

Korrupsiyani turli xil ijtimoiy nuqsonlarning sababchisi sifatida olimlar M.Sartor va P.Beamishlar o'rgangan bo'lib, ularning fikricha davlat va xususiy sektordagi korrupsiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib, axloqiy nazariyalar bo'yicha korrupsion faoliyatning tabiatini tavsiflash uchun taksonomiyalarni umumlashtiradilar. Ular korrupsiyaning tarkibiy qismlari va oqibatlari to'g'risida ilmiy bilimlarni tizimlashtiradilar, korrupsiyaga qarshi dasturlarda xususiy korrupsiyani o'rganishga alohida e'tibor berishadi, chunki bu biznesning jamiyatdagi o'rnini va firmalarning ta'sirini har qanday baholash uchun muhimdir.

**MUHOKAMA.** Turli ko'rinishdagi hodisalar orasidan korrupsiya kabi yomon illatni ajratib olish va yaxshidan farqlash inson hayotida haqiqatni bilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqat esa adolat yordamida ro'yobga chiqadi. Adolat bilan ish qilgan inson haqiqatni ko'ra oladi. Qanchalik haqiqatga va tabiiylikka yaqinlashsa, shunchalar o'zligini anglaydi va topadi. Zero, cheksizlik ichra yastangan bilimdan faqat chegaralab berilganiga qadar bila olamiz, chegaradan u yog'ida nima borligini ko'ra olish esa haqiqatni ko'ra olish bilan barobardir. Inson astoydil izlansagina, albatta yaxshilikka erishadi va kerak bo'lsa kelajakni oldindan ko'ra oladi.

Kambag'allik, ishsizlik, daromaddagi tengsizlik, turmush darajasi pastligining ildizi korrupsiya tusidagi jinoyatchilik bilan bog'liq. Korrupsiya jamiyatning barcha sohalarida adolatsizlikni keltirib chiqaradi.

Birovning haqqiga ko'z olaytirish, najot so'rab murojaat qilgan aslida yordamga muhtoj inson yelkasiga yana qo'shimcha yuk bo'lish haqiqiy qabihlikdir. Mansab yoki martabaga osonlikcha erishilmaydi, bunga qanchalik yengil erishilsa, shunchalik tez yo'qotiladi. Ba'zi bir insonlar martabaga erishgach, ularni shu darajaga yetib kelishiga sabab bo'lgan yaxshiliklardan qo'lini uzib, nafsigacha berilib, yaxshi amallarni unutib, yomonlik

yo'lini tanlaydilar. Bu yo'l ularni inson oyog'i ostidagi jarlikdan-da pastroq pastkashliklarga olib boradi. Hattoki bu yo'lni oxiri u yoqda tursin, bir qadam oldinda nima borligini ham ko'ra olmaydilar.

Azaldan insoniyat uchun eng katta illatlardan biri bo'lgan poraxo'rlik, ta'magirlik jinoyatlari milliardlab insonlarning umriga zavol bo'lib kelmoqda. Bunday illatga ruju qo'yganlar yomonliklar ichida yo'qlikka aylanib bormoqda. Avval iqtisod, keyin siyosat deganlaridek, bugungi kunda insonlar o'zaro muloqotni ko'proq iqtisodiy masalalarda olib bormoqdalar, ko'pchilik insonlar ilm bilan shug'ullanish, axloqiy yetuk bo'lish o'rniga moddiy maqsadlarga erishish muhimroq deb o'ylaydilar, misol uchun uy, mashina sotib olish yoki yaxshi joylarda ovqatlanish istagi qaysidir yaxshiroq ta'lim muassasida tahsil olishdan ko'ra ustunlik qiladi. Aynan yaxshilikdan ko'ra yomonlikning tarqalishi osonroq bo'lgani uchun ham zamonaviy jamiyatda moddiy foyda olishni afzal biladigan insonlar orasida korrupsiyani rivojlanishi osonroq bo'ladi.

Keng qamrovli o'rganishlar davomida, xalqaro olimlar korrupsiyaning o'zagida tabiiy resurslarni noqonuniy yo'llar bilan o'zlashtirishga bo'lgan intilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda davlat boshqaruvining zaifligi, korrupsiya jarayoniga barham berishda xalqaro munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, korrupsiyaning jamiyatga ta'siri kabilar o'rganilib borilmoqda. Jumladan, A.R.Menokal tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi ta'lim dasturida korrupsiyani, korrupsiyaning o'sishiga va uning ko'payishiga yordam beruvchi omillarni tushunish muhimligi, korrupsiyaning keng oqibatlarini tushunish va korrupsiya jarayonining tayanch nuqtalari aniqlangan.

**NATIJAJAR.** Ilmiy tadqiqotchi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda korrupsiya natijasida yuzaga keladigan zararlarni chuqurroq o'rganilganda, ilmiy usullarsiz utilitar yondashuvni qo'llashi orqali korrupsiyaga aloqador shaxs tomonidan korrupsiyani taqiqlovchi har qanday qonun va me'yoriy normalarga kam e'tibor berishini aniqlashi mumkin bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining 2017-

yil 03-yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda asos bo‘lib hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoniga ko‘ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlikning tashkil etilishi yurtimizda inson huquqlari kafolatini mustahkamlashda yana bir olg‘a yurilgan qadam bo‘ldi.

Agentlik umuman yangicha tizim va ish uslubi asosida ish olib borishi lozim bo‘lgani hamda zamonaviy talablarga to‘g‘ri kelishi zarurligi inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4761-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilmasi shakllantirildi. Ushbu agentlik yangi O‘zbekiston uchun yangicha funksiyalarni bajaradigan tuzilmaga aylanishi, taraqqiyotimiz uchun alohida o‘rin egallagan holda faoliyat yuritishi asosiy maqsad sifatida belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan:

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlikni ta‘minlashga oid materiallarni tayyorlash uchun buyurtmalar berish;

Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta‘minlashga qaratilgan loyihalarini hamda bu borada o‘tkaziladigan tadqiqotlarini va ijtimoiy so‘rovlarini moliyalashtirish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko‘maklashish;

Agentlikda unga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashuvchi, yuridik shaxs

maqomiga ega bo‘lmagan Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish. Zamonaviy jamiyatda korrupsiyaning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o‘rganar ekan, E.Dimant va G.Tosato ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni va korrupsiyaning bugungi kundagi insonlarga ta‘siri, qo‘shni davlatlardan korrupsiya “yuqumliligi” oqibatlarini birma-bir ko‘rib chiqishadi. “Korrupsiya” fenomenining ko‘p qirraliligini tahlil qilib, ular korrupsiya va tabiiy boylik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadilar: resurslar talon-taroji va bu hodisaning “teskari aloqa halqasi”ga –korrupsiya oqibatlaridan yangisiga aylanishini ta‘kidlaydilar.

Shuningdek, bu kabi hodisalar zamonaviy jamiyatning sud-huquq sohasida poraxo‘rlik, ta‘magirlik xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

**XULOSA.** Shu o‘rinda, zamonaviy jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish amaliyotida quyidagi falsafiy yondashuvlarni taklif qilishimiz mumkin bo‘ladi:

Birinchidan, mansabdor va ma‘lum bir vakolat yoki imkoniyatga ega shaxslar deontologiyasi, diniy me‘yorlari hamda qadriyatlariga e‘tibor qaratish.

Ikkinchidan, jamoaviy tanqidiy ongning yanada rivojlantirish va diniy ulamolarning korrupsiyaga qarshi ta‘limdagi ishtirokini faollashtirish.

Uchinchidan, zamonaviy jamiyatda korrupsiyaga qarshi qonunlarni muntazam va uzluksiz ijtimoiy yangilashni amalga oshirib borish.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Vorster S.V. (2013). Fighting corruption — a philosophical approach // In die Skriflig. № 47 (1). P. 266—272.
2. Sartor M, Beamish P. Private Sector Corruption, Public Sector Corruption and the Organizational Structure of Foreign Subsidiaries // Journal of Business Ethics.2020.10.1007/s10551-019-04148-1.
3. Menokal A.R. Why corruption matters: understanding causes, effects and how to address them. Evidence paper on corruption. DFID Eviden. 2015. 89 s.
4. E.Dimant, G.Tosato. Causes and Effects of Corruption: What has Past Decade’s Empirical Research Taught us? A Survey // Journal of Economic Surveys. 2016. Vol. 32, № 2. P. 335—356.



## “PANISLOMIZM” VA “PANTURKIZM”

### MAFKURALARINING FALSAFIY TAHLILI

Yusupova Dildora Dilshatovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

### PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IDEOLOGIES OF "PAN-ISLAMISM" AND "PAN- TURKISM"

Yusupova Dildora Dilshatovna

Associate Professor at the National University Uzbekistan of  
named after Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophy (PhD)

### ИДЕОЛОГИИ «ПАНИСЛАМИЗМА» И «ПАНТЮРКИЗМА» ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Юсупова Дилдора Дилшатовна

Доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека

Доктор философии (PhD) по специальности «Философия»

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yaqin Sharq mamlakatlari va Turkiston o‘lkasidagi islohotchilar tomonidan olib borilgan siyosiy harakatlar hamda bu harakatlarni faollashuviga sabab bo‘lgan panislamizm, panturkizm kabi mafkuralarning ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga moslashish jarayonlari tarix falsafasi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, Rossiya imperiyasi, Usmoniy imperiyasi, panislomizm, panturkizm, islom dini, millat, mafkura.

**Abstract:** This article analyzes from the point of view of the philosophy of history the political movements carried out by reformers in the countries of the Middle East and the Turkestan region, as well as the processes of adaptation to the socio-historical conditions of such ideologies as pan-Islamism and pan-Turkism, which served as the reason for the activation of these movements.

**Key words:** Turkestan, Russian Empire, Ottoman Empire, pan-Islamism, pan-Turkism, Islamic religion, nation, ideology.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются политические движения, осуществляемые реформаторами в странах Ближнего Востока и Туркестана, а также процессы адаптации таких идеологий, как панисламизм и пантюркизм, к социально-историческим условиям, которые привели к активизации этих движений, анализируются с точки зрения философии истории.

**Ключевые слова:** Туркестан, Российская империя, Османская империя, панисламизм, пантюркизм, исламская религия, нация, идеология.



[yu.dildorahon@gmail.com](mailto:yu.dildorahon@gmail.com)

<https://orsid.org/0000-0003-2276-5672>

**KIRISH.** Tarixda shakllangan mafkuralar xalqlar va millatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga turli yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatgan. Ular ayrim hollarda ijobiy o'zgarishlarga, ayrim hollarda esa salbiy oqibatlariga olib kelgan. Bugungi globallashuv davrida esa o'tmishdagi mafkuralar yangi zamonaviy sharoitda qayta tiklanib, avvalgi qonuniyatlar asosida emas, balki yangi tendensiyalar va jarayonlarni shakllantirmoqda. Natijada, diniy radikalizm va separatizm kabi vayronkor hodisalar mamlakatlarning taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shuning uchun, o'tgan davrda yuzaga kelib, bugungi kunda o'zgacha ko'rinish va maqsadlar bilan qayta shakllanayotgan bunday vayronkor mafkuralarni o'rganish hamda ularni ilmiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Ushbu mavzuni tadqiq qilishda tarix falsafasi, mantiqiylik, komparativistika, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, mavzuni o'rganishda N.Xalfin, S.Abashin, K.Bendrikov, A.Taychenachev, K.Asxanov, V.Belokrenitskiy va Ali Xasanov kabi olimlarning tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi uchun eng katta xavf bu panislamizm va panturkizm mafkurasi edi. "Panislamizm - ...Islomchilik g'oyasi Turkistonda mintaqa jamoatchiligi ongida islom dini va jamiyatni isloh qilish, uni yangilash, boshqa sivilizatsiyalarning ilg'or ilmiy, texnikaviy va madaniy yutuqlaridan foydalanish, fan, ta'lim sohalarini rivojlantirish g'oyalari bilan uyg'unlashgan tarzda kuchayib borgan.

Turkiston o'lkasi general-gubernatori S.M.Duxovskiy "Turkistondagi islom" nomli maxsus ma'ruzasida Rossiya imperiyasida yashovchi musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi kuchayganligini e'tirof etib, ma'murlarni panislamizmga qarshi kurashga chaqirgan" [1. – B. 668.]. Xususan, general-gubernator S.M.Duxovskiy ushbu ma'ruzasida: "Panislamizm g'oyalarining Turkiyada va bizning tatarlar o'rtasida tarqalishi biz uchun siyosiy jihatdan ayniqsa zararlidir" [2] - deya,

alohida ta'kidlab o'tgan. Duxovskiyning bu ta'kidlari Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon jamoalariga nisbatan siyosatidagi asosiy xavotirlardan biri – panislamizm g'oyasining tarqalishi va uning siyosiy oqibatlariga bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, Turkiyaning musulmon dunyosidagi yetakchi roli, xalifa institutining siyosiy ahamiyati va panislamizm g'oyasining targ'iboti orqali imperiyadagi musulmonlarning birlashishi xavfi Duxovskiy tashvishga solgan. Uning fikricha, bunday jarayon Rossiya imperiyasi tarkibidagi tatarlar va boshqa musulmon xalqlar orasida ta'sirchanlikka olib kelishi, shuningdek, ichki va tashqi siyosatdagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Shu bois, "... Sovet Rossiyasi va SSSR rahbariyati panislamizmga qarshi kurashda xuddi turkchilik va turonchilikka nisbatan bo'lganidek, qat'iy choralar ko'rgan. Ular panislamizm va panturkizm jadidchilik va bosmachilik harakatining asosiy mafkurasi deb hisoblashgan" [1. – B. 668.].

Yana bir mafkura, ya'ni panturkizm mafkurasi ham Rossiya imperiyasini xavotirga qo'ygan mafkuralardan biri bo'lgan. "Panturkizm (pan... va turk) - turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasiga Rossiya va Angliya imperiyalari, shuningdek, SSSR tomonidan berilgan rasmiy nom hisoblangan. Bu harakat ildizlari ancha chuqur bo'lsa ham, biroq u XIX-asr oxirlari – XX-asr boshlarida Usmonli turk sultonligi va chor Rossiyasining turkiy xalqlar yashaydigan hududlarida keng tarqalgan. Yosh turklarning partiyasi "Ittihod va taraqqiy" bu qarashni o'z g'oyasi sifatida qabul qilgan. Keyinchalik Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyondalari, Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar ham uni o'z dasturiy qarashlari sifatida e'tirof qilishgan. Turkistonda podsho Rossiyaning zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari, turli norozilik chiqishlarini mustamlakachi ma'murlar panturkizm va panislamizm oqimlari ta'sirida uyushtirilgan, deb da'vo qilishgan" [1. – B. 671.].

Chunonchi, O'zbekiston SSSR Markaziy davlat tarixiy arxivi direktori, tarix fanlari doktori, professor Naftula Aronovich Xalfin (1921-1987)ning "Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi (XIX asr 60-90-yillar)" [3] nomli asarida

“Jadidlar, panislomchilar, panturkchilar va boshqa burjua millatchilari va reaksionerlari Turkiston xalqlari oʻrtasida dushmanlik tuygʻularini, Rossiyaning boshqa xalqlarga, birinchi navbatda ruslarga nisbatan nafratni qoʻzgʻashga harakat qildilar. Ular podsholikning mustamlakasiga aylantirilgan Oʻrta Osiyo xalqlari boshiga tushayotgan azob-uqubatlarning aybdori sifatida rus xalqini ayblab, tuhmat qilishga urindilar. Bu faktlarning aniq tortishuvi, tarixiy voqelikning buzilishi edi” [3. – B. 443.]– deydi.

Xalfin oʻz qarashlari orqali jadidlar, panislomchilar, panturkchilar va boshqa burjua millatchilarini rus millatiga qarshi nafrat uygʻotishda ayblashga harakat qiladi. Shu bilan birga, u tarixiy voqelikning buzilishida ham aynan ularni aybdor qilib koʻrsatadi. Bu fikrdan uning qaysi manfaatlarga asoslangan holda yondashganini anglab olish qiyin emas. Chunki, jadidlar va millatparvarlar oʻz faoliyatlarida har doim millat manfaatlarini ustuvor qoʻygan shaxslar sifatida maʼlum boʻlgan. Agar ularning harakatlari Rossiya imperiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatgan boʻlsa, bu ularni ayblash uchun asos boʻlolmaydi.

Panislomizm va panturkizm mafkuralari hozirgi kunda ham Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalarida oʻz tarixiy ildizlari asosida mavjudligini saqlab kelayotganligi, ularni bugungi kunda sinkretlashgan koʻrinishga ega boʻlib, yangi maqsadlar va yoʻnalishlarga moslashtirilgan holda taraqqiy etishiga sabab boʻlmoqda. Bu esa ushbu hududlardagi yoshlar tafakkuriga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu sababli, panislomizm va panturkizm mafkuralarining tarixiy ildizlarini hamda ularning Rossiya va Angliya imperiyalariga koʻrsatgan taʼsirini oʻrganish joriy davr uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Chunki bu taʼlimotlarning tarixi hozirgi tendensiyalarni tushunish va ularning qanday ishlayotganini aniqlash uchun muhim maʼlumotlar taqdim etadi.

Maʼlumki, Usmoniy imperiyasi oʻtgan asrda Sharqda Gʻarbga mustamlaka boʻlmagan hudud hisoblanardi. Biroq boshqa musulmonlar yashaydigan mamlakatlar Angliya va Rossiya imperiyalarining mustamlakasiga aylangan edi. Shu bois, Usmoniy imperiyasi mustamlakaga aylangan

musulmon mamlakatlari uchun bari bir oʻz liderligini saqlab qolishga harakat qilgan.

Rossiya va Angliya imperiyasi tarkibidagi mustamlaka mamlakatlarning eng asosiy muammolaridan biri “milliy tiklanish” muammosi hisoblanadi. Milliy tiklanish jarayonida millatning ehtiyoji, milliy mafkurasi maydonga chiqadi. Shu jarayonda milliy ziddiyatlar ham paydo boʻlib, voqealarning ketma-ketligi hamda uni talqin qilish holati turli toʻqnashuvlarni vujudga keltirib chiqaradi.

Sergey Abashinning “Markaziy Osiyodagi millatchilik” [4] deb nomlangan asarida islom va millatchilikning oʻrtasidagi masalalarga toʻxtalib: “...millatchilik Yaqin va Oʻrta Sharqdagi koʻplab musulmon jamiyatlarining birligiga putur yetkazadi, ular ichida ijtimoiy tuzilmada vertikal va gorizontol boʻlinishning yangi chegaralarini yaratadi” [4. – B. 208.] - deyiladi. Bu bilan muallif millatdan koʻra din koʻproq imkoniyatlarga ega ekanligini, shuningdek, millatchilik musulmonlar oʻrtasiga ham nifoq tushishiga olib kelib, diniy birlashish zarur boʻlgan hollarda millat ajratish illati salbiy taʼsir qilib, musulmonlarning birligiga putur yetkazishi mumkinligiga shaʼma qiladi.

Aynan millatchilik va diniy birlik zarurmi degan gʻoya asosida 1908-yil avgust oyida general-gubernator Mishenko tomonidan oʻz yordamchisi raisligida yashirin komissiya tuziladi va u “musulmonlar orasidagi ruhiy oqimlar va mahalliy aholini boshqarishning salbiy tomonlari” masalasiga oydinlik kirita boshlaydi. Komissiya Turkiston oʻlkasining tub aholisi oʻrtasida uch xil ruhiy harakat bor, degan xulosaga keladi: a) panislomiy, pirovard maqsad musulmonlarni nasroniy davlatlar va millatlarning qulligi va vasiyligidan ozod qilish; b) inqilobiy, hali aniq belgilanmagan; c) Turkiston musulmonlarining tatar-turklashuvi bilan tavsiflanadigan “progressivlik” harakati [5. – B. 275-276.].

Yuqorida sanab oʻtilgan harkatlarning birinchisida panislomizm mafkurasi yetakchilik qilsa, ikkinchisida bosmachilik, mardikorlar harakati, paranji tashlash, milliy ozodlik harakatlarini misol qilish mumkin. Uchinchi esa, panturkizm mafkurasi hisoblanadi. Shuningdek,

komissiya tub aholi orasida inqilobiy kayfiyatning paydo bo'lishini eng xavfli omil deb topadi hamda bayonnomada quyidagicha qayd etadi: "Turkiston musulmonlari o'rtasida inqilobiy achchiqlanish sodir bo'lsa, mintaqada shu tarafdin xavf tug'iladi va panislomizm harakati ayni damda ikkinchi o'ringa o'tib qoladi" [5. – B. 276.].

Yuqorida keltirilgan fikrlar millatchilikning naqadar xavfli ekanligini ko'rsatadi. Biroq, turkiylashtirish ssenariysi islomlashtirish ssenariysiga qaraganda ancha past va faqat milliy, etnik birlikka erishish uchun zarur bo'ladi. Islomiy birlik esa, milliy birlikka qaraganda ancha kengroq va ishonchliroq strategiya bo'la olishi mumkin.

1876-yil taxtga kelgan Sulton Abdul Hamid II davrida milliy siyosatda panislomizm ta'limoti hukmronlik qildi, u quyidagi elementlarni o'z ichiga oldi:

1) Sulton-xalifaning qiyofasini yangilash; 2) butun dunyo musulmon jamoalari bilan aloqalarni faollashtirish; 3) Usmonli imperiyasini barcha musulmonlarning himoyachisi sifatida belgilash; 4) Sulton qatnashgan diniy urf-odatlar va marosimlarga jamoatchilik e'tiborini qaratish [6. – B. 107.]. Shu bois, "Abdulhamid II davrida Usmoniy imperiyasi mafkurasining asosi islom dini yoki rus adabiyotida odat bo'lganidek, "panislomizmning reaksion ta'limoti" bo'ldi. Ko'rinishidan, Sulton o'z hukmronligining boshida "usmoniylik" konsepsiyasini yanada rivojlantirishning befoydaligini anglagan" [7. – B. 10.].

"Ma'lumki, islom din va siyosiy mafkura sifatida irq, til, etnik guruhlar va mintaqaviy jamoalarda bo'linishni tan olmaydi" [8. – B. 45.]. Shu bois ham panturkizm mafkurasidan ko'ra panislomizm mafkurasi Usmoniy imperiyasini saqlab qolishi mumkin bo'lgan yagona mafkura sifatida baholangan.

Turklar boshqa geosiyosiy, geostrategik faoliyat dasturlaridan, chunonchi ruslar yuritgan etnik-diniy maskanlar yaratish, mahalliy aholini til, din va milliy tomondan assimilyatsiyaga giriftor etish, o'ziga qaram holga keltirish, maxfiy shakldagi uzoq muddatli geosiyosiy ta'sir mexanizmlarini

yaratish kabi usullardan foydalanmaganlar. Turklarning geosiyosiy shiori "yo makonga tom hokim bo'lish, yoki hududni tark etmoq" siyosatidan kelib chiqqan [9. – B. 204].

**XULOSA.** Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Rossiya va Turkiya tashqi siyosatida bir-biridan xavfsirash va bir-birining strategiyasiga qarshi mafkuralar bilan kurashish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu ikki imperiya tashqi siyosatda o'zaro hamkorlik qilayotgandek ko'rinsada, biroq biri ikkinchisiga zimdan turli choralar ko'rishga harakat qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: Панисломизм. 6-жилд. Мирий-Пархиш. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003.
2. ЦГА РУз. Ф.И-1, оп. 32, д. 384, л. 7.
3. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-90-е годы XIX в.) – Москва.: Наука, 1965.
4. Абашин С. Национализмы в Средней Азии: в поисках идентичности. Санкт-Петербург: Алетейя, 2007.
5. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы). - Москва: АПН РСФСР, 1960.
6. Тайченачев А.А. Национальная политика Стамбула: от Османской империи к Турецкой Республике. // Выпускная квалификационная работа бакалавра. - Томск: 2018.
7. Асханов К.Г. Мусульманские страны Ближнего Востока в XX – начале XXI веков. Учебное пособие. - Казань: Яз, 2014.
8. Белокреницкий В.Я. Пакистан, Южная Азия, исламский мир, Восток. Избранные публикации 2008 – 2016 гг. / Институт востоковедения РАН. – М.: ИВ РАН, 2016.
9. Али Хасанов. Геоисёсат. / Озарбайжончадан Бобохон МУЊАММАД ШАРИФ таржимаси. - Тошкент: Tamaddun, 2016.



## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GEOLOGIK ATAMALARNING XUSUSIYATLARI

*Turdikulova Barno Toirkulovna, Guliston davlat pedagogika  
instituti katta o'qituvchisi*

## FEATURES OF GEOLOGICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

*Turdikulova Barno Toirkulovna, Gulistan State Pedagogical  
Institute, senior lecturer*

## ХАРАКТЕРИСТИКА ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Турдикулова Барно Тоиркуловна, старший преподаватель  
Гулистанского государственного педагогического  
института*

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz va o'zbek tili geologik terminlarining cog'ishtirma tahlili, antonimiya, sinonimiya, polisemiya kabi hodisalarining namoyon bo'lishi ochib berilgan va tegishli xulosa chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** geologik atamalar, terminologiya, antonim, sinonim, polisemiya, tarjima, lug'at.

**Abstract:** The article reveals a comparative analysis of geological terms in English and Uzbek languages, the manifestation of such phenomena as antonymy, synonymy and polysemy and draws appropriate conclusions.

**Key words:** geological terms, terminology, antonyms, synonyms, polysemy, translation, dictionary.

**Аннотация:** В статье раскрыты сравнительный анализ геологических терминов английского и узбекского языков, проявление таких явлений, как антонимия, синонимия и полисемия и сделаны соответствующие выводы.

**Аннотация:** В данной статье описана проблема разрешения кореференции, связанной с местоимениями, преимущества и недостатки использования алгоритма Хоббса при ее решении. Также описаны особенности алгоритма Хоббса и инструкции по его использованию. Алгоритм был применен к текстам на узбекском языке и изучен принцип его работы.

**Ключевые слова:** *алгоритм Хоббса, местоимение, анафора, антисидент, тег, дерево синтаксического анализа, сочетание.*

**Abstract:** This article discusses the problem of solving coreference related to pronouns, the advantages and disadvantages of using the Hobbs algorithm to solve it. It also describes the specific features of the Hobbs algorithm and instructions for its use. The algorithm is applied to Uzbek texts and its working principle is studied.

**Key words:** *Hobbs algorithm, pronoun, anaphora, antecedent, tag, parse tree, conjunction*

**KIRISH.** Hobbs algoritmi anaforani hal qilish uchun qoidaga asoslangan algoritmdir. U birinchi marta 1978-yilda Jerri Hobbs tomonidan taklif qilingan. Algoritm, avvalo, anaforani o‘z ichiga olgan gapning sintaktik tahlil daraxtini yaratish orqali ishlaydi. Tahlil daraxti gapdagi so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatlarini

ko‘rsatadi. Ya’ni Hobbs algoritmi anaforaga muqobil antisidentni aniqlash uchun tahlil daraxtidan foydalanadi. **Anafora** o‘zidan avval keltirilgan shaxs, narsa, holat kabilarni ko‘rsatuvchi, ishora qiluvchi, antisidentga bog‘liq so‘z bo‘lib [1], o‘zbek tilshunosligida anafora “olmosh” ekanligi ta’kidlangan [2]. Anafora bilan bir xil grammatik



shaklda va bir xil jinsda bo'lgan ot va otlashgan so'zlar **antisident** sifatida belgilanadi. Ushbu algoritmning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- Algoritm grammatik qoidalarga asoslangan;
- Faqat 3-shaxs olmoshlari uchun amal qiladi;
- Joriy gaplarda “to'g'ridan chapga” tamoyili bo'yicha qidiruvni olmoshga eng yaqin turgan ot yoki otlashgan so'zdan boshlaydi.
- Agar antisident topilmasa, oldingi gaplardan “chapdan to'g'riga” tamoyili asosida qadamma-qadam qidiruvni davom ettiradi.
- Sodda va amalga oshirish oson.

Hobbs algoritmiga ko'ra, anafora hamda antisident sifatida taxmin etiladigan birlik quyidagi jihatlarda teng bo'lishi lozim:

1. *Shaxs.*
2. *Jins.*
3. *Raqam.*
4. *Joylashuv.*
5. *Grammatik o'rni.*

Hobbs algoritmining afzalligi shundaki, keltirilgan qoidalar asosida har bir gapning sintaktik daraxtidan antisidentlarni topish va ularning aniqlik ko'rsatkichini qo'lda hisoblash mumkin. **Algoritmni o'zbek tili matnlariga tatbiq etishning birinchi bosqichi** o'zbekcha matnlarni *grammatik teglash* hisoblanadi. Bu jarayonda sintaktik birliklar formallashtirilishi talab etiladi, ya'ni ularning har biri ramzlanadi. Ana shunday maxsus qabul qilingan lingvistik belgilar, ramzlar **teg** deb nomlanadi. Teg – matn tahlilini amalga oshirish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirishga xizmat qiluvchi shartli belgi yoki maxsus koddir [3]. Hobbs o'z algoritmidagi gap uchun S, o'tli birikmalar uchun NP, fe'lli birikmalar uchun VP, predlogli birikmalar uchun PP, o'rin-joy otlari uchun NP\_loc, o'tli birikma tarkibidagi birliklar uchun N-bar kabi teglardan foydalangan. Ularning to'liq ro'yxati 1-jadvalda keltiriladi:

1-jadval. Hobbs tomonidan qo'llangan grammatik teglar

Teg	Izoh	Namuna
S	gap	<u>Bugun yomg'ir yog'adi.</u>
NP	otli birikma	<u>qiziqarli kitob</u>
VP	fe'lli birikma	<u>ta'tilda dam olmoq</u>
PP	predlogli birikma	<u>qalam bilan chizmoq</u>
Det	aniqlovchi	<u>ko'p mahsulot</u>
N-bar	otli birikmani tashkil etuvchi qism	<u>chiroyli qiz</u>
NP_nom	bosh kelishikdagi otli birikma	<u>go'zal tabiat</u>
NP_acc	tushum kelishigidagi otli birikma	<u>qarzni so'rash</u>
NP_dat	jo'nalish kelishigidagi otli birikma	<u>unga gapirish</u>
NP_abl	chiqish kelishigidagi otli birikma	<u>onadan ranjish</u>
NP_gen	qaratqich kelishigidagi otli birikma	<u>mening maoshim</u>
NP_loc	o'rin-joyini ifodalovchi otli birikma	<u>maktabda o'qimoq</u>


Keltirilgan grammatik teglar ingliz tili grammatikasi asosida ishlab chiqilgan. Shu bois tahlil jarayonida ushbu teglarga tayaniladi va ba'zi teglar o'zbek tili grammatikasi uchun moslanadi. Xususan, “predlog” termini “old ko'makchi” degan ma'noni bildiradi [4] va vazifasiga ko'ra o'zbek tilida yordamchi so'z turkumiga mos keladi. Biz sintaktik jihatdan **PP** sifatida yordamchi so'z orqali birikkan birikmalarni, **Det** sifatida sifatlovchi aniqlovchili birikmalarni, **NP\_gen** sifatida qaratqich aniqlovchili birikmalarni tekshiramiz. Vaholanki, Hobbs *-ning* qo'shimchasiga teng keluvchi *of* (-ning) predlogini

PP doirasida, *'s* (-ning) qo'shimchasini Det doirasida, *his*, *her* kabi qaratqich kelishigida turlangan so'zlarni NP\_gen doirasida tahlil qilgan. Teglar burchakli qavslarda (< >) aks ettiriladi [5]. < / > “ochuvchi”, < > “yopuvchi” teg belgisi sifatida qabul qilingan. Quyida o'zbekcha matnlarni sintaktik teglar yordamida teglash jarayonini ko'rish mumkin:

**Asl matn:** *Kivi to'liq dietaga mos keladigan oziq-ovqatdir (1). Uni dietangizga qo'shish tavsiya etiladi (2).*

**Grammatik teglangan matn:** </N> Kivi </N> </NP\_dat> to'liq dietaga mos keladigan </NP\_dat> </VP> oziq-ovqat hisoblanadi </VP> (1). </P> Uni </P> </NP\_dat> dietangizga qo'shish </NP\_dat> </VP> tavsiya etiladi </VP> (2).

**Ikkinchi bosqich** berilgan matndagi har bir gapning sintaktik tahlil daraxtini shakllantirishdir. Sintaktik daraxt – tabiiy tilda gap yoki so‘z birikmasi sintaktik tuzilishining grafik tasviridir [6]. Ma'lumki, gap so‘z birikmalaridan tashkil topadi. Sintaktik daraxt dastlab gapni otli va fe'lli so‘z birikmalariga ajratadi va so‘z birikmalari zanjiridagi lingvistik birliklar munosabatini aniqlab beradi. Yuqorida grammatik teglangan matnning sintaktik tahlil daraxtlarini shakllantiramiz. 1-gap uchun sintaktik tahlil daraxti quyidagi ko‘rinishga ega:




### 1-rasm. 1-gapning sintaktik tahlil daraxti

2-gap uchun sintaktik tahlil daraxtini quyida tasvirlaymiz:



### 2-rasm. 2-gapning sintaktik tahlil daraxti

Tahlil daraxtlari yaratilgach, **uchinchi bosqichda** qoidalarga tayangan holda antisident aniqlanishi zarur. Joriy gapda qidiruv olmoshdan oldinda joylashgan NP dan boshlanishi kerak. Olmosh gap boshida joylashgani sababli oldingi gapdagi NP larni “chapdan to‘g‘riga” tamoyili bo‘yicha qidiramiz. NP\_dat tarkibidagi “dietaga” so‘zi ega vazifasida bo‘lmagani uchun keyingi NP – “kivi” so‘zi tekshirildi va barcha qoidalarni qanoatlantirgani uchun antisident sifatida tanlandi, qidiruv yakunlandi:



### 3-rasm. Antisidentni aniqlash jarayoni

Tahlillardan ko‘rinadiki, Hobbs algoritmini o‘zbekcha matnlarga tatbiq etganda qisqa va sodda gaplar tahlili orqali samarali natijaga erishish mumkin. Ammo nutqdagi murakkab gaplar tahlilida bu algoritmi qoidalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi. Demak, Hobbs algoritmi kamchiliklardan xoli emas:

- Ko‘p vaqt sarf lanadi;
- Murakkab gaplarda to‘g‘ri variantni aniqlay olmaydi.
- Matnning semantik ma‘nosini hisobga olmaydi.

Shunga qaramay, Hobbs algoritmi olmoshlarda koreferentlik muammosini hal etish uchun qimmatli vositadir. U ko‘plab tabiiy tillarni qayta ishlash dasturlarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan oddiy va samarali algoritmi. Biroq uning grammatik qoidalarini bilish va uni boshqa usullar bilan birgalikda qo‘llash muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Elova D.Q. O‘zbek tili matnlarida koreferensiyani hal qilish bosqichlari. /

“Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Vol 1, № 01 (2023), 156-161-b.

2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002.
3. Primova M. Til korpuslarida matnlarni annotatsiyalash: afzallik va kamchiliklari. / O‘zbekiston: til va madaniyat, 2023 Vol. 4 (6), 6-18-betlar.
4. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki>
5. Abjalova M. Korpus birliklarini teglash va annotatsiyalash masalasi. / “Zamonaviy ilmfan va ta’lim istiqbollari” Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami, Vol. 1, Issue 2, 2023. – 345-351-betlar.
6. Abdullayeva O. O‘zbek tili matnlarida sintaktik teg va teglash masalasi. / O‘zbekiston: til va madaniyat, 2023 Vol. 1 (6), 46-57-betlar.



## XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA IQTISODIY O‘ZGARISHLAR

*Azizov Ikromjon Shadibayevich*

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti*

*Ijtimoiy gumanitar fanlar va tarix kafedrası katta o‘qituvchisi*

## ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПЕРЕМЕНЫ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

*Азизов Икромжон Шадибаевич*

*Старший преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук и*

*истории Ташкентского международного университета*

*финансового менеджмента и технологий*

## ECONOMIC CHANGES IN THE BUKHARA EMIRATE IN THE SECOND HALF OF THE 19TH - EARLY 20TH CENTURY

*Azizov Ikromjon Shadibaevich*

*Senior Lecturer at the Department of Social-Humanities Sciences and*

*History, Tashkent International University of Financial Management*

*and Technology*



e-mail:

[ikromjonazizov77@mail.ru](mailto:ikromjonazizov77@mail.ru)

Orcid: 0009-0003-0761-964X

**Аннотация:** XIX asr ikkinchi yarmida dunyoda yuz berayotgan mustamlakachilik harakati Rossiya imperiyasi sababli Buxoro amirligiga yetib kelishi natijasida amirlik ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotida bir qator o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. An‘anaviy tarzda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanayotgan Buxoro amirligi hayotida Buxoro va Rossiya o‘rtasida tuzilgan do‘stlik va tinchlik shartnomasi amalda amirlikni Rossiyaning mustamlakasiga aylantirdi.

**Калит so‘zlar:** tijorat, bank, bojxona, tanga, rubl, karvonsaroy, mustamlaka, imperiya, amirlik, amir, savdogar, shartnoma, chegara, daromad.

**Аннотация:** Во второй половине XIX века колониальное движение, произошедшее в мире в связи с приходом Российской империи в Бухарский эмират, вызвало ряд изменений в общественной, политической и экономической жизни эмирата. В жизни Бухарского эмирата, развивающегося экономически и социально традиционным путем, договор о дружбе и мире заключенный между Бухарой и Россией, практически превратил эмират в колонию России. В результате соглашения экономические связи эмирата были ориентированы в основном на Россию, а эмират стал сырьевым полем России.

**Ключевые слова:** торговля, банковское дело, таможня, чеканка монет, рубль, караван-сарай, колония, империя, эмират, эмир, купец, договор, граница, доход.

**Abstract:** In the second half of the 19th century, the colonial movement that took place in the world in connection with the arrival of the Russian Empire in the Bukhara Emirate caused a number of changes in the social, political and economic life of the emirate. In the life of the Bukhara Emirate, developing economically and socially in a traditional way, the treaty of friendship and peace concluded between Bukhara and Russia practically turned the emirate into a colony of Russia. As a result of the agreement, the economic ties of the emirate were oriented mainly towards Russia, and the emirate became a raw material field for Russia.

**Key words:** Trade, banking, customs, coinage, ruble, caravanserai, colony, empire, emirate, emir, merchant, treaty, border, income.



## **KIRISH(BВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).**

Buxoro amirligida amir Shohmurod davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida XIX asr boshlaridan boshlab iqtisodiy rivojlanish an'anaviy tarzda davom etayotgan bir vaqtda Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasida tuzilgan tinchlik va do'stlik shartnomasi natijasida iqtisodda bir qator o'zgarishlar yuz berdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS).** Asrlar davomida mintaqadagi yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan Buxoro shahrida XIX asr 60-yillarida 50 ta karvonsaroy, 50 ta oddiy va yopiq bozorlar [6:659], 6 ta chorsu bozor, 25 ta shahar atrofidagi savdo shoxobchalari mavjud bo'lganligi ma'lumotlarda qayd etilgan [13:625].

1860-yillardagi rus tilidagi ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligida 30 ta [1:365-366], 1870-yilda 50 ta [4:86], 1892-yildagi ma'lumotlarda esa, 150 ta karvonsaroy bo'lganligi qayd etiladi [13:625]. Karvonsaroylar qurilishi, hashami va sarmoyasining kattaligi bilan O'rta Osiyoning boshqa karvonsaroylaridan ajralib turgan. Rossiyadan keladigan rus savdogarlari o'z tovarlarini 1500 ta tuya sig'adigan Olim saroyda saqlaganlar, tatar savdogarlari esa, 2000 tuya sig'adigan No'g'ay saroyda [4:86], afg'onlar va hindlar ham o'z karvonsaroylarida savdo qilishgan. Karvonsaroylarda ulgurji savdo ham olib borilgan, musulmon va rus savdogarlaridan 2,5 foiz, nomusulmon savdogarlardan 5 foiz miqdorda soliq olingan [4:87].

Karvonsaroylarda ko'tara va chakana savdo yurituvchi savdogarlar uchun qo'noq, ya'ni yotoq, otxona, omborlar, shuningdek, pul almashtiruvchi sarroflar, va hattoki, tabiblar uchun ham hujralar bo'lib, bu yerda kelib ketib turgan savdo ahliga xizmat ko'rsatilgan. Karvonsaroylar mahsulot turiga qarab ixtisoslashgan. Masalan, amirga tegishli Sayfiddin karvonsaroyida ipak, zarbop matolar, duru gavharlar, olmos va tilla bilan savdo qilingan. Meshsaroy karvonsaroyida ko'pchilik mahsulotlari bilan, Buzgunj saroyida bo'yoqchilar, Barra va Po'st saroylarida qorako'l savdosi olib borilgan.

## **MUHOKAMA(OБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan Buxoro amirligini o'ziga qaram etib, Buxoro bozorlarida yakka hukmronlikka erishishga kirishdi. 1892-yilda Peterburgda amir va Rossiya hukumati imzolagan hujjatga muvofiq

1894-yil yanvarda Buxoroning Afg'oniston bilan chegarasi Rossiya imperiyasining boj tizimiga kiritildi [3:195-196]. Shundan so'ng amirlikning tashqi savdo aloqalari imperiya manfaatiga bo'ysundirilib, chet mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalariga cheklovlar qo'yildi [9:1-4].

Karki shahridan Darvozgacha Rossiya chegara xizmati joylashtirildi. Mamlakat amalda Rossiya imperiyasining ichki bozoriga aylandi. Bu shartnoma Buxoroni savdo siyosatida ham mustaqillikdan mahrum etdi [11:83].

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi pul tizimini ham o'z manfaatlariga bo'ysundirdi. Bahorda va kuzda tanga kursi ko'tarilib, yozda pasayar edi, o'z navbatida Rossiya rubli kursi ham shunga monand o'zgarardi. Pul kursining o'zgarishidan Rossiya savdogarlari norozi edi. Buxoro va Peterburgdagi muzokaralardan so'ng, 1900 yil 3 aprelda Buxoroda tanga zarb etish to'xtatilib, muomaladan chiqarildi va muomalada yurgan tanga Rossiyaning 15 tiyiniga (ya'ni kopeykasiga) tenglashtirildi [10:14]. Pul islohotidan keyin amirlikka Rossiya imperiyasining kredit rubli, oltin va kumush tangalari kiritildi. Shu tariqa Buxoro amirligi pul tizimi ham butkul Rossiyaga bo'ysundirildi. Mazkur tadbirlar Buxoro amirligida metropoliyaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishga qaratilgan edi. Mamlakatda katta daromad beruvchi xom ashyoni ishlab chiqarish va metropoliyaga olib ketish jarayonlarini moliyalashtirish maqsadida rus sarmoyadorlari tomonidan bank kredit tizimi va savdo firmalari tashkil etildi. 1894-yilda Yangi Buxoroda davlat bank bo'limi ish boshlab, 20 yilda uning sarmoyasi 90 000 000 rublga yetdi. Buxoro shahrida davlat banki bo'limi bilan birga 7 ta xususiy bank bo'linmalari ham faoliyat yuritgan. 1914-yilga kelib, xususiy banklar sarmoyasi 20 300 000 rublni tashkil etgan [7:5]. 1911-yilda ochilgan "Azov-Donetsk banki" Buxoro va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi ip gazlama sanoati vositachisi vazifasini bajarsa, 1912 yilda Buxoroda bo'linmasi ochilgan "Sibir savdo banki" paxta va boshqa sanoat korxonalarini sotuvini kreditlash tizimi bilan shug'ullangan. Amir Said Olimxon davlat bankida 27 000 000 oltin rubllik sarmoyasiga ega bo'lishdan tashqari xususiy banklarda ham 7 000 000 rubl saqlagan. U dunyo bozorida qorako'l savdosi bo'yicha uchinchi o'rinda turar edi. Iqtisodiy munosabatlarning kun sayin rivojlana borishi tufayli, mahalliy tadbirkorlar

birinchi jahon urushi yillariga kelib, 105 000 000 oltin rubl sarmoyaga ega bo'lib olgach, Rossiyalik sarmoyadorlar bilan Buxoro bozori uchun raqobatlasha boshladilar.

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).**

Buxoro amirligini metropoliya bilan bog'lashda, mamlakat hududida imperiya manfaatlarini ta'minlashda, ichki aloqalarni rivojlantirishda temir yo'llar qurilishi muhim rol o'ynadi. Kaspiy orti temir yo'lining qurilishi bunga katta imkoniyat yaratdi. Rossiya imperiyasi hukumati temir yo'llarni Samarqandgacha yetkazish maqsadida 1885-yil 25-iyulida Buxoro amirligi bilan shartnoma tuzib, yo'lni amirlik hududidan o'tkazishni rejalashtirdi va temir yo'l 1866-yilda Marvgacha, yil oxirida Chorjo'y va Amudaryogacha, 1888-yilda esa, Samarqandgacha yetkazildi. Kaspiy orti temir yo'li yo'nalishida Eski Buxorodan 11 versta 400 sajen masofa uzoqlikda Kogon (Yangi Buxoro) bekati qurilgan bo'lib, ushbu bekatdan tushirilgan tovarlar eski Buxoroga tuproq yo'llar orqali, eshak va tuyalar bilan olib ketilib, bunga katta mablag' va vaqt talab etilardi. Eski hamda Yangi Buxoroni bog'laydigan yo'lni qurish haqidagi Buxoro va Rossiya imperiyasi hukumati o'rtasidagi diplomatik yozishmalar deyarli 10 yil davomida olib borildi. 1898-yil Buxoro amiri Peterburgda bo'lib, u yerda Eski va Yangi Buxoro o'rtasidagi temir yo'l liniyasi xususida mutaxassislar bilan muzokaralar olib borilgach, 1900-yildan qurilish ishlari boshlandi. 1901-yilning 23-sentabrida ushbu temir yo'l tarmog'ining O'rta Osiyo temir yo'li tarkibiga kiritilishi to'g'risida akt imzolandi va ishga tushirildi. Bu temir yo'l yo'nalishi O'rta Osiyo temir yo'lining Buxoro tarmog'i deb ataldi [8:66-67].

O'rta Osiyo magistral temir yo'li Buxoro amirligining asosan shimoliy qismidan, Zarafshon daryosi bo'ylab o'tgan edi. Amirlikning janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy qismlari esa temir yo'ldan chetda qolgan edi. Buxoro amirligining janubiy qismi tabiiy boyliklarga boy hudud bo'lib, bundan unumli foydalanish hamda harbiy strategik ahamiyatga molik bo'lgan Termiz shahri bilan aloqani yo'lga qo'yish maqsadida 1910-yilda Rus hukumati Amir Abdulahad bilan Kogon-Termiz temir yo'lini qurishga kelishdi [11:21]. Buxoro amiri 1912-yilda ushbu temir yo'l uchun 600 desyatina yerni bepul ajratishga rozilik berdi [2:60]. 1914-1916-yillarda Buxoro temir yo'li qurib bitkazildi va

ishga tushdi. Bu yo'ning umumiy uzunligi 572 verstani tashkil etgan bo'lib, shundan 150 verstasi afg'on chegarasi bo'ylab o'tgan edi. Umuman olganda amirlikdan Rossiyaga jo'natiladigan mollarning 80 foiz qishloq xo'jalik mahsulotlaridan iborat bo'lgan. Bular jumlasiga ipak xomashyosi, qorako'llar ham kirgan. 1914-yilda Rossiyaga 25 000 pud pilla yuborilgan.

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).**

XIX asrda Buxoro amirligi tijorat munosabatlari an'anaviy ko'rinishda rivojlanayotgan bir vaqtda Rossiya imperiyasi tomonidan yarim mustamlakaga aylantirilgandan so'ng turli majburiy shartnomalar tuzish orqali Rossiya manfaatlariga bo'ysundirildi. Buning asosida turli yangi iqtisodiy shakllar kirib keldi va o'z natijasini ko'rsata boshladi. An'anaviy karvon yo'li va tijoratining o'rnini temir yo'llari, sarroflar faoliyatini esa banklar egallay boshladi. Telefon va telegraf aloqa tizimlari yo'lga qo'yilgandan so'ng savdo munosabatlari tezlashib borishi natijasida Buxoro amirligi va Rossiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 10 barobarga oshdi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References)**

1. Ахметжонова З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 г.г). Ташкент. 1965.
2. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград. 1915.
3. Костенко Л. Путешествие в Бухару Русской миссии в 1870 году. Санкт-Петербург. 1871.
4. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. Ташкент. 1922.
5. Россия. Полное географическое описание нашего отечества. Том 19.
6. Рябинский А.М. Царская Россия и Бухара в эпоху империализма / Историк марксист. №4. 1941.
7. Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. Ташкент. 1966.
8. O'zbekiston Milliy arxivi. I-126 jamg'arma. 1-ro'yxat. 1101-yig'ma jild.
9. O'zbekiston Milliy arxivi. I-2 jamg'arma. 1-ro'yxat. 97-yig'ma jild.
10. O'zbekiston Milliy arxivi. I-2-jamg'arma. 1-ro'yxat. 277-yig'ma jild.
11. O'zbekiston Milliy arxivi. I-3 jamg'arma. 1-ro'yxat. 368-yig'majild.

## XORAZMLIK SHOIRALAR IJODIDA DARAXT OBRAZI TALQINI

*Atajanova Nilufar Fayzullayevna, Urganch davlat universiteti o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A TREE IN THE CREATION OF KHORAZM POETS

*Atajanova Nilufar Faizullaevna, teacher of Urganch State University, doctor of philosophy in philological sciences (PhD)*

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ДЕРЕВА В ТВОРЧЕСТВЕ ХОРЕЗМСКИХ ПОЭТЕСС

*Атаджанова Нилуфар Файзуллаевна, преподаватель Ургенчского государственного университета, доктор философии по филологическим наукам (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorazmlik shoiralarning ijodida daraxt obrazining ifodalanishi xususida so'z boradi. Xususan, Ullibibi Otayeva va Gavhar Ibodullayevalarning obraz yaratish mahorati she'riy tahlillar orqali yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Obraz, peyzaj, uslub, sujet, metafora, motiv, tashbih, timsol.

**Abstract:** This article discusses the representation of the image of trees in the works of Khorezmian poets. In particular, the skill of creating images of Ullibibi Otayeva and Gavhar Ibodullayeva is highlighted through poetic analysis.

**Key words:** image, landscape, style, subject, metaphor, motif, allegory, symbol.

**Аннотация:** В данной статье говорится о репрезентации образа дерева в произведениях хорезмийских поэтов. В частности, посредством поэтического анализа подчеркивается мастерство создания образов Уllibibi Отаевой и Гавхар Ибодуллаевой.

**Ключевые слова:** образ, пейзаж, стиль, сюжет, метафора, мотив, аллегория, символ.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION.** Badiiy adabiyot tili – obrazlar tilidir. Bu til qanchalik tabiiy, jonli va jozibali hamda ma'naviy jihatdan mukammal bo'lsa, she'ring ta'sir kuchi ham, tarbiyaviy ahamiyati ham shunchalik salmoqdor bo'ladi. Aslida, obrazlilikning ilk manbai xalq so'zidir. Kundalik hayotimizda ishlatiladigan oddiy atamalar – turli-tuman unsurlar, narsahodisalar hamda jarayonlarning insonlar tomonidan tavsiflanishining o'zi ham ijodkorlik va obrazlilikni yuzaga keltiradi. Ijodkor esa avvalo, o'z badiiy tafakkuri, qolaversa, davrning ruhi, turli ijtimoiy, psixologik qarashlar va adabiy jarayon bilan



<https://orcid.org/0009-0001-8790-7144>

e-mail:

[filolog.atajanova@gmail.com](mailto:filolog.atajanova@gmail.com)

birgalikda badiiy obrazni yaratadi. Adabiyotshunos T.Rasulov ta'kidlaganidek, "Badiiy mazmun hayot materialining xususiy mazmuni asosida tug'iladi. Shunga ko'ra, u voyaga yetganida o'sha materialning san'at asariga ko'chmasdan avvalgi umumiy mazmuni va qiyofasida emas, balki faqat o'z mavjudligini ifoda etuvchi yangi qiyofada mujassamlanadiki, bu yangi qiyofa badiiy obrazdir"[1.8]. Darhaqiqat, an'anaviy so'zni poetik so'zga aylantirish va unga o'ziga xos jilo, badiiy sayqal berish ijodkorning mahoratini ko'rsatuvchi eng muhim jihatdir.



**ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И  
МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND  
METHODS).**

Daraxtlar – hayotimizning bir qismi. Ular ham insonlarga o'xshaydi. Daraxtlarning ham o'z hayoti bor. Ijod ahli tabiat olamini insonning ma'naviy hayoti bilan bog'liqlikda tasvirlaydi. Xorazmlik shoirlar she'riyatida tabiat bor rangin qudrati va jozibasi bilan insonning ma'naviy tayanchi va hamnafasiga aylanadi. Xuddi shu ifodada daraxt va inson o'rtasidagi uzviylik yuzaga keladi:

*Tuproq erur uning vatani,  
Yerga botib ulg'ayar tani.  
Daraxt ham bir odam degani,  
Hech bo'lmasa, bir daraxtday bo'l [2.16].*

Sinchkov kuzatuvchanlik va tabiat fusunkorligini nozik his etish Gavhar Ibodullayevaga shunday bir manzara yaratish imkonini beradiki, undagi har bir detal, har bir obraz hayotiyli va jonliligi bilan ahamiyat kasb etgan. Shoironing ushbu she'rida ulug'vorlik, bag'rikenglik, xokisorlik kabi insoniy fazilatlar daraxt timsoli orqali ifoda etiladi. Garchi daraxtning vujudi, tanasi xokda, tuproqda bo'lsa-da, u osmon qadar yuksaladi. Xuddi shu kabi insonlar ham kamtarlikni, xokisorlikni o'ziga odat qilsa, bu ezgu fazilatlar daraxtlar kabi yuksaklarga bo'y cho'zishiga zamin yaratadi. She'rda daraxt timsoli orqali buyuk mazmun, yuksak tuyg'ular sodda va aniq ifoda etilgan. Zero, A.A'zam ta'kidlaganidek, "O'ziga katta fikr va teran hissiyot ko'lamini sig'diradigan umumlashma poetik obrazlar aniqlikka, konkretlikka asoslangandagina jumboqqa aylanib qolmaydi, she'rxonda noaniq taassurot uyg'otmaydi"[3.98].

Ullibibi Otayeva "Kech kuz manzaralari" she'rida esa, daraxt barglarining sarg'ayib yerga tushishini "O'zlikning yuqori taxtidan tushmoq, oyoqlar ostiga to'shalmoq", deya ta'riflaydi. Daraxtning boshida turganda tillodek qimmatli bo'lgan xushro'y yaproqlar oyoqning ostiga tushgach, xazon degan so'zga aylanishini ta'rif qilgan:

*Zarligi qolmasdan somonga do'nar,  
Supurilar bog'dan, haydalar,  
Bir joyga to'planib, qatl qilinar,  
Ya'ni yoqilar [4.112].*

Har mavsum kuz daraxtning qismatiga shunday hukm chiqaradi. Buni esa Ullibibi Otayeva

o'zining individual uslubi – tabiatan olamni tafakkur ko'zi bilan ko'rishga intilganligining guvohi bo'lamiz. Shoir tabiatdagi bor ranglar-u bo'yoqlarni o'z she'rlariga shunchaki ko'chirib qo'ya qolmaydi. Ijodkor tasvirida endi yanada boyigan va teranlashgan fusunkorlikdan kitobxon ruhiy bahra oladi va ma'naviy dunyosi yanada yuksaladi. Zero, she'rdagi his-tuyg'ular ta'sirchanligi ham, obrazlar teranligi ham ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog'liqdir.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /  
DISCUSSION).** Shunday badiiy obrazlar bo'ladiki, ular o'quvchi tafakkurida darhol hayotiy tasavvurlar uyg'ota oladi. Va yana shunday obrazlar ham bo'ladiki, u orqali kitobxonda faqat umumiy taassurotlar, tushunchalar paydo bo'ladi. Ullibibi Otayeva o'z ijodida kitobxon tafakkur olamida hayotiy tasavvurlar uyg'otadigan obrazlar yaratadi. Uning qalbidagi tuyg'u va g'oya aniq shakllangan va shu bois she'rdagi majoziy timsollar ham hayotiylik kasb etadi. Fikrimizning dalili quyidagi "Daraxt" she'rida yorqin namoyon bo'ladi:

*Ayrimoqchi emas edi yaproqlardan,  
Ular o'zi tark etdilar daraxtni,  
Endi barglar toptalishib oyoqlarda,  
Qo'msashadi o'zlari boy bergan baxtni.  
Daraxt esa mag'rur turar sukut saqlab,  
Bir qudratli ishonch tuyib tomirlarda.  
U biladi: barglar kelar hayot so'rab,  
Navbahorda vujudiga solib larza! [5.50].*

Ma'lumki, hayotda inson biror muammoga duch kelganda yoki biror masalani xayolan o'zicha hal qilganida, uni atroflicha o'ylaydi, mushohada qiladi. So'ngra esa ana shu muammolar to'g'risida umumiy fikrlar va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. She'rda ham deyarli shunday. Deylik, ushbu she'rning ilk misralarida ham mutanosib, ham ziddiyatli obrazlar orqali yoritib berilmoqchi bo'lgan fikr va g'oyalar o'rtaga tashlangan hamda keyingi satrlarda ana shu fikr yoki g'oyaning o'ziga xos jihatlari va muhim qirralari ko'rsatilgan. She'rda keltirilgan tabiat tasviri, ya'ni daraxt yaproq to'kishi – ko'pchilik payqamaydigan, lekin payqab olsa, zavqi toshadigan manzara. Shoir esa bu ko'rkamlikni misralarga mohirona joylay olgan. Daraxt obrazi asosida aslida inson yotadi. Eng yaqin insonga xiyonat qilish, uni tark qilish, boy bergan baxtni qo'msash va yana unga qaytish tasviri "ot aylanib qozig'iga keladi" maqolini esga keltiradi.



Tadqiqotchi D.Rajabov qayd etganidek: "... har qanday badiiy obraz avval detal bo'ladi, keyinchalik vaqt va zamon o'tishi bilan nimanidir o'zida aks ettirish vajidan timsoliylik kasb etadi hamda keyinchalik yaxlit va umumlashma holatni tasvirlash maqsadida obrazlilik darajasigacha ko'tarila oladi"[6.39]. Darhaqiqat, shoirlar ijodida bugungi davr kishisining ma'naviy dunyosi va ruhiy olamini butun ranginligi bilan tasvirlash ehtiyoji badiiy tilda yangi obrazlar, (yoki an'anaviy obrazga yangicha yondashuvlar) vositalar yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqning ijtimoiy-estetik tafakkurida yuz bergan jiddiy sifat o'zgarishlari badiiy tilning ijtimoiy-psixologik yangilanishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

**NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Xorazmlik shoirlar she'riyatida xoh u tosh, xoh u daraxt obrazi bo'ladimi, barchasida tabiat ne'matlarining badiiy ifodalari o'z aksini topgan. Gavhar Ibodullayeva she'rlarida tabiat inson hissiyotlari va kayfiyatiga monand tarzda tasvirlansa, Ullibibi Otayeva she'rlarida peyzaj tasviri nihoyatda rang-barang, shu bilan birga, murakkab va shiddatlidir. Go'zal Begim ijodida tabiat ruhiy holat va kechinmalarni tasvirlovchi vosita vazifasini o'taydi. Shoira Shams she'rlarida esa tabiat lavhalari va hodisalari zamiriga yashiringan joziba yorqin ochib berilarkan, kitobxonning ana shu peyzajdagi nafosat olamiga hamohanglik hissini chuqurroq va bo'rttirib namoyon etadi.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Ullibibi Otayeva yaratgan poetik obrazlar xalqchil, murakkablikdan xoli san'atkorona nigoh bilan yozilgan. Gavhar Ibodullayeva mazmunan salmoqdor, betakror rangin timsollari, Go'zal Begim majoziylik ustuvor, insonni badiiy kashf darajasi yetakchilik qiluvchi she'rlari bilan, Shoira Shams jonli tafsillarga boy lirikasi bilan keng kitobxonlar mehrini qozongan. Mashhur polyak adibi Yan Parandovskiyning obrazga bergan ta'rifi

juda haqqoniy va asoslidir: "Obraz poeziyaning hech narsa – na vaqt, na poetik modal xavf sololmaydigan birdan-bir asosli elementidir. Oqimlar va yo'nalishlar, mavzular va sujetlar, motivlar va kayfiyatlar o'zgaradi, biroq obraz – xoh tashbihlarsiz formada, xoh metaforalarda, xoh muqoyasalarda bo'lsin, doimo saqlanib qoladi. Obraz – poeziyaning qoni"<sup>1</sup>. Shu ma'noda aytishimiz mumlinki, xorazmlik shoirlar yaratgan va yaratayotgan she'riy obrazlar ham shunchalik tabiiy va samimiyki, davr va zamonlar, oqim va yo'nalishlar o'zgarsa-da, ular inson ruhiyatidagi kechinmalarning tabiiy to'liqini singari har bir davr o'quvchisi qalbining tub-tubiga kirib boraveradi. Zotan, zamonaviy o'zbek she'riyati namunalari nafaqat poetik shakllarning rang-barangligi va yangicha badiiy sayqali bilan, balki hayotdagi jarayonlarni teran aks ettirishda, insonning ichki olami, tuyg'u va kechinmalarining murakkab harakatini mujassamlashtirishda obraz va obrazlilik orqali ham an'anaviy she'riyatdan farq qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES):**

1. Ibodullaeva G. Yuragimda yashayotgan sir. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.16.
  2. A.A'zam. Mas'ul so'z. – Toshkent: Adabiyot va san'at. 1987. – B.98.
  3. Otayeva U. Shukrona. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B.112.
  4. Otayeva U. Zamin darg'asi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – B.50.
  5. Rajapov D. Badiiy obraz va ritmning o'zaro munosabati (70- 80-yillar o'zbek she'riyati misolida). Fil.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Buxoro, 1998. – B.39.
- Ян Парандовсий. Алхимия слова. Москва: Прогресс, 1972. – С. 208.

<sup>1</sup> Ян Парандовсий. Алхимия слова. Москва: Прогресс, 1972. – С. 208.

**O‘ZBEKISTON YANGI TAHRIRDAGI  
KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLIK JAMIYATI  
INSTITUTLARI HUQUQIY ASOSLARINING  
MUSTAHKAMLANISHI**

*Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, UrDU o‘qituvchisi, QMU  
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida  
mustaqil tadqiqotchisi*

**STRENGTHENING OF THE LEGAL BASIS OF  
CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN THE NEW  
TAHRI CONSTITUTION OF UZBEKISTAN**

*Kurbanbaeva Munavvara Kozibaevna, teacher of UrSU,  
independent researcher of the department “National idea,  
foundations of spirituality and legal education” of QSU*

**УКРЕПЛЕНИЕ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ  
ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В  
НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ  
УЗБЕКИСТАНА**

*Курбанбаева Мунаввара Козибаевна, преподаватель УрГУ,  
независимый научный исследователь кафедры  
«Национальная идея, основы духовности и правового  
воспитания» КГУ*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlariga oid kiritilgan o‘zgarishlar va ular natijasida mazkur institutlar huquqiy asoslarining yanada mustahkamlanishi haqida gapiriladi.

**Kalit so‘zlar:** “inson – jamiyat – davlat”, “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat”, xalqparvar davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, Konstitutsiya, demokratik jamiyat.

**Abstract:** This article talks about the changes introduced in the newly revised Constitution of Uzbekistan regarding the institutions of civil society and the further strengthening of the legal basis of these institutions as a result of them.

**Key words:** “man - society – state”, “New Uzbekistan - social state”, people-friendly state, institutions of civil society, Constitution, democratic society.

**Аннотация:** В данной статье говорится об изменениях, внесенных в новую редакцию Конституции Узбекистана относительно институтов гражданского общества и дальнейшем укреплении правовой базы этих институтов в результате них.

**Ключевые слова:** “человек – общество – государство”, “Новый Узбекистан – социальное государство”, доброжелательное к народу государство, институты гражданского общества, Конституция, демократическое общество.



<https://orcid.org/0009-0002-6202-2064>

e-mail:

[tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com)

## **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).**

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivoji yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz orqali yangi bir tarixiy davrga kirdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Ularning aksariyati mazmun-mohiyatiga ko‘ra, “inson – jamiyat – davlat”, “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyillarni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashga, xalqparvar davlat barpo etishga, inson huquqlarining himoyasi va ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga, yoshlarning huquq va manfaatlarini to‘la ta’minlashga qaratilgan.

Konstitutsiyaga ilk bor “fuqarolik jamiyati institutlari” iborasi kiritilgani, mahallalar, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari sifatida qayd etilgani, Vazirlar Mahkamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirish vazifasi yuklatilgani fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim asos bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi uchun bu yangi normalarning ahamiyati juda katta.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).**

Shu davrgacha fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari tarqoq xolda “O‘zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda aks etgan edi. Endilikda fuqarolik jamiyati hamda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari yaxlit holda Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgani mislsiz ulkan qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining demokratik jamiyat, adolatli, huquqiy davlatdagi o‘rni, mazmun-mohiyati aniq-tiniq belgilab berildi. Bu, albatta, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi sa’y-harakatlarda ulkan qadam bo‘lishi shubhasiz.

Jumladan, Konstitutsiyaning XIII bobi, 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu

jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi” [1], deb belgilab qo‘yildi. Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkiliy-xuquqiy shakllari esa O‘zbekiston Respublikasining 7631-sonli “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida quyidagicha belgilangan: “Nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin” [2].

Xuddi shu hujjatda nodavlat-notijorat tashkilotlari ta’rifi va ularning qanday maqsadda tuzilishi ham qonun bilan mustahkamlangan: “Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

## **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi” [3]. Shuningdek, mazkur hujjatning 11-moddasida jamoat birlashmalariga ta’rif berilgan: “Ma’naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish uchun o‘z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi jamoat birlashmasi deb e’tirof etiladi” [4]. Jamoat birlashmalarining shakllari esa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 70-moddasida ko‘rsatilgan: “O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi” [5].

O‘zbekiston Respublikasining 7631-sonli “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 12-moddasida jamoat fondi quyidagicha ta’riflangan: “Jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoli bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e’tirof etiladi” [6]. Xuddi shu hujjatning 13-moddasida muassasa qanday tashkilot ekanligi ko‘rsatilgan: “Ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tushdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti muassasa deb e’tirof etiladi” [7].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Shu o‘rinda dunyo davlatlari tajribasida kam uchraydigan, o‘zbek millatiga xos bo‘lgan noyob tuzilma haqida gapirish o‘rinli bo‘ladi. Bu mahalla tuzilmasidir. Ushbu tuzilma necha ming yillar mobaynida o‘zbek xalqining chin ma’noda o‘zini o‘zi boshqarish shakli bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. O‘zbek millatining milliy ruhi, xarakteri, qadriyatlarini ifodasi bo‘lmish mahalla tuzilmasiga O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, yangi hayot baxsh etildi, deyin mumkin. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish huquqi mahalla tuzilmasi orqali amalga oshirilishi qonun darajasida belgilab berildi va e’tirof etildi. Ushbu Qonunning 4-moddasida shunday deyilgan: “Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o‘zini o‘zi boshqarishga doir o‘z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig‘inlari (fuqarolar vakillarining yig‘ilishlari) orqali amalga oshiradi” [8]. Ushbu hujjatning 8-moddasida quyidagi norma o‘z aksini topgan: “Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig‘inlari (bundan buyon matnda fuqarolar yig‘ini deb yuritiladi) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridir. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy

o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli” [9]. Ushbu norma mahalla davlat organi emas, balki fuqarolik jamiyati instituti ekanligini ko‘rsatib va dalillab turibdi. Mahalla tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasining butun hududi bo‘ylab o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, huquq va majburiyatlari, faoliyat doirasi tegishli qonun hujjatlari, farmon va qonunlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar, hatto Oliy Bosh Qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiya darajasida e’tirof etilgan va belgilab berilgan. Endi ularni hayotga to‘g‘ri tatbiq etishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish va ishga tushirish lozim. Bu fuqarolik jamiyatining pirovard maqsadi bo‘lgan demokratik huquqiy davlat qaror topishining asosiy sharti va omillaridan biridir.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES):**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 69-modda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining 7631-sonli “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 10-modda. 14.04.1999 yil. <https://lex.uz/docs/11360>.
3. O‘zbekiston Respublikasining 7631-sonli “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2-modda. 14.04.1999 yil. <https://lex.uz/docs/11360>.
4. O‘zbekiston Respublikasining 7631-sonli “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 11-modda. 14.04.1999 yil. <https://lex.uz/docs/11360>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 70-modda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
6. O‘zbekiston Respublikasining 7631-sonli “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 12-modda. 14.04.1999 yil. <https://lex.uz/docs/11360>.
7. O‘zbekiston Respublikasining 7631-sonli “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 13-modda. 14.04.1999. <https://lex.uz/docs/11360>.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-350-son Qonuni, 4-modda. 22.04.2013.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-350-son Qonuni, 8-modda. 22.04.2013.



## ҚОРАҚАЛПОҒИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ТУМАНЛАРИ МАДАНИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА САНЪАТ АРБОБЛАРИНИНГ ХИЗМАТИ

*Айтмуратова Жанылсын Жалгасовна, Қорақалпоқ давлат  
университети*

## THE ROLE OF CULTURAL FIGURES IN THE DEVELOPMENT OF THE CULTURE OF THE SOUTHERN REGIONS OF KARAKALPAKSTAN

*Aytmuratova Janylsyn Jalgasovna, Karakalpak State University*

## РОЛЬ ДЕЯТЕЛЕЙ КУЛЬТУРЫ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ЮЖНЫХ РЕГИОНОВ КАРАКАЛПАКСТАНА

*Айтмуратова Жанылсын Жалгасовна, Каракалпакский  
государственный университет*



<https://orcid.org/0000-0001-7301-9763>

e-mail:

[aytmuratova88.88@mail.ru](mailto:aytmuratova88.88@mail.ru)

**Аннотация:** Мақолада тарихий манбалар асосида Қорақалпоқ маданий алоқаларининг ривожланишида ХХ асрлардаги тарихий ҳодисалар тўғрисида сўз боради. Бунда биринчидан, илмий муносабатларнинг вужудга келишидаги илмий экспедицияларнинг тарихий аҳамиятини, иккинчидан бу изланишларнинг Қорақалпоқ маданий алоқалар тарихини урганишидаги аҳамиятини, учинчидан, рус маданий зиёли вакиллариинг Қорақалпоғистон маданиятини ривожлантиришидаги фидойилик хизматлари ёрқин мисоллар асосида кўрсатиб берилади.

**Калим сўзлар:** тарихий манбалар, илмий изланишлар, Хоразм археологик –этнографик экспедицияси, маданий зиёлилар, халқ достонлари, миллий кадрлар, маданий алоқа.

**Abstract:** The article deals with activity and creativity of well known workers who contributed a great contribution to the development of Art and culture of the Republic of Karakalpakstan. In this article on the basis of historical sources the author presents the development of Karakalpak cultural links in XX centuries. The first, historical importance of military scientific expedition in the appearance of scientific relations, the second, the role of study historical cultural links of Karakalpak, the third, the works progressive representatives of Karakalpak intelligentsia of art in the development of Karakalpak culture.

**Key words:** historical sources, scientific activities, xorezm archaeological-ethnography expedition, cultural intelligence, national dastans, national staffs, cultural connection.

**Аннотация:** В статье рассматривается пути развития науки Каракалпакстана, деятельность и творчество известных создателей искусства и культуры начиная с 20-х годов ХХ века до наших дней. Раскрывается роль и значение первых научных экспедиций и создания научного центра. Указываются также пути формирования деятельности научной интеллигенции республики и её роль в развитии науки в годы независимости.

**Ключевые слова:** искусство, музыкальное искусство, национальная культура, танцы, каракалпакские танцы, народная мелодия, танец джигитов, фольклорный ансамбль, духовное наследие, независимость, культурные связи.

**КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).** Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 22 декабрда Олий Мажлисга мурожаатномасида «Маданий-гуманитар соҳаларини ривожлантириш бўйича қилинган ишлар ҳақида гапирганда, аввало маданият, адабиёт ва санъат, оммавий воситалар соҳасига тааллуқли 12 та муҳим ҳужжат қабул қилинганини»<sup>1</sup> таъкидлай туриб республикамиздаги маданият соҳасидаги ижодий уюшмаларнинг ижтимоий ҳаётимиздаги ўрни ва нуфузини ошириш, моддий-техник базасини мустаҳкамлаш мақсадида “Илҳом” жамоат фонди, шунингдек, маданият ва санъат муассасалари ҳамда йирик компания ва банклар ҳамкорлигида “Дўстлар клублари”нинг ташкил этилганини алоҳида эътиборга олган эди. Айниқса, Қорақалпоғистон ва бир қатор вилоятларимизда улуғ адибларимизнинг номлари билан аталган ижод мактабларини барпо этиш назарда тутилди.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 3 августдаги Ўзбекистон ижодкор зиёлилар вакиллари билан учрашувидаги сўзлаган нутқида “15-20 йилдан сўнг Ўзбекистоннинг маданий ривожланиши қандай бўлади, бугун биз яшаётган интернет ва юксак технологиялар асрида адабиёт билан санъатнинг, маданиятимизнинг ўрни ва таъсирини фақат сақлаб қолиш эмас, қандай қилиб уни кучайтириш мумкин, деган тўғри ва одилона саволлар барчамизни, биринчи навбатда, халқимизнинг энг илғор вакиллари бўлган ижодкор халқини ўйлантириши керак”<sup>2</sup>, - деган сўзлари бугунги кунда республикамизнинг барча туманларида эртанги кунимизга хизмат қиладиган миллий санъат ютуқлари ва маданият соҳаси намуналарининг ижод мактабини яратиш ва давом эттириш вазифаси белгиланди. Президентимизнинг ушбу кўрсатмаларига асосан Қорақалпоғистон Республикасининг

жанубий туманларида келажак авлодларимизни маънавий етук, миллий маданиятимиз ва миллий кадриятларимизга содиқлик руҳида тарбиялашга хизмат қиладиган маданият ва санъат арбобларининг ижод йўли эртанги авлодларимизга намуна мактаби бўлиб хизмат этади. Тарихан узоқ ўтмишимизга назар ташлаганимизда республикамизнинг жанубий туманлари ҳудуди қадимги цивилизациялар ўрни сифатида шаҳар маданиятининг ривожланишидан гувоҳлик берувчи бир неча қалъалар тарихи бугунги кунда археолог олимларимиз томонидан тадқиқот объектига айланди.

**МУҲОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)** XX асрнинг иккинчи ярмида биргина Тўрткўл туманининг ўзидан маданият ва санъат соҳасида Қурбонбой Жиров Тожибоев, София Қарабаева, Тўхта Раҳмонова, Ўрозгул Давлетова, Розимбек Муродов, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ раққосаси Зулайҳо Сапарова, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ актёри Отажон Худойшукуров ва оғир атлетикачи Султон Раҳмоновлар, Эллиққалъа туманидан Саддадин Сапаев, Гули Ўринова, Мадад Саидов, Э.Исмоилов, С.Аллашев, Амударё туманидан Қорақалпоғистон халқ бахшиси ва артисти Жапақ Шамурадов ва Орзигул Отамурадова, Беруний туманидан Ўзбекистон халқ артисти Муяссар Раззоқова сингари маданият ва санъат арбоблари ўзларининг такрорланмас ижоди билан республикамиз маданияти ва санъатининг ривожланишига катта ҳисса қўшди. Республикаимизнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожланишида Жанубий туманларнинг маданият ва санъат соҳасидаги тараққиёти катта аҳамиятга эга.

Тўрткўл Қорақалпоғистон Республикасининг биринчи пойтахти, балки XX аср қорақалпоқ адабиёти ва санъатининг ҳам дастлабки бешиги ҳисобланади. С.Мажитов, И.Фозилов, А.Бегимов, Ж.Оймурзаев, А.Утепов, К.Авезов, М.Дарибоев, Н.Довқораев ва бошқа таниқли қорақалпоқ адиблари ўз ижодий

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь 2017 йил. Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018, 15-бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилар вакиллари билан учрашувидаги маърузаси //Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август, №153 (6847).

фаолиятини айнан Тўрткўлда бошлаганлар. Қорақалпоғистон Ёзувчилар уюшмаси ҳам ўз фаолиятини шу шаҳарда бошлаган эди. Қорақалпоқ профессионал театри 1927 йили Тўрткўлда ташкил этилган “Тонг нури” труппасидан илдирилади<sup>4</sup>. Шу труппа асосида 1930 йилнинг декабрида биринчи давлат театри вужудга келди. Илк қорақалпоқ газетаси, журнали, музейи ҳам шу шаҳарда таъсис этилган. Шундай қилиб Тўрткўл шаҳри 1920 йилдан 1938-1940 йилларгача Қорақалпоғистоннинг маъмурий ва маданий маркази вазифасини ўтади. Балки қорақалпоқ фанининг олтин беланчаги ҳам ҳисобланади. Академикларимиз Я.Досумов, М.Нурмухаммедов, фан докторлари А.Худойбергенов, Қ.Аманлеспесов, Р.Ражабов, З.Тўхтабоев ва бошқалар айнан Тўрткўл тупроғида таваллуд топганлар. Фанимизнинг тамал тошини қўйган Н.Давқараев, Қ.Айимбетов, Г.Убайдуллаев, У.Бўлешов, И.Сагитов каби олимлар дастлабки илмий фаолиятини шу ерда бошлаганлар. Таниқли олимлар – археолог С.Толстов, шарқшунос А.Соколов, элшунос С.Малов, туркшунос Н.Баскаков ўз илмий тадқиқотларини Тўрткўл заминида амалга оширганлар. Академик Яҳё Гуломов ирригация тарихига бағишланган энг ноёб асарларининг мағзини шу худуддаги кўҳна канал ва арналар мисолида фикр чиғириғидан ўтказган. Мухтасар қилиб айтганда, Ўзбекистон Фанлар академияси Қорақалпоғистон бўлими Тўрткўлда йўргакланган десак, жуда тўғри бўлади. Академик фанимиздан ташқари олий ва ўрта махсус таълимимиз ҳам Тўрткўлда куртак чиқарган. Айни чоғда ҳозирги замон қорақалпоқ адабиёти, театри, тасвирий санъати ҳам дастлаб Тўрткўлдан бошланганлигини қайд қилиш лозим.

**НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Худойшукуров Отажон (Тўрткўл 1944. 4.10 — 1994.22.12) – хонанда, Ўзбекистон (1977) ва Қорақалпоғистон (1970) халқ артисти. Ашула айтишни амакиси, хонанда Й.Оллошукуровдан ўрганган, кейинги устозлари К.Отаниёзов, Назир қори, Ж.Бекчонов ва бошқалар. 1963 йилдан Қорақалпоқ давлат филармониясида яккахон хонанда.

<sup>4</sup> Қарақалпақистоннинг жаңа тарихи Қарақалпақстан XIX асирдин экинчи ярымы XXI асирге шекем. Нокис. “Қарақалпақстан” 2003-жыл.

Репертуаридан мумтоз ашулалар (“Феруз I—II”, “Хоразм Сегоҳи”, “Бозургоний”, “Кўшчинор”, “Гулузорим”, “Курд Эшвойи”, “Самарқанд ушшоғи”, “Тошкент Ироғи” ва бошқалар), Хоразм дostonнома (кўшиқ)лари (“Нажаб ўғлон” дostonидан “Кимнинг севар ёрисан”, “Баҳром ва Гуландом”дан “Айрилиқ”, “Авазхон”дан “Қаландарим”), композитор ва бастакорлар асарлари (“Кўзларинг сенинг”, “Ўзбекистоним”, “Раъно бўлайин деб”, “Соғиниб келдим” ва бошқалар), шунингдек; туркман, озарбайжон, қорақалпоқ, қозоқ ва қирғиз халқ кўшиқлари ўрин олган. Худойшукуров созанда (торчи) ва ўзи айтадиган (“Мужгонларинг”, “Оламда бир”, “Биринчи муҳаббатим” каби 300дан ортик) кўшиқларнинг бастакори сифатида ҳам танилган. Отажон оғадан нурли хотиралар, ҳали узок йиллар миллатимизнинг маънавий эҳтиёжига хизмат қиладиган, мумтоз кўшиқчилигимиз мухлисларининг тили ва дилидан тушмайдиган, бетакрор ва жозибали мусиқий мерос қолди!

Жиемурат Жиров Бекмухаммад ўғли (1836 -1908) Шўраҳон заминида туғилган қорақалпоқ дostonчиси. Куйлаган дostonларидан энг йириги “Алпамыс”ни фольклоршунос А.Диваев (1856-1933) Тошкентда нашр эттирган<sup>8</sup> (1902). Жиемурат Жиров бадиҳагўй шоир сифатида ҳам танилган — “Алпамыс” дostonини ўзи ижод этган кўшиқ билан тугаллаган. Бу қаҳрамонлик дostonи бўлиб, унда халқларни бирлаштириш ғояси илгари сурилган (Ад.: Айимбетов Қ. Халық даналығы, Нокис, 1968).

Қурбонбой жиров Тожибой ўғли (1876-1958) Шўраҳон заминида туғилган яна бир қорақалпоқ жировидир. У машҳур ҳамқишлоғи Жиемурат жировдан ва кўнғиротли Нурабулла (1862-1922) жировдан ўнлаб дostonларни ўрганadi. Тўрткўлдан Бухорога бориб Холмурод жировга шогирд тушади ва ундан “Ширин ва Шакар”, “Ёр Зевар”, “Қирқ қиз”, “Болтакай Ботир”, “Жонадил” дostonларини ўрганиб, Тўрткўлга қайтади. Қорақалпоқ халқининг маданий ёдгорлиги, халқ қаҳрамонлик эпоси – “Қирққиз” ҳам Қурбонбой бахши Тожибой ўғлидан ёзиб олинган (1939—1940).

<sup>8</sup> Айимбетов Қ. Халық даналығы, Нокис, 1968.

Қорабоева София Дўсғалиевна (1914.12.1, Тўрткўл - 1978.28.4, Нукус) Қорақалпоқ актрисаси, Ўзбекистон халқ артисти (1969). Москва театр санъати институтининг қорақалпоқ студиясида таълим олган (1934—35). 1939 йилдан Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат театрида ишлаган. Миллийликка интилиш, қахрамонлари характерининг ижтимоий ва психологик асосларини очиб бериш, уларни рухий гўзаллик ва ҳаётбахш ҳис билан суғориш Қорабоева ижодига хос. Васса (М.Горький, “Васса Железнова”), Майсара (Ҳамза, “Майсаранинг иши”), Марфа Петровна (К.Симонов, “Рус кишилари”), Она (Э.Раннет, “Дайди ўғил”), Бийбинур (Н.Довқораев, В.Шафранников, “Алпомиш”), Оймереке (Ж.Оймурзаев, О.Халимов, “Ойгул ва Обод”), Оксулув (А.Шомуротов ва И.Юсупов, “Қирққиз”), Ойбике (С.Хўжаниёзов, “Талуас”), Тўлғаной (Ч.Айтматов, “Момо ер”) каби турли характердаги роллар талқини билан танилган.

Йўлдош Аллашукуров (Тўрткўл, 1920.1.01, - 1981.4.07) – халқ орасидан етишиб чиққан профессионал ҳофиз. Хоразм мумтоз тароналарининг моҳир ижрочиси, ширали, жозибадор овоз соҳиби. Хоразм мақомлари, “Сувора”ларининг тарғиботчиси. Станиславский номидаги қорақалпоқ давлат театри актёри (1938) Қорақалпоғистон давлат радиокўмитаси ходими (1939), Иккинчи Жаҳон уруши қатнашчиси (1940- 1945), Тўрткўл шаҳар халқ театри созандаси, кўшиқчиси (1946 йилдан). Тўрткўл шаҳрида бир қатор кўшиқчилар, шу жумладан жияни, тўрт республика халқ артисти давлат мукофоти соҳиби О.Худойшукуровнинг ижрочилик камолотига устозлик қилган, туманда бадий ҳаваскорликнинг ривожланишига салмоқли улуш қўшган, бир қанча жанговар орден ва медаллар билан мукофотланган.

Тўхта Раҳмонова (1921.5.6, Тўрткўл — 1984.4.2, Нукус) Қорақалпоқ актрисаси. Ўзбекистон халқ артисти (1950). 1934 йилдан Станиславский номидаги Қорақалпоқ театрида ишлаган. Табиатан жарангдор овози билан мусиқали драма жанрида драма ва вокал композицияларини уйғунлаштирган ҳолда тўлақонли образлар яради. Қорақалпоқ театрининг мусиқали драма жанридаги ютуқлари Раҳмонова ижоди билан боғлиқ. Гулсара (“Гулсара”), Лайли (“Лайли ва Мажнун”), Ойпари (“Куклен ботир”), Гулпарчин (“Алпомиш”), Ойсанам (“Суймаганга

суйканма”), Ойгул (“Ойгул ва Обод”), Шоҳсанам (“Ошиқ Ғариб”) каби роллари билан шуҳрат қозонди. Хонанда сифатида ўзбек ва қорақалпоқ кўшиқларини ижро этган.

Ўрозгул Давлетова (1923.20.4, Тўрткўл тумани) Ўзбекистон халқ артисти (1969). 1938—41 ва 1952-1994 йилларда Бердақ номидаги Қорақалпоқ мусиқали театрида, 1941-47 йилларда Тўрткўл ёш томошабинлар театрида, 1947—50 йилларда Тўрткўл ҳаваскорлик театрида актриса, 1950—52 йилларда Қорақалпоқ давлат филармониясида яккахон хонанда. Энг яхши роллари: Гулчехра (“Аршинмололон”), Насиба (“Оғрик тишлар”), Дорина (“Тартюф”), Сарвиноз (“Қирққиз”), Эмилия (“Отелло”), Жумагул (“Қорақалпоқ қизи”), Анор (“Оналар”) ва бошқалар. Давлетова лирик, драматик ҳамда характерли роллар устаси бўлиб, айниқса қорақалпоқ аёллари образини дадиллик, фаоллик, хушчақчақлик, ҳазил-мутойибага мойиллик билан, миллий руҳда, алоҳида бир маҳорат билан яратади. Бердақ номидаги Қорақалпоғистон Давлат мукофоти лауреати (1983).

Рўзимбек Муродов (1928.21.3. Тўрткўл тумани) Бахши, Ўзбекистон халқ артисти (1989). Достон йўлларини бобоси Амин бахши ва отаси Мурод бахшилардан ўрганган. Тошкент консерваториясини тугатган (1956). Ўзбекистон радио ва телевидениесидаги ўзбек халқ чолғулари оркестрида дирижёр (1957— 65), Тошкент мусиқа билим юртида (1952—92), Абдулла Қодирий номидаги маданият институтида (2001 йилдан) педагог.

Р.Муродов Хоразм достончилик санъати анъаналарининг эроний ва ширвоний услубларини омукта йўналишида ўзига хос овоз билан ижро этади. Сўз айтиши бурро, юқори нутқ санъати билан тингловчини тезда ўзига жалб қила олади. Репертуаридан 20 дан ортиқ достон ўрин олган: “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам”, “Тўрўғли”, “Нажаб ўғлон”, “Хирмон Дали”, “Саёдхон Ҳамро”, “Маҳтумқули”, “Пайғамбар Иброҳим Халилуллоҳ”, “Фидойи” (Э.Охунова билан биргаликда) ва бошқалар. “Она шаҳрим Тошкентим”, “Санъат саодатимдир”, “Мудом орзу айлаб” каби кўшиқларга мусиқа ёзган.

З.Сапарова (1930.23.02, Тўрткўл) Қорақалпоқ раққосаси. Ўзбекистон халқ артисти (1969). 1954— 76 йилларда Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат филармониясида яккахон



раққоса. 1976 йилдан балетмейстерлик қилган. “Тинчлик кабутари”, “Юрак торлари”, “Намабаси”, “Нозли” каби қорақалпоқча, ўзбекча “Занг”, “Лазги”, “Дилдор”, “Пилла”, “Нозигим” каби рақслари билан танилган. Унинг рақслари шўхчанлиги, айни пайтда майин ва миллийлиги, жозибadorлиги билан ажралиб турган. Сапарова, шунингдек ҳинд, туркман, тожик ва бошқа халқлар рақсларини ҳам моҳирона ижро этган. Бердақ номидаги Қорақалпоғистон Давлат мукофоти лауреати (1968). Бахтиёр Тангриберганович Султонов (1952.3.06, Тўрткўл — 2006, Тўрткўл) Хоразм мумтоз тароналари, халқ қўшиқлари, насихат термалари ижрочиси. Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист (1993), ижрочилик фаолиятини Хива мактаб-интернатида бошлаган, ўз ижро йўлини танлаш жараёнида Ҳ.Болтаев, М.Узоқов, К.Отаниёзов, О.Худойшукуров меросидан самарали фойдаланган, Ўзбек миллий академик драма театрида таниқли хонанда О.Сафаров билан “Айтишув”и Ўзбекистон телевидениеси орқали намойиш қилинган.

#### **ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Биз ушбу мақоламизда Қорақалпоғистоннинг Жанубий тумани ҳисобланган биргина Тўрткўл шаҳри мисолида маданият ва санъат арбобларининг хизмати

ва маданиятимиз ривожига қўшган ҳиссалари ҳақида айтиб ўтдик. Қорақалпоғистон маданияти ва санъати тарихида муҳим ўрин эгаллаган санъат арбобларимизнинг хизматларин бугунги авлодларга таништириш бизнинг асосий мақсадимиз ҳисобланади.

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 22 декабрь 2017 йил. Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018, 15-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилар вакиллари билан учрашувидаги маърузаси //Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август, №153 (6847).
3. Кучкаров, Я. Аллома авлодлари. Т.: Янги аср авлоди, 2005 йил.
4. Кучкаров, Я. Тўрткўл тарихи (Ҳикоялар, хотиралар, манбалар). Урганч, 2006 йил.
5. Қарақалпақстанның жаңа тарийхи. Қарақалпақстан XIX эсирдин екинши ярымы – XXI эсирге шекем. Нөкис. Қарақалпақстан, 2003-жыл.
6. Айимбетов Қ. Халық даналығи, Нокис, 1968.



## TARIX O'QITISH METODIKASINING EVOLYUTSION RIVOJLANISH JARAYONI


*Toshtemirova Saodat Abdurashidovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tarix" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## THE IMPORTANCE AND EFFICIENCY OF THE CLUSTER APPROACH IN TEACHING HISTORY IN THE EDUCATION SYSTEM

*Toshtemirova Saodat Abdurashidovna, Associate Professor of the Department of History, Chirchik State Pedagogical University, (PhD)*

## ЭВОЛЮЦИОННЫЙ ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ

*Тоштемурова Саодат Абдурашидовна, доцент кафедры истории Чирчикского государственного педагогического университета, (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0002-1988-4099>

e-mail:

[toshtemirovasaodat@gmail.com](mailto:toshtemirovasaodat@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda tarix o'qitish metodikasining evolyution rivojlanish jarayoni o'rganilgan, hamda turli tarixiy davrlar: qadimgi, o'rta asrlar, renessans, sovet va mustaqillik davri misolida ta'lim berish metodikalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, tarix fanlari, integratsiya, ta'lim metodikasi, innovatsion yondashuv, tanqidiy fikrlash, axborot texnologiyalari, mustaqil ta'lim, fanlararo hamkorlik.

**Abstract:** This article studies the evolutionary development of history teaching methods, and analyzes teaching methods in different historical periods: ancient, medieval, Renaissance, Soviet and independent periods.

**Key words:** quality of education, historical sciences, integration, teaching methods, innovative approach, critical thinking, information technologies, independent learning, interdisciplinary cooperation.

**Аннотация:** В статье рассматривается эволюционное развитие методик преподавания истории, анализируются методики преподавания разных исторических периодов: античного, средневекового, эпохи Возрождения, советского и периодов независимости.

**Ключевые слова:** качество образования, история, интеграция, методика обучения, инновационный подход, критическое мышление, информационные технологии, самостоятельное обучение, междисциплинарное взаимодействие.

**KIRISH.** Mustaqillik yillari O'zbekiston xalqlarining tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklarini qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitishga qaratilgan davr sifatida ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va mehnat bozori talablariga

mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifalari belgilandi[1]. Ta'lim jarayonida uzluksiz ta'lim tamoyili asosida ta'limning maqsad va mazmunini uzviy ravishda shakllantirish, klaster yondashuvlari va fanlararo integratsiyani ta'minlash muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, ta'limda tarix fanlarini o'qitishda umumiy va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan integratsion modellar rivojlantirildi. Bunda ta'lim mazmuni

izchilligiga erishish, tarixiy materiallarni mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy qilish kabi vazifalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

**ASOSIY QISM.** Tarix o'qitish metodikasi o'zining evolyutsion rivojlanish jarayonida turli ijtimoiy, madaniy va texnologik omillarga bog'liq holda shakllanib kelgan. Qadimgi davrlarda ta'lim asosan og'zaki an'analarga asoslangan bo'lib, hikoyalar, epik she'rlar va afsonalar orqali tarixiy ma'lumotlarni uzatishda asosiy o'rin tutgan. Misr, Mesopotamiya va Xitoy kabi qadimgi sivilizatsiyalarda kunimform tablig'lari va papirus hujjatlari kabi yozma manbalar ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, "Gilgamesh eposi", "Iliada" va "Odisseya" kabi epik asarlar tarixiy ma'lumotlarni yodlash va saqlashning samarali usullari sifatida xizmat qilgan[2].

O'rta asrlarda ta'lim metodikasi diniy muassasalar faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. G'arbda monastir maktablari va Sharqda madrasalar ta'lim markazlari sifatida xizmat qilgan. Bu davrda ta'lim jarayonida diniy matnlar, mantiqiy tahlil va sxolastik yondashuvlar ustunlik qilgan. Kitob bosish texnologiyasining kashf qilinishi ta'lim jarayonida inqilob yaratib, tarixiy bilimlarni keng auditoriyaga osonlik bilan yetkazish imkonini berdi.

Uyg'onish davrida ta'lim metodikasida ilmiy yondashuvlarning ahamiyati ortdi. Manba tahlili, tarixiy hujjatlar bilan ishlash va munozaralarga asoslangan yondashuvlar ushbu davr ta'limida muhim o'rin tutdi. O'rta Osiyodagi Buxoro va Samarqand madrasalari ta'lim markazlari sifatida faoliyat yuritib, ularda Abu Nasr Forobiy va Beruniy kabi olimlar tarixiy ma'lumotlarni mantiqiy tahlil qilishning asoslarini yaratdilar.

Jadidchilik davri ta'lim metodikasida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va tanqidiy fikrlashga asoslangan usullar joriy etildi. Tarixiy ma'lumotlarni obyektiv va aniq usullarda tahlil qilishga e'tibor qaratildi. Sho'ro davrida interaktiv usullar rivojlanib, ta'lim jarayonida muloqotli yondashuvlar qo'llanildi, bu esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shdi.

Mustaqillik davrida ta'lim jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Tarix darsliklari va o'quv dasturlari milliy qadriyatlar va tarixiy ma'lumotlarning obyektivligiga urg'u berdi. Bunda ta'lim jarayonida

zamonaviy pedagogik yondashuvlar, tadqiqot metodlari, tanqidiy fikrlash va tahlil muhim ahamiyat kasb etdi.

Texnologik rivojlanish ta'limda raqamli texnologiyalar, internet va multimedia vositalaridan samarali foydalanish imkonini yaratdi. Masalan, A.Askarov va H.Bobobekov kabi olimlar milliy tarixiy ta'limni rivojlantirishda ilmiy asoslangan ishlar amalga oshirgan[3]. Shuningdek, T.Toshpo'latov va Ya.H.G'afforovlar tarix fanlarini o'qitishda innovatsion usullarni rivojlantirib, bakalavriat talabalari uchun o'quv-uslubiy materiallar yaratishga hissa qo'shgan [4]. Ko'plab tadqiqotlar, jumladan, Q.R.Shonazarov tomonidan bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashga qaratilgan izlanishlar, tarixiy tafakkurni shakllantirishda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini tadqiq qildi[5]. Shuningdek, S.T.Mahkamov ta'limda kurslararo uzviylikni ta'minlash asoslarini ishlab chiqib, o'quv jarayonining izchilligini ta'minlash uchun nazariy va amaliy tavsiyalar taklif qildi[6].

Ta'lim klasterlari ta'lim jarayonida samaradorlik va innovatsion yondashuvlarni oshirish uchun muhim vosita bo'lib, ular ta'lim tizimida integratsiya va hamkorlikni ta'minlaydi. Ta'lim klasteri doirasida tarix ta'limini rivojlantirish tarix fanlarini o'qitishda bir qator ijobiy jihatlarga ega: ta'limning uzluksizligi, maktabgacha ta'limdan boshlanib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda tarix fanlarini tizimli va izchil o'qitish ta'minlanadi; tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirish, boshlang'ich sinflarda tarixiy savodxonlikni shakllantirish, o'rta maktablarda esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi; amaliyot va nazariya integratsiyasi, oliy ta'lim va maktab amaliyoti o'rtasidagi integratsiya talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi va h.z.

**XULOSA.** Hozirgi ta'lim tizimida klaster tizimini samarali boshqarish uchun uning barcha ishtirokchilari o'rtasida doimiy aloqani ta'minlash, uzoq muddatli strategiya va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan rejalar ishlab chiqish zarur. Shuningdek, ta'lim jarayonida har bir subyekt o'z faoliyati uchun javobgarlik hissini shakllantirishi va tizimli ravishda axborot almashishi kerak. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017.
2. Аҳмедов А., Ҳандамова М. Ҳиндистоннинг ёзилиш даври ва сабаблари. – Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон. – Танланган асарлар. II жилд. Арабчадан А.Аҳмедов ва А.Расулов таржимаси. Сўзбоши, таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи А.Аҳмедов, М.Ҳандамова. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2022.
3. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1992. № 7-8.

4. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. (bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv qo'llanma). - Toshkent: O'zMU - Universitet, 2002.
5. Шоназаров Қ.Р. Бўлажак тарих ўқитувчиларини мактаб ўқитувчиларида тарихий тафаккурни шакллантиришга тайёрлаш. П.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. 2002. 134 б.
6. Mahkamov S.T. Tarix ta'limida kurslararo uzviylikni ta'minlashning didaktik asoslari (7-sinf tarix kurslari misolida): Ped. fan.nom. ...dis. – T., 2005. – 70 b.
7. Toshtemirova S.A., G'afforov Ya.X., Abduraxmonova J.N. Mutaxassislik fanlarini kasbga yo'naltirish metodikasi // o'quv qo'llanma. - Toshkent: MALIK PRINT CO, 2021. - 204 b.
8. Toshtemirova S.A. Klaster tizimida tarix fanlarini integrativ o'qitishning modifikatsion metodikasi. Monografiya. Dimal nashriyoti. 2024. 136 b.





**TASAVVUF VA AXLOQ, FALSAFA VA E'TIQOD***Axatov Lutfillo Karamatilloevich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti***SUFI AND MORALITY, PHILOSOPHY AND FAITH***Akhatov Lutfillo Karamatilloevich, Chirchik State Pedagogical University***СУФИЙ И МОРАЛЬ, ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА***Ахатов Лутфилло Караматиллоевич, Чирчикский государственный педагогический университет*

**Annotatsiya:** Falsafiy-axloqiy qarashlar mohiyati so'fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. So'fiylar axloqi va falsafiy mushohadasi irratsional yondashuv yordamida tasavvufning rivojlanishiga asos bo'ladi. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so'fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.

**Kalit so'zlar:** Falsafa, ilm, tazkira, tasavvuf (arab til: **التَّصَوُّف**), islom, axloq, idrok, mutafakkir.

**Abstract:** The essence of philosophical-ethical views was analyzed with the help of mystical life and mystical views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. An example of Sufism and scientific approaches to Sufis was considered to understand ethical views.

**Key words:** philosophy, science, tazkira, mysticism-Sufism (Arabic: **التصاوف**), Islam, ethics, perception, thinker.


**Аннотация:** Сущность философско-этических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических воззрений. Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Для понимания моральных воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.

**Ключевые слова:** философия, наука, tazkira, мистицизм-суфизм (араб. **التصاوف**), ислам, этика, восприятие, мыслитель.

**KIRISH.** Ilmning mohiyati e'tiqod va fan oralig'ining ma'rifatda birlashuvini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun "Kim ilm olsa, unga amal qilsa va boshqalarga o'rgatsa, u kishi osmonlarga ulug' inson deb chaqiriladi", deb aytilgan[9; 80-B]. Ilmning qiymati barcha sohalarni bir butunlikda o'rganilishidadir. Ba'zan "diniy ilm"

yoki "dunyoviy ilm" deb tahlil qilinishi esa, jo'n-sayoz fikrlovchilarning dunyoqarashidan o'zga narsa emas!

Har bir sohani alohida (qismlarda) o'rganish bu ilm emas, bilim va uning sistemasini tashkil qiladi. Bilimlar jamlanmasi esa Ilm mehvarini tashkil etadi. Olinadigan hikmat (xulosa) esa



<https://orcid.org/0000-0002-9804-6220>

e-mail: [l\\_axatov@cspi.uz](mailto:l_axatov@cspi.uz)

ma'rifat – mukammal ilmni tashkil etadi! Va bu o'z navbatida tadqiqotchi va tahlilchilar tomonidan imlgacha bo'lgan soha(lar) – bilimga oid qarashlar tarzida baholanishini ko'rish mumkin. tahlilchi(lar)ning fikri bu ilm deb emas, dunyoqarash yoxud nazariya (faraz) tarzida ham baholanadi. Shuning uchun har bir soha yaxlit bir butun deb aytilishdan ko'ra, alohida-alohida tahlil qilinib, keyin ma'lum ma'noda bir maqsad (ilm)ga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday qarashlar xoh e'tiqodga oid bo'lsin, xoh biologik yaratilishga qaratilsin, farqi yo'q. Muhimi, murakkablikdan oddiylikka, noaniqlikdan aniqlikka qarab borishida. Buni biz Islomning ilk davrlarida Qur'oni Karimning nozil bo'lishi misolida ko'rishimiz mumkin. U paytda oyat-oyat, tarqoq tazda nozil bo'lganligi aytiladi. Buning hikmatini esa, yodlash oson bo'lishi va qo'shimcha(lar) bo'lishi bilan izohlaydilar. Bu borada Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Qur'onning tarqoq tushishining hikmatlaridan yana biri – uni yodlash va unga amal qilish oson bo'lishi uchun edi", deb aytgan[10; 26-B].

Ilmning mohiyatini anglash esa soddalik (oddiylik)dan boshlanar ekan, demak, ilm o'rganish qiyin emas. Shuning uchun barchani ilm o'rganishga chorlov bor. Islom falsafasiga ko'ra ilm o'rganish "majburiy" sanaladi. Bizning tahlilimizdagi "Tasavvuf va axloq, falsafa va e'tiqod"ning asliyati ham soddalikdan boshlanadi. Bunda tasavvufni anglash uchun axloqqa, axloqqa tushunish uchun esa e'tiqodga, e'tiqodni tushunish uchun esa tafakkurga murojaat qilmoqlik bilan erishiladi. Tafakkur va uning mohiyati esa falsafa ilmi orqali o'rganishda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra tasavvufni axloq ilmi bilan uzviylikda (Tasavvuf etikasi) tahlil qilish bor.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Mavzuga oid manbalar tahlilida tazkirachilik, tasavvuf va so'fiylikka oid qarashlar tadqiq qilinib, tasavvuf adabiyoti va tazkiranavislikka katta hissa qo'shgan buyuk shoir, muafakkir va tazkiranavislardan Fariduddin Attorning (1145-1230) "Tazkirat ul-avliyo" (Avliyolar tazkirasini), mavlono Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Nafahot ul-uns..." va hazrat Navoiyning (1441-1501) "Nasoyim ul-muhabbat" asarlari berilgan. Asarning ikkinchi nomi: "Maqomot ul-avliyo" (Avliyo zotlar, ya'ni solih zotlarning fazilatlarini va karomotlarini). Mazkur asarda yetmish ikki, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra avliyolar

sonida farqlar mavjud. Masalan, "Forscha matn toshbosma nashrida 96 ism berilgan, asarning birinchi tahririda esa 69 ta avliyo ismi va faoliyati bayon etilgan"[1; 18-B]. Asarda har bir avliyo zotning hol va hayoti, faoliyati, turli mavzu va masalalarga oid fikr-mulohazalari, qarashlari va hikmatli so'zlari bayoni berilgan. "Tazkirat ul-avliyo"da shariat, tariqat, ma'rifat, tavakkul, rizo, sabr, tahammul, shukr, taqvo (parhezkorlik) kabi tasavvufiy istilohlar (iboralar)larga turli mutafakkir va mashoyixlarning fikrlari, qarashlari aynan keltirilgan.

"Tazkirat ul-avliyo"ning tazkirachilikdagi ahamiyati va xususiyatlaridan muhimi sifatida shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'plab mutafakkirlar unga ergashib, o'z asarlarini yaratish orqali bu an'anani davom ettirganlar. Mavlono Jomiyning "Nafahot ul-uns", Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlari buning yorqin misolidir. "Tazkirat ul-avliyo" fors tilida yozilgan bulib, keyinchalik usmonli turk tiliga, chig'atoy turkchasiga, uyg'ur tiliga va fransuz tiliga tarjima qilingan.

"Nasoyim ul-muhabbat"ning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borar ekan, avvalo shuni aytish kerakki, asarning o'ziga xos xususiyatini aniqlash uchun mavjud asarni boshqa bir shu tipdagi asar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Biz "Nasoyim ul-muhabbat"ni "Nafahot ul-uns" bilan qiyoslar ekanmiz, hazrat Navoiy tazkiraning kirish qismini tarjima qilmasdan o'zi yozganini ma'lum qiladi[5; 5-B]. "Nasoyim ul-muhabbat" muqaddima (hamd, na't va asar yozilish sababi, "Bu toifa muqaddima tamhidi", "Bu toifa a'mol-u af'oli va muomilat-u riyozotidin ba'zini zikr qilmoq"), 770 shayx zikrini o'z ichiga olgan asosiy qism va xotimadan iborat[3;130-133-B].

Hazrat Navoiy asarning yozilish sabablari haqida to'xtalar ekan, Jomiy va o'z tazkirasini o'rtasidagi farqlarni aytib o'tadi. Unga ko'ra:

- "Nafohatu-l-uns"da Fariddin Attorning "Tazkiratu-l-avliyo" asaridagi ba'zi avliyolar tushirib qoldirilgan, Navoiy esa ularni o'z tazkirasida zikr qilgan;

- Jomiyda hind va turk mashoyix (shayx)lariga keng o'rin ajratilmagan, lekin hazrat Navoiy mumkin qadar ularning barchasini o'z asarida aks ettiradi; Shuningdek, shoir "Nasoyim ul-muhabbat"da Abdurahmon Jomiy va uning zamondoshi bo'lgan valiy zotlar hayoti va faoliyatini ham yoritganini ma'lum qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mutafakkirlar ilmiy merosida tasavvufga oid (soʻfiylik) maʼlumotlar keng yoritilgan boʻlib, tazkirachilik (avliyolar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar) manbalari asosida, islom aqidasi koʻra, moʻjiza va karomat haqligi tadqiq qilinadi. Duolar ijobati, gʻayb sirlaridan ogoh boʻlish, inson koʻnglidagi oʻyni anglash, suv va taomsiz roʻza tutish, bir lahzada dunyoning u chetidan bu chetiga borib qolish kabi oddiy inson aqli uchun gʻayritabiiy boʻlgan holatlar avliyolarga xos boʻlib, ularni koʻp oshkor qilmaslik valiyning yuksak maqomini bildiradi.

Asarda avliyolarga doir maʼlumotlar turli hajmda boʻlib, baʼzilar haqida bir jumla bilan kifoyalanilsa, baʼzi shayxlar taʼrifiga keng oʻrin ajratiladi. Avliyolarning tarjimai holiday maʼlumotlar muayyan mezonlarga ega emas: ayrim shayxlarning yashagan yillari, joylari, kasbi korlari va hokazolalar bilan bogʻliq maʼlumotlar batafsilroq keltirilsa, baʼzilarining faqat karomat yoki oʻgitlaridan parcha beriladi.

“Nasoyim ul-muhabbat” tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagi toʻrt mazhab boshliqlari – imom Aʼzam, imom Molik, imom Shofeʼiy, imom Ahmad ibn Xanbalidan tortib Muhammad Gʻazzoliy, Bahouddin Valad, oʻgʻli Jaloliddin Rumi, Rumiyning oʻgʻli Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratli hikoyalarga duch kelamiz. Ushbu avliyolar haqidagi maʼlumotlar ilmiy asosga ega boʻlib, tasavvuf tarixini oʻrganishda alohida ahamiyat kasb etadi (Masalan, Jaloliddin Rumiya bolaligida Fariddin Attor oʻzining “Asrornoma” asarini hadya qilishi yoki Shamsiddin Tabriziy va Rumi uchrashuvi bilan bogʻliq maʼlumotlar).

Umuman olganda, hazrati Alisher Navoiyning avliyolar tarjimai holiga bagʻishlangan mazkur “Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyimu-l-futuvvat” asari shoirning yetuk mutasavvif olim sifatidagi faoliyatini koʻrsatuvchi muhim manbadir [6; 25-26-B].

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Navoiy “Nasoyimul muhabbat” “Nafahot ul-uns” tarjimai ekanligi, lekin oʻrni-oʻrnida qisqartirilgan va toʻldirilganini eʼtirof etadi. Aytish kerakki, asarda aynan tarjima qilingan va matnga erkin yondashib oʻgʻirilgan oʻrinlar bor.

Birgina Jaloliddin Rumi firqasi olinsa – aynan tarjima qilingan. Lekin ayrim qisqartmalar bor. Masalan, Mavlaviydin soʻrbdilar: Darvesh kay

gunoh koʻnad? Magar darvesh beishtaho xoʻradki, taomi beishtaho darveshro gunohi azim ast (Yaʼni, Darvesh qachon gunoh qiladi? Agar darvesh beishtaha ovqat yesa, beishtaha taom yemoq darvesh uchun gunohi azimdir) [2;362-B].

Rumiyning asʻhoblariga vasiyati qismida takror aytilgan shunchaki soʻzlar ham tushirib qoldirilgan. Ular Rumi siymosiga, uning qarashlariga putur yetkazmaydi, shu bois tushirib qoldirilgan. Chingizxon voqealarini Najmiddin Kubro firqasida Jomiy kofirlar deydi, Navoiy “totorlar” deb beradi [7;15-B].

Asarning xotima qismi xuddi “Fotiha” dek yakunlagan boʻlib, uni biz quyida koʻrishimiz mumkin boʻladi: “Ilohi, bu avliyoulloh asrorahumning sharif anfosi barakoti haqqi va bu kitob mutolaasigʻa mashgʻul boʻlgan azizlar dimogʻin mazkur boʻlgan abror muhabbati nasoyimidan muattar va bahramand qilgʻaysen va bu kitob mumorasotigʻa mashʻuf boʻlgʻon ahli tamayyuzlar koʻnglin mastur boʻlgʻon axyor futuvvat shamoyimidan munavvar va arjumand etgaysen. Va alarning tufayli roqimning ham tiyra roʻzgorigʻa safoye va hirmon zulmatidin qororgʻon koʻzlariga hidoyat quyoshidin ziyoye nasib qilgʻaysen. Va podshohi islomkim, iymon ahligʻa mujibi farogʻat-u amniyat va zamon xayligʻa boisi rafohiyat-u jamʻiyatdurki, bular boʻlmasa, bu navʻ nusxa tartib-u tasnifi va bu tavr kutub jamʻu taʼlifi mutaassir, balki muhol-u mutaazzirdur, sihat-u umr-u davlatini muxallad va insof-u adolatini muabbad tutqil va aʼdosini maqhur va ahibbosini mansur qilgʻil. Omin, yo Rabb al-olamin!” [2;51-B]. Tazkiraning yuqoridagi koʻtarinki ruhda tugallanishi haqiqatning abadiy gʻalabasi bilan bogʻliq desak adashmagan boʻlamiz.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xulosa qilib aytganda, Attor ham, Jomiy va Navoiy ham ijodkor, ayni paytda soʻfiy ijodkordir. Maʼlumki, mashhur rus sharqshunosi YE.E.Bertels “Navoiy va Attor” nomli maqolasida, toʻgʻri taʼkidlanganidek, Alisher Navoiyning “tarjimon shoir” emasligini isbotlagan edi [4; 20-B].

Aslida Atorning “Tazkirat ul-avliyo” asarining oʻzi, Navoiyning esa “Nasoyim ul-muhabbat” asarining oʻzi har ikki ijodkorning soʻfiy ekanligining, soʻfiy qalb egasi boʻlganining yorqin ifodasi desak, xato boʻlmaydi albatta. Zero, soʻfiylar haqida adabiy asar yozish soʻfiy ijodkorlar anʻanasidir. Soʻzimizning asosi sifatida Sulamiyning

“Tabaqat us-so‘fiya”, Isfahoniyning “Hilliyat ul-avliyo” kabi mashhur tasavvufiy asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Attor va Navoiy ham xuddi ana shunday so‘fiy ijodkorlardir. Zero, ular salaflar an’anasini davom ettirib, muvaffaqiyatga erisha oldi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Фаридуддин Аттор. “Тазкират ул-авлиё” Т., Фафур Фулом нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017. – В. 18.
2. Алишер Навоий. “Насойим ул-муҳаббат ” – Тошкент: Movarounnahr nashriyoti, 2017.
3. Akhatov, L. (2020). The problem of tolerance in oriental philosophy. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(7), 130-133.
4. Халлиева Г. XX аср рус шарқшунослигида ўзбек мумтоз адабиёти тадқиқи. Докторлик дисс... автореферати. – Т., 2016. – В.20.
5. Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига доир / Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.В.25-26.
6. Исламов Х.И. “Насойимул муҳаббат” Алишера Навои и его научно-критический текст: Дисс. на соискание канд филол. наук. – Т., 1990.С.57.
7. Habibullayev A. Tasavvuf falsafasi fanidan o‘quv uslubiy majmua. Т., 2012.-В.15.
8. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. –М., 1965.С.45.
9. Г.Кудратуллох кизи, Р.Ишмухамедов, М.Нормухаммедов. Анъанавий ва ноанъанавий таълим. – Самарқанд, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, 2019. – В. 80.
10. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Мазҳаблар – бирлик рамзи. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022. – В. 26.





## ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЖАМИЯТ ҲАЁТИДАГИ ЎРНИ (МАВЛОНО ЖОМИЙ АСАРЛАРИ АСОСИДА)

*Ахатов Лутфилло Караматиллоевич, Чирчиқ давлат  
педагогика университети*

## МЕСТО ФИЛОСОФСКО-МИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ОБЩЕСТВЕ (ПО ТРУДАМ МАВЛАНО ДЖАМИ)

*Ахатов Лутфилло Караматиллоевич, Чирчицкий  
государственный педагогический университет*

<https://orcid.org/0000-0002-9804-6220>

*e-mail: [l axatov@cspi.uz](mailto:axatov@cspi.uz)*

## PHILOSOPHICAL AND MYSTICAL VIEWS PLACE IN COMMUNITY LIFE (BASED ON MAVLANO JOMIY'S WORKS)

*Akhatov Lutfillo Karamatilloevich, Chirchik State Pedagogical  
University*

**Аннотация:** Фалсафий-ирфоний қарашлар моҳияти сўфийлар ҳаёти ва тасаввуфий қарашлар ёрдамида таҳлил қилинган. Тасаввуфнинг ривожланиши сўфийлар ахлоқи ва фалсафий мушоҳадалари иррационал ёндашуви асосида татбиқ қилинади.

**Калим сўзлар:** ахлоқ, тасаввуф (араб.: النَّصُوفُ), сўфий, илм, ислом, идрок, ирфон, фалсафа.

**Abstract:** The essence of philosophical and Irfan views was analyzed with the help of Sufi life and mystical views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics.

**Key words:** ethics, Taşawwuf (Arabic: النَّصُوفُ), Sufi, science, Islam, perception-mentally, Irfan, philosophy.

**Аннотация:** Сущность философско-просветительских взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических воззрений. Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики.

**Ключевые слова:** этика, суфизм (араб.: النَّصُوفُ), суфий, наука, ислам, восприятие-мысленно, ирфан, философия.

**КИРИШ.** Фалсафий-ирфоний қарашларнинг муҳим аспекти бўлиб хизмат қилувчи, тасаввуф-сўфийликнинг ўзига хослиги, маълум маънода, шахснинг юсак ахлоқ эгаси бўлишга ва комилликка хос сифатлар билан безанишига ундовчи “дастур” сифатида қаралади.

Шунинг учун “Сўфизм ўрта асрлар жамоасида махсус ижтимоий-мафкуравий ва онтологик хусусиятга эга бўлган ўзигагина хос назарий тизим бўлгани учун, кейинги ўн

йилликларда шарқшунос, исломшунос, файласуф, адабиётшунос ва тарихчиларнинг диққат марказига кўчди ва салмоқли илмий изланишларга чорламоқда” [2; 7-Б] деб эътироф қилинган.

**ТАҲЛИЛ ВА МЕТОДЛАР.** Маълумки, Нуриддин Абдурахмон Жомийнинг фалсафий-ирфоний қарашлари – нақшбандия-тасаввуфга оид асарлари орқали кўплаб маълумотлар берилган. “Мавлоно Жомийнинг яна бир қатор тасаввуфий-ирфоний асарлари ҳам борки,

уларни ўрганмасдан туриб, нақшбандия тарикатининг фалсафий-ирфоний ва илмий-назарий асослари ва умуман, тасаввуф фалсафасининг 700 йиллик (2008 йилги маълумот) тажрибаларини ўрганиш ва бу ҳақда мукамал тасаввурга эга бўлиш мушкул” саналади[6;293-296].

Биз Абдурахмон Жомий илмий меросида талқин этилган нақшбандия-тасаввуфга оид маълумотларнинг агиографик жиҳатларини ҳам ҳисобга олишимиз лозим[5-8;1-4].

Ирфон илми Шарқ минтақаси мусулмон халқларининг маънавий ҳаёти тарихида муҳим позиция эгаллаб келмоқда. Шунинг учун ирфон илми ўрта асрларда минтақа-жамиятда асосий-махсус мафкуравий-ижтимоий, гносеологик статусдаги таълимот сифатида ўзига хос нақлий-назарий йўналиш сифатида сўнгги ўн йилликларда исломшунослар, файласуфлар, адабиётшунослар, шарқшунослар, маданиятшунослар ва тарихчилар ўртасида юксак илмий қизиқишни шакллантириб келмоқда.

#### **НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА.**

Фалсафий-ирфоний қарашлар орқали мутасаввуфлар орасидан ўзларидан форс, араб, турк ва бирқанча тилларда кўплаб фалсафий, бадиий, метафизик-илоҳиётга оид асарлар бунёд этган аллома шоир ва ёзувчилар, донишманд-мутафаккирлар етишиб чиққанлигини кўрамиз. Фалсафий-ирфоний қарашларнинг субстанционал аҳамияти ўлароқ, тасаввуф Яқин ва Ўрта Шарқ минтақа халқлари маданиятида энг кўп шаклланган ва тарқалган ҳаракат-оқимлардан бири саналади. Ислом олами халқларининг фалсафий-ирфоний фикрини ўрганишда сўфизм-тасаввуф тўғрисидаги илм долзарб аҳамиятга моликдир. Тасаввуфни ўрганишда шубҳасиз Абдурахмон Жомийни аввало биз шоир сифатида, сўнгра эса ҳикмат илмининг “пири” деб кўришимиз керак. Мавлоно Жомий ёзган маънавий-илмий меросларнинг илк тадқиқотчи ва мунаққидлари сифатида Навоий ва Лорий (Абдулғафур Лорий)дан бошлаб, бугунги кун жомийшунос тадқиқотчи-олимларгача ушбу масалага кўпинча рўйхатлаш ва тавсифлаш йўли билан кириб бориб, аниқ бир дастур-тизимга жамлашни унчалик муҳим ҳисобламай кўйганлар.

Жомийнинг “Шавоҳид ун-нубувват” номли асарларида “Пайғамбар (Муҳаммад) саллаллоҳу алайҳи васалламнинг Маккадан Мадинага ҳижрат қилган вақт (йил Л.Ахатов) ўн тўртинчи сана (йил) кечасида Пайғамбар (Муҳаммад) саллаллоҳу алайҳи васаллам уйлари (эшиклари) атрофида Қурайш кофирлари у кишини (Пайғамбар Муҳаммад саллаллоҳу алайҳи васалламни) ўлдириш учун шайланган эди. Шу кечада хуфтон маҳалда, қавм (Қурайш кофирлари) эшик олдида келдилар ва уйкуга ухлашларини кутиб турардилар. Шу кечада Ё сийн (يسن) сураси илк (аввал) қисми нозил бўлди.

Расул, саллаллоҳу алайҳи ва саллам, муште хок гирифт ва берун омад ва ояти хондан...  
وجعلنا من بين ايديهم سددن و من خلفهم سدد [7; 1-4].

Яъни: Дар пеши рўи онон ва пушти сари онон пардае қарор додем ва (Ё син сурасининг ояти) таржима – Уларнинг (кўз) олдиларига ва орқа (бошлари) томон(и)да парда (билан) тўсдик (Ёсин сурасининг ояти) маъносида...

Таржима: Шунда, Пайғамбар Муҳаммад саллаллоҳу алайҳи васаллам бир ҳовуч хок-тупроқ (чанг) олиб (Қуръондаги сура (يسن) дан) ушбу оятни ўқидилар...  
وجعلنا من بين ايديهم سددن و من خلفهم سدد

...Муҳаммадро надидед ва он чи бо шумо кард низ. Ҳама бархостанд ва хок аз сару рўй меафшонданд.

Таржима: Муҳаммад саллаллоҳу алайҳи васалламни кўрмадилар. Ҳаммалари туриб, уст-бошларини (турпоқ-чангдан) тозаладилар.

Жомий ўз асарларида келтирилган маълумотларни (фалсафий-ирфоний қарашларни) Исломдаги (Қуръондаги) аниқ далилларга таяниб, маълумотларни компаративистик тадқиқ қилган. Шунингдек, Савр – Маккадаги Масжид ал-ҳарамнинг жанубий томонидан тахминан 6 (олти) километрда жойлашган ушбу тоғ (ғор)да ҳижрат вақтида Пайғамбар (Муҳаммад) саллаллоҳу алайҳи васалламнинг Абубакр Сиддик билан уч кеча (яъни 622 йил 13 дан 15 сентябргача) бўлганлари эътироф этилади[6;293-296]. Таржима: Ва ушбу жумлада шундай сўз (гап) борки, ушбу кеча Пайғамбар Муҳаммад саллаллоҳу алайҳи васаллам Абубакр Сиддик билан Савр ғорига етиб келдилар. Абубакр (Сиддик) айтди(лар): Ё Расулаллоҳ (саллаллоҳу

алайҳи васаллам) олдин ман кирай, сизга газанда (зарар берувчи)дан зиён етмасин учун...

**ХУЛОСА.** Жомий “Ваҳдат ул-вужуд” назарияси асосида ҳам ижод қилган, деган фикр мавжуд.

*Ҳасрати ки ҳақиқати Ҳақ омад, ал-ҳақ  
Не онки бувад ба Ҳақ музофу мулҳақ.  
Қавме ба таъайюнаш муқайяд доранд,  
Қавми дигар аз қайди таъайюн мутлақ*  
[8;100-Б].

Мазмуни: Борлиқ Ҳаққа қўшилган нарса эмас, балки унинг ҳақиқатидир.

Баъзилар уни “таъайюн”га боғлиқ деб билдилар, баъзилар эса “таъайюн”га ҳеч қандай дахли йўқ, деб тушунадилар.

Ҳикмат шуки, фалсафий-ирфоний қарашлар моҳияти бу – тафаккур тараққиётининг илмий-гносеологик таҳлилининг ядросидир.

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент. Шарк, 2012. – Б. 135.
2. Пўлатов Ҳ., Маматов М. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2011. – Б. 7.
3. Жомий. Нафаҳот ул-унс мин ҳазарот ал-кудс. – Т.: 1913. – Б. 27.

4. از حکمت های امیر خسرو دهلوی ترتیب دهنده و مترجم شاه اسلام شاه محمداف تاشکند اداره نشریات یاش گوار دیا – 1973 سهیغه

5. Агиография – грек: hakis – муқаддас ва graphe – ёзмоқ, ёзаман, деган маъноларни ифодалайди. Бу термин (ибора) теологик асарлардан маълум шахс, зотни улуғлаш ҳамда бошқаларга ўхшамаган маънавий қиёфасини ёритиш учун ишлатилади.

6. Akhatov Lutfillo Karamatilloevich. Tolerance and Islamic mysticism in the works of Jami. Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer ISS NR eNvoie: wed Journal VOLUME 6, ISSUE 5 2, 5M8a1y – 24203200. Pp 293-296.

7. Akhatov Lutfillo, Madalimov, Timur and Haytmetov Raimberdi. The Spiritual Connection of Sufism and Tolerance in the Works of Jami, International Journal of Multidisciplinary Research and Publications (IJMRAP), Volume 2, Issue 11, pp. 1-4, 2020.

8. Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 100; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти Кўлёмалар хазинаси, PN 1331 рақамли кўлёмза. – Б.598.

